@tarixchi_kutubxonasiga

# O‘ZBEKISTON TARIXI

# III

@tarixchi_kutubxonasiga

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZFA TARIX INSTITUTI, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI,
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI

# O‘ZBEKISTON TARIXI

Xrestomatiya

III jild
V–XI asrlar

(O‘zbekiston tarixi va manbalari)

TOSHKENT
«O‘ZBEKISTON»
2023

@tarixchi_kutubxonasiga

UO'K 94(575.1)"V/XI"
KBK 63.3(5O')"V/XI"
O' 17

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ilmiy kengashining 2023-yil 26-iyundagi № 4-sonli majlisi bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan*

**Tahrir hay'ati:**

*Ahmadali Asqarov* – hay'at raisi, tarix fanlari doktori, akademik,
*Azamat Ziyo, Bahrom Abduhalimov, Anatoliy Sagdullayev, Akbar Hakimov, Gulchehra A'zamova, Ashraf Ahmedov, G'aybulla Boboyorov, Dono Ziyoyeva, Muhayyo Isoqova, Farhod Maqsudov, Shokir Pidayev, Qahramon Rajabov, Rustam Sulaymonov, Sherzod Abdullayev, Dilorom Yusupova, Halim To'rayev*

**Mas'ul muharrirlar:**
**A. Ahmedov, O. Bo'riyev**

**Taqrizchilar:**
**G'. Boboyorov, A. Otaxo'jayev**

«O'zbekiston tarixi»ning III jildiga O'zbekistonning V–XI asrlar tarixiga oid yozma manbalarda qayd etilgan ma'lumotlar kiritilgan. V–XI asrlar Markaziy Osiyoda siyosiy va etnik jarayonlar faollashgan bir davr bo'lib, tarixiy voqealar nafaqat mahalliy, balki qo'shni mamlakatlarning olimlari e'tiboridan ham chetda qolmagan. Ayni paytda ushbu yuz yilliklar islomdan oldingi mahalliy xalqlarning tillarida (sug'd, xorazmiy, baqtriy (baxtariy), qadimgi turk) yozilgan ma'lumotlarning yetib kelgani bilan ham muhimdir. Shu sababli jamlanmaning ushbu jildidagi yozma manbalar geografik qamrovi, til va mafkuraviy jihatdan xilmaxilligi bilan ajralib turadi. Jumladan, kitobda vizantiyalik, arman, xitoy mualliflari asarlari, qadimgi turk bitiktoshlaridan o'rin olgan materiallar, shuningdek, islomdan oldingi davr mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va maishiy turmush tarzi haqidagi tasavvurlarni kengaytirish maqsadida baqtriy (baxtariy), sug'diy, turkiy va uyg'ur tillarida bitilgan hujjatlar matnlari ham taqdim etildi. Mintaqaga islomning kirib kelishi va mahalliy musulmon sulolalar haqida esa Muhammad Jarir at-Tabariy, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Ibn Xurdodbeh, Al-Balazuriy, Al-Ya'qubiy, Ibn al-Faqih, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abulfazl Bayhaqiy asarlaridan lavhalar berilgan. Mazkur manbalardan namunalarning aksariyati o'zbek tilida ilk bor chop etilmoqda.

Kitob tarixchi olimlar, professor o'qituvchilar, talabalar hamda mamlakatimiz tarixiga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-8054-1-5

© «O'zbekiston» NMIU, 2023

@tarixchi_kutubxonasiga

*O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur.*

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

## SO'ZBOSHI

«O'zbekiston tarixi»ning uchinchi jildida o'rta asrlarga taalluqli manbalardan lavhalar berilgan.

Uchinchi jildda vizantiyalik mualliflardan Prokopiy Kesariyalikning «Gotlar bilan urush», Feofilakt Simokattaning «Tarix», Feofan Tavbakorning «Xronografiya» va Patriarx Nikiforning «Breviariy» asarlaridan parchalar keltirilgan.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston va unga tutash hududlarda yuz bergan muhim voqealardan biri eng avvalo Turk xoqonligining yuzaga kelishi edi. Bu xoqonlikka 551-yili Markaziy Osiyoning sharqida Buminxonning faoliyati natijasida asos solindi va bu davlat tarixga Turk xoqonligi nomi bilan kirdi. Hozirgi O'zbekiston hududi ham uning tarkibida bo'lgan. Xoqonlik tarixiga oid ayrim ma'lumotlar fanda runik yozuv deb nom olgan yozuvlarda xoqonlikning turli yerlarida qoyatoshlarda va yozuvga mos bo'lgan boshqa materiallarda bitib qoldirilgan. U yozuvlar fanga «Yenisey bitiklari», «To'nyuquq bitigi», «Bilga xoqon bitigi», «Kultegin bitigi», «O'ngin bitigi» va hokazo nomlar bilan kirib qolgan. Uchinchi jildda ushbu bitiklardan namunalar, shuningdek, uyg'ur yozuvida bitilgan asarlar va rasmiy hujjatlarda aks etgan ma'lumotlar berildi.

Turk xoqonligi tarkibiga kirgan Xorazm, Sug'd, Shosh, Farg'ona va O'zbekistonning xoqonlik davridagi boshqa qismlari tarixi bo'yicha xitoy manbalari ham ahamiyatli hisoblanadi. Xrestomatiyaning uchinchi jildida Xitoy saroy tarixchilaridan Vey Shou (506–572) yozgan «Veyshu» («Vey sulolasi tarixi»), Tang davlatining dastlabki yillarida (629–656) Yan Shigu, Kun Inda, Syuy Jinzung kabi bir guruh saroy tarixchilari tomonidan bitilgan «Suyshu»(«Suy sulolasi tarixi») – Suy davlati (581–618) tarixiga bag'ishlangan asar, Tang sulolasining dastlabki davrida, ya'ni VII asrning birinchi yarmida yozilgan «Bey-shi» («Shimoliy sulolalar tarixi», 630-y., 941–945-yillarda Tang sulolasi saroyida Lyu Xu rahbarligidagi tarixchilar guruhi yozgan «Tan-shu» («Tan sulolasi tarixi»)dan O'zbekiston va unga yondosh hududlar haqida ma'lumotlarni o'zida aks etgan tarjima-lavhalar o'rin olgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ushbu uchinchi jildda baqtriy tilli hujjatlardan ham ayrim lavhalar tarjima qilib kitobxonlarga taqdim etilmoqda. Ular ilk o'rta asrlarga taalluqli bo'lib, Eftalitlar, Turk xoqonligi va Arab hokimiyati davrlari bo'yicha ijtimoiy-siyosiy hayotga doir holatni o'zida aks ettiradi.

Miloddan avvalgi III–II asrlarda shakllangan sug'diy yozuv orqali X–XI asrlarga qadar yozilgan ko'plab noyob yodgorliklar bizgacha yetib kelgan. Avvalgi jilddan o'rin olgan sug'diy tildagi manbalar – Mug' tog'i hujjatlarida Choch, Farg'ona, Ustrushona, Xo'jand, Panch (Panjikent), Samarqand kabi voha hukmdorliklariga aloqador voqeliklar, ularning arab istilosiga qarshi harakatlari haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan.

Xrestomatiyaning III jildida O'zbekiston tarixiga bilvosita aloqador sanalgan arman manbalaridan ham lavhalar kiritildi. Arman mualliflaridan Gevond (VIII a.), Tovma Arsruni (IX–X a.), Ioannes Drasxanakertsi (IX–X a.), Movses Kagankatvatsi (X a.), Stepanos Taronetsi (X–XI a.), Aristakes Lastivertsi (XI a.), Vardan Arevelsi (Buyuk Vardan) (XIII a.), Smbat Sparapet (XIII a.), Stepanos Orbelyan (XIII–XIV a.), Xachatur Jugayetsi (XVIII a.) asarlaridan Sosoniylar, Arab xalifaligi va Saljuqiylar davrlari tarixidan hikoya qiluvchi parchalar keltirilgan.

Uchinchi jilddagi tarjimalarning bir qismi arablarning O'rta Osiyoga yurishlari, Movarounnahrning Arab xalifaligi tarkibiga kiritilganligi, mustaqil Somoniylar davlatining tashkil topgani, O'zbekiston hududining ma'lum davrlar Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar davlatlari, Xorazmning Xorazmshohlar – Afrig'iylar (305–995), Ma'muniylar (995–1017), Oltintosh (1017–1034) davrlari tarixi aks etgan arab tilida yozilgan manbalardan olingan parchalardan iborat. Ularda Muhammad Jarir at-Tabariy, Muso al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Xurdodbeh, Al-Balazuriy, Al-Ya'qubiy, Ibn al-Faqih, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy asarlaridan lavhalar berilgan.

Chunonchi, «Tarix ar-rusul va-l-muluk» asaridan Arab xalifaligida, xususan, O'rta Osiyoda sodir bo'lgan 54/673–74–191/806–807-yillar oralig'idagi voqealar» tavsiflangan parchalar olingan va undagi voqealar xronologik ketma-ketlikda ifodalangan. Ular xalifa Muoviyaning Xuroson noibi etib Ubaydulloh ibn Ziyodni tayinlashi bilan boshlanib, Samarqandda 191/806–807-yillarda bo'lgan Rofe' ibn Lays qo'zg'oloni voqealari bilan yakunlanadi.

Ibn Xurdodbehning «Kitob al-masolik va-l-mamolik» asaridan har bir mamlakat qiblasi, podshohlarning unvonlari, Mashriq yerlari, shaharlari, ular orasidagi masofalar va ularning aholisi, Xuroson va boshqa o'lkalardan yig'iladigan xiroj miqdori, Xuroson va Mashriq hokimlarining laqablari, Mashriqning xat-aloqa yo'llari, Ya'juj va Ma'juj devorining tavsifi, turli mamlakatlarda tabiat mo''jizalari haqida parchalar keltirilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Al-Balazuriyning «Futuh al-buldon» asaridan olingan parchada Arab xalifaligining Xurosonni zabt etishi va o'z noiblarini tayinlashlari haqida tarixlar berilgan; Al-Balazuriy o'z asarida Movarounnahrni Xuroson o'lkasi tarkibiga kiritgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asaridan olingan parchalarda Eron podshohlari va ularning laqablari, xalifalar, islom ahli maliklari, ularning sifatlari, Yaman maliklari va ularning laqablari, johiliya davridagi Yaman maliklari, Rum imperatorlari xususida so'z yuritiladi va Fors davlati, Arab xalifaligi, johiliya davridagi arablar va Rum tarixi bilan bog'liq tarixiy so'zlarning izohli lug'ati berilgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridan olingan parchada Sug'd va Xorazm xalqlarining hukmdorlari, dinlari, tili, yozuvi, taqvimlari, bayramlari va urf-odatlari to'g'risida ma'lumotlar qayd etilgan. «Qonuni Mas'udiy» asaridan parcha asarning 5-kitobidan olingan bo'lib, unda O'zbekiston hududi va unga yondosh shaharlarining qaysi iqlimda, qanday geografik kenglik va uzunlikda joylashgani, qaysi viloyat tarkibiga kirishi bayon qilingan va h.k.

Fors tilida yozilgan manbalardan mazkur jildga Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarlaridan berilgan parchalarda ko'proq Buxoro shahri va viloyati tarixi, arablarning O'rta Osiyoga yurishlari, bo'lib o'tgan jang-jadallar, Somoniylar davlatining tashkil topishi, uni boshqargan podshohlar, mazkur davlatning siyosiy tarixiga oid ba'zi kechinmalar haqida yozilganlar kiritilgan.

Bayhaqiyning «Tarixi Mas'udiy» asaridan berilgan parchalarda G'aznaviylar davlatining ijtimoiy-siyosiy tarixi, shuningdek, Xorazm va Movarounnahrda kechgan tarixiy jarayonlar, jumladan, Mahmud G'aznaviyning qoraxoniylarga elchi jo'natgani, g'aznaviylar hukmdori amir Mas'ud bilan Bug'roxon o'rtasida paydo bo'lgan ixtilof va uning bartaraf qilinishi hamda Xorazm viloyati tarixi, Xorazmshoh Abulabbos Ma'mun ibn Ma'mun hayoti to'g'risida hikoya qilinadi.

Uchinchi jildning oxirida adabiyotlar ro'yxati kirill va lotin yozuvida alifbo tartibida berilgan hamda kitobxonlar foydalanishi uchun qulaylik tug'dirish maqsadida ismlar, joy nomlari va etnik atamalar ko'rsatkichlari ilova qilingan.

Ushbu jildning elektron variantini tayyorlash, uni nazardan o'tkazishda zarur topilgan tuzatishlar kiritish, yangi qo'shilgan materiallarni tahrir qilish, adabiyotlar ro'yxati va ko'rsatkichlarni tuzish ishlari O'zR FA Sharqshunoslik instituti xodimi O. Bo'riyev (grant rahbari) va Temuriylar tarixi davlat muzeyi xodimi Aziz Sharipovlar tomonidan belgilangan davlat granti doirasida amalga oshirildi.

**A. Ahmedov, O. Bo'riyev**

@tarixchi_kutubxonasiga

## VIZANTIYA MANBALARI

395-yili Kichik Osiyoda Marmara dengizidan janubroqdagi Nikeya (hozirgi Iznik) shahrida chaqirilgan umumnasroniy soborida Rim imperiyasining ikkiga bo'linganligi tan olinadi va imperator Feodosiy I ning (379–395) o'g'illaridan kattasi Arkadiy poytaxti Konstantinopol (sobiq Vizantiya) bo'lgan Sharqiy Rim imperiyasining imperatori etib saylanadi.

Haqiqatan ham, III–IV asrlarda Vizantiyaning shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarida avvaliga hunnlar, so'ng IV–VI asrlarda avarlar, VI–VII asrlarda turklar, VII–X asrlarda xazarlar, o'g'uzlar, bajanoglar (pecheneglar) paydo bo'ldilar. XI–XII asrlarda saljuq turklari, XIII–XV asrlarda usmonli turklari avvaliga Vizantiyaning Kichik Osiyodagi yerlarini, so'ng asta-sekin Yevropadagi yerlarini istilo qilib, imperiyaning o'zini ham tugatdilar.

Ana shu o'tgan bir ming bir yuz yildan ortiq vaqt ichida imperiya bir necha marta yuksalib, ko'tarilish va gullash, so'ng mavqeyi pasayib, inqirozga uchrash davrlarini boshidan kechirdi. Shu uzoq yuzyilliklardagi voqea va hodisalarning hammasi voqeanavislar, xronograflar va tarixchilar asarlarida aks ettirildi. Bu mualliflarning ba'zilari (Feofilakt Simokatta (VI–VII), Feofan (VIII–IX), Nikifor (VIII–IX)) nafaqat Vizantiyaning hududi va atroflaridagi, balki undan ancha uzoqdagi Markaziy Osiyo xalqlarining ahvolidan ham u yoki bu darajada xabardor bo'lganlar.

Vizantiya-yunon mualliflari aksariyat hollarda Sharq xalqlari va qabilalari tarkibini bilmaganlar va ko'pincha bu xalqlarga nisbatan qadimgi iboralardan foydalanib, «massagetlar», «skiflar», «forslar» degan nomlarni qo'llaganlar, vaholanki, gap u yoki bu turkiy qabilalar haqida ketayapti. Shunday hollarda masalani yoritish uchun hozirgi xrestomatiyada berilgan tarjima matnlariga tegishli izohlar kiritiladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Prokopiy Kesariyalik va uning «Gotlar bilan urush» asari

Prokopiy Kesariyalik VI asrdagi vizantiyalik tarixchilarning eng mashhuridir. Prokopiy Vizantiya imperatori Yustinian I ning zamondoshi, imperiya ma'muriyatida katta lavozimlarda ishlagan yirik siyosiy arbob ham edi.

Prokopiyning hayoti haqidagi ma'lumotlar, u zamondoshlari orasida ancha taniqli bo'lganligiga qaramay, juda kam va uzuq-yuluqdir, ular ko'proq muallifning o'z asarlaridan olingan. Prokopiy V asr oxirida Falastindagi Kesariya shahrida tug'ilgan. U juda keng va chuqur bilim olganiga qaraganda, ota-onasi badavlat bo'lgan ko'rinadi. 527-yili u Vizantiya lashkarboshisi Velizariyning maslahatchisi va kotibi etib tayinlanadi. Bu mansab tufayli Prokopiy siyosiy voqealarning, saroy fitnalari, o'sha davr murakkab siyosiy o'yinlarining eng qaynagan joyiga tushib qoladi, bu esa keyincha uning tarixiy asarlarida o'z aksini topdi[1]. 550-yili u «Yustinian urushlari tarixi»ning oldingi yetti kitobini yozib tugatdi va o'sha yili mashhur «Maxfiy tarix» asarini yozdi.

554-yili u «Yustinian urushlari tarixi»ning oxirgi – sakkizinchi kitobini yozib tugatdi va 560-yili «Qurilishlar haqida» nomli risolasini yozdi.

Prokopiyning «Gotlar bilan urush» yoki «Gotlar bilan urushlar tarixi» asari uning sakkiz kitobdan iborat katta tarixiy asari – «Yustiniannng forslar, vandallar va gotlar bilan urushlari»ning keyingi to'rt kitobini tashkil qiladi. Asarda 534-yildan 554-yilgacha voqealar yoritiladi. Asarning mazkur qismi asosan Yustiniannng Italiyadagi urushlarini tavsiflashga bag'ishlangan bo'lsa ham, unda asli kelib chiqishi markaziy osiyolik bo'lgan hunn, massaget, qutrig'ur, utrig'ur kabi turkiy qabilalarining hayoti haqida ham xabarlar keltirilgan. Quyida asarning 1950-yili nashr etilgan ruscha tarjimasidan[2] olingan parchalarning o'zbekcha tarjimasi keltiriladi (tarjimon A.Ahmedov). Parchalarning boshida keltirilgan raqamlar kitob boblarini anglatadi.

**A.Ahmedov**

[1] Rgosorius Saesariensis Orega omni, ges. F. Nengu. Lips., 1905–1906. De Bello vandaliso, V. I-II. Russk. per. S.Destunisa. SPb., 1891, kn. 1, 8-9.

[2] Прокопий из Кесарии. Война с готами. Перев. с греч. С.П. Кондратьева. Вступ. статья З.В. Удальцовой. – М.: – 1950.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Prokopiy Kesariyalik. «Gotlar bilan urush»dan

**Beshinchi kitob.** 16. Velizariy Rimning butun atrofini, to Tibr daryosigacha mustahkamladi. Hamma narsani tartibga keltirganidan so'ng u qalqondorlar va nayzadorlar, ular orasida massagetlar Zanter, Xorsoman va Esxman[1] va boshqa askarlarni Konstantinga berdi va borib Etruriyani bo'ysundirishni buyurdi.

**Oltinchi kitob.** 1. ... Bir gal Bess[2] birinchi hujumdayoq qo'lidagi nayza bilan dushman safiga yorib kirib, gotlarning ko'zga ko'ringan otliqlaridan uchtasini o'ldirdi, qolganlarini esa quvib, qochirdi. O'z galida Konstantin ham shom paytida hunnlarni Neron maydoniga olib chiqdi va dushmanlarning soni ulardan ancha ko'pligini ko'rib, shunday qildi... Konstantin gotlarning bunchalik ko'p to'dasini yengolmasligini va katta xavfga uchramay chekinolmasligini ko'rganidan keyin barcha hunnlarga otdan tushishni buyurib, o'zi ham piyoda bo'lib, ular bilan birga shaharning tor ko'chalaridan birida turdi. Shu yerda o'zi uchun xavfsiz bo'lgan joyda turib, o'q uzib, dushmanlarni o'ldira boshladi. O'q otayotgan gotlar biroz kutdilar: ular o'ylagan edilarki, hunnlarning o'qdonlarida o'qlari tugagach, hech qanday qiyinchiliksiz ularni o'rab, bog'lab, o'z o'rdulariga olib ketadilar. Massagetlar[3] mohir o'qchi bo'lganliklari uchun o'qlarni dushmanning katta to'dalariga otib, deyarli har gal bir odamga tegizardilar. Gotlar odamlarining deyarli yarmi o'ldirilganligini ko'rib, nima qilishlarini bilmay, kunbotar paytda qocha boshladilar.

Massagetlar ularni ta'qib qilayotib, ot chopayotganida ham yoydan o'qni aniq ota olganliklari uchun, qochayotgan dushmanlarning kuragini o'qqa tutdilar. Shunday qilib, Konstantin Rimga kechasi qaytib keldi. [Bundan so'ng Velizariyning massaget bo'lgan shaxsiy soqchisi Xorsamanning qahramonligi va qahramonona o'limi tavsiflanadi].

2. ... Bundan biroz so'ng Velizariy Martin va Valerlarni odamlari bilan birga Neron maydoniga dushman askarlarini bir cho'chitish maqsadida yubordi. Kichkina Pisian darvozasidan varvarlarning istehkomli darvozasiga olti yuz otliqni yubordi. Ularga boshliq qilib, fors Artashirni, massaget Boxani va frakiyalik Kutilani tayinladi...

---

[1] Massagetlar Zanter, Xorsoman, Esxmanning otlari Iskandarga zamondosh Xorazmshoh Farasmanning ismiga o'xshashligi ular ham xorazmliklar bo'lgan, degan fikrga olib keladi.

[2] Bess kelib chiqishi bo'yicha Osiyo «varvarlaridan» bo'lgan.

[3] Muallif shu yerda hunnlarni endi massagetlar deyapti.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Feofilakt Simokatta (VII asr) va uning «Tarix» asari

Arab istilolari arafasida Vizantiya va u bilan muloqotda bo'lgan xalqlar hamda mamlakatlar tarixiga bag'ishlangan manbalar orasida Feofilakt Simokattaning «Tarix» (Historiael) asari eng yuqori o'rinlardan birida turadi.

Feofilaktning ushbu asari undan avval o'tgan Menandr Protektor (VI asr) asarining davomi bo'lib, 582–602-yillar voqealarini o'z ichiga oladi. Asarning bosh mavzusi urushlar, ya'ni Vizantiyaning Markaziy Osiyodan kelgan avar turklari va forslar hamda qisman slavyanlar bilan olib borgan urushlari tarixidir.

Asar maqola tarzidagi sakkiz kitobdan iborat bo'lib, VII kitobning 6–9-boblari bevosita qadimgi turklar bilan bog'liq. Asarning yozilish vaqti 628–638-yillar oralig'i ekanligi aniqlangan. Oxirgi to'la ruscha tarjimasi 1957-yili nashr etilgan (Феофилакт Симокатта. История. Вступ. статья Н.В. Пигулевской, перевод С.П. Кондратьева. Примеч. К.А. Осиповой. М., 1957.). Markaziy Osiyo tarixiga doir parchalar ana shu nashrdan olib o'girildi (tarjimon A.Ahmedov).

**A.Ahmedov**

## Feofilakt Simokatta. «Tarix»dan

**Birinchi kitob.** III. 1. Endi men tarixiy hikoyamni va varvarlar bilan jangning tavsifini boshlashimdan oldin, avvalo avarlar[1] bilan jangni va buning natijasida ko'tarilgan g'avg'oni eslayman, chunki u harbiy ishlarning orasida eng diqqatga sazovori va hodisalar orasida eng avvalgisi edi. 2. Haqiqatan ham ular o'zlarining yoshlardek o'jarligidan ko'p narsalarga jur'at etdilar. Ular kelib chiqishi bo'yicha hunnlar[2] edi, Istr[3] bo'yida yashardilar.

VIII. 1. Kuz kelishi bilan varvarlar, harbiy ittifoq bilan hisoblashmay, yana sulhni buza boshladilar. 2. Men o'zimning bayonimdan toymayman va buning sababi haqida aytaman. Laqabi Bokolabra bo'lgan bir skif bor

[1] Avarlarning asl vatani hozirgi Xitoyning shimoli, hozir mo'g'ullar yashaydigan yerlar bo'lgan; xitoylar ularni juan-juan (yoki jujan) der edilar. VI asr boshiga kelib, avarlar Kaspiy dengizidan sharqdagi, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimidagi yerlarni egallaydilar. VI asr o'rtasida ularni turklar bo'ysundirganidan so'ng ularning bir qismi g'arbga, Kavkazoldi yerlarga qochadi, u yerda ular Vizantiya bilan muloqotga kiradi. Menandr avarlarga nisbatan «varhonit» (Uarhonitai) so'zini ham ishlatadi.

[2] *Yunoncha matnda* – hounni, lekin ruscha tarjimada bu so'z «gunni» deyilgan. Qadimgi eraning so'nggi asrlarida yoki milodning ilk asrlarida (III–IV asrlar) Markaziy Osiyodan turkiy qabilalar va elatlar g'arbga hunnlar to'lqini bilan ko'chgan.

[3] *Istr* – hozirgi Dunay.

@tarixchi_kutubxonasiga

edi, (agar kimdir bu laqabning ma'nosini aniq bilmoqchi bo'lsa, hozir men bu nomni yunonchaga tarjima qilib, tavsiflab beraman.

3. Skifcha so'zni ellinlar tiliga ko'chirsak, biz bunday ma'noni olamiz: mug', ya'ni din arbobi demakdir). Ana shu odam shunday bir noma'qul ish qildiki, bu tezda katta xavf tug'dirishi kerak edi. 4. U xoqonning xotinlaridan biri bilan ishqiy munosabatda bo'lib, noto'g'ri xatti-harakatlari sababli o'zini o'lim xavfiga duchor qildi. Mana endi, u o'zining jinoyati ochilib qolishidan qo'rqib va dalillar aniq hamda ravshanligidan dahshatli azoblarga duchor bo'lmaslik uchun avarlarga qaram bo'lgan gepidlardan[1] yetti kishi bilan til biriktirib, ular bilan birga o'z qabilasi turgan joyga qochdi. 5. Bular sharqda forslarga qo'shni bo'lib yashaydigan hunnlar edi, ularni ko'pchilik turklar deyishga o'rganib qolgan[2]. 6. Mana endi u Istrdan kechib o'tgan lividinlar[3] shahriga qarab ketayotganida, Istrni qo'riqlashga yuborilgan rum boshliqlari tomonidan tutildi.

**Yettinchi kitob.** VII. 6. Hamonki, men Kavkaz yaqinida yashaydigan va shimolgacha tarqalgan skiflar[4] to'g'risida aytishim lozim bo'lgan ekan, bu buyuk xalqlarning hayotida ushbu vaqtda[5] sodir bo'lgan hodisalar haqida eslatishni lozim deb bilaman va bularni men o'zimning tariximga qo'shimcha hikoya tarzida kiritaman. 7. Shu yilning yozi kelganida, sharqda turklar ehtirom bilan kagan (xoqon) deydigan kishi imperator Mavrikiyga elchilarini yubordi, ular bilan birga maktub ham yuborib, unda ulkan maqtovlar bilan o'zining barcha g'alabalarini tavsiflagan edi[6]. 8. Bu maktubning boshlanishi so'zma-so'z mana bunday edi: «Rumlarning podshohiga xoqon,

[1] *Gepidlar* – sharqiy german qabilasi, gotlarning bir urug'i.

[2] Albatta, bu yerda VI asr oxiridagi O'rta Osiyo turklari haqida so'z ketayotir. Dunayning quyilish joyidan janubdagi Skifiya deb atalgan o'lkaning aholisi ham VI–VII asrlarda shu turklar bo'lgan.

[3] Simokatta Don va Dunay orasida yashagan hunn qabilalarining poytaxtini (hozirgi Kiyev yaqinidagi Lebedin shahrini) nazarda tutayotir (H.Ggegoige. L'Nabitat Rrimitif des Nonggois Lebedia-Lebedin. – «Vuzantion», XIII. Fass. 1, 1938, r. 409-410).

[4] Bu yerda arxaizm. Vizantiya mualliflari ham qadimgi yunon tarixchilariga (Herodot va boshqa.) taqlid qilib, Sharqiy Yevropa va Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlardagi xalqlarini umumiy nom bilan «skiflar» deganlar. Lekin muayyan hollarda ular orasidagi etnik farqni yaxshi bilganlar.

[5] Ya'ni mil. VI asr oxirgi yillarida.

[6] G'arbiy turk xoqonligining xoqoni Tayang'u Qora Churin Turk Konstantinopolga Vizantiya (Rum) imperatori Mavrikiy (582–602) huzuriga elchilarini 598-yili yuborgan (qarang: (қаранг: Гумилев Л.Н. Древние тюрки. – М.: «Наука», 1967, с. 440,461; Moravcsik Gy. Byzantinoturcica / Berlin, 1958, Bd. I, S. 41-43; Пигулевская Н.В. Византия на путях в Индию. – М. – Л.: 1951, с.209; Haussig H.W. Theophylakts Exkurs uber die Skytischen Volker. – Vuz, XXIII (1953). S. 276, 383-384).

@tarixchi_kutubxonasiga

yetti qabilaning buyuk hokimi va olam yetti iqlimining amiri»dan. Bu xoqon abdallar (men ularning eftalit deb ataladiganlari haqida aytayapman) qabilasi[1] sardorini tor-mor qilib, ularni yengdi va ularga o'z hukmini tarqatdi. 9. Bu g'alabadan qattiq mag'rurlanib va Stemvis-xoqonni[2] o'ziga ittifoqchi qilib, u avarlar qabilasini qul qildi[3]. 6. Hech kim meni, kam xabardor bo'lib hikoya qilmoqda, deb o'ylamasin va gap Yevropa va Pannoniyada varvarlardek yashagan avarlar haqida ketayotir (ular bu yerlarga imperator Mavrikiydan ancha ilgari kelganlar), deb hisoblamasin. 10. Istr bo'yida yashovchi varvarlar soxta ravishda o'zlariga avarlar nomini olganlar. Ular qayerdan kelib chiqqani haqida men hozircha aytmayman. Avarlar yengilganidan so'ng (men yana o'z hikoyamga qaytayapman), ularning ba'zilari qochib, Tavgastga[4] ega bo'lib turganlarning huzurida panoh topdilar. 11. Tavgast – mashhur shahar, u turklar deb ataladiganlardan 1500 mil masofada bo'lib, Hindistonga yaqin joylashgan. Tavgast yaqinida yashovchi varvarlar juda kuchli va ko'p sonli qabiladir, kattaligi jihatidan butun olamda yashaydigan xalqlardan birortasini ular bilan solishtirib bo'lmaydi. 12. Avarlarning boshqasi, mag'lubiyatlari tufayli xo'rlanib yanada oyoqosti qilinganlari, mukri deb ataladiganlarning huzurida qolib yashadilar. Bu qabila Tavgast aholisiga eng yaqinlardandir; ular harbiy to'qnashuvlarda, kundalik mashqlari tufayli ham, xavf-xatar paytlarida irodasining mustahkamligi tufayli ham juda kuchlidir. 13. Xoqon boshqa ishni ham qildi va o'g'uz qabilasining odamlarini o'ziga bo'ysundirdi. Ko'p sonli va to'la qurollangan holda doimiy harbiy mashqlar olib borishi tufayli bular eng kuchli qabilalarning biridir. Ular

[1] Eftalitlarni turkiy qabilalar o'sha uzoq VI asrdayoq abdal deganlar (Kichik Osiyo turklari ularni va umuman janjalkash va urishqoq odamni hozir ham shu nom bilan ataydilar). Arablar ularni xaytal va xuttal deganlar. Ularning nomi hozirgi Tojikiston g'arbidagi Xatlon (o'rta asrlarda – Xuttalon) nohiyasi nomida saqlangan.

[2] Xoqon Stemvisning nomida buyuk turk xoqoni Istemining oti anglashiladi. Aslida Istemi Qora Churin xoqonning ittifoqdoshi emas, otasi bo'lgan.

[3] Istemi xoqon avarlarni 558-yili yengib, bo'ysundirgan. Ulardan 20 ming askar qochib, Dunaybo'yiga – Vizantiya hududlariga kelgan.

[4] *Tavgast* – qadimgi turkcha Tabg'ach atamasining yunoncha talaffuzi; qadimgi turklar bu nom bilan Xitoy imperatorini, mamlakatning o'zini va poytaxtini (Chanan) ham atashganlar. Feofilakt bu yerda qadimgi turklar an'anasiga rioya qilyapti. Uning bu ma'lumotlari imperator Yustin II (565–578) davrida turk xoqoni huzuriga Zemarx boshchiligida yuborilgan Vizantiya elchilari to'plagan ma'lumotlarga asoslangan. Zemarx turk xoqonining o'sha paytdagi qarorgohi Kucha (Sharqiy Turkiston) shahrida 572-yil atrofida bo'lgan. Zemarx bu sayohatidan o'z hassasining ichida xufiyona ipak qurtlarini keltirgan va Vizantiyada ipakchilikka asos solishga sababchi bo'lgan (Н.В. Пигулевская. Византия на путях в Индию, с. 210; Haussig H.W. Theophylakts Exkurs..., S. 339, 388–390). J.A. Boodberg. Theophylactus Simocatta on China. – «Narward Jorn. Of Asiat. Stud.», 3. 1938. R. 223-243).

@tarixchi_kutubxonasiga

sharqda Til daryosi oqadigan yerda yashaydilar, bu daryoni turklar odatda, Qora deb ataydilar[1]. 14. Bu qabilaning eng qadimgi sardori Uar va Hunni deb atalganlar. Shuning uchun ham bu qabilalarning ba'zilari uar va hunni deb nomlangan[2].

VIII. 1. Imperator Yustinian podsholik taxtida o'tirgan paytida, uar va hunni qabilalarining bir qismi qochib, Yevropada joylashadi. 2. O'zlarini avar deb atab, ular o'z sardorlariga xoqon degan sharafli nomni berdilar. Ular nima uchun o'z nomlarini o'zlashtirishga qaror qilganlari haqida biz haqiqatdan hech chekinmay hikoya qilib beramiz. 3. Barselt, o'no'g'urlar, sabirlar[3] va bulardan tashqari, boshqa hunn qabilalari, bularning yerlariga qochib kelgan uar va hunni odamlarining faqat bir qismini ko'rib, dahshatga tushdilar va ularning oldiga avarlar ko'chib keldi, deb o'yladilar. 4. Shuning uchun ular bu qochqinlarni ajoyib hadyalar bilan e'zozladilar va shu tarzda uar va hunnilar ular uchun ahvol qanchalik yaxshi tarafga o'zgarayotganini ko'rib, o'zlariga elchilar yuborganlarning xatosidan foydalanib, o'zlarini avar deb atadilar; aytishlaricha, skif xalqlari ichida eng harakatchani va qobiliyatlisi avarlar qabilasidir. 5. Tabiiyki, bizning davrimizgacha ham bu soxta avarlar (bularni shunday atalsa to'g'riroq bo'lardi) qabilalar orasida birinchi o'rinni o'ziga olib, har xil nomlarni ham saqlab qoldilar: eski odatga ko'ra, ularning ba'zilari uar, boshqalari hunni deb ataladilar. 6. Soxta avarlar haqida mumkin qadar qisqacha hikoya qilganimdan so'ng, endi men bundan keyingi tarix jarayonining borishini bayon qilishga o'taman. O'g'ur qabilasi tamomila yengilganidan so'ng xoqon kolxlar qabilasining sardorini qilich damidan o'tkazishni buyurdi.

7. Urush paytida bu qabiladan uch yuz ming kishi yo'q qilingan edi, shundayki, o'ldirilganlarning uzluksiz qatori to'rt kunlik yo'l masofasini qoplagan edi. 8. Xoqonga g'alaba shunday kulib boqqanida, turklar orasi-

[1] Bu yerda Tarim daryosi haqida so'z ketayotir, uning yuqori oqimidagi bir irmog'i Qaramuren, ya'ni Qoradaryo deb ataladi.

[2] Avarlarning kelib chiqishi masalasi bilan shug'ullangan H.V. Haussigning fikriga ko'ra, bu yerda Simokatta Menandrning bizgacha yetib kelmagan asaridan ham foydalangan. U esa avarlarni varxaniylar deb atagan. Simokatta eslagan «uar» etnonimi arman, turkiy va xitoy manbalarida ham keltiriladi; bu nom bilan Afg'onistonning shimolida, hozirgi Qunduz atrofida yashagan elat atalgan. «Hunni» atamasi esa Baxtariyaning janubida o'troqlashib qolgan hunn qabilalariga aloqadordir (Haussig H.W. Theophylakts Exkurs..., S.304–305, 345–362, 413–429).

[3] Barselt (barsillar), o'no'g'urlar va sabirlar – Shimoliy Kavkazga Markaziy Osiyodan kelib o'troqlashgan hunn turklari. O'no'g'urlar avvaliga Sirdaryo, Ili, Chu daryolari bo'ylarida yashaganlar. G'arbga ko'chish jarayonida ularning ba'zilari Shimoliy Kavkazda o'troqlashib, boshqalari Qora dengizning shimolidagi yerlardan o'tib, Dakiya, Myoziya, Frakiyaga joylashdilar. Sabirlar asosan Dog'istonda va qisman Volgabo'yida (hozirgi chuvashlar) joylashdilar (Moravcsik Gy. Vuzantinoturcica, t. I, S. 40; Haussig H.W. Theophylakts Exkurs..., S. 364).

@tarixchi_kutubxonasiga

da o'zaro ichki janjal boshlandi. Xoqonga yaqin bo'lgan urug'dan Turum[1] deb atalgan bir kishi, davlat to'ntarishini niyat qilib, katta kuch to'pladi. 9. Jangda tarozi pallasi bu hokimiyat bosqinchisining tarafiga og'ganida, xoqon boshqa uchta buyuk xoqonning huzurlariga elchilar yubordi. Ularning nomlari quyidagichadir: Sparzevgun, Kunaksolan va Tuldix. Butun lashkar Ikar[2] yaqinida (bu joy keng sayhonliklar bilan o'ralgan) joylashganida va shu joyning o'zida g'animlar ularga qarshi chiqib, bahodirona jang qilganida, bu qirg'inda hokimiyat bosqinchisining o'zi halok bo'ldi va ittifoqchi kuchlar dushmanni chekinib qochishga majbur qildi. Katta qirg'in bo'ldi va xoqon yana o'z yerining hokimi bo'ldi. 11. Mana shu barcha g'alabalar haqidagi xabarni xoqon elchilar orqali imperator Mavrikiyga yubordi. Bu Ikar Oltintog'[3] deb ataladigan tog'dan to'rt yuz mil masofada joylashgan. 12. Bu tog' joylashishi bo'yicha sharqqa qaragan, uni mahalliy aholi tomonidan «oltin» deb atalishining sababi shuki, unda mevalar mo'l: bundan tashqari u yovvoyi hayvonlarga va yilqiga boydir. Turklarda mavjud bir qonunga ko'ra, Oltintog' bosh xoqonning ixtiyoriga berib qo'yilgan. 13. Turk xalqi ikkita muhim narsa bilan faxrlanadi: ular aytadilarki, juda qadim zamonlardan, ularning hayoti boshlanganidan beri, ular hech qachon o'z yerlarida vaboni ko'rmaganlar va ularning mamlakatida zilzila juda kam bo'lgan. Faqat bir vaqtlar o'no'g'urlar tomonidan barpo qilingan Bakaf zilzilada vayron bo'lgan, Sug'diyona esa vaboni ham, zilzilani ham boshidan kechirgan. 14. Turklar olovni hamma narsadan ham yuqori qo'yadilar, suv va havoni ulug'laydilar, yerga madhiyalar kuylaydilar va birgina osmon va erning yaratuvchisiga ibodat qilib, uni tangri deb ataydilar. 15. Ular unga otlarni, buqalarni va mayda hayvonlarni qurbonlikka keltiradilar va o'zlariga, ularning fikricha, kelajak haqida bashorat qiluvchilarni kohin qilib tayinlaydilar. 16. Xuddi shu vaqtning o'zida tarniax va kotzagir qabilalari (ular uar va hunnilar tarkibida edi) turklardan qochdilar va Yevropaga kelib, avarlarning xoqon hukmi ostidagilariga qo'shildilar. 17. Aytishlaricha, zabender qabilasi ham uar va hunni xalqidan kelib chiqqan. Bu avarlarga qo'shilgan qo'shimcha kuch, o'n ming kishidan iborat edi.

[1] Bu yerda Simokatta tarixiy shaxs va voqealarni eslatayapti. Turum – Sharqiy Turk xoqonligidagi o'n birinchi xon To'ramen ismining yunoncha atalishi. Uning nomi xitoy, arman, fors manbalarida Dalobyan, Abruy, Aboxon nomlari bilan ham eslatiladi. U xoqonlikning to'rtinchi xoni Mug'anxonning cho'risidan ko'rgan o'g'li bo'lgan, shuning uchun saroy a'yonlari uning kelib chiqishini past bilib, xoqonlik taxtiga noloyiq hisoblaganlar. Feofilakt bu yerda eslayotgan voqealar 582-yili buyuk xon Arslon To'bo'xonning o'limidan so'ng Turum – To'ramenning taxt uchun olib borgan kurashining aksidir.

[2] *Iknr* – Tarim daryosi havzasidagi joy.

[3] *Oltintog'* – yunonchada Chruzon oros, Menandr uni Ektag degan (Menander Protektor. «Exerpta de legationibus...», p. 193, 207); shunga ko'ra asli turkcha nomi Aqtag' bo'lgani ehtimol. Turk xoqonining qarorgohi o'sha yerda, Kucha shahri yaqinida, Tarim daryosidan shimolroqda bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

IX. 1. Fuqarolar urushini muvaffaqiyatli tugatgan turk xoqoni o'z ishlarini tartibga keltira boshladi; mustahkam tinchlikni o'rnatib, o'z hukmini beg'alva o'tkazish uchun u Tavgast aholisi bilan bitim tuzdi. 2. Tavgastning klimatarxi «talsan» deb ataladi, ellinchada bu «Tangrining o'g'li» ma'nosini anglatadi. Tavgastda hokimiyat hech qachon qo'zg'olonlar bilan ag'darilmaydi – u yerda faqat merosxo'rlik hokimlik huquqini beradi. Bu qabilada ma'budlarga topinadilar, ammo qonunlar adolatli va hayot ezguliklarga to'ladir. 3. U yerda qonunga o'xshash bir odat borki, erkaklar keng ko'lamda va juda foydali savdo munosabatlari tufayli ko'p miqdordagi kumush va oltinga ega bo'lsalar ham, hech qachon oltin bezaklarga bezanmaydilar. 4. Tavgastning chegarasidan daryo o'tadi[1]. Bu daryo ancha ilgaridan beri bir-biriga butunlay qarama-qarshi bo'lgan ikkita juda katta qabilani ajratib turadi: u qabilalardan birining kiyimlari qora, ikkinchisiniki – za'faron rangli. 5. Bizning zamonlarda, hali rumlarning taxtida Mavrikiy o'tirgan paytlarda, qora kiyimlilar qabilasi qizil kiyimlilar qabilasiga hujum qildi; ular daryodan o'tib, narigilari bilan jang qildilar va so'ng g'alabaga erishib, butun o'sha mamlakatda hokimiyatni qo'lga oldilar. 6. Varvarlarning aytishicha, Tavgastni makedoniyalik Iskandar barpo qilgan[2]; u baxtariylarni va Sug'diyonani bo'ysundirib, o'n ikki miriada dushmanni o'tda kuydirganidan keyin [shu ishni amalga oshirgan]. 7. Bu shaharda hokimning xotinlari oltindan yasalgan aravalarda yuradilar; bularning har biriga oltindan yasalgan dabdabali va qimmatbaho bezaklar bilan bezalgan yosh ho'kiz qo'shiladi; hatto bu ho'kizlarning egarjabdug'lari ham oltin bilan bezalgan. 8. Tavgastda hukm surgan hokimning yetti yuzta xotini bo'lgan. Tavgastda eng ko'zga ko'ringan shaxslarning xotinlari kumush aravalardan foydalanadilar. Bir rivoyatga ko'ra, bundan katta masofada bo'lmagan boshqa shaharni ham Iskandar qurgan; bu shaharni varvarlar Xubdan[3] deydilar. 9. Mamlakat hokimi o'lganida, uning xotinlari sochlarini tamomila qirib va qora kiyim kiyib aza tutadilar; ularda bir qonun borki, unga ko'ra xotinlari hech qachon uning qabridan ketmaydilar. Xubdan shahrini ikki daryo kesib o'tadi, ularning qirg'oqlarida sarv daraxtlari o'sib turadi. 10. Bu qabilaning fillari ko'p. Varvarlar savdo ishlari yuzasidan hindlar bilan tez-tez uchrashib turadilar; aytishlaricha, bu yerlarda, [mamla-

[1] Xuanxe daryosi nazarda tugiladi.

[2] Iskandar Xo'jand va Toshkent atroflaridan sharqqa o'tmagan.

[3] *Xubdan (yoki Xumdan)* – Xitoyning poytaxti Chanan (Н.В. Пигулевская. Византия на путях в Индию, с.211; A.C.Mone. Christians in Chine before the year 1550. 1930, p. 45, 48; Heyd. Histoire du commerce de Leuant, 1885, p. 16). Haussigning fikriga ko'ra, «xubdan» so'zi xitoylarning aniq bir shahriga nisbatan ishlatilmagan va Xitoy imperatorining qarorgohini anglatgan (Haussig H.W. Theophylakts Exkurs..., S. 391-394).

@tarixchi_kutubxonasiga

katlarining – A.A.] shimolida yashaydigan hindlar oqtanlilar. 11. Serlarning[1] gazlamalaridagi ipakni chiqaradigan qurtlar bu yerda juda ko'p miqdorda va rang-barangdir, ularni parvarish qilishda varvarlar katta mahoratni namoyish qiladilar. 12. Men o'z bayonimda oldimga qo'ygan maqsadimdan ancha chetga uzoqlashib ketmaslik uchun Baxtariyona, Sug'diyona va Qoradaryoda yashovchi skiflar haqidagi mulohazalarimni tugataman.

### Feofan tavbakor va uning «Xronografiya» asari

Feofan (taxm. 760–818) mashhur vizantiyalik mansabdor oilasida tug'ilgan.

815-yili Lev V (813–820) davrida ikonachilarga qarshi kurash yangidan jonlanganida Feofanning hayotida burilish davri boshlandi: ikonasevishlikka mayli 815 yoki 816-yili uni qamoqxonaga, 816-yili Samofrakiya oroliga surgunga olib keldi va o'sha surgunda u o'ldi. Yunon cherkovi uni tavbakor sifatida avliyolar qatoriga qo'yadi.

Feofan o'z «Xronografiya»sini do'sti Georgiy Sinkelning o'tinib so'rashiga ko'ra, u tugatib ulgurmagan, olam umumiy tarixining davomi sifatida yozgan. Feofanning asarida voqealar bayoni Georgiy Sinkelning asari tugagan joydan, ya'ni Diokletian hukm sura boshlagan 284-yildan boshlanadi va 813-yilgacha, ya'ni Lev V taxtga o'tirgan yilgacha davom ettirilgan. Muarrix asarni yozgan yillarini aniqlash mumkin: u o'z asarini 810-yilgacha boshlamagan edi, chunki Georgiy Sinkel shu yilgacha hali o'lmagan edi va asarni 814-yilgacha, ya'ni qamalguniga qadar yozib tugatgan.

Feofan foydalangan manbalarni aniqlash masalasi biroz murakkab: muallif ko'plab tarixchilarning asarlaridan, boshqa manbalardan foydalanganligini ta'kidlasa ham, ularning nomlarini juda kam hollarda eslatadi. Ilk davr (V asr o'rtasigacha) uchun bu, eng avvalo, Sokrat, Sozomen va Feodoritning cherkov tarixlari bo'lgan. Malala, Prokopiy, Agafiy, Ioann Epifaney, Feofilakt Simokatta, Georgiy Pisidaning asarlari imperator Irakliy taxtga o'tirgan 610-yilgacha yuz bergan voqealar uchun manba bo'lgan.

Shubhasizki, Feofanning «Xronografiya»si VI–VIII asrlarni o'rganish uchun manba sifatida nafaqat Vizantiya tarixi uchun, balki bu imperiyaning turkiy xalqlar va davlatlar hamda arab xalifaligi bilan munosabatlari nuqtayi nazaridan O'rta Osiyoning o'sha davrdagi tarixi uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Feofan «Xronografiya»si uning zamondoshlari va undan keyingi vatandosh muarrixlari orasida katta ahamiyat kasb etdi. IX asrning 70-yillaridayoq Rim papasining kutubxonachisi Anastasiy «Xronografiyani lotin tiliga

[1] Shimoliy Xitoyni antik mualliflar Serica va aholisini ser deganlar. Asli shoyini ixtiro qilganlar serlardir va ular etnik kelib chiqishi bo'yicha xitoylarga (xanlarga) mansub bo'lmagan.

@tarixchi_kutubxonasiga

tarjima qildi. Shuni aytish kerakki, bu tarjimaning saqlangan ilk qo'lyozmasi asarning ilk qo'lyozmasidan ancha qadimgiroqdir, shuning uchun ham bu tarjimaning ahamiyati ulkandir. Vizantiyalik mualliflar uchun «Xronografiya» asosiy manba va tayanch nuqta bo'lib xizmat qildi. Feofanning asrdoshi Georgiy Monax uning asaridan to'la foydalangan; Simeon Logofet (X asr) Feofan va Georgiy Monomaxning asarlaridan foydalangan; Kedrin (XI asr) Simeon Logofet va Georgiy Monaxning asarlari bilan bir qatorda, Feofanning asaridan ham foydalangan; va nihoyat, XII asrda Zonara Feofanning asarini VII–IX boshi tarixidan asosiy manba deb qaragan. Keyingi davr tarixchilari voqealar tavsifini Feofan o'z bayonini tugatgan yildan boshlaganlar, bu esa «Xronografiya»ning o'rta asrlar tarixnavisligidagi ulkan ahamiyatidan dalolat beradi. Skilisa (XI asr) «Tarixiy mushohada» asarini 811-yildan boshlab, bundan avvalgi davrlar Georgiy Sinkel va Feofan tomonidan to'la tavsiflanganini ta'kidlaydi.

Feofan «Xronografiya»sining qo'lyozma nusxalari va unga bag'ishlangan tadqiqotlar juda ko'p. Shu bilan birga, uning yunoncha va lotincha nashrlari ham ko'p. Eng so'nggi yunoncha nashri (Theophanis Chronographia/ Rek.C.de Boor. Lipsiae, 1883–1885, I–II) asosida I.S. Chichurov 1980-yilda asarning ruscha tarjimasini nashr etdi[1]. Quyidagi lavhalarning o'zbekcha tarjimasi shu nashrdan bajarildi (tarjimon A.Ahmedov).

**A.Ahmedov**

### Feofan tavbakor va uning «Xronografiya» asaridan

**572-yil.** Xusravning[2] bezovtalanishini boshqa sababi ham bor edi[3]. Shu payt biz, odatda, hunnlar deb ataydigan turklar[4], alanlarning yeri orqali Yustinning[5] huzuriga elchilarni yubordilar.

---

[1] Чичуров И.С. Византийские исторические сочинения: «Хронография» Феофана, «Бревиарий» Никифора. Тексты, перевод, комментарий. М.: «Наука», 1980.

[2] Bu yerda Eronning Sosoniy shahanshohi Xusrav I Anushirvon (531–579) haqida so'z ketayotir.

[3] Xusravning bezovtalanishini asosiy sababi – Vizantiyaga alanlar yeri orqali Turk xoqonining elchilari kelayotganida edi. Shahanshoh alanlarga pora berib, elchilarni o'ldirishni talab qiladi. Haqiqatan ham, agar Vizantiya bilan Xoqonlik o'rtasida bitim tuzilsa, bu Eron uchun o'ta xavfli bo'lardi, chunki bu holda Eron ham g'arbdan, ham shimoldan va ham sharqdan dushmanlar qurshovida qolardi.

[4] O'sha paytda Turk xoqonligining g'arbiy chegaralari Don (Tanais) daryosi bo'ylab o'tgan (Theophanes Byzantius. Fragmenta. – HGM, Lipsiae, 1870, v.I, p.446 – 449, s.p.446.21-447.7).

[5] *Yustin II* (565–578) – Vizantiya imperatori, uning davrida Vizantiyaga Sharqiy xoqonlikdan Arslon Tapuxon (xitoycha – Tobo-kexan, yunonchada – Arsila) nomidan elchilar kelgan edi. Bu elchilikning maqsadi – imperatorning Don va Dnestr oralig'ida avarlar bilan ittifoq tuzishiga yo'l qo'ymaslik edi.

@tarixchi_kutubxonasiga

**588-yil.** Forslarning imperatori Xurmizd[1] Varamni[2] strateg etib tayinlab, uni katta kuch bilan Svaniyaga[3] yubordi. Varam unga qo'qqisdan hujum qildi va turklar, forslar tomonidan yengilganidan so'ng Xurmizd shunchalik qudratga erishdiki, turklardan soliq sifatida oltin bilan qirq ming – u avvallari turklarga to'lab turgan miqdorga tengini oldi...[4]

...Xurmizd turklarni soliq to'lashga majbur qilganini forslarga eslatib qo'ydi...[5]

Xusrav nima qilishini bilmas edi: ba'zilar unga turklarga borishni, boshqalar rumlarning[6] huzuriga borishni maslahat berardi[7].

---

[1] Eron sosoniy shahanshohi Xurmizd IV (579–590).

[2] *Varam* – Bahrom Chubin, sosoniylarning lashkarboshisi.

[3] *Svaniya* – Gruziyaning shimoli-g'arbidagi o'lka, hozirgi nomi Svanetiya.

[4] 588-yilga kelib, Vizantiyaning maxfiy siyosiy faoliyati tufayli Eron chegaralarida xavfli vaziyat yuzaga keldi: g'arbda lashkarboshi Komentiol boshchiligida Vizantiya armiyasi hujumga tayyorlanib turardi, shimoldan xazarlar, hunnlar va avarlarning birlashgan kuchlari Daryal darasi va Darband orqali Eronning shimoliy hududlariga kirib kela boshladilar, shimoli-sharqdan Turk xoqoni El-Arslon Yangi Sovuq Tegin (Yunonchada Save, arabchada Sheva) Amudaryodan Xurosonga kirib keldi, janubdan Firot daryosi tarafidan amirlar Amr va Abbos boshchiligida nasroniy arablar qishloqlarni talay boshlagan edilar (Н.В. Пигулевская. Византия и Иран на рубеже VI и VII веков. – М.: – Л.: 1946, С. 79–81). Bularning eng xavflisi turk xoqoni edi. Shuning uchun Xurmizd Bahromni katta lashkar bilan turklarga qarshi tashlaydi. Bahrom Balx yaqinidagi jangda turklar ustidan g'alaba qozonib, ularni yana Amudaryoning o'ng sohiliga qaytaradi. Biroq bu g'alaba forslarga qimmatga tushadi: turklar bilan jangda holdan toygan forslar rumlardan yengiladi. Natijada Xurmizd Bahrom Chubinni lashkarboshilikdan tushiradi. Bahromni mansabdan chetlatilishining boshqa sababi ham bor edi: ma'lumotlarga ko'ra, u turklarni yengib, juda katta o'ljani qo'lga kiritib, uning faqat bir qisminigina Xurmizdning saroyiga yuborgan va o'zi shahanshohlikka da'vo qila boshlagan (Pigulevskaya. O'sha asar, 83-bet). Bunga javoban Bahrom qo'zg'olon ko'taradi. Xurmizdning xasisligi va boshqa salbiy xususiyatlari tufayli Eron aholisining talay qismi Xurmizddan bosh tortadi. Vaziyatni anglagan saroy a'yonlari Xurmizdni taxtdan tushiradilar. Shunda u forslarga nutq bilan murojaat etadi.

[5] Xurmizdning nutqi kor qilmaydi, uni qamab, ko'ziga mil tortadilar, so'ng qatl qiladilar. Saroy a'yonlari taxtga Xurmizdning balog'at yoshiga yetmagan o'g'li Xusravni o'tqazadilar. Bu payt katta kuch to'plashga muvaffaq bo'lgan Bahrom qo'zg'olonni davom ettirib, endi yangi shahanshoh Xusrav II Parvizga (590–628) qarshi kurashadi.

[6] Yunoncha matnda Romaious deyilgan, bundan ruscha «romei» iborasi olingan; o'zbekchada biz buni «rumlar» dedik. Bu ibora bilan faqat yunonlar emas, balki Vizantiya (Rum) imperiyasidagi boshqa elat va xalqlar ham tushunilgan.

[7] Bahromning qo'shinlari bilan bo'lgan jangda Xusrav to'la mag'lubiyatga uchraydi. Shunda o'sha ba'zilar Rumga, boshqalar Kavkazga va yana kimlardir – turklar zaminiga, ya'ni Movarounnahr tarafga qochishni maslahat beradi. Xusrav esa Rumga, imperator huzuriga qochadi va undan harbiy yordam so'raydi (Pigulevskaya. O'sha asar, 93-bet).

@tarixchi_kutubxonasiga

**588–589-yil.** Narses[1] to'xtovsiz ta'qib qilib forslarni qirdi. Ulardan olti ming kishini u tiriklayin asir oldi va kishanlab, Xusravning oldiga keltirdi. Xusrav ularning hammasini o'ldirdi, ularning orasidan turklarni u avtokratorning huzuriga Vizantiyaga yubordi. Avtokrator turklardan ba'zilarining peshanasida qora rang bilan salibning tasviri solinganini ko'rgach, ular nima uchun bu belgi bilan yuradilar, deb so'raganida, turklar javob berib, ko'p yil burun Turkiyada[2] vabo bo'lganini va ba'zi nasroniy turgolar shunday qilishni maslahat berganliklarini va shu yo'sinda ular vabodan qutulganliklarini aytdilar[3].

**625–626-yil.** Xusrav Sarvarosni[4] lashkarining qolgan qismi bilan Konstantinopolga yubordi va unga avarlar deb ataluvchi g'arbiy gunnlar[5], bulg'orlar, slavlar va gepidlar bilan ittifoq tuzishni buyurdi va ular shaharga qarshi borib, uni qamal qilishlari kerakligini aytdi. Buni eshitib, Vasilevs o'z lashkarini uch qismga bo'ldi: birini shahar mudofaasiga yubordi, ikkinchisini ukasi Feodorga topshirib, Sain[6] bilan jang qilishni buyurdi, uchinchisini esa Irakliyning[7] o'zi olib, Lazika[8] tarafiga yo'l oldi. U tarafda

---

[1] *Narses* – Vizantiya lashkarboshisi, Xusrav Parvizga imperator tomonidan 60000 kishilik lashkar yordamga yuborilgan. Quyidagi parchada Bahrom haqida aytilmagan bo'lsa ham voqeaning qisqacha tafsilini keltiramiz. Narses fors va yunonlardan iborat o'z qo'shinlari bilan Bahrom ustidan bir necha to'qnashuvlarda g'alaba qozonadi. Nihoyat, Bahrom to'la mag'lubiyatga uchrab, turk xoqonining huzuriga – Xorazmga qochadi. Ba'zi xabarlarga ko'ra, Bahrom u yerda xoqonning qiziga uylanadi, so'ng Kaspiy orqali Eronga keladi va mamlakatning shimolida zaharlab o'ldiriladi. Boshqa xabarga ko'ra, Bahromni Xusravning hadyalari va iltimosi bilan xoqonning xotini zaharlab o'ldiradi.

[2] *Yunoncha matnda shunday* – Tourkia (И.С. Чичуров. Византийские исторические сочинения, с.31); asarda bu atama yana bir marta (45-bet) keladi; bu nom bilan Feofan va ilk o'rta asrlardagi yunonlar Turk xoqonligi va turkiy qabilalar yashaydigan yerlarni ataganlar.

[3] Bahromning tarafida Narses bilan urush qilgan turk askarlaridan ba'zilarining peshanasida salib nishonlanganining boshqa sababi ham bor. Ma'lumki, Vizantiya imperatori Yustinian I (527–565) ortodoksiyani (pravoslavlikni) rasmiy din deb qabul qilganidan so'ng nasroniylikning boshqa oqim va mazhablari, jumladan, nestorianlar va monofizitlar imperiyadan quvg'in qilinadi. Nestorianlar asosan Eron va Turkistonda, ya'ni Turkiyada panoh topadilar. Shuning uchun ilgariroq nasroniylikni qabul qilgan turklar rumlarga asir bo'lishlarini sezganlarida, jon saqlash maqsadida, peshanalariga salib tamg'asini qo'ygan bo'lishlari mumkin.

[4] *Sarvaros* – shahanshoh Xusrav Parvizning (oldingi sahifa 1-izohiga qarang) lashkarboshisi Shahrboroz ismining yunoncha yozilishi.

[5] Mazkur yilga kelib Kavkazda hunnlar qolmagan edi. Vizantiya muarrixlari, odatda, arxaizmga amal qilib, ko'p hollarda hatto XV asrgacha «turk» etnonimi o'rnida «skif», «hun» etnonimlarini ishlatganlar.

[6] *Sain* – Xusravning lashkarboshilaridan biri Shahin ismining yunoncha aytilishi.

[7] *Irakliy* – Vizantiyaning 610–640-yillarda hukm surgan imperatori.

[8] *Lazika* – lazginlarning yurti, Qora dengiz bo'yidagi qadimiy o'lka, Gruziyaning janubiy-g'arbi.

@tarixchi_kutubxonasiga

turganida, xazarlar deb ataladigan sharqiy turklarni[1] ittifoq tuzishga chaqirdi...

**626-yil.** Shu yili sentabr oyida, Irakliy turklar bilan birga to'satdan Eronga hujum qilib, bundan ogoh bo'lgan Xusravni larzaga keltirdi. Lekin turklar[2], qishni va forslarning to'xtovsiz chopqinlarini e'tiborga olib, oz-oz bo'lib qocha boshladilar va nihoyat, hammalari uni tashlab uylariga qaytdilar.

## Patriarx Nikifor va uning «Breviariy» asari

Konstantinopol patriarxi Nikifor 758-yil atrofida imperiya poytaxtida tug'ildi. Uning otasi Feodor – Konstantin V (741–775) davrida imperatorning kotibi bo'lgan va 761-yilga yaqin, ikonalarga topingani uchun surgun qilingan. Lekin shunday bo'lsa ham bu ikonasevar Nikiforga otasining o'limidan so'ng (u 767-yili yoki bundan biroz so'ng vafot etgan) ikonalarga qarshi kurashuvchi imperatorlar davrida davlat lavozimidagi mansabga ko'tarilishiga to'siq bo'la olmagan: 770- va 780-yillar orasida, Konstantin V imperatorligi davridayoq, yoki balki Lev V (775–780) davrida, Nikifor imperatorning kotibi etib tayinlandi. Imperator devonida Nikifor o'zidan avvalgi kotib, bo'lajak patriarx Tarasiy (784–806) boshchiligida ishladi. 797-yil atrofida Nikifor imperator devonidagi xizmatni tark etib, monastirga (Xrizopoldan shimoldagi Agata monastiriga) asos soladi. Imperatorlik taxtini zo'rlik bilan olgan Nikifor I (802–811) uni Konstantinopoldagi eng yirik faqirlar uyiga mudir qilib tayinlaydi.

806-yili patriarx Tarasiy vafot etadi, uning o'rniga endigina rohiblikka o'tib, sochini qirdirgan Nikifor o'tiradi. 815-yili Nikifor patriarxlikdan tushirilib, avval Agata monastiriga, so'ng avliyo Feodor monastiriga surgun qilindi. Nikiforning izchil ikonasevarlik faoliyati Mixail II (820–829) zamonida yana patriarxlik lavozimiga ko'tarilishiga olib keldi, biroq imperator unga bu lavozimni endi ikonaga qarshilar bilan munozara qilmaslik sharti bilan berdi. Nikifor 829-yili quvg'inda o'ladi. Ikonasevarlik yana tiklanganidan so'ng, 847-yili uning tanasi tantanali ravishda Konstantinopolga keltiriladi va Avliyo Apostollar cherkoviga ko'miladi.

Patriarx Nikiforning adabiy merosi ikki guruhga: tarixiy asarlar va ilohiyot asarlariga bo'linadi; tarixiy asarlar orasida «Breviariy» («Qisqacha tarix») ahamiyatga egadir. 602–769-yillar orasidagi voqealar bayon qilingan,

[1] Xazarlar aslida g'arbiy turklar bo'lsa ham, Feofan ularni sharqiy turklar deyapti. Buning sababi shuki, u bulg'orlar, avarlar va hunnlarni g'arbiy turklar deb hisoblagan.

[2] Feofan «Xronografiya»sining shu yerida Vizantiya – Eron urushlari munosabati bilan xazar turklari haqida eng so'nggi marta eslatadi.

@tarixni_kutib_qolmasiga

aytarlik katta bo'lmagan bu asar Feofilakt Simokattaning (VII asr), imperator Mavrikiy taxtdan tushirilgan 602-yil voqealari bilan tugatilgan «Tarix»ining davomi sifatida rejalashtirilgan ko'rinadi. Bu fikr qo'lyozma an'anasi bilan ma'lum darajada tasdiqlanadi: London qo'lyozmasida «Breviariy» bevosita Simokatta «Tarix»idan so'ng keladi. «Breviariy»ning bizgacha ikkita qo'lyozmasi – London va Vatikan yetib kelgan bo'lib, ularda talqin ikki xildir. London nusxasida bayon 713-yilgacha, Vatikan nusxasida esa – 769-yilgacha davom ettirilgan, ikkala talqinda u yoki bu farqlar mavjud. London qo'lyozmasini tadqiq qilgan L.Oros Vatikan va London qo'lyozmalari asarning Nikiforning o'zi bajargan tahrirlari deb hisoblagan.

«Breviariy» ilk o'rta asrlardagi turkiy xalqlar tarixidan muhim manbadir, chunki bu tarix turli munosabatlar orqali O'rta Osiyo yoki unga tutash yerlar tarixi bilan ba'zan bevosita, ba'zan bilvosita bog'lanadi. Bizning o'zbekcha tarjima I.S. Chichurovning ruscha tarjimasidan (И.С. Чичуров. Византийские исторические сочинения. М.: Наука, 1980. С. 145–184) bajarilgan. O'z navbatida, ruscha tarjima asarning quyidagi nashridan bajarilgan: Nicephori archiepiskopi Constantinopolitani opuscula historica / Ed.S. de Voog. Lipsiae, 1880.

Asarning bevosita Yevropa davlatlari tarixiga oid qismlarini tushirib qoldiramiz.

**A.Ahmedov**

## Patriarx Nikifor va uning «Breviariy» asaridan

**Taxm. 622-yil.** Lazikadan Irakliy turklarning xoqoniga hadyalar yuborib, uni forslarga qarshi ittifoqqa chaqiradi. U hadyalarni qabul qildi va harbiy yordam va'da qildi. Irakliy bundan xursand bo'lib, o'zi uning huzuriga yo'l oldi, u esa imperatorning kelayotganini eshitib, tumonat turklari bilan imperatorga peshvoz chiqdi. U otdan tushib, yergacha bukilib imperatorga ta'zim qildi. U bilan birga bo'lgan to'da ham shunday qildi. Imperator o'ziga nisbatan ko'rsatilgan yuksak izzat-ikromni ko'rib, agar turkning ittifoq tuzish istagi qat'iy bo'lsa, otida turkning yaqiniga kelishini bildirdi va turkni o'z farzandi deb atadi. Shunda turk imperatorni quchoqladi, Irakliy esa o'z boshidan tojini yechib, turkning boshiga kiydirdi; uning sharafiga katta bazm uyushtirib, Irakliy dasturxon ustidagi barcha bazm asbob-anjomlarini, imperatorlik liboslarini va durlar bilan bezalgan baldoqlarni unga hadya qildi. Irakliy, shuningdek, turk bilan birga kelgan arxontlarini ham shunday baldoqlar bilan siyladi. So'ngra Irakliy avarlarda duchor bo'lgan vaziyatga turkda ham duchor bo'lishdan xavfsirab, ittifoqni mustahkamladi –

@tarixchi_kutubxonasiga

u turkka o'z qizi Yevdokiyaning tasvirini ko'rsatib, unga dedi: «Bizlarni tangrining o'zi tutashtirdi – seni menga farzand qilib tutintirdi. Mana mening qizim – rumlarning malikasi. Agar sen men bilan birga qo'lingga qurol olib, dushman bilan kurashda yordam bersang, qizimni senga turmushga beraman». Tasvirdagi qizning husnini ko'rib, turkning qalbida unga nisbatan sevgi alangasi yondi va ittifoqqa yanada qattiq mayl bildirdi. U shu zahotiyoq imperatorga arxontni va ko'p turklarni topshirdi. Irakliy ular bilan birga Eronga hujum qilib, shaharlarni vayron, otashkadalarni yakson qildi...

Xusrav bularning hammasini va turklar Irakliy bilan ittifoqda jang qilayotganlarini eshitib, bu haqda Sarvarosga maktub yozib ma'lum qildi va tezda rumlarning yeridan qaytib kelib, Irakliydan qasos olishni buyurdi, chunki Xusravning o'zi Irakliyning g'alabalariga qarshilik ko'rsata olmasdi. Biroq yo'lda maktubni tutib, Irakliyga topshirdilar. U esa xatni o'qib yirtib tashladi va Sarvarosga soxta, go'yo Xusravning nomidan maktub bitib, uning muhrini qo'yib, Sarvarosga yubordi. Uning ma'nosi bunday edi: «Rumlarning qaysari turklar bilan ittifoq tuzdi va Adorbadigan degan yergacha yetib keldi. Men unga qarshi lashkar yuborib, uni va turklarni yo'q qildim, ularning tirik qolganlari qochdilar[1]. Shuning uchun rumlar zaminidan chekinma, lekin Xalkidonni qamal qilib, rumlarni tala va asirlikka ol». Sarvaros shunday maktubni olib qamalni davom ettirdi.

**Tax. 628–629-yillar.** Irakliy o'z qizi Yevdokiyaga Vizantiyadan yo'lga chiqishni buyurdi. Chunki Yevdokiya turk bilan unashtirib qo'yilgan edi[2]. Lekin Irakliy turkning jangda halok bo'lganini eshitgach, qiziga orqaga qaytishni buyurdi.

[1] Yunoncha va ruscha matnda «kesar» deyilgan: aslida bu so'z lotincha «caedo» – «kesmoq» so'zidan kelib chiqadi, bo'lajak Rim imperatori Gay Yuliy onasidan tabiiy yo'l bilan tug'ilmay, jarrohlik yo'li bilan – onasining qornini kesib olish natijasida dunyoga kelgan. Shuning uchun uning ismiga «caesar» – «kesib olingan» so'zi qo'shilgan. Bu lotincha so'z yunonchada (keyinchalik ruschada) «kesar» deb o'qilgan, boshqa ba'zi Yevropa tillarida «sezar, kayzer» deb o'qilgan. Ammo arab tilida bu so'z «qaysar» deb o'qilgan va Rim imperatorlari ham shu nom bilan atalgan. O'rta asrlarda Usmonli sultonlarini ham «qaysari Rum» deyilgan. Bu so'zlar adabiyot orqali o'zbek tiliga ham kirgan. Odatda, fe'l-atvori Gay Yuliy Sezarnikiga o'xshagan, ya'ni o'jar va tixir odamni ham qaysar deyilgan.

[2] Bu yerda Feofan eslatgan Ziyevil, ya'ni g'arbiy turklarning yabg'u-xoqoni Tuj-shi-xu nazarda tutilayapti.

@tarixchi_kutubxonasiga

## XITOY MANBALARI

### Umumiy ma'lumot

O'zbekiston hududidagi davlatchilik masalalarini yoritishda ilk o'rta asrlarga taalluqli xitoy yilnomalarida anchagina muhim ma'lumotlar bor. Ular orasida saroy tarixchilaridan Vey Shou (506–572) yozgan «Veyshu» («Vey sulolasi tarixi»), Tang davlatining dastlabki yillarida (629–656) Yan Shigu, Kun Inda, Syuy Jinzung kabi bir guruh saroy tarixchilari tomonidan bitilgan «Suyshu» («Suy sulolasi tarixi») («Suyshu») – Suy davlati (581–618) tarixiga bag'ishlangan asar, Tang sulolasining dastlabki davrida, ya'ni VII asrning birinchi yarmida yozilgan «Bey-shi» («Shimoliy sulolalar tarixi», 630 y.), 941–945-yillarda Tang sulolasi saroyida Lyu Xu rahbarligidagi tarixchilar guruhi yozgan «Tan-shu» («Tan sulolasi tarixi», X asr) ma'lumotlarning nisbatan batafsilligi bilan ajralib turadi. Ularda mamlakatimiz hududida va unga yaqin qo'shni o'lkalarda mavjud bo'lgan o'nlab voha hukmdorliklari nomlari: *Shi* (Choch / Toshkent), *Boxanna* (Farg'ona), *Sudulushana* (Ustrushona), *Kan* (Samarqand), *An* (Buxoro), *Shi* (Kesh / Shahrisabz), *Nashebo* (Naxshab / Qarshi), *Xosyun* (Xorazm), *Tuxolo* (To'xoriston) va hokazo shakllarida keltirilgan. Ushbu yilnomalardagi ma'lumotlar, garchi qisqa bo'lsa-da, mazkur hukmdorliklarning deyarli 200 yillik tarixi, xususan, hukmdorlar nomi va unvoni, boshqaruvchi sulolalarning kelib chiqishi, aholining turmush tarzi, kasb-kori va urf-odatlari, Xitoyga yuborilgan elchiliklar va ular tomonidan sovg'a sifatida yuborilgan mahalliy buyumlarning turlari kabilarga doir qimmatli tarixiy tasavvurlar beradi. Shuningdek, ushbu yilnomalar G'arbiy Turk xoqonligi tarixining deyarli butun davrini qamrab olganligi, ularda G'arbiy Turk xoqonligi tashkil topishi, yuksalishi va tanazzuli, xoqonlik taxtiga chiqqan barcha hukmdorlar, ularning siyosiy faoliyatiga doir ma'lumotlar deyarli uzluksiz berilganligi, xoqonlik va uning tarkibidagi voha hukmdorliklari orasidagi munosabatlarga doir ilk tarixiy ma'lumotlar mavjudligi bilan ham ahamiyatlidir.

Quyida O'zR FA Sharqshunoslik instituti olimlari – A.Xo'jayev tomonidan «Veyshu», «Suyshu», «Bey-shi», «Tan-shu»dan Farg'onaga oid ma'lumotlar xitoy tilidan va *G'.Boboyorov va A.Kubatin tomonidan «Bey-shi» hamda «Tan-shu»* yilnomalaridan (N.Y. Bichurin tomonidan ruschaga,

@tarixnikutubxonasiga

qisman esa E.Shavann tomonidan fransuzchaga qilingan tarjimalardan) lavhalar o'zbek tiliga o'girib berildi. N.Y. Bichurinning ruscha tarjimasi asosida o'zbek tiliga o'girilgan parchalarda matnda uchraydigan shaxs ismi, atama va iboralar tarjimonlar tomonidan qo'shimcha izohlar bilan boyitildi, aniqlik kiritildi. «Tan-shu» yilnomasidagi ma'lumotlar esa asosan E.Shavanning xitoy manbalaridan fransuzchaga qilgan tarjimalari asosida yozilgan asarining fransuzcha va turkcha tarjimalari[1] asosida o'zbekchaga o'girildi (tarjimonlar G'aybulla Boboyorov, Andrey Kubatin). G'arbiy o'lkalarga oid «Suy-shu» ma'lumotlari «Bey-shi»dagi ma'lumotlar bilan deyarli bir xil bo'lib, faqatgina ayrim farqlar mavjud. Shuni nazarda tutgan holda, qaytariq bo'lmasin degan maqsadda, undagi ma'lumotlarning tarjimasi mazkur xrestomatiyaga kiritilmadi va mazkur manbadagi farqli ma'lumotlarning ayrimlari «Beyshi»da uchraydigan atama va iboralarga izoh berilayotganda keltirib o'tildi.

Ma'lumki, xitoyliklarda o'ziga xos tarix yozish an'anasi mavjud bo'lib, unga ko'ra, g'ayrixitoy atamalar, xususan, joy nomi, shaxs ismi, unvon va h. k. atamalar xitoy tili qonuniyatlari asosida, ba'zan xitoychaga o'girilgan, ba'zan esa mahalliy shakliga yaqin bir tarzda berilgan. Masalan, yilnomalarda Toshkent nomi xitoychaga tarjima qilingan holda *Shi* «tosh» tarzida, mahalliy nomi – «Choch» toponimiga yaqin shaklda esa *Chjechji* tarzida o'rin olgan. Shunga o'xshash holat boshqa hukmdorliklar nomlarida ham ko'zga tashlanadi: Farg'ona *Ningyuan* yoki *Boxanna*, Samarqand *Kan* yoki *Samogyan*, Buxoro *An* yoki *Buxo*, Ustrushona *Sao* yoki *Sudulushana* va h.k.

O'quvchilarga qulay bo'lishini ta'minlash maqsadida, mazkur tarjima va izohlarda joy nomlari, shaxs ismlari va unvonlarning xitoycha atalishi kursiv shaklda berildi.

**A.Xo'jayev, G'.Boboyorov, A.Kubatin**

## «Veyshu» («Vey sulolasi tarixi»)

«Vey sulolasi tarixi»ni saroy tarixchilaridan biri Vey Shou (506–572) yozgan. Asar 130 bobdan iborat. Uning ayrim qismlari yo'qolganidan so'ng manba «Beyshi» ma'lumotlari hisobidan to'ldirilgan. Mazmunan u 386–534-yillarda mavjud bo'lgan Shimoliy Vey va 534–550-yillarda mavjud bo'lgan Sharqiy Vey sulolalarining tarixi hisoblanadi. Ma'lumki, ushbu sulolaning asoschisi sharqiy g'uzlar tarkibiga kirgan shyanbi (syanbi)larning sardori Tobaguy hisoblanadi. Avvaliga mazkur sulolaning nomi Day bo'lgan. Ammo sulola tashkil topgan yilning o'zidayoq uning nomi Veyga

[1] *Chavannes E.* «Documents sur les TouKiue (Turks) occidentaux». SPb.,1903; Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. İstanbul, 2007.

@tarixchilar kutubxonasiga

o'zgartirilgan. 398-yilda Pingcheng (hozirgi Ichki Mongoliyadagi Datung) shahri uning poytaxti qilib belgilangan. Shimoliy Vey davlati kuchayganida, uning hududiga Xuanxe daryosining qirg'oqlari, hozirgi Ichki Mongoliya va Xitoy Xalq Respublikasining Gansu o'lkasi (Xeshi yo'lagi)ning yerlari kirgan. Markaziy Osiyo davlatlari bilan faol diplomatik va savdo aloqalarini olib borgan. Shuning uchun Vey sulolasiga kiritilgan ma'lumotlarni aniq va asosli, deb hisoblash mumkin.

Odatda, Vey sulolasi tarixining ayrim yo'qolgan qismlari «Beyshi» asosida to'ldirib borilgan, deyiladi. Lekin ikkinchi asarni yozishda uning muallifi o'zidan oldin yozilgan asarlardan, jumladan, «Veyshu» dagi ma'lumotlardan foydalangan. Shunga ko'ra, bu to'ldirishni asardan olingan ma'lumotni yana joyiga qaytarish, deb bilish to'g'ri bo'ladi. Bu mulohaza «Veyshu»ning mavqeyini tushirmaydi. Ushbu manbadagi ma'lumotlar N.Y. Bichurin tarjimalarida keltirilmagan. «Veyshu» «24 tarix»ning 8-jildini tashkil etadi. Quyida «Veyshu»dan lavha xitoy tilidan o'zbek tiliga o'girildi (tarjimon A.Xo'jayev).

**A.Xo'jayev**

### «Veyshu» («Vey sulolasi tarixi»)dan

**102-bob. G'arbiy mamlakatlar tazkirasi.** /9701(1319)/14b/. Luona-guo (洛那国qadimgi o'qilishda Lakna – Farg'ona davlati) qadimgi Buyuk-Farg'ona (Day-yuan) davlatidir. [Uning] poytaxti Suli (Qashqar)ning g'arbi-shimolida joylashgan Kveysan (贵山 zam. o'q. Guyshan) shahridir. [Bu yerdan Vey sulolasi] markazigacha 14 ming 450 li (260 kmga yaqin) masofa mavjud. Tayxening uchinchi yili (milodiy 229-yil)[1] [ushbu mamlakat hukmdori] elchi yuborib, [Vey imperatoriga] qonsimon ter oqadigan /15a/ ot sovg'a qilgan. Shundan so'ng har gal elchi yuborganda [Vey sulolasi] saroyiga tashrif sovg'alarini (朝贡) berib turgan».

### «Suyshu» («Suy sulolasi tarixi»)

«Suy sulolasi tarixi» – Suy davlati (581–618) tarixiga bag'ishlangan tarixiy asar bo'lib, ushbu sulola yo'qotilib, uning o'rniga tashkil topgan Tang davlatining dastlabki yillarida (629–656) Yan Shigu, Kun Inda, Syuy Jinzung kabi bir guruh saroy tarixchilari tomonidan bitilgan. 1024-yilda asar ilk bor chop etilgan. Ammo ushbu nusxa saqlanmagan. 1208–1224-yillarda asar ikkinchi marta toshbosmadan chiqarilgan. Uning ayrim qismlari saqla-

[1] *Tayxe* (太和) – 227–233-yillarning nomi, u «buyuk tinchlik» ma'nosini anglatadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

nib qolgan. Asarning 1297–1307-yillarda uchinchi marta bosmadan chiqarilgan nusxasi yaxshi saqlangan. XVII–XX asrlar davomida qayta chop etilgan «Suyshu» mana shu nusxaga asoslangan.

Asarning hajmi 85 bob (jyuan)dan iborat bo'lib, shundan 5 bobi imperatorlar hayoti va faoliyatini tasvirlash, 30 bobi tarixiy voqealar, urf-odatlarga, geografiya va falakiyotshunoslik kabi sohalarga oid ma'lumotlarni bayon etish va qolgan 50 bobi yirik shaxslar, g'ayri etnoslar va mamlakatlarga oid xabarlarni bayon etishga bag'ishlangan. Suy va Tang imperiyalari Turk xoqonligi bilan jiddiy munosabatda bo'lganligi tufayli, ushbu asarda turklarga oid ma'lumotlar salmoqli o'rin egallagan. Asarning uchinchi qismidan joy olgan «Shiyuy» («G'arbiy mamlakatlar») nomli bobida Turkiston tarixiga, jumladan, Farg'onaga oid ma'lumotlar ham keltiriladi. «Suyshu» «24 tarix»ning IX jildidan joy olgan. Quyida «Suyshu»dan lavha xitoy tilidan o'zbek tiliga o'girildi (tarjimon A.Xo'jayev).

**A.Xo'jayev**

## «Suyshu» («Suy sulolasi tarixi»)dan

**83-bob. G'arbiy mamlakatlar.** /117006(828)/12a/. Faxan davlati (鎩汗国). Farg'ona davlatining poytaxti Pomir (Sungling)ning g'arbida 50 li narida joylashgan bo'lib, u qadimda Giashieu (zam. o'q. Chyuysou 渠搜)[1] deb atalar edi. Hukmdorning familiyasi Jabg'u (Chjav'u, qadimgi o'q. Siaumiu /Tciau-miu, Tciau-miwa 昭武), ismi Alchi (Alichi 阿利柒). Poytaxt devori aylanmasiga 4 li (2.304 km) keladi. Askarlarining soni bir necha ming kishidan iborat. Hukmdor qo'y shaklidagi oltin taxtda o'tiradi. Hukmdorning rafiqasi (xonish) oltin toj /12b/ taqadi. Bu yerda qizil qum[2], oltin, temir ko'p. Shimoli-sharqdan Suli (Qashqar)gacha 1000 li (576 km), g'arbda Sutrishana (Suduyshana) davlatigacha 500 li (288 km), g'arbi-shimolda Chochgacha (Shi guo) 500 li, sharqi-shimolda Turk xoqonining turar joyigacha 2000 li

[1] Giashieu (Gia-shiau, Gio-shiau, zam. o'q. Chyuysou, Chui-sou / xitoycha transkripsiyada Qu-sou 渠搜, «Shiji»ning «5 imperator» bobida Qu-sou渠度, «Beyshi»ning 97-bobida va «Shiyuy tuji» nomli asarda 渠叟) toponimidagi ikkinchi ieroglif har xil manbada turlicha yozilgan. Ushbu toponim qadimiy hind tili sanskritidagi Kosava (Chou-su 氆 叟毛) dan kelib chiqqan. Keyinchalik u Kiveyshan (kiwei-shan. zam. o'q. Guyshan 貴山. 贵山) deb nomlana boshlagan. [Shiyuy diming kaolu. 751-b.]. «Shiyuy tuji»da «Farg'ona (Boxan-guo) davlati Pomirning g'arbida undan 500 li narida joylashgan. Qadimda u Chyuysou davlatidir» deb yozilgan [Shiyuy diming kaolu. 751-b.].

[2] *Asliyatda «chjusha»* (朱砂) – tarkibida oltingugurt bo'lgan simob yoki qizg'ish rangli mineral. Uning ruscha tarjimasi киноварь, сернистая ртуть. Uyg'urcha tarjimada «qizil qum» deb ko'rsatilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(1152 km), sharqda Guachjougacha[1] 3500 li (2118 km) masofa mavjud. Dae[2] davri (605–618)da elchi yuborib, mahalliy mahsulotlardan sovg'alar yuborgan».

## «Beyshi» ( «Shimoliy sulolalar tarixi»)

«Beyshi» – Tang sulolasining dastlabki davrida, ya'ni VII asrning birinchi yarmida yozilgan shimoliy sulolalar tarixi, uning umumiy hajmi 100 bob (jyuan)dan iborat. Unda 386–618-yillardagi tarixiy voqealar bayon etilgan. Shu davrda qadimiy Xitoyning shimoli va g'arbi-shimolida «Shimoliy Vey» («Bey-Vey» – 386–534), «Sharqiy Vey» («Dung-Vey» – 534–550), «G'arbiy Vey» («Shivey» – 535–555), «Shimoliy Chi» («Beychi» – 550–577) va «Shimoliy Chjou» («Beychjou» – 557–583) kabi 5 ta mayda davlatlar mavjud bo'lgan. Bu 5 ta davlat etnik kelib chiqishi xitoy bo'lmagan va qadimgi Xitoyning shimoliy va g'arbiy tomonidagi qo'shni xalqlar tomonidan tashkil etilgan. Jumladan, Shimoliy Chi va Vey nomlari bilan atalgan 3 ta davlat kelib chiqishi turklar bilan bog'liq bo'lgan syanbilar tomonidan tashkil etilgan. Shuning uchun ham ular Xitoy sulolalari hisoblanmaydi. Sharqiy Vey va G'arbiy Vey sulolalari esa Shimoliy Vey sulolasining bo'linib ketishi natijasida tashkil topgan.

«Beyshi» 643-yilda mazkur 5 ta davlat tarixini va 581–618-yillarda mavjud bo'lgan hamda xitoylar tomonidan tashkil etilgan Suy sulolasi tarixini jamlash va umumlashtirish asosida yozib tugatilgan. Uning muallifi Li Yanshou (tug'ilgan va o'lgan yillari noma'lum) Tang sulolasi saroyida xizmat qilgan yirik tarixchilaridan hisoblanadi. U «Jin» va «Suy» sulolalari tarixi («Suyshu», «Jinshu») va «5 davlat tarixi» («Sanguo chji») kabi bir qancha tarixiy asarlar yozishda qatnashgan. «Beyshi» «24 tarix»ning IX jildidan joy olgan. Quyida «Beyshi»dan lavha xitoy tilidan o'zbek tiliga o'girildi (*tarjimon A. Xo'jayev*).

**A. Xo'jayev**

## «Beyshi» («Shimoliy sulolalar tarixi»)dan

**97-bob. G'arbiy mamlakatlar.** /117006(828)/16a/. Lona davlati (Lona–guo 洛那国) qadimgi Day-yuan (Buyuk Farg'ona) davlatidir. [Uning] poytaxti Kiveyshan (kiwei-shan贵山[3] zam. o'q. Guyshan) shahri. [U] Suli (Qashqar)

[1] *Guachjou* (瓜州) – hozirgi Dunxuangdagi joy nomi, qadimda bu joyda Yun (Yun氏) familiyali runglar (qadim. o'q. rivem), ya'ni ot minuvchi xalqlar yashagan [Sixay. 1772-b.]. Ushbu familiyali runglar hunnlardir.

[2] *Dae* (大业) – 605–617 yillarning nomi, u «buyuk amal» yoki «faoliyat» ma'nosini anglatadi.

[3] Yuqorida sharhlab o'tilgan.

@tarixchi_bunyodnasiga

ning g'arbi-shimolida joylashgan. [Bu yerdan Vey sulolasi] markazigacha 14 ming 450 *li* ( 260 km ga yaqin) masofa mavjud. Tayxening uchinchi yili (milodiy 229-yil) [ushbu mamlakat hukmdori Vey imperatoriga] elchi yuborib, qonsimon ter oqadigan ot sovg'a qilgan. Shundan so'ng har gal elchi yo'llaganda, [Vey sulolasi] saroyiga tashrif sovg'alarini (chaogung朝贡) yuborib turgan».

## «SHIN TANGSHU» («TANG SULOLASINING YANGI TARIXI»)DAGI FARG'ONAGA OID MA'LUMOTLAR

941–945-yillarda Tang sulolasi saroyida Lyu Xu rahbarligidagi tarixchilar guruhi ushbu sulola tarixini yozib tugatdi, u «Tangshu» (唐书 «Tang sulolasi tarixi») deb nomlandi. Bir asrdan so'ng, ya'ni 1044–1060-yillarda Ou Yangshyu (欧阳修) va Sung Si (宋祁) «Tangshu»ning ayrim qismlarini qisqartirish, tuzatish, to'ldirish va yangi boblar qo'shish asosida Tang sulolasining tarixini qaytadan yozib chiqdilar. Mazkur tarixga turklarga oid ma'lumotlar ko'proq kiritilgan. Shundan keyin oldin yozilgan Tang sulolasi tarixi «Jyu Tangshu» (旧唐书 «Tang sulolasining avvalgi tarixi»), sulolaning keyin bitilgan tarixi esa «Shin Tangshu» (新唐书 «Tang sulolasining yangi tarixi») deb nomlandi. Har ikki tarixiy asar hozirgi davrgacha yetib kelgan va ular «24 tarix» tarkibiga kiritilgan. «Jyu Tangshu»ning hajmi 200 bobdan, «Shin Tangshu» hajmi esa 225 bobdan iborat.

Ushbu asardagi Farg'onaga oid ma'lumotni tushunib olish uchun Tang sulolasining Markaziy Osiyo siyosati haqida qisqacha ma'lumot berishni maqsadga muvofiq deb topdik.

618-yilda turklar yordamida Li Yuan ismli shaxs Xitoyda yuz bergan siyosiy vaziyatdan foydalanib, poytaxt bo'lmish Chang'an shahrini qo'lga oldi. Avvaliga u taxtga Suy sulolasi davridagi hokimlardan biri bo'lgan Yang Yuni o'tqazdi, biroz vaqt o'tgandan so'ng taxtni o'zi egallab oldi va o'z hokimiyatini Tang (Buyuk ma'nosiga ega) deb nomladi[1]. Li Yuan turklar tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi tasodifan emas edi. Uning ajdodlari Xeshi yo'lagidagi Lungshi nomli joyda yashagan bo'lib, ularning etnik kelib chiqishi turklardan bo'lgan[2]. 9 yildan so'ng Li Yuan taxtni o'g'li Li Shiminga (Tayszun – 727–750) topshirdi. Shundan keyin Tang sulolasining turklarga bo'lgan siyosati o'zgara boshladi. 3-imperator Gaoszun (650–684) davrida Tang sulolasi turklarga qarshi siyosat olib bordi. Bu borada u uzoqdagi mamlakatlar bilan ittifoqlashib, yaqindagi qo'shni, ya'ni Sharqiy Turk xoqonligiga qarshi turish amaliyotini qo'lladi. Ushbu xoqonlikni yo'qotgandan so'ng G'arbiy Turk xoqonligi-

[1] *Shan Yue.* Chjungo lishi gan'yao. 128-129-b.
[2] O'sha asar. 128-b.; Sixay. 856-b.

@tarixchi kitobonasiga

ga qarshi kurash boshladi. Shyunzung (712–756) davrida Tang sulolasi Turkistonga hujum boshladi. 748-yilda uning qo'shinlari Suyye (Sui-ye 碎叶 – hozirgi To'qmok[1]) shahrini bosib oldi, shahar vayron qilindi. 750-yilda ular Toshkentga hujum qildi[2], mahalliy hukmdor Djabshi (Chebishi) asirga olinib, Xitoyga olib ketildi. Toshkent hukmdorining o'g'li qochib, arablardan yordam so'radi[3]. 751-yilda Talas daryosi bo'yida arablar bilan bo'lgan jangda Tang qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Shundan keyingi ming yilga yaqin davr davomida Xitoy qo'shinlari Turkiston sari yurish qilish imkoniyatiga ega bo'lolmadi. Quyida «Shin Tangshu»dan lavha xitoy tilidan o'zbek tiliga o'girildi (tarjimon A.Xo'jayev).

**A.Xo'jayev**

## «SHIN TANGSHU» («TANG SULOLASINING YANGI TARIXI»)DAN

**221-bob. G'arbiy mamlakatlar tazkirasi. 2-qism.** /16971 (1557)/5a/. Ningyuan (寧遠)[4] aslida Farg'ona (Baxanna拔汗那)[5] yoki Parkan (Roxan 簸汗), Vey [sulolasi] davrida Puoluona (破洛那) deb nomlangan[6]. [Tang sulolasining] poytaxt shahri[7]dan 8 ming *li* (4608 km) narida joylashgan. [Farg'ona hukmdori] Norin daryosi (Chjenchju-xe)[8] shimolida joylashgan Shijyan[9] shahrida turadi. [Farg'onada] 6 ta yirik, 100 ta kichik shaharchalar mavjud, odamlar uzoq umr ko'radi. Uning hukmdorlari (vang王) Vey va

[1] Xitoy olimlari Suyye shahrini hozirgi Qirg'izistondagi To'qmoq shahri yonidagi Oqbeshim (Akebeyshimu) shahri xarobasi o'rniga joylashtirishadi [Shiyuy diming kaolu. 868–869-b.; Sinszyan lishi sidyan. 663-b.].

[2] *Ходжаев А.* Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Ишаш (Ташкент) // O'zbekiston tarixi (История Узбекистана). 2005. № 1. 3-18-b.

[3] *Van Chjilay.* Chjun'ya shigan. 277-b.

[4] *Ningyuan* (寧遠) – Farg'ona vodiysining Tang davrida ishlatilgan nomi, u «Olisdagi sokinlik» ma'nosini anglatadi.

[5] «Shin Tangshu»dagi Farg'onaga oid ma'lumotni N.Y. Bichurin «Ningyuan» deb tarjima qilgan va bu aynan Farg'onaning xitoycha nomi ekanligini aytmagan. Shu bois «Ningyuan» deganda Farg'ona haqida gap ketayotganligi bilinmay qolgan. «Baxanna» o'qilgan iyerogliflarni «Boxanna» deb yozgan [*Бичурин Н.Я.(Иакинф).* Собрание сведений... Almata nashri. 332-b.].. Bu xato emas, chunki «ba» iyeroglifi (拔) bo deb ham o'qilgan.

[6] Ushbu ma'lumot «Shin Tangshu»ning Farg'onaga oid qismiga bag'ishlangan uyg'urcha tarjimada keltirilmaydi [Yangi Tangnoma. Urumchi, 2010. 972-b.].

[7] Xitoydagi Tang sulolasining poytaxti Chang'an (hozirgi Shian, rus adabiyotida Sian) edi. Bu davrdagi asosiy qatnov yo'li Sharqiy Turkistondagi Qumul, Urumchi, Ili vodiysi, hozirgi janubi-sharqiy Qozog'iston orqali o'tgan. Yo'l masofasi ana shu yo'nalishda berilgan.

[8] *Chjenchju-xe* (真珠河) – hozirgi Norin daryosi (那林河)dir. U Naryh deb ham nomlangan [Shiyuy diming kaolu. 1163-b.]. Chjenchju-xe iyeroglifларining ma'nosi «haqiqiy marvarid» demakdir.

[9] *Shijyan shahri* (*Shijian-cheng*西建城) – Xitoyda Tang sulolasi hukmronlik qilgan davridagi (618–907) Farg'onaning markazi bo'lgan. U Axsikent (xitoy olimlarining yozishicha Akhwsi kath)ning xitoycha nomlanishidir [Shiyuy diming kaolu. 1019-b.].

@tarixchi_kitobonasiga

Jin [sulolalari davridan buyon] avloddan avlodga hukmronlik qilib keladi. Har yili birinchi oyning birinchi kuni hukmdor sardorlarni ikki guruhga ajratadi. So'ng har bir guruhdan bittadan odam tanlab, ularning sovutlarini yechtirib kurashtiradi. Odamlar kurashayotganlardan biri o'lguncha ularga sopol [idish bo'laklari] va tosh otishadi. Shu asosda yilning yaxshi yoki yomon kelishini aniqlaydi.

Chjengguan (貞觀)[1] davrida (627–649-yillar) G'arbiy turk hukmdori (vang 王) Chuaymo-Xeduo (Chuaimo Heduo 啜莫賀咄)[2] [Farg'ona] hukmdori Chibi (契弊)ni[3] o'ldirdi, Achinna-Shuni (阿契那鼠匿)[4] uning shahrini egallab oldi. [Achinna–] Shuni o'lgandan so'ng uning o'g'li Ebuochji (遏波氏) Chibining ukasiga hukmdor (vang) unvonini berib, uni Xumen shahriga[5] hukmdor qildi. Ebuochjining [o'zi] Kesay shahri (渴寔)ni[6] idora qildi. Shyanching (顯慶) davrining boshlanishida (656-y.) Ebuochji [Tang sulolasi saroyiga] elchi yuborib, sovg'alar keltirdi[7]. Gaozung [javoban]

[1] *Chjengguan* (貞觀 – «haqiqiy ko'rinish» ma'nosini anglatadi) – 627–649- va 1102–1114-yillarga berilgan nom.

[2] Mazkur ma'lumotning uyg'urcha tarjimasida Chuaymo-Xeduoning ismi «Xon-bohadur» deb yozilgan [Yangi Tangnoma. 972-b]. Turg'un Olmasning ma'lumotlariga ko'ra, G'arbiy turk xoqonligi taxtida 618–630-yillarda Tun-yabg'u qoon, 630–633-yillarda Si-yabg'u (Sir-yabg'u) qoon, 633–634-yillarda Bag'asha To'lis qoon, 634–639-yillarda Ishpara Tirish Tungnga qoon, 639–651-yillarda Ipi To'lo' qoon, 651–638-yillarda Asina-olib qoon o'tirganlar [Turg'un Olmos. Uyg'urlar. 342-b.]. Bular orasida ismi Chuaymo-Xeduo yoki Xon-bohadurga to'g'ri keladigani G'arbiy Turk qog'onlari ko'rinmaydi. Qolaversa, asliyatda Chuaymo-Xeduoning unvoni xoqon emas, balki «vang», ya'ni hukmdor deb nomlangan. Shularga qaraganda, ushbu shaxs qo'shin boshliqlaridan bo'lsa kerak, degan fikr yuzaga kelmoqda.

[3] «Yangi Tangnoma»da Chibining ismi «Qopish» deb olingan [Yangi Tangnoma. 972-b.].

[4] «Yangi Tangnoma»da Achinna–Shunining ismi «Ashina Sunish» deb yozilgan [Yangi Tangnoma. 972-b.].

[5] Xumen shahri (畔閏城)

[6] Kesay toponimi «Shin Tangshu»ning uyg'urcha tanlanma tarjimasi bo'lmish «Yangi Tangnoma»da «Qoson» deb yozilgan [Yangi Tangnoma. 973-b.]. Ayrim xitoy olimlari ham buni asosli deb hisoblaydilar [Shiyuy diming kaolu. 334-b.].

[7] Asliyatda elchilar Tang sulolasi saroyiga olib borgan sovg'alar «chaogung» (朝貢) deb nomlangan. Bunday sovg'alar evaziga Tang sulolasi tomonidan berilgan sovg'alar esa «veyyuy» (慰諭) deb nomlangan. Bu ikki so'zda ishlatilgan iyerogliflar ma'nosidan kelib chiqqanda, «chaogung» saroyga taqdim etilgan sovg'a ma'nosini, «veyyuy» esa «g'amxo'rlik ko'rsatish asosida birorta bir maqsad sari boshlash» ma'nosini bildiradi. Amaliy tomondan ularning ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, birinchi so'z Xitoy xoqoniga itoatkorlik munosabatini bildirish maqsadida yuborilgan tuhfalar sifatida talqin qilingan. Ikkinchi so'z itoatkorlik munosabatini bildirib kelganlarga «imperatorining in'omi» va «ko'rsatilgan g'amxo'rlik nishonasi» deb tushunilgan. Ushbu tushunchalar Xitoy hukmdorlari uchun qadimdan an'ana bo'lib kelayotgan oliy ustunlik g'oyasi asosida shakllangan. Ammo Xitoyga kelgan elchilar ushbu davlat bilan do'stona munosabat o'rnatish va sovg'a sifatida turli narsalar olib borib, evaziga mahalliy mollarini olib kelish maqsadida yuborilgan. Bu xalqaro savdoning mol ayriboshlash asosida o'rnatilgan munosabatlari edi.

@tarixchi_kutubxonasiga

katta iltifot ko'rsatdi. [Mazkur davrning] 3-yilida (658-y.) Kesay shahri Syushyun (休循 Erkeshtam) viloyati deb nomlandi va unga bosh harbiy amaldor (dudu)[1] Alyaosen (Alsan) hokim[2] qilib tayinlandi. Shu sanadan boshlab [Tang sulolasi] saroyiga har yili sovg'a yuborib turdi. [Imperator] Shyuanzung[3]ning Kayyuan davrining 27-yilida (739-y.)[4] Tuaxueysianni (T'a-huəi-sian, T'a-hua-sian, zam. o'q. Tuoxuoshyan 吐火仙) itoat qildirishga [Tang qo'shinlari bilan] hamkorlik qilgani uchun [Farg'ona] hukmdori (vang) Arslon-Tarxonga[5] fengxua-vang[6] unvoni in'om etildi /5b./.

Tyanbao[7] davrining 3-yilida (744-y.) ushbu davlat [Farg'ona]ga Ningyuan (寧遠)[8] deb nom berildi. Imperator [Farg'ona] hukmdoriga [o'z xonadoni uchun] begona bo'lgan sulola familiyasiga taalluqli Dou [so'zini][9] familiya qilib taqdim etdi[10].

---

[1] Xitoy urf-odatiga ko'ra, Tang sulolasi davrida «dudu» (都督) o'lka (provinsiya) doirasidagi harbiy qismlarning bosh qo'mondoniga beriladigan harbiy unvon edi [Chjuongguo liday guanchji sidyan. 817-b.].

[2] Asliyatda «sishi» (刺史, «lashi» ham o'qiladi) deb yozilgan – viloyat hukmdoriga beriladigan lavozim bo'lgan. Qadimiy Xitoy tomonidan bosib olingan yerlarga nisbatan olganda, ushbu lavozimga «dudu» unvoni bo'lgan harbiy amaldor tayinlangan.

[3] Shyuanzung (玄宗 – 685–762) – 712–756-yillarda taxtda o'tirgan, ismi Li Lungji.

[4] Kayyun (開元) – 713–741-yillarga berilgan nom, u «boshlanish» ma'nosini anglatadi.

[5] Asliyatda Arslon-Tarxon Ashilan-dagan (阿悉爛達干) shaklida transkripsiya qilingan.

[6] «Fengxua-vang (奉化王) – Tang sulolasi davrida xorijiy davlatlar hukmdorlariga in'om etiladigan faxriy unvon bo'lib, u «madaniyatga intiluvchan hukmdor» ma'nosini anglatgan. Mazkur unvon ma'nosidan ko'rinib turibdiki, Tang imperiyasi davrida Xitoy hukmdorlari o'zlarining dunyoqarashini, ya'ni boshqa mamlakatlarga nisbatan amalga oshirayotgan jahongirlik siyosatini madaniyat belgisi deb qarashgan va ushbu imperiya bilan hamkorlik qilganlarni «madaniylashishga» intilish deb baholangan.

[7] Tyanbao (天寶) – 742–755-yillarga berilgan nom, u «Tangri ato qilgan ne'mat» ma'nosini bildiradi.

[8] Yuqorida aytib o'tilganidek, «Ningyuan» (寧遠) «olisdagi sokinlik» yoki «xotirjamlik» ma'nosini anglatadi.

[9] Dou (竇 «du» deb ham o'qiladi) iyeroglifi «teshik, darcha, ariq, katta yerto'la, katta viloyat» kabi ma'nolarda va «shyanbi» qabilalariga oid bir avlodning nomi sifatida ishlatilgan. Xitoylarning oliy tabaqali avlodlarida ushbu so'z bilan atalgan familiya uchramaydi [Xanyuy dazidyan. IV jild, 2745-b.].

[10] Ushbu ma'lumot asl matnda «天寶三載改其號寧遠帝以外家姓賜其王曰竇» iyeroglifları bilan keltirilgan. N.Y. Bichurin uni «В третьем году правления Тьхянь-бао, 744, дано его владениям название Нин'юань. Император пожаловал владетелю прозвание Дома Дэу, из коего происходил род императрицы», deb tarjima qilgan [*Бичурин Н.Я.* Собрание сведений... Almata nashri. II jild, 333-b.]. Uyg'urcha tarjimada bu ma'lumot «Tyanbao 3-yili (milodiy 744-yil) Farg'onaning beklik nomi «Ningyuan» (Toshkent) deb o'zgartirildi. Podshoh oliylari unga Bek jamoatining shiram tuqqonlarining familiyasi bo'lg'on «du» familiyasini hadya etib»,... shaklida tarjima qilingan [Yangi Tangnoma. 973-b.]. Ikki tarjimani asl matn bilan solishtirish natijasida ulardagi xatoliklar aniqlandi. Rus olimi tarjimasida Farg'ona davlatini «владение» deb atash bilan birga «прозвание Дома Дэу, из коего происходил род императрицы» degan jumla qo'shilgan. Uyg'urcha tarjimada Farg'ona davlati «beklik» deb tarjima qilingan va «imperator oilasiga tobe bo'lmagan familiya» (外家姓) jumlasi «Bek jamoatining shiram tuqqonlarining familiyasi bo'lg'on», deb noaniqlikka yo'l qo'yilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bundan tashqari, [imperator] o'z avlodiga tegishli bir qizni Xeyi malikasi deb [Farg'ona hukmdori huzuriga]ga yubordi.

[Tyanbao davrining] 13-yilida (754-y.) [Farg'ona] hukmdori (vang) Chjungje (qadim. o'q. Tiwem-tsiet 忠節) o'g'li Shyueyuy (qadim. o'q. Siat-yiwok, 薛裕)ni Xitoy madaniyatini o'rganish uchun [imperator] saroyiga yubordi va u yerda yashab, soqchilik xizmatida bo'lishga ijozat so'radi[1]. [Imperator bu iltimos]ga quloq solib, [Farg'ona hukmdorining o'g'liga] szuo-uvey szyanszyun unvonini berdi[2]. Bu ish Tang [sulolasi uchun] beqiyos ehtiyotkorlik chorasi bo'ldi.

## «Bey-shi» («Shimoliy sulolalar tarixi»)dan [3]

***Kan* (Samarqand).** *Kan* hukmdorlari xonadoni *Kangyuy*[4] xonadonining avlodidir. Doimiy ravishda bir joydan boshqa joyga ko'chib yurishlari sababli, ular o'troq hayot kechirishmaydi. Xan sulolasi hukmronligidan beri taxt ularning qo'lida bo'lib kelgan. Hukmdor *Vin* deb ataladi, [u] Yuechji xonadonidan kelib chiqqan. Dastlab *Silyan-shan*[5] tizmasining shimoliy tomonidagi *Chjaovu* shahrida yashashgan. Lekin hunnlardan mag'lubiyatga uchragandan so'ng Piyozli tog'lar (Pomir) orqali g'arbga borib, u yerda podsholik tashkil qilishgan. U[lar] ko'p hukmdor xonadonlarga bo'lindi va qadimiy *Kan* podshohligida o'z hokimiyatiga asos soldilar. Ushbu xonadonlarning

[1] Farg'ona hukmdorining o'g'lini Xitoy poytaxtiga yuborish masalasiga oid ma'lumot asliyatda «十三年哦王忠節遣子薛裕朝謁留宿衛習華禮» shaklida ifodalangan. Uyg'urcha tarjimada bu «Tyanbav 13-yili (milodiy 754-yili) Farg'ona begi Jungjiy o'ttira iqlimi bo'yicha (o'rta iqlimning odatiga ko'ra – A.X.) Shyueyuni o'rdig'a turg'oqliqqa evatti (yubordi – A.X.)» [Yangi Tangnoma. 973-b.] deb asliyatdan biroz chekingan holda tarjima qilingan. N.Y. Bichurin ushbu ma'lumotni «В тридцатое лето владетель Чжун-цзйе отправил сына своего Сйеюй к Двору, и просил оставить его в придворной службе для изучения китайских обрядов» [*Бичурин Н.Я.* Собрание сведений... Almata nashri. II jild, 333-b.]. Ushbu olimning tarjimasi nisbatan to'g'ri, ammo unda «13-yil» so'z birikmasi «30-yil yozda» bo'lib qolgan. Bu yil 742–755-yillarning nomi bo'lmish «Tyanbao» davriga to'g'ri kelmaydi. 742-yildan boshlab hisoblaganda, o'ttiz yil, ya'ni 772-yilga teng bo'lib qoladi.

[2] «Szuo-uvey szyanszyun» (左武衛将軍) – Tang sulolasi davridagi saroy soqchilari bosh qo'mondoni (大将軍) yordamchilariga beriladigan harbiy unvon bo'lib, u «chap qanot saroy soqchilari qo'mondoni» ma'nosini anglatadi [Chjungguo liday guanchji sidyan. 555-b.]

[3] *Бичурин Н.Я.* Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. М.-Л., 1950. С. 271-276 (tarjima va izohlar muallifi: G'aybulla Boboyorov, Andrey Kubatin).

[4] *Kangyuy – Qang'*. Mil av. III–mil. III asrlarda hukm surgan ko'chmanchi asosli yirik davlat. Markazi Choch vohasi va uning atroflari (O'rta Sirdaryo havzasi – G'arbiy Yettisuv) bo'lgan mazkur davlat g'arbda Xorazmgacha, janubda esa Zarafshon vohasigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

[5] *Silyan-shan* – Xitoyning Gansu o'lkasi shimolidagi tog'larning nomi.

@tarixchi_kutubxonasiga

barchasi o'zlarining dastlabki kelib chiqishlari xotirasi sifatida *Chjaovu*[1] nomini saqlab qoldilar. Hukmdorlar nasldan naslga *Fubi*[2] deb ataldilar. U (Samarqand hukmdori) oliyjanobligi va yaxshi xislatlari bilan kuchli darajada xalqning e'tiborini qozondi. Uning xotini *Tukyue* (turk) xoqonining qizi edi[3]. U *Sabao* daryosi bo'yidagi *Aludi* shahrida turadi. Ko'p nufusli shahar. Uchta amaldor davlat ishlarini boshqaradi. Hukmdor sochini o'radi[4], yettita qimmatbaho toshli oltin toj kiyib yuradi. Liboslari ipak, ipakli kimxob va qalin oq matolardan tikilgan. [Hukmdorning] xotini sochini boshiga turmaklab, ustiga qora yopinchiq[5] yopib yuradi. Erkaklarning sochi olingan bo'lib, ipakli kimxobdan bo'lgan chakmon kiyishadi. *Kan* (Samarqand) kuchli davlat. Unga G'arbiy o'lkalardagi hukmdorliklarning aksariyati bo'ysunadi[6],

[1] *Chjaovu* – mahalliy shakli Jamuk yoki Chamuk bo'lgan deb taxmin qilinadigan ushbu sulolaning etnik kelib chiqishida to'xor, turkiy va sug'diy elementlar ishtirok etgan. Yilnomada Kan (Samarqand)dagi xonadon ushbu to'qqizta suloladan biri ekanligi ta'kidlanishi bilan birgalikda, ular orasida uning markaziy mavqega ega ekanligiga alohida urg'u beriladi. Shuningdek, xitoycha «Bey-shi» va «Suy-shu» yilnomalarida An (Buxoro), Xe (Kushoniya) va Mi (Maymurg') hukmdorlarining kelib chiqishi Chjaovu sulolasidan ekanligi va ularning nasli Kan (Samarqand) xonadoniga borib taqalishi haqidagi dalillar ham ushbu ma'lumotlarga mos keladi.

[2] *Fubi* – «Suy-shu»da *Shibi* shaklida keltirilgan ushbu atamaning shaxs ismi yoki xonadon nomi, yoki bo'lmasa, muayyan unvon bo'lganligi ma'lum emas.

[3] 560-yillardan boshlab Turk xoqonligi tarkibiga kirgan, biroq o'zining an'anaviy ichki boshqaruvini saqlab qolgan voha davlatlari bilan xoqonlik boshqaruvchi xonadoni vakillari orasida nikoh munosabatlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, xoqonlar vassallarga qiz berish vositasida ular ustidan nazoratni mustahkamlagan. «Suy-shu»da *Kan* (Samarqand) hukmdorlaridan *Shifubi*ning xotini G'arbiy turk hukmdori *Dadu* (Tardu; 576–603) xoqonning qizi ekanligi aytilsa, «Tan shu»da esa yana bir Samarqand hukmdori *Kuuymuchfi*ning Suy sulolasi (581–618) davrida G'arbiy turk xoqoni *Shexu kexan* (Yabg'u xoqon)ning qiziga uylangani qayd qilinib, *«u shu vaqtdan e'tiboran turklarga bo'ysundi»* deya ta'kidlangan (Бичурин Н.Я. Собрание сведений ... II. С. 311; Chavannes E. Çin yıllıklarına göre ... S. 305).

[4] Soch o'rish yoki yelkagacha soch qo'yish qadimgi turklarga xos odat bo'lib, bu Markaziy Osiyoning turli hududlaridan topilgan islomdan avvalgi tosh haykal (balbal)lar, Choch, Farg'ona, Sug'd tangalarida, Afrosiyob, Panjikent, Tavka-qal'a (Surxondaryo) saroy devoriy suratlarida, Shimoli-Sharqiy Xitoydan topilgan xoqonlik amaldorlariga oid qabrtosh (bo'rtma tasvir)larda va hokazolarda o'z ifodasini topgan (Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв. н.э.). Т., 2007. S. 14, 16, 30). Aftidan, turk xoqonlari o'ziga bo'ysunuvchi vassal hukmdorlaridan ham ushbu odatga amal qilishlarini talab qilgan. Bu ularning xoqonlikka tobeligining bir ifodasi edi (Skaff K.J. Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // TURKS. Ankara, 2002. Vol. 2. P. 101). Yilnomalarda Samarqand hukmdori sochini o'rishi, oddiy xalqning esa sochlarini oldirib yurishlari ta'kidlanishi bu fikrga asos beradi.

[5] Aslida, «sochi» bo'lib, «Suy sulolasi tarixi»da «boshida bir tutam soch» shaklida uchraydi.

[6] Ushbu ma'lumot Samarqandning, Sug'd konfederatsiyasi (Zarafshon daryosining yuqori va o'rta havzalari va Qashqadaryo havzalaridagi kichik hukmdorliklar ittifoqi)dan tashqari, Sug'd vohasiga qo'shni hududlar, ehtimol, Amudaryoning o'rta havzalaridagi hukmdorliklar ustidan ham o'z ta'sir doirasiga ega bo'lganidan darak beradi.

@tarixchi_kutubxonasiga

ular quyidagilar: *Mi* (Maymurg'), *Shi* (Kesh), *Sao* (Ishtixon), *Xe* (Kushoniya / Kattaqo'rg'on), *Kichik An* (Xarg'on / Karmana), *Nashebo* (Naxshab), *Hunaxe*, *Mu* (Amul?)[1]. Ibodatxonada *Xu* (G'arbiy o'lkalardagi o'troq xalqlar, xususan, sug'diylar) nizomi[2] saqlanadi. Jazoni tayinlash vaqtida o'sha nizomni olib, ishni hal qilishadi. Katta jinoyatlar uchun butun urug'ni qatl etishadi, kichikrog'i uchun o'lim, o'g'irlik uchun oyoqlarni kesishadi. Xalqi botiq ko'zli, katta burunli, qalin soqollidir. Savdoda mahoratli. Bu davlatga ko'p chet elliklar savdo qilish uchun kelishadi. Katta va kichik nog'ora, ud, besh torli chang, surnay bor. To'y va dafn marosimlari *Tukyue* (turk)larniki bilan bir xil. Qarorgohda ajdodlar ibodatxonasi bor, unda [yilning] oltinchi oyida qurbonlik qilinadi. Boshqa hukmdorlar qurbonlikda o'z hissasini qo'shish uchun tashrif buyuradilar. Buddaga sig'inishadi. *Xu* (sug'diy) yozuvi[3] qo'llaniladi. Iqlimi mo''tadil, ular turli xil nonlar yopishga mohir. Aholi bog'dorchilik va sabzavotchilikda mirishkor. Daraxtlari gurkirab o'sadi. [Hayvonlardan] ot, tuya, eshak, qo'tos; [ma'danlardan] oltin, nashotir; [shuningdek] har xil xushbo'y moddalar, oq dur, kabarga (kiyikning bir turi, erkagining kindigi yonida mushk bezi bo'ladi) terisi (bug'u, qo'y va boshqa mollarning terisidan tayyorlangan yumshoq baxmalsimon charm), kimxob, jun gazlama bor. Uzum musallasi ko'p. Boy xonadonlarda 1 000 *dan* (xitoy o'lchov birligi)ga yaqin sharob saqlanadi va u bir necha yil buzilmaydi. Daye davrida (605–616-yillar) birinchi marta mahalliy mahsulotlardan hurmat-ehtirom vositasi sifatida vakil (elchi) orqali [Xitoyga] yuborishgan, keyin bu to'xtatilgan.

***An* (Buxoro).** *An* hukmdorligining ilk Xan sulolasi davridagi nomi *Ansi* davlati bo'lgan. Hukmdor *Chjaovu* deb nomlanadi; kelib chiqishi *Kan* (Samarqand) hukmdorlari bilan bitta xonadondan; uning nomi *Sheli*[4]. *Kan* hukmdorining qiziga uylangan. Qarorgohi *Nami* (Zarafshon) daryosining[5] janubiy sohilida joylashgan. Shahar beshta devor va oqar suvli anhor bilan o'ralgan. Saroy binolari yassi tomli. Hukmdor tuya shakli-

[1] *Mu* – hozirgi Chorjo'y va uning yaqin atroflarini o'z ichiga olgan Amul (?) hukmdorligi bilan tenglashtiriladi.

[2] *Xu* – ushbu atama N.Y. Bichurin tarjimalarida tyurk (turkiy), тюркский (turkiycha) shakllarida berilgani bois, ko'pchilik tadqiqotchilar uni yanglish ravishda qadimgi turklar bilan bog'lashgan (Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – T., 1975. C. 35; Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., 2001. B. 85).

[3] Aslida, «xu yozuvi», ya'ni sug'diy yozuv bo'lishi kerak. N.Y. Bichurin esa «тюркский» (turkiy) deb tarjima qilgan. Bu esa bir qator yanglish talqinlarga yo'l ochgan.

[4] «Suy-shu» («Suy sulolasi tarixi»)da *Shelidin*.

[5] *Nami* – Zarafshon daryosi.

@tarixchi_kutubxonasiga

dagi oltin taxtda o'tiradi,[1] taxtning balandligi 7 dan 8 futgacha. Devonda qabul marosimida [hukmdorning] xotini unga qarama-qarshi tomonda o'tiradi. Uchta amaldor davlat ishlarini boshqaradi. Odatlari kangyuyliklar bilan o'xshash, farqi shundaki, (ular o'gay) opa-singillariga[2] va otasining [o'z onasi bo'lmagan] katta xotiniga[3] [nomiga] uylanishadi. *Yan-du* – Suy xonadonidan bo'lgan hukmdor [Xitoy imperatori] taxtga chiqish arafasida, katta amaldor – *Du Xin-man*ni elchi qilib G'arbiy o'lkalarga yuboradi. U *An* (Buxoro) saroyiga kelgach, ulardan besh xil rangdagi tuz olib orqaga qaytgan. *An*dan g'arb tarafga qarab yuz li masofada *Bi* (Poykent) hukmdorligi, aholisi 1 000 ga yaqin xonadondan iborat. Uning hukmdori yo'q, *An* davlati qo'l ostida bo'lgan. Da-ye davrining beshinchi yozida (609 yil) bu yerdan sovg'alar bilan [Xitoyga] elchilik yuborilgan, shundan keyin aloqalar to'xtagan.

***Mi* (Maymurg').** *Mi* hukmdorining qarorgohi *Nami* (Zarafshon) daryosining g'arbiy tomonida joylashgan. Bu joy qadimiy *Kangyuy* yeridir. Hukmdori yo'q. Shahar hokimi *Chjaovu* deb nomlanadi; o'zining urug'ini *Kan* (Samarqand) xonadoni hukmdorlaridan deb biladi. Uning nomi *Bichjo* (Bichut)[4]. Qarorgohning aylanasi ikki li atrofidadir. Muntazam jangchilari bir necha yuz kishi. Shimoli-g'arbda *Suyduyshana* (Ustrushona)gacha 500, janubi-g'arbda *Shi* (Kesh)gacha 200, sharqda *Gua-chjeu* gacha 6 400 *li*. Da-ye davrida (605–616-yillar) bu yerdan mahalliy sovg'alar olib kelingan edi.

***Shi* (Kesh).** *Shi* hukmdorining qarorgohi *Dumo* daryosidan 10 li janubda joylashgan. Bu joy Kangyuyning avvalgi eridir. Hukmdor *Chjaovu* deb

[1] Islomdan avvalgi Buxoro tangalarining ayrim turlarida ikki o'rkachli tuya tasviri uchraydi. Qadim davrlardayoq Markaziy Osiyodagi mavjud har bir voha davlati yoki biror shaharning o'ziga xos totemi – «ramziy homiysi» yoki «ramziy qo'riqlovchisi» bo'lgan. Ayniqsa, ilk o'rta asrlar mintaqa xalqlari tasviriy san'atida buning misoli yaqqol ko'zga tashlanadi. Xususan, arslon, tuya, ot kabi hayvonlar muqaddas hisoblanib, ularning tasvirlari ilk o'rta asrlarga oid devoriy rasmlar, sopol buyumlar, muhr, tanga va boshqa moddiy ashyolarda aks etgan. Jumladan, Naxshab tangalaridagi ot tasviri, Buxoro vohasi tangalaridagi ikki o'rkachli tuya tasviri ushbu hayvonlar mazkur hukmdorliklarda «ramziy homiylari» hisoblanganligi bilan bog'liq (Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar (Ilk o'rta asrlar). T., 2011. B. 65–71).

[2] O'z opa-singillariga emas, o'gay, ehtimol, boshqa ota-onadan bo'lgan.

[3] Katta o'gay onasiga, lekin tuqqanga emas. Katta ona Xitoyda qonuniy ona hisoblangan. Bu odat ramziy bo'lib, aslida nikoh va uylanish nomiga bo'lib, jinsiy hayot ko'zda tutilmagan.

[4] *Bichjo* – Bichut. Bichurin Biguye shaklida bergan. Mug' tog'i sug'diy hujjatlaridan birida Panchning turkiy hukmdori Chakin Cho'r Bilga (693–708)ning otasining ismi Bichut shaklida uchraydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

nomlanadi; uning nomi *Dichje*. U ham *Kan* (Samarqand) urug'iga mansub hukmdorlardan kelib chiqqan. Qarorgohining aylanasi ikki li. Muntazam jangchilar soni 1000 kishi atrofida. Odatlari kan (samarqand)liklar bilan bir xil. Shimolda *Kan* hukmdorligigacha 240, janubda *Tuxolo* (To'xoriston) gacha 500, g'arbda *Nashebo* (Naxshab) hukmdorligigacha 200, shimolda *Mi* (Maymurg') hukmdorligigacha 200, sharqda *Gua-chjeu*gacha 6 500 li. Da-ye davrida (605-616 yillar) o'sha yerda ishlab chiqilgan mahalliy sovg'alar yuborilgan.

***Sao* (Kabudon).** *Sao*[1] hukmdorining qarorgohi *Nami* (Zarafshon) daryosidan bir necha li janubda joylashgan. Bu joy *Kangyuy*ning avvalgi yeridir. Ushbu hukmdorlikning boshqaruvchi xonadoni yo'q, bu yerni boshqarishni *Kan* (Samarqand) hukmdori *Ugyan* ismli o'g'liga topshirgan. Qarorgohining aylanasi uch li. Muntazam jangchilar soni 1000 kishi atrofida. Mazkur hukmdorlikda *Desi* ma'budi bor, G'arbiy dengizdan[2] sharqda joylashgan hamma hukmdorlikdagilar unga sig'inishadi. U oltindan yasalgan but bo'lib, hajmi va uzunligi mutanosib ravishda 15 futni tashkil etadi. Har kuni beshta tuya, o'nta ot va yuzta qo'yni qurbonlik qilishadi. Ba'zida qurbonlik keltiruvchilar soni bir necha ming kishidan[3] oshadi va hammasini yeyisha olmaydi. Janubi-sharqda *Kan* (Samarqand) hukmdorligigacha 100, g'arbda *Xe* (Kushoniya / Kattaqo'rg'on)gacha 150, sharqda *Gua-chjeu*gacha 6 600 li. Da-ye davrida (605–616 yillar) elchilar jo'natilib, (ular orqali) bu yerning mahalliy mahsulotlaridan sovg'alar yuborilgan.

***Xe* (Kushoniya / Kattaqo'rg'on).** *Xe* hukmdorining qarorgohi *Nami* (Zarafshon) daryosidan bir necha li janubda joylashgan. Bu joy *Kangyuy*ning sobiq yeridir. Hukmdor Chjaovu deb nomlanadi. U ham *Kan* (Samarqand) urug'idagi hukmdorlardan kelib chiqqan. Uni *Dun* deb nomlashgan. Qarorgohining aylanasi ikki li. Muntazam jangchilar soni 1000 kishi atrofida. Hukmdor qo'y shaklidagi oltin taxtda o'tiradi. Sharqda *Sao* (Ishtixon) hukmdorligigacha 150, g'arbda *Kichik An* (Xarg'on / Karmana) hukmdorligigacha 300, sharqda *Gua-chjeu*gacha 6 750 li. Da-ye davrida (605–616 yillar) bu yerdan elchilar orqali mahalliy mahsulotlar sovg'a cifatida yuborilgan.

---

[1] Bu yerda Sao iyeroglifi «suv» so'zini ifodalovchi maxsus belgisiz yozilgan. Qoidaga ko'ra, xitoy iyeroglifiari asosiy iyeroglifdan tashqari, ularning ust yoki yon qismiga qo'yiladigan qo'shimcha belgilar bilan yozilgan va shu tariqa o'xshash iyeroglifiar farqlangan. Masalan, suyuqlikni bildiruvchi «suv belgisi», maysazor, o'tloq ma'nosini ifodalovchi «o't belgisi» kabi maxsus belgilar bo'lgan.

[2] Bu yerda Kaspiy dengizi ko'zda tutilgan.

[3] «Suy-shu» («Suy sulolasi tarixi»)da «mingta odamgacha» deb qayd etilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

***Shi* (Tosh[kent])**[1]. «Bir vaqtlar (Xitoydagi Da-ye davri (605–616-y.y.)ning boshlarida) *Shi-go* (Choch hukmdorligi) va *Tukyue* (Turk xoqonligi) orasida ixtilof sodir bo'ldi. *Sheguy* xoqon[2] o'z qo'shini bilan otlanib, ushbu hukmdorlikni tor-mor qildi (hukmdor *Nye* o'ldirildi) va u (Sheguy xoqon) *De-le* (Tegin) *Tyanchji*ni[3] noib sifatida ushbu hukmdorlikni boshqarishga buyruq berdi... Beshinchi Da-ye-yili (609-yil) da Tyanchji Xitoy saroyiga o'z hurmat-ehtiromini bildirish maqsadida hadyalar bilan birgalikda elchi yubordi. Shundan keyin [ancha vaqtgacha] elchi kelmadi».

## «Tan-shu» («Tan sulolasi tarixi»)dan[4]

***Kan* (Samarqand)** hukmdorligi, boshqa nomi *Samogyan* yoki *Limogyan*, Yuan-vey sulolasi davrida *Sivangin* nomlangan. Undan janubga *Shi* (Kesh) hukmdorligigacha 150 li, shimoli-g'arbda G'arbiy *Sao* (Ishtixon)gacha 100 li atrofida, janubi-sharqda *Mi* (Maymurg')gacha 100 li, shimolda *Markaziy*

---

[1] *Xitoycha* – Shi (lug'. «tosh»). Toshkent vohasining qadimiy nomlaridan biri o'laroq, milodiy V asrdan boshlab xitoy yilnomalarida Shi yoki Shi-go atamasi uchrab, ular lug'aviy jihatdan «Tosh», «Tosh mamlakati» ma'nosini bildiradi. Xitoy yilnomalaridagi «Tosh mamlakati» degan nom bilan qariyb ming yildan beri yozma manbalarda Toshkand, Toshkent shakllarida uchrab, to hozirgacha ham shaklan, ham mazmunan o'zgarmay kelayotgan voha nomi orasida bog'liqlik bor. Voha nomining qadimiy yilnomalarda shi tarzida aynan «tosh» ma'nosini bildiruvchi shakldagi ieroglifda berilishiga bu erning qadimgi turkiy tilda «tosh» deb atalishi asos bo'lgan bo'lib, xitoyliklar ushbu nomni o'z tillariga o'girgan (kalka) holatda qayd etishgan (Chavannes E. Documents sur les TouKiue (Turks) occidentaux. SPb.1903. R. 140).

[2] *Sheguy xoqon* – 611–618-yillarda hukm surgan G'arbiy Turk xoqonligi boshqaruvchisi.

[3] *De-le Tyanchji* – Tegin Tyanchji. 605-yilga kelib, Choch vohasi siyosiy hayotida katta o'zgarish ro'y beradi va shu yili xoqonlik tomonidan voha boshqaruviga *tegin* unvonli Tyanchji ismli shaxs noib qilib tayinlanadi. Choch hukmdori *Nye* o'ldirilishi oqibatida mahalliy sulola tobe sulolaga aylanadi. Darvoqe, Tegin Tyanchjining 609-yilda Choch hukmdori sifatida Xitoy saroyiga elchi yuborishi, uning vohada mustahkam o'rnashib olgani va o'z sulolasiga asos solganidan darak beradi. Buni Xitoy yilnomalarida 740–750-yillar orasida Chochning bosh hukmdori sifatida *tegin* unvonli shaxs eslatilgani va VII–VIII asrlarda vohada *tke'yn c'eynk γuβo* – «Choch hukmdori Tegin» jumlalari bilan tangalar zarb qilingani ham tasdiqlaydi (Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса ... С. 40–52). Garchi, Xitoy yilnomalarida Choch teginlarining kelib chiqishiga doir to'g'ridan to'g'ri ma'lumot uchramasa-da, o'sha davr voqeliklaridan kelib chiqib, ushbu sulolani Turk xoqonligining asoschi urug'i – Ashina xonadoniga mansub bo'lgan, deb hisoblash mumkin. Avvalo, Tegin Tyanchjining ismi va unvoni turkiy bo'lgani, ayniqsa, ushbu sulola vakillari xoqonlik boshqaruviga xos – *tegin* unvoniga ega bo'lishgani bundan dalolat beradi. *Tegin* – Turk xoqonligi boshqaruv tizimida xoqonlarning o'g'illari va jiyanlariga, ya'ni shahzodalarga beriladigan unvon edi.

[4] *Бичурин Н.Я.* Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. II. М.-Л., 1950. С. 310–322; Chavannes E. «Documents sur les TouKiue (Turks) occidentaux». SPb.,1903. R. 133–149, 155–158; Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. İstanbul, 2007. S. 182–203, 210–213, 262–264. (Tarjima va izohlar mualliflari: G'aybulla Boboyorov, Andrey Kubatin, Sh. Ziyoyev).

@tarixchi_kutubxonasiga

*Sao (Kabudon)gacha 50 li; Nami (Zarafshon) daryosi uning* janubiy tomonidan oqib o'tadi. Katta shaharlar 30 ta, kichik qishloqlar 300 tagacha. Hukmdor (xonadon)ning nomi *Vin*. U Yuechji xonadonidan kelib chiqqan. Dastlab bu xonadon *Silyan-shan* tog'larining shimoliy qismida *Chjaovu* shahrida istiqomat qilishgan. Turklardan mag'lubiyatga uchragandan so'ng[1] ular janubga Piyozli (Pomir) tog'larni aylanib o'tishib, hozirgi yerlari (Sug'd)ni egallashgan.

[Bu yerda] bitta daraxtning shoxlari kabi to'qqizta hukmron avlodlarga bo'linishgan: *An* (Buxoro), *Sao*[2], *Shi* (Choch), *Mi* (Maymurg'), *Xe* (Kushoniya / Kattaqo'rg'on), *Xosyun* (Xorazm), *Maodi* (Bitig?), *Shishi* (Kesh). Ushbu barcha xonadonlar bitta oila – *Chjaovu* xonadonidan kelib chiqqan. Tuprog'i unumdor, dehqonchilik uchun qulay. Bu o'lkada o'ta zotdor otlar yetishtiriladi. Mamlakat ko'p sonli qo'shinga ega. Ushbu farqli hukmdorliklarning aholisi may ichishga maylli, ko'chalarda qo'shiq [aytishni] va raqs [tushish]ni yaxshi ko'rishadi. Hukmdor oltin va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan qalpoq kiyadi. Ayollari sochini boshida turmaklab olishadi va zardo'zi qora yopinchiq yopinishadi. O'g'il bola tug'ilganda tiliga toshli asal (novvot) surtishadi, kaftiga yelim qo'yishadi, kelajakda shirinso'z bo'lishi va boylikni mahkam ushlashi uchun. Ko'ndalangiga yozishadi. Savdoda mahoratli va manfaatparast. Erkaklari yigirmaga to'lgach, qo'shni mamlakatlarga ketishadi va foyda keladigan hamma joyda bo'lishadi. Yil o'n ikkinchi oydan boshlanadi. Buddaviylik qonuniga amal qilishadi. Zaminning yomonlik ruhiga iltijo qilishadi. Yuqori darajadagi mahoratga ega dastgohlar yasashadi. O'n birinchi oyda childirma [chalishadi] va raqs [tushib] ilohdan sovuq [yuborishi]ni so'rashadi, vaqtichog'lik qilib bir-birlariga suv sepishadi.

Suy sulolasi davrida hukmdor *Gyuymuchji* G'arbiy turk xoqonining qiziga uylandi va shu kundan e'tiboran *Tukyue* (Turk xoqonligi)ga bo'ysungan. [Imperator] U-di hukmronligining to'qqizinchi yozida (627-yil) birinchi marta Xitoy saroyiga sovg'alar bilan elchi yubordi. Chjen-guan davrining beshinchi yozida (631-yil) Xitoy fuqarosi bo'lishi uchun izn so'radi. Imperator Tay-szun aytdi: «Men quruq shon-sharaf uchun xalqning nafratiga duchor bo'lishni istamayman. Agar *Kan* (Samarqand) mamlakati bizning fuqaromiz bo'lsa, qiyin vaqtlarida unga yordam qilamiz va dardlariga sherik bo'lamiz.

[1] Ushbu ma'lumot «Bey-shi» va «Suy-shu»da «hunnlardan mag'lubiyatga uchragandan so'ng» shaklida keltiriladi. Bu yerda xitoylik mualliflar anaxronizmga yo'l qo'yishgan, ya'ni Hunnlar davrida (taxm. milodiy III–IV asrlarda) bo'lib o'tgan voqeliklarni Turk xoqonligi bilan chalkashtirib qo'ygan bo'lishlari mumkin. Ehtimol, bu holat ular hunnlar va turklarni bitta xalq deb bilganliklari yoki turklarni hunnlardan kelib chiqqan deb talqin qilganliklari bilan izohlanishi ham mumkin.

[2] Sao iyeroglifi suv belgisiz yozilgan.

@tarixni_kutubxonasiga

Qo'shinimiz 10 000 li masofa yurishlariga to'g'ri keladi. Qanday qilib bunga ko'nglim rozi bo'lishi mumkin?». Shunday qilib u bu taklifni rad qildi.

*Kan* aholisi sher hadya qilish uchun yana bir elchilik hay'ati yubordi. Imperator oradagi uzoq masofa hadyaning qiymatini yanada orttirganini mulohaza qilib, arxiv mudiri Yu.Shenanga bu munosabat bilan she'r yozishini buyurdi. O'shandan boshlab har yili Kandan elchi sovg'a bilan keladigan bo'ldi. Sariq va oq olchalar olib kelishardi, imperator bog'ga ekishni buyurdi. Yun-vey [Yun-xuy] davrida [imperator] Gao-szun mamlakat (Kan hukmdorligi)ning nomini *Kangyuy* gubernatorligi deb o'zgartirdi va *Foxuman* (Avarxuman)[1] hukmdor qilib qo'yildi.

Van Sui Tung-tien davrida (696-yil) katta oqsoqol *Dusoboti* (Tukaspadak)[2] hukmdor unvonini oldi. Uning o'limidan keyin o'rniga o'g'li *Ninyeshishi* qo'yildi; uning o'limidan keyin hukmdor qilib *Tuxun* (Tarxun)[3] tayinlandi. Kay-yuan davri (713–741) boshlarida [Xitoy] saroyiga o'rilgan gazlamalar, sof billurdan yasalgan qadah, aqiqqa o'xshash ko'za, tuyaqush tuxumi, yuyen pakanasini va *Xu* (sug'diy)[4] raqqosalarni yuborishdi.

Hukmdor *Ulega* (G'urak)[5] *Dashi* (arab)lar[6] bilan shiddatli urush olib borayotgan edi, lekin muvaffaqiyatga erisha olmadi, shuning uchun yordamchi qo'shin so'radi. Osmon O'g'li (imperator) rad qildi. Ancha vaqt o'tgandan keyin uning o'g'illaridan *Doge* (Turg'ar)ni[7] *Sao* (Ishtixon) hukmdori, *Mochjo*

[1] *Avarxuman* – taxm. 650–670-yillarda hukm surgan. Afrosiyob devoriy rasmlaridagi bitiklarda Avarxuman, sug'diy tangalarda Varxuman yoki Avarxuman shakllarida yozilgan Samarqand hukmdori.

[2] *Tukaspadak* – taxm. 690-yillarda hukmronlik qilgan ushbu Samarqand hukmdorining ismi faqat sug'diy yozuvli tangalarda shu shaklda uchraydi.

[3] *Tarxun* – 700–710-yillarda Samarqandni boshqargan hukmdor. Uning ismi sug'diy yozuvli tangalar va arab-fors manbalarida shu shaklda berilgan.

[4] Bichurin «turkistonlik raqqosalarni» shaklida tarjima qilgan.

[5] *G'urak* – 710–738-yillarda hukm surgan; mazkur Samarqand hukmdorining ismi sug'diy tilli tangalar va arab-fors tilli yozma manbalarda shu shaklda uchraydi. O'zbekcha tarixiy adabiyotlarda Gurak yoki Gurek shakllarida berish hollari uchrab turadi.

[6] *Dashi* – Tozi / Tojik – Arab xalifaligi. Tojik etnonimiga asos bo'lgan «tazik» so'zi sug'diy va baqtriy tilli yodgorliklarda ham uchraydi. Arab ma'nosida qo'llangan *tozi(k)* etnonimi islom dini tarqala boshlashi munosabati bilan shu dinni qabul qilgan boshqa xalqlarga, xususan, eroniy tillar oilasiga kiruvchi aholiga nisbatan qo'llana boshlagan. Arab istilosining dastlabki bosqichidanoq Eron va unga qo'shni yerlar bosib olinib, islom dini joriy qilina boshlashi asnosida islomni qabul qilgan aholi qatlami «arab bo'ldi» degan ma'noda «tojik» deb atala boshlagan. Natijada bu nom islom dini ommaviy shaklga kirgan bosqichda eron tillarida so'zlashuvchi O'rta Osiyo xalqlaridan birining – hozirgi tojik xalqining etnonimiga aylangan (Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. II. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. М., 1962. С. 87-88).

[7] *Turg'ar* – 738–750-yillarda hukm surgan ushbu Samarqand hukmdorining ismi sug'diy yozuvli tangalarda va arab manbalarida (Turxar) shu shaklda berilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(Bekcho'r)ni[1] *Mi* (Maymurg') hukmdori qilib tayinlashni so'radi. Imperator bitta farmon bilan uning istagini hal etdi. *Ulega* o'limidan keyin *Dogeni* «o'zgarishlarni kuzatib borayotgan hukmdor» unvoni bilan taxtga o'tqazish va onasi – Xotunga[2] *kun-fu-jen* unvonini berish uchun elchi yuborildi.

***An* (Buxoro)** hukmdorligi, boshqa nomi *Buxo, Buxe,* Yuan-vey sulolasi davrida *Neumi* (Numijkat) deb nomlangan. Shimoli-sharqqa to'g'ri 100 li yurilsa *Sharqiy An* (Xarg'on)ga, janubi-g'arbga 100 li yurilsa *Bi* (Poykent)ga boriladi. G'arbda *An* (Buxoro) hukmdori *Vu-xe* (Amudaryo) daryosi bilan chegaradosh. Qadimda Kangyuy davlatiga itoat etuvchi kichik bir hukmdorlik bo'lmish *Ki* hukmdoriga tegishli bo'lgan *Alanmi* (Romitan) shahridan boshqariladi. Ushbu mamlakatda atrofi devorlar bilan o'ralgan yirik shaharlar qirqta, kichik qishloqlar mingga yaqin hisoblanadi. Bu yerda mard va baquvvatlar *chjege* (chokar)ga[3] olinadi, *chjege* «O'rtaliq davlat» (Xitoy) tilidagi ma'nosi «jangchi»dir. U-di hukmronligi davrida (618–626) saroyga tobelik bildirish uchun *An*dan elchi kelgan. Imperator Tay-szun quyidagi so'zlar bi-

[1] *Mochjo – Bekcho'r.* O.I. Smirnova *tuvy'r* (Turg'ar) shaklida sug'diy tangalarda uchraydigan G'urakning birinchi o'g'li ismining eroniy ism bo'lmay, asli turkiy ism ekanini izohlash barobarida, uning ikkinchi o'g'li *Mochjo* ismining muqobili hanuzgacha arab-fors manbalarida uchramaganini yozgan edi (Smirnova O.I. Monety iz raskopok Pendjikenta (1947) // MIA, № 15. M., 1950. S. 226). Turk xoqon Qapg'an (691–716)ning ismi ham Xitoy manbalarida G'urakning o'g'liniki bilan bir xil iyeroglifda *Mochjo* tarzida berilgan (Chavannes E. Documents sur les ... R. 136, k. 5). P. Pelo, *Mochjo* ismining turkiy asli Bekcho'r shaklida bo'lganini isbotlagan. Darvoqe, Sh.Kamoliddinov Nasafiy keltirgan shajaradagi Banicho'r G'urakning ikkinchi o'g'li ekani va u arablar tomonidan To'xoriston hukmdori qilib tayinlangani, IX–X asrlarda bu yerni boshqargan Banicho'riylar sulolasining uning naslidan bo'lganini yozadi (Камалиддинов Ш.Ш., Мухаммедов У.З. «Новые данные по истории Средней Азии в эпоху арабских завоеваний» // ONU, № 34. T., 1997. S. 91–93). G'urakning o'g'li Banicho'r To'xoriston hukmdori bo'lishdan oldin Samarqand rustoqlaridan biri Maymurg'da hokimlik qilgan. Arablar Samarqandni egallagach, G'urak xonadoni Maymurg'ga ko'chib o'tishgan edi. Demak, An-Nasafiy asaridagi Banicho'r bilan Xitoy manbasidagi Mochjo (Bek-cho'r) bitta shaxsdir. Ehtimol, mazkur ismning asli Bek-cho'r bo'lgan. Chunki arab-fors manbalarida turkiy Banicho'r ismi Beygcho'r (Bek-cho'r) tariqasida ham uchraydi. Ushbu shajaradagi Banicho'r va yilnomadagi Mochjo (Bek-cho'r) ismlarining ikkinchi qismi «cho'r» bo'lib, u Turk xoqonligida yuksak unvonlardan biri bo'lgan.

[2] *Xotun* – Turk xoqonligida oliy hukmdorning bosh ayoli ega bo'lgan unvon.

[3] *Chjege* – chokarlik (yollanma qo'shin) xizmati. Chokarlar Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlardagi voha hukmdorliklarida zodagon oilalarga mansub yigitlardan ko'ngilli ravishda yig'ilgan maxsus harbiy bo'linma (gvardiya) bo'lib, ularning vazifasi asosan hukmdorlarni qo'riqlash, mudofaa ishlarini olib borish bo'lgan. Ular uzoq yillar mobaynida maxsus harbiy tayyorgarliklar (mashqlar)da toblanib, harb ishini mukammal egallashgan. Darvoqe, xitoy rohibi Syuan Szan Samarqandni kuchli qo'shinga ega hukmdorlik sifatida quyidagicha ta'riflaydi: «[Samokiyen mamlakatining] hukmdori beparvo va jasur fe'l-atvorga ega kishidir, qo'shni mamlakatlar barchasi uning amriga itoat etadilar. Qo'shini va otlari nihoyatda quvvatli bo'lib, qo'shin asosan chjege (chokar) deb nomlangan jangchilardan tashkil topgan. Chjege deb ataladigan jangchilari jasur va dovyurakdir, o'limdan tap tortishmaydi hamda jangda hech qanday dushman ularga teng kela olmaydi» (Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2003. S. 128).

@tarixchi_kutubxonasiga

lan elchini ruhlantirdi: «G'arbiy turklar tobe etildi, endi tijorat karvonlari bemalol qatnayverishi mumkin». *Xu* xalqlari (sug'diylar va g'arbiy o'lkalardagi xalqlar) ushbu xabardan rosa xursand bo'lishdi. (Buxoro) hukmdori *Alinga* zotdor otlar yubordi. U o'zi haqida shunday dedi: «uning xonadoni yigirma ikki avloddan beri hukmronlik qilib kelmoqda».

*Sharqiy An* (Xarg'on/Karmana)[1] kichik hukmdorlik bo'lib, boshqa nomi *Xoxan* deb ataladi; Nami (Zarafshon) daryosining shimoliy tomonida joylashgan. Sharqda *Xe* (Kushoniya / Kattaqo'rg'on)gacha 200 li, janubi-g'arbda *Katta Ansi* (Buxoro)gacha 400 li. Poytaxti *Xoxan* (Xarg'onket) – boshqa bir nomi *Sigin* (yoki *Yogan*) bo'lgan ushbu shahardan boshqariladi. Katta shaharlar yigirmata, kichik qishloqlar 100 ga yaqin. Xyan-kin davrida (656–660), *Alan* (Katta Buxoro) nomi *An* okrugi deb o'zgartirildi va mamlakat hukmdori *Chjao-vu Sha* noib qilib tayinlandi; (Xarg'on hukmdorligi poytaxti) *Sigin* (Yogan) nomi *Mulu* okrugi deb o'zgartirildi va hukmdor *Chjaovu Bisi* noib qilib qo'yildi.

Kay-yuan davrining o'n to'rtinchi yozida (726-yil), hukmdor *Dusaboti* (Tug'shoda / Tukaspadak)[2] o'zining *Asilan* (Arslon)[3]-*Dafodan Fali* ismli ukasini Xitoy saroyiga hurmat-ehtirom izhor qilish, otlar bilan qoplon-

---

[1] *Xarg'on* – Karmanadan biroz yuqorida, Zarafshon daryosining shimolida joylashib, musulmon manbalarida Xarg'onket shaklida tilga olingan kichik humdorlik. U Xarqonrud kanalining bo'yida joylashgan.

[2] *Dusaboti* – mahalliy shakli sug'diycha *Tukaspadak*. 695–720-yillarda hukm surgan. Arab manbalarida Buxorxudot *Tug'shoda* yoki *Tag'shoda* shaklida zikr etilgan Buxoro hukmdorining ismi ham aslida Tukaspadak bo'lgan. Aksariyat tadqiqotchilar ushbu ismni qadimgi turkiy ism hisoblab, uni *tug'* «tug', bayroq» va *shad* «shahzoda» bilan aloqador deb talqin qilishlari (Шювен П. О Византийских посольствах к первым тюркским правителям Согда (Проблемы ономастики и топонимики)//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. № 1, 2, 3. Т., 1995. С. 35) munozarali bo'lib, ushbu hukmdorning ismi Xitoy manbalarida Samarqand hukmdori kabi *Dusaboti* shaklida uchrashi, Tabariy esa uni *Tuxshiyada* shaklida qayd etishi (История ат-Табари. Избранные отрывки (Пер. с арабского В.И. Беляева. Доп. к пер. О.Г. Большакова и А.Б. Халидова) Т., 1987. S. 269), mazkur ismni sug'diy asosda *Tuksapadak* shaklida tiklashga asos bo'ladi. Yuqorida Samarqand haqida keltirilgan ma'lumotlar izohida ham to'xtalib o'tilganidek, Xitoy yilnomalarida ismi *Dusaboti* yozilgan Samarqand hukmdori, uning o'zi zarb qildirgan tangalarda *Tukaspadak* shaklidadir.

[3] 720-yillarda Xitoyga elchi bo'lib borgan Buxoro shahzodasi *Asilan* (Arslon) *Dafodan Fali* ismi esa hozircha to'liq tiklanmagan. Xitoycha «Sefu Yuankui» asarida ushbu shahzodaning ismi *A-si-lan Ta-kan* (Arslon Tarxon) *Fo-dan Fa-li* shaklida nisbatan to'liqroq beriladiki (Chavannes E. Çin yıllıklarına göre ... S. 412), shu asosda u turkiy *tarxon* unvoniga ega bo'lgan deb hisoblash mumkin. O.I. Smirnova Buxoroning hukmdor ismlaridan biri sifatida arab manbalarida qayd etilgan Sukon (U Zd) ismini ham Arslon shaklida tiklashga harakat qiladi va uni Xitoy manbalaridagi mazkur Buxoro shahzodasi bilan tenglashtiradi (Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М., 1970. С. 279).

@tarixchi_kutubxonasiga

lar taqdim etish maqsadida yubordi. Sakkiz yil o'tgandan keyin (734-yil) ushbu mamlakatdan ikkita *Bosi* (Eron) xachiri, bitta *Folin* (Vizantiya)da tikilgan gilam, sof holdagi oltin, xushbo'y moddalar va toshli asal taqdim etdi. Hukmdorning ayoli (xotun) ikkita katta to'p (kalava ip?) va bitta gilam yubordi. Ular o'zlari uchun chakmon, kamar teri kiyimlar, qurol-aslahalar va hukmdor ayoli (xotun) uchun esa qalin ustki kiyim, liboslar, taqinchoqlar va mushklar berilishini istashardi.

***Sharqiy Sao* (Ustrushona)** hukmdorligi, boshqa nomlanishi *Shuaydushana, Suyduyshana, Kiputana*[1] va *Suduchjini*, hammasi bo'lib to'rtta nomga ega. Ushbu mamlakat *Bossi* tog'ining shimoliy tomonida joylashgan. Bu joylar Katta Xan sulolasi davrida *Ershi* (Farg'onaning markaziy shahri) ga tobe bo'lgan. Shimoli-sharqda *Gyuychjanti* (Xo'jand)gacha 200, shimolda *Shi* (Choch)gacha, g'arbda *Kan* (Samarqand), shimoli-sharqda *Nin-yuan* (Farg'ona) 400 li; janubda *Tuxolo* (To'xoriston)gacha 500 li. Ushbu shaharlarning barchasi 400 lidan ortiqroq masofadadir. *Yecha* shahri bo'lib, bu shaharda berk yopilgan g'or bor. Bu yerga har yili ikki marta qurbonlik keltirishadi. Odamlar yuzini g'orga qaratgan holda tik turishadi. U-di hukmronligi davomida (618–626-yillar) bu hukmdorlikdan elchi yuborildi. U bilan bir vaqtda *Kan* (Samarqand) ham (Xitoy) saroyiga itoatini bildirish uchun elchi yubordi. Ushbu elchi shunday dedi: «Men o'z o'lkamda jasur odam sifatida tanilganman. Sin hukmdorining g'ayritabiiy darajada jangovar odam ekanligini eshitdim. Uning bayrog'i ostida xizmat qilmoqchiman». Gao-szu bundan juda xursand bo'ldi.

***G'arbiy Sao* (Ishtixon)** hukmdorligi, Suy sulolasi davridagi Sao hukmdorligidir; janubda *Shi* (Kesh) va *Bolan* hukmdorliklari bilan chegaradosh. *Sidixun* (Ishtixon) shahridan boshqariladi. Shimoli-sharqda *Yuydi* shahridan o'tib ketiladi, *Desi* ruhi ibodatxonasi bor. Aholisi unga sig'inishadi. Bu ibodatxonada yozuvli oltin anjom bor, yozilishicha, bu anjomni Xan sulolasidan bo'lmish Osmon O'g'li (Xitoy imperatori) taqdim etgan. U-di hukmronligi davrida (618–626) tobelik izhor qilish uchun u yerdan elchilik kelgan. Tyan-bao davrining birinchi bahorida hukmdor *Gelo-pulo* (Qora-bo'g'ra)[2] ishlab chiqilgan mahalliy buyumlardan hadya qilish uchun elchi

[1] *Kiputana* – Kabudon hukmdorligi. Kabudon Ustrushonaga janubi-g'arbdan yaqin qo'shni bo'lgani uchun xitoylik mualliflar ba'zan uni go'yo Ustrushona bilan bitta hukmdorlikdek ta'riflashgan.

[2] *Gelo-pulo – Qora-bo'g'ra.* Aslida u Ustrushona hukmdori bo'lgan. Ehtimol, bu davrda Ishtixon va Kabudon bir muddat Ustrushonaga tobe bo'lib, shu tariqa u Ishtixon hukmdori sifatida tilga olingandir. Darvoqe, Tabariy, 737-yilda Ustrushonani Xara Bug'ra ismli hukm-

@tarixchi_kutubxonasiga

yubordi. Imperator unga *xuayde-van* (fazilatni saqlagan hukmdor) unvonini berdi. Bunga javoban u «Osmon O'g'li (Xitoy imperatori)»ga bobosi va ajdodlaridan to ungacha butun xonadon(sulola)ning «Buyuk xoqon»ga[1] xizmat qilib kelganliklarini, Osmon xoniga xizmat qilishgani, osiylarni jazolash masalasida Osmon o'g'liga yordam tashabbusida ishtirok etish amrini olishi bilanoq Tan sulolasining odamlari bilan birlashishni orzu qilishini izhor qildi. O'n birinchi bahorda, 752-(yil), *Sharqiy Sao* (Ustrushona) hukmdori *She Axu* (Sher Axur?) va *An* (Buxoro) hukmdori bilan birgalikda qora chakmonli *Dashi* (arab)larga qarshi urush qilish uchun ruxsat so'rashdi. Syuan-szun ularni tinchlantirdi va ruxsat bermadi.

***O'rta Sao* (Kabudon)** *G'arbiy Sao* (Ishtixon)dan sharqda, *Kan* (Samarqand)dan shimolda joylashgan. Hukmdor poytaxti – *Gadichjen* shahri. Aholisi uzun bo'yli, jussali, jangovar.

***Shi* (Tosh[kent])**[2] mamlakati shimoli-sharqda G'arbiy turklar (G'arbiy Turk xoqonligining markazi Yettisuv)ga[3], shimoli-g'arbda *Bola* (Forob) mamlakatiga tutashadi. Janubida 200 li uzoqlikda *Gyuychjanti* (Xo'jand), janubi-g'arbida esa 500 li uzoqlikda *Kan* (Samarqand) mamlakati joylashgan. Ushbu mamlakatning kengligi 1000 li atrofida bo'lib, uning o'ng tomoni *Su-ye*[4]

---

dor boshqarganini qayd qiladi (Istoriya At-Tabari ... S. 251). Uning kelib chiqishi haqida tarixchilar turlicha fikr bildirishgan. N.Negmatov Xara Bug'ra ismining turkiyliligi munozarali ekani, arabcha manbalarning keyinchalik hattotlar nusxa ko'chirayotganda harf buzilishlariga yo'l qo'yishlari natijasida asli eroniy bo'lgan ismning Xara Bug'raga aylanganligi haqidagi fikrni ilgari suradi (Негматов Н. Усрушана в древности и средневековье. Сталинабад, 1957. С. 153–154). A. Gritsina, Xarabug'ra ismi turkiyligini va Usrushonada yangi sulola tashkil topishida turkiylarning roli katta bo'lganini ta'kidlaydi (Грицина А.А. Усрушанские были. Т., 2000. С. 43). Ushbu sulolani turkiy hisoblash uchun yetarlicha asoslar bor. Turkiy *q* undoshi arab manbalarida ko'pincha *-x* undoshi bilan berilgani ko'zga tashlanadi. Bundan kelib chiqib, Xara Bo'g'ra ismining asli Qora Bo'g'ra bo'lgan, deyish mumkin. Tanshu yilnomasida 742-yilda *Gelopulo* ismli *Sao* (Kabudon) hukmdorining Xitoyga elchi yuborgani qayd qilinadi. Turkiy «qora» so'zi xitoy yozuvida «gelo», «bo'g'ra» unvoni esa «pulo» shaklida yozilgan. Demak, Xitoy yilnomasidagi *Gelopulo* ismining asli Qora Bo'g'ra bo'lgan. O.I. Smirnova ham bunga diqqat qilib, Xara Bo'g'raning Xitoy yilnomalarida *Gelopulo* tarzida uchrashini, ayni shaxs 720–740-yillari Usrushonada, 740–745-yillari Kabudonda hukmdorlik qilganini ta'kidlaydi (Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. М., 1981. С. 425, 428).

[1] *Buyuk xoqon* – bu yerda yo Xitoy imperatori yoki G'arbiy turk xoqoni haqida gap boradi. Chunonchi, Sug'd va unga qo'shni hududlar, xususan, Ustrushona 560-yillarda xoqonlik tarkibiga o'tgan bo'lib, Xitoyning bu yerlardagi nufuzi 657-yildan keyin unga qaram bo'lib qolgan G'arbiy xoqonlik vositasida edi.

[2] *Shi* (Toshkent)ga doir ushbu ma'lumotlar «Sin Tan-shu» («Yangi Tan sulolasi tarixi») asosidadir.

[3] Bu yerda G'arbiy Turk xoqonligining markaziy hududi – Yettisuv nazarda tutilayapti.

[4] *Su-ye* – ayrim tadqiqotchilar tomonidan ushbu so'z so'roq ishorati ostida Suyob daryosi sifatida beriladi. Ba'zi tadqiqotchilar esa Choch hukmdorligining hududi *Su-ye* (Chu)gacha

@tarixiy_kutubxonasiga

(Suyob?) daryosiga tutashadi. Hukmdorining xonadon ismi *Shi* (Tosh), boshqaruv markazi *Chjechje* (Choch)[1] shahridir. *Shi* mamlakati qadimgi Kangyuy davlatining *syao-van* (kichik hokim/hukmdor)i o'tirgan *Yuni*[2] shahri joylashgan yerdadir. Janubi-g'arbida *Yo-sha* (Sirdaryo)[3] o'rin olgan»[4].

*Shi* (Tosh[kent]) hukmdorligi[5], boshqa [nomi] *Chjechji* va *Chjeshi*. Xan sulolasi davrida *Davan* (Farg'ona)ning shimoliy chegarasini tashkil qilar edi. Poytaxt [Chan'an]dan 9 000 li da joylashgan, Shimoli-sharqida *Tukyue* (G'arbiy Turk xoqonligining markazi Yettisuv), shimoli-g'arbda *Bola* (Forob), janubda 200 li masofada *Gyuychjanti* (Xo'jand), janubi-g'arbda 500 li masofada *Kan* (Samarqand) joylashgan. Hududi aylanasiga 1 000 lidan ko'proq. O'ngda *Suye* daryosi. Hukmdor *Shi* deb nomlanadi. Poytaxti *Chjechi* (Choch) shahri. Bu yer qadimgi *Kangyuy* [davlati] tarkibidagi kichik *Yuyni* hukmdorligining poytaxti edi. Janubi-g'arbida *Yosha* (Sirdaryo) daryosi bo'lib, «O'rta davlat» hududiga yetgach, *Chjenchju-xe* yoki *Chji-xe* nomini oladi. Janubi-sharqda katta tog' bo'lib, *se-se* (choch / feruza toshi)[6] chiqadi. Aholisi urushda mahoratli; zotdor otlari ko'p. Suy sulolasi davrida Daye davrining birinchi yozida (605-yil) G'arbiy Turk (xoqonligi) tomonidan ular-

---

yetmagan deb hisoblab, Xitoy manbalaridagi ushbu ma'lumotni qabul qilishda ikkilanishadi (Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. T., 1990. B. 45). Ammo ushbu daryo uchun qo'llanilgan birinchi va ikkinchi iyeroglif Chochning o'ng tomonida joylashgan Su-ye daryosiga nisbatan ishlatilgan iyeroglifiar bilan bir xil. Bu esa Chochning o'ng (shimoli-sharqiy) chekkasi Suyob daryosigacha yetganini tasdiqlaydi.

[1] *Chje-chje* – Choch so'zining Xitoy yilnomalaridagi ifodalanishi. Bu yerda xitoylik mualliflar ham mamlakat /davlat nomi, ham uning poytaxti nomi – «Choch» so'zini o'z tillariga o'girmasdan, uning mahalliy variantini berishga harakat qilgan ko'rinadi (Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar (Ilk o'rta asrlar). T., 2008. B. 14).

[2] *Yu-ni* – Toshkent vohasidagi qadimiy shahar xarobalaridan biri – Oqqo'rg'on tumanida joylashgan Qanqa bilan tenglashtiriladi. *Yu-ni* Kangyuy (Qang') davlati tarkibidagi kichik hukmdorliklardan birining nomi bo'lib, hududiy jihatdan u, asosan, Toshkent vohasiga to'g'ri keladi.

[3] *Yo-sha* – Sirdaryoning qadimiy nomlaridan biri sifatida mil. avv. I ming yillikda *Yaksart/Yaxshart/Xashart* so'zi uchrab, qadimgi eroniy tillarga xos ushbu nomning lug'aviy ma'nosi «toza/asl marvarid»dir (Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. М., 1964. С. 75). Aftidan, xitoylik mualliflar mazkur daryoning mahalliy nomini o'z tillariga moslab yozganlar.

[4] Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan ... S. 120, n. 1; Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш ... С. 11.

[5] Choch bilan bog'liq ushbu ma'lumotlar «Tan-shu» asosidadir.

[6] *Se-se – Choch*. Qadimgi turkcha chech / chach «feruza toshi», «qimmatbaho tosh» ma'nosidagi ushbu so'z milodning ilk asrlaridan boshlab yozma manbalarda (qadimgi fors va sug'diy yozma manbalar va numizmatik materiallar)da Toshkent vohasining nomi sifatida uchray boshlaydi. Darvoqe, xitoy yilnomalarida vohaning janubi-sharqiy tomonidagi tog'da feruza konlari mavjudligiga va arab-fors manbalarida Choch feruzasining mashhurligiga doir ma'lumotlarning qayd etilishi vohaning qadimiy (Choch), ilk o'rta asrlardagi (Shi «Tosh» ) va o'rta asrlardagi nomi (Toshkent) orasida bog'liqlik borligidan darak beradi (Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar ... B. 9–15).

@tarixchikuubotmsiga

ning hukmdori o'ldirilib, bu yerni *Dele* (Tegin) *Fuchji*[1] vositasida boshqarila boshladi. U-di (618–626) va Chjen-guan davrida (618–649-yillar) bir necha bor mahalliy buyumlarni sovg'a sifatida taqdim etishdi. Uchinchi Xyan-kin-yilida (658-yil) *Gange* (Tunkat)[2] shahri *Davan* (Farg'ona) hukumati markaziga aylantirildi va ushbu mamlakat hukmdoriga *Gan Tutun* (Tun tudun) *shesheti yuku chaomu*[4]ni qo'yishdi. Kay-yuan davri (713–741-yillar) boshlarida ushbu mamlakatning muhim ishlarini bajargan hukmdori *Moxedo Tutun* (Bahodur tudun)ga «*Shi wan* (Choch hukmdori)»[5] unvoni berildi. Yigirma

[1] *Dele Fuchji* – «Bey-shi»da Dele Tyanchji shaklida keltiriladi. 605–750-yillarda hukm surgan Choch Teginlari sulolasining asoschisi (batafsilroq ma'lumot uchun yuqorida Chochga aloqador ravishda keltirilgan «Bey-shi» izohiga qarang).

[2] *Gange – Tunkat.* N.Y. Bichurin tarjimasida ushbu shahar nomi *Gange*, E. Shavann tarjimasida esa *K'an-kie* shaklida keltirilgani uchun (Бичурин Н.Я. Собрание сведений ... II. С. 313; Chavannes E. Documents ... P. 140) uning asl shakli qanday bo'lganligi borasida shu paytgacha farqli fikrlar bildirilgan. Faqat xitoyshunos olim A.G. Malyavkin o'z vaqtida *Gange* nomi aslida *Dunsze* shaklida o'qilishi kerakligini ta'kidlagan bo'lsa ham uni Binkat bilan tenglashtirib, ma'lum ma'noda xatoga yo'l qo'ygan edi (Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. Новосибирск, 1989. С. 166–167, к. 246). Ba'zi tadqiqotchilar mazkur shahar nomining aslini *Kangyuy* (Qang') bilan aloqador hisoblashsa, ba'zilar uni **khankiat* yoki **kamkar* shaklida tiklashgan, boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa N.Y. Bichurin tarjimasida *Gange* tariqasida keltirilgani bois, uning shakliy o'xshashligiga tayanib, vohadagi qadimiy shahar xarobalaridan biri bo'lmish hozirda Qanqa deb atalayotgan yodgorlik bilan tenglashtirib keldilar. Jumladan, E. Puleyblenk uni **khamkiat* shaklida qarab, qadimgi Kangyuy bilan aloqador joy nomi sifatida izohlagan bo'lsa (Аальто П. Имя «Ташкент» (Перевод и комментарии А.К. Акишева) // Shygys, 2005, 1. S. 102.), Y.Zuyev esa Qang-ket tarzida tiklagan (Зуев Ю.А. Ранние тюрки: очерки истории и идеологии. Алматы, 2002. С. 101), A.Xo'jayev ushbu shahar nomining qadimgi xitoycha o'qilishi Kam+kiat ekanligini ta'kidlaydi va uni *Kansze* tariqasida keltirib, Kemkent bilan tenglashtiradi (Ходжаев А. Наиболее ранние сведения китайских источников о государстве Шаш ... С. 9-10). Aslida, *Dunsze / Dunke* toponimining mahalliy shakli Tunkat bo'lganini ushbu shahar nomi xitoy manbalarida asliga yaqin berilganidan tashqari yilnomalarda *Davan* (Farg'ona)ga yaqin shahar sifatida ko'rsatilishi ham tasdiqlaydi (Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar ... B. 98–100).

[3] *Gan tutun – Tun tudun.* Ushbu so'zning birinchi qismi *Gan / Kan* so'zini ifodalovchi iyeroglif bilan *Dun / Tun* so'zi uchun ishlatiladigan iyeroglif yaqin o'xshashlikka ega. Xitoy manbalarida xorijiy ism va atamalar muayyan iyeroglifar bilan ifodalangan bo'lib, ba'zan nusxa ko'chirish jarayonida o'xshash iyeroglifar chalkashtirib yuborilgan hollar ham mavjud. Shu tufayli asli *Dun* bo'lgan iyeroglif *Gan* shaklini olgan bo'lishi mumkin (*qar.* Малявкин А.Г. Танские хроники ... С. 166–167, к. 246). *Tun* – Turk xoqonligi unvonlar tizimida «to'ng'ich, bosh» ma'nolarini anglatgan epitet bo'lgan. Taqqoslang: Tun yabg'u-xoqon, Tun-yuquq va h. k.

[4] Mazkur hukmdor ismining tarkibiy qismi bo'lmish *shesheti* G'arbiy Turk xoqonligining ittifoqchi urug'i – *shesheti* bilan aloqador deb hisoblanadi. Mazkur Choch hukmdori turkiy shesheti urug'idan bo'lgan.

[5] Ushbu ma'lumot *tudun* unvonli hukmdorlarning Chochda bosh sulola emas, ikkinchi darajali sulola bo'lganidan darak beradi. Binobarin, xitoy yilnomalarida Choch tudunlari

@tarixchi_kutubxonasiga

sakkizinchi yil (740)da (unga) *shun-i-van* («adolatni nazoratga olgan») unvoni taqdim etildi. Bir yildan keyin hukmdor *Inay Tutun Gyule* (Inay Tudun Kulug)[1] imperatorga ma'lum qildi: «Hozirgi kunlarda *Tukyue* (G'arbiy Turk xoqonligi) Buyuk xoqon (Osmon O'g'li / Xitoy imperatori)ga bo'ysunishgan. Boshqa hukmdorliklar uchun *Dashi* (arab)lar faqat xavf tug'dirmoqdadir. Ularning tanobi tortib qo'yilishini istayman». Osmon o'g'li (Xitoy imperatori) uning istagiga javob qaytarmadi. Tyan-bao davri (742–755-yil) boshlarida (Choch) hukmdorining o'g'li *Na Gyuy Gyuy-bishi* (Kul-Chabish)ga[2] «o'zgarishlarni qabul qilgan hukmdor» unvoni berildi va temir yorliq hadya qilindi. Bir muddat vaqt o'tgach (750-yilda) *Ansi* (Kucha) voliysi *Gao Syan-chji Shi* (Choch) hukmdori vassallik burchini bajarmaganligi uchun uni jazolamoqchi bo'ldi. Hukmdor *Syan-chji*ning qo'liga o'zini topshirdi, u esa uni [poytaxtning] Kay-yuan darvozasiga keltirdi. Bu yerda u imperator huzuriga keltirilish uchun hibs qilindi va imperatorlik saroyida qatl qilindi. Bu voqeadan keyin butun G'arbiy o'lkalar Xitoyga qarshi tish qayray boshladilar. [Choch] hukmdorining o'g'li yordam so'rash uchun *Dashi* (arablar) ga qochdi; U *Xinlos* (Talas) shahrini qamal qildi va *Syan-chji*ni tor-mor qil-

---

«*Shi-go fu-van tutun* (Choch davlatining hukmdor muovini»)» shaklida tilga olinishi buni tasdiqlaydi. Darvoqe, xitoy yilnomalarida 640–750-yillar orasida hukm surgan Choch hukmdorlaridan 4 nafarining *tudun* unvonida tilga olinishi, Tabariy («*Tudun malik ash-Shosh*») va Beruniy Shoshning qadim hukmdorlari unvoni tariqasida ko'rsatishi vohada *Tudunlar* sulolasi mavjud bo'lganidan darak beradi (Бичурин Н.Я. Собрание сведений ... Т. II. С. 313-314; История ат-Табари ... С. 268; Абу Райхан Бируни. Памятники минувших поколений / Перевод с арабского и примечания М.А. Салье // Бируни. Избранные произведения. Т., 1957. Т. I. С. 111). VII–VIII asrlarga taalluqli tangalarda *tδun c'ynk γwβ* – «Choch hukmdori Tudun» iborasining uchrashining o'ziyoq, bu fikrni tasdiqlaydi (Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса ... С. 47, 55–60). *Tudun* – Turk xoqonligi tomonidan qabila va hukmdorliklarda soliqlar yig'inini tashkil etish va mahalliy hukmdorni nazorat qilish uchun yuborilgan maxsus vakil – noiblarning unvoni bo'lgan.

[1] *Inay Tutun Gyule* (Inay Tudun Kulug) – mazkur hukmdor ismining uchinchi qismi «Kulug» (kul-lug) qadimgi turkcha epitet *kul* «mashhur, bosh» bilan aloqador. Taqqoslang: Kultegin, Kul-cho'r va h. k.

[2] *Na Gyuy Gyuy-bishi – Kul-Chabish*. Ushbu hukmdor ismining ikkinchi qismi («kul») «mashhur, bosh» ma'nosidagi epitet bilan aloqador. Uchinchi qismi esa o'rta asrlarda turkiy sulolalar boshqaruvidagi harbiy unvon – «chovush»ga to'g'ri keladi. I.Bekvitning fikricha, yilnomalarda Chabishi shaklida uchraydigan mazkur Choch hukmdorining ismi Chabish shaklida tiklanadi va u aslida ism bo'lmay, turkiy *chabish* unvoniga aloqadordir. U Chochning ikkinchi darajali hukmdori Inal (Inay) Tudun Kulugning o'g'li bo'lib, Xitoyga qarshi Turgash xoqonlarining ittifoqchisi edi (Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans, Turks, Arabs, and Chinese during the Early Middle Ages. New Jersey, 1993. P. 137-138). Turk xoqonligi boshqaruviga aloqador o'laroq qadimgi turk bitiktoshlari va xitoy yilnomalarida «chabish» harbiy unvon sifatida ko'p uchraydi. Xoqonlik davrida «qo'shinda vazifador shaxs, lashkar boshliqlaridan biri» sifatida bo'lgan ushbu unvon egasini Mahmud Koshg'ariy (XI asr) «*chabish* – jangda saflarni tuzatuvchi, dam olish vaqtida askarni zulm qilishdan saqlovchi odam» shaklida ta'riflaydi (Divanü Lügat-it Türk Tercümesi. Cilt I-IV. Çev. B. Atalay. Ankara, 1985. S. 349).

@tarixiy_kutubxonasiga

di. Shundan so'ng *Dashi* (arablar)ning xizmatiga kirdi. Faqat Bao-in davrida (762-yil) ushbu o'lka (Xitoy) saroyiga tobeligini bildirish va tortiq qilish uchun elchilar yubordi.

***Mi* (Maymurg')**[1] hukmdorligi, boshqa nomi *Mimo* va *Mimoxe*. *Kan* (Samarqand)dan janubda 100 li da joylashgan. Hukmdorning poytaxti *Bosida* shahri. Yun-vey [Yun-xuy] davrida (650–655-yillar) hukmdori *Dashi* (arab) lar tomonidan mag'lub etilgan edi. Uchinchi Xyan-kin-yilida (658-yil) bu yer *Nanmi* okrugi tarkibiga olingan va hukmdor Chjaovu *Kaychjo* (Bichut)ga[2] noib unvoni berilgan. O'sha vaqtda (Xitoy) saroyiga kelishlar va sovg'alar taqdimoti to'xtamagan. Kay-yuan davrida (713–741-yillar) qiymatli uzuklar, bo'yralar, raqqoslar, arslonlar va Xu raqqosalarini taqdim qilishdi. Sakkizinchi yil (730-yil) yuqori martabali amaldorlardan Moye-min shaxsan o'zi (Xitoy) saroyiga tobelik izhor qilish uchun tashrif buyurdi. Tyan-bao davri (742–755-yillar) boshlarida bu mamlakatning boshqaruvchisiga *gun-shun-van* («qonun-qoidalarni nazorat qiluvchi hukmdor») unvoni, uning xotiniga esa *kiun-fu-jen* unvoni berildi.

***Xe* (Kushoniya / Kattaqo'rg'on)** o'lkasi *Kyuyshuanniga* va *Guyshuanni* deb ataladi. Qadimdagi Kangyuy (davlati) tarkibidagi kichik hukmdor *Fumo* shahri eski hududidir. Shaharning so'l (sharqiy) tomonida ikki qavatli bino bor. Uning shimoliy devorida bo'yoq bilan qadimgi O'rta davlat (Xitoy) imperatorlarining, sharqiy tomonida *Tukyue* (turk) hukmdor va xoqonlari bilan *Polomen* (Brahman / Hind) hukmdorlari, g'arbiy tomonida *Bosi* (Eron) va *Folin* (Vizantiya) va boshqa hukmdorlar tasvirlangan[3]. Hukmdor tongda ushbu binoga ta'zim qilgani kelib-ketadi. O'n beshinchi Chjen-guan yilida (641-yil) ushbu hukmdorlik (Xitoy) saroyiga tobelik izhor qilish maqsadi-

[1] *Maymurg'* – Samarqanddan janubi-sharqda, asosan, tog'li hududda joylashgan kichik hukmdorlik. Yapon tadqiqotchilari uni Panch (Panjikent) hukmdorligi bilan tenglashtirishadi. Chunonchi, Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida ko'p marotaba qayd etilgan Panch hukmdorligining nomi shu yoki shunga o'xshash shaklda xitoy manbalarida uchramaydi. Aksincha, Maymurg' hukmdorligi *Mi, Mimo* yoki *Mimoxe* shakllarida yilnomalarda ko'p bor tilga olinib, Sug'ddagi siyosiy voqeliklarda faol hukmdorlik sifatida e'tirof etiladi. Hududiy jihatdan yaqin bo'lgan Maymurg' va Panch bir muddat yagona hukmdorlik bo'lgani va Xitoy manbalaridagi ushbu nomlar – *Mi / Mimo / Mimoxe* ularning har ikkalasini ifodalagani ehtimoldan xoli emas.

[2] *Kaychjo* – boshqa xitoy manbalarida *Bichjo* shaklida ham beriladi. Mahalliy shakli Bichut bo'lishi kerak. Chunonchi, Mug' tog'i sug'diy hujjatlaridan birida Panchning turkiy hukmdori Chakin Cho'r Bilga (693–708)ning otasi Bichut shaklida uchraydi.

[3] Ushbu ma'lumot «dunyo hukmdorlari» tushunchasining Sug'dda ham mavjud bo'lganidan darak beradi. O'sha davrda mavjud an'anaga ko'ra, Markaziy Yevroosiyodagi geopolitik vaziyat bevosita 4 ta imperiya: Vizantiya, Sosoniylar Eroni / Vizantiya, Turk xoqonligi, Suy va Tan Xitoyi bilan bog'liq bo'lgan. Bu vaziyat nafaqat o'z davri yozma manbalari (tibet, hind va h.k.)da o'rin olgan «dunyoning to'rt imperiyasi» konsepsiyasida, balki saroy devoriy rasmlari (mas. Afrosiyob / Samarqand, Kushoniya / Kattaqo'rg'on va h. k.)da o'z aksini topgan.

@tarixchi kutubxonasiga

da elchi yubordi. Yun-vey [Yun-xuy] davrida (650–655) hukmdor imperatorga bir elchi yuborib, Tan sulolasining G'arbiy o'lkalarga qo'shin yubormoqchi ekanligidan xabardor bo'lganini va qo'shinning oziq-ovqat zaxirasini ta'minlab berish istagini bildirdi. Ko'p vaqt o'tmay uning hukmdorligi *Guyshuan* (Kushoniya) okrugiga aylantirilib, hukmdori *Chjaovu Podati* noib unvoni bilan siylandi. U tashakkur bildirish maqsadida *Bodishi*ni elchi qilib yubordi.

***Shi* (Kesh)**, ayni paytda *Kyuysha* va *Gyeshuanna* deb ataladi. *Dumo* daryosi (Qashqadaryo)ning janubiy tomonida joylashgan. Bu [qadimgi]*Kangyuy* [davlati] tarkibidagi *Suxe* (Sug'd?) hukmdorligining eski hududidir. G'arbda *Nashebo* (Naxshab)gacha 150 li, shimolda *Mi* (Maymurg')gacha 200 li masofada hamhududdir, janubda *Tuxolo* (To'xoriston)gacha 400 li. U yerda «Temir-darvoza» (Darband / Temir-Qapig')[1] (deb nomlanadigan) tog' bor. Ikki tomonida baland qoyalar mavjud. Toshlar rangi temirga o'xshab ketadi. Bu joy ikki hukmdorlik (To'xoriston va Sug'd)ni bir-biridan ajratib turuvchi o'tkil vazifasini bajaradi. Bu o'tkil temirlar bilan biriktirilgan eshik (darvoza) lar bilan berkitilgan. *Shi* (Kesh)da har bir qurbonlik keltirish marosimida mingtagacha qo'y so'yiladigan ibodatxona bor. Har bir urushga ketishdan oldin bu yerda ibodat amalga oshiriladi. Hukmdorlikning 500 ta shahri mavjud. Suy sulolasi va Da-ye davrida (605–616-yillar) hukmdor *Dichje* birinchi bo'lib «O'rta davlat» (Xitoy) bilan aloqani yo'lga qo'ydi. Hukmdorlikning juda kuchli ekanligi ma'lum edi. *Kieshe* (Kesh) shahrini u qurgan. Hududlarining faqatgina bir tomonining o'zi minglarcha li cho'zilgan edi. O'n oltinchi Chjen-guan yilida (642-yil) hukmdor *Shashebi* (Shishpir)[2] (Xitoy) saroyiga mahalliy mahsulotlar taqdim etdi. Xyan-kin davrida (656–660-yillar) *Shi* (Kesh) hukmdorligi *Kyuysha* okrugi deb o'zgartirildi va hukmdor *Chjaovu Shiagye* noib qilib tayinlandi. O'n beshinchi Kay-yuan-yili (727-yil) hukmdor

[1] *Temir-darvoza – Temir-Qapig' – Darband.* Samarqanddan Balxga boradigan yo'lda, Kesh (Shahrisabz)dan 90 km janubdagi Boysun tog'ida joylashgan va o'rta asrlarda Dariohanin yoki Darband deb yuritilgan, hozirda esa Buzg'ola guzari deb ataladigan tog' yo'li xitoycha *Tiyenmin* (lug'. «temir davroza»), qadimgi turkcha *Temir-Qapig'* deb atalgan (Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. T., 1982, 116-bet, 32-izoh).

[2] *Shishpir* – 640-yillarda Samarqandni Shishpir ismli hukmdor boshqargan bo'lib, u asli keshlik mazkur hukmdor bilan tenglashtiriladi. Darvoqe, Sug'd konfederasiyasining yirik tarkibiy bir qismi Kesh hukmdorligi bo'lib, bu yer o'zining anchagina qadimiy tanga zarbiga ega edi. Bu davrda ma'lum muddat Kesh hukmdorlari Sug'dda yetakchilik qilgan bo'lib, buni yozma manbalar ma'lumotlarini numizmatik materiallar ham tasdiqlaydi. Xususan, VII asr o'rtalarida zarb qilingan ba'zi Samarqand tangalarida ushbu hukmdorlik tamg'asi bo'lmish shaklli tamg'a bilan birga Kesh hukmdorligiga xos triskeles shaklli tamg'a uchray boshlaydi (Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – М., 1981. С. 37-38).

@tarixchi_kutubxonasiga

*Xubido* (Axurpat)[1] raqqosalar va yo'l-yo'l qoplon yubordi. Keyin bir necha hukmdorlar o'ldi va taxtga yangilari o'tirdi, lekin saroyga tortiq yuborishda davom etdilar. Tyan-bao davrida (742–755-yillar) imperatorlik farmoni bilan *Shi* (Kesh) nomi *Lay-vey* nomiga o'zgartirilishiga ko'rsatma berildi.

*Nashebo* (Naxshab), boshqa nomi *Kichik Shi*, chunki *Shi* (Kesh)ga tobe dir. O'tmishda *Tuxolo* (To'xoriston)ga oid hududda o'rin olgan edi[2]. Sharqda Piyozli (Pomir) tog'lari bilan tutashgan, g'arbda *Bosisi* (Eron) bilan chegaradosh, janubda qorli tog'lar, yaylovlar va suvlar bilan o'ralgan[3].

*Xosyun* mamlakati *Xolisimi* (Xorazm) va hatto *Guoli* ham deyiladi. *Uxu* (Vaxsh / Amudaryo) daryosining sharqida joylashgan. Janubi-sharqqa to'g'ri olti yuz li yurilsa *Shudi*ga boriladi. Janubi-g'arbida *Bosi* (Fors / Eron) bilan, shimoli-g'arbida *Tukyue Xosa* (Xazar turklari)[4] bilan chegaradoshdir. Bu yer *Kanszyuy* (Qang') tarkibidagi kichik hukmdor yashagan *Aoszien* shahrining eski hududidir. Mamlakat hukmdorining poytaxti *Szidoszyuychje* shahridir. Bu xalq barcha *Xu* xalqlari orasida aravaga qo'shiladigan ho'kizlarga ega yagona xalqdir. Savdogarlari boshqa mamlakatlarga ushbu aravalarda boradilar. Ikkinchi Tyan-bao yilida (751-yil) hukmdori *Shaoshefen* (Savshafan)[5] [Xitoy] saroyiga tobeligini bildirish va qora tuz hadya etish uchun bir

[1] *Axurpat* – sug'diycha unvon bo'lib, lug'aviy jihatdan «otxona boshlig'i» ma'nosini anglatadi. VII–VIII asrlarda Keshda zarb qilingan tangalarning ko'plab shakllarida sug'diy yozuvli *kšy'n'k γwβ "xwrp't* – «Kesh hukmdori Axurpat» jumlasi uchraydi (Boboyorov G'. Ilk o'rta asrlar tangalarida O'zbekiston hududidagi davlatchilikka doir ma'lumotlar // O'zbekiston tarixi manbashunosligi masalalari. T., 2010. B. 32).

[2] Bu yerda, ehtimol, xitoylik mualliflar markazi Bolo (Naxshab) shahri bo'lib, To'xoristonni ham o'z ichiga olgan Kidaritlar davlati davridagi holatni nazarda tutishgandir.

[3] So'nggi satrlardagi ma'lumotlar To'xoristonga tegishli.

[4] *Tukyue Xosa – Xazar turklari.* 630-yillarda Kavkazning shimoli-sharqiy qismida, shimoli-g'arbiy Kaspiybo'yi va Darband hududlarida Xazar xoqonligi (650–965)ga asos solgan turkiy qabila. Ushbu davlat Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Qora dengiz va Volgabo'ylarini o'z ichiga olgan, ham Sosoniylar, ham Arab xalifaligi hamda Vizantiya uchun raqib imperiya bo'lgan. Aslida, Xazar xoqonligi G'arbiy Turk xoqonligining davomchisi bo'lib, Yettisuvda hokimiyat talashuvlarida muvaffaqiyatsizlikka uchragan turk shahzodalaridan biri o'zining Ashina turklariga mansub qo'shinlari bilan Shimoliy Kavkazga kelib, bu yerda yangi sulolaga – Xazar xoqonligiga asos soladi. Aftidan, ushbu shahzoda Tun yabg'u-xoqonning o'g'illaridan biri bo'lgan. U 626–628-yillarda xoqonlik qo'shinlari Kavkazda harbiy faoliyat yuritgan paytda janglarda ishtirok etgan, ushbu tog'lik o'lka shart-sharoiti bilan yaxshi tanish bo'lgan shahzodalardan biri bo'lganligi ehtimoli yuqori (Boboyorov G'. Tun yabg'u-xoqon. – Toshkent: Abu Matbuot Konsalt, 2011. B. 25). Ushbu davlatda xorazmlik savdogarlar va yollanma qo'shinlar ham faoliyat yuritishgan.

[5] *Shaoshefen – Savshafan.* VII–VIII asrga oid Xorazm tangalarida qadimgi Xorazm yozuvida Savshafan, sug'diy yozuvda Savshafarn ismi uchrab, tadqiqotchilar uni «Siyovushfarn» («Siyovush quti») shaklida izohlashadi va buni islomdan avvalgi Xorazm hukmdorlari o'z kelib chiqishlarini afsonaviy Eron shahzodasi Siyovushga taqaganliklari bilan bog'lashadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

elchi jo'natdi. *Bao-in* zamonida (762-yil) [Xitoy] saroyiga tobelik izhor qilish uchun takror elchilar kelishdi.

***Tuxolo*** **(To'xoriston)** *Kunlin* (Pomir) tog'larining g'arbida va *U-xu* daryosi (Amudaryo)ning janubida joylashgan[1]. Bu yer qadimgi *Dasya* (Baqtriya) podsholigining hududidir. Mahalliy aholi bu yerda *i-da* (eftalit)lar bilan aralash holda yashaydilar. Ushbu mamlakatning yuz ming tanlangan jangchilari bor. Xalqi o'troqdir. Qiz bolalari oz, o'g'il bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Shimolda, janubiy etagida muqaddas ot saqlanuvchi *Poli* tog'i joylashgan. Aholi yilqilarini qo'shni yaylovlarda o'tlatishadi, qon terlaydigan toylarni so'yadilar.

Hukmdori *shexu* (yabg'u)[2] unvoniga ega. Vu-di (618–626) va chenguan yillarida (627–649) ushbu mamlakat xalqi ilk bor [elchi vositasida] Xitoy saroyiga hadyalar yubordi. Birinchi yung-xui yilida (650-yil) yetti qadam balandligidagi qora rangli, oyoqlari tuya oyog'ini eslatadigan, qanotlarini ochib ildamlaydigan, bir kunda uch yuz li yura oladigan va temirni yutadigan katta qushlarni sovg'a qilishdi. Xalq orasida ular qush-tuyalar deb atalar edi.

Xyan-kin davrida (656–660) [bosh] shahri *Axuan* (Valvalij) Yuechji hukumatiga aylantirildi. Kichik shaharlar to'rt o'lkaga ajratildi va hukmdor Ashina[3] umumvoliy (noib) etib tayinlandi. U ikki yildan keyin tobelik izhor

[1] Aslida, *Tuxolo* (To'xoriston) hududiga Amudaryoning shimolidagi joylar ham kirib, uning shimoliy chegarasi Janubiy Sug'd (Kesh va Naxshab)ga chegaradosh hududlardan boshlangan. Jumladan, Janubiy O'zbekistondagi Chag'oniyon, Termiz va Janubiy Tojikistondagi bir qator hukmdorliklar To'xoriston hududida bo'lgan. Xususan, 640-yillarda Markaziy Osiyo orqali Hindistonga borgan Xitoy rohibi Syuan Szan *Tuxolo* hududi *Tiex-min* (Temir-Qapig' / Darband – Boysun tog'idagi o'tkil)dan boshlanadi deb yozgan (Boboyorov G'. Tun yabg'u-xoqon. T., 2011. B. 34-35).

[2] *Yabg'u* – taxminan 620–750-yillarda To'xoristonda hukm surgan Ashina xonadoniga mansub sulola boshqaruvchilarining unvoni. Xoqondan keyin turuvchi xonadon vakillari ega bo'lgan mazkur unvon Turk xoqonligidan oldin Yuechji (Kushon), Xun, Eftalit va hokazo kabi Markaziy Osiyodagi yirik imperiyalar boshqaruvida mavjud bo'lib, xoqonlik davrida, asosan, G'arbiy Turk hukmdorlariga berilgan. G'arbiy Turk xoqonligi hukmdori Tun yabg'u-xoqon (618–630) o'z o'g'li Tardu-shadni To'xoristonga yuborgach, bu yerda yangi sulola tashkil topadi va sulola vakillari to 750-yillargacha ushbu unvon bilan hukm yuritishadi. Darvoqe, Xitoy rohibi Syuan Szan (629–645) Tardu-shad «To'xor yabg'usiman» deb o'zini viqor bilan atayanini alohida ta'kidlaydi. Xitoy manbalaridan aniqlanishicha, bu davrda To'xoristonni *Dele* (Tegin; VI asr so'ng choragi), *Datushe* (Tardu shad), *Shabaloshexu* (Ishbara yabg'u; Tardu shadning o'g'li; 630–650), *Ashina Uchebo* (653–660), Gun Ishbara yabg'u (VII asr so'nggi choragi), *Nadunili* (700–720), *Gudulu Tun Datu* (Qutlug' Tun-Tardu; 720–730), Shiliman Galo (750-yillar) kabi yabg'ular boshqarganlar (Chavannes E. Documents ... R. 156–158; Harmatta J. and Litvinsky B.A. Toharistan and Gandhara under Western Turk rule // History of Civilizations of Central Asia. Vol. III, Paris 1996. P. 371–373).

[3] *Ashina* – 653–660-yillarda hukm surgan mazkur To'xoriston yabg'usining ismi boshqa Xitoy manbalarida Ashina Uchebo shaklida qayd etiladi.

@tarixchi_kitobxonasiga

qilish uchun [Xitoy] saroyiga o'z o'g'lini yubordi va uch qadam uzunlikdagi *ma-nao-teng* daraxtini hadya qildi.

Birinchi shen-lung-yilida (705-yil) hukmdor *Nadunili* inisi *Pulo* (Bo'g'ra) ni[1] tobelik izhor qilish niyatida (Xitoy) saroyiga yubordi. Qaytishda unga qo'riqlovchilar qo'shib jo'natildi. Birinchi Kay-yuan (713–741) va Tyan-bao yillarida (742–755) ushbu mamlakatdan otlar, xachirlar, 200 turdagi xorijiy dori-darmonlar, *kan-to-po-lo* (Gandxara mushki?), qimmatli toshlar va oyna buyumlar yuborildi. Buning evaziga imperator tomonidan ushbu hukmdorlikning boshqaruvchisi *Gudulu Tun Dadu* (Qutlug' Tun-Tardu)ga[2] «*Tuxolo shexu* (To'xoriston yabg'usi)» va «Ida (Eftalit) hukmdori» unvoni berildi.

Keyinroq *Kiyeshe* (Kashmir?)da yashaydigan *Xu* (G'arbiy o'lkalardagi o'troq) xalqlardan biri *Tubo* (Tibet)liklarni *Tuxolo* (To'xoriston)ga hujum qilishga gijgijladi. Buning oqibatida Yabg'u *Sheliman Kialo* (... Qora) *Ansi* (Kucha)[3] qo'shinining unga yordamga yuborilishini iltimos qildi. Imperator dushmanni mag'lub qilishlari uchun jangchilar yo'lladi.

Kiyen-yuan davri (758–759) boshlarida *Tuxolo* (To'xoriston) va boshqa to'qqiz G'arb hukmdorligi isyonkorlarni jazolash uchun Osmon O'g'li (Xitoy imperatori)ga qo'shinlar jo'natishdi. Imperator farmon chiqarib ushbu jangchilarning Shofang qo'shiniga biriktirilishini buyurdi.

---

[1] *Pulo – Bo'g'ra.* Boshqa Xitoy manbalarida ushbu shahzodaning ismi *Ashina Dele Pulo* (Ashina Tegin Bo'g'ra) shaklida uchraydi. «Erkak tuya» ma'nosidagi qadimgi turkcha *bo'g'ra* so'zi Turk xoqonligi davrida muayyan bir epitet (sifat, laqab, unvon) bo'lib, nisbatan kichikroq unvonlar oldida kelgan. Ustrushona hukmdori *Gelo pulo* (Qorabo'g'ra; 737–742) va h. k. Kabudon hukmdori *Sudu pulo* (*Satuq? bo'g'ra; 738). Keyinchalik, jumladan, Qoraxoniylar davrida esa imperial (xoqonlarga xos) unvonlar bilan birgalikda qo'llaniladigan bo'lgan (Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi. T., 2012. B. 150–160).

[2] *Gudulu Tun Dadu* – Qutlug' Tun-Tardu. Mazkur To'xoriston hukmdori ismida Turk xoqonligi unvonlar tizimiga xos qadimgi turkcha unvon va epitetlarning birgalikda uchrashi bu davrda ushbu hukmdorlik boshqaruvida xoqonlikka xos boshqaruv shakli mavjud bo'lganidan darak beradi (Boboyorov G'. Toxariston yabg'ulari tarixiga doir // O'zbekiston tarixi, №3. T., 2003. B. 8-10).

[3] *Ansi – Kucha.* Sharqiy Turkistonning Koshg'ar va Turfon orasida joylashgan mazkur voha hukmdorligida Xitoy harbiy garnizoni – *Ansi* joylashgan bo'lib, To'xoriston yabg'usi ushbu garnizon qo'shinlari yuborilishini so'ragan.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Arab istilochilariga qarshi Xitoydan ko'mak so'rab mahalliy hukmdorliklardan imperatorlarga yuborilgan xatlar[1]

### Samarqand hukmdori G'urakning (710–738) maktubi

«Yttinchi Kay-yuan-yilining (719-yil) ikkinchi oyida *keng-u* kuni Samarqand hukmdori *Ulega* (G'urak) Xitoy imperatoriga shu shaklda talabnoma (xat) yubordi:

«Tobeyingiz *Ulega* (G'urak) shuni ma'lum qiladiki: Tobeyingiz, Osmonning inoyati bilan butun koinot ustidan hukmronlik qiluvchi ilohiy imperator amri ostidagi o'n mingta o'n ming (bir million)lik bir zaminda, otlaringizning oyoqlari ostida ezilgan o'tlar va tuproq misoli bir qulingizdir. Oila a'zolarim va hokazo turli *Xu* (sug'diylar va boshqa o'troq xalqlar – *tarj.)* hukmdorliklari uzoq vaqtdan beri sizning buyuk imperatorligingizga chin ko'ngildan bo'ysungan va buyuk imperatorligingizga qarshi hech bir vaqt isyon ko'tarmagan, zarar keltirmagan. Aksincha, buyuk imperatorligingizga foydali bo'lish uchun harakat qilgandir. Shu onlarda biz naqd o'ttiz besh yildir *Dashi* (arab) bosqinchi galalariga qarshi jang qilmoqdamiz. Har yili imperatorlikning lutfi karamidan foydalanib, uning askarlaridan hech qanday bir yordam olmasdan o'zimizning ko'p sonli jangchi va suvoriylarimiz bilan safarga chiqdik. Olti yil avval *Dashi* (arab) bosh qo'mondoni *Imi Kutebo* (Amir Qutayba) son-sanoqsiz qo'shin bilan bu yerga keldi[2]. Bizga hujum qildi, dushmanlarimizga og'ir zarba berdik, ammo bizdan ham juda ko'p kishi halok bo'ldi va jarohatlandi. Arab piyoda askarlari va suvoriylari haddan tashqari darajada ko'p bo'lganliklari va bizning piyoda askarlarimiz ularga teng kela olmasligini bilib, qal'a devorining orqasiga chekindim. Shu tariqa arablar shahar (Samarqand)ni qurshab oldilar. Qal'a devorlarining ro'parasida uch yuz manjaniq (devor teshar moslama) o'rnatdilar. [Shahar devorining] uch tomonidan uchta katta teshik ochdilar. Shahrimizga va hukmdorligimizga barham berishni istaydilar. Ahvoldan xabardor qilingan imperatorlikdan ushbu qiyin kunlarimizda yordamga kelishlari uchun bir miqdor askar yuborishga lutf etishlarini ojizona ravishda iltimos qilaman.

---

[1] Ushbu xatlar E.Shavanning Xitoy manbalaridan fransuzchaga qilgan tarjimalariga asoslanib yozilgan «Documents sur les TouKiue (Turks) occidentaux» (SPb.1903) nomli asarning turkcha tarjimasi (Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. İstanbul, 2007. S. 262–264) asosida o'zbekchaga o'girildi (tarjimon G'.Boboyorov).

[2] Bu yerda hijriy 93 (712)-yilda Qutayba ibn Muslimning Samarqandga hujumi nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ushbu arablarga kelsak, ular faqat bir asr kuchli bo'lishlari mumkin[1], ki bu yil o'sha yillari yakunining tugaydigan yilidir. Agar xitoy qo'shini bu yerga kelishsa, men va xalqim tamoman arablarni yenga olamiz. Hozir sizga mukammal bir ot, bitta Eron tuyasi va ikkita xachirni bajonidil sovg'a qilmoqdaman. Agar zoti oliylari meni hadyalarga musharraf qilishni istasalar, ularni menga keltirib beradigan elchimga bersinlar. [Yo'lda] talon-toroj qilinmasligiga umid qilaman»[2].

## Buxoro hukmdori Tug'shoda (695–720)ning maktubi

«Yettinchi Kay-yuan yilining (719-yil) ikkinchi oyida *An* (Buxoro) hukmdori *Dusaboti* (Tukaspadak / Tug'shoda) ba'zi masalalarning dolzarb ekanligini ta'kidlab (Xitoy imperatoriga) quyidagi arznoma (xat)ni yetkazish uchun elchi yubordi:

«Tobeyingiz *Dusaboti* (Tukaspadak / Tug'shoda) shuni ma'lum qiladiki: Tobeyingiz, Osmonning inoyati bilan butun koinot ustidan hukmronlik qiluvchi ilohiy imperator amri ostidagi bir o'n mingta o'n ming (million)lik bir zaminda, otlaringizning oyoqlari ostida ezilgan o'tlar va tuproq misoli bir qulingizdir. Uzoq masofadagi o'z o'rnimda turib, qo'llarimni qovushtirgan holda tiz cho'kaman va zoti oliylarining himmat va marhamatlariga ko'kka topingan kabi topinaman. Buxoro hukmdorligiga egalik qilgan kunimizdan shu paytgacha oila a'zolarim hech qanday uzilishsiz bir ravishda taxtni bir-birlariga meros qoldirishgan. Qo'shinlari va boshqa vositalar bilan samimiyat bilan imperatorlikka xizmat qilishgan. So'nggi yillardan hozirgacha har yili *Dashi* (arab) bosqinchi galalarining ishg'ol va vahshiyliklaridan bezor bo'ldik va o'lkamizda huzur-halovatdan asar ham qolmadi. Imperatorlikning qudratli qo'llari bilan ushbu qiyin kunlarimizda menga yordam qilishlarini shaxsan iltimos qilaman, shuningdek, *Tu-kyue-shi* (G'arbiy Turk / Turgash xoqonligi)ga menga madadkor bo'lishlari uchun (maxsus) bir farmon bilan buyruq berishingizni so'rayman. Men ham askarlarim va suvoriylarimga bosh bo'laman va ma'lum bir uchrashuv joyida *Dashi* (arab)larning tomirini qo'poramiz. Imperatorlikning iltimosimga mos bir himmat ko'rsatishlarini ojizona ravishda talab qilaman. Hozir sovg'a sifatida ikkita Eron xachiri, bitta jilvakor *Fulin* (Vizantiya) gilami, o'n besh kg Yu-kin mushki va yuz *kin* (60 kg) tabiiy shamni yubormoqdaman. Ushbu hadyalarning izidan zoti oliylaridan mening shaxsimga uchinchi darajadan bir unvon bag'ishlashingizni iltimos qilaman. Shuningdek, rafiqam Xotun

[1] Aftidan, o'sha paytda arablarning faqat bir asr hukmronlik qilishlari va shundan keyin bu holat barham topishi haqida gap-so'zlar yurgan.

[2] Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. İstanbul: Selenge, 2007. S. 263-264.

@tarixchi_kutubxonasiga

qirolicha xonimga ikkita chobi (?) gilami bilan bir dona bezakdor gilam yubormoqda. Agar imperator hazratlari lutf qilsalar, menga egar-jabduqlar, yugan-jilovlar, qurol-aslahalar, kiyim-kechaklar va kamarlar hadya qilinishini, rafiqam Xotunga esa kiyim-kechaklar va upa-eliklar berilishini so'rayman»[1].

## BAQTRIY TILIDAGI HUJJATLAR

### Umumiy ma'lumot

Qadimda Baqtriya, ilk o'rta asrlarda esa To'xoriston deb atalgan Amudaryoning yuqori havzasini o'z ichiga olgan hudud aholisining tilida yaratilgan baqtriycha hujjatlarning soni bugungi kunga kelib yuzdan oshdi. Ma'lumki, sharqiy eroniy tillar guruhiga mansub qadimgi baqtriyaliklar mil. avv. II–I asrlarda yunon yozuviga asoslangan o'z yozuv tizimini ishlab chiqqan edilar. Kushon saltanati (mil.avv. II–mil. III asrlar) o'z tayanch hududi sifatida Baqtriyani tanlagach, rasmiy ish yuritishlarini mahalliy aholi tilida olib bora boshlaydi. Bu an'ana milod boshlaridan to X asrgacha davom etdi va baqtriycha manbalar xronologiyasi qariyb ming yilga yaqin davrni qamrab oladi.

Kushonlardan so'ng Xionitlar (IV–V asrlar), Kidaritlar (IV–V asrlar), Eftalitlar (420–560) kabi davlatlar ham o'z boshqaruv markazlarini Baqtriya (bu davrda To'xoriston) hududida barpo etgach, baqtriy tilida ish yuritish an'anasini davom ettirishdi. 580-yillardan boshlab To'xoriston Turk xoqonligi tarkibiga kirgan paytda ham baqtriy tilida yozishmalar olib borish, hujjatlar tuzish va tanga zarb qildirish an'analari saqlab qolindi. Hatto, VII asr oxirlari – VIII asr boshlariga kelib, bu yerda arablar hokimiyati o'rnatilishi natijasida arab tili hukmron tilga aylansa-da, mahalliy aholi arab tili bilan bir qatorda o'z ehtiyojlarida baqtriy tilidan foydalanishda to X asrgacha davom etdi.

Aksariyati Shimoliy Afg'onistonning tog'li hududlaridan topilgan va ilk bor o'tgan asrning 90-yillarida taniqli ingliz eronshunosi N.Sims Villiyams tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan baqtriycha hujjatlar oldi-sotdi, ijaraga berish, hadya kabi huquqiy sohalarni qamrab olishi barobarida, bir qismi amaldorlarning o'zaro yozishmalaridan ham iboratdir[2]. Ushbu tilda yaratil-

[1] Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. İstanbul: Selenge, 2007. S. 262

[2] Sims-Williams N. From the Kushan-shahs to the Arabs. New Bactrian documents dated in the era of the Tochi inscriptions // Coins, Art and Chronology Essays on the pre-islamic History of the Indo-Iranian Borderlands. Wien 1999. P. 245–258; Bactrian Documents from Northern Afghanistan. Oxford, 2000. P. 32–145; Симс-Вильямс Н. Новые бактрийские документы // ВДИ. – Москва, 1997. – № 3. – С. 3–11.

@tarixchi_kutubxonasiga

gan hujjatlar, asosan, ilk o'rta asrlarga taalluqli bo'lib, Eftalitlar, Turk xoqonligi va Arab hokimiyati ijtimoiy-siyosiy hayotini o'zida aks ettiradi.

Baqtriy hujjatlarida bir necha o'nlab, asosan, sharqiy eroniy va qisman turkiy asosli tarixiy shaxs ismlari, lavozim, unvon, sifat (epitet) va laqablar, joy nomlari o'rin olgan. Xususan, N.Sims-Villiyams 10 ga yaqin hujjatda turkiy atama, ism va unvonlar o'rin olganini aniqlagan bo'lib, ularning xoqonlikka aloqadorligi bevosita yoki bilvositadir. Darvoqe, garchi baqtriy tili xoqonlikning markaziy hududidan ancha uzoq bo'lgan To'xoriston va Kobul vodiysida yashagan etnoslarning rasmiy yozishma tili bo'lsa ham, ushbu tilda yozilgan hujjatlarning salmoqli bir qismi aynan xoqonlik boshqaruv tizimiga aloqador unvon va epitetlarni o'zida aks ettirishi bilan ajralib turadi. Jumladan, ularda ilk o'rta asrlarda ham etnonim, ham davlat nomi sifatida qo'llanilgan *turk* etnonimiga aloqador *τορκο, τοροσανζο, σηροτορκο* iboralari bilan bir qatorda *xoqon, eltabar, tudun, tarxon, bek* kabi xoqonlik boshqaruviga xos o'nlab unvon va epitetlar o'rin olgan[1].

Baqtriy tilidagi hujjatlarning Turk xoqonligiga aloqadorlari 640-yillardan boshlanib, to xoqonlikning so'nggi yillari – 740-yillargacha davom etadi. Hujjatlarda xoqonlar tomonidan mahalliy hukmdorlarga taqdim qilingan *eltabar* unvoni, xoqonlikning nazoratchi noiblari – *tudun* bilan bog'liq ma'lumotlar nisbatan ko'proq uchraydi. Ayniqsa, hujjatlarda boshlama so'z (adresat) «*Xoqonning xizmatchisi, (falon hukmdorlik) boshqaruvchisi (bo'lmish) Eltabar huzurida tuzildi*» shaklida boshlanishi yoki amaldorlarga nisbatan «*qutlug' tapug'lug' bilga sebuk*» («qutlug' xizmatchi, dono, sevikli») tarzida sof turkiy epitetlar uchrashi ularni qadimgi turk davlatchilik an'analari manbasi sifatida o'rganish zaruriyatini qo'yadi[2].

Bir qator jihatlari bilan mazkur tildagi manbalar sug'diy tilli manbalarga o'xshab ketadi. Chunki ular ham sug'diy hujjatlar kabi boshqaruvida baqtriy-turkiy an'analar o'zaro qorishgan hududda yaratilgan. Shuningdek, bunda mazkur hudud qariyb 200 yilcha xoqonlik tarkibida bo'lishi va xoqonlikka aloqador To'xoriston yabg'ulari (620–750, Kobul Teginshohlari (630–840) kabi sulolalar hukm surib, o'z ish yuritishlarini baqtriy tilida olib borishganini ham ko'zdan qochirmaslik kerak.

Mutaxassislar baqtriyaliklar milodiy 232-yilni o'z eralarining 1-yili deb olishganini aniqlaganlar. Masalan, shartli ravishda **Doc. N** deb raqamlangan hujjatning boshlanmasida ko'rsatilgan 407 raqamiga 232 raqamini

[1] Boboyorov G'. Baqtriy hujjatlarida Turk xoqonligi tarixiga doir yangi ma'lumotlar // «O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari yosh olimlar nigohida: asosiy yo'nalishlari va yondashuvlar» Respublika Yosh olimlarining an'anaviy ikkinchi ilmiy konferensiyasi materiallari to'plami. T., 2010. B. 30–34.

[2] Sims-Willims N. Bactrian documents... – P. 74, 82, 88, 98.

@tarixchi_kutubxonasiga

qo'shsak, 639 raqami hosil bo'ladi. Demak, ushbu hujjat 639-yilda yaratilgan[1].

Mazkur hujjatlardan bir qismi ilk bor o'zbekchaga o'girilmoqda va ushbu tarjimalar taniqli eronshunos N.Sims-Villiyams tomonidan o'qib chiqilgan va 2000-yilda «Bactrian Documents from Northern Afghanistan» («Shimoliy Afg'onistonning baqtriycha hujjatlari») nomi ostida ingliz tilida nashr etilgan asaridan amalga oshirildi (tarjimonlar – Sherzod Ziyoev, G'aybulla Boboyorov, Andrey Kubatin; izohlar muallifi – G'aybulla Boboyorov).

## BAQTRIY TILIDAGI HUJJATLARDAN TARJIMA-LAVHALAR

### Doc. N raqamli hujjat

### (639-yilda tuzilgan kafolat xati)[2]

«407-yilda, Xandig oyida, Ashtad kunida muhrlangan ushbu hujjat va kafolat xati shu yerda, ya'ni Samingon viloyatidagi[3] Sandaranda, Rub hukmdorlari[4] mahkamasida shon-sharaflarga to'la *Xoqon*ning *tapug'lig' eltabari*[5] [bo'lmish] Rub hukmdori Framarizm Shaburan huzurida, Parpaz hukmdori

---

[1] Boboyorov G'. Turk xoqonligi tarixiga oid hujjatlar//*Moziydan sado*, №4, 2010. V. 4–8.

[2] Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan, I: Legal and Economic Documents. – Oxford University Press, 2000. P. 74–76.

[3] *Samingon* – tarixiy adabiyotlarda Samangon shaklida tilga olinadigan Qunduz yaqinida, uning janubida joylashgan tarixiy viloyat.

[4] *Rub* – adabiyotlarda Rob, Ruy shakllarida qayd etilgan Shimoliy Afg'onistondagi Qunduz va Samingondan janubda, Bomiyondan shimolda joylashgan tarixiy mavze. *Xar* – Rub hukmdorlarining mahalliy unvoni bo'lib, qadimgi eroniy tillarga xos unvon – **xšāθriya* bilan aloqador bo'lgan ushbu unvon arab manbalarida *shar* / *sher* shaklida uchraydi.

[5] *Xoqon* – G'arbiy Turk xoqonligi bosh hukmdorining unvoni. *Tapug'lig' eltabar* – xoqonga tobe mahalliy hukmdorning unvoni. Baqtriycha hujjatlarda mahalliy hukmdorning ushbu unvonda tilga olinishi xoqonlikning vassallar boshqaruvida joriy qilgan – vassal hukmdorliklar boshqaruvchilariga *eltabar* unvonini berish tartibi bilan aloqadordir. Shu o'rinda Rub hukmdoriga nisbatan «xoqon xizmatchisi» ma'nosida qadimgi turkcha «tapug'lig'» (*lug'*. «xizmatchi, xizmat ko'rsatgan») iborasining qo'llanilishi diqqatga sazovordir. Ushbu hujjatlarni tahlil qilgan N. Sims-Villiyams dastlabki nashrlarida «xoqon»ni mahalliy hukmdor unvoni deb tushungan edi (Sims-Williams N. From the Kushan-shahs to the Arabs. New Bactrian documents dated in the era of the Tochi inscriptions // Coins, Art and Chronology Essays on the pre-islamic History of the Indo-Iranian Borderlands. Wien 1999. P. 255-256; Bactrian Documents from Northern Afghanistan. Oxford, 2000. P. 74, 82, 88). Bu esa ba'zi tadqiqotchilar tomonidan xoqon unvonining aynan qaysi hukmdorlikda qo'llanilganiga doir yanglish fikrlar bildirilishiga olib keldi. Biroq baqtriy hujjatlarini tahlil qilgan yapon olimi Y.Yoshida hujjatlar mazmunidan kelib chiqib, *xoqon* aynan Turk xoqonligining oliy hukmdoriga tegishli ekanini aniqladi (Yoshida Y. Bulletin of the Asia Institute. XIV. 2000 [2003]. P. 158). Uning bu fikri to'g'ri ekanligi N.Sims-Villiyamsning keyingi tadqiqotlarida e'tirof etildi (Stark S. Die Alttürkenzeit in Mittelasien- und Zentralasien. Arhäologische und historische Studien. Wiesbaden, 2008. S. 212).

@tarixni_kutubxonasiga

hamda Vilargan mulkining egasi *Inal-tarxon*[1] Xulxanning ishtirokida va Rub hukmdorlari nozimi Surenning ko'z o'ngida yozildi.

Hozir: Men, Biyan-bidning Samsit [ismli] o'g'li, [bizkim] Mahonning mahalliy aholisidanmiz, xonadonimizni Biyanbidon deyishadi – Rub hukmdorining xizmatkorlarimiz, Sizga – Rub hukmdorlarining xizmatkorlari [bo'lmish], xonadoni Burzmiran deb ataladigan Madr aholisiga [mansub] – Betning Tak (ismli) o'g'liga, shuni kafolat beramizki, biz jamoa bo'lib shu qarorga keldik: ertadan boshlab, kuch bilan biror zarar keltirmaymiz, o'ldirmaymiz yoki [yomonlik] qilmaymiz, na yer-mulkka, na qasrga (va) uning atrofiga, na [uning] xotiniga va bolalariga, na [uning] aka-ukasiga yoki uning o'g'liga, na uning boshqa ota avlod qarindoshlariga, na sug'oriladigan yerlariga, na uzum bog'lariga, na qul qilingan (haramidagi) qizlariga va qullariga, na tillalariga (yoki ulardan iborat narsalar) va kumushlarga, na ... (matn uzilib qolgan, – [tegmaymiz – *tarj.*] hayvonlarga; minglab dinor [qiymati]dan boshlab bir tangagacha bo'lgan [qiymatdagi] [narsalarga] ziyon keltirmaymiz [va] Viralan oilasiga nisbatan yo'qotishga sabab bo'ladigan har qanday tahqirlash, buzg'unchilik va huquqqa qarshi harakat [sodir etmaymiz]; bu yerda men – Samsit, nima qilib bo'lsa ham [bunday holatlarga yo'l qo'yilishiga qarshi turaman], aka-ukalarim, o'g'illarim, [va] avlodlarim, qonunbuzarlik va buzg'unchilik bilan biron ziyon-zahmat yetkazsak, shunda men – Samsit [va] mening aka-ukalarim, o'g'illarim va ulardan keyingilar [avlodlar], o'zlarimiz o'limga mahkum bo'lamiz va biz Rub hukmdorining xazinasiga ming dinor oltin to'laymiz hamda biz yana ming dinor oltin to'laymiz sizlarga – Tak, sizning aka-ukalaringizga, o'g'illaringizga va avlodingizga. Va shunda, jarima to'lab bo'lingandan keyin [ushbu] kafolat shartnomasi, [ya'ni ushbu] muhrlangan hujjat, maqbul va qonuniy kuchga ega hisoblanadi...

Shunday qilib, bu yerda yozilganlar hozirdan abadiyatgacha [amal qiladi].

Va .... ning muhrlangan hujjati yozib qo'yilgan. Kim tuzganidan qat'i nazar, ushbu [hujjat] qonuniy deb hisoblanishi va vakolatga egaligi to'g'ri bo'lib, siz – Tak [va] sizning xo'jaligingizdagi a'zolar uchun ham yozilgan; bunga kafolat bo'lganimiz uchun biz barcha dushmanlarimizni bartaraf etamiz va o'z xonadonimizni himoya qilamiz».

---

[1] *Inal-tarxon* – Turk xoqonligining unvonlar tizimiga xos epitetli unvon. Ushbu unvon Choch hukmdorligi bilan bog'liq ravishda ham uchraydi. Xususan, Xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, 657-yilda *Shi* (Choch) shaharlaridan biri – *Sudu* (Shuturket?) shahrining hokimi *Inye Dagan* (qad. turk. *Inal-tarxon* bo'lgan (Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I. – М.- Л., 1950. С. 292; Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar (Ilk o'rta asrlar). – T., «Yangi nashr», 2010. B. 45).

@tarixchi_kutubxonasiga

## Doc. P raqamli hujjat

### (678-yilda tuzilgan qul oldi-sotdisi shartnomasi)[1]

«[O'shanda] 446-yil edi, Ab oyida, Vahman kunida [muhrlangan ushbu hujjat, oldi-berdi shartnomasi yozilgan vaqtda] bu yerda – Samingan viloyatidagi Marug'anda, [Rub hukmdorlariga qarashli] bozorda, ezguliklar (va) umidlar baxshida etuvchi, hayratlarga sazovor Ram-set xudosining shohidligida, shu yerda [Marogandagi] bozorda, [sharafli *Xoqon*]ning *tapug'lig' El-tabari* [bo'lmish] Rub hukmdori Jun-lad Shaburanning xabardorligida va Xusaru tarxon[2] hamda [Rub] hukmdorlari bozorining nazoratchisi D[eb-raz.. ] guvohligida... va yana o'sha yerda bo'lgan boshqa ozod kishilar ishtirokida [tuzilgan bo'lib], ular quyidagilar yuzasidan guvohlik beradilar.

Hozir: u yerda men tomonimdan, ya'ni men – Y[askul] va men – Yezdgird, Kavning o'g'illari – Xvastuning mahalliy aholisidan, qaysiki shu yerda, [Samingan viloyatida] ishtirok etayotgan [kishilar] – bizning aka-ukalarimiz (va) o'g'illarimiz tomonidan Sizga – Fanz, va yana [sizga] – Vind]-Marg', va sizga – Pusk, ya'ni Bag'-mareg' o'g'illari, Sizlarga – G'aba[liyan] deb ataladigan xonadonga hamda sizning aka-ukalaringizga, o'g'illaringiz (va) avlodlaringizga biz birodarlarga [tegishli bo'lgan] ismi Xalas [bo'lmish] bola sotildi.

[O'shandan beri] biz uni [haddan ortiq] to'ydirib yubora olmadik (va) och qo'ymadik ... 3 Fors dirhami uchun».

Demak, hozir bu yerda tasvirlangan bola haqiqatdan ham va munosib ravishda Siz – Fanzga va Siz – Vind-Marg'ga, (sizning) aka-ukalaringiz bilan birga, o'g'illaringiz va undan keyingi avlodlaringizga hozirdan abadiyatgacha tegishli. Va sizlar o'zingizga to'g'ri keladigan ishni qilishga, ya'niki [uni] o'zingiz bilan saqlashga, sotib yuborishga, garovda tutishga, sovg'a sifatida berib yuborishga, ijara o'rnida ishlatishga, jinoyati uchun asir tutishga yoki uning o'rniga harbiy xizmat qilishi uchun ozod etishga haqqingiz bor. Shunda sizning sotib olingan va o'zi shunday qul bo'lib tug'ilgan qullarga an'anaga ko'ra nimaiki bo'lsa, chora ko'rishga haqqingiz bo'ladi. Va hozir ertadan yoki kelgusidagi istagan vaqtdan boshlab, agar Xalas uchun Siz – Fanz bilan tortishadigan kimdir chiqib qolsa yoki boshqa sizning xonadoningizdagi biror a'zo ... dan .... yoki ... dan norozi bo'lsa ... shunda men – Yaskul va men – Ezdgird va bizning kichik xonadonimizning a'zolari qo'yib yuborishga sabab bo'lsak va mazkur ishdan o'zimizni tortsak va yana biz

[1] Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan, I: Legal and Economic Documents. – Oxford University Press, 2000. P. 82–86.

[2] *Tarxon* – G'arbiy Turk xoqonligi unvonlar tizimiga xos nisbatan yuqori darajali unvonlardan biri bo'lib, xoqonlik vassallari boshqaruvida ham joriy qilingan.

@tarixchi_kutubxonasiga

uning qutulishiga yo'l qo'ymasak, bundan o'zimizni chetga olsak, buni eplay olmasak, sizga nima bo'lsa ham bajarishga, Sizga – Fanz, Sizning xonadoningiz a'zolariga buning uchun to'lov to'lashga rozimiz ...

[... Ushbu oldi-sotdi shartonomasi ...]

(Hujjatning orqa tomonida)

Yaskul (muhr A)

Ram-set xudosi (muhr B)

Rub hukmdori (muhr S)

Xusaru tarxon (muhr D)

Deb-raz (muhr E)

## Doc. Q raqamli hujjat

(681-yilda tuzilgan qarz shartnomasi)[1]

«449-yilda, ya'ni Ikkinchi Yangi yil oyining Din kunida ushbu ijara shartnomasi Samingan viloyatidagi Marog'anda yozildi, ezguliklar (va) umidlar baxshida etuvchi, hayratlarga sazovor Ram-set xudosining shohidligida, Marog'andagi bozorda, sharaflarga to'la *Xoqon*ning *tapug'lig' Eltabari* [bo'lmish] Rub hukmdori Jun-lad Shaburanning guvohligida va Tarxonning ko'z o'ngida, Tarxonning o'g'li Xusaru va Rub hukmdorlari bozorining nazoratchisi Deb-raz guvohligida... va boshqa ozod kishilar bunga ushbu masala yuzasidan guvohlik bera oladi.

Hozir: menkim Yalganning Deb [ismli] o'g'li, Tarmidning[2] mahalliy aholisi vakili, ko'shkka mansub – Xorigan deb ataladigan xonadonga tegishli qasr vakillari shu yerda – Samingan viloyatida ishtirok etib turibmizki, Debning Viraz-finz [ismli] xotini va bizning aka-ukalarimiz va o'g'illarimiz, Sizdan – Xudev-mareg' va Sizdan – Vizburg-mareg', sizning aka-ukalaringiz bilan birga Hinsarning o'g'illari va sizlarning aka-ukalaringiz hamda avlodlaringizdan hukmdor Kavad zarbi bo'lmish [qirq] joriy mahalliy sof fors kumush dirhamini qarz (sifatida) foizi bilan birga qabul qildik. Biz har oyda foiz o'rnida hukmdor Kavad zarbi bo'lmish ikki fors dirhamini berishni bo'ynimizga olamiz. Agar Siz tomoningizdan Xudev-mareg' va sizning xonadoningiz a'zolariga o'z dirhamingiz kerak bo'lsa, agar ularni foiz uchun qoldirish noqulay bo'lsa, bizga bir oydan so'ng bu haqda bildiring. Shunda biz hukmdor Kavad zarbi bo'lmish qirq dirhamni yig'ilib qolgan foizi bilan birga sizga o'z vaq-

[1] Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan, I: Legal and Economic Documents. – Oxford University Press, 2000. P. 88–90.

[2] *Tarmid* – Termiz toponimining qadimiy shakllaridan biri.

@tarixchi_kutubxonasiga

tida to'liq qilib to'laymiz. Agar biz uni sizga bera olmasak, o'shanda sizning – Xudev-mareg' va og'a-inilaringiz, farzandlaringiz xonadonimizning ich va tashqarisidagi biz shaxsan to'lay oladigan darajadagi qaytarilmaydigan mulk shaklidagi jarimani to'lattirishga haqqingiz bo'ladi. Bundan tashqari, bayon qiluvchi bo'lgan bizlar, sizning xususiy ijarangizga nisbatan e'tirozimizga qaramasdan ikkidan birgacha miqdordagi chorva yoki qul shaklidagi jarimani ham gardanimizga qo'yishingiz mumkin bo'ladi. So'ngra jarimaning joriy qilinishida shu narsani aniqlashtirib olish kerakki, sizning ijara yig'uvchingizga nisbatan e'tiroz bildirsak va asosiy mablag' bilan birga foizni o'z vaqtida bera olmasak, o'shanda bizning jarimadan qisman ozod bo'lishga, shikoyat qilishga, qonundan bo'yin tovlashga yoki ijara shartnomasi o'rnini bosuvchi boshqa shartnoma tuzishga yoki qasam ichishga haqqimiz bo'lmaydi. Agar biz jarimadan shikoyat qilsak yoki o'zimizning kafolat (xatimiz)ga qarshi harakat qiladigan bo'lsak, biz mahkamaga, xazinaga sakkiz fors dirhamini to'laymiz va yana sakkiz fors dirhamini qarshi tomonga to'laymiz.

Va ushbu ijara shartnomasi yozildi ... Buni kim tuzganidan qat'i nazar, qonuniy kuchga ega va hamma uchun majburiy».

**(Orqa tomoni)**

Del (va) Viraz-finz (muhr A)
Ram-set xudosi (muhr B)
Rub hukmdori (muhr S)
Tarxon (muhr D)
Deb-raz (muhr E)

### Doc. S raqamli hujjat

(702-yilda tuzilgan majburiyat shartnomasi)[1]

«470-yil Buxsig oyining Risht kunida muhrlangan ushbu majburiyat shartnomasi G'az (mavzesi)ning[2] Vanindan degan joyida, saroy mahkamasida, G'azning turklardan (bo'lmish) hukmdori *Tudun*[3] huzurida va G'az xazinaboni Sitning ko'z o'ngida yozildi.

[1] Sims-Williams N. Bactrian Documents from Northern Afghanistan, I: Legal and Economic Documents. – Oxford University Press, 2000. P. 94–96.

[2] *G'az* – Shimoliy Afg'onistondagi Rub viloyati yaqinidagi tarixiy mavze.

[3] *Tudun* – G'arbiy Turk xoqonligi tomonidan vassal o'lkalarga jo'natilgan noibning unvoni. Xitoy yilnomalari, sug'diy hujjatlar va arman manbalaridan ayon bo'lishicha, ushbu unvon egalarining vazifasi mahalliy hukmdorni nazorat qilish va soliq yig'inini tashkil etish bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Men – Po'an va men – Miyar, Bunchug'lig' (mavzesi)dan bo'lmish Farnag'atning o'g'illari ushbu bayonnomani o'z xohishimiz bilan emin-erkin holda tuzdik, qaysiki biz, turklar hukmdori bo'lmish G'az tudunigа, Axshamning xizmatkorlari – Sizga, (ya'ni) Bazga va yana Sizga – Go'gnagga va Sizga – Go'rdga, saroy a'yonlariga, Xudev-mag'atning xizmatkorlariga, Rub amaldoriga mahkamaga hisobot berish uchun G'azga keldik.

Hozir: men – Po'tan va men – Miyar, Siz – Baz va Siz – Go'gnag, Siz – Go'rdga nisbatan da'vomiz va kelishmovchiligimiz bor. Agarda bizning talabimiz bajarilsa va ixtilof bartaraf etilsa, turklar hukmdori G'az tuduni shohidligida va G'az xazinaboni Sitning ko'z o'ngida ushbu majburiyatni quyidagi shartlarga ko'ra bo'ynimizga olamiz, ya'ni bizning, na men – Po'tanning, na men – Miyarning yoki og'a-inilarimiz, farzandlarimiz va avlodlarimizning sizlarga – Baz, Go'gnag (va) Go'rdga nisbatan hech qanday da'vomiz bo'lmaydi. Shunday qilib, ushbu talabnomani tan olgan holda, hech kim bundan keyin janjal va ixtilof chiqarishga haqqi bo'lmaydi. Mabodo, bu sodir bo'lsa, ertangi kundan abadiyatgacha ushbu qonunning hurmati yuzasidan biz bayon qiluvchilar, sizlar – Baz, Go'gnag (va) Go'rd bilan kimdir janjallashsa, tortishsa, ixtilofga borsa (yoki) qonundan bo'yin tovlasa, (agar) biz – bayon qiluvchilar yoki og'a-inilarimiz, farzandlarimizdan birortasi ushbu majburiyatlar bilan bog'liq ixtilof keltirib chiqarsa, o'shanda har birimiz qonun oldida javobgar bo'lamiz va biz mol-mulkdan voz kechishga (majbur bo'lamiz) va hammasidan mosuvo bo'lishimiz mumkin. Talabgorlar: agar biz, qonunga muvofiq keluvchi har bir talabga javob bermasak va mol-mulkimizdan voz kechishga yo'l qo'ymasak hamda qarshi tomon uchun (bergan) va'dalarimizni yolg'onga chiqarsak, xuddi o'zimiz yozib, kafolat berganimizdek ish tutmasak, shunda biz hukmdor Kavad zarbi (bo'lmish) ikki yuz dirhamni mahkama xazinasiga jarima sifatida to'laymiz va biz qarshi tomon uchun (ham) hukmdor Kavad zarbi (bo'lmish) ikki yuz dirham to'laymiz. Muhrlangan ushbu hujjat – majburiyat shartnomasi qonuniy kuchga ega va vakolatli hisoblanadi».

@tarixchi_kutubxonasiga

## SUG'D TILIDAGI MANBALAR

### Umumiy ma'lumot

Miloddan avvalgi III–II asrlarda shakllangan sug'diy[1] yozuv o'lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o'ynadi. Bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo'llangan. Shu jarayonda yozuvning tashqi shakli takomillasha borgan hamda uning ichki mazmuni til tovush tizimini tobora aniq ifodalash tomon o'sa borgan, muayyan orfografik normalar vujudga kela boshlagan.

Muhimi shundaki, sug'diy yozuv orqali bizgacha eramiz boshlaridan to X–XI asrlarga qadar yozilgan ko'plab noyob yodgorliklar etib kelgan. Ular orasida turli davr va hududlarga oid ko'plab numizmatik materiallar (tanga yozuvlari), metall, sopol, yog'och, charm, qog'oz va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, diniy, axloqiy-falsafiy matnlarning parchalari, xo'jalik, huquqiy va diplomatik hujjatlar bor.

Ana shunday yodgorliklarning katta guruhi Tojikistondagi Panjikent yaqinida Mug' tog'i tepasida joylashgan Qalai Mug' nomli qadimgi qasr xarobasidan topilgan sug'diy hujjatlardir.

Mug' tog'i sug'diy arxivi deb yuritiluvchi bu majmua VII asr oxiri – VIII asr boshlariga oid 80 ga yaqin noyob hujjatni o'z ichiga oladi. Ular Sug'd konfederatsiyasiga[2] tobe Panch hukmdorligi (Panjikent) saroyi hamda turli

[1] O'zbek tilli adabiyotlarda ko'p hollarda «sug'd» yoki «so'g'd» atamasi ham etnik nom, ham muayyan geografik hudud yoki hukmdorlik nomi uchun qo'llanilayotgani ko'zga tashlanadi. Bu holat ba'zi o'rinlarda aynan xalq yoki tarixiy o'lka haqida borayotganligi masalasida chalkashliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, muayyan etnos nomi sifatida «sug'diy», tarixiy-geografik o'lka nomi sifatida esa «Sug'd» atamasini ishlatishni ma'qul topdik.

[2] *Sug'd konfederasiyasi* – «Sug'd ittifoqi» mazmunidagi ushbu nisbiy atama ostida ilk o'rta asrlarda Zarafshon daryosi havzasidagi Samarqand, Panch, Maymurg', Ishtixon, Kabudon, Kushoniya hukmdorliklarini hamda Qashqadaryo daryosi havzasidagi Kesh va Naxshab hukmdorliklarini o'z ichiga olgan muayyan siyosiy uyushma tushunilib, uning tarkibidagi mazkur hukmdorliklar o'z ichki boshqaruvida mustaqil bo'lishgan. Ularning har biri o'z boshqaruv markazi – poytaxti, hukmdor sulolasi, hokimiyat ramzlari (tanga, tamg'a va h.k.), qo'shini kabi hokimiyat xususiyatlariga ega bo'lishgan. O'z navbatida, ularning bitta siyosiy ittifoq – konfederatsiyaga birikishlari asosida mazkur hukmdorliklarning o'zaro yetakchi hukmdorlik (yoki sulola)ga bo'ysunishlari, hukmdor sulolalar kelib chiqishi jihatidan yagona xonadonga borib taqalishlari yoki ayrim ijtimoiy-

@tarixchi_kutubxonasiga

viloyat hokimlari va amaldor a'yonlarga tegishli hujjatlar yig'indisidan iborat. Arab istilosi kunlarida, xususan, 721–722-yillarda Panch hukmdori, bir muddat Sug'd hukmdori taxtiga da'vogar sifatida ish ko'rgan Devashtich boshliq guruh Mug' tog'ida joylashgan tik qoyalar bilan o'ralgan mudofaa qasriga chekingan. Shunda saroy hujjatlari ham qasrga keltirilgan. 722-yili arablar qasrni hujum bilan olgach, uni vayron qilganlar, Devashtichni esa xalifalikning Xurosondagi noibi hukmiga jo'natganlar. Devashtich Xuroson noibi tomonidan qo'yilgan shartlarni qabul qilgach, Sug'dga qaytarib yuborilgan. Lekin xufya buyruq asosida u Rabinjan (hozirgi Kattaqo'rg'on shahri yaqinida joylashgan ilk o'rta asr shahri xarobasi) qabristonida qatl qilingan.

Mug' qasri xarobasida qolib ketgan ilk o'rta asr Sug'd arxivi oradan 1210 yil o'tgach, 1932–1933-yillarda topildi. Mug' tog'i sug'diy hujjatlari hali ham izchil o'rganib kelinmoqda, barcha matnlarning izohli nashrlari e'lon qilinmoqda. Ularning til xususiyatlari o'rganilmoqda. Qadimgi sug'diy yozuv bo'yicha paleografik tadqiqotlar bajarilmoqda.

Hujjatlar nashr etilishi bilan barobar rus tiliga tarjima ham qilingan. Lekin ularning mazmunini o'z davriga xos tushunchalarni aniqlashda, tiliga oid jihatlarini talqin etishda olimlar hali yagona fikrga kelganlaricha yo'q.

Ushbu hujjatlarning tarixiy jihatdan ahamiyati beqiyos. Chunonchi, ularda Choch, Farg'ona, Ustrushona, Xo'jand, Panch (Panjikent), Samarqand kabi voha hukmdorliklariga aloqador voqeliklar, mintaqada arab istilosi va unga qarshi mazkur hukmdorliklarning ittifoqchilikdagi harbiy harakatlarni tashkil etishga undovchi yozishmalar, xususan, ushbu harakatlarning tashabbuskori bo'lgan turk xoqonlariga Panch hukmdori Devashtichning murojaati va hokazolar o'rin olgan. Ma'lumki, bu davrda Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlarda Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd (Samarqand, Panch, Maymurg', Ishtixon, Kushoniya / Kattaqo'rg'on, Kesh, Naxshab va h.k.), Buxoro, To'xoriston va Xorazm kabi o'nlab kichik voha hukmdorliklari mavjud bo'lib, o'z ichki boshqaruvlarida deyarli mustaqil bo'lgan mazkur siyosiy uyushmalar mintaqadagi yirik saltanat – G'arbiy Turk xoqonligi (568–740) tarkibida edi.

Darvoqe, Mug' tog'i hujjatlaridan bir nechasida xoqonlikka aloqali ravishda bir necha bor «*xun (turk) hukmdori*», «*xoqondan kelgan mansab / yorliq*» kabi iboralar bilan birgalikda, *xoqon*, *tudun*, *eltabar*, *tarxon* kabi unvon-

siyosiy va madaniy-mafkuraviy majburiyatlarni bajarishlari kabi omillar yotgan. Jumladan, Samarqandda Chjaovu (Jamuk) xonadoni hukm surib, qolgan hukmdorliklardan aksariyatini ushbu xonadonga mansub sulolalar boshqarishgan va ular orasida Samarqanddagi sulola yetakchilik qilgan. Tashqi dushmanlarga birgalikda kurashish majburiyatida bo'lgan hukmdorliklar vakillari yilning muayyan vaqtlarida bitta joyga yig'ilgan holda diniy amallarni, xususan, zardushtiylar udumlarini hamkorlikda bajarishgan. Sug'd konfederatsiyasi Turk xoqonligiga avtonom huquqlar asosida tobe holda amal qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

lar va *Chakin Cho'r Bilga, O't-tegin* singari xoqonlikka xos ism va epitetlar o'rin olgan. Ushbu tildagi manbalarning xoqonlik tarixini yoritishdagi ahamiyati shuki, sug'diy mualliflar xoqonlik ichki hayotidan yaxshi xabardor bo'lishgan. Shu sababli, ularda o'rin olgan xoqonlikka xos boshqaruv tizimi va davlatchilik an'analariga oid ma'lumotlarni original dalillar sifatida baholash mumkin. Darvoqe, sug'diylar Turk xoqonligi aholisining sezilarli qismini tashkil etgan va turkiylar bilan yonma-yon, aralash yashagan etnos sifatida xoqonlik boshqaruvida ham faol ishtirok etganini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, Sug'd vohasidagi bir qator hukmdorliklarda sug'diy-turkiy boshqaruv an'analari o'zaro sintezlashgan bo'lib, bu ularning ish yuritish tizimida ham o'z ifodasini topgan.

Bu holat, ayniqsa, Panch hukmdorligi hayotida yaqqol ko'zga tashlanib, boshqaruvda sug'diy va turkiy etnos vakillari baravar ishtirok etishganida o'z ifodasiga ega. Xususan, taxminan VII asrning ikkinchi yarmida Panchda turkiy-sug'diy aralash sulola tashkil topib, uni dastlab Bichut, keyinchalik uning o'g'li Chakin Cho'r Bilga (693–708), keyinchalik uning qizlari vositasida kuyovi, sug'diy amaldor Devashtich (708–722) boshqarganlar.

Bu paytda butun Sug'd konfederatsiyasida bo'lganidek, Panchning ma'muriy-siyosiy boshqaruvida ham nisbiy bo'lsa-da, konfederatsiya shaklidagi o'ziga xos ichki tuzilishga ega boshqaruv mavjud edi. Ilk o'rta asrlarga taalluqli yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, Yuqori Zarafshon vodiysidagi hozirgi tuman (rayon) yoki kattaroq qishloqlarga to'g'ri keluvchi qator ma'muriy birliklar – rustoqlar Panch hukmdorligi tarkibiga kirgan. Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida Panchga tegishli bo'lgan quyidagi mulk (mayda hokimlik)larning nomlari keltiriladi: Parg'ar, Kshtut, Martushkat, Madm, Kum, Zarovat, Iskadar, Xshikand, Varz, Krut, Fatmiv, Paxut, Aftmaut, Shavkat, Yag'nob vodiysi, Anzob, Buttam va hokazolar[1].

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, aslida hududiy jihatdan muayyan bir qishloq darajasida bo'lgan mazkur ma'muriy birliklar ham o'z avtonom boshqaruviga ega bo'lganligi bois, ularni ma'lum ma'noda «mayda hokimliklar» deb atash ham mumkin. Panch hukmdorligiga qarashli mazkur kichik mulklar o'sha davrdagi arab-fors tarixiy asarlarida ko'proq «rustoq»[2]lar shaklida qayd etilgan. Ulardan ayon bo'lishicha, har bir rustoq o'z bosh-

[1] *Смирнова О.И.* Вопросы исторической топографии и топонимики верхнего Зарафшана // МИА. М., 1953. №15. С. 56–61; Гафуров Б.Г. Таджики, древнейшая, древняя и средневековая история. – М., 1972. С. 317-318.

[2] *Rustoq* – forscha «qishloq» ma'nosiga to'g'ri kelib, O'rta Osiyo, Eron va qisman arab mamlakatlarida qo'llanilgan tarixiy-geografik tushuncha. Ushbu so'z qishloq, shahar, ovul, bozor, o'zlashtirilgan o'lka, o'troq aholi yashaydigan joy, ekin maydoni, obodonlashtirilgan shahar kabi ma'nolarga ega. O'rta Osiyo va Eron mo'g'ullar tomonidan istilo etilgach, rustoq o'rniga «tuman» atamasi qo'llanila boshlagan. (Qarang: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: O'zME, 2004. B. 395).

@tarixchi_kitobxonasiga

qaruvchisiga ega bo'lib, o'z navbatida ular Panchning bosh hukmdoriga bo'ysunishgan. Umuman olganda, arab-fors manbalarida qayd etilishicha, Movarounnahrdagi Buxoro, Samarqand, Ustrushona kabi nisbatan yirik hukmdorliklarda ham Panchdagiga o'xshab rustoqlar bo'lgan.

Ahamiyatlisi shuki, tuman yoki kattaroq qishloq shaklidagi mazkur mayda hokimlik (mulk)lardan aksariyatining nomi sug'diy hujjatlarda qay shaklda uchrasa, hozirda ham qariyb o'sha ko'rinishda saqlanib qolgan.

Biz quyida Mug' hujjatlarining o'zbek tiliga izohli tarjima qilish tajribasining ayrim natijalarini yig'ishga urindik. Ushbu tarjimalarni amalga oshirish jarayonida hujjatlarning asl nusxalari bilan tanishib chiqish bilan birgalikda yirik sug'dshunos mutaxassislar – A.A. Freyman, V.A. Livshis, M.N. Bogolyubov, O.I. Smirnovalarning ruscha[1], B. Garib, F. Grene, E. de la Vessier, N. Sims-Villyams, Y. Yoshida va P. Lurelarning asosan inglizcha va qisman fransuzcha[2] tarjima hamda tadqiqotlariga murojaat qildik.

Hujjatlar tarjimasida hamda ularning izohlarida yangicha yondashuv asosida ko'pgina mustaqil ilmiy talqinlar kiritdik. O'lkamiz tarixining arab istilosi va istilo bosqichlarini yangicha tushunishda bu hujjatlarning o'rnini belgilab berishga harakat qildik.

Shuningdek, mazkur tarjimalarni amalga oshirish jarayonida tadqiqotchilarga, xususan, tarixiy tilshunoslik bilan shug'ullanuvchilar va sohaga yaqin mutaxassislarga foydali bo'lishini nazarda tutgan holda matnlarni erkin tarjima qilmasdan, imkon qadar sug'diy til qonuniyatlariga er-

[1] Согдийские документы с горы Муг / А.А. Фрейман. Описание публикации и исследование. Вып. I. – М.: Издво восточной лит-ры, 1962 (СДГМ, I); Согдийские документы с горы Мут. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. II. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. М.: Издво восточной литры, 1962 (СДГМ, II); Согдийские документы с горы Мут. Чтение. Перевод. Комментарий. Вып. III. Хозяйственные документы. Чтение, перевод и комментарии М.Н. Боголюбова и О.И. Смирновой. М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963 (СДГМ, III); Смирнова О. И. Очерки из истории Согда. М., 1970; Лившиц В.А. Правители Панча (Согдийцы и тюрки) // Народы Азии и Африки. М., 1979. №4. С. 56–69; Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2008; Лившиц В.А. Согдийские «Старые письма» (I, III) // Письменные памятники Востока. Москва, 2008 (2). № 1 (8). С. 173-176; Якубович И.С. Проблемы согдийской этимологии: Дисс. ... канд. ист. наук. М.: Российский государственный гуманитарный университет, 2009.

[2] Grenet F. Les «Huns» dans les documents Sogdiens du mont Mugh (aves un Appendice par N.Sims-Williams) // StIr, 7. Études Irano-Aryennes offertes à Gilbert Lazard. – Paris, 1989. P. 165–184; Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology, 8. Kamakura 2002. P. 155–196 (Grenet, Vaissiere, 2002); Gharib B. Sogdian Dictionary. Sogdian – Persian – English. – Tehran: Farhangan Publications, 1995 (Gharib, 1995); Yoshida Y. On the Origin of the Sogdian Surname Zhaowu and Related Problems // JA. Paris, 2003. No. 1-2 (291). P. 35–67; Lurje P.B. The element -kath/kand in the place names of Transoxiana // ST, 32, fascicule 2, 2003. P. 185–212

@tarixchi_kutubxonasiga

gashib, unga xos so'z tartibini saqlashga harakat qilindi. Bundan tashqari, matnlarning har bir satri hujjatda qanday kelgan bo'lsa, o'shanday holatda berilib, har bir satr yozilish tartibiga ko'ra raqamlab chiqildi. Bu kabi holatlar o'quvchilarda hujjat mazmunini tushunishda muayyan qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuni nazarda tutib, ayrim hollarda so'zlarning muqobil variantlari qavs ichida berildi yoki izohlab o'tildi (tarjima va izohlar mualliflari: Mirsodiq Ishoqov, G'aybulla Boboyorov, Andrey Kubatin).

**M. Ishoqov, G'. Boboyorov**

## A-9 (QO'SHNI HOKIMLIKLARDAGI AHVOL TO'G'RISIDA DEVASHTICHGA UNING AYG'OQCHISI YOZGAN MAKTUB) HAQIDA

A-9 raqamli hujjat. 19,5-11 sm yuzali charmning o'ngi va teskarisiga o'ziga xos individual xat uslubi bilan bitilgan sug'diycha matndir. O'ng beti charmning eni bo'ylab, orqa beti esa bo'yiga to'ldirilgan. Hammasi bo'lib o'ng betida 15, orqa betida esa 26 qator yozuv bor. 25-26-qatorlar orqa betdagi matn yo'nalishiga teskari holda yozilgan. «Va yozildi Aspanak Devg'un tomonidan Arspanning buyrug'iga binoan» deb ta'kidlanadi unda. Shunday qilib, A-9 hujjatini yozgan sug'diy xattot yoki mirzaning ismi Aspanak Devg'un ekan deb o'ylash mumkin. Lekin asosiy matn kotibining xat uslubida so'z boshidagi *p* harfi, so'z o'rtasidagi *k* va *y* belgilari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Teskari yo'nalishdagi ikki satr xati esa boshqacha. Xat o'ralgach, bu satrlar boshqa kishi tomonidan yozib qo'yilgan bo'lsa kerak. Xususan, bu xatning belgilari o'ziga xos. Umuman, oxirgi 2 satr xati A-12, B-2, B-3 kabi qator hujjatlar xatiga o'xshaydi. Hujjat noshiri V.A. Livshisning fikricha, A-9 hujjati uchun avval yozuv bitilgan charmni yuvib tozalashgan. Shunda eski matn qisman o'chmay, qolib ketgan. Demak, Aspanak Devg'un o'g'li yuvib tashlagan matnning kotibi bo'lgan, deyish ham mumkin. Bu hujjat VII–VIII asrlarda Romtish Vg'ashfarn, Vanenok kabi kotiblar bilan bir qatorda Aspanak Devg'un o'g'li ismli sug'diy kotib ham bo'lganligi haqida ma'lumot beradi.

A-9 raqamli hujjat xat janriga mansubdir. Lekin unda sug'diy maktublarga xos kirish va yakunlovchi formulalar yo'q. Shuning uchun maktubning kimga yozilgani ham noma'lum. Lekin undagi xabar va ma'lumotlarning Sug'd hukmdorligi (konfederatsiyasi) siyosiy-harbiy ahvoliga bevosita aloqadorligi hisobga olinsa, xat adresati hukmdor Devashtich bo'lgan deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, maktub matnida «maray» unvoni uchraydiki, bu «afshin (hukmdor)» ma'nosida bo'lib bir necha hujjatlarda Devashtichga nisbatan qo'llangan.

A-9 hujjatining adresati juda bo'lmaganda muhim amaldor ekanligi xat mazmunidan yaqqol ko'rinib turadi. Masalan, muallif Ustrushana, Parg'ar,

@tarixchi_kitobxonasiga

Xo'jand kabi qator shahar va viloyatlardagi ahvolni bayon etadi. Aftidan, u arablar bilan tuzilishi mumkin bo'lgan bitim haqida gapiradi. Farg'ar yerlarini tashlab ketmaslik lozimligini ta'kidlaydi. Chunki bu yerlarda yaqin kelajakda muayyan xavf-xatar yo'q. A-9 hujjatining 1-2-satrlarida qiziq bir ma'lumot berilgan.

Hujjat 722-yil avgust oyining birinchi haftasida yozilgan deb taxmin qilinadi[1].

## A-9 (QO'SHNI HOKIMLIKLARDAGI AHVOL TO'G'RISIDA DEVASHTICHGA UNING AYG'OQCHISI YOZGAN MAKTUB MATNI)

(1) Va shunday xabar bor: «Xo'janddagi (voqealar) tugadi va barcha xalq

(2) amirning diniga (yoki «himoyasiga») o'tdi – zodagonlar («ozodlar») ham, savdogarlar va

(3) xizmatkorlar ham (jami) 14 ming (bo'lib) chekindilar[2].

Va biz chopar yo'lladik.

(4) Lekin keyin eshitdikki, u Xuttalga[3] qaytib kelibdi.

(5) Axshevarro'ch kunida esa lashkarboshi Shavkatda[4] to'xtadi. Bor bo'lgan barcha piyoda askarlarni

---

[1] Grenet, Vaissiere, 2002:179.

[2] Hujjatning dastlabki nashrlarida 1-2-satrlar quyidagicha o'girilgan edi: «(1) Va shunday ovozalar bor: «Kuchaliklar (?) ..... va barcha xalq (2) braxman diniga o'tishdi («chiqishdi»). Bular zodagonlar («ozodlar»), savdogarlar va oddiy (3) xalq hamda 14 000 ruhoniy ustozlar. Va biz chopar yo'lladik» (SDGM, II:95). Bu esa hujjatdagi ma'lumotlar talqinida yanglish xulosalar bildirilishiga olib kelgan, kuchaliklar, ya'ni Sharqiy Turkistondagi voha hukmdorliklaridan biri – Kucha aholisi va ular e'tiqod qiluvchi brahman dini haqida gap boradi mazmunida fikrlarga yo'l ochgan edi. Aslida esa bu yerda hujjat yaratilgan muhit – Panchga nisbatan yaqin joylashgan viloyat bo'lmish Xo'janddagi ahvol bayon qilinadi. Yuqoridagi tuzatishlar O.I. Smirnova hamda F. Grene va E. de la Vessierlar taklifi asosidadir (Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М., 1970. С. 16, 254; Grenet Vaissiere 2002:172-173).

[3] *Xuttal* – adabiyotlarda Xuttalon, Xatlon shakllarida ham uchraydigan Chag'oniyon (hoz. Denov / Surxondaryo viloyati)ning sharqida joylashgan tarixiy viloyat. Uning hududi Tojikistondagi hozirgi Ko'lob viloyatiga to'g'ri keladi.

[4] *Shavkat* – lug'aviy jihatdan sug'diycha *shav* «qora» va *kat* «qishloq/shahar» («Qoraqishloq/shahar») ma'nolarini anglatgan ushbu aholi manzilini ayrim tadqiqotchilar Zarafshon daryosining o'ng havzasida, hozirgi Ayniy tumani markazining biroz shimoli-sharqida joylashgan Shavkati poyon qishlog'i bilan tenglashtiradilar. Ayrim tadqiqotchilar esa uni arab geograflari tomonidan Shimoliy Ustrushonada Samarqanddan Xo'jandga eltuvchi yo'l bo'yidagi muhim rustoq (tuman) sifatida tilga olingan joy bilan bitta deb qarashadi. Shuningdek, mazkur geograflar Iloq (Choch) viloyatidagi shaharlardan birining nomini ham Shavkat shaklida qayd etishgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(6) Buttaman[1] orqali u sari jo'natdim. Parg'ardagi[2] yerlarni esa, ya'ni eng keng (yaxshi)

(7) bo'lganlarini, unga tashlab ketmagin, (chunki) ushbu lashkarboshi

(8) sengacha yetib bormaydi. Hokim janoblari, (sizdan) shunday buyruq bo'lgan edi: «Dishttach bilan birga

(9) otlarni tayyorla! Murtatro'ch kuni ishonchli kishilar

(10) Ramanga[3] kelishadi» – lekin bu haqda menda hali xabar yo'q. Agar

(11) sen sulh tuzsang, na sen va na sening xalqing adolatli (tinchlik, amniyatga) erisholmaysan.

(12) Men yana bir choparni yubordim. Qanday yangi xabarlar bo'lsa, senga yetkazurman.

(13) Va men ishonchli choparni ham jo'nataman. Ustrushanlik odamlardan ham

(14) biroz kelishadi. (Hozircha) tashvish yuzlanmadi,

(15) shuning uchun g'am chekmagin».

**Izoh:**

A-9 hujjati mazmuniga ko'ra podsho Devashtichning Parg'ar, Ustrushona, Xo'jand viloyatlarida yashirin ish ko'rgan kuzatuvchisi (ayg'oqchisi) tomonidan yozilgan maxfiy ma'lumotnomadir. Hujjatda adresat va maktub yo'llovchi kishi nomlari ko'rsatilgan emas. Unda odatdagidek maktubot janriga xos kirish va xotima formulalari ham yo'q. Xat muallifi to'g'ridan to'g'ri o'zi kuzatgan voqealar bayoniga kirishadi. Bunday ehtiyotkorlik arablar istilosi jarayonida, ehtimol, zarur bo'lgandir. Bu haqda A-9 noshiri V.A. Livshis uch xil taxmin bildirgan: 1) maktubning yetib kelgan qismining bir bo'lagi, bosh qismi yo'qolgan; 2) A-9 matni xatning asosiy mazmunining qora nusxada tayyorlangan ko'rinishi. Shu matn asosida tegishli kirish va xotima formulalari bilan oqqa ko'chirilgan matn yetib kelmagan; 3) kirish va xotima formulalarida ismlar ta'kidlanishi lozim edi. Lekin harbiy-siyo-

[1] *Buttaman* – arab manbalarida Buttam shaklida qayd etilgan. Zarafshon daryosining yuqori havzasida, Panjikentning shimoli-sharqida, Zomin tog'lari yaqinida, undan janubi-sharqda joylashgan tog'lik tarixiy viloyat. U ba'zan alohida hukmdorlik, ba'zan Ustrushona tarkibidagi viloyat sifatida bo'lgan.

[2] *Parg'ar* – sug'diy tilda «Tog' usti / Tog'lik joy», «Tog'ning yuqorisi» ma'nosini anglatgan bo'lib, Yuqori Zarafshonda, Zarafshon daryosining chap havzasidagi tog'lar va tarixiy viloyatning nomi. Hozirgi kunda Zarafshonga quyiluvchi Kshtut va Fondaryo irmoqlari oralig'idagi hudud Falg'ar shaklida saqlanib qolgan. Panch xo'jalik hayotida Parg'arning alohida o'rni bo'lgan ko'rinadi. Parg'ar xo'jalik va ma'muriy jihatdan Panchga bo'ysunib, ko'pgina masalalarni u markaz Samarqand bilan emas, balki bevosita Panch hukmdorligi doirasida hal qilgan (CDGM, III:8).

[3] *Raman* – Ram ilohi nomidan shakllangan toponim (Grenet, Vassaire, 2002:174-175). Ustrushona va Parg'ar oralig'ida joylashgan aholi manzili deb taxmin qilinadigan mazkur toponim hujjatning ilk nashrlarida Ramush (Romush) shaklida o'qilgan bo'lib, bu borada bir qator munozarali talqinlar bildirilgan edi (SDGM, II:94-95).

@tarixchi_kutubxonasiga

siy vaziyat taqozosi bilan ataylab tushirib qoldirilgan. Bu o'rinda uchinchi taxminni ko'proq asosga ega deb hisoblash mumkin. Aftidan, Devashtich o'z kishilarini qo'shni yerlarga yuborar ekan, ularning maqsad va vazifalari hamda sharoit taqozosi bilan maktub va ma'lumotlardagi rasmiy an'anaviy uslub formulalaridan ataylab foydalanmasligi tabiiy edi. Maktub Devashtichga shaxsan yo'llanganligi haqida faqat taxmin qilish mumkin. Buni asoslash uchun hujjatning 8-qatorida muallif tomonidan adresatga murojaat qilib *rti maray* «va hokim (janoblari)» deb yozilganini ko'rsatish kifoya. Ko'proq sug'diycha *afshin* unvonini ifodalash uchun qo'llanilgan *maray* oromiycha ideogramma bo'lib, Mug' tog'i sug'diy matnlarida faqat adres formulalarida uchrar va Devashtichga nisbatan qo'llanar edi. Boshqa viloyat hokimlariga nisbatan doimo sug'diycha *xuvu* – «hokim», «hukmdor» so'zidan foydalanishgan. Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda Devashtichning o'ziga xat konteksti ichida murojaat qilish uchun *maray* so'zi qo'llangan. V.A. Livshisning fikricha, xat muallifi hozirgi O'ratepa, Mastcho, Xo'jand yerlarida ish ko'rgan. U bergan ma'lumotlar geografiyasi shundan dalolat beradi. Buttaman – Panjikentdan yuqoridagi tog'li o'lka; Parg'ar – Sug'd bilan chegaradosh shimoliy yerlar; Ustrushan – Mastcho, O'ratepa atrofidagi yerlar va hokazo.

## A-14 (SUG'D ELCHISI FATUFARNNING CHOCHDAN JO'NATGAN MAKTUBI)

(1) Janobi hukmdorga, buyuk tayanchimiz, Sug'd podshosi, Samarqand hukmdori

(2) Devashtichga uning eng e'tiborsiz («millioninchi» darajali)

(3) quli Fatufarndan murojaatnoma.

(4) Janobi hukmdor, (senga) buyuk shon-sharaf (egasiga) ko'pdan ko'p ta'zim yo'llayman («murojaat qilaman»)

(5) Va janob, men bu yerga, Choch hukmdori[1] huzuriga keldim. Janob,

(6) xatlarni ham topshirdim, og'zaki («til bilan») (aytilishi) lozim bo'lgan

[1] *Choch hukmdori* – tadqiqotchilar orasida ushbu hukmdorning kimligi masalasi ilmiy bahslarga sabab bo'lgan. V.A. Livshis, bu yerda ikkita shaxs haqida gap borishini olg'a surib, hujjatda «Choch hukmdori» va «Choch tuduni» tilga olinganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, elchi Fatufarn Chochning har ikkala boshqaruvchisi huzurida bo'lgan (SDGM, II:82-88). S.G. Klyashtorniy fikricha, xatning mazmuni bunday xulosa chiqarishga imkon bermaydi va aksincha, gap bitta shaxs haqida borayotganidan darak beradi, ya'ni; Choch hukmdorini Fatufarn dastlab maqomiga ko'ra – «Choch hukmdori», so'ngra esa unvoniga ko'ra – «tudun» deb nomlaydi. Tadqiqotchi o'z fikrining tasdig'i sifatida Tabariy ayni shu hukmdorni «Shosh podshohi» va «tudun» deb atashini misol qilib keltiradi (Кляшторный С.Г. Древнетюркские рунические памятники как источник по истории Средней Азии. – М., 1964. С. 160). Biroq yozma manbalar (Xitoy) va numizmatik materiallar har ikkala olimning ham fikrlari munozarali ekanini ko'rsatadi. Aynan ushbu hujjat yozilgan paytda voha-da 2 ta turkiy sulola yetakchilik qilib, *Choch teginlari* (605–750) – bosh, *Choch tudunlari* (640–750) – ikkinchi darajali sulola edi. Faqat hokimiyat *Tudunlar* qo'lida bo'lib, *Teginlar* esa ko'p yillardan beri qonunan Chochning boshqaruvchilari sifatida bosh sulola hisoblanar, hokimiyatga da'vogarlik esa nomiga edi (Boboyorov G'. Choch tarixidan lavhalar (Ilk o'rta asrlar). – T., 2008. B. 50).

@tarixchi_kutubxonasiga

(7) murojaatnomani ham to'liq, oqizmay-tomizmay («qoldiqsiz») bayon etdim.

(8) Tudunga[1] ham, uning yordamchisiga[2] ham. Va janob,

(9) Xoqonga[3] (mo'ljallangan) xatni ham, Farg'ona podshosiga[4] mo'ljallangan xatni

[1] *Tudun* – asosiy vazifasi tobe hukmdorliklardan soliq yig'ini tashkil etish va mahalliy hukmdorlarni nazorat qilish bo'lgan G'arbiy Turk xoqonligi vakili – noib. Hujjat mazmunidan ko'rinadiki, Tudun – Choch hukmdorlaridan biri sifatida voha siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynagan. Xitoy yilnomalarida 640-yildan to 750-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida 4 nafar Choch hukmdorining ismi *tutun* unvoni bilan tilga olinishi, Tabariy («*Tudun malik ash-Shosh*») va Beruniy Shoshning qadim hukmdorlari unvoni tariqasida ko'rsatishi vohada *Tudunlar* sulolasi mavjud bo'lganidan darak beradi (Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.- Л., 1950. Т. II. С. 313–314; История Ат-Табари. Избранные отрывки (Пер. с арабского В.И. Беляева. Доп. к пер. О.Г. Большакова и А.Б. Халидова). Т., 1987. С. 268; Абу Райхан Бируни. Памятники минувших поколений / Перевод с арабского и примечания М.А. Салье // Бируни. Избранные произведения. Т., 1957. Т. I. С. 111). VII–VIII asrlarga taalluqli tangalarda *tδwn c'cynk γwβ* – «Choch hukmdori Tudun» iborasining uchrashining o'ziyoq, bu fikrni tasdiqlaydi (Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI–VIII вв. н.э.). Т., 2007. С. 47, 55–60). Yilnomalardan ma'lum bo'lishicha, 713–740-yillarda Chochni *Moxedu tutun* (Bahodur tudun) boshqargan. Hujjatdagi mazkur shaxs Bahodur tudun bilan tenglashtiriladi (Livshis, 2008: 91).

[2] *Nazig'riv* – lug'aviy ma'nosi «„eng yaqin" kishi» «yordamchi» (hukmdor yordamchisi) bo'lgan ushbu atamani dastlabki nashrlarida V.A. Livshis aynan shu ma'noda bergan bo'lib (SDGM, II:79, 83), keyinchalik uni Azatg'riv shaklida shaxs ismi deb talqin qilgan (Livshis, 2008:87). Biroq ham ushbu atamaning paleografik shakli, ham hujjat mazmuni Livshisning dastlabki talqini to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

[3] *Xoqon* – Mug' hujjatlaridagi xoqonning aynan kim ekanligi masalasi bahsli. Ayrim tadqiqotchilar uni Sharqiy turk hukmdori Inal xoqon (716 y.) bilan (SDGM, II:84), ayrimlar esa arablarga qarshi mahalliy hukmdorlarga bosh bo'lgan Turgash xoqoni Sulu (717–738) bilan tenglashtiradilar (Grenet, Vaissiere, 2002:156). Ehtimol, u G'arbiy turk xoqonlari – Ashina Xyan yoki Ashina Sinlardan biri bo'lishi ham mumkin. Quyida ko'rib o'tiladiganidek, V-18 hujjatda arablarga qarshi Sug'dga o'z ittifoqchi qo'shinlarini yuborgan «xun (turk) va chin (xitoy)»lar haqida gap boradi. Bu paytda Sharqiy turk xoqonlari ham, Turgash xoqonlari ham Xitoydagi Tan sulolasi bilan asosan o'zaro dushman kayfiyatda bo'lib, G'arbiy Turk xoqonlarining aksariyati esa Xitoy tomonidan tayinlanuvchi yoki qo'llab-quvvatlanuvchi hukmdorlar edi.

[4] *Farg'ona podshosi* – bu davrda Farg'onaning bosh hukmdorlari sug'diycha *ixshid* unvoniga ega bo'lishgan. Xitoy yilnomalaridagi ma'lumotlar va numizmatik materiallar VII–VIII asrlarda Farg'onada bosh sulola sifatida Turk xoqonligining asoschi sulolasi – Ashina xonadonining bir tarmog'i hukm surganini ko'rsatadi. «Tan shu»ga ko'ra, Chjenguan davrida (627–649) G'arbiy turklardan *Gan Moxedu* (To'n Bahodur) tomonidan *Boxanna* (Farg'ona) hukmdori *Kibi* o'ldirilgani va hokimiyat *Ashena* (Ashina) *Shuni* ismli shaxs qo'liga o'tgan (Bichurin, II:319). Xitoy sayyohi Xoy Chao (726) Farg'onada 2 ta hokimiyat mavjudligi, biri Sirdaryoning shimolida *Tukyue* (turk)lar, janubida esa *Dashi* (arab)larning boshqaruvi borligini yozadi (Бернштам А.Н. Тюрки и Средняя Азия в описании Хой Чао (726) // ВДИ, 1. М., 1952. С. 193). Tabariy 712–723 yillar voqealari bayonida Farg'ona hukmdorining nomini ham keltirib o'tgan: Farg'ona podshosi At-Tor (SDGM, II:84). VII-VIII asrlarga taalluqli Farg'ona tangalarida «xoqon» unvoni bilan birga, Turk xoqonligi tamg'asiga o'xshash arxar shaklli tamg'a joy olganki, har holda bu vodiyda Ashina xonadonining bir tarmog'i hukm surgani bilan aloqadordir.

@tarixchi_kitubxonasiga

(10) ham Farg'ona tutug'i[1] qo'li bilan (orqali) Farg'ona
(11) podshosi tomon jo'natdim. Janob, men shu tufayli «Yuqori»ga[2]
(12) tomon (yana yo'l) yura olmadimki, xabarlarga ko'ra, Xoqon
(13) (hech) ko'rinmas emish. Janob, Tudundan va uning
(14) yordamchisidan xat va og'zaki javoblarni oldim va janob (yo'lga chi-
qib)
(15) Appartakanga[3] (yetib) kelganimda, janob, Chadrchik[4]
(16) haqida yaxshi xabarlar eshitmadim, hamda Ustrushan
(17) viloyati hammasi (dushmanga) topshirilgan. Janob, men yoppa yolg'iz,
(18) behamroh holda (yo'limda davom etib) yurishga jur'at qilolmayap-
man. Janob,
(19) ikkinchi bora Choch tomon qaytib keldim. Buning uchun (sen) hukmdorimdan
(20) juda yomon (qattiq) qo'rqyapman. Janob, Tudun
(21) tozik (arab)lar bilan bitimga binoan chekindi. Bitimga ko'ra
(22) Jamravaz va Bars (?) chabish (chovush)[5] quyi tomon ketdilar.

---

[1] *Farg'ona tutug'i* – Turk xoqonligi tomonidan Farg'onaga tayinlangan harbiy noib. Hujjat mazmunidan u xoqonning ishonchli vakili bo'lgani anglashiladi. VII–VIII asrlarga oid Farg'ona tangalarida *'ipp x'y'n tutuy* – «Alp xoqon tutug'i» iboralari uchraydi. *Tutuq* – qadimgi turkcha unvon, lavozim nomi sifatida «lashkarboshi, bo'ysundirilgan biror o'lkaning harbiy voliysi» ma'nosini bildirgan. Xitoycha *du-du* «harbiy voliy» so'zidan o'zlashgan deb hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar uni qadimgi turkcha «tutmoq» (tutib turmoq, ushlab turmoq) fe'lidan shakllangan deb talqin qiladilar.

[2] «Yuqori» – G'arbiy Turk xoqonligining markaziy hududi – Yettisuv bo'lsa kerak (Batafsilroq ma'lumot uchun V-18 raqamli hujjatdagi «Yuqori» iborasiga qarang). Sug'diy elchi Chochga tashrif buyurganda xoqon «Yuqori»ga – Yettisuvga ketgan bo'lishi mumkin.

[3] *Appartakan* – hujjat noshirlari dastlab mazkur atamani joy nomi hisoblagan bo'lsalarda, aynan qaysi hududda joylashganligi masalasini ochiq qoldirishgan. E.V. Rtveladze uni Ohangaron vodiysidagi hozirgi Apartak qishlog'i bilan tenglashtirgan bo'lib, tadqiqotchilarning aksariyati bu fikrga qo'shilishgan va uni hozirgi Angren (o'rta asrlardagi Ohangaron) shahrining qadimgi nomi bo'lsa kerak deb taxmin qilishgan (Grenet, Vaissiere, 2002:169; Livshis, 2008:94).

[4] *Chadrchik* – ushbu atamani tadqiqotchilar «Quyi viloyatlar» shaklida o'girib, Choch vohasidagi joy nazarda tutilgan deb talqin qilishadi. V.A. Livshis uni so'roq ishorati ostida «Chirchiq (daryosi viloyati) bo'lishi ham mumkin» deb yozadi (Livshis, 2006:87).

[5] *Chabish* – o'rta asrlarda turkiy sulolalar boshqaruvidagi harbiy unvon – «chovush»ga to'g'ri keladi. Mazkur hujjatda Chochdagi siyosiy voqealarga aloqador ravishda uchraydigan p'rsyk cp'yš iborasini tadqiqotchilar arablarga qarshi kurashda ittifoqchi kuchlarga yordam berish uchun kelgan «fors lashkarboshisi» sifatida talqin qilishadi (SDGM, II:78). Biroq u Choch hukmdorligiga aloqador harbiy amaldor bo'lishi ham mumkin. Darvoqe, Xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, Shi (Choch) hukmdorining o'g'li Na Gyuy Chabishi arablardan yordam so'raydi va 751-yili Talas atrofida musulmonlar va Tan imperiyasi qo'shinlari orasidagi jangda xitoyliklar katta zarbaga uchraydilar. I. Bekvitning fikricha, yilnomalarda Chabishi shaklida uchraydigan mazkur Choch hukmdorining ismi

@tarixchi_kutubxonasiga

(23) xabarlar (borki), tovon undirib olish va
(24) kuchlarni arablardan nariga olib ketish (ularning maqsadidir). Janob, xabarlarga binoan xun (turk)lar[1] hech
(25) ko'rinmaydi, chunki ular yuqoriga qarab ketishdi va haligacha hech kim
(26) qaytib kelgani yo'q. Janob, Tudun Tarband[2] bilan
(27) bitim tuzgan edi. U yerdagi hamma joylarni oldi. Janob,
(28) Chadrchikda (tuzilgan) sulh munosabati bilan, eshitishimcha («Sulh xabari tufayli»), yordamchi juda g'amgin,
(29) anduhnok bo'lmoqda va yana yoningga borolmagani uchun sendan («hukmdordan») qo'rqmoqda.

---

Chabish shaklida tiklanadi va u aslida ism bo'lmay, turkiy chabish unvoniga aloqadordir. U Chochning ikkinchi darajali hukmdori Inal (Inay) Tudun Kulugning o'g'li bo'lib, Xitoyga qarshi Turgash xoqonlarining ittifoqchisi edi (Beckwith I. C. The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans, Turks, Arabs, and Chinese during the Early Middle Ages. New Jersey, 1993. P. 137-138). Turk xoqonligi boshqaruviga aloqador o'laroq qadimgi turk bitiktoshlari va Xitoy yilnomalarida «chabish» harbiy unvon sifatida ko'p uchraydi. Xoqonlik davrida «qo'shinda vazifador shaxs, lashkar boshliqlaridan biri» sifatida bo'lgan ushbu unvon egasini Mahmud Koshg'ariy (XI asr) «chabish – jangda saflarni tuzatuvchi, dam olish vaqtida askarni zulm qilishdan saqlovchi odam» shaklida ta'riflaydi (Divanü Lügat-it Türk Tercümesi. Cilt I-IV. Çev. B. Atalay. Ankara, 1985. S. 349).

[1] *xwn* – matndagi to'la shakli *xwn'nk*. Turk xoqonligi va uning asosiy aholisini tashkil qiluvchi etnos – qadimgi turklar Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida doimo ushbu etnonim ostida qayd etiladi. Sug'diy yodgorliklarda mazkur etnonim ilk bor Dunxuan (Shimoli-G'arbiy Xitoy)dan topilgan milodiy III–IV asrlarga oid «Eski xatlarda» Xun (Syun-nu) imperiyasi va unga asos solgan etnos vakillariga nisbatan ishlatilgan (Livshis, 2008 (2):173). Mug' hujjatlarining bir nechasida ko'plik qo'shimchasi bilan *xwnt*, tegishlilik, xoslik bildirish ma'nosidagi qo'shimchalar bilan *xwn'nk* shaklida joy olgan etnonimni hujjatlarning ilk noshirlari *γw''nk* shaklida berganlar. Jumladan, *xwn* shaklini ayrim hollarda (*mas.* V-17 da) «Sharqiy turklar» (Sharqiy Turk xoqonligi) ma'nosida bergan bo'lsalar (SDGM, II:117, 120), ayrim hollarda esa Samarqand hukmdori G'urak (710–738) uchun Devashtich tomonidan *γw''nk* – «gunohkor» shaklida tahqirlash ma'nosida (A-14 da) qo'llanilgan epitet (laqab) deb talqin qilganlar (SDGM, II:79, 89, 121). Shuningdek, xun (turk)lar ma'nosidagi *xwnt* shakli *γw't* tarzida o'qilib, «zaif» ma'nosida o'girilgan (SDGM, II:123, 201; Livshis, 2008:129). Shu tufayli Mug' hujjatlarining qadimgi turklar tarixi uchun, hususan, Turk xoqonligi tarixi uchun ahamiyati yetarlicha e'tirof etilmasdan kelindi. So'nggi o'n yilliklarda yevropalik va boshqa sug'dshunoslar hujjatlarning inglizcha nashrlarida mazkur atamalarni «Turks» (turklar) shaklida o'girib, ularni xoqonlik bilan aloqali hisoblashgach (Grenet, 1989:165-184; Gharib, 1995:174, 436; Grenet, Vaissiere, 2002:157, 160, 168), yaqinda nashr etilgan ruscha tarjimalarida ham bu holat o'z aksini topa boshladi.

[2] *t'rβnt* (Tarband) – ilk o'rta asrlarda Forob, keyinroq esa O'tror shaklida qayd etilgan Sirdaryoning o'rta havzasi (Janubiy Qozog'istondagi Turkiston shahri atroflari)dagi tarixiy viloyat. Arab manbalarida (Balazuriy, Tabariy) Tarband Shosh hukmdorining qarorgohi sifatida qayd etilgan. Qadimgi turk bitiktoshlarida Kangu-Tarban Chu va Talas daryolaridan g'arbdagi o'lka sifatida tilga olinib, tadqiqotchilar fikricha, u Tarbandga to'g'ri keladi (Livshis, 2008:90).

@tarixchi_kutubxonasiga

(30) Janob, so'ngra sen tomondan («hukmdordan») xabarlar kelmay qoldi.

(31) Janob, mana bu xatlarni men Marvon (ismli kishi) qo'li orqali Kand[1] tomondagi (aylana) yo'l bilan jo'natdim.

(32) Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz Sug'd podshosi, Samarqand hukmdori

(33) Devashtichga uning eng e'tiborsiz («millioninchi» darajali) quli Fatufarndan maktub.

**Izoh:**

Yupqa ochiq kulrang qog'ozga yozilgan maktub. «Sug'd podshosi, Samarqand hukmdori» Devashtichga yo'llangan. Maktub muallifi Devashtichning Chochga (Toshkent), undan turk xoqoni hamda Farg'ona podshosi huzuriga maxsus diplomatik vazifa bilan, xususan, arab istilochilariga qarshi birlashib kurashishni tashkil qilish maqsadida yuborgan elchisi Fatufarndir.

Maktub Fatufarn tomonidan shunday bir vaziyatda yozilganki, bu holat aftidan, kutilmagan edi. Gap shundaki, elchi Chochga kelgach, «tudun» deb nomlangan Choch boshqaruvchisiga va uning yordamchisiga tegishli maktub va og'zaki aytilishi lozim bo'lgan gaplarni yetkazadi. Ulardan javob maktubini oladi. Lekin bu paytda «Yuqori» (Yettisuv)ga ketgan xoqon bilan uchrashishning ilojini topmaydi. Vaziyat taqozosi bilan u xoqonga va Farg'ona podshosiga tegishli maktublarni Farg'ona tutug'i (shu kunlarda Chochda ekan) orqali jo'natadi. Shoshilinch Sug'dga qaytgan Fatufarn Ustrushan viloyati arablar qo'liga o'tib, yo'li qirqilib qolganini bilib qoladi. Yolg'iz holda yo'lda davom etishga jur'at qilolmay Chochga qaytib keladi va shu yerdan turib Devashtichga ushbu maktubni yozib, Marvon ismli kishidan aylanma yo'l – Konibodom orqali Sug'dga jo'natadi. Maktubning yozilish tarixi, sanasi haqida turlicha fikrlar bayon etilgan. Jumladan, V.A. Livshis turli tarixiy faktlarga suyanib, uni 712–714-yillarda yozilgan deb taxmin qilgan edi. Haqiqatan ham bu yillarda arab istilosi Jizzax, Zomin, O'ratepa, Xo'jand viloyatlariga, Choch–Toshkent vohasiga yoyilib ulgurgan, asosiy yo'nalishi Farg'ona vodiysiga qaratilgan edi. Shu munosabat bilan V.A. Livshis elchi Fatufarnning qaytishiga monelik qilgan vaziyatni arablar tomonidan Ustrushanning egallanishi orqali izohlagan edi[2].

O.I. Smirnova Devashtichning «podsho» deb ko'rsatilganiga suyanib hamda bu faktni 1.1 raqamli hujjatdagi «podsho Devashtich» unvoni bilan solishtirib ushbu elchilik missiyasini 720–721-yillar bilan bog'lagan edi.

[1] *knδ* (Kand) – tadqiqotchilar ushbu joyni o'rta asr arab geograflari Kand-i Bodom shaklida qayd etgan Tojikistondagi hozirgi Konibodom tumani bilan tenglashtiradilar (Livshis, 2008:97).

[2] SDGM, II:84.

@tarixchilarkutubxonasiga

Lekin V.A. Livshis sug'dning VII asr oxiri – VIII asr boshlaridagi Panch hokimlari masalasi munosabati bilan Devashtich podsho unvoni bilan ish ko'rgan ikki yilni 717/718–19-yillar, zero A-14 hujjatining yozilgan sanasi ham shu ikki yildan biriga to'g'ri keladi deb ko'rsatadi[1]. Fransuz sug'dshunoslari F. Grene va E. de la Vessierlarning keyingi yillarda olib borgan tadqiqotlari natijasida ushbu maktubning yozilish sanasi 722-yil iyulning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelishi aniqlandi[2].

Maktub matni tarkib jihatidan ikkiga bo'linadi: birinchi galda Fatufarn shaxsan podshoga yetkazishi lozim bo'lgan xabar mazmunidan iborat arznoma qismi ajralib turadi. Ikkinchi qismda esa Fatufarn o'zi kuzatgan harbiy-siyosiy vaziyat tafsilotini bayon etadi.

Maktubda mas'ul shaxslarning qayd etilgani arab istilosi kunlaridagi Chochning siyosiy mavqeyi, uning Turk xoqonligi, Farg'ona vodiysi va boshqa yerlar bilan munosabati, voha hukmdorliklari boshqaruvining xususiyatlari kabilarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, xoqon, Choch hukmdori, tudun, uning yordamchisi (yoki «yordamchi» deb rasman atalgan lavozim egasi), Farg'ona hukmdori, Farg'ona tutug'i, chabish (chovush) yoki fors lashkarboshisi (?), Marvon ismli shaxs va boshqalar bu hujjatda aks etgan hodisalarning tirik qatnashchilari bo'lib, murakkab tarixiy voqealarda u yoki bu darajada rol o'ynaganlar.

Maktubning kirish formulasida yozma nutq, epistolyar uslubiga xos kamtarlik, xokisorlik ifodalashning ilgari uchramagan shakli qo'llangan: «uning millioninchi (darajali) quli Fatufarndan». Bu formuladagi «100 ripumik» birikmasida S – «100» raqamining grafik shakli, RIPU esa oromiycha «o'n ming» so'zining geterografik tarzda sug'diychada qo'llanishidir. Bu so'z «brevar» deb o'qilgan. *-mik* sug'diychada tartib son shaklini yasovchi qo'shimcha. Ushbu son birikmasini «millioninchi» deb tarjima qilishga «yuz marta o'n ming» ma'nosi, ya'ni 100x10000 ni «million» deb tushunish asos qilib olingan.

Maktub matnida yuqorida qayd etilgan shaxslar, lavozimlar ro'yxati qatoriga kiruvchi *xuv, tudun* terminlari diqqatni jalb etadi. *rti vag' azu madi ku chachinak xuv isu* «Va janob, men bu yerga, Choch hukmdori huzuriga keldim».

5–8-qatorlarda esa Fatufarn bunday yozadi: *rti vag' uvyu pustit ptividu uvyu chu par ezvok patshkvana mat rti esptaku apu preku patishkvyu uvyu tudun sar* – «Va janob, men xatlarni topshirdim hamda og'zaki («til bilan aytiladigan») murojaatnomani (ham) to'liq, hech qoldiqsiz tudunga bayon etdim...»

Fatufarn Chochga kelgan vaqtda – 720-yillarda viloyat G'arbiy Turk xoqonligi tasarrufidagi o'lka bo'lib, xoqon tomonidan (ushbu maktubda

[1] *Лившиц В.А.* Правители Панча // Народы Азии и Африки. 1979. № 4. С. 62-63.
[2] Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent ... R. 169-171, 179.

@tarixchi_kitobxonaga

«qag'an») tayinlanuvchi tudun boshqargani ma'lum. Lekin u holda Choch hokimi kim bo'lgan? Manbalarda VIII asr boshlaridagi voqealar munosabati bilan «Choch hukmdori» deb tilga olinadigan shaxs G'arbiy Turk xoqonligi noibi nazoratida ish ko'rgan, to'liq ma'noda siyosiy huquqqa ega bo'lmagan arbob bo'lsa kerak. Fatufarn ham dastlab rasmiyat yuzasidan unga uchrashib, asosiy diplomatik munosabatlarni tudun bilan amalga oshirgani bejiz emas.

«Chabish» deb nomlangan lavozim harbiy lashkarboshilik bilan bog'liq. Maktubning 22-satrida «*jamarvaz ti xo parsik chabish*» birikmasi o'qilganki, bu «Jamravaz va Bars chabish (yoki fors lashkarboshisi)» demakdir. Bu shaxslar kimligi haqida aniq fikr yo'q. Lekin hujjat nashridagi izohlarda V.A. Livshis «lashkarboshi fors» iborasi haqida mulohaza bildirgan. Gap shundaki, Sosoniylar sulolasining oxirgi vakili Yazdijird III ning avlodlari uzoq vaqt davomida, hatto 730-740-yillargacha ham arablarga qarshi kurashgan mahalliy qo'shinlar orasida ishtirok etgan. Yazdijirdning o'g'li Feruz esa (678-yili vafot etgan) arablarga qarshi Eron hamda O'rta Osiyo voha hukmdorliklari va Turk xoqonligining kuchlarini birlashtirishga uringan. Xulosa qilib aytganda, A-14 hujjatda «fors lashkarboshisi pastki Chadrchik yerlariga jo'nadi, gap-so'zlarga qaraganda arablardan tovon undirib, qo'shinni uzoqroqqa olib ketmoqchi», degan xabarning Devashtichga yetkazilishi arablarga qarshi kurashgan kuchlarning tarkibi haqida kengroq tasavvur beradi. Boshqa jihatdan bu dalil asosida aniq tarixiy voqealar, ayniqsa, 720-yillarning dastlabki yillari haqida ba'zi aniqliklar vujudga keladi. Jumladan, mazkur-yillarda arab istilochilari O'rta Osiyoni bosib olib, u orqali Sharqiy Turkistonga chiqish harakatini qilishgan. Shu maqsadda xalifalikning Xuroson noibi Al-Jarroh bin Abdulloh qo'shin jo'natgan. Lekin bu urinish davomida arab qo'shinini turklar o'rab olgan. Arablar tovon to'lab qutulgan va lashkarboshi Abdulloh bin Ma'mar al-Yashkuriy boshchiligida Chochga qaytib ketgan. Bu voqealar bayoni Balazuriyning «Kitob futuh al-buldon» («Shaharlar fathi kitobi»)da keltirilgan[1]. Shu tarixiy ma'lumotlarga suyanib, A-14 matnidagi «tudun tojik (arab)lar bilan bitimga asosan chekindi. Bitim sharti bo'yicha Jamravaz va fors lashkarboshisi pastga (quyi yoki janub) – Chadrchikka tushib ketishdi, ovozalarga qaraganda arablardan tovon undirishmoqchi va qo'shinni ulardan nariga olib ketishmoqchi» degan parcha o'z ma'nosini topadi va 722-yil voqealari sifatida aniqlik kasb etadi.

A-14 hujjat tojik etnonimining paydo bo'lishi to'g'risida qiziq ma'lumot beradi. Hujjat matnining 21-satrida «*tazikti perav par baroz pig'anshtak*» (tojiklar bilan sulh (bitim) asosida chekindi) degan jumla ishlatilgan.

[1] Лившиц В.А. Правители Панча .... С. 63, к. 35-36.

@tarixchi_kutubxonasiga

Tojik etnonimiga asos bo'lgan «tazik» so'zi sug'diy yodgorliklarda ilgari uchramagan edi. Lekin bu so'z fors manbalarida «qul» ma'nosini anglatgani ma'lum. Bu masalaga o'z vaqtida rus olimi V.V. Bartold, ingliz olimi V.B. Xenninglar e'tibor berishgan edi. Arab ma'nosida qo'llangan tozi(k) etnonimi islom dini tarqala boshlashi munosabati bilan shu dinni qabul qilgan boshqa xalqlarga, xususan eroniy til oilasiga kiruvchi aholiga nisbatan qo'llana boshlagan. Ma'lumki, arab istilosining dastlabki bosqichidanoq Eron va unga qo'shni yerlar bosib olinib, islom dini joriy qilina boshlagan. Shu voqealar asnosida islomni qabul qilgan aholi qatlami «arab bo'ldi» degan ma'noda «tojik» deb atala boshlagan. Natijada bu nom islom dini ommaviy shaklga kirgan bosqichda eron tillarida so'zlashuvchi O'rta Osiyo xalqlaridan birining – hozirgi tojik xalqining etnonimiga aylangan[1].

Hujjatda qayd etilgan «chadrchik baroz» birikmasi yuqorida tilga olingan «sulh bitimi» voqeasi bilan bog'liq. *Baroz* so'zi sug'diycha *baroz, barosht* – tinchlantirmoq, sulh tuzmoq ma'nolarini bildiradi. Lekin «chadrchik» so'zining ma'nosi konkret shu voqealar bilan bog'liq holda oydinlashmay qolmoqda. So'z o'zagi «chadir» deb o'qiladi. Bu holda uning sug'd tilidagi ma'nosi «quyi, pastki» demakdir. Shunga asosan V.A. Livshis *chadrchik baroz* birikmasini «нижнее перемирие» deb tarjima qilgan va chadrchik so'zida geografik termin yoki umuman tomon ma'nosini ko'rishga moyillik bildirgan. Shu bilan birga hujjatning 15-satridagi «chadrchik jav» birikmasi bilan («quyidan (kelgan) xabar») bu so'zni «Chochdan janubda joylashgan yerlar, balki Chirchiq»dir?» tarzida talqin qilishga uringan. Umuman, Chadrchik yerlari xat muallifi tomonidan u ishlatgan geografik tushuncha va terminlardan farqli ravishda ta'kidlanishi bejiz emas. Har holda bu termin muayyan geografik ma'noda, balki geografik mintaqa tushunchasi sifatida amal qilgan bo'lishi kerak. Bir o'rinda Fatufarn «Chadrchik sulhi tufayli yordamchi (bu so'z haqida quyiroqda alohida to'xtaymiz) juda anduhnokdir» deb yozadi. Elchi Fatufarn Sug'dga qaytishga imkon topmaganligini quyidagi parcha yanada oydinlashtiradi va geografik tushunchalarga aniqlik kiritadi: «So'ngra, janob, men Appartkanga kelgan vaqtimda, janob, pastki – Chadrchik (yerlaridan hech qanday yaxshi ovozalar eshitmadim, buning ustiga Ustrushan yerlari (viloyati) hammasi (dushmanga) topshirilgan». Ushbu parchada xat muallifi Chadrchik hamda Ustrushan yerlarini aniq farqlab ko'rsatayapti. Demak, yuqorida qayd etilgan Chadrchik sulhi tarixiy Chadrchik geografik tumani, ehtimol, Chirchiq bilan bog'liq hodisa bo'lishi mumkin. Fatufarn Sirdaryodan u tomondagi yerlar, jumladan, Ustrushan arablar qo'liga o'tgani tufayli bu hududlar orqali Sug'dga o'tib kelolmadi. Shu bilan bir qatorda

[1] SDGM, II:87-88; Qarang: Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Книга II. – Душанбе: Ирфон, 1989. – С. 92.

@tarixchi_kutubxonasiga

«Chadrchik yerlaridan ham biror yaxshi xabar eshitmadi». Bu faktni hisobga olsak, taxminimiz asosli ekani ko'rinadi. Gap shundaki, agar Ustrushan yo'li qirqilib qolgan bo'lsa, Fatufarn Chadrchik yerlari orqali Zomin, Jizzax ustidan aylanma yo'l bo'ylab Sug'dga qaytishni mo'ljallagan bo'lishi mumkin. Lekin u yo'l ham arablar nazoratiga o'tgani tufayli elchi noiloj Chochga qaytishga majbur bo'lgan.

Choch hokimligining noibi tudun Chadrchik bitimi asosida qo'shinlarni arablardan uzoqlashtirgani haqidagi xabar biz uchun muhim bir xulosa yasashga imkon beradi. Bu hol Choch viloyatining ilk o'rta asrlarda Zomin, Jizzax yerlari ustidan ham siyosiy hukmronligi bo'lganligidan dalolat bersa kerak. Arablar shu tufayli bu o'lkada Choch hamda turk qo'shinlari qurshovida qolishgan va vaqtincha sulh tuzib, tovon to'lab qutulishgan. Shundan so'ng tudun qo'shinlari, uning turli qismlari Chochga qaytgan bo'lishi kerak. Ayni shu kunlarda sug'd elchisi Toshkentda – Chochda tudun va uning yordamchisi bilan uchrashishga muyassar bo'lgan.

## V-4 (TEGIRMON IJARASI HAQIDAGI HUJJAT)

**Matn:**

(1) Bu yil Sug'd podshosi,
(2) Samarqand hukmdori Devashtich (podsholigining) birinchi yili
(3) dir. Jimtich oyi, Apvax kuni.
(4) Moxyon
(5) Dopotshir o'g'li podsho Devashtich
(6) Yodaxshetak o'g'lidan Tutiskat (degan joy)dagi
(7) 3 ta tegirmonni barcha ariqlari,
(8) qurilmalari va (tegirmon) toshlari bilan birga shunday shartga binoan oldi:
(9) Moxyon bu tegirmonlarni
(10) Bir yil davomida ijaraga tutsin
(11) va Moxyon bir yil (davomida)
(12) podsho Devashtichga bu
(13) uch tegirmondan ijara haqi yuzasidan -
(14) 1 yillik (to'lov sifatida) 460 kafch un bersin.
(15) (To'g'riligi) tekshirilgan (?) kafchlar (bilan o'lchab) bersin: Uni (ya'ni unni) har oyda
(16) kelishuv asosida bo'lib-bo'lib to'lab tursin.
(17) Agar Moxyon bu shartga
(18) rioya qilmasa, bu

@tarixchi_kutubxonasiga

(19) unni to'liq bermasa, bu holda
(20) xiyonat va adolatsizlik («qonunsizlik») Moxyon tomonidan sodir
(21) bo'lgan (hisoblansin). Va shuningdek,
(22) podsho Devashtich, agar (o'zining), (ya'ni)
(23) hukmdorning amaldoriga qonunga muvofiq tarzda topshirsa,
(1) u (amaldor) uning (podshoning) (foydasiga) tegishli unning hammasini undirib olsin.
(2) Bu holda hamma (shartlashilgan miqdordagi) un uchun Moxyon o'z o'g'illari bilan birga,
(3) urug'-ujuti bilan hamda xonadonga kelib turg'un yashayotgan mehmonlari bilan birga javobgar bo'lsin va to'lasin. Bu yerda (u yerda) quyidagi guvohlar bor edi:
(4) Apvaxyon Arutafarch o'g'li, Ikkadak Nanich o'g'li, Irkay
(5) Xvatench o'g'li.
(6) Hujjat (po'stak) loy muhr bilan muhrlandi.
(7) Va (uni) yozdi: Siyamich
(8) Tishich o'g'li, Moxyonning buyrug'iga binoan.

**Izoh:**

Hujjat trapetsiya shaklidagi 12,5-11,5×22 sm hajmli charmga bitilgan. Yozuv uchun ishlatilgan rang hali qurimasdan naycha qilib o'ralgan. Natijada qatorlar orasida orqa sahifaning izlari chaplashib tushgan. Orqa sahifaning quyi chetiga 23×17 mm diametrga ega bo'lgan loy muhr bog'langan va tasma bilan charm o'ramining beliga o'ralgan.

V-4 mazmun e'tibori bilan suv tegirmonlarini ijaraga berish va uning shartlarini belgilovchi huquq masalalarini aks ettirgan shartnomadir. Qizig'i shundaki, bu hujjat asosida ijara bitimiga kelishayotgan tomonlardan biri 708–722-yillarda Panch (Panjikent) viloyatining hokimi, orada bir necha yil Sug'd podsholigi nomidan ham ish ko'rgan shaxs – podsho Devashtich Yodaxshetak o'g'lidir.

Bitimda ikkinchi tomon – Moxyon Dopotshir o'g'li. U Devashtichga qarashli 3 ta suv tegirmonini bir yil muddatga ijaraga olayotgani haqida gap boradi. Devashtich podsho bo'lishiga qaramay, bu o'rinda zamonasining yirik mulkdor feodal vakili sifatida ish ko'rgan.

Hujjatda ta'kidlanishicha, tegirmonlar ularga suv keltiruvchi ariq va novlar bilan birga ijaraga berilgan obyektlar qatorida sanab o'tilgan.

Har uch tegirmonning haqi sifatida Moxyon bir yilda 460 kafch un to'lashi lozim bo'lgan. Kafch (yoki kapch) o'lchov birligi don uchun 8 kg deb hisoblanganda bir yilda 3680 kg ni tashkil etadi, deb qabul qilingan. Ijara haqi oy sari to'lab borilgan. Bu masala ham hujjatda bayon etilgan talablar qatorida ta'kidlangan.

@tarixchi kutubxonasiga

Ijara shartlari bajarilmay qolishi mumkinligini nazarda tutib, V-4 hujjatiga maxsus yuridik formula ham kiritilgan. «Agar Moxyon bu shartlarni bajarmasa, bu unni to'liq bermasa, u holda qalloblik, qonunbuzarlik uchun gunoh) Moxyon ustiga (bo'lsin) Devashtich esa (podsho) o'zining amaldoriga buyursin va qonunga binoan o'sha unni podsho uchun to'kis undirib olsin».

Hujjatning yana bir o'ziga xosligi shuki, unda javobgar shaxsdan tashqari uning bolalari va urug'-aymog'i ham shu masala yuzasidan javobgar deb ko'rsatiladi. Bu hol, aftidan, muhim ehtiyot chorasi hisoblanib, kelishuvchi tomonlardan birortasining o'limi ham bitim shartlarini buzolmasligini ta'minlagan.

Hujjat charmning birinchi sahifasida 23 satr, orqa sahifasida esa 9 satr matndan iborat. Uning o'ng betidagi 1- va 3-satrlar sana, hujjat yozilgan vaqt haqida ma'lumot beradi. «Bu yil, qachonki Sug'd podshosi, Samarqand hukmdori Devashtich hukmronligiga bir yildir, jimtich oyi, apvax kuni». Hujjat sanasi bayonida bir necha geterografik oromiycha so'zlardan an'anaviy tarzda foydalanilgan. Bular **ALKSHNT** – ikki qismdan iborat. **ALK** – sug'diy yodgorliklarda birinchi bor uchragan. Oromiycha ko'rsatish olmoshining ko'plik shaklidir (V.A. Livshis). **ShNT** esa sug'diycha *sard* «yil» so'zining oromiycha yozilishidir.

**AYKZI** ideogrammasi ham ikki qismdan iborat. *Ayk* qismi sug'diycha «qachon» demakdir. *Zi* esa «va» bog'lovchisiga o'xshash funksiya bajargan[1]. **MLKA** ideogrammasi sug'diycha *ixshid* – «podsho» demakdir. Bu so'zning oromiycha shakli sug'diycha matnlarga qadimgi Axomaniylar podsholigi davri idora boshqaruv hujjatchilik an'analari orqali kirib kelgan va sug'diychada ham geterografik qo'llanishda uzoq saqlangan.

**MARAY** ideogrammasi ham shu taxlitda sug'diy matnlarda ishlatib kelingan va «podsho janob, hokim ma'nolariga ega. Sug'diycha *xuv, xutav* deb talaffuz etilgan.

*Sg'udik, smarkandich* so'zlaridagi *-ik, -ch* qo'shimchalari tegishlilik ma'nolarini yasab, o'zbekcha qaratqich kelishigiga yaqin turgan. Jimtich sug'dlar o'rtasida rasmiy amal qilgan hamda zardushtiy an'anasini davom ettirgan qadimiy kalendarning 11-oyi nomidir. Apvax – har bir oyning 10-kuni shu nom bilan atalgan. Sug'd kalendarining oylari 30 kundan iborat bo'lib, oyning har bir kuni o'z nomiga ega bo'lgan. 12 oyda to'planadigan 360 kunga qo'shimcha 5 kun bayram va yilboshi kunlari sifatida kiritilib, yilning 365 kuni hisobini butunlashga erishilgan. Qayd etilgan apvaxruch – «apvax kuni» sug'diy taqvimning jimtich oyi bo'yicha yilning 310-kuniga to'g'ri kelgan.

Hujjatning orqa sahifasi 6-7-satrlarida «Va po'stak (hujjat) haqiqiy loy muhr bilan muhrlandi» degan jumlaga duch kelamiz. Sug'diycha

[1] Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. – Москва, 1981. С.357.

@tarixchi_kutubxonasiga

*tabti* so'zi «muhrlangan» demakdir. *Tab* o'zagi esa «o'rab bog'lamoq, toblamoq (pishiqlamoq)», ko'chma ma'noda «muhr urmoq» degan ma'noda qo'llanadi. Xuddi shu kabi ma'nolarda bu so'zni A-16 hamda A-13 hujjatlarida ham uchratish mumkin.

*Po'stak* so'zi sug'd tilida (charmdan yozuv materiali sifatida foydalanilgan vaqtda) «kitob, xat-hujjat» ma'nolarida ishlatilgan. Bu so'z asli po'st so'zi bilan aloqador bo'lib, hozir o'zbek tilida o'tirganda ostga solinadigan, oshlab quritilgan teri ma'nosida saqlanib qolgan.

Hujjat 722-yilning 4-aprelida yozilgan deb hisoblanadi[1].

## V-9 (RUST[2] HOKIMI AFSHUNNING[3] XATI)

### Matn:

(1) Janob hukmdorga, sevimli va yod (zikr) etiladigan Zakatchga.
(2) Uning o'z xizmatkori Rust hokimi
(3) Afshundan murojaat (noma) va ko'p ta'zimlar (bo'lsin)!
(4) Janob, yuqoridan kelgan xabar(lar) (to'g'risida)
(5) men ma'lum qildim. Va
(6) mana sen tomonga kishilar yubordim,
(7) ulardan xabar olsinlar. Va sen
(8) qayg'urib qo'yginki, ularni tezroq [...]
(9) qilib mening huzurimga jo'natishni buyur. Va yana
(10) jo'natish qiyin bo'layotgan eshak
(11) haqida, sen (bu borada) puxta tergov o'tkaz. Va
(12) shunday qilginki: o'sha odamlarni tez bu yerga
(13) yubor, xizmatkorlarni ham.
(14) Janob hukmdorga, sevimli va yod (zikr) etiladigan Zakatchga, uning
(15) xizmatkori, Rust hokimi Afshundan.

### Izoh:

Hujjat 10,5-12×15 sm hajmli charm parchasiga sug'd xatining husnixat namunalariga yaqin chiroyli uslubda yozilgan. Charmning quyi qismi yuqorisidan kengroq bichimda kesilgan. Bu xildagi charm, odatda, naycha

[1] Grenet, Vaissiere, 2002:179.

[2] *Rust* – Panch hukmdorligining mahalliy tobe hokimliklaridan biri bo'lgan.

[3] *Afshun* – ushbu ism hujjatning dastlabki nashrlarida Afarun shaklida berilgan va shu tariqa adabiyotlarda qabul qilingan edi (SDGM, II:122-126). 1989-yilda ingliz sug'dshunosi N. Sims-Villyams uni Afshun shaklida to'g'rilab o'qigan bo'lib, uning bu taklifi V.A. Livshis tomonidan ham qabul qilingan (Livshis, 2008:132). Zotan, Mug' tog'i hujjatlarining bir nechasida uchraydigan mazkur ismning paleografik shakli uni Afshun deb o'qishga imkon beradi.

@tarixchi_kutubxonasiga

qilingan va chetiga biriktirilgan charm bog'ich bilan bog'langan. V-9 hujjatning o'ng betida 25 qatordan iborat matn joylashgan. Orqa betidagi 8 qatorli matn esa mazmunan o'ng yuzadagi matn bilan aloqador emas. Yozuv materiali tanqisligi tufayli V-9 uchun ishlatilgan charmning orqa beti shu tarzda boshqa mazmundagi, xususan, qimmatbaho tosh – yoqut sotish haqidagi hujjat uchun ishlatilgan bo'lsa kerak.

Hujjatning 3-qatori oxiridagi *namachiyu* so'zi fors-tojik va turkiy tillarida, shu jumladan, o'zbek tilida *namoz* shaklida saqlanib kelmoqda. Dastlab, umuman «ta'zim» ma'nosini bildirgan bu so'z zardushtiylik zamonasidayoq «sig'inish, topinish, sajda» ma'nolarida qo'llana boshlagan. Islom dini sharoitida *namoz* so'zining asosan «sajda» ma'nosi saqlanib kelmoqda.

V-9 V matnida sotib olingan yoqutlarning narxi haqida qiziqarli ma'lumot saqlangan. Hujjatning 7-8-satrida «Jami: bir (dona) yoqut 80 draxmadan 480 draxma (pul) bo'ldi» deb qayd etilgan. V.A. Livshis hujjatning nashrida shu oxirgi jumlaning jamlash formulasi ekanligiga e'tibor bermagan. Sug'dcha *vispah* so'zining tarjimadagi o'rnini aniq belgilamagan holda 8-satrdagi *buvat* «bo'ladi» o'rniga qavs ichida (*vsego*) so'zini kiritib, ruschaga «каждый яхонт – за 80 драхм (всего) 480 драхм» tarzida o'girgan.

Bir dona yoqut 80 draxm bo'lgani holda bu narxning qiyosiy qiymatini tasavvur qilish uchun Mug' tog'i hujjatlaridan yana biriga murojaat qilish mumkin. A-5 hujjatida pul xarji ro'yxati aks etgan bo'lib, unda ko'pgina buyumlar narxi bilan qayd etilgan. Jumladan, 2 draxmaga kavsh, 8 draxmaga qog'oz (uning miqdori aniq ko'rsatilmagan). 11 draxmaga sigir, 200 draxmaga ot olingan va hokazo. Shunga nisbatan yoqutning narxi ancha baland bo'lganligini ko'rish mumkin. Demak, bu o'rinda hammasi bo'lib 6 dona yoqut sotib olingan.

Hujjatning shu qismida *axurpat* degan lavozim nomi uchraydi. Bu lavozim podsho otxonasining noziri demakdir. So'zning *axur* qismi hozir o'zbekcha *o x i r* so'zida saqlangan. *-pat* esa qarovchi, egalik qiluvchi, nozir demakdir. 3-satridagi *t u r k* so'zi ham diqqatga sazovor. Ma'lum bo'ladiki, yoqutlardan biri turkiy xalq vakiliga berilgan.

## TILXATLAR

Mug' hujjatlari majmuida bir qancha tilxat mavjud. Bular: V-5, V-3, V-19, A-19, A-7 va boshqalardir. Bu hujjatlarning barchasi oshlangan yoki xom teri oldi-berdisi haqida. Tuzilishi nuqtayi nazaridan Mug' tilxatlari ikki guruhga bo'linadi: 1) MN «dan» KW «ga» shaklidagi boshlov formulali tilxatlar (V-3 va A-7 hujjatlari). Bu kabi murojaat shakli V-5, V-19 va

@tarixchi_kutubxonasiga

A-10 hujjatlarida uchramaydi, 2) Ikkinchi guruh matnlarida (V-5, V-19, A-19) tilxat ikki nusxada tuzilganligi *uvznak* so'zi bilan, ya'ni «nusxa» deb qayd etilgan.

V-3 hujjati 9×16,5 sm hajmda 15 qatordan iborat: 8–9-qatorlarining chap tomoni satr so'ngida hasharotlar tomonidan kemtik qilingan. Mazmuni – farmondorning teri olganligi haqida bergan tasdiq tilxati. V-5, A-10 va V-19 tilxatlaridan farqli o'laroq, V-3 hujjati ikki nusxada tuzilganligi to'g'risida ma'lumot yo'q.

## V-3 (FARMONDOR AVATNING CHARM OLGANLIGI TO'G'RISIDAGI TILXATI)

**Matn:**

(1) Panj hukmdori Devashtichning
(2) 11-yilidir. Oyi –
(3) Mazexxandich, xvarro'ch kuni.
(4) Farmondor Avatdan
(5) Martushkat (teri oshlash) *''w'zypt* (hovuzining boshlig'i)[1] Vg'ashmarikka.
(6) Va (men) oldim («qabul qildim va oldim»)
(7) Men sendan, Vg'ashmarikdan, (ya'ni) Martushkat
(8) hovuzi boshlig'idan, ...
(9) saralangan charmdan, va (?)...
(10) ... va to'rtta tog' echkisi (charmini)
(11) ulardan bittasi rangli charm (teri),
(12) uchtasi esa oshlanmagan «buralgan» (ag'darma) charm.
(13) 13 tulki
(14) (terichalari)..., va yana to'rtta tulki-
(15) ning mo'yna (?)sini (oldim).

[1] *''w'zypt* – aavazipat, sug'orish bilan bog'liq barcha ishlarning (ariq tozalash, hashar...) boshqaruvchisi bo'lgan. Uning vazifasi keyingi davrdagi «mirob» vazifasiga to'g'ri keladi. A.A. Freyman *wzypt* so'zini «toki, haligacha» deb noto'g'ri tarjima qilgan. Bu haqda Nov. 6. hujjatida so'z boradi (SDGM II:187). Aavazipat – so'zidagi o'zakni tashkil etgan «aviz» – o'zbek tilidagi «hovuz» so'ziga to'g'ri keladi. Ushbu unvon egasi teri oshlash jarayonidagi hovuzlar boshqaruvchisining unvoni va sug'orish ishlari mutasaddisi bo'lgan. Nov.6 hujjatida bu unvon egasi Vgashmarikdan 8 draxm olinganligi keltiriladi. Aavazipat, Panjikent qasridagi barcha suv havzalari ustidan nazorat o'rnatuvchi shaxs ham bo'lgan. Sug'diy-budda matnlaridagi *''w'z''p* – «suv, suv havzasi» va moniy matnlaridagi *''w'zyy* – «suv havzasi, ko'l» ma'nolarini anglatuvchi so'zlarga o'xshash (SDGM II:72).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Izoh:**

5- va 8- satrlarda Martushkat so'zi uchraydi. Bu so'z qishloq nomi bo'lib, u yerda terini qayta ishlash ishlari yuksak darajada bo'lganligidan dalolatdir. Yuqorida zikr etilgan Vg'ashmarik aynan shu charm tayyorlash markazining boshqaruvchisi bo'lgan.

## A-10 (HOVUZ BOSHLIG'I AXUSHMARIKNING TERI OLGANLIGI HAQIDAGI TILXATI)

**Matn:**

(1) Oldim men, Axushmarik
(2) Kachakdan 10 echki va
(3) beshta ho'kiz terisini, kichkinasidan ham,
(4) va kattasidan ham, va bitta eshak terisini.
(5) Va bu tilxatlardan ikkitasini bir xil (bir xil nusxa qildim).
(6) Va ulardan bittasini Axushmarik
(7) saqlaydi, boshqa («bittasini») esa – Kachak.
(8) Hukmdor Devashtichning
(9) 11-yilidir, Vag'akanich oyi
(10) Va bu ikki bir xil hujjat (tilxatning bu nusxasi)
(11) (farmondor) Avatga tegishlidir («shaxsiydir»).

**Izoh:**

8,5–10×12–14 sm hajmli charmga bitilgan sug'diycha hujjat. V-3 hujjati bilan bir yilda yozilgan. 11 satrdan iborat. Mazmuniga ko'ra oshlanmagan charmning Vgashmarik tomonidan qabul qilinganligi haqidagi tilxat. Unga ko'ra Vgashmarik 16 ta teri olgan, ular orasida 10 ta echki va 5 ta ho'kiz va yana 1 eshak terisi bor.

Qizig'i shundaki, bunda terilarning hajmi ham qayd etilgan: «kichkinalaridan va kattalaridan». Shuningdek, hujjat 3 nusxada bitilgani – 1 tasi Vgashmarik uchun, 2-si – aynan teri topshirgan shaxs Kachak ismli odam uchun, uchinchisi – farmondor Avatga tegishli ekanligi qayd etilgan.

Bu hodisa Panch hokimligi xo'jaligida qattiq nazorat, aniq va ish yuritish yuqori darajada yo'lga qo'yilganligi to'g'risida guvohlik beradi. Hujjatlar bir nechta nusxada yozilgani har bir xo'jalik «jarayonida» ishtirok etgan shaxs uchun uning harakatlarini oqlovchi (javob beruvchi) o'ziga xos dalil bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

## A-7 (DIPAG'DAN ANUTCHGA TILXAT)

**Matn:**

(1) Dipag'dan Anutchga. Keltirildi.
(2) Va men oldim (qabul qildim) sendan
(3) yaxshi saqlangan charmlardan oltita charm
(4) Va sen bu tilxatni mendan
(5) Guvohnoma (javob) hujjati sifatida olding
(6) Devashtich hukmdorning [...yilidir, oyi]
(7) Axsho'mich (?) [kun...]

**NOV 2.**

Charmga bitilgan sug'diy tilli hujjat, o'lchami 18,5x13 sm, yuzasida 17 qator va qatorlar orasida 2 ta so'z bor. Sug'd podshosi, Samarqand hukmdori Devashtichga maktub. 721-yilning kuzi – 722-yilning bahori oralig'ida yozilgan deb hisoblanadi[1].

**Matn:**

(1) Janobi hukmdor, buyuk tayanch(imiz), Sug'd
(2) podshosi, Samarqand hukmdori Devashtichga
(3) Uning o'z quli, (bandasi) Partan[2] hokimi
(4) Revaxshyondan, murojaatnoma. Shunday qilib, sizga janob
(5) Buyuk shavkatga (sazovor) zotga ko'plab ehtirom. Va agar siz yaxshilik ichra (tinch) bo'lsangiz, men bundan quvonaman. Va janob,
(6) O'zingiz tinch-omon bo'lsangiz bundan, janob, men quvonaman. Va janob,
(7) avval yuborilgan o'sha nomangizga men, janob allaqachon
(8) javob maktubini Azak orqali jo'natdim. Va janob,
(9) Hozir bu yerdagi xabarlar, ular qayerda
(10) Janob, o'zing maktubda Arspanga[3] yozgan, faqat janob
(11) Sen javob yuborishing (uchun). Va janob, (shundan beri sen («hukmdor») o'zing («u yerda senga») (o'z tomoningga ketding)

---

[1] Grenet, Vaissiere, 2002:165.

[2] *p'rtn* (Partan / Portan) – uni XVIII asrga taalluqli hujjatlarda Pordon shaklida qayd etilib, Samarqand viloyatiga qarashli Shovdor tumani (Mog'iyon-daryo havzasi)dagi joy nomi bilan tenglashtirish mumkin (Livshis, 2008:112).

[3] *Arspan* – Mug' tog'i sug'diy hujjatlarining ikkinchi nashrida bu so'z V.A. Livshis tomonidan B-18 hujjatida shaxs ismi yoki unvon bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan (SDGM II:106, 154, 177). Hujjatlar mazmuni «arspan»ning unvon ekanligidan darak beradi. Bu unvon sohibi Panjikentga qarashli qishloqlar ustidan nazorat yurituvchi shaxs bo'lib, *kty'βδ'yws* – katiyavshauz qishloq oqsoqollari ularga hisobot bergan bo'lishi mumkin (SDGM II:177). *Arspan* – umuman olganda markaz va chekka hududlar o'rtasida aloqalarni yurituvchi amaldor bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(12) Unda janob, men bu yerda No'zandikda bo'lib turaman.
(13) Va janob, sening (janobing) qudrating tufayli biz to'la xavfsizlikda-
miz («mutlaqo mustahkam») va janob, omad bilan
(14) turibmiz. Va janob hukmdor (sen)ga sharaflar yor bo'lsin.
(15) Janob, hukmdor, buyuk tayanchimiz Sug'd podshosi, Samarqand
(16) hukmdori Devashtichga uning o'z xizmatkori, Partan
(17) hokimi Revaxshyondan.
**Orqa tomoni:**
(1) Janob, hukmdor (sening) har qanday buyrug'ing
(2) bo'lsa va janob, men xizmatkoringga
(3) bajarishni buyursang, sen janob (bu haqda) menga xabar et.
(4) va janob, men sening (hukmdorning) buyrug'ingni, albatta, bajara-
man («bosh ustiga qo'yaman»).

## V-10 (NOMA'LUM SHAXSDAN DEVASHTICHGA MAKTUB)

### Matn:

**O'ng yuzasida:**
(1) Janob, hukmdor, buyuk tayanchimiz [Sug'd podshosi, Samarqand]
(2) hukmdori Devashtichga [uning o'z bandasi (quli).. .]dan
(3) mu[rojaat].
(4) Janob, (senga) sening sharafingga ko'plab ehtirom yo'l[layman...
(5) men eshitdimki, sen («hukmdor») bajaribsan (?) [va], janob. [...
(6) men shu onda kelgan bo'lardim, va janob, o'zim.. [...
(7) .. .amir bo'lgan (?) [...
(8) hamda [...] shunday... [...
(9) u yetib keladi (?), ammo sen tomonga bormaydi [...
(10) u yetib borishi mumkin bo'lmagan (?) joylarni egallab oldi. Va janob,
[...
(11) maktub yetkazildi. Podsho [...
(12) kelishdi (?). Va janob, shu onda xatni [...
(13) Va janob shunday xabar kelsa, [men shu onda senga (bu haqda) xa-
bar beraman?]
(14) janob, hukmdor, Sug'd podshosi Samarqand [hukmdori]
(15) Devashtichga [u]ning o'z bandasi (quli) [... dan
(16) murojaat va [ko'plab ehtirom]lar bo'lsin.
**Orqa yuzasida:**
(1...] Elchi[1] keldi. Va janob, birgalikda (?) (2)...] u o'zi tezda yetib keladi.
Va janob,

[1] *Elchi* – asl matnda *"δcy-kk*. Hujjatning dastlabki nashrlarida *"δ(c?)y-kk* va *"δyz-kk* shakl-larida o'qilgan va uning hujjat mazmunidan shaxs ismi bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan edi (SDGM. II:107-108). Keyingi nashrlarda u qadimgi turkcha unvon – «elchi» bilan tenglashti-rildi (Livshis, 2008:116).

@tarixchi_kutubxonasiga

(3) ...]... u (?) ketdi. Va janob, o'zing tezda... (4)... agar] xabar bo'lsa, unda, janob (5) [men uni senga jo'nataman?].

## XAXSAR[1] HOKIMI AFSHUNGA MAKTUBLAR

Maktublar oqish kulrang xitoy qog'oziga yozilgan. Ulardan biri V-17 29,5×29 sm hajmli. Yuza tomonida 20 qator, orqa tomonida 3 qator matn bor. Qog'oz yupqa va sitilgan, o'ng tarafidagi barcha matn qatorlari orqa tarafiga shimilib aks etgan. Yuqori qismining chap tomonidan ikki parchasi uzilgan. 3-qatorga tegishli bir belgi tushib uzilgan parcha bilan yo'qolgan. 6–8-qatorlari kuchli zararlangan, bir butun so'z o'rni teshilgan. 8-qatorning oxiri qog'oz buklangani bois hujjatning ichki tomoniga singib ketgan. Nurga solinsa, teskari tomondan ko'rinadi. O'ng sahifadagi matn qaydnoma bo'lib, butun maktub yozib bo'lingandan keyin xat mazmunini yana ta'kidlash uchun yozilgan. Shu jumladan, bu qismga jo'natish manzili ham qo'shilgan. Hujjat muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Bunga orqa yuzasidagi tasmacha qoldig'i dalil bo'la oladi. Biriktirilgan loy muhr aynan oxirgi qator ustiga tushgan va u buklangan vaqtida varaqning o'rtasiga to'g'ri kelgan (xuddi charmdagi hujjatlarni muhrlagan kabi).

Bu ikkala maktub ham Devashtichning Xaxsar hokimi Afshunga yo'llagan maktublaridir.

Mug' tog'i hujjatlari ichidagi V-17 hujjati Sug'dning VIII asr birinchi choragidagi siyosiy va diplomatik tarixini yoritish uchun muhim manba hisoblanadi. Bu maktubda Devashtich o'zini turk xoqonining vassali sifatida e'tirof etadi. (qiyos: A-14 hujjati). Hujjatlardan biri A-14 da Farg'ona podshosining harbiy boshlig'i tutuqning Chochga kelishi diqqatga sazovordir.

E'tiborlisi shundaki, V-17da Turk xoqonligi va chinliklar (Sharqiy Turkiston yoki Xitoy) tomonidan Devashtichga yordam va'da berilgani haqida ma'lumotlar bor. Bu bizga VIII asr boshlarida xitoyliklarning Sug'd hukmdoriga yordam berishga uringani haqidagi yagona ma'lumotdir. Bu vaziyatda arab bosqini pirovard oqibatda Xitoyni ham xavotirga solganini ko'rsatadi.

Mug' to'plamidagi boshqa diplomatik maktublar qatori V-17 hujjatida ham sanasi, yozilgan vaqti ko'rsatilmagan. Tadqiqotchilar hujjatda bayon etilgan voqeliklarni boshqa tillardagi ma'lumotlar bilan solishtirib, uni 721 yilning kuzida yozilganini taxmin qilishadi[2]. Maktubda Devashtich o'zini oddiy mahalliy hukmdor sifatida ko'rsatadi, balki bu o'rinda «Sug'd podshosi» yoki «sug'diylar podshosi, Samarqand hukmdori» kabi jumlalar atayin zikr etilmagandir. Maktub Devashtich uchun murakkab bo'lgan bir vaziyatda yozilgan. U paytda Devashtich o'z vassallariga to'g'ridan to'g'ri

[1] *Xaxsar* – lug'aviy ma'nosi «Buloqboshi». Samarqandning janubi-sharqida joylashgan kichik hokimlik.

[2] Grenet, Vaissiere, 2002:179.

@tarixchi_kutubxonasiga

qat'iy buyruq ohangida muomala qila olmagan ko'rinadi. Shu bois ham ularga yumshoq, hatto yalinchoq ohangda munosabatda bo'lgan. Chunki tobe hokimlarning sadoqatini saqlashga harakat qilgan. Shuning uchun ham ularni o'z tarafida saqlab qolish uchun ittifoqchilari bilan muzokaralar olib borayotganligi va yaqin kunlarda harbiy muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligi haqida va'dalar berib umidlantirishga urinadi.

Xaxsar – Samarqanddan 2 farsax sharqdagi qishloq bo'lib, Devashtichning Panchdan turib g'arbdagi vassallari ustidan hukmronlikni ta'minlashi uchun qulay qal'a edi. Shu bois ham Devashtich imkon qadar Xaxsar boshqaruvchisi Afshunni o'z tarafida ushlab turishga harakat qilgan. «Xaxsar hokimi» bir necha bor o'z xojasining kuchiga shubha bilan qaragan, ehtimol, ba'zan Devashtich buyruqlaridan bo'yin tovlagan bo'lishi ham mumkin. (Bu haqda V-18 hujjati dalolat beradi.) Ammo Afshun Devashtich bilan butunlay aloqani uzib yubormagan. 722-yil oxirlarida Kum qishlog'i yaqinida bo'lgan janglarda, keyinchalik Mug' qal'asidagi qamalda Afshun Devashtich bilan birga bo'lgan ko'rinadi. Demak, Devashtichning harakatlari bekor ketmagan ekan. Devashtichning (V-17 huj., V-18 huj.) va Revakning Afshunga yozgan maktublari Mug' arxivida paydo bo'lishi Afshun Devashtichni qo'llab-quvvatlab, u bilan taqdirini ham bog'laganidan dalolatdir. V-17 boshqa maktublar qatori, Devashtich tomonidan vassallariga yuborilgandek. Lekin bu hujjat asl nusxa hisoblanadi. Undagi muhr va VIII asr boshlarida Sug'd uchun qimmatbaho sanalgan qog'ozga bitilgani bu maktubni Afshun o'zi bilan birga olib Devashtich huzuriga kelganidan darak beradi. Avval eslatib o'tilganidek, Mug' tog'i to'plamida bir necha shaxslarning arxivlari (aniqrog'i, arxivlarning bir qismi) saqlangan. Bu shaxslar Devashtich atrofidagi shaxslar bo'lib, arab istilochilariga qarshi kurashda birlashganlar va Mug' qal'asida so'nggi makonni topishgan. Shular orasida, albatta, Afshun – «Xaxsar hokimi» ham bo'lgan.

## V-17 (PANCH HOKIMI DEVASHTICHNING XAXSAR HOKIMI AFSHUNGA MAKTUBI)

**Matn:**

**O'ng yuzasida:**

(1) Hukmdor Devashtichdan Xaxsar hokimi Afshunga ko'plab
(2) ta'zim. Va janob, mana (qara) qancha ko'p vaqt o'tdi sendan (esa)
(3) hech qanday xabar eshitmadim. Va senga shunday
(4) avvalroq men ta'kidlagan edim. «Shunday ish tutishing zarur,
(5) o'zingni ehtiyot qil, xavf-xatardan (uzoq) bo'l». Endi esa

@tarixchi_kutubxonasiga

(6) mana men yaqinda xun (turk) hukmdorlarni[1] va barcha bizga (tegishli) [tuproqlarni?]

(7) (o'zimga) bo'ysundiraman va shunda sening yoningda Rust viloyatida to'xtayman).

(8) Sen shunday (ish) qilishing kerakki – (men yetib boradigan) o'sha kungacha, to biz sen(ing yoningga) yetib

(9) borgunimizcha sen bexatarroq (joyda) bo'lishing kerak.

(10) Menda esa shunday yangiliklar (xabarlar) bor: bizning choparlarimiz bu yerga qaytishdi

(11) va (ular) menga xoqondan yuksak (bir) martaba[2] va ehtirom

(12) olib kelishdi. Va ko'plab qo'shin ham keldi – xun (turk)lar va

(13) chin(lik)lar[3]. Apvaxro'ch kunida esa Farg'ona podshosi shu yerga

(14) xun (turk)larning š'y-kn (qarorgohi)ga[4] keldi, men bu yerda o'z qarorgohimni tikdim

---

[1] Asl matnda *xwn/'t xwt'wt*. N. Sims-Villiyams birinchi so'zni *xwnt* (xun) shaklida o'qib, ushbu iborani «turkiy hukmdorlar» o'laroq talqin qilgan. V.A. Livshis esa *xw't xwt'wt* tarzida o'qib, «zaif (kuchsiz) hukmdorlar» shaklida o'girishni ma'qul ko'rgan (Livshis, 2008:129).

[2] «Yuksak martaba» – qadimgi turkcha «eltabar» unvoni bilan aloqali bo'lishi kerak. Yuqorida ham aytib o'tilganidek, Xitoy yilnomalarida, G'arbiy turk hukmdori Tun yabg'u-xoqon (618–630) o'z hukmronligi davrida qo'l ostidagi vassal hukmdorliklar boshqaruvchilariga *selifa* (qad. turk. «eltabar») unvonini berib, ular nazorati va soliqlar yig'inini tashkil qilish uchun *tutun* (qad. turk. «tudun») unvonli noiblar yuborgani qayd etiladi (Bichurin, I:283). Bu haqda batafsilroq ma'lumot uchun A-14 raqamli hujjatdagi «Tudun» va B-15 raqamli hujjatdagi «Eltabar»ga berilgan izohlarga qarang.

[3] *Chin* – «Chin» atamasi bu o'rinda Xitoy ma'nosida emas, balki sharqiy turkistonliklar ma'nosida bo'lishi ham mumkin. Biroq bu davrda Sharqiy Turkistondagi kichik voha hukmdorliklarining kam sonli (2-4 ming) qo'shinga ega kichik siyosiy uyushmalar bo'lgani nazarda tutilsa, shuningdek, G'arbiy Turk xoqonligiga ittifoqchi, hatto homiy maqomidagi yirik siyosiy kuch bu vaqtda Xitoyning Tan imperiyasi bo'lganidan kelib chiqilsa, Mug' hujjatlaridagi «Chin» Xitoy ekanligi ayon bo'ladi.

[4] *š'y-kn* (shaykin*)* – xitoycha *chxi guan* – «qo'shin boshlig'i», qadimiy turkiy *chiyqon*. Hozirgi o'zbek tilida «chiyqondek» iborasi uchraydi. *Rangi chiyqondek, yuzlari chiyqondek* singari. Bu so'z tarixi sug'diychaga borib taqalishi qiziqarlidir. Balki sug'diychaga turkiydan kirgandir. Ushbu atama bilan aloqador ravishda V.A. Livshis 13–14-satrlardagi jumlani «(13) ... Apvaxro'ch kunida esa Farg'ona podshosi shu yerga (14) turk harbiy qo'mondoni huzuriga keldi, men bu yerda (o'sha) harbiy qo'mondonni tutib oldim» shaklida tarjima qilgan (Livshis, 2008:129). Darvoqe, š'y-kn so'zi sug'diy tilda ikki xil – «qo'mondon» va «(hukmdor) qarorgohi, saroy» ma'nolarini bildirishi sababli tadqiqotchi bu fikrga kelgan. F. Grene va E. de la Vessierlar š'y-kn – bu yerda «qarorgoh» ma'nosida kelganini olg'a suradilar (Grenet, Vassaire, 2002:157, 186). Agar Livshisning tarjimasidan kelib chiqilsa, Panch hukmdori Devashtich Farg'ona hukmdori va turk qo'mondonini tutib olgan hamda sug'dliklar bilan xoqon va farg'onalik qo'shinlar orasida nizo paydo bo'lgan bo'lib chiqadi. Biroq ayni shu hujjatning yuqoridagi 11–13-satrlarida «(ular) menga xoqondan yuksak (bir) martaba va ehtirom olib kelishdi. Va ko'plab qo'shin ham keldi – xun (turk)lar va chin(lik)lar» jumlasi quyida ko'rib o'tiladiganidek, V-18 raqamli hujjatning 18–19-satrlaridagi «xun (turk)lar (Sug'd podsholigida nima ro'y berganligini), bizni qutqarish uchun qanday yordam berish zarur va ular bizni (qanday) qutqarib qolishlari haqida o'zlari sendan yaxshiroq bila oladilar» jumlalari, shuningdek, A-14 raqamli hujjatda Devashtichning Fatufarn orqali arablarga qarshi yordam so'rab xoqon va Farg'ona hukmdoriga xat yuborganligi va hokazolar š'y-kn so'zi bu yerda «qarorgoh» ma'nosida kelgan deb hisoblash mantiqli ekanligini ko'rsatadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

(15) va Naveshavon (?) o'tlog'ida kuchga to'lgan holatda turibman – mana

(16) bu haqda men (senga) xat jo'natdim. Qanday yashayapsan, nimalar bilan mashg'ul eding,

(17) nimaga yashirinib yuribsan? Odamlarimizdan birortasi sen bilan birga bo'lsa

(18) menga bu haqda kengroq ma'lumot yubora qol. Agar biror xabar bo'lib qolsa, u holda men sening yoningga

(19) borishim zarur bo'ladi. Sen menga xabar berib tur, men, albatta, huzuringga boraman.

(20) Hukmdor Devashtichdan Xaxsar hokimi Afshunga.

**Orqa yuzasida:**

(1) Agar senga qo'shimcha kuch kerak bo'lsa, xabar ber, men, albatta, jo'nataman, faqat

(2) Bir (shart) bilan: (men yuborgan) odamlarni ehtiyot qilishing va o'zing ham ehtiyot bo'lishing kerak

(3) va (oralaringda asosiy janggacha) hech qanday (ortiqcha) talafot bo'lmasin.

## V-18 (DEVASHTICHNING AFSHUNGA IKKINCHI MAKTUBI)

Och kulrang yupqa xitoy qog'oziga bitilgan. 27×18 sm hajmli hujjat. 20 qator. Devashtichning Xaxsar hokimi Afshunga maktubi. Hujjat qizil tuproq (oxra) loyi ustidan zebu (tog' ho'kizi) tasvirli muhr bilan surgichlangan. Shu kabi muhr A-2 va A-3 hujjatlarida ham uchraydi. Maktub 722-yilning boshlarida yozilgan deb taxmin qilinadi[1].

### Matn:

(1) Sug'd podshosi Devashtichdan Xaxsar hokimi Afshunga – salom,

(2) Ko'plab ta'zim. Gap shunday: agarda sen ahmoqlik va qaysarlik qiladigan bo'lsang,

(3) bu qilmish seniki emas, meniki bo'ladi. Men axir bilaman-ku

(4) sen qanaqa loqayd ekanligingni! Men (seni) bunday ishga yuborishim

(5) kerak emas edi, (ya'ni) men seni hozir yuborganimdek. Axir men seni xoqonning (yoni)ga

(6) elchi qilib yubordim-ku. Sen esa qo'rqoqliging va o'zboshimchaliging tufayli

[1] Grenet, Vaissiere, 2002:158–159.

@tarixchi_kutubxonasiga

(7) (joyingdan qimirlamay) o'tirib olding. Endi esa men sening «Yuqori»ga[1] borishingni xohlamayman.

(8) Yuqoriga men boshqa elchilarni jo'nataman, sen esa mening oldimga kel.

(9-11) Faqat shunday ahmoqlik qilma – Chandanni (?), (ya'ni) chinlik yigitni «xoqon huzuriga uni elchi qilib yubor» deb (men) yo'l-yo'riq berganman, agar uni hali jo'natmagan bo'lsang, hozir jo'natma (va)

(12) (xoqon nomiga) maktub (berib) yuborma. Va yana o'shanday xatoga yo'l qo'ymaginki, sendan kimdir

(13) (o'sha xatlardan) birortasini berib yuborsin yoki olsin, chunki sendan na buni, na boshqasini istamayman.

(14) (Senda bo'lgan) o'sha narsalarni sen eson-omon yetkazding. Hamda o'sha maktubni,

(15) men tomonimdan senga ruxsat etilmagan bo'lsa-da, sen Vizdgirdga[2] yozibsan. Agarda

(16) bu maktubni berib, jo'natganingni yoki biror narsani olganingni eshitsam, to

(17) tirik ekanman (sening) turqingni ko'rishni istamayman. Va o'sha Yunanchu (Inanchu)[3] va o'sha

(18-19) xun (turk)lar (Sug'd podsholigida nima ro'y berganligini), bizni qutqarish uchun qanday yordam berish zarur (ekanligi) va ular bizni (qanday) qutqarib qolishlari haqida o'zlari sendan yaxshiroq bila oladilar.

(20) Sug'd podshosi Devashtichdan Xaxsar hokimi Afshunga.

---

[1] «Yuqori» – ushbu so'z ostida sug'diy mualliflar Chochning shimoli va shimoli-sharqidagi yerlar, aniqrog'i, Ettisuv va uning atroflarini nazarda tutgan. Aftidan, bu davrda sug'diylar Sug'd va uning atrofidagi hududlardan shimolda joylashgan o'lkalarni «Yuqori» deb atashgan ko'rinadi. Bu paytda G'arbiy Turk xoqonligining markaziy hududlari Yettisuvda joylashgan bo'lib, To'qmoq shahri yaqinidagi Suyab uning poytaxti, Talas va Chu daryolari havzalari esa xoqonlikning tayanch ittifoqdosh qabilalari yashaydigan hudud bo'lgan.

[2] *Vizdgird* – o'rta asrlar arab va fors manbalarida Shimoliy Xuttalda joylashgan Veshgird yoki Veshjird nomli shahar tilga olinadi (Grenet, Vaissiere, 2002:161).

[3] *Inanchu* – hujjatda *ywn-'ncw* (Yunanchu). V.A. Livshis uni Yunanch shaklida berib, hujjat mazmuni uning mansabdor shaxs ekanligini ko'rsatadi deb yozadi (Livshis, 2008:135–136). F. Grene va E. De Vesierlar esa uni «yuzbeshi» shaklida tiklab, qadimgi turkcha «yuzboshi» unvoni bilan tenglashtiradilar (Grenet F., de la Vaissiere E. The last days of Panjikent ... R. 162). Hujjat mazmunidan mazkur shaxsning Turk xoqonligiga aloqador yuqori darajali amaldor bo'lib, Devashtich boshchiligidagi sug'dliklarni dushman (arab)lardan himoya qilishda asosiy dastak beruvchi xoqonlik vakili ekanligi anglashiladi. *Yunanchu* shaklida kelgan ushbu atama aslida qadimgi turkcha «inanchu» (xoqonning xos amaldori) unvoni bilan aloqador bo'lishi kerak (Babayarov G. Two additional Turkic title in Sogdian documents of Mugh Mountain // http://www.groups.yahoo.com/group/Sogdian-L (October, 2011)).

@tarixchi_kutubxonasiga

## V-16 (REVAKDAN AFSHUNGA MAKTUB)

Och kulrang xitoy qog'ozi. 30×17 sm. 14 qator. «Xaxsar hokimi Afshunga» «uning eng e'tiborsiz, bechorahol («millioninchi») quli Revak»dan maktub. Hujjatning tashqi o'ziga xosligi Mug' to'plamidagi boshqa maktublarga o'xshamagan xususiyatga ega. Adresatning ismi va unvoni hujjatning yuqori tomonidan o'ng tarafiga asosiy matndan biroz bo'lak tarzda yozilgan.

Oxirgi ikki qatori, ya'ni manzilgohning takrorlangan shakli, matnning boshqa yo'nalishiga nisbatan teskari berilgan.

### Matn:

(1) Janobi hukmdor, buyuk tayanch, tayanchlarning eng oliysi Xaxsar

(2) hokimi Afshunga – uning eng e'tiborsiz, bechorahol («millioninchi») quli

(3) Revakdan maktub. Va janob, (sen) shavkatliga ko'plab

(4) ta'zim. Agar sen, janob hukmdorim, shon-sharafda eson-omon va rohat-farog'at ahvolda turayotgan bo'lsang,

(5) unda men janob, bandai bechorang o'zimni

(6) baxtiyor («mangu») hisoblayman. Va janobim, qachonki, biz bu yerga yetib kelganimizda bu yerda, janob, sen sohibimiz haqida,

(7) Men juda yaxshi maqtovlarni eshitdim va (bu) menga katta quvonch (qoniqish hissini) bag'ishladi.

(8) Va janobim, sen bilan, sendek xojam bilan uchrashuv meni shunday (o'ziga) rom etdiki, yana seni («janobimni»)

(9) Bir ko'rsam deyman! Va janobim, senga (sen tomonga) olampanohning saroyiga tushgan edim, ammo sen, janobim, u yerda

(10) yo'q eding. Va janobim, mana shu haqda senga noma (yubordim). Va janobim,

(11) (senga), Ttwr o'g'li orqali besh (bo'lak) pishiq (?) yashil shoyi mato yubordim.

(12) to men seni yana ko'rgunimga qadar.

(13) [Janobim, hukmdorim, buyuk tayanchim] tayanchlarning eng buyugi Xaxsar

(14) [hokimi Afshunga uning xokisor, bechorahol] quli – Revakdan murojaatnoma.

## V-14 (AFSHUNGA REVAKDAN MAKTUB)

Maktubning ikki parchasi saqlangan, och kulrang xitoy qog'oziga, V-16 hujjatidagi kabi husnixat bilan yozilgan.

V-14a parchasi 19×2,5 sm, ikkita to'liq bo'lmagan qator, manzilgohga yuborishga mo'ljallangan boshlov formula mazmunda. Hujjatning saqlan-

@tarixchi_kutubxonasiga

magan qismi V-16 hujjati orqali tiklanishi mumkin – «Xaxsar hokimi Afshunga, uning eng e'tiborsiz quli Revakdan».

V-146 parchasi – 24×4 sm, matnning ikki qatori bosh qismida uzilgan va uchinchi qator ham shu ahvolda. Bu parcha birinchi parchaning bevosita davomi hisoblanmaydi, ular orasida yana matnning 1–2-qatori bo'lishi kerak edi.

**Matn**

a) 1. Janobi hukmdor buyuk tayanch, [tayanchlarning] eng buyugi [Xaxsar

2. hokimi Afshunga uning eng e'tiborsiz («millioninchi

darajadagi») [quli Revakdan – murojaat va janob,...]

b) (x+1) ] so'ng sen («janobning») sharofati bilan arablar kulfatidan (?) va ... dan

(x+2) ] biz qurolsiz (?) bo'lib qoldik. Va million (100×10.000) draxmni (tovon to'lashni) biz rad etdik (?)

(x+3) ] u.....

Ko'rsatilgan mablag' miqdoriga qaraganda (million draxm), gap arablarga to'lanadigan tovon puli haqida ketayapti. Aynan shu summa Qutayba va Sug'd podshosi G'urak o'rtasida 93/712–713-yilda Samarqandda imzolangan shartnomaning forsiy matnida ham keltiriladi. V-14 maktubi taxminan o'sha – 712–713-yillarga oid bo'lib, Revak va uning janobi Afshun hamda barcha Devashtich atrofidagilar G'urak imzolagan shartnomaga qarshi bo'lishganini ko'rsatadi.

## FARMONDOR AVATGA JO'NATILGAN MAKTUBLAR

### A-18 (DEVASHTICHNING FARMONDOR AVATGA FARMONLARI)

Och kulrang xitoy qog'ozi. 18×8,5 sm. 10 qatori yuza tomonida va 2 qatori orqa tarafida, qog'oz juda yupqa bo'lib, verso tomoniga yuza tomonidagi matni o'tgan. Mazmuni:

Devashtichning Farmondorga ko'rsatmasidan iborat. Verso (orqa tomon)dagi matn, keyinchalik umumiy maktub mazmuniga qayd sifatida bitilgan, chunki undan oldin yakuniy shakl (R, 10 qatorda) keltirilgan, qayd qilingan ta'kid ham umumiy matnni yozgan shaxs qo'li bilan yozilgan va bu ko'rsatmaga qo'shimcha bo'lib, asosiy maktubga biriktirilgan. Bu qo'shimcha, Devashtichga kotib tomonidan maktub matni o'qib bergandan so'ng qo'shilgan bo'lishi kerak. Devashtich o'z ko'rsatmasiga aniqlik kiritishni lozim topgan ko'rinadi. Chunki Farmondorga ko'rsatma

@tarixchi_kutubxonasiga

berilayotganda, odatda, xo'jalik xatlariga *rty 'pstnh L' kwny'* «sustkashlik qilma» jumlasi qo'shilgan. Hujjat muhrlanganini maktubda saqlanib qolgan muhr izlari ko'rsatib turibdi. Maktubning recto tomonidagi so'nggidan avvalgi qatorida kesilgan o'rni bor, bu varaq o'rtasidan chap tomonga qarab ketgan izdan aniq ko'rinadi. Hujjat yozuvi A-16 hujjat yozuvining aynan o'zi. Ikkala hujjat ham bitta shaxs qo'li bilan yozilgan.

**Matn:**

**O'ng yuzasida:**

(1) Sug'd podshosi Devashtichdan Farmondor[1]

(2) Avatga[2] – salom: O'sha (odamlarga), ya'ni ular haqda men senga buyuramanki: «Bug'doydan (ularga)

(3) bergin!» – sen esa bermayotgan ekansan. Aksincha, sen (berishing) kerak bo'lmagan (odamlar)ga

(4) sen (bug'doy) berayotgan ekansan? Yana eshitishimcha, sen juda beparvo ekansan.

(5) Axir men senga (avval ham) shu kabi maktub yuborgandim-ku: zravapatliklar[3] haqida

(6) qayg'ur, sen ularga don berginki, ular ochlikdan

(7) qashshoqlashishmasin». Hozir esa ular (yonimga) kelib, shunday

(8) deyishyapti: «Biz hech narsa olmadik». Va qachonki mana

(9) (ushbu) xatni olganingda, (ularga) 200 kafch don ber.

(10) Sug'd podshosi Devashtichdan Farmondor Avatga.

---

[1] *farmondor* – ushbu atama Mug' hujjatlarining barchasida *pr'm'nδ'r* yoki *prm'nδ'r* shaklida yozilgan bo'lib, tadqiqotchilar sug'diy tildagi lug'aviy ma'nosi «buyruq tutuvchi, buyruqdor» bo'lgan ushbu unvonni «framandar» tarzida o'qishgan. Biz «farmondor» variantida berishni lozim topdik.

[2] *Farmondor Avat* – Mug' tog'i hujjatlarining bir nechasida uchraydigan Panch hukmdorligining yuqori martabali amaldorlaridan biri. Panjikent saroyida Devashtichdan so'ng xo'jalik ishlarida *rm'nδ'r wt* – farmondor Avat turgan. Framondor – hokimning buyruq, farmon, ko'rsatma va topshiriqlari ustidan nazoratni amalga oshirgan. U haqida B-13, B-11, A-18, A-2, A-9, A-3, A-18, A-16, A-6, A-1, B-15, B-19, B-18 hujjatlarida ma'lumotlar keltiriladi. Mazkur hujjatlarning ilk nashrlarida noshirlar (*mas.* V.A. Livshis) ushbu shaxs ismi (*'wtt*)ni Utt (O't) shaklida o'qishgan bo'lib, uni qadimgi turkcha unvon hisoblashgan va mazkur amaldor turkiy bo'lgan deb talqin qilishgan edi. Bu talqin keng yoyildi va ancha yillargacha o'z kuchini saqlab qoldi. Biroq V.A. Livshis yangi nashrlarida uni Avat (sug'diycha *'wt* «umid, ishonch»dan) deb o'qishni lozim topdi (Livshis, 2008:149). Bizningcha, uning so'nggi talqinida jon bor. Sababi, qadimgi turkchada, ya'ni Turk xoqonligi davrida *ot* (o't) co'zi muayyan bir unvon emas, epitet (sifat – laqab) bo'lib, uning o'zi alohida kelmagan. Mazkur epitet biror unvon oldida kelib, daraja (rutba) farqliligini bildirgan. Masalan, qadimgi turkcha O't-tegin (*lug'.* «Valiahd shahzoda» < *o't* «o'choq / oila» + *tegin* «shahzoda») ma'nosida bo'lgan.

[3] *zr'w'p'tc* – *Zr'w'p't qishlog'iga mansub kishilar ma'nosida (Livshis. 2008:151). Yuqori Zarafshonda joylashgan ushbu aholi manzilining nomi saqlanib qolmagan.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Orqa yuzasida:**
(1) Donni esa ular o'zlari o'zaro bo'lib olishadi. Yana
(2) sustkashlik qila ko'rma.

**A-2**

Teri, 12×11 sm hajmli. Matn 10 qatordan iborat. Mazmuni – Devashtichning Framandar Utt (Avat)ga don berish haqidagi ko'rsatmasi. Hujjat zebu (tog' ho'kizi) tasviri tushirilgan qizil loy muhr[1] bilan surgichlangan. Xuddi shunday muhr A-3 va V-18 hujjatlarida ham mavjud. Hujjat A.A. Freyman tomonidan nashr etilgan[2].

**Matn:**

(1) Sug'd podshosi, Samarqand
(2) hukmdori Devashtichdan farmondor
(3) Avatga – salom. Va qachon
(4) Mening xatimni olsang, u holda Yuqori Razrdagi
(5) och (qolgan) odamlarga 300
(6) kafch don berishing kerak bo'ladi va hech qanaqa
(7) sustkashlik qila ko'rma.
(8) Sug'd podshosi Samarqand hukmdori
(9) Devashtichdan farmondor
(10) Avatga

**A-3**

Charm, 14,5x10,7 sm 8 qatorli matn. Mazmuni – Devashtichning farmondor Avatga don taqsimoti haqida ko'rsatmasidan iborat. Hujjat muhr bilan (qizil loy izi bor) biriktirilgan. Muhrda V-18 va A-2 hujjatlaridagi kabi zebuning tasviri tushirilgan.

**Matn:**

(1) Sug'd podshosi Devashtichdan
(2) Farmondor Avatga – salom.
(3) (Men yuborgan) xatni olgan zahoting
(4) Xufarn va Xutachanakga
(5) 200 kafch don ber
(6) va sustkashlik qilinmasin.
(7) Sug'd podshosi Devashtichdan
(8) Farmondor Avatga.

[1] Qizil tuproq (oxra) loyidan tayyorlangan muhr.
[2] Фрейман А.А. Два согдийских рукописных документа на коже с горы Муг в Таджикистане / ВДИ, 1952, №1. С.182 – 183.

@tarixchi_kutubxonasiga

## A-6 (FARMONDOR AVATGA MUALLIFI NOMA'LUM MAKTUB) FARMONDOR AVATGA UNING QULI XAMIRDAN

Charm, 1 1×10,5 sm. 12 qatorli matn:

(1) Janobi hukmdor farmondor Avatga
(2) uning quli Xamirdan – murojaat (noma).
(3) Va (senga) sharafliga ko'plab ehtiromlar bo'lsin!
(4) Va janob, odamlarni sen tomonga
(5) (hukmdor – Devashtich) yuborgan edi. Yana janob, hukmdor (ularga) oziq-ovqat
(6) berishni buyurdi. Va janob, men (senga) (shunday) murojaat qilmoqchiman:
(7) o'sha odamlarga shuni
(8) tayin qilginki, men
(9-10) sening vakilingman va (sening) himoyangdaman.
(11) Janobi hukmdor farmondor Avatga
(12) (uning) quli Xamirdan.

## A-1 (FARMONDOR AVATNING XIZMATKORI APANAKDAN MAKTUB)

Teri, 1 1×12-13 sm. Yuza tomonida 15 qator matn bo'lib, Framandarga uning xizmatkori «Apanak»dan maktub.

Maktubda ahamiyati noma'lum bo'lgan ko'plab narsa-buyumlar qayd etilgan, 5–13-qatorlarining tarjimalari aniq amalga oshirilgan emas.

**Matn:**

(1) Janob hukmdor farmondor
(2) Avatga o'z xizmatkori
(3) Apanakdan murojaat va ko'plab ehtirom (bo'lsin).
(4) Va Chitchit orqali men senga quyidagilarni berib yuborgandim:
(5) Qimmatbaho toshdan ham,
(6) shishadan ham yasalgan zeb-ziynatlar 18 (dona) va
(7) bitta dumaloq muhr va
(8) ikkita qahrabo toshi, ikkita aqiq toshi,
(9) bir dona ishlov berilgan yoqut toshi,
(10) bir dona ishlov berilgan zumrad toshi.
(11) Bir muhrni (?) esa Afshun o'ziga
(12) butunlay (?) (oldi?) va bitta....,
(13) yana bitta (muhrni?) Tun o'ziga butunlay (?) (oldi?) va (yana) uchtasini.

@tarixchi_kutubxonasiga

(14) Janob, hukmdor, farmondor
(15) Avatga uning o'z xizmatkori Apanakdan.

Ushbu hujjatning orqa tomonida (xiralashib ketgan) 12 qator boshqa mazmundagi matn bor. Mazmuni: teri olingani yoki topshirilgani haqida tilxat.

## FARMONDOR AVATGA XIZMATKORI ASPADAKDAN MUROJAATNOMALAR

### B-13

Tol tayog'i, uzunligi 51 sm, diametri – 2 sm 8 qatorli matn. Maktub – munshaot uslubida.

### Matn:

(1) Janobimiz, buyuk tayanchimiz farmondor Avatga uning xizmatkori Aspadakdan – murojaat va ko'plab ehtirom (bo'lsin).
(2) Va janob, qachon (men sening xizmatkoring) sening huzuringdan ketganimda, o'sha kuni janob, tush (payti)da u Axsikandga[1] keldi. O'sha kiyimlarni – u sendan olganlarni, hammasini to'lig'icha
(3) hukmdorga (=Devashtichga) topshirdi. Va janob, hukmdor shunday amr etdi: «Yaqindagina (?) birinchi choparlar ketishibdi va agar yo'lda
(4) sen (=Spadak) o'sha choparlarni uchratsang, unda ortga qayt. Biz esa o'zimiz bu yerda xatlarni qabul qilamiz». Va hukmdor (5) Eltabarga[2]

[1] *Axsikand* – Yuqori Zarafshon havzasidagi hozirgi Xshikat (Xushikat) qishlog'i. Panjikent va Matcho orasidagi Zarovad, Iskodar, Fatmev qishloqlari bilan qo'shni bo'lgan mazkur aholi manzili Tojikistonning Ayniy tumani markazi yaqinginasida joylashgan (Lurje P.B. The element -kath/kand in the place names of Transoxiana // ST, 32, fascicule 2, 2003. P. 188).

[2] *Eltabar* – Mug' tog'i sug'diy hujjatlarida *δyttpyr, ryttpyr* shakllarida uchraydi. Jumladan, B-13 hujjatida *δyttpyr*, B-15 va A-15 hujjatlarida *ryttpyr* shakllarida uchraydigan ushbu atama VII–VIII asrlarga oid Choch tangalarida *ryttpyr* shaklida o'rin olgan (*c'cynk γwβw ynk' ryttpyr* – «Choch hukmdori Yanga-eltabar») (Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса ... С. 42, 49). Mazkur hujjatlarning dastlabki tarjimalarida ushbu atama Litpir shaklida o'qilgan va shaxs (amaldor) ismi sifatida talqin qilingan edi. Jumladan, uni A. Freyman *g'wδpir* – «ruhoniy» shaklida talqin qilishi bir qator sug'diy hujjatlar talqini bo'yicha farqli izohlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi (Фрейман А.А. Три согдийских документа с горы Муг // Проблемы востоковедения. 1959. №1. С. 126–127). V.A. Livshis esa dastlab Litpir shaklida o'qigan bo'lsa (SDGM, 144; 150–151), keyinchalik uni Eltabar tarzida o'qishni lozim topdi (Livshis, 2008:158). Qadimgi turkcha *eltäbar* unvoni «biror el yoki davlatning boshqaruvchisi» ma'nosida edi. G'arbiy Turk xoqonlari voha hukmdorliklarining boshida turgan har bir mahalliy sulola hukmdorlariga turkiy *eltäbar* unvoni berishi xoqonlarning ularni o'z vassali deb hisoblashining ifodasi edi. Yuqorida V-17 hujjatiga berilgan izohda ham keltirib o'tilganidek, Xitoy yilnomalarida G'arbiy Turk hukmdori Tun yabg'u-xoqon (618–630) o'z

@tarixchi_kutubxonasiga

Iskatardan[1] (oziq-ovqatning) yarmini berdi va o'sha yarmini mevalar bilan berdi. Yana, janob,

(6) mevalardan bo'lak (unga) boshqa hech narsa yuborma. Va keyinchalik ham (unga) ortiqcha narsa bermasliging kerak. Hukmdor unga

(7) (oziq-ovqat) yetkazishni to'xtatib turishni buyurgan. Menga esa bu yerda (hukmdor) Eltabarga 200 kafch don va (yana) 50 ta

(8) qo'y (berishim)ni buyurdi – ya'ni o'zimda bor qo'ylardan, u o'shalarni (berishni) buyurdi.

**B-11**

Tol yog'ochi ikkiga bo'lingan; uzunligi 56 sm, aylanasi 2,5 sm, 5 qatori bo'rtiq yuzada, 5 qatori tekis tomonida.

**Matn:**

(1) Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz farmondor Avatga uning xizmatkori Aspadakdan – murojaat va ko'plab ehtirom. Va janob, sening huzuringga Azravadkdan[2],

(2) Askatardan va Anshak(?)dan don keltirishdi. Va sen ularning hammasini ro'yxatga olib (xatlab) bu yoqqa yuborasan. Yana janob, o'sha (don olib kelgan) odamlarga u yerda – sen tomonda hech qanday

(3) to'xtash (?) qilishni buyurma, ular men tomonga kelishsin («quyi tarafga»). Sendan don olgan odamlarga kelsak, ularning hammasini –

(4) ismini (nomma-nom) biz yozib oldik (ro'yxatladik), ammo sen (ham) ularning ro'yxat jadvalini tuzgin, ularning barchasini nomma-nom ismini yozishni va o'sha (ro'yxatni) bizga yuborishni buyur. Chunki

(5) hukmdor (=Devashtich) mufassal ro'yxatini tuzishni buyurmoqda. Va janob, yana qo'ylarga ham, yana.... ham ro'yxat tuzishing, hammasini yozishing

(6) va bu yoqqa jo'natishing (lozim). Agar (ro'yxat) topshirilmasa, biz uni yana bir bor talab qilamiz. Azravadkdan senga men Ashtatch orqali 63 bosh qo'y jo'natdim.

(7) Senga yetib boradigan qo'ylarning ham, sen ro'yxatini tuzgin. Senda mening o'zimga (shaxsan o'zimga) tegishli bo'lgan terilar (bor), sen

---

vassallariga *silifa* (eltabar) unvoni bergani va ularning nazoratiga bir **nafardan** *tutun* (tudun) jo'natgani qayd etilgan (Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I. М.- Л., 1950. С. 283; Taşağıl A. Gök-Türkler. Ankara, 1995. S. 92).

[1] *Iskatar* – Yuqori Zarafshon havzasidagi hozirgi Iskodar qishlog'i. Panjikent va Matcho orasidagi Urmetan, Zarovod, Xshikat qishloqlari bilan qo'shni bo'lgan mazkur aholi manzili Tojikistonning Ayniy tumani markazi yaqinida joylashgan.

[2] *Azravadk* – Yuqori Zarafshon havzasidagi hozirgi Zarovod qishlog'iga to'g'ri keluvchi ushbu aholi manzili Iskodar qishlog'i yaqinida joylashgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(hammasini), qancha bo'lishidan qat'i nazar, menga quyiga (?) Vashakstanga (?) yubor.

(8) Senga (tegishli) terilarning (hammasini), boricha sen ularni teng ikkiga bo'l va (yarmini) menga yubor. Nashapak huzuriga esa chopar keldi va chunki hukmdor (=Devashtich)

(9) sen tomonga borolmas ekan, Nashapak ham sen tomonga borolmaydi, ammo sen tomonga undan (Devashtichdan) Vanfarn jo'nayapti. Va men (u bilan) un jo'natdim, agarda yana

(10) zarur bo'lsa, xabar ber.

**B-15**

Tol tayog'i ikkiga bo'lingan. Uzunligi 32 sm, aylanasi 3 sm, bo'rtiq yuzada 7 qator, tekis tomonida 4 qator matn joylashgan.

**Matn:**

(1) Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz farmondor Avatga uning xizmatkori

(2) Aspadakdan murojaat. Va sizga janob, shavkatli (zotga) ko'plab ehtirom (bo'lsin). Va janob, senga bitta...

(3) Men jo'natdim. Va ... Shirkavichga yubordim. Yana janob, hukmdor (=Devashtich)dan shunday farmon keltirishdi:

(4) «..... qo'ylarni top!». Ammo janob, men bu yerda qanchalar qo'ylarni izlasam ham hech narsa

(5) topolmayapman. Va janob, Iskatarda Eltabarga mevalardan bo'lak

(6) boshqa narsa bermaslikni buyur. Yana, janob

(7) u yoqqa (= Iskatarga) o'zingning odamlaring borishiga ruxsat ber va ular hech qanday beboshlik qilib yurishmasin, chunki shunday

(8) xabarni hukmdor menga jo'natdi. Yana janob, bu yerda menda yaxshi (?) kiyim-boshlar bor va ularni

(9) mana men senga jo'natdim. Qolgan (kiyimlarni) esa, ya'ni (bu yerda) menda qolganini, men ularni o'zim bilan olib boraman («olib tushaman»). Va

(10) Darg'lik Anshiyatichdan bu yerga menga pochta (yom) keltirildi, (pochta) otlarini men qayoqqa jo'natay? Yana

(11) men (ularni) shunday taqsimlar edim – hukmdor va senga bittadan. Va siz so'rang va (hukmdor) nimani buyursa, o'shani qilinglar.

**B-19**

Uzunasiga ikkiga bo'lingan tol yog'ochi. Uzunligi 32,5 sm, diametri 1,5 sm 4 qator bo'rtiq yuzada, 3 qatori tekis tomonida joylashgan matn. Maktubning bir qismi hisoblanadi, aslida maktub ikkita tayoqqa yozilgan

@tarixni_kutubxonasiga

(qiyos: B–17 huj.). Yuborayotgan shaxsning ismi-sharifi bizgacha yetib kelmagan birinchi qismida yo'qolgan. Yozuviga ko'ra B-19 hujjati B-11, B-13, B-15 hujjatlaridagiga o'xshash. Demak, xat muallifi Spadak bo'lib, maktub farmondorga jo'natilgan bo'lishi kerak.

**Matn:**

(x+1) Ular Azravadkka kelishmoqda. Agar menda mazkur don bo'lsa (agar menga ushbu don yetib kelsa)

(x+2) o'zim ham Azravadkka yetib boraman. Va hukmdor (=Devashtich) senga (x+3) shunday amr etdi: «shu onda donni olib chiq («nariga yo'qot») va (boshqa) mahsulotlarni,...

(x+4).... olib ket. Ularning xavfsizligi («yoki saqlanishi») haqida yaxshilab chora ko'rib qo'y.

(x+5) Yana men senga bitta sovut, cho'qmor (?),

(x+6) bitta egar va kichikroq etik («boshmoq») jo'natdim. Andardyan (?) shu yerda chalqanchasiga yiqildi.

(x+7) va janob, u (hozir?) shunday bizning yonimizda turibdi. Yana janob, shunday qilginki, uni bu tomonga biz tomon (qaytarib) yubor.

## FARMONDORGA ARSPAN (QISHLOQ OQSOQOLI) AXUFARNDAN MAKTUB

### B-18

Tol tayog'i, ikkiga bo'lingan. Bir bo'lagi singan. Saqlangan qismining uzunligi 36,5 sm, aylanasi 2 sm 4 qatori yuqori qabariq qismida 2 qatori tekis tomonida. Mazmuni – framandarga (?) Azravadk arspani Axufarndan noma.

**Matn:**

1) Janobi hukmdor buyuk tayanchimiz farmondor Avatga uning xizmatkori Azravadk arspani Axufarndan – mu[rojaat va sizga],

2) shavkatli janob, ehtirom (bo'lsin). Yana janob, hukmdor (=Devashtich) shunday buyurdi: «farmondorga men (=Axufarn) ma'lum qilishim kerak bo'ladiki, [va ?]

3) Ikkita arqon u tayyorlaydi, yana arqon, qaysiki (?) men jo'nataman, hamda osqichlar (?)ni, yana arqonlarni va beshta...[...o'shalarni men jo'nataman.

@tarixchi_kutubxonasiga

4) Va farmondor Kularkin (Kul-erkin)[1]ni yuborsin (dedi). Siz esa don olasiz hamda qalqonlarni men jo'nata[man]»

5) (Ammo, afsuski) bu buyruq bo'yicha hech narsa bajarilmagan (aslida «bajarilishi mumkin emas») Va mana shu haqda men senga ma'lumot jo'natdim. Yana [ ]

6) ....keltirildi. Va hech qanday adolatsizlikka yo'l qo'yilmadi.

## YOQUT OLDI-BERDISI TO'G'RISIDAGI HUJJAT

### V-9

**Orqa yuzasi:**

1) Bitta yoqut oldi -
2) oltingugurtda (?) toblangan (?), tayyorini
3) Kurtshish va birini – Turak
4) Va birini – otxona boshlig'i (axurpat)[2] va birini –
5) Aftarch, birini – Erak va
6) birini – Fratanch (oldi). Har bir
7) yoqut – (narxi) 80 draxmdan
8) hammasi – 480 draxm (baholanadi)

## V-15 (PARTAN HUKMDOR REVAXSHYONDAN VURZVAD[3] HUKMDORIGA MUROJAATNOMA)

Och kulrang xitoy qog'ozi, 24-25,5×9,5 sm hajmli. 10 qator. O'ng chekkasi yirtilgan, matnning 1,4–5 va 9-qatori zararlangan. Mazmuni: «(???) hokimiga» «uning xizmatidagi Partan hokimi Revaxshyon»dan murojaat.

---

[1] Hujjatda *kwδ'rk'ynw* (Kül-Erkin). *Kul-erkin* – Turk xoqonligida «bosh» ma'nosidagi «kul» epiteti (sifati) va «erkin» (qabila boshlig'i yoki kichik hukmdorlik boshqaruvchisi) unvonidan yasalib, saroyning bosh amaldorlaridan biriga nisbatan qo'llaniladigan yuqori darajali unvon. Hujjat noshirlari uni *kwδ'rtcynw* (Kudartchin) yoki *kwδ'rtrynw* (Kudartrin) shaklida o'qib, shaxs nomi sifatida turkiy asosda izohlashga urinishgan (SDGM, III:95). Biroq ular tomonidan bildirilgan talqinlar yetarlicha asoslanmagan bo'lib, ushbu so'zni Kul-erkin shaklida talqin qilish ma'qulroq (Babayarov G. Two additional Turkic title in Sogdian documents of Mugh Mountain // http://www.groups.yahoo.com/group/Sogdian-L (October, 2011)).

[2] *Axurpat* – «otxona boshlig'i» ma'nosini anglatadi. Mug' arxivining V-9 hujjatidagi sug'diycha *''ywyr* so'zi asl so'zning o'zagini tashkil etib «otxona» ma'nosini bildirgan (SDGM II:162.). So'zning o'zagidagi «oxur» so'zi ham o'zbek va tojik tillaridagi otga yemish beriladigan jihozni anglatadi. Shunday ekan, Sug'dda otxona boshlig'i unvoni bo'lib, bu unvon egasi saroy otxonasi boshqaruvchisi bo'lgan. Darvoqe, VII–VIII asrlarda Kesh (Shahrisabz)da zarb qilingan tangalarning ko'pgina shakllarida *kšy'n'k xwβ ''xwrp't* – «Kesh hukmdori Axurpat» jumlasi uchrasa, Xitoy yilnomalarida 727-yilda Xitoyga elchi yuborgan *Shi* (Kesh) hukmdori *Xubido* (sug'd. Axurpat) ismi qayd etiladi (Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. М., Наука, 1981. С. 426).

[3] *Vurzvad* – Yuqori Zarafshondagi hozirgi Varzi Minor qishlog'i (Ayniy tumanida) bo'lishi mumkin (Grenet F., de la Vaissiere E. The last days... P. 188).

@tarixchi_kutubxonaga

**Matn:**

(1) Janobi hukmdor, buyuk tayanchimiz Vurzvad hukmdoriga
(2) uning xizmatkori Partan hukmdori Revaxshyondan – murojaat
(3-4) va ko'plab ehtirom (bo'lsin). Va janobim, mana hozir menda mavjud bo'lgan o'sha tashvish (haqida), janob, men o'zim senga (avval ham) ma'lum qilgan edim.
(5) Men senga hukmdorimizga xizmat qilish bilan bog'liq qiyinchiliklar haqida murojaat qilgan edim,
(6) endi, janob, sening yordaming bilan men boshqacha yo'l tutmadim. Yana janobim, axir
(7) Xudodan bo'lak barcha umidim sendan. Va senga, janobim,
(8) men shuni senga ma'lum qilmoqdaman, chunki janob men qayg'udaman.
(9) Janob hukmdor, buyuk tayanchimiz Vurzvad hukmdoriga
(10) Uning xizmatkori Partan hokimi Revaxshyondan (noma).

## A-15 (HUKMDOR «YORDAMCHISIGA» MUROJAATNOMA)

Och kulrang, qalin xitoy qog'ozi, 7-8,5×17 sm «Hukmdor yordamchisi (naztag'riv)ga» – maktub parchasi. 14 qator, so'ngidan avvalgi qatorda bitta so'z bo'lganligi kuzatiladi. Boshqa Mug' hujjatlaridan farqli, kirish qismi faqat xat manzili tomonga murojaatdan iborat. Jo'natuvchining ismi ko'rsatilmagan.

**Matn:**

(1) Hukmdor «yordamchi»si (yoki Azatg'riv)ga[1] murojaat
(2) [va ko'plab ehtirom bo'lsin). Va agarda janob, (sen) shon-shavkatli
(3) holatda bo'lsang, (u holda) doimo hurmat bilan
(4) [....] ehtiyojimiz shunday
(5) [...xa)barni men jo'natyapman. Yana, janob
(6) [....] Yana, janob, agar 40000
(7) [draxm men jo'nat]sam, (ya'ni?) o'shandan ham
(8) [ ] (?) zaruriy narsalarsiz

[1] Asl matnda *n'ztyryw* («yordamchi») yoki *''ztyryw* (Azatg'riv). A-14 va A-15 raqamli hujjatlarda uchraydigan ushbu atamani dastlabki nashrlarida V.A. Livshis «yordamchi», «hukmdor yordamchisi» shaklida bergan bo'lib (SDGM, II:79, 83), keyinchalik Azatg'riv shaklida shaxs ismi o'laroq talqin qilishni ma'qul ko'rgan (Livshis, 2008:87, 191-193). Yuqorida (A-14 raqamli hujjat izohida) ham aytib o'tilganidek, ushbu atamaning A-14 dagi paleografik shakli va hujjat mazmuni Livshisning dastlabki talqini mazkur hujjat uchun to'g'ri ekanligidan darak beradi. Faqat A-15 da ushbu atamaning paleografiyasi A-14 dagidan farq qilib, Azatg'riv shaklidadir. Ya'ni har ikkala hujjatdagi shaxslarni bitta deb hisoblash munozaralidir.

@tarixchi_kutubxonasiga

(9) [....]bu yerdan kelgan xabar (shunaqa) bo'lgandi
(10) ....men [jo']nataman. Yana, janob, hozircha
(11) [ti]rik ekansan,
(12) [....] xun (turk)lar bilan birga (?)[1].
(13) Hukmdor yordamchisiga.

## A-17 (DEVASHTICHGA YOKI TOBE'LARIDAN BIRIGA MANZILI KO'RSATILMAGAN MAKTUB)

Och kulrang xitoy qog'ozi, 26×8 sm. Maktub bo'lagi – 6 qatorli matn va boshqa yakuniy shakl keltirilgan. Maktubning saqlanib qolgan qismi. Maktub egasi kimga yuborilayotganini aniqlash imkonini qoldirmagan.

Xat yetishi lozim bo'lgan kishi Panch hokimi Devashtichning o'zi yoki uning vassallaridan biri bo'lgan deb faraz qilish mumkin.

### Matn:

(x+1) Men Tangri shuhrati (va) qudrati va sening (shuhrating va qudrating) sharofati bilan yuksaklikka erishdim. Yana, janobim, men
(x+2) kuzda sening yoningda bo'lishni istar edim. Yana, janobim (x+3) sen baxtsizliklar haqida o'ylamasliging kerak, yaxshisi esa mening yonimga, shu yerga
(x+4, 5) kelgin («tushgin»), shu (yaqin) kunlar ichida biz hammamiz sen bilan birga bo'laylik. Agarda imkoni (bo'lmay qolib), bu yerga kelolmasang («tusholmasang»)
(x+6) unda janobim, bizga farmon yubor, biz sening yoningga boraylik.
(x+7) janobi hukmdor buyuk [tayanch...]

### NOV 5.

Teri, 12×21,5 sm hajmli, chekkalarida tikilgan izlar bor, ehtimol, charmdan tikilgan mesh (qop) parchasidan hujjat uchun foydalanilgan (qiyos: A-12, A-13 hujjatlari). Maktub parchasi. Matnning 9 qatori to'la saqlanib qolgan va yana 3 qatori uzuq-yuluq yetib kelgan. Maktubda hech qanday unvonlarsiz Devashtich nomi takrorlanadi, ammo maktub Devashtichga yo'llangan emas. Mug' hujjatlariga xos bo'lgan maktub. Yakunlash shakli ham yo'q. (q: A-9, R va V).

[1] 12-satrdagi jumlani V.A. Livshis asosiy matnda γw'ty pr'yw – «sen bilan birga» shaklida o'girishi barobarida izohda γwnty pr'yw – «(sharqiy) turklar bilan birga» (?) mazmunida talqin qilish mumkinligini ta'kidlab o'tgan (SDGM, II:165; Livshis, 2008:194).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn:**

(x+1)—
(x+2).... biz....
(x+3) Va janob, Devashtichga (?) javob yubor (?)....Devashtichni (x+4) men ko'rdim, .... Yana janob, Devashtich bilan birga.... Yana janob.
(x+5) shunday javob ber menga: qaysidir.... kohindan....
(x+6) va sendan sog'-salomat, ziyon-zahmatsiz va xafagarchiliksiz. Va janob, sen o'zing
(x+7) bilasan-ku, (sen) o'zing bayon qilgan o'sha xabarga hech kim (maktublarda) javob bermasin.
(x+8) Va u (?) menga shunday aytib turayotganida,
(x+9) men sening istaganingdan bo'lak biror narsa qilishga jur'at qilolmadim. Va janobim,
(x+10) qanday xohlasang, mayli, shunday (?) bo'la qolsin. Va janobim, mana shu haqda
(x+11) men (senga) xat yubordim. Senga quvonch bo'la oladigan xabar esa
(x+12) aynan biz uchun ham (quvonch bo'lg'usi)

**A-19**

**Matn:**

(x+1)....Va ushbu xun / turk(lar vakili)ni[1] xalq ko'rsin (x+2).... va (?) sening choparingga
(x+3) va janob, shundan so'ng men jo'nayman va yaxshisi (?)....»
2. Shu maktubning parchasi Abdulhamid Po'lodiyda saqlangan. 9,5×2,5 sm 3 qator, hamma tomonidan yirtilgan.
(x+1) ... Va kelgindi (?) va
(x+2) podsholik (yoki hokimiyat) shunday (bo'lsin)
(x+3) ... oldida ... zarur bo'ladi...»

**B-7**

**(Kshtut[2] hukmdori Vishtamga Martushkat[3] hokimidan xat)**

Tol yog'ochi, uzunasiga ikkiga bo'lingan. Uzunligi 32 sm, aylanasi 2 sm 7 qator xati bor. 4 qator bo'rtiq qismida, 3 qatori tekis tomonida.

---

[1] *'γwn/''n'k* – asl matnda shu shaklda uchraydigan ushbu so'zni ba'zi tadqiqotchilar boshqa hujjatlarda turklar yoki Turk xoqonligiga aloqador uchraydigan *γwn'nk* («xun, xunga oid») so'zi bilan tenglashtirishsa, ayrimlar uni «aybdor (yoki gunohkor)» ma'nosidagi sug'diy *g'wnak* so'zi bilan qiyoslashadi. Ba'zi tadqiqotchilarga ko'ra, Devashtich G'urak (710–738)ni o'ziga siyosiy muxolif deb hisoblagan, shu sababli uning nomi «gunohkor» laqabi vositasida berilgan (SDGM, II:79, 89, 171; Livshis, 2008:203).

[2] *Kshtut* – Panjikentning janubi-sharqida Mog'iyondaryo yaqinidagi Zarafshon daryosiga quyiluvchi irmoqlardan biri hozirda Kshtut deb ataladi.

[3] *Martushkat* – hozirgi Matchodagi qishloqlarning eng yiriklaridan biri bo'lmish Madrushkat nomida saqlangan (Lurje P.B. The element -kath/kand in the place names of Transoxiana // ST, 32, fascicule 2, 2003. P. 189). *Matcho* – Zarafshon daryosining eng yuqori havzasida joylashgan tog'li viloyat nomi.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn:**

(1) Janobi hukmdor Kshtut hokimi Vishtamga (uning) xizmatidagi bandasi Martushkat hokimidan noma

(2) va ko'plab ehtirom (bo'lsin). Va janob, (menda) parg'arliklar bilan (jazoga loyiq) janjal chiqdi. Janob, ular bu yerga yetib kelishdi («tushishdi»)

(3) Yana janob, na kunduzi, na kechasi ishlashni va farmonni (bajarishni) to'xtatmadilar. Ammo (keyin) ularning ko'pchiligi qochib

(4) ketishdi. Va janob, (senga) shunday murojaat etmoqdaman: qochib ketgan o'sha odamlar(ni) – sen ularni

(5) tutishni buyurgin, tokim ular sendan qo'rqishsin, janobim hukmdorning buyrug'iga

(6) bo'ysunishsin (quloq solishsin). Chunki janob, ularning (deyarli) hammasi qochib ketishdi va janob, bu yerda (hozir) bor-yo'g'i

(7) etti (7) dan ortiq odam qoldi. Parshtazdan (?) esa senga ko'plab salomlar (ehtirom) (bo'lsin)!

## B-16 (KRUT[1] QISHLOG'I HOKIMIGA UNING JIYANIDAN MAKTUB)

Tol tayog'i, ikkiga bo'lingan. Uzunligi 25 sm, aylanasi 3 sm 6 qatori bo'rtiq yuzasida, 4 qator matn esa tekis tomonida. Krut qishlog'i hokimiga uning jiyanidan[2] noma.

**Matn:**

(1) Janobi hukmdorimiz, buyuk tayanchimiz Irtiga (?) uning bandasi

(2) xizmatida bo'lmish jiyanidan murojaat va sizga, sharafli zotga ko'plab ehtiromlarim (bo'lsin). Va janob, shunday

(3) o'ylamaginki, mening baxtsiz (?) hayotimni nimadir yengillata oladi, yo men

(4) yoningda bo'lmaganimda, tirik ko'rina olaman. Balki sen o'zing

(5) (yonimga) kelarsan. Va janob, Nitkuchdan (?) kelgan xabarlarda buyruq keldi. Va ...dan .....

(6) ushbu javobga ular quloq solmadilar, bu

(7) fikrni esa ular o'sha baxtsizlarga uqtirdilar. Yana janobim, ularning o'zlari barcha (o'zining) odamlari (?) bilan birga

---

[1] *Krut* – Yuqori Zarafshonda, Panjikent va Matcho oralig'ida joylashgan hozirgi Krut qishlog'i. Tojikistondagi Ayniy tumaniga yaqin joylashgan ushbu aholi manzili Iskodar, Xshikat va Fatmev qishloqlari yaqinidadir.

[2] Matnda «xvarizatak» so'zi ishlatilgan, uning ma'nosi hozirgi tojikcha «xoharzoda», ya'ni singlisining o'g'li degan ma'noni bildiradi.

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) bu yerga kelishdi va janob, (keyin) ular pastga yo'l olishdi. O'sha odamlarni Anzav[1] qishlog'i yaqinida

(9) qoldiraman. Janob, o'zim esa yoningga boraman. Va janob, o'z odamlarimni men (yana)

(10) pastga (?) jo'nataman va janob, o'zim yoningga boraman (kelaman).

## B-17 (MUALLIFI VA MANZILI NOMA'LUM MAKTUB)

Tol tayog'i, ikkiga bo'lingan. Uzunligi 24 sm, aylanasi 2 sm 3 qatori bo'rtiq yuzasida, 3 qatori tekis tomonida.

Maktubning bir qismi bo'lib, ikki yog'ochga yozilgan (q. B-19 huj.). Manzilning ismi va yuboruvchining ismi qayd etilmagan. Matn yomon ahvolda saqlangan.

**Matn:**

(x+1) Va mening bundan biroz tobim bo'lmadi, bu haqda (avvalgi xatimda) yozgan edim. Va janob,

(x+2) (o'sha xatni) men pastga jo'natdim. Ammo men yolg'iz emas edim – mahkama boshlig'i,

(x+3) arspan yordamchisi va qishloq oqsoqoli o'sha yerda (men bilan) edilar. Yana janob,

(x+4).... jo'natildi (?).... Va o'sha odamlarni, avvalgi....

(x+5) Va janob, bu javob.... va qilinmadi.

(x+6) Va agar men..., (o'sha) xabarni yozsam.....

## NOV 6. (MOLIYAVIY HUJJAT)

Charm 12-10×18sm, 17 qator. Panjikent hukmdori Devashtich boshqaruvining 10-, 12- va 13-yillaridagi pul tushumi haqidagi qaydnoma shaklidagi hujjat. Hujjatda jami 6 marta pul tushumi qayd etilgan, umumiy qiymati 41 draxm. Bir tushum o'rtacha 4–8 draxm atrofidagi miqdorda. Pul kelib tushgan shaxslar yoki ismlari bilan yoki mansablari bilan zikr etilgan: «suvchi», «ariq boshlig'i» va h.k. Bu shaxslardan faqat Twp'yc (=Tupic yoki Toric) 6 qatorda qayd etiladi, bu ism boshqa Mug' xo'jalik hujjatlari (mas., Nov.1, R 26, 29-qator; V-2 6-qator)da ham uchraydi. 3-4-qatorda ko'rsatilgan birinchi tushum paytida don o'rniga pul olingan, ya'ni natura pulga almashtirilgan. Boshqa holatlarning barchasida esa tushum va kirim-chiqim xususiyatlari ko'rsatilmagan. A-5 hujjati kabi bu hujjatda ham qaydnoma muallifi va uning unvoni ko'rsatilmagan. Husnixati Nov. 1 xatiga o'xshash, ammo bu ikki hujjat bir shaxs tomonidan yozilgan deyishga asos yetarli emas.

[1] *Anzav* – Yuqori Zarafshonda, Zarafshon daryosiga quyiluvchi Yag'nob daryosi havzasidagi aholi manzili va dovon Anzob deb ataladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Nov-6 hujjati, ikki usulda yozilgan: 1–11-qatorlarida tushum haqida gap ketib, sanasi Devashtich hukmronligining 10–12-yillari belgilansa, 12–17-qatorlardagi tushumlar Devashtich hukmronligining 13-yili bilan sanalangan. Va bu qatorlar matnga keyinroq qo'shilgan. Satr orasidagi masofa 1–11-qatorlarga qaraganda kamroq.

**Matn:**

(1) Devashtich hukmronligining 10-
(2) yili, nisananch oyi, kuni go'sh –
(3) ro'ch. Va men Shiraysdan (va)
(4) Kavifarnchdan bug'doy o'rniga besh
(5) Draxm (pul) oldim. Vo'g'ich oyi, artuxro'ch kuni (edi)
(6) Va men To'pichdan
(7) to'rt draxm oldim. Hukmdor Devashtichning
(8) 12-yili (edi). Xurejanich oyi.
(9) Va men Fravatdan (?) sakkiz
(10) draxm oldim va mirob
(11) Axushyarchdan sakkiz draxm oldim.
(12) Hukmdor Devashtichning 13-yilidir,
(13) Xurejanich oyi rom-
(14) ro'ch kuni. Va qolgan pul o'shanda naqd bo'lgan
(15) va (yana) men sakkiz draxm pul oldim.
(16) Yana men ariq boshlig'i
(17) Axushyarchdan sakkiz draxm oldim.

**A-16**

Mazkur maktub 722-yilning 28-iyulida yozilgan deb taxmin qilinadi[1].

**Matn:**

(1) Sug'd podshosi, Samarqand
(2) hukmdori Devashtichdan farmondor
(3) Avatga. Sihat-salomatlik (va) ko'p ta'zimlar.
(4) Va ana, mening xatimni
(5) olganingda, u holda Xisu Eltabarga[2]
(6-7) kanizaklar ichadigan, xushbo'y may(sharob)dan berasan

[1] Grenet, Vaissiere, 2002:177

[2] *Xisu Eltabar* – To'xoristondagi Shuman va Axarun hukmdorliklarini turkiy sulola boshqargan bo'lib, Syuan Szan ularni turkiy *xisu* qabilasiga mansub, deb yozadiki (Гафуров Б.Г. Таджики... С. 227), sug'diy hujjatlarining bir nechasida *Lyttpyr, δyttpyr* (eltabar) yoki *G'isu Eltabar* unvonli amaldor haqida gap borgan bo'lib, ayrim sug'dshunos tadqiqotchilar (F. Grene va E. de la Vesier) ushbu ma'lumotni mazkur hududlar bilan bog'laydilar (*qar.* Grenet, Vaissiere, 2002:177). Biroq mazkur hukmdorliklar Panchdan ancha uzoqda joylashganligi va sug'diy hujjatlar mazmuni Eltabarning Panch hokimiyatiga aloqador shaxs bo'lganidan darak beradi.

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) va kechikish qilma. Va undan
(9) qolganini muhrla va uni shunday
(10) saqlab qo'y. Va ushbu xatni
(11) javob uchun tutib tur. Podshoh
(12) Devashtich (hukmronligi)ga ikki yil bo'lganida,
(13) xurejanich oyida, naxran-ro'ch kunida.
(14) Va muhrlandi bu xat
(15) podshoh Devashtich uchun va yozildi
(16) (bu) nusxa podshoh (Devashtich) buyrug'i bo'yicha.

**A-13**

**Matn:**

(1) Panjikent soliq yig'uvchisi va
(2) (Panjikent) xalqidan Tarxonga[1]. Va janob,
(3) ana (ushbu) xabarnoma
(4) olganingizda, u holda bering yettinchi
(5) sanadan Chakuga ko'prikdan (foydalanganligi) uchun yillik boj (yig'indisi)dan
(6) 150 dirham va ushbu
(7) xabarnomani tasdiqlovchi hujjat (sifatida) tuting
(8) Panch hukmdori Devashtich (hukmronligiga) 14
(9) yil, xurejanich oyi. Va
(10) muhrlandi loy muhr bilan va
[(11) yozdi ..... ..... buyrug'i bilan].

[1] *Tarxon* – qadimgi turkcha unvon. Turk xoqonligi davrida uchray boshlagan ushbu unvon nisbatan quyiroq vazifadagi amaldorlarning, xususan, harbiylarning unvoni bo'lib, ko'p hollarda ushbu unvon egalari elchilik vazifasini ham bajarishgan. Xoqonlik davrida Sug'dda *tarxon* unvoni ancha keng qo'llanilgan. Beruniy o'zining «Osor ul-boqiya» («O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar») asarida Samarqand hukmdorlarining unvonini *tarxon* unvoniga yaqin shaklda, «tarxun» tarzida qayd etadi (Abu Rayhon Beruniy. «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar». T., 1968. B. 129). L. Gumilyev fikricha, Firdavsiyning «Shohnoma» asarida Bijan tarxon shaklida uchraydigan shaxs Sug'ddagi turkiy hukmdorlardan biri bo'lgan (Гумилев Л.Н. Древние тюрки. М., 1967. С. 240). Yunon tarixchisi Menandr (VI asr) Istami xoqonning Vizantiyaga yuborgan elchilardan birining ismi sug'diy amaldor Maniaxning o'g'li Tag'ma Tarxon haqida yozadi (Moravcsik G. Byzantinoturcica. II, Berlin, 1958. R. 299). VII–VIII asrlarga mansub kumush idishga Samarqand sug'diy yozuvida bitilgan bitikda *try'n* (tarxon) atamasi uchraydi (Лившиц В.А., Луконин В.Г. Среднеперсидские и согдийские надписи на серебряных сосудах // ВДИ, № 3. М., 1964. С. 172). *Tarxon* unvonli amaldorlar Turk xoqonligi boshqaruvida, ayniqsa, uning vassallarida eng ko'p uchraydigan unvonligi bilan ajralib turadi. Xususan, Choch, Farg'ona, Panch, To'xariston (Balx, Termiz, Xuttal, Badg'is va h. k.) ba'zi amaldorlari xitoy, sug'diy, baqtriy va arab manbalarida *tarxon* unvoni bilan tilga olinishi ushbu unvonning tarqalish arealining qanchalik keng bo'lganini tasdiqlaydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

## QADIMGI TURKIY BITIKLAR

### Umumiy ma'lumot

Turkiy tildagi qadimgi yozma yodgorliklar ko'k turk (=turkiy run=o'rxun-yenisey), uyg'ur, moniy, brahma, sug'd, suryoniy, arab, lotin, arman yozuvlarida bitilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy-madaniy yuksalishi, davlatchilik tarixi, ijtimoiy-siyosiy kechmishlari, diniy qarashlari, ularning qo'shni sharq xalqlari bilan madaniy munosabatlari zaminida rivojlangan va shu bilan bog'liq holda yozuv madaniyatida o'zgarishlar yuz bergan. Ba'zi yozuvlar xalqning madaniy, ijtimoiy-siyosiy yuksalishi, davlat va jamiyat boshqaruvining taraqqiyoti oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, boshqa birlari ko'proq diniy ta'sirlar yoki qo'shni xalqlar bilan kechgan madaniy, iqtisodiy, savdo aloqalari natijasida qabul qilingan. Masalan, qadimgi turklar moniy, brahma, suryoniy yozuvlarini qo'shni xalqlar bilan kechgan diniy munosabatlar tufayli qabul qilganlar. Turkiy jamoalarda moniylik, buddizm, nasroniylikning yoyilishi ushbu yozuvlarning ham qabul qilinuviga sabab bo'lgan edi. Shuning uchun ham moniy yozuvini faqat turk-moniy jamoalari, brahma xatini buddistlar, suryoniy xatini esa nasroniylar qo'llagan. Uyg'ur xati esa butkul o'zga bir madaniy, iqtisodiy munosabatlar tufayli shakllandi; turkiy xalqlar uni sug'd yozuvi negizida yaratdi. Bu o'lkalarga islomning kirib kelishi bilan arab yozuviga o'tildi.

Qadimgi turkiy bitiklarni mazmuniga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin. Ular monumental matnlar, tarixiy, badiiy, diniy-falsafiy, ilmiy asarlar, rasmiy hujjatlar, kishilar o'rtasidagi yozishmalar, xo'jalik ishlariga tegishli qaydlar, magik yozuvlardan iborat. Qadimgi turkiy yozuvlarda yaratilgan va bizga qadar yetib kelgan barcha asarlarni bir to'plamga jamlashning imkoni yo'q.

Ushbu xrestomatiyaga turkiy yozma yodgorliklarning tarixiy ahamiyatga ega bo'lganlari orasidan saylab kiritilmoqda. To'plamga ko'k turk, uyg'ur va suryoniy yozuvdagi bitiklar kiritilgan bo'lib, tartibda yozuv turi, yodgorliklarning yaratilgan davri inobatga olindi. Asarlarni nashrga tayyorlashda yodgorliklarning qo'lyozmalari, ilmiy va faksimil nashrlariga asoslanildi. Nashrning ilmiyligini ta'minlash, mutaxassislarga,

@tarixchi_kutubxonasiga

birinchi galda, filologlar, tarixchi olimlar va talabalarga qulayligini ko'zda tutgan holda, matnlarning ilmiy transkripsiyasi ham berilgan. Ularning hozirgi o'zbekcha talqinida, imkon qadar, matnni so'zma-so'z o'girishga, asl matndan uzoqlashmaslikka harakat qilindi. Xrestomatiyaning xususiyatidan kelib chiqib, ayrim yirik asarlardan parchalar berildi, xolos.

Turkiy bitiklarning transkripsiyasi va hozirgi o'zbek tiliga tabdili filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqov tomonidan amalga oshirildi.

## KO'K TURK YOZUVIDAGI BITIKLAR

Turkiy xalqlarning eng eski yozuv yodgorliklari ko'k turk yozuvida bitilgan. Fanda bu yozuv «turkiy run», «o'rxun-yenisey» nomlari bilan ham mashhur.

Qadimgi turkiy bitiklarda Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliklari davrida (VI–VIII yuzyilliklar) yashagan turkiy xalqlar «ko'k turklar» deb atalgan. Ushbu atamadagi «ko'k» sifati «rang» (ko'k, zangori rang) emas, balki «ildiz, asl, tub»ni anglatadi. Bitiklardagi otidan kelib chiqib, hozirgi zamon turkshunosligida qadimgi turk davlatlarini «ko'k turk xoqonliklari», ular qo'llagan yozuvni «ko'k turk alifbosi» deb atalmoqda.

Ko'k turk yozuvidagi yodgorliklar topilgan o'rniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

(1) Mongoliyadan topilgan bitiklar;

(2) Sibirdan (Oltoy o'lkasi, Yenisey tevaragidan) topilgan bitiklar;

(3) O'rta Osiyo hududidan (Talas va Farg'ona vodiylaridan) topilgan bitiklar;

(4) Qozog'iston hududidan topilgan yodgorliklar;

(5) Shimoliy Kavkazdan topilgan bitiklar;

(6) Sharqiy Yevropadan (Dunay daryosi tevaragidan) topilgan bitiklar.

Bitiklar qabr toshlari, qoyalar, sopol va metall buyumlar, yog'och va qog'ozga bitilgan. Ular marhumlarning xotirasiga bag'ishlangan matnlar (tarixiy-badiiy asarlar), tashrifnomalar, rasmiy matnlar, diniy-falsafiy asarlar, xo'jalik ishlariga tegishli qaydlar, magik yozuvlardan iborat. Muhimi, ko'k turk yodgorliklarining katta bir qismi tarixiy asarlardir. Mazkur bitiklar bir paytning o'zida g'oyaviy-badiiy, janr xususiyatlari, yozuv uslubiga ko'ra, badiiy asarlar sifatida ham o'rganiladi. Ularda o'sha zamonlarda yashab o'tgan xoqon, cherigboshi, yirik amaldor, donishmandlarning kechmishi, qahramonligi, o'sha zamondagi tarixiy voqealar izchil, badiiy tilda bayon etilgan.

Quyida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bitiklardan keltiramiz.

@tarixchi_kutubxonasiga

## TO'NYUQUQ BITIGI

Yodgorlik Ikkinchi turk xoqonligi davrida yashab o'tgan davlat arbobi va sarkarda, faylasuf, adib va tarixchi To'nyuquq xotirasiga tiklangan. Bitik muallifi To'nyuquqning o'zidir. Bitikda uning oti *bilgä Toñuquq* deb qayd etilgan. Otiga qo'shilayotgan *bilgä* so'zi uning unvoni bo'lib, «bilimdon, alloma» degan ma'noni bildiradi. U ulug' donishmand, xoqon maslahatchisi bo'lgani uchun shunday unvonga erishgan.

Bitikning yozilgan sanasi aniq emas. Ba'zi olimlar u 712–716-yillar orasida yozilgan, ba'zilar 720, ayrimlar 725–726-yillarda bitilgan deya taxmin qiladilar. U Sertkaya matnda kechgan tarixiy voqealarni tahlil qilar ekan, bitik, taxminan, 732–734-yillar orasida yozilgan, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, To'nyuquq bu kezlar 85 yoshlarda bo'lgan (Sertkaya 1995,119–128).

Yodgorlik Mongoliyadagi Bain Sokto manzilidan topilgan. Hozir ham tiklangan joyida. U 62 satrli bo'lib, bir-biriga qaratib tiklangan ikki to'rt qirrali toshga yozilgan (*nashrlariga qarang:* Malov 1951; Orkun 1987,99–124; Abdurahmonov, Rustamov 1982,65–86; Amanjolov 2003,176–185; Sodiqov 2009, 289–300).

Quyida keltirilayotgan matn bitikning Orhun kitobida berilgan fotosi asosida tayyorlandi (Orhun. 47–56).

### Matn transkripsiyasi

1. Bilgä Toñuquq-bän. Özüm Tabğač äliŋä qïlïntïm. Türk bodun Tabğačqa körür ärti.

2. Türk bodun qanïn bulmayïn tabğačda adrïlti, qanlantï, qanïn qodup tabğačqa yana ičikdi. Täŋri anča tämis ärinč: Qan bärtim,

3. qanïŋïn qodup ičikdiŋ, ičikdük üčün täŋri öl tämis ärinč, türk bodun ölti, alqïntï, yoq bolti, türk sir bodun yärintä

4. bod qalmadï, ïda-tašda qalmïsï qobranïp, yäti yüz bolti: äki ülügi atlïğ ärti, bir ülügi yadağ ärti. Yäti yüz kišig

5. uduzuğma uluğï šad ärti. Yïğïl, tädi, yïğmasï bän ärtim – bilgä Toñuquq. Qağan-mu qïsayïn tädim, saqïntïm, turuq buqalï sämiz buqalï arqda

6. bilsär, sämiz buqa, turuq buqa täyin bilmäz ärmis, täyin anča saqïntïm. Anta kisrä täŋri bilig bärtük üčün, özüm-ök qağan qïsdïm. Bilgä Toñuquq boyla bağa tarqan

7. birlä Ältäris qağan bulayïn, bäriyä tabğačïğ, öŋrä qïtañïğ, yïraya oğuzuğ öküšäk ölürti. Bilgäsi, čabïsï bän-ök ärtim. Čuğay quzïn, Qara qumuğ olurur ärtimiz.

8. Käyik yäyü, tabïsğan yäyü olurur ärtimiz, bodun boğzï toq ärti. Yağïmïz tägrä učuq tägirti, biz šäg ärtimiz. Anča olurur ärk äli. Oğuzd(a) antan körüg kälti.

@tarixchi_kutubxonasiga

9. Körüg sabï antağ: Toquz oğuz bodun üzä qağan olurtï, tir, Tabğačğaru Qonï säŋünüg ïdmïs, Qïtañğaru Toŋra Sämig ïdmïs, sab anča ïdmïs: Azqïña türk bodun

10. yorïyor ärmis, qağanï alp ärmis, ayğučïsï bilgä ärmis. Ol äki kiši bar ärsär, säni tabğačïg ölürtäči tir-män, öŋrä qïtañïğ ölürtäči tir-män, bäni oğuzuğ

11. ölürtäči-ök tir-män. Tabğač, birdänäyin täg, qïtañ, öŋdänäyin täg, bän yïrdanayïn tägäyin. Türk sir bodun yärintä idi yorïmazun, usar, idi yoq qïsalïm

12. tir-män. Ol sabïğ äsidip, tün udïsïqïm kälmädi, küntüz olursïqïm kälmädi. Anta ötrü qağanïma ötüntim, anča ötüntim: Tabgač, oğuz, qïtañ, bu üčägü qabasar,

13. qaltači-biz, öz iči-tašïn tutmïs-täg-biz. Yuyqa ärklig topulğalï učuz ärmïs, yinčgä ärklig üzgäli učuz, yuyqa qalïn bolsar, topulğuluq alp ärmïs, yinčgä

14. yoğan bolsar, üzgülük alp ärmis. Öŋrä Qïtañda, biriyä Tabğačda, qurïya Qurdanta, yïraya Oğuzda äki üč biŋ sümüz, kältäči-miz bar-mu, nä? anča ötüntim.

15. Qağanïm bän özüm bilgä Toñuquq ötüntük ötünčümin äsidü bärti, köŋlüŋčä uduz, tädi. Kök üŋüg yoğaru Ötükän yïšğaru uduztïm, İnigäk kölükün Toğlada oğuz kälti.

16. Süsi üč biŋ ärmis, biz äki biŋ ärtimiz, sünüšdimiz, täŋri yarlïqadï, yañdïmïz, ögüzkä tüšdi. Yañduq yolta yämä ölti kük, anta ötrü oğuz qopun kälti.

17. Kältürtim-ök türk bodunuğ Ötükän yärkä bän özüm bilgä Toñuquq. Ötükän yärig qonmïs täyin äsidip biriyäki bodun, qurïyaqï, yïrayaqï, öŋräki bodun kälti.

18. äki biŋ ärtimiz biz, äki sü boltï. Türk bodun olurğalï, türk qağan olurğalï Šantuŋ balïqa, taluy ögüzkä tägmis yoq ärmis. Qağanïma ötünüp sü ältdim.

19. Šantuŋ balïqa, taluy ögüzkä tägürtim. Üč otuz balïq sïdï, usïn buntatu yurtda yatu qalïr ärti. Tabğač qağan yağïmïz ärti, on oq qağanï yağïmïz ärti,

20. artuq qïrqïz küčlüg qağan yağïmïz boltï. Ol üč qağan ögläšip Altun yïš üzä qabasalïm timis, anča ögläšmis, öŋrä türk qağanğaru sülälim, timis, aŋaru sülämäsär, qačan äŋirsär, ol bizni,

21. qağanï alp ärmis, ayğučïsï bilgä ärmis, qačan äŋirsär, ölürtäči kük. Üčägün qabsap, sülälim, anï yoq qïsalïm, tämis. Türgäs qağan anča tämis: Bäniŋ bodunum anta ärir, tämis,

22. Türk bodun yämä bulğanč-ol, tämis. Oğuzï yämä tarqanč-ol, tämis. Ol sabïn äsidip, tün yämä udusïqïm kälmäz ärti, (küntüz yämä) olursïqïm kälmäz ärti, anta saqïntïm a ...

@tarixchi_kutubxonasiga

23. ...a sülälim..., tädim. Kögmän yolï bir ärmis, tumïs täyin äsïdip, bu yolun yorïsar, yaramačï, tädim .... Yärči tilädim, čölgi az äri bultum.

24. Özüm, Az yirim ..., anï bil ... ärmis, bir turuqï ärmis, Anïn barmïs anar yatïp, bir atlïğ barmïs täyin ol yolun yorïsar, unč tädim, saqïntïm, qağanïma

25. ötüntim, sü yorïtdïm, atlat, tädim. Aq tärmäl käčä oğraqlatdïm, at üzä bintürä qarïğ sökdim, yoqaru at yätä yadağïn, ïğač tutunu ağturtim, öŋräki är

26. yoğaru tägürip, ï bar art ašdïmïz. Yobalu intimiz, on tünkä yantaqï tuğ birü bardïmïz. Yärči yär yaŋïlïp, boğuzlantï, buŋadïp, qağan yälü kör, tämis.

27. Anï subuğ baralïm. Ol sub qodï bardïmïz, sanağalï tüšürtimiz, aïğ ïqa bayur ärtimiz, kün yämä, tün yämä yälü bardïmïz. Qïrqïzïğ uqa basdïmïz,

28. sü äŋägin ačdïmïz. Qanï süsi tärilmis, süŋüšdimiz, sančdïmïz, qanïn ölürtimiz. Qağanqa qïrqïz bodunï ičikdi, yükünti, yantïmïz, Kögmän yïšïğ äbirü kältimiz.

29. Qïrqïzda yantïmïz. Türgäs qağanta körüg kälti, sabï an-täg: Öŋdän qağanğaru sü yorïlïm, tämis, yorïmasar, bizni, qağanï alp ärmis, aygučïsï bilgä ärmis, qačan äŋirsär,

30. bizni ölürtäči kük, tämis. Türgis qağanï tašïqmïs, tädi. On oq bodunï qalïsïz tašïqmïs, tär. Tabğač süsi bar ärmis. Ol sabïğ äsidip, qağanïm: Bän äbgärü tüšäyin, tädi.

31. Qatun yoq bolmïs ärti, anï yoğlatayïn, tädi. Sü barïŋ, tädi, Altun yïšda oluruŋ, tädi. Sü baši Inäl qağan, tarduš šad barzun, tädi. Bilgä Toñuquqa – bäŋä aydï:

32. Bu süg ält, tädi, aqï yanïğ könlüŋčä ay, bän säŋä nä ayayïn, tädi. Kälir ärsär, kü är ökülür, kälmäz ärsär, tïlïğ, sabïğ alï olur, tädi. Altun yïšda olurtïmïz.

33. Üč körüg kiši kälti, sabï bir: qaganï sü tašïqdï, on oq süsi qalïsïz tašïqdï, tär. Yarïs yazïda tärilälim, tämis. Ol sabïğ äsidip, qağanğaru ol sabïğ ït(t)ïm: Qantayïn sabïğ yana

34. kälti, oluruŋ, täyin tämis. Yälmä, qarğu ädgüti urğïl, basïtma, tämis. Bög(ü) qağan baŋaru anča ayïdmïs, apa tarqanğaru ičrä sab ïdmïs: Bilgä Toñuquq añïğ-ol, öz-ol aŋlar,

35. sü yorïlïm tädäči, unamaŋ. Ol sabïğ äsidip, sü yorïtdïm, Altun yïšïğ yolsuzun ašdïm, Ärtis ögüzüg käčigsizin käčdimiz, tün aqïtdïmïz. Bolučuqa taŋ öŋtürü tägdimiz.

36. Tïlïğ kälürti sabï antağ: Yarïs yazïda on tümän sü tärilti, tär. Ol sabïğ äsidip, bäglär qopun

37. yanalïm, aïğ obutï yig, tädi. Bän anča tärmän, bän bilgä Toñuquq: Altun yïšïğ aša kältimiz, Ärtis ögüzüg

38. käčä kältimiz, kälmiši alp tädi, tuymadï, täŋri Umay ïduq yär-sub basa bärti ärinč, näkä täzär-biz

@tarixchi_kutubxonasiga

39. öküš täyin, näkä qorqur-biz az täyin, nä basïnalïm, tägälim, tädim. Tägdimiz, yayïdïmïz, äkinti kün kälti,

40. örtčä qïzïp kälti, sünüšdimiz. Bizintä äki učï sïŋarča artuq ärti. Täŋri yarlïqaduq üčün öküš täyin, biz

41. qorqmadïmïz, sünüšdimiz. Tarduš šad ara badï. Yaydïmïz, qağarïn tutdïmïz, yabğusïn, šadïn

42. anta ölürti, äligčä är tutdïmïz, ol-oq tün bodunïn sayu ït(t)ïmïz. Ol sabïğ äsidip, on oq bäglärï, bodunï qop

43. kälti, yükünti, käligmä bäglärin, bodunïn itip, yïğïp az(č)a bodun täzmis ärti. On oq süsin sülädim,

44. biz yämä sülädimiz, anï irtimiz, Yinčü ögüzüg käčä Tïnsï oğlï yatïğma Bäŋligäk tağïğ …

45. Tämir qapïğqa tägi irtimiz, anta yanturtïmïz. Inäl qağanqa … täzik, toqrïsïn …

46. anta yärüki asuq bašlïğ soğdaq bodun qop kälti, ol küntä tägti. Türk bodun Tämir qapïğqa,

47. Tïnsï oğlï yatïğma tağqa tägmis, idi yoq ärmis. Ol yärkä bän bilgä Toñuquq tägürtük üčün

48. sarïğ altun, ürüŋ kümüs, qïz quduz, ägri täbi, ağï buŋsuz kälürti. Ältäris qağan bilgäsin üčün,

49. alpïn üčün Tabğačqa yäti yigirmi sünüšdi, Qïtañqa yäti sünüšdi, Oğuzqa bäs sünüšdi, anta ayğučï

50. yämä bän-ök ärtim, yağïčïsï yämä bän ärtim. Ältäris qağanqa …, türk Bögü qağanqa, türk Bilgä q[ağanqa]

51. Qapağan qağan … tün udïmatï,

52. küntüz olurmatï, qïzïl qanïm tükäti, qara tärim yügürti, isig küčüg bärtim-ök, bän özüm uzun yälmäg yämä ït(t)im-oq,

53. ar qoy, aq arğuğ ulğartdïm, basïnïğma yağïğ kälürür ärtim, qağanïmïn sü ältdimiz, täŋri yarlïqazu.

54. Bu türk bodunqa yaraqlïğ yağïğ kältürmädim, tögünlüg atïğ yügürtmädim. Ältäris qağan qazğanmasar,

55. udu bän özüm qazğanmasar, äl yämä, bodun yämä yoq ärtäči ärti, qazğantuqïn üčün, uduğuzum, qazğantuqum üčün

56. äl yämä äl boltï, bodun yämä bodun boltï. Özüm qarï boltïm, uluğ boltïm. Näŋ yärdäki qağanlïğ bodunqa

57. äbün tügi bar ärsär, nä buŋï bar ärtäči ärmis.

58. Türk Bilgä qağan äliŋä bititdim bän bilgä Toñuquq.

59. Ältäris qağan qazğanmasar, yoq ärti ärsär, bän özüm bilgä Toñuquq qazğanmasar, bän yoq ärtim ärsär,

60. Qapağan qağan türk sir bodun yärintä bod yämä, bodun yämä, kiši yämä idi yoq ärtäči ärti.

@tarixchi_kutubxonasiga

61. Ältäris qağan, bilgä Toñuquq qazğantuq učun, Qapağan qağan türk sir bodun yorïduqï bu

62. Türk Bilgä qağan türk sir bodunuğ, oğuz bodunuğ igidü olurtï.

**Mazmuni**

(1) (Men) bilga To'nyuquqman. O'zim Tabg'ach elida voyaga yetdim. (O'sha kezlar) turk xalqi Tabg'achga qaram edi.

(2) Turk xalqi xonini topolmay, (xo'p sarson bo'ldi. Avvaliga) Tabg'achdan ayrildi, o'z xoniga ega bo'ldi, (keyin yana) xonini qo'yib, Tabg'achga qayta qo'shildi. Tangri shunday degan, shekilli: «Xon berdim, (3) xoningni qo'yib, taslim bo'lding». Taslim bo'lgani uchun tangri «o'l» degan [ya'ni qarg'agan], shekilli, turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi, turk sir xalqi yerida (4) (hech bir) urug' qolmadi. To'qayda, tog'-u toshda qolgani to'planib, etti yuz kishi bo'ldi. Uning ikki bo'lagi otliq edi, bir bo'lagi yayov edi. Etti yuz kishini (5) hushyor qiladigan ulug'i shad edi. «Yig'il!» – dedi. Yig'uvchisi men edim – bilga To'nyuquq. Xoqonnimi qistayin dedim, (so'ng) o'ylab qoldim: «(Birov) turuq buqa bilan semiz buqani tezagidan (6) bilsa, (birov bu) semiz buqa, (bu) turuq buqa deya bilmas emish [ya'ni, semiz buqa bilan turuq buqani ajratolmas ekan]», – deb shunday o'yladim. O'shandan so'ng, Tangri bilim bergani uchun o'zim-oq xoqonni qistadim. Bilga To'nyuquq bo'yla bag'a tarqan (7) bilan Eltarish xoqon topishib [birgalashib], Janubda tabg'achni, Sharqda qitanni, Shimolda o'g'uzni ko'plab o'ldirdi. Bilimdoni, chabisi mening o'zim edim. Chug'ay quzini, Qoraqumni (egallab) turar edik. (8) Kiyik yeb, tovushqon yeb kun kechirar edik, xalqning bo'g'zi to'q edi. Dushmanimiz tegrada qanot yoydi, biz shay edik. Shunday yashar erk eli.

O'g'uzdan (sir bilish uchun jo'natilgan) ko'ruvchi (qaytib) keldi. (9) Ko'ruvchining xabari shunday: «To'quz o'g'uz xalqi ustidan (bir) xoqon taxtga o'tirdi, – der, Tabg'achga Qo'ni sangunni yuboribdi, Qitanga To'ngra Semni yuboribdi. (Ulardan) shunday xabar aytib yuboribdi: «Ozgina turk xalqi (10) yurgan emish, xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan. O'sha ikki kishi bor bo'lsa, seni – tabg'achni o'ldirajak, deyman, Shimolda qitanni o'ldirajak, derman, meni – o'g'uzni (11) ham o'ldiradi, deyman. Tabg'ach, sen o'ngdan hujum qil! Qitan, sen oldindan hujum qil! Men chapdan hujum qilay. Turk sir xalqi yerida ega yurmasin. Uddalansa, egasini yo'q qilaylik, (12) derman». O'sha xabarni eshitib, tun uyqum kelmadi, kunduz o'ltirgim kelmadi. Shundan keyin xoqonimga o'tindim. Shunday o'tindim: «Tabg'ach, o'g'uz, qitan – bu uchovi qamal qilsa, (13) (qurshovda) qolajakmiz, (xuddi) vujudning ich-u tashini tutgandek bo'lamiz. Yupqa narsa yengishga arzimas emish, ingichka narsa uzishga arzimas, ingichka qalin tortsa, yengadigan alp ermish, ingichka (14) yo'g'on tortsa, uzadigan alp emish. Sharqda qitandan, Janubda tabg'achdan, g'arbda qurdandan, Shimolda o'g'uzdan

@tarixni_kutubxonasiga

ikki-uch ming urush qilib keladigan qo'shinimiz bormidi, nima?» – shunday o'tindim. (15) Xoqonim men o'zim bilga To'nyuquqning o'tinmish o'tinchimni eshitib turdi, (keyin): «Ko'nglingga qarab ish tut», – dedi.

Ko'k o'ngni yuqorilab (lashkarni) O'tukan yishga soldim. Inigak ko'lini kechib To'g'ladan o'g'uz keldi. (16) Qo'shini uch ming ekan, biz ikki ming edik, urushdik. Tangri yorlaqadi, qochirdik, daryoga tushdi. Qochgan yo'lida yana o'ldi chog'i. Shundan so'ng o'g'uz butunlay (taslim bo'lib) keldi.

(17) Keltirdim ham turk xalqini O'tukan yerga men o'zim bilga To'nyuquq. O'tukan yerga qo'nibdi, deb eshitib, Janubdagi xalq, G'arbdagi, Shimoldagi, Sharqdagi xalq keldi.

(18) Ikki ming edik biz, ikki (to'da) cherik bo'ldi. Turk xalqi el bo'libdiki, turk xoqoni taxtga kelibdiki, Shantung shahriga, dengiz-u daryolarga [katta suvlarga] yetgani yo'q edi. Xoqonimga o'tinib, lashkar eltdim. (19) Shantung shahriga, dengiz-u daryolar [katta suvlar]gacha yetkazib bordim. Yigirma uch shahar mag'lub bo'ldi. Uyqusini buzib, yurtida yengilib qolar edi. Tabg'ach xoqon yovimiz edi, o'n o'q xoqoni yovimiz edi. (20) Qo'shilib, qirg'iz kuchli xoqon ham bizga yov bo'ldi. O'sha uch xoqon fikrlashib: «Altun yish uzra bostirib boraylik, – debdi, shunday fikrlashibdi. – Sharqqa – turk xoqoniga qo'shin tortaylik, – debdi. – Unga qo'shin tortilmasa, g'azablangan chog'da, u bizni (yengadi), (21) xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan, g'azablangudek bo'lsa, o'ldiradigan ko'rinadi. Uchovlab yopirilib, qo'shin tortaylik, uni yo'q qilaylik», – debdi. Turgash xoqon shunday debdi: «Mening xalqim u yerda, – debdi. (22) Turk xalqi ham sarosimadadir, – debdi. – O'g'uzi ham tarqoqdir», – debdi.

O'sha xabarini eshitib, tunlari uyqum kelmas edi, kunduzlari o'tirgim kelmas edi. Shunday o'yladim: «A ... (23) ... a qo'shin tortaylik ...», – dedim. Ko'gman yo'li bitta ekan, bekilgan [qor bosgan], deb eshitib: «Bu yo'ldan yursak, yaramaydi», – dedim. Yerchi [bu yerlarni biladigan kishi] so'radim. Cho'llik az kishini topdim. (24) «O'zim az, yerim ...», uni bil ... ekan, bir turarjoyi bor ekan. «Ani (daryosi) bilan borgan, o'sha yerda tunab, bir otlig' (yo'l) bosadi», – deganda: «O'sha yo'l bilan yurilsa, ma'qul», – dedim, shunday xayol qildim.

Xoqonimga (25) o'tindim, cherikni yo'lga soldim, «ot sol!» – dedim. Aq tarmalni kechib ildam yo'lladim, otga mindirib qorni kechdim. Yuqoriga otni yetaklab, yayov, yog'ochga tayanib (tepalikka) chiqardim. Oldindagi yerlar (26) yuqori ko'tarilib butalar bor tepalikdan oshdik. Qiynalib indik. O'n kecha deganda yondagi to'siqni aylanib o'tdik. Yerchi yo'lda yanglishib, bo'g'izlandi. Xafa bo'lib xoqon: «Yelib ko'r, – dedi. – (27) Ani suvidan boraylik».

O'sha suvning quyi tomoniga bordik, (qo'shinni) sanagali tushirdik, ot(lar)ni butalarga boylar edik. Kunu tun yelib bordik, qirqizni (g'aflat chog'ida) qo'qqisdan bosdik. (28) Lashkar jag'ini ochdik [hayoxuy soldik].

@tarixchi_kutubxonasiga

Xoni, lashkari terildi, jang qildik, sanchdik, xonini o'ldirdik. Xoqonga qirqiz xalqi taslim bo'ldi, yukundi. Qaytdik, Ko'gman yishni aylanib keldik.

(29) Qirqizdan qaytdik. Turgash xoqondan (sir bilish uchun jo'natilgan) ko'ruvchi (qaytib) keldi. (Keltirgan) xabari shunday: «Sharqdan xoqonga lashkar yo'llaylik, – debdi. – Yo'llanmasa, u bizni (yengadi), xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan, g'azablangudek bo'lsa, (30) bizni o'ldirajak ko'rinadi, – debdi. – Turgash xoqoni maydonga chiqibdi, – debdi. – Tabg'ach lashkari (ham) bor ekan».

O'sha xabarni eshitib, xoqonim: «Men uyga tushib chiqay, – dedi. (31) Xotun o'lgan edi. – Uning marosimini o'tkazay, – dedi. – Lashkar, boring! – dedi. – Altun yishda o'tiring, – dedi. – Lashkarboshi Inal xoqon, tardush shadi borsin», – dedi. Bilga To'nyuquqqa – menga aytdi: (32) «Bu lashkarni elt, – dedi. – Saxiylig-u qattiqqo'llikni ko'nglingga qarab qil, men senga nima ham derdim, – dedi. – (Yov) kelar bo'lsa, dovruqli erlarni yo'lla, kelmas ersa, gap-so'zini [sirini], xabarini olib tur», – dedi.

Altun yishda o'rnashdik. (33) Uch ko'ruvchi kishi keldi, so'zi bir: «Xoqoni qo'shin bilan maydonga chiqdi, o'n o'q qo'shini bekam-u ko'st maydonga chiqdi, – der. Yaris dashtida terilaylik», – debdi. O'sha xabarni eshitib, xoqonga o'sha xabarni aytib yubordim, «qanday qilay?» degan xabarni yetkazib, (javobini olib) qaytib (34) keldi. «Tek turing! – degan emish. – Yelma, pistirmani yaxshilab mustahkamla, (yovga) bostirib qo'yma», – debdi. Bo'gu xoqon menga shunday aytib yuboribdi, apatarxonga [bosh qo'mondonga] maxfiy xabar yuboribdi: «Bilga To'nyuquq (yov qarshisida) yovuz [o'jar, tap tortmas], o'zi-yoq anglaydi [o'z bilganini qiladi]. (35) Qo'shin tortaylik deganiga unamang». O'sha xabarni eshitib, lashkarni yo'lga soldim. Altun yishni yo'lsiz oshdim, Ertish (Irtish) daryosini kechiksiz kechdik, tun to'xtamadik. Bo'luchuga tong ottirib yetib bordik.

(36) Gap-so'zini [sirini] bilib keltirgan xabari shunday: «Yaris dashtida o'n tuman [yuz ming] lashkar terildi», – der. O'sha xabarni eshitib, beklar yoppasiga: (37) «Qaytaylik, halol (kishining) uyati yaxshi [or-nomusini saqlagani yaxshi]», – dedi. Men shunday derman, men bilga To'nyuquq: «Altun yishni oshib keldik, Ertish daryosini (38) kechib keldik. Kelgani alp, deganlar. (Yov bizni) tuymadi. Tangri Umay, muqaddas yer-suv bosib bergan, shekilli, nega tezarmiz (39) (yovni) ko'p deya, nega qo'rqarmiz, (o'zimizni) oz deya. Qani, bosaylik, hujum qilaylik», – dedim. Hujum qildik, tor-mor qildik.

Ikkinchi kun keldi, (40) yong'inday qizib keldi, urushdik. Biznikidan ikki qanoti yarimcha ortiq edi. Tangri yorlaqagani uchun ko'p deya, biz (41) qo'rqmadik, urushdik. Tardush shadi aralashdi. Tor-mor qildik, xoqonini tutdik, yabg'usini, shadini (42) o'sha yerda o'ldirildi. Elliktacha erni tutdik, o'sha kechadayoq (ularni) xoqoni tomon jo'natib yubordik. O'sha xabarni eshitib, o'n o'q beklari, xalqi yoppasiga (43) keldi, bosh egdi. Kelgan bekla-

@tarixchi_kutubxonasiga

rini, xalqini tartibga solib, yig'ib, ozgina xalq qochgan edi, o'n o'q lashkarini jangga yubordim. (44) Biz ham lashkar tortdik, uni quvdik, Yinchu o'guzni kechib Tinsi o'g'li yotadigan Bangligak tog'ni ... (45) Temir qopiqqacha quvib bordik, o'sha yerdan qaytardik.

Inal xoqonga ... arab, to'xrini ... (46) O'shanda boshiga yoriq dubulg'a kiygan so'g'daq xalqi yoppasiga keldi, o'sha kuni urush qildi. Turk xalqi Temir qopiqqa, (47) Tinsi o'g'li yotadigan toqqa yetdi, egasi yo'q ekan. O'sha yerga men – bilga To'nyuquq yetkazib borganim uchun (48) sariq oltin, oq kumush, kuchli qo'toslar, egri tuya, ipaklik hadsiz keltirdi.

Eltarish xoqon allomasi bilan bo'lgani uchun, (49) alpi bilan bo'lgani uchun Tabg'achga o'n yetti bor jang qildi, Qitanga yetti bor jang qildi, O'g'uzga besh bor jang qildi. O'shanda kengashchi (50) ham mening o'zim edim, urushuvchisi ham men edim. Eltarish xoqonga ..., turk Bo'gu xoqonga, turk Bilga xoqonga ... (51) Qapag'an xoqon ... tun uxlamadi, (52) kunduz o'tirmadi, qizil qonimni tugatib, qora terim yugurtib, mehnatimni, kuchimni berdim-ku, axir. Men o'zim uzoqlarga bosqinni ham uyushtirdim-ku, axir.

(53) Qo'ng'ir qo'y, oq otni ulg'aytirdim. Bosadigan yovni poymol qilg'uchi edim. Xoqonim bilan lashkar tortdik, Tangri yorlaqasin!

(54) Bu turk xalqiga yaroqli yovni keltirmadim, yalovli otini yugurtirmadim.

Eltarish xoqon zafar qozonmaganida, (55) uning bilan mening o'zim zafar qozonmaganimda, yurt ham, xalq ham yo'q bo'lar edi. (Xoqon) zafar qozongani uchun, mening hushyorligim, zafar qozonganim uchun, (56) el ham el bo'ldi, xalq ham xalq bo'ldi.

O'zim qaridim, ulg'aydim.

Har yerdagi xoqonli xalqqa (57) don-duni bor bo'lsa, nima g'ami bo'lardi?

(58) (Ushbu bitikni) turk Bilga xoqon elida yozdirdim men bilga To'nyuquq.

(59) Eltarish xoqon zafar qozonmaganida, yo'q bo'lganida, men o'zim bilga To'nyuquq zafar qozonmaganimda, men bo'lmaganimda, (60) Qapag'an xoqon turk sir xalqi yerida bo'y ham, xalq ham, kishi ham ega bo'lmas edi. (61) Eltarish xoqon, bilga To'nyuquq zafar qozongani uchun Qapag'an xoqon turk sir xalqi yurgan bu ...

(62) Turk Bilga xoqon turk sir xalqini, o'g'uz xalqini boshqarib turibdi.

## KULTEGIN BITIGI

Kultegin (yoki Ko'ltegin) Ikkinchi ko'k turk xoqonlig'ining asoschisi Eltarish xoqonning kichik o'g'lidir. U 731-yili 47 yoshida vafot etgan. Yodgorlik esa uning og'asi Bilga xoqon tomonidan 732-yili tiklangan. Lekin matn muallifi xoqonning o'g'li Yo'llug'tegindir.

@tarixiy_kutubxonasiga

Yodgorlik Mongoliyaning Kosho-Saydam vodiysida Ko'kshin o'rxun daryosining qirg'og'idan topilgan. Hozir ham o'sha tiklangan joyida turibdi. Yozuv marmartoshning to'rttala tarafi va taroshlangan qirralarida. Yodgorlikdagi asosiy matn turkiy tilda. Ters yuzida xitoycha matni ham bor. Turkiysi ko'k turk (o'rxun-yenisey) xatida yozilgan (nashrlariga qarang: Malov 1951; Abdurahmonov, Rustamov 1982,86–121; Sodiqov 2004(1), 96–112; 2009, 300–318).

Quyida keltirilayotgan matn bitikning Orhun kitobida berilgan fotosi va ko'kturkcha harfterma nashri asosida tayyorlandi (Orhun.18–27,70–71).

**Matn transkripsiyasi**

Muqaddima

[Bilga xoqon so'zi]:

Ka

1. **Täŋri-täg täŋridä bulmuš türük Bilgä qağan bu ödkä olurtum.** Sabïmïn tükäti äsidgil: ulayu in[i] yägünüm, oğlanïm, biriki, oğušum, bodunum, biryä šadapït bäglär, yïrya tarqat, buyruq bäglär, otuz ... 2. toquz oğuz bägläri, bodunï, bu sabïmïn ädgüti äsid, qatïğdï tiŋlä.

İlgärü kün toğsuqa, birgärü kün ortusïŋaru, qurïğaru kün batsïqïŋa, yïrğaru tün ortüsïŋaru, anta ičräki bodun qo[p] m[äŋ]ä kör[ür...]n bunča bo[dunuğ] 3. qop itdim. Ol amtï añïğ yoq. Türük qağan Ötükän yïš olursar ältä buŋ yoq.

İlgärü Šantuŋ yazïqa tägi sülädim, taluyqa kičig tägmädim. Birgärü Toquz ärsänkä tägi sülädim, Tüpütkä kičig [täg]mädim. Qurïğaru Yinčü ög[üz] 4. käčä Tämir qapïğqa tägi sülädim. Yirğaru Yär Bayïrqu yäriŋä tägi sülädim, bunča yärkä tägi yoritdim. Ötükän yïšda yig idi yoq ärmis, äl tutsuq yär Ötükän yïš ärmiš. Bu yärdä olurup tabğač bodun birlä 5. tüzültüm.

Altun, kümüš, isigti, qutay buŋsuz anča birür. Tabğač bodun sabï süčig, ağïsï yïmšaq ärmis. Süčig sabïn, yïmšaq ağïn arïp, ïraq bodunuğ anča yağutïr ärmis. Yağru qontuqda kisrä añïğ bilig anta üyür ärmis. 6. Ädgü bilgä kisig, ädgü alp kisig yoritmaz ärmis. Bir kisi yaŋïlsar, oğuši, bodunï, äbi äsükiŋä tägi qïdmaz ärmiš. Süčig sabïŋa, yïmšaq ağïsïŋa arturup öküš türük bodun öltüg. Türük bodun üläsikiŋ, biryä Čuğay yïš Tög ältün 7. yazï qonayïn tisär, türük bodun üläsikig anta añïğ kisi anča bošğurur ärmis: ïraq ärsär, yablaq ağï birür, yağuq ärsär, ädgü ağï birür tip anča bošğurur ärmis. Bilig bilmäz kisi ol sabïğ alïp, yağru barïp, öküš kiši öltüg. 8. Ol yärgärü olursar, türük bodun, öltäči-sän. Ötükän yär olurup arqïš tirkiš ïsar, näŋ buŋuğ yoq. Ötükän yïš olursar, bäŋgü äl tuta olurtači-sän, türük bodun, toq, arïqaq-sän, ačsaq, tosaq ömäz-sän. Bir tudsar, ačsaq ömäz-sän. Antağïŋïn 9. üčün igidmiš qağaniŋïn sabïn almatïn yär sayu bardïğ. Qop anta alqïntïğ, arïltïğ. Anta qalmïšï yär sayu qop turu ölü yorïyur ärtig.

@tarixchi_kutubxonasiga

Täŋri yarlïqaduqïn üčü[n ö]züm qutum bar üčün qağan olurtum. Qağan olurup, 10. yoq, čïğañ bodunuğ qop qoburtdïm. Čïğañ bodunuğ bay qïltïm, az bodunuğ öküš qïltïm. Azu bu sabïmda igid barğu?

**Türük bäglär, bodun, bunï äsidiŋ!** Türük [bodunuğ ti]rip äl tutsuqïŋïn bunta urtum, yaŋïlïp üläsikiŋin yämä 11. bunta urtum. Näŋ näŋ sabïm ärsär, bäŋgü tašqa urtum. Aŋar körü biliŋ, türük amtï bodun, bäglär, äb ödkä körügmä bäglär, gü yaŋïltačïsïz.

**Ilova**

[Yo'llug' tegin so'zi]:

Män b[äŋü taš..... tabğa]č qağanta bädizči kälürtim, bädzätim. Mäniŋ sabïmïn sïmadï. (12) Tabğač qağanïŋ ičräki bädizčig ïtï, aŋar m....š baraq yaraturtïm, i[č]i tašïn adïnčïğ bädiz urturtum, taš toqïtdïm, köŋültäki sabïmïn ol.....a tatïŋa tägi bunï körü biliŋ. Bäŋü taš (13) toqïtdïm. Y.....q ärsär matqa ärig yärtä ärsär, anča ärig yärtä bäŋü taš toqïtdïm, bitidim. Anï körüp anča biliŋ, ol taš.....dïm.

Bu bitig bitigmä atïsï Yol(l)uğ t[igin].

K.I

Kül tiginiŋ altunïn kümüšin ağïsïn barïmïn tür ..... qarasïn yïğma toyğï bu.... bägim tägin yökärü täŋ..... taš bitidim Yolluğ tigin.

**Asosiy qism**

[Bilga xoqon so'zi]:

K

1. Üzä kök täŋri, asra yağïz yär qïlïntuqda ikin ara kisi oğlï qïlïnmïš. Kisi oğlïnta üzä äčüm apam Bumïn qağan, İstämi qağan olurmïš. Olurupan türük bodunuŋ älin tör[ü]sin tuta birmis, iti birmis. 2. Tört buluŋ qop yağï ärmis, sü süläpän tört buluŋdaqï bodunuğ qop almïš, qop baz qïlmïš, bašlïğïğ yüküntürmis, tizligig sökürmis. İlgärü Qadïrqan yïšqa tägi, kirü Tämir qapïğqa tägi qonturmïš. Äkin ar[a] 3. idi oqsuz kök türük anča olurur ärmis. Bil(g)ä qağan ärmis, alp qağan ärmis, buyruqï yämä bilgä ärmis ärinč, alp ärmis ärinč, bägläri yämä, bodunï yämä tüz ärmis. Anï üčün älig anča tutmïš ärinč. Älig tutup törüg itmis. Özi anča 4. kärgäk bolmïš. Yoğči, siğïtči öŋrä kün toğsïqda Bökli čölgil, tabğač, tüpüt, apar, purum, qïrqïz, üč quriqan, otuz tatar, qïtañ, tatabï – bunča bodun kälipän siğtamïš, yoğlamïš. Antağ külüg qağan ärmis. Anta kisrä inisi qağan 5. bolmïš ärinč, oğlï atï qağan bolmïš ärinč. Anta kisrä inisi äčisin-täg qïlïnmaduq ärinč, oğlï qaŋïntäg qïlïnmaduq ärinč, biligsiz qağan olurmïš ärinč, yablaq qağan olurmïš

@tarixni_kutubxonasiga

ärinč, buyruqï yämä biligsiz ärinč, yablaq ärmis ärinč. 6. Bägläri bodunï tüzsüz üčün, tabğač bodun täbligin, kürlüg üčün, armaqčisïn üčün, inïli äčili kiksürütükin üčün bägli bodunlïğ yoŋašurtuqïn üčün türük bodun älädük älin ïč[ğ]ïnu ïdmïs. 7. Qağanladuq qağanïn yitürü üdmïs. Tabğač bodunqa bäglik urï oğlïn qul boltï, silik qïz oğlïn küŋ boltï. Türük bäglär türük atïn ïtï tabğačğï bäglär tabğač atïn tutïpan tabğač qağanq[a] körmis. Älig yïl isig, küčüg birmis. İlgärü kün toğsïqda Bökli qağanqa tägi süläyü birmis. Qurïğaru Tämir qapïğqa tägi süläyü birmis. Tabğač qağanqa älin törüsin alï birmis. Türük qara qamuğ 9. bodun anča timis: Ällig bodun ärtim, älim amtï qanï? Kimkä älig qazğanur-män? – tir ärmis. – Qağanlïğ bodun ärtim, qağanïm qanï? Nä qağanqa isig, küčüg birür-män? – tir ärmis. Anča tip tabğač qağanqa yağï bolmïs. 10. Yağï bolup itinü, yaratunu umaduq yana ičikmis. Bunča isig, küčüg birtükgärü saqïnmatï «türük bodun ölüräyin, uruğsïratayïn» tir ärmis, yoqadu barïr ärmis.

Üzä türük täŋrisi, türük ïduq yäri, 11. subï anča tämis: «Türük bodun yoq bolmazun» tiyin, «bodun bolčun» tiyin qaŋïm Ältäris qağanïğ, ögüm İlbilgä qatunuğ täŋri töpüsintä tutup yögärü kötürmis ärinč.

Qaŋïm qağan yäti yig[ir]mi ärin tašïqmïs. T[ašr]a 12. yorïyur tiyin kü äsidip balïqdaqï tašïqmïs, tağdaqï inmis. Tirilip yätmis är bolmïs. Täŋri küč birtük üčün qaŋïm qağan süsi böri-täg ärmis, yağïsï qoñ-täg ärmis. İlgärü, qurïğaru süläp ti[r]mis, qoburt[mïs]. [Qa]muğï 13. yäti yüz är bolmïs. Yäti yüz är bolup älsirämis, qağansïramïs bodunuğ, küŋädmis, quladmïs bodunuğ, türük törüsün ïčğïnmïs bodunuğ äčim apam törüsinčä yaratmïs, bošğurmïs. Tölis, tarduš .... 14. Yabğuğ, šadïğ anta birmis. Biriyä tabğač bodun yağï ärmis, yïraya baz qağan, toquz oğuz bodun yağï ärmis. Qïrqïz, qurïqan, otuz tatar, qïtañ, tatabï qop yağï ärmis. Qaŋïm qağan bunč[a] ..... 15. qïrq artuqï yäti yolï sülämis, yigirmi süŋüs süŋüsmis. Täŋri yarlïqaduq üčün älligig älsirätmis, qağanlïğïğ qağansïratmïs, yağïğ baz qïlmïs, tizligig sökürmis, bašlïğïğ yüküntür..... 16. törüg qazğanïp uča barmïs. Qaŋïm qağanqa bašlayu baz qağanïğ balbal tikmis.

Ol törüdä üzä äčim qağan olurtï. Äčim qağan olurupan türük bodunuğ yičä itdi, igit(t)i, čïğañïğ.... 17. Äčim qağan olurtuqda özüm tarduš bodun üzä šad ärtim. Äčim qağan birlä ilgärü Yašïl ögüz, Šantuŋ yazïqa tägi sülädimiz, qurïğaru Tämir qapïğqa tägi sülädimiz. Kögmän aša qï.... 18. Qamuğï biš otuz sülädimiz, üč yigirmi süŋüšdimiz. Älligig älsirätdimiz, qağanlïğïğ qağansïratdïmïz, tizligig sökürtimiz, bašlïğïğ yüküntürtimiz. Türgäs qağan türükümiz, .... 19. üčün biziŋä yaŋluqïn üčün qağanï ölti, buyruqï, bägläri yämä ölti. On oq bodun ämgäk körti, äčümiz, apamïz tutmïs yär sub idisiz bolmazun tiyin az bodunuğ itip yar..... 20. bars bäg ärti, qağan at bunta biz

@tarixni_kutubxonasiga

birtimiz. Siŋlim qunčuyuğ birtimiz. Özi yaŋïltï, qağanï ölti, bodunï küŋ qul boltï. Kögmän yär sub idisiz qalmazun tiyin az qïrqïz bodunuğ yarat..... 21. yana birtimiz. İlgärü Qadïrqan yïšïğ aša bodunuğ anča qonturtïmïz, anča itdimiz. Quriğaru Käŋü Tarmanqa tägi türük bodunuğ anča qonturtïmïz, anča [i]tdimiz. Ol ödkä qul qulluğ bolmïs ..... 22 Anča qazğanmïs, itmïš älimiz, törümiz ärti.

**Türük oğuz bägläri, bodun, äsidiŋ!** Üzä täŋri basmasar, asra yär tilinmäsär, türük bodun, äliŋin törüŋin kim artatï?..... 23. ökün, körgüŋin üčün, igidmis bilgä qağanïŋïn ärmis, barmïs, ädgü äliŋ[ä] käntü yaŋïltïğ, yablaq kigürtig. Yaraqlïğ qantan kälip yaña ältdi, süŋüglüg qantan kälipän sürä ältdi? İduq Ötükän yï..... 24. bardïg, quriğaru bariğma bardïğ. Barduq yärdä ädgüg ol ärinč: qanïŋ subča yügürti, söŋükün tağča yatdï, bäglig uri oğluŋ qul boltï, silig qïz oğluŋ küŋ boltï bilmädük üčün..... 25. Bašlayu qïrqïz qağanïğ balbal tikdim.

Türük bodunuğ atï, küsi yoq bolmazun tiyin qaŋïm qağanïğ, ögüm qatunuğ kötürmiš täŋri, äl birigmä täŋri türük bodun atï, küsi yoq bo..... 26. qağan olurtdï ärinč. Näŋ yïlsïğ bodunqa olurmadïm, ičrä ašsïz, tašra tonsuz, yabïz yablaq bodunta üzä olurtum. İnim Kül tigin birlä sözläšdimiz. Qaŋïmïz äčimiz qaz..... 27. tiyin türük bodun üčün tün udïmadïm, küntüz olurmadï[m]. İnim Kül tigin birlä, iki šad birlä ölü yitü qazğantïm. Anča qazğanïp biriki bodunuğ ot sub qïlmadïm. Män..... 28. barmïš bodun ölü yitü yadağïn, yalaŋïn yana kälti. Bodunuğ igidäyin tiyin yïrğaru oğuz bodun tapa, ilgärü qïtañ, tatabï bodun tapa, birgärü Tabğač tapa uluğ sü iki yigir.... 29. kisrä täŋri yarlïqazu, qutum bar üčün, ülügüm bar üčün öltäči bodunuğ tirgürü igit(t)im. Yalaŋ bodunuğ tonluğ, čïğañ bodunuğ bay qïltïm, az bodunuğ öküš qïltïm. Ïğar älligdä, q..... 30. bodunuğ qop baz qïltïm, yağïsïz q.....m qop mäŋä körti. Isig küčüg birür bunča törüg qazğanïp inim Kül tigin özi anča kärgäk boltï.

Qaŋïm qağan učduqda inim Kül tigin yit..... (31) Umay-täg ögüm qatun qutïŋa inim Kül tigin är at bultï. Altï yigirmi yašïŋa äčim qağan ilin törüsin anča qazğantï. Altï čub soğdaq tapa sülädimiz, buzdïmïz. Tabğač Oŋ tutuq bis t..... (32) Kül tigin yadağïn oplayu tägdi. Oŋ tutuq yorčïn yaraqlïğ äligin tutdï, yaraqlïğdï qağanqa ančuladï. Ol süg anta yoqqïšdïmïz. Bir otuz yašïŋa Čača Süŋä süŋüšdimiz. Äŋ älki Tadqas(?) Čoriŋ boz ... (33) ölti. Äkinti Ïšbara Yamtar boz atïğ binip tägdi. Ol at anta ölti. Üčünč Yägänsil bägiŋ kädimlig toriğ at binip tägdi. Ol at anta ölti. Yaraqïnta yalmasïnta yüz artuq oqun urtï, yi[ni]ŋä bašïŋa bir t... (34) tägdükin, türük bäglär, qop bilirsiz. Ol süg anta yoqqïšdïmïz. Anta kisrä Yär Bayïrqu Uluğ Irkin yağï boltï. Anï yañïp Türgi Yarğun költä buzdïmïz. Uluğ Irkin azqïña ärin täzip bardï. Kül tigin ..... (35) .....ŋa qïrqïz tapa sülädimiz. Süŋüg batïmï qariğ söküpän Kögmän yïšïğ toğa yoriip, qïrqïz bodunuğ uda basdïmïz. Qağanïn

@tarixchi_kutubxonasiga

birlä Suŋa yïšda süŋüšdimiz. Kül tigin Bayïrqun ..... (36) binip oplayu tägdi. Bir ärig ilin urtï, äki ärig udušuru sančdï, ol tägdüktä Bayïrqunuŋ aq adğïrïğ udluqïn sïyu urtï. Qïrqïz qağanïn ölürtimiz, ilin altïmïz. Ol yïlqa türgäs .... (37) toğa Ärtis ögüzüg käčä yorïdïmïz. Türgäs bodunuğ uda basdïmïz. Türgäs qağan süsi Bolučuda otča borča kälti, süŋüšdimiz. Kül tigin Bašğu boz at binip tägdi. Bašğu boz k..... (38) tutuzt[ï]. Äkisin özi altïzdï. Anta yana kirip türgäs qağan buyruqï, az tutuquğ äligin tutdï. Qağanïn anta ölürtimiz, ilin altïmïz. Qara türgäs bodun qop ičikdi. Ol bodunuğ Tabarda qo..... (39) Soğdaq bodun itäyin tiyin Yinčü ögüzüg käčä Tämir qapïğqa tägi sülädimiz. Anta kisrä qara türgäs bodun yağï bolmïš Käŋräs tapa bardï. Biziŋ sü atï toruq, azuqï yoq ärti. Yablaq kisi är.... (40) alp är qïzïŋa(?) tägmiš ärti. Antağ ödkä ökünüp Kül tiginig az ärin irtürü ït(t)ïmïz, uluğ süŋüš süŋüšmiš, alp Šalčï aq atïn binip tägmiš, qara türgäs bodunuğ anta ölürmiš, almïš, yana yorïp.....

Kb

(1).... birlä Qušu tutuq birlä süŋüšmiš, ärin qop ölürmis, äbin bar.... tägipän qop kälürti.

Kül tigin yiti otuz yašïŋa qarluq bodun ärür barur ärkäli yağï boltï. Tamğïduq bašda süŋüsdimiz. (2) [Kül] tigin ol süŋüšdä otuz yašayur ärti. Alp Šalčï aqïn binip oplayu tägdi, äki är[ig] udušuru sančdï. Qarl[uq]uğ ölürtimiz, altïmïz. Az bodun yağï [b]oltï. Qara költä süŋüšdimiz. Kül tigin bir qïrq yašayur ärti. Alp Šalčï aqïn (3) binip oplayu tägdi. Az Ältäbärig tutdï, az bodun anta yoq boltï. Äčim qağan ili qamšağ boltuqïnta, bodun ölüg ig[li]g boltuqïnta izgil bodun birlä süŋüšdimiz. Kül tigin Alp Šalčï aqïn binip ..... (4) [oplayu tägd]i. Ol at anta tüs..... İzgil [bodu]n öltï. Toquz oğuz bodun käntü bodunum ärti. Täŋri yir bulğaqïn üčün yağï boltï. Bir yïlqa biš yolï süŋüšdimiz. Äŋ ilik Toğu balïqda süŋüšdimiz. (5) Kül tigin Azman aqïğ binip oplayu tägdi. Altï ärig sančdï, sü [kiš]isintä yitinč ärig qïlïčladï. Äkinti, Qušlağaqda [ ]z birlä süŋüšdimiz. Kül tigin Az yağïzïn binip oplayu tägip, bir ärig sančdï, (6) toquz är[ig] ägirä toqïdï. [ ]z bodun anta ölti. Üčünč, Bol.....nda oğuz birlä süŋüšdimiz. Kül tigin Azman aqïğ binip tägdi, sančdï, süsin sančdïmïz, ilin altïmïz. Törtünč, Čuš bašïnta süŋüšdimiz. Türük (7) bodun adaq qamšatdï, yablaq bol[ta]čï ärti. Oz[a kä]lmis süsin Kül tigin ağïtïp toŋra bir oğuš alpağu on ärig Toŋa tigin yoğïnta [ägi]rip ölürtimiz. Bisinč, Äzgänti Qadanda oğuz birlä süŋüsdimiz. Kül tigin (8) Az yağïzïn binip tägdi, äki är[ig] sančdï, balïqa barmadï. Oğuz anta öl[ti] ..... qorğ[an qïšlap yazïŋa oğuzğaru sü tašïqdïmïz. Kül tigin bäg bašlayu aqïtïmïz, oğuz yağï orduğ basdï. Kül tigin (9) Ögsüz aqïn binip toquz ärin [sa]nčdï. Orduğ birmädi.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Xotima**

Ögüm qatun, ulayu öglärim, äkälärim, käliŋünüm, qunčuylarïm, bunča yama tirigi küŋ boltačï ärti, ölügi yurtda, yolta yatu qaltačï ärtigiz.

(10) Kül tigin yoq ärsär, qop öltäči ärtigiz. Inim Kül tigin kärgäk boltï, özüm saqïntïm: körür közüm körmäz-täg, bilir biligim bilmäz-täg boltï, özüm saqïntïm. Öd täŋri yasar, kisi oğlï qop ölügli tirimis. (11) Anča saqïntïm, közdä yaš kälsär, ät ïda(?), köŋültä sïgït kälsär, yanturu saqïntïm, qatïğdï saqïntïm, äki šad ulayu arqa ägünüm, oğlanïm, bäglärim, bodunum közi, qašï yablaq boltačï tip saqïntïm.

Yoğčï, sïgïtčï, qïtañ, tatabï bodun bašlayu (12) Udar säŋün kälti. Tabğač qağanta Ïsyi Liki(?) kälti. Bir tümän ağï, altun, kümüš kärgäksiz kälürti. Tüpüt qağanta Bölün kälti. Qurya, kün batsïqdaqï soğd bärčälär(?), üč qaraq[11] ulus bodunta Näŋ säŋün, Oğul tarqan kälti. (13) On oq oğlum Türgäs qağanta Maqarač tamğačï, Oğuz Bilgä tamğačï kälti. Qïrqïz qağanta Tarduš Ïnančmur (Ïnanč-čor?) kälti, barq itgüči, bädiz yaratïğma, bitigtaš itgüči tabğač qağan čanqanï(?) Čaŋ säŋün kälti.

K.III

Kül tigin qoñ yïlqa yiti yigirmikä učdï. Toquzunč ay yiti otuzqa [yoğ ärtürtimiz. Barqïn bädizin] bitigtaš[ïn] bičin yïlqa yitinč ay yiti otuzqa qo[p al]qd[ïmï]z. Kül tigin ü..... qïrq artuq[ï y]iti yašïŋ boltat taš.... bunča bädiz äčig Tuyğun Ältäbär kälü(r)ti.

Ks[2]

(1) Ïnanču apa yarğan tarqan atïğ ..... (2) qurdanuğ örti. Inim Kül tigin ..... isig küčüg birtük üčün türük Bilgä qağan yirtä inim Kül tiginig küzädü olurt[um].

**Ilova**

[Yo'llug'tegin so'zi]:

K.II

Bunča bitig bitigmä Kül tigin atïsï Yolluğ tigin bitidim. Yigirmi kün olurup bu tašqa, bu tamqa qop Yolluğ tigin bitidim. Ïğar oğlanïŋïzda tayağunïŋïzda kägdä igidür ärtigiz, uča bardïğïz, täŋri tirigdägiči.

[1] Bu so'zni boshqa nashrlarda *Buqaraq* deb o'qiganlar.

[2] Toshning xitoycha yozuvli yog'idagi ushbu turkiy matn mazmuni bitikning asosiy qismiga to'g'ri keladi. U Bilga xoqon tilidan so'zlanmoqda. U qayerda kelishi aniq bo'lmagani uchun shu o'rinda keltirildi.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Mazmuni**

Muqaddima

[B i l g a x o q o n s o' z i]:

Ka

(1) Ko'kday (ulug'vor) Tangridan (inoyat) topgan [ya'ni, Tangrining inoyatiga erishgan / Tangrining inoyati bilan] turk [ya'ni, bahodir] Bilga xoqon bu taxtga o'tirdim. So'zimni tugal eshitgil ketimdagi ini, jiyanim, o'g'lonim, ittifoq, urug'im, xalqim, o'ngdagi shadapit beklar, chapdagi tarxanlar, buyruq beklar, o'ttiz .....(2) to'qqiz o'g'uz beklari, xalqi, bu so'zlarimni yaxshilab eshit, diqqat bilan tingla.

Oldinga – kunchiqarga, o'ngga – janubga, orqaga – kunbotarga, chapga – shimolgacha bo'lgan oraliqdagi xalq butunlay menga qaraydi. Shuncha xalqni (3) shod etdim. U endi yovuz emas. Turk xoqoni O'tukan yishda tursa, elda tashvish yo'q.

Sharqqa – Shantung dashtiga qadar lashkar tortdim, dengizga biroz etmadim. Janubga – To'quz arsanga qadar lashkar tortdim, Tuputga bir oz etmadim. G'arbga – Yinchu o'guzni (4) kechib, Temir qopiqqa qadar qo'shin tortdim. Shimolga – Yer Bayirqu yerigacha qo'shin tortdim, shuncha yerga qadar yurish qildim. O'tukan yishda yaxshi hokim yo'q ekan. Elni tutg'uchi yer O'tukan yish ekan. Bu yerda o'tirib, tabg'ach xalqi bilan (5) murosa qildim.

Oltin, kumush, ichkilik, ipakni son-sanoqsiz berayotgan tabg'ach xalqi shirin so'zi, muloyimligi bilan avrab, yiroq xalqni shunday yaqinlashtirar ekan. Yaqin bo'lgandan so'ng yovuz bilimini u yerda ko'rsatar ekan. (6) Yaxshi, dono kishini, yaxshi, bahodir kishini tinch qo'ymas ekan. Biror kishi adashsa, urug'i, xalqi, uyi-yopinchig'igacha qo'ymas ekan. Shirin so'ziga, ko'ngilchanligiga aldanib, ko'p turk xalqi, o'lding. Turk xalqi, ayriming janubga Chug'ay yish, To'g altun (7) dashtiga manzil qilay desa, turk xalqining ayrimini u erda yovuz kishi: yiroq bo'lsa, yomon ipaklik berur, yaqin bo'lsa, yaxshi ipaklik berur, deya shunday pishiqlar ekan. Bilimsiz kishi u so'zni olib, [o'sha gapga inonib] yaqin borib, ko'p kishi o'lding. (8) U yerga borsang, turk xalqi, o'lajaksan. O'tukan yerda turib karvon yuborib tursa, hech bir tashvish yo'q. O'tukan yishda turilsa, mangu elni tutib turajaksan. Turk xalqi, to'kis ishonuvchisan. Sodda bilan ayyorni ajratmaysan. Bir tutoqsang, soddani ham ayamaysan. O'shandayliging (9) uchun (seni) ardoqlagan xoqoningning so'zini olmayin har yerga tarqab ketding. U yerda xo'p g'oyib bo'lding, badar ketding. O'shandan qolganing har yerda xo'p o'lib-tirilib yurar eding. Tangri yorlaqagani uchun, qobiliyatim, baxtim bor uchun xoqon bo'ldim. Xoqon bo'lib, (10) yo'q, qashshoq xalqni butunlay oyoqqa qo'ydim. Qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'paytirdim. Yoki bu so'zimda yolg'on bormi?

@tarixni_kutubxonasiga

Turk beklari, xalqi, buni eshiting! Turk xalqini to'plab davlat tutishingizni bunda [ya'ni toshda] yozdim. Adashib, ayrilganingni ham (11) bunda yozdim. Har qanday so'zim bo'lsa, mangu toshga yozdim. Unga qarab biling, turkning endigi xalqi, beklar. Uy-dunyoga(gina) qaraydigan beklar, butunlay gumrohsiz.

**Ilova**

[Y o' l l u g' t e g i n so'zi]:

Men mangutosh .... Tabg'ach xoqonidan naqqosh keltirdim, naqshlatdim. Mening so'zimni buzmadi. (12) Tabg'ach xoqoni saroy naqqoshini yubordi. Unga maxsus ziyoratgoh yarattirdim. Ichi-tashiga maxsus naqsh soldirdim, tosh o'rnattirdim. Ko'ngildagi so'zlarimni ul ..... [o'n o'q avlodi]ga, totgacha buni ko'rib, biling! Mangutosh (13) o'rnattirdim. Bu sayrgoh bo'lgach, maqbara sayrgoh yerda bo'lsa! Shunday sayrgoh yerda mangutosh o'rnatdim, (bitik) bitdim. Uni ko'rib, shunday deb biling: bu tosh .....dim.

Bu bitik bitilguchining jigari Yo'llug'tegin.

K.I

Kulteginning oltinini, kumushini, ipagini, borini tur[k xalqi] fuqarosini yiqqan to'ygi bu ..... begim tegin yuqori Tang[ri] ..... tosh bitdim Yo'llug'tegin.

**Asosiy qism**

[B i l g a x o q o n s o' z i]:

K

(1) Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda ikkisining orasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolalari ustidan ota-bobom Bumin xoqon, Istami xoqon bo'lib (taxtga) o'tirgan. (Taxtda) turib turk xalqining yurtini, hukumatini tutib turganlar, tartibga keltirganlar. (2) To'rt taraf butunlay yov ekan. Qo'shin tortib, to'rt tarafdagi xalqni butunlay olgan(lar), butunlay qaram qilgan(lar), boshi borni ta'zim qildirgan(lar), tizzasi borni cho'ktirgan(lar). Sharqqa – Qadirqan yishga qadar, g'arbga – Temir qopiqqacha manzil qildirgan(lar). Ikkisining orasida (3) xo'jayinsiz, tanobsiz [cheklanmagan yerga egalik qilib], ko'k turk shu tarzda yashar ekan. (Ular) dono xoqon ekan, alp xoqon ekan, vazirlari ham dono ekanligi uchun, botir ekanligi uchun, beklari ham, xalqi ham to'g'ri ekan. Shuning uchun davlatni shunday tutgan ekan. Davlatni tutib, rasm-rusumni ado etganlar. O'zi shunday [boshqarib] (4) vafot etgan. Azachi, yig'ichi(lar), sharqdan – kunchiqardan bo'kli cho'lgil, tabg'ach, tuput, apar, purum, qirqiz, uch quriqan, o'tuz tatar, qitan, tatabi – shuncha xalq kelib yig'lagan, aza tutgan. Shunday mashhur xoqon ekan. Shundan keyin inisi xoqon (5) bo'lgan ekan, o'g'li, jigari (?) xoqon bo'lgan ekan. Undan keyin inisi og'asiday ish tutmagan ekan,

@tarixchi_kutubxonasiga

o'g'li otasiday ish tutmagan ekan. (Taxtda) johil, badfe'l xoqon turganligi uchun vaziri ham kaltafahm, yovuz ekan. (6) Beklari, xalqi to'g'ri emasligi uchun, tabg'ach xalqi hiylakor, to'ymasligi uchun, firibgari bor uchun, ini va og'ani (bir-biriga) qayragani uchun, begi va xalqini bir-biriga chaqqani uchun turk xalqi ushlab turgan davlatini qo'ldan chiqarib yuborgan, (7) xoqonlik qilib turgan xoqonini yo'qotib yubordi. Tabg'ach xalqiga bek bo'ladigan o'g'il bolasi bilan qul bo'ldi, suluv qiz bolasi bilan cho'ri bo'ldi. Turk beklar turkcha otini qo'yib, tabg'achlik beklarning tabg'achcha otini qabul qilib, tabg'ach xoqonga (8) qaram bo'ldi. Ellik yil mehnatini, kuchini beribdi. Sharqqa – kun chiqarda Bo'kli xoqonigacha, G'arbga – Temir qopiqqa qadar lashkar tortib beribdi. Tabg'ach xoqoniga davlatini, hukumatini olib beribdi. Turk qora xalqi, bari (9) xalq shunday debdi: «Davlatli xalq edim, davlatim endi qani? Davlatni kimga egallab beryapman?» – der ekan. «Xoqonli xalq edim, xoqonim qani? Ne xoqonga mehnatimni, kuchimni beryapman?» – der ekan. Shunday deb tabg'ach xoqoniga yov bo'libdi. (10) Yov bo'lib, o'zini eplab va tiklab ololmay, yana taslim bo'libdi. Shuncha mehnatini, kuchini berganiga andisha qilmay (tabg'ach xoqoni) «turk xalqini o'ldirayin, urug'ini qirayin» der ekan. [Uni] yo'qotib borayotgan ekan.

Yuqorida turkning osmoni, turkning muqaddas yeri- (11) suvi shunday debdi: «Turk xalqi yo'q bo'lmasin» deya, «xalq bo'lsin» deya otam Eltarish xoqonni, onam Elbilga xotunni Tangri (o'z) martabasida tutib, yuqori ko'targan ekan.

Otam xoqon o'n yetti er bilan tashga chiqib ketgan. «Tashda (12) yuribdi» degan ovozani eshitib, shahardagi tashga chiqibdi, tog'dagi(si) inibdi. Terilib, yetmish er bo'libdi. Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning qo'shini bo'ridek ekan, dushmani qo'ydek ekan. Sharqqa, g'arbga qo'shin tortib, (odam) yig'ibdi, (oyoqqa) turg'azibdi. Hammasi (13) yetti yuz er bo'libdi. Yetti yuz er bo'lib, davlatini yo'qotgan, xoqonini yo'qotgan xalqni, cho'riga aylangan, qul bo'lgan xalqni, turk hukmronligini boy bergan xalqni ota-bobolarim yo'sunicha oyoqqa turg'azibdi, boshqaribdi. To'lis, tardush ..... (14) yabg'uni, shadni o'shanda tayinlabdi. Janubda tabg'ach xalqi yov ekan, shimolda baz xoqon, to'quz o'g'uz xalqi yov ekan. Qirqiz, quriqan, o'tuz tatar, qitan, tatabi butunlay yov ekan. Otam xoqon buncha ..... (15) qirq yetti yo'la qo'shin tortgan, yigirma marta jang qilgan. Tangri yorlaqagani uchun eli borni elidan ayirgan, xoqoni borni xoqonidan ayirgan, yovni qaram qilgan, tizzasi borni cho'ktirgan, boshi borni ta'zim qildir..... (16) hukmronlik qilib vafot etgan. Otam xoqon [qabri]ga birinchi bo'lib baz xoqonning balbali tikildi.

O'sha hukumat boshiga amakim xoqon bo'lib o'tirdi. Amakim xoqon o'tirib, xalqni yaxshilab oyoqqa turg'izdi, tarbiyaladi, qashshoqni ..... (17) Amakim xoqon bo'lib turganda o'zim tardush xalqi uza shad edim. Amakim xoqon bilan sharqqa Yashil o'guz, Shantung dashtiga qadar qo'shin tortdik, g'arbga Temir qopiqqa qadar qo'shin tortdik. Ko'gman osha qi.....

@tarixchi_kutubxonasiga

(18) Hammasi (bo'lib) yigirma besh (marta) cherig tortdik, o'n uch (marta) jang qildik. Eli borni elidan ayirdik, xoqonlini xoqonidan judo qildik, tizzasi borni cho'ktirdik, boshi borni yukuntirdik. Turgas xoqon turkimiz ..... (19) uchun, bizga (nisbatan) yanglishgani uchun xoqoni o'ldi, vaziri, beklari ham o'ldi. O'n o'q xalqi zahmat chekdi. Bobomiz, ajdodimiz boshqargan yer-suv egasiz bo'lmasin deb az xalqini tartibga solib yar..... (20) bars bek edi, xoqon unvonini bunda biz berdik. Singlim xoqonzodani berdik. O'zi yanglishdi, xoqoni o'ldi, xalqi cho'ri, qul bo'ldi. Ko'gman yer-suvi egasiz qolmasin deya az, qirqiz xalqini tikla[b] ..... (21) qaytib berdik. Sharqqa Qadirqan yishni osha xalqni shunday qo'ndirdik, shunday tartibga keltirdik. G'arbga Kangu Tarmanga qadar turk xalqini shu holda qo'ndirdik, shu xilda tartibga keltirdik. U chog'da qul qulli bo'lgan, ..... (22) Shunday qozonilgan, tiklangan elimiz, hukumatimiz (bor) edi.

Turk o'g'uz beklari, xalqi, eshiting! Yuqoridan osmon bosmasa, pastda yer yorilmasa, turk xalqi, davlatingni, hukumatingni kim buzdi? ..... (23) O'kin, ko'rguliging uchun, tarbiya qilgan dono xoqoningni, yemirilgan, ketgan ezgu davlatingga. O'zing yanglishding, (oraga) yomonni kirgizding. Qurolli qaydan kelib tarqatib yubordi, nayzali qaydan kelib surib ketdi? Qutlug' O'tukan yish ..... (24) bording, g'arbga borolguncha bording. Borgan yerda ezgulik shu bo'lsa kerak: qoning suvday oqdi, suyaging tog'day (uyulib) yotdi, bek bo'ladigan o'g'il bolang qul bo'ldi, suluv qiz bolang joriya bo'ldi. (Buni) bilmagani uchun ..... (25) Boshlab qirqiz xoqonining balbalini tikdim.

Turk xalqining oti, dong'i yo'qolmasin deya otam xoqonni, onam xotunni ko'targan Tangri, el bergan Tangri turk xalqining oti, dovrug'i yo'q bo'..... (26) xoqon qilib o'rnatdi. Mol-mulkli xalqqa (xoqon) bo'lmadim. Ichi oshsiz, tashi to'nsiz, bechorahol xalq uzra (xoqon) bo'ldim. Inim Kultegin bilan so'zlashdik. Otamiz, amakimiz qoz[ongan] ..... (27) deya turk xalqi uchun tun uxlamadim, kunduz o'tirmadim. Inim Kultegin bilan, ikki shad bilan o'la—ita (zafar) qozondim. Shu xilda (zafar) qozonib, uyushgan xalqni o't-suv qilmadim. Men ..... (28) ketgan xalq o'la-yita yayov, yalang'och qaytib keldi. Xalqni tarbiyalayin deya shimolga o'g'uz xalqi tomon, sharqqa qitan, tatabi xalqi tomon, janubga tabg'ach tomon ulug' lashkar [bilan] o'n ikki .... (29) keyin, Tangri yorlaqasin, qutum bor uchun, nasibam bor uchun o'layotgan xalqni tiriltirib, oyoqqa qo'ydim. Yalang xalqni to'nli, qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'paytirdim. Panohtalab davlatlida, ..... (30) xalqni butunlay do'st qildim, yovsiz qildim (?), butunlay menga qaradi. Mehnatni, kuchni beruvchi shunday hokimiyatni qozonib, inim Kultegin (Yaratganning O'ziga) kerak bo'ldi [ya'ni, vafot etdi].

Otam xoqon o'lganda inim Kultegin et..... (31) Umaydek onam xotun baxtiga inim Kultegin er (degan) ot qozondi. O'n olti yoshida amakim xoqon davlatini, hokimiyatini shu xilda qozondi. Olti chub [viloyat] sug'dlari

@tarixchi_kutubxonasiga

tomon qo'shin tortdik, tor-mor qildik. Tabg'ach o'ng tutuq besh t..... (32) Kultegin yayov otilib hujum qildi. O'ng tutuq yo'lboshchisini yaroqli qo'li bilan tutdi, yaroqlangan holda xoqonga tortiq qildi. U cherikni o'shanda yo'q qildik. Yigirma bir yoshida Chacha Sunga urush qildik. Eng avval Tadqas cho'rning bo'z ..... (33) o'ldi. Ikkinchi (bor) Ishbara Yamtar bo'z otini minib hujum qildi. U ot o'shanda o'ldi. Uchinchi (bor) Yagansil bekning yasatilgan to'riq otini minib hujum qildi. U ot o'shanda o'ldi. Yarog'iga, yopinchig'iga yuzdan ortiq o'q bilan urdi. Badanga boshiga bir t..... (34) hujum qilganini, turk beklari, yaxshi bilasiz. U lashkarni yo'q qildik. Undan keyin yer bayirqu[li] Ulug' Erkin yov bo'ldi. Uni quvib, Turgi Yarg'un ko'lda tormor qildik. Ulug' Erkin ozgina yigiti bilan qochib ketdi. Kultegin ..... (35) ..... [yoshi]da Qirqiz tomon qo'shin tortdik. Nayza botimi qorni yorib, Ko'gman yishga ko'tarilib yurib, qirqiz xalqini qo'qqisdan bosdik. Xoqoni bilan Sunga yishda jang qildik. Kultegin Bayirquning [oq ayg'irini] (36) minib otilib hujum qildi. Bir erni qo'li bilan urdi, ikki erni bir yo'la sanchdi. O'sha kurashda Bayirquning oq ayg'irining kuragini sindirib urdi. Qirqiz xoqonini o'ldirdik, davlatini oldik. O'sha yili turgash .... (37) ko'tarilib, Ertis daryosini kechib yurdik. Turgas xalqini qo'qqisdan bosdik. Turgas xoqon qo'shini Bo'luchuda o'tday-bo'ronday keldi, jang qildik. Kultegin Bashg'u (laqabli) bo'z otini minib hujum qildi. Bashg'u bo'z k..... (38) tutqazdi. Ikkisini o'zi oldirdi. O'shanda yana (jangga) kirib, Turgas xoqon(ning) vazirini, az tutug'ini qo'li bilan tutdi. Xoqonini o'shanda o'ldirdik, elini oldik. Turgas qora xalqi butunlay taslim bo'ldi. U xalqni Tabarda qo'..... (39) So'g'daq xalqini tuzatayin deya Yinchu o'guzni kechib, Temir qopiqqa qadar lashkar tortdik. Shundan keyin qora turgas xalqi yov bo'lgan Kangras tomon bordi. Bizning lashkar(imizning) oti oriq, ozig'i yo'q edi. Yomon kishi er..... (40) alp er bizga (?) hujum qilgan edi. O'shanday zamonda o'kinib, Kulteginni oz er bilan izlatib yubordik. Katta jang qilibdi. Alp Shalchi oq otini minib hujum qilibdi. Qora turgas xalqini o'shanda o'ldiribdi, qo'lga olibdi. Qaytib yurib .....

Kb

(1)..... Bilan, Qushu tutuq bilan jang qilibdi. (Uning) jangchilarini xo'b o'ldiribdi, uy-joyini ..... hujum qilib butunlay keltirdi.

Kultegin yigirma yetti yoshida qarluq xalqi begonalashib [orada ziddiyat chiqib], yov bo'ldi. Tamg'iduq bashda jang qildik. (2) Kultegin o'sha jangda o'ttiz yashar edi. Alp Shalchi (laqabli) oq (oti)ni minib, otilib hujum qildi. Ikki erni birvarakayiga sanchdi. Qarluqni o'ldirdik, (qo'lga) oldik. Az xalqi yov bo'ldi. Qora ko'lda jang qildik. Kultegin o'ttiz bir yashar edi. Alp Shalchi (laqabli) oq (oti)ni (3) minib, otilib hujum qildi. Az Eltabarni qo'lga tushirdi. Az xalqi o'shanda yo'q bo'ldi.

Amakim xoqonning davlati zaiflashganda, xalq nochor qolganda izgil xalqi bilan jang qildik. Kultegin Alp Shalchi oqini minib, (4) otilib jang qildi. U ot o'shanda tush..... Izgil xalqi o'ldi. To'quz o'g'uz xalqi o'z xal-

@tarixiykutubxonasiga

qim edi. Ko'k-yer fitnali bo'lgani uchun yov bo'ldi. Bir yilda besh bora jang qildik. Boshlab, To'g'u shahrida jang qildik. (5) Kultegin Azman otini minib, otilib hujum qildi. Olti erni sanchdi, lashkar hujumida yettinchi erni qilichladi. Ikkinchi marta, Qushlag'aqda [...]z bilan jang qildik. Kultegin Az kulrang (ot)ini minib, otilib hujum qilib, bir erni sanchdi, (6) to'qqiz erni qurshab urdi. [...]z xalqi o'shanda o'ldi. Uchinchi bor, Bo'l.....nda o'g'uz bilan jang qildik. Kultegin Azman oq (ot)ini minib hujum qildi, sanchdi. Lashkarini sanchdik, davlatini oldik. To'rtinchi bor, Chush boshida jang qildik. Turk (7) xalqi oyoqdan qoldi, yomon bo'ladigan edi. Ilgari kelgan lashkarini Kultegin turg'izib otlantirib, bir qavm alp o'n erni To'ngategin azasida qurshab olib o'ldirdik. Beshinchi bor, Azganti Qadanda o'g'uz bilan jang qildik. Kultegin (8) Az kulrang (ot)ini minib hujum qildi, ikki erni sanchdi. Shaharga bormadi. O'g'uz o'shanda o'ldi. ..... qo'rg'onda qishlab, bahorda O'g'uzga lashkar (bilan) chiqdik. Kulteginni beklarga bosh qilib jo'natdik. O'g'uz dushman o'rdani bosdi. Kultegin (9) O'gsuz (laqabli) oq(ot)ini minib to'qqiz erni sanchdi. O'rdani bermadi.

**Xotima**

Onam xotun, keyingi onalarim, akalarim, kelinlarim, xonzodalarim, buncha(ngiz) ham tirigi(ngiz) cho'ri bo'lar edi, o'ligi(ngiz) vayronada, yo'lda yotib qolar edingiz.

(10) Kultegin bo'lmaganda butunlay o'lar edingiz. Inim Kultegin vafot etdi, o'zim alam chekdim; ko'rar ko'zim ko'rmasdek, bilar bilimim bilmasdek bo'ldi [ya'ni ko'zimning nuri ketdi, es-hushimdan og'dim], o'zim alam chekdim. Umrni Tangri belgilaydi. Inson bolasining bari o'lguchidir. (11) Shunchalik alam chekdimki, ko'zda yosh kelsa, azob berib ko'ngildan yig'i kelsa, qayta qayg'urdim, qattiq alam chekdim. Ikki shad keyingi ini-jiyanim, o'g'lonim, beklarim, xalqim(ning) ko'zi-qoshi yomon bo'ladi deb qayg'urdim.

Azachi, yig'ichi, qitan tatabi xalqini boshlab (12) Udar sangun keldi. Tabg'ach xoqondan Isyi Liki keldi. Bir tuman ipak, oltin, kumushni sonsiz keltirdi. Tuput xoqondan bo'lun keldi. Janubda kunbotardagi sug'd barchalar(?), uch qora ulus xalqidan Nang sangun, O'g'ul tarqan keldi. (13) O'n o'q o'g'lim Turgas xoqonidan Maqarach tamg'achi, O'g'uz Bilga tamg'achi keldi. Qirqiz xoqonidan Tardush Inanch-cho'r keldi. Bino quruvchi, naqsh solingan bitiktosh yasovchi tabg'ach xoqonining chanqani(?) Chang Sangun keldi.

K.III

Kultegin qo'y yilida, [birinchi oyning?] o'n yettinchi (kuni)da o'ldi. To'qqizinchi oy(ning) yigirma yettisida azasini o'tkazdik. Binosini, naqshini, bitiktoshini maymun yilida, yettinchi oy(ning) yigirma yettisida butunlay tugatdik. Kultegin u..... qirq yetti yosh (?) tosh ..... buncha naqshni Tuyg'un Eltabar keltirdi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ks

(1) Inanchu bobo Yarg'an tarqan otini ..... (2) Qurdanni o'rdi. Inim Kultegin ..... mehnatini, kuchini bergani uchun turk Bilga xoqon yerida inim Kulteginni kuzatib o'tirdim.

**Ilova**

[Y o' l l u g' t e g i n s o' z i]:

K.II

Buncha bitikni bitiluvchi Kulteginning jigari Yo'llug'tegin bitdim. Yigirma kun o'tirib, bu toshga, bu binoga to'liq Yo'llug'tegin bitdim. Panohtalab o'g'loningizga, tayanuvchingizga qiyinchilikda tarbiyat qilar edingiz, vafot etdingiz. Tangri yashatuvchidir.

## BILGA XOQON BITIGI

Bilga xoqon (xitoy manbalarida Mo'gilan deb atalgan) Ikkinchi ko'k turk xoqonligining asoschisi Eltarishning katta o'g'li edi. U 734-yili o'lgan. Yodgorlik esa 735-yili tiklangan. Yodnoma Kultegin mangutoshidan 1 km janubi-g'arbda o'zining tiklangan joyida, ag'anab uch bo'lakka bo'lingan ko'rinishda topilgan. Hozir shunga yaqin bir yerda yopiq joyda saqlanmoqda. Yodgorlikni Bilga xoqon o'lgandan so'ng uning o'g'li Yo'llug'tegin o'rnatgan. Matn muallifi ham uning o'zidir (Sodiqov 2004(1), 112–120).

Quyida keltirilayotgan matn bitikning Orhun kitobida berilgan fotosi va ko'kturkcha harfterma nashri asosida tayyorlandi (Orhun.28–41, 72–73).

### Matn transkripsiyasi

Muqaddima

[B i l g a x o q o n s o' z i]:

Xb.1-14

**Ilova**

[Y o' l l u g' t e g i n s o' z i]:

Xb.

(14)..... kisrä tabğač q[ağa]nta bädizči kälürtim. ..... sabïmïn sïmadï ..... ičräki bädizčig ïtï ..... aŋar tašïğ barq... yara[t]dïm, ič[i]n tašïn adïnčïğ bädiz u.....m..... bïmïn (15) on oq oğlïŋa, tatïŋa tägi bunï körü biliŋ: bäŋ[ü]taš toqïtdïm ....yärtä .... toqïtdïm, bitidim, bu ..... taš barqïn

@tarixchi_kutubxonasiga

**Asosiy qism**

**[Bilga xoqon so'zi]:**

X.1-24

(24) Yäti yigirmi yašïma Taŋut tapa sülädim, taŋut bodunuğ buzdum, oğlïn yu[tuz]ïn, yïlqïsïn, barïmïn anta altïm. Säkiz yigirmi yašïma Altï čub. (25) tapa sülädim. Bodunuğ anta buzdum. Tab[ğač] oŋ tutuq bäs tümän sü kälti. Ïduq bašda süŋüšdüm, ol süg anta yoqqïšdïm. Yigirmi yašïma Basmïl ïdïqut oğüšum bodun ärti, arqïš ïdmaz tiyin sülädim, q.....t ičgärtim, qal..... äbrü kälürtüm. Äki otuz yašïma Tabğač (26) tapa sülädim. Čača säŋün säkiz tümän [sü bir]lä süŋüšdüm. Süsin anta ölürtüm. Altï otuz yašïma čik bodun qïrqïz birlä yağï boltï. Käm käčä Čik tapa sülädim, Örpäntä süŋüšdüm. Süsin sančdïm, az.....m.....lgärtim. Yäti o[tuz yašï]ma Qïrqïz tapa sülädim. Süŋüg batïmï (27) qarïğ söküpän Kögmän yïšïğ toğ....p qïrqïz bodunuğ uda basdïm, qağanïn birlä Suŋa yïšda süŋüšdüm. Qağanïn ölürtüm, ilin anta altïm. Ol yïlqa Türgäs tapa Altun yïšïğ [aš]a Ärtis ögüzüg käčä yorï[dïm. Türgäs bodunuğ] uda basdïm. Türgäs qağan süsi otča borča kälti. (28) Bolučuda süŋüšdümüz. Qağanïn, yab[ğusï]n, šadïn anta ölürtüm. Elin anta altïm. Otuz yašïma Bäsbalïq tapa sülädim. Altï yolï süŋüšdüm.... [s]üsin qop ö[l]ürtüm..... ïq ičräki nä kiši ätin ..... ük yoq üčün kisi b....d.....aŋa uqğalï kälti. Bäsbalïq anï üčün ozdï. Otuz artuqï (29) bir yašïma qarluq bodun buŋsïz [är]ür barur ärkäli yağï boltï. Tamğïduq bašda süŋüšdüm. Qarluq bodunuğ ölürtüm, anta altïm ..... [sanč]dïm.... mal.... düd.... qarluq bodun .... tir..... sančdïm, ö.... To[quz oğu]z mäniŋ bodunum ärti. Täŋri yär bulğaqïn üčün, ödiŋ (30) kü[n]i tägdük üčün yağï boltï. Bir yïlqa tört yolï süŋüšdüm. Äŋ ilki Toğu balïqda süŋüšdüm. Toğla ögüzüg yüzti. Käčip sü ..... [ö]kinti. Antarğuda süŋüšdüm, süsin sančdïm ..... [ü]čünč ..... [sü]ŋüšdüm. Türük bodun adaq qamšatï, yablaq (31) boltačï ärti, oza yaña käligm[ä] süsin ağït(t)ïm. Öküš öltäči anta tirilti, anta Toŋra yi alpağutï bir oğušuğ Toŋa tigin yoğ..... ägirä toqïdïm. Törtünč Äzgänti Qadazda süŋüšdüm, süsin anta sančdïm, yabrïtdïm ..... barïm ..... ma Mağï qorğan qïšladuqda yut boltï. Yazïŋa (32) Oğuz tapa sülädim. Ilki sü taš[ïq]mïš ärti, äkin sü äbdä ärti, üč oğuz süsï basï ölti, yadağï baz boltï tip alğalï kälti. Siŋar süsi äbig barqïğ yulğalï bardï, siŋar süsi süŋüšgäli kälti. Biz az ärtimiz, yabïz ärtimiz. Oğuz ...t yağ.... küč bärtük üčün anta sančdïm, (33) yañdïm. Täŋri yarlïqaduq üčün, män qazğantuq üčün türük bodun b....rğb....mïš ärinč. Män inälgü bunča bašlayu qazğanmadïm, türük bodun öltäči ärti, yoq boltačï ärti .... bäglär .... saqïnïŋ, anča bilïŋ. Oğuz bo[dun] ..... d ..... ïdmayïn tiyin sülädim, (34) äbin barqïn buzdum. O[ğu]z bodun toquz tatar birlä tirilip kälti. Ağuda äki uluğ süŋüš süŋüšdüm, süsin bu[z]dum, älin anta altïm. Anča qazğanïp ..... [täŋri yar]lïqaduq üčün män otuz artuqï .....uq ärti, ödsüg öt ülüg küg (35) igidmiš qa[ğanï yaŋïlti]. Üzä täŋri, ïduq yär sub ..... qağan qutï tapqïlmadï ärinč, toquz oğuz bodun yärin subïn ïdïp Tabğačğaru bardï. Tabğač .... bodun ....

@tarixchi_kutubxonasiga

yär anča kälti, igidäyin tiyin b..... bodunuğ ..... (36) yazuqlat ..... [bi]riyä Tabğačda atï küsi yoq boltï. Bu yärdä mäŋä qur boltï. Män özüm qağan olurtuqum üčün türük bodunuğ ..... ü ... dïm .....r....y....dä qazğantïm ..... tirilip y..... (37) .... [süŋüšdüm, süsin] sančdïm, ičikigmä ičikdi, bodun boltï, ölügmä ölti. Säläŋä qodï yorïpan qarğun qïslata äbin barqïn anta buzdum. ..... yïšqa ağdï. Uyğur Ältäbär yüzčä ärig il t.....t (38) ..... [tür]ük bodun ač ärti. Ol yïlqïğ alïp igit(t)im. Otuz artuqï tört yašïma oğuz täzip Tabğačqa kirti. Ökünüp sülädim, suqïn ..... [o]ğlïn, yutuzïn anta altïm, äki ältäbärlig bo[dun] ..... (39) ....ï bodun tabğač q ağanqa körti. Yalabači, ädgü sabï, ötügi kälmäz tiyin yayïn sülädim. Bodunuğ anta buzdum, yïlq.....b..... süsi tirilip kälti. Qadïrqan yïšda qo..... (40) .... ğaqïŋa, yäriŋärü, subïŋaru qontï. Biriyä qarluq bodun tapa sülä tip tudun Yamtarïğ ït(t)im, bardï ..... Iltäbär yoq bolmïš, inisi bir qurğ[u]..... (41) ..... arqïšï kälmädi. Anï ančitayïn tip sülädim. Qurğu äki üč äki siligin täzip bardï. Qara bodun qağanïm kälti tip, ög.... .... qa at birtim. Kičig at[lï]ğ....

X.II

.....öŋüg yoğuru sü yorïp tünli künli Yiti ödüškä subsïz käčdim. Čarqaqï tägi yolağ tiginig..... Bäs käčänkä tägi .....

Xa

(1) ..... [tab]ğač atlïğ süsi bir tümän artuqï yäti biŋ süg ilki kün ölürtüm. Yadağ süsin äkinti kün qop .... tirilip bardï ..... (2) ..... [y]olï sülädim. Otuz artuqï säkiz yašïma qïšïn Qïtañ tapa sülädim. .....[artuq]ï ..... [ya]šïma yazïn Tatabï tapa sü [lädim] ..... (3) [Män] ..... ölürtüm, oğlïn, yutuzïn, [yï]lqïsïn, barïmïn .....yrä qonč....n qï..... (4) [bod].....[yu]tuzïn yoq qïltïm. ..... (5) [yor].....rïm..... (6) [süŋ]..... üčün ..... (7) [bär]tim. Alp ärin ölürüp, balbal qïlu bärtim. Älig yašïma tatabï bodun Qïtañda adaqïğ .....qa.... [Tü]ŋkär tağqa .... (8) Quğ säŋün bašadu tört tümän sü kälti. Tüŋkär tağda tägip toqïdïm. Üč tümän süg ....tüm, bi..... ärsär öktüm. Tatabï .... (9) o... rti. Uluğ oğlum ağrïp yoq boluča Quğ säŋünüg balbal tikä birtim. Män toquz yigirmi yïl šad olurtum, toqu[z yigir]mi yïl qağan olurtum, il tutdum. Otuz artuqï bir ..... (10) türkümä, bodunuma yägin anča qazğanu birtim.

**Xotima**

[Yo'llug'tegin so'zi]:

Bunča qazğanïp [.... qaŋ..... ğan ï]t yïl onunč ay altï otuzqa učа bardï. Lağzïn yïl bisinč ay yiti otuzqa yoğ ärtürtüm. Buqağ tutuq ..... (11) qaŋï Lisün Tay säŋün bašad[u] bis yüz ärin kälti. Qoquluq ö..... altun, kümüs kärgäksiz kälürti. Yoğ yïparïğ kälürüp tikä birti. Čïntan ïğač kälürüp öz yaraš..... (12) Bunča bodun sačïn, qulqaqïn, yaŋ[aqïn bï]čdï. Ädgü özlük atïn, qara kisin, kök täyiŋin sansïz kälürüp qop qot(t)ï.

@tarixchi_kutubxonasiga

(13) Täŋri-täg täŋri yar[at]miš türük Bilgä [qağan] sabïm.
Qaŋïm türük Bilgä qağan olurtuqïnt türük amtï bäglär ..... [k]isrä tarduš bäglär, Kül-čor bašlayu ulayu šadapït bäglär, öŋrä tölös bäglär, apa tarq[an] .... (14) bašlayu ulayu šad[apït] bäglär ..... Tuman tarqan, Toñuquq, Beyla bağa tarqan, ulayu buyruq ..... ič buyruqï, Bäg [Kül, Irkin] bašlayu ulayu buyruq – bunča amtï bäglär qaŋïm qağanqa ärtiŋü.... (15) ärtiŋü äti mağ i..... [tü]rük bäglärin, bodunïn ärtiŋü äti, mağ itdi, ögd[i..... qaŋïm] qağan .....[čï ağïr tašïn] yoğan[mï]š. Türük bäglär bodun iti yar..... i ärti, özümä bunča .....

---

Xs

(1)..... üzä..... (2) Bilgä qağan u[ča bardï] ..... (3) yay bolsar, üzä t[äŋri] ..... (4) köbürgäsi tärčä anč.... (5) tağda siğun täsär ..... (6) saqïnurmän qaŋïm q[ağan] ..... (7) tašïn özüm qağan .....

**Ilova**

X.I

[qağan b..... Yol(l)]uğ tigin bitidim. Bunča barqïğ bädizig, uzuğ.... [ğan atïsï Yol(l)uğ] tigin män ay artuqï tört kün [olu]rup bitidim, bädiztim. Y.....

**Mazmuni**

Muqaddima

[B i l g a x o q o n s o' z i]:

Xb.1-14

Ilova

[Y o' l l u g' t e g i n s o' z i]:

Xb

(14) ..... So'ng Tabg'ach xoqondan naqqosh keltirdim ..... So'zimni buzmadi. ..... ichki [saroy] naqqoshini yuborib ..... unga toshni, imorat... yaratdim. Ichini, tashini alohida naqshlatdim. .... (15) o'n o'q o'g'liga, totiga qadar buni ko'rib, biling: mangutosh o'ydirdim. .... yerda ..... o'ydirdim, bitdim, bu tosh imoratni .....

**Asosiy qism**

[B i l g a x o q o n s o' z i]:

X.1-24

(24) O'n yetti yoshimda Tangut tomon qo'shin tortdim. Tangut xalqini yengdim, o'g'lini, xonumonini, yilqisini, molini o'shanda oldim. O'n sakkiz yoshimda Alti chub ..... (25) tomon qo'shin tortdim. Xalqini o'shanda

@tarixchi_kutubxonasiga

yengdim. Tabg'ach o'ng tutuq(ning) besh tuman qo'shini keldi. Iduq bashda jang qildim, o'sha qo'shinni o'shanda yo'q qildim. Yigirma yoshimda, Basmil idiqut qarindoshim xalq(im) edi, karvon yubormayapti, deb qo'shin tortdim. Q....t taslim ettirdim, qal..... uyga keltirdim. Yigirma ikki yoshimda Tabg'ach (26) tomon qo'shin tortdim. Chacha Sangun(ning) sakkiz tuman qo'shini bilan urushdim. Qo'shinini o'shanda qirdim. Yigirma olti yoshimda chik xalqi qirqiz bilan yov bo'ldi. Kam (daryosi)ni kechib, Chik tomon qo'shin tortdim. O'rpanda jang qildim. Cherigini sanchdim. Az .....m..... taslim ettirdim. Yigirma yetti yoshimda Qirqiz tomon qo'shin tortdim. Nayza botimi (27) qorni yorib Ko'gman yishni oshib, qirqiz xalqini qo'qqisdan bosdim. Xoqoni bilan Sunga yishda jang qildim. Xoqonini o'ldirdim, davlatini o'shanda oldim. O'sha yili Turgas tomon Altun yishni oshib, Ertis daryosini kechib yurdim. Turgas xalqini qo'qqisdan bosdim. Turgas xoqonning qo'shini o'tday-bo'ronday keldi. (28) Bo'luchuda jang qildik. Xoqonini, yabg'usini, shadini o'shanda o'ldirdim. Davlatini o'shanda oldim. O'ttiz yoshimda Beshbaliq tomon qo'shin tortdim. Olti yo'la jang qildim. ..... qo'shinini butunlay o'ldirdim. ..... iq ichidagi ne kishi etin .....uk yo'q uchun kishi ....ga tushungani keldi. Beshbaliq shuning uchun omon qoldi. O'ttiz (29) bir yoshimda qarluq xalqi benihoya begonalashib ketgach, yov bo'ldi. Tamg'iduq bashda jang qildim. Qarluq xalqini o'ldirdim, o'shanda qo'lga oldim. .....sanchdim .... mal..... dud... qarluq eli .... tir.... sanchdim, o'..... To'quz o'g'uz mening xalqim edi. Ko'k va yer fitnali bo'lgani uchun, zamonning (30) kuni yetgani uchun yov bo'ldi. Bir yilda to'rt marta jang qildim. Eng avval To'g'u baliqda jang qildim. To'g'la daryosini (?) kechib lashkar .... Ikkinchi marta Antarg'uda jang qildim, qo'shinini sanchdim. Uchinchi .... jang qildim. Turk xalqi oyoqdan qoldi. Yomon (31) bo'ladigan edi, ilgarilab, parokanda qilib, keladigan qo'shinini qaytardim. Ko'p o'ladigan (xalq) o'shanda tirik qoldi. O'shanda To'ngra(ning) jangchisi, alpi, bir toifani To'ngategin aza..... qurshab urdim. To'rtinchi marta Azganti Qadazda jang qildim. Qo'shinini o'shanda sanchdim, tinkasini quritdim. ....borim... ma Mag'i qo'rg'on(da) qishlaganimizda (elda) yut bo'ldi. Ko'klamda (32) O'g'uz tomon cherik tortdim. Bir (bo'lak) qo'shin yo'lga chiqqan edi, ikkinchi (bo'lak) qo'shin qo'rg'onda edi. Uch o'g'uz qo'shini bosib, o'ldi, yayovi nochor bo'ldi deb olgani keldi. Qo'shinining yarmi uy-joyini bo'shatgani bordi, yarim qo'shini jang qilgani keldi. Biz oz edik, nochor edik. O'g'uz .... t yag'.... kuch bergani uchun o'shanda sanchdim, (33) parokanda qildim. Tangri yorlaqagani uchun, men zafar qozonganim uchun turk xalqi ..... qozondi. Men davlatni bunday boshqarmaganimda turk xalqi o'lajak edi, yo'q bo'lajak edi. ... beklari, ..... o'ylang, shunday biling. O'g'uz xalqi ..... di yubormay deb, qo'shin tortdim, (34) uy-joyini buzdim. O'g'uz xalqi to'quz tatar bilan yig'ilib keldi. Ag'uda ikki ulug' jang qildim, qo'shinini buzdim, eli-

@tarixchi kutubxonasiga

ni o'shanda oldim. Shuncha zafar qozonib..... Tangri yorlaqagani uchun men o'ttiz ...uq edi ....(?) (35) tarbiyat qilgan xoqoni adashdi. Yuqorida osmon, qutlug' yer-suv .... xoqon quti rozi bo'lmadi, shekilli, to'quz o'g'uz xalqi yerini, suvini tashlab Tabg'achga ketdi. Tabg'ach ... xalq..... yer shunday keldi. Tarbiyat qilay deb b... xalqni .... (36) gunohkor qil..... Janubda Tabg'achda oti, dong'i yo'q bo'ldi. Bu yerda (esa) menga [yuqori] martaba (nasib) bo'ldi. Mening o'zim xoqon bo'lib turganim uchun turk xalqini ....u.... dim.... r.....y.....da qozondim. ..... yig'ilib y..... (37) .....jang qildim, qo'shinini sanchdim. Bo'ysunadigani bo'ysundi, (menga) el bo'ldi, o'ladigani o'ldi. Salanga (daryosi yoqalab) quyi yurib, soqchiliqni bostirib, uy-joyini o'shanda vayron qildim. .... yishga ko'tarildi. Uyg'ur Eltabar yuztacha er bilan sharqqa t....t (38) ... turk xalqi och edi. Yilqini olib boqdim. O'ttiz to'rt yoshimda o'g'uz qochib, Tabg'achga qo'shildi. O'kinib, qo'shin tortdim. ....(?)..... o'g'lini, bekasini o'shanda oldim. Ikki eltabarlik xalq ... (39) ....i xalqi Tabg'ach xoqonga qaram bo'ldi. Elchisi, yaxshi so'zi, maqtovi kelmayotir deb yozda qo'shin tortdim. Xalqini o'shanda mag'lub qildim, yilqi .... b..... qo'shini yig'ilib keldi. Qadirqan yishda qo'... (40) .....g'aqiga, yeriga, suviga qo'ndi. Janubga qarluq xalqi tomon qo'shin tort deb tudun Yamtarni jo'natdim. Ketdi .... Eltabar yo'q bo'libdi, inisi bir qurg'u ..... (41) .... karvoni kelmadi. Uni hushyor qilib qo'yay deb qo'shin tortdim. Yengiltak ikki-uch kishisi bilan qochib ketdi. Qora xalq xoqonim keldi deb, madh...ga ot berdim. Kichik otliq ....

X.II

.....o'ngini mo'ljallab qo'shin tortib, tunu kun Yeti o'dushga suvsiz kechdim. Cho'rqaqi qadar so'qmoq yo'l bilan .... Bes kechanga qadar .....

Xa

(1) ..... Tabg'achning otliq qo'shinini o'n yetti ming(li) qo'shinni birinchi kun o'ldirdim. Yayov qo'shinini ikkinchi kun butunlay ....yig'ilib bordi ..... (2) .... marta qo'shin tortdim. O'ttiz sakkiz yoshimda qishda Qitan tomon qo'shin tortdim. .... yoshimda ko'klamda Tatabi tomon qo'shin tortdim. .... (3) men ... o'ldirdim, bolasini, bekasini, yilqisini, molini ....yra qo'nch....n qi.... (4) xalq .... bekasini yo'q qildim. .... (5) yur.... rim.... (6) jang qil... uchun..... (7) berdim. Alp jangchilarni o'ldirib, balbal qilib berdim. Ellik yoshimda tatabi xalqi Qitandan oyog'ini ....qa.... Tungkar toqqa .... (8) Qug' Sangun boshlab to'rt tuman qo'shin keldi. Tungkar tog'da hujum qilib, zarba berdim. Uch tuman qo'shinni ...dim, bi... esa ... o'kdim. Tatabi ..... (9) o'..... rdi. Ulug' o'g'lim og'rib nobud bo'lganiga Qug' Sangunni balbal qilib tikib berdim. Men o'n to'qqiz yil shad bo'lib turdim, o'n to'qqiz yil xoqon bo'lib turdim, davlatni tutdim. O'ttiz bir ..... (10) turkimga, xalqimga yaxshilikni o'shancha qozonib berdim.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Xotima**

[Y o' l l u g' t e g i n s o' z i]:

Shuncha qozonib, otam xoqon it-yili, o'ninchi oy(ning) yigirma oltisida vafot etdi. To'ng'iz yili beshinchi oy(ning) yigirma yettisida yo'g' (marosimini) qildirdim. Buqag' tutuq .....

(11) Otasi Lisun Tay Sangun boshlab besh yuz er bilan keldi. Tutatqi o'....., oltin, kumush ortig'i bilan keltirdi. Yo'g' iforini keltirib, o'rnatib berdi. Sandal yog'ochni keltirib, o'z...yarash...(?) (12) Shuncha xalq sochini, qulog'ini, yanog'ini yuldi. Yaxshi bo'rdoqi otlarini, qora kishlarini, ko'k olmaxonlarini sanoqsiz keltirib, barini qo'yib ketdi.

---

(13) Ko'kday (ulug'vor) Tangri yaratgan turk [ya'ni, bahodir] Bilga xoqon so'zim.

Otam turk Bilga xoqon bo'lib o'tirganda turk, endi beklar ..... so'ngra tardush beklar, Kul-cho'r boshliq keyingi shadapit beklar, oldinda To'lo's beklar, apa tarqan ... (14) boshlab keyin shadapit beklar .... Tuman tarqan, To'nyuquq, Bo'yla bag'a tarqan, keyin buyruq ....ich buyrug'i Beg Kul, Irkin boshliq keyin buyruq – buncha, endi beklar otam xoqonga benihoya ... (15) benihoya etib maqtov..... Turk beklarini, xalqini benihoya maqtadi, sano aytdi ... Otam xoqon ... qiymatli toshni yo'g' qilgan. Turk beklari, xalqi yubordi ....edi, o'zimga buncha.....

Xs

(1)..... yuqorida ..... (2) Bilga xoqon vafot etdi. ..... (3) Yoz bo'lsa, yuqorida osmon .... (4) toqi .....(?).... (5) tog'da kiyik chopsa, .... (6) o'ylayman otam xoqon..... (7) toshini o'zim xoqon.....

**Ilova**

X.I

[Bilga xoqon bitigini Yo'll]ug'tegin bitdim. Bunday imoratni, naqshni, san'atni .... xoqon jigari Yo'llug'tegin men bir oy-u to'rt kun o'tirib bitdim, naqshladim. Y.....

**O'NGIN BITIGI**

Bitiktosh Mongoliyadagi O'ngin vodiysidan, tiklangan joyidan topilgan. Hozir ham o'sha yerda turibdi. Yozuvi ko'k turk alifbosida. Bitik yigirma qator bo'lib, sakkiz qatori toshning yuz tomonida (O), to'rt qatori o'ng yog'ida (Oa) yuqoridan quyiga qarab yozilgan, yetti qatori yuqorida (Ob) tik yo'nalishda yozilgan. Bir qator bitik boshqa bir toshga (Os) yozilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Mangutosh VIII yuzyillikning birinchi yarmida (chamasi, 732-yili) sarkarda Alp Eletmish xotirasiga tiklangan. Matnning asosiy bo'lagi marhum tilidan bitilgan. Bitik xotimasi (Oa.4, Ob) mangutoshni qo'ydirgan kishi, ya'ni marhumning o'g'li tilidan so'zlanadi.

Quyida H.N. O'rqunning ko'kturkcha harfterma matnini (Orkun 1987,127–132) asosga olgan holda, asar transkripsiyasi va uning mazmunini keltiramiz.

**Matn transkripsiyasi**

O

(1) Äčümiz apamïz Yamï qağan tört buluŋuğ qïsmïš, yïğmïš, yaymïš, basmïš. Ol qan yoq boltuqda kisrä äl yïtmïš, ïčğïnmïš, qačïšmïš...

(2) qağanladuq qağanïn ïčğïnï idmiš türk bodun öŋrä küntoqsïqïŋa, kisrä künbatsïqïŋa tägi, biriyä Tabğačqa, yïraya yïš(qa tägi) ...

(3) alp ärin balbal qïsdï. Türk bodun atï yoq bolu barmïš ärti. Türk bodun yitmäzün täyin yoluq ärmäzün täyin üzä täŋri tär ärmiš ...

(4) Qapağan, Ältäriš qağan äliŋä qïlïntïm. Älätmiš yabğu oğlï Asbara (Ïsbara?) Tamğan-čor Yuğa inisi bilgä Asbara Tamğan tarqan aymağlïğ bäš yätmiš äčim atïm ...

(5) bu Tabğačda yïraya-täg oğuz ara yäti ärin yağï bolmïš, qaŋïm bağa täŋrikän yin anta yorïmïš, išig küčüg bärmiš ...

(6) täŋrikänkä išig bärtiŋ täyin yarlïqamïš, šad atïğ anta bärmiš boltuqda toquz oğuz-täg yağï ärmiš, bädük ärmiš, täŋrikän yor[ïmïš] ...

(7) yabïz bat-biz, azïğ öksüg körtüg ärti, sülädim tär ärmiš. Amtï bäglärmä tär ärmiš, biz az-biz täyin qorq...

(8) qaŋïm šad anča ötünmiš: täŋrikän almazun täyin ... [bo]dun anta bärmäziŋä taš ol...

Oa

(1) Qamaq balïqa tägdim, qunladïm, altïm. Süsi kälti, qarasïn yïğdïm, bägi qačdï ...ğ ärti. Tabğač bodun ... toqïdtïm, yïğdïm, basdïm, yaydïm ... buzqunča

(2) kälir ärtimiz. İkin ara-täg yağï bolmïš. Tägimči-män täyin saqïntïm, täŋri Bilgä qağanqa saqïnu išig küčüg bärsigim bar ärmïš ärinč, tägdükün üčün ... (y)ïğdïm, äbkä tägdüküm uruš qïlïp

(3) tägip inimä oğluma anča ötlädim: qalyorup Ältäriš qağanqa adïrïlmaduq, yaŋïlmaduq täŋri Bilgä qağanta adïrïlmalïm azmalïm täyin anča ötlädim. Käri barïğma bardï. Bilgä qağanïŋ bodunï ... bardï, ölügün atqa išig küčüg bärti.

(4) Üzä täŋri qan lüi yïlqa yätinč ay küčlüg alp qağanïmda adïrïlu bardïŋïz. Bilgä atačïm yoğuŋ, al-ur ağïŋïn qazğantïm. (Su)b yär täŋri öd ... č kirür ärti

@tarixchi_kutubxonasiga

Ob

(1) (atačïm)qa bitig tašïğ
(2) (toqït)dïm bäŋigü
(3) [qağan]m atačïm
(4) bilgä atačïm lü
(5) yïlqa bilgä
(6) külüg är ädgü qa(n)
(7) atačïm ölti

Oc

Ašbara tarqan balbalï

**Mazmuni**

O

(1) Ota-bobomiz Yami xoqon to'rt tarafni ushlab turmish, birlashtirmish, boshqarib, tinchitib turmish. Ul xon o'lgandan so'ng davlat tanazzulga yuz tutmish, qo'ldan chiqmish, tarqab ketmish...

(2) Xoqonliq qilgan xoqonini qo'ldan berib, qarovsiz qolgan turk xalqi sharqqa – kun chiqarga, g'arbga – kun botargacha, janubga – Tabg'achgacha, shimolga – yish(gacha)...

(3) alp erlarini balbal qildi. Turk xalqining oti [ham] yo'q bo'lib ketayotgan edi. [Ammo] turk xalqi yo'qolmasin deya, qurbon bo'lmasin deya, ko'kdagi Tangri der emish...

(4) Qapag'an [va] Eltarish xoqon davlatida voyaga yetdim. Eletmish Yabg'u o'g'li, Asbara Tamg'an-cho'r, Yo'g'a inisi bilga Asbara Tamg'an tarqan urug'li (jami) oltmish besh ota-bobom...

(5) Bu Tabg'achdan shimolda ... ... o'g'uz orasida yetti er bilan yov bo'lmish. Otam o'shanda tangrikan [ya'ni, xudojo'y] deb bu yerda yurmish, ishini-kuchini bermish.

(6) Tangrikanga xizmat qilding deb yorlaqamish. Shad unvonini o'shanda bermish. Shu paytda to'quz o'g'uz ... yov ekan, katta ekan. Tangrikan yur ... ...

(7) (Yovga) ayovsiz yovmiz, ozni ko'p ko'rgan edi. Hujum qilaylik, debdi. Endi beglar ham der emish[ki], biz ozmiz deya qo'rq ...

(8) Otam shad shunday o'tinmish, tangrikan[ni asir] olmasin deya ... xalq shunda bermaslikka ...

Oa

(1) Hamma shaharga etib bordim, toroj qildim, zabt etdim. Qo'shini keldi. Qora xalqini yig'dim [asir oldim], begi qochdi ... g edi. Tabg'ach xalqi ... zarba berdim, bosdim, tinchitdim ... mag'lub qilgancha

@tarixchi_kutubxonasiga

(2) kelayotgan edik. Ikkisining orasida ... yov bo'ldi. Aloqadorman deb o'yladim. Oliy zot Bilga xoqonga ixlos qo'yib, ishini-kuchini berajagim bor ekan chog'i, hujum qilgani uchun ... bo'ysundirdim. Uyga [yurtimga] kelganimda, urush qilib,

(3) zabt etib, inimga, o'g'limga shunday nasihat qildim: Hushyor bo'lib, Eltarish xoqonga, [undan] ayrilmagan, yanglishmagan Tangri Bilga xoqondan ayrilmaylik, adashmaylik, deb shunday nasihat qildim. Qaytib boradigani bordi. Bilga xoqonning xalqi ... bordi, sharafli ot uchun ishini-kuchini berdi.

(4) Ustda qudratli xon. Ajdar yilida, yettinchi oyda kuchli alp xoqonimdan ayrilib qoldingiz. Alloma otaginam, janozang, (go'ring uzra?) oq-qizil shoyingni to'shashga ham erishdim. Suv, yer-u ko'k, charx ... ch kirib edi.

Ob

(1) Otaginamga bitiktoshni
(2) ... taroshlatdim, mangulashtiruvchi
(3) (...)m otaginam.
(4) dono otaginam ajdar
(5) yilda dono
(6) shuhratli er (va) ezgu xon
(7) otaginam o'ldi.

Os

Asbara tarxonning balbali.

## MO'YUN-CHO'R BITIGI

Mo'yun-cho'r 745-yili Ikkinchi ko'k turk xoqonlig'i o'rniga kelgan uyg'ur xoqonlig'ining hukmdori. Uning sharafiga o'rnatilgan bitikda (Malov 1959,30–44) Ko'k turk xoqonlig'i tarixnavisligining matn tuzish an'analari saqlangan. Biroq matn tilida sharqiy lahjaning ta'siri katta. Quyida bitikning transkripsiyasi va o'zbek tilidagi mazmunini keltiramiz.

### Matn transkripsiyasi

(1) Täŋridä bulmïš, el etmiš Bilgä qağan b... tölis ..

(2) Ötükän tegräsi eli ekin ara olurmïš, subï Seläŋä ermiš, anta eli ...ermiš, barmïš ...

(3) su ..nta qalmïšï bodun on uyğur, toquz oğuz üzä yüz yïl olurup .s...a Orqun ögüz o...

(4) türk qïbčaq elig yïl olurmïš, türk eliŋä altï otuz yašïma ... birti, anta boyla .....

@tarixdan_kutubxonasiga

(5) yana tüšdi , toquz oğuz bodun terü qobratï altïm, qanïm Kül bilgä qağan .....

(6) sü yorïdï, özümin önrä bïŋa baši ïti. Käyrädä önđin yantačï ...

(7) ičigirip yana yorïdïm. Käyrä bašïnta üč Birküdä qan süsi (birlä) qatïltïm, anta ..

(8) ertim. Qaraqum ašmïš Kögürdä, Kömur tağda, Yar ögüzdä üč tuğlïğ türk bodun ..

(9) Ozmïš tegin qan bolmïš, qon yïlqa yorïdïm. Íkinti sünüš ...äki ay altï yanïqa t(oqïdïm) ... Ozmïš teginig ..

(10) tutdïm, qatunïn anta altïm. Türk bodun anta ïnağaru yoq bolti Anta kisrä taqïğu yïlqa .... bodun ..un tuyup

(11) Üč qarluq yablaq saqïnïp tezä bardï, qurïya on oqqa kirti. Lağzïn yïlqa t(oqïdïm)...Tay bilgä tutuquğ

(12) yabğu atadï. Anta kisrä qanïm qağan učdï, qara bodun qïlïnmïš .. sančdïm.

*Sharqqa qaragan yuzi*

(13) tutdïm ... bir ... anta Bökägükkä yetdïm. Kečä yaruq batar erikli sünüšdim. Anta sančdïm. Kük qačmïš, tün terilmiš. Bökägükdä säkiz oğuz, toquz tatar qalmaduq. Íki yanïqa kün toğuru sünüšdim. Qulïm, künim bodunïğ tänri

(14) yär ayu berti. Anta sančdïm. Yazuqlïğ atlïğ ... tänri tuta berti. Qara igil budun yoq qïlmadïm, ebin-barqïn, yïlqïsïn yulmadïm. Qïyïn aydïm, turğuru qotïm, kentü bodunïm tedim, udu kelin, tedim. Qodup bardïm, kelmädi. Yičä

(15) irtim, Burğuda yetdim. Törtünč ay, toquz yanïqa sünüšdim, sančdïm. Yilqïsïn, barïmïn, qïzïn, quduzïn kelürtim. Bešinč ay, udu kelti, säkiz oğuz, toquz tatar qalmatï, kelti. Selänä kedin Yïlun qol berdin sïnar Šïp bašïŋa tegi čerig itdim.

(16) Kärgün Saqïšïn Šïp bašïn yürä kelti ....

Selänäkä tegi čerïg itdi. Bešinč ay, toquz otuzqa sünüšdim. Anta sančdïm. Selänäkä sïqa sančdïm, yazï qïltïm, üküši Selänä qodï (bardï). Ben Selänä kečä udu yorïdïm, sünüšdä tutup on er ïtïm

(17) Tay bilgä tutuq yablaqïn üčün, bir äki atlïğ yablaqïn üčün qara bodunïm öltiŋ, yetdiŋ, yana ičik, ölmäči yetmäči-sen, – tedim. Yičä išig küčig bergil, tedim äki ay kütdim, kelmädi. Säkizinč ay bir yanïqa sü yorïyïn, – tedim. Tuğ tašïqar erikli

(18) yelmä eri kelti: yağï (kelü)r, – tedi. Yağïn baši yorïyu kelti. Säkizinč ay äki yanïqa Ačïğ Altar költä Qasuy kezü sünüšdim. Anta sančdïm. Anta udu yorïdïm. Ol ay beš yigirmikä Käyrä baši Üč Birküdä tatar birlä qatï toqïdïm. Sïnarï bodun

@tarixchi_kitobxonasiga

(19) ičikdi, sïŋarï b(odun ...q)a kirti, anta yana tüšdim. Ötükän irin qïsladïm, yağïda bošana bošanaladïm. Äki oğlïma yabğu šad at bertim, tarduš, tölis bodunqa bertim. Äncïp bars yïlqa Čik tapa yorïdïm, äkinti ay tört yegirmikä Kämdä

(20) toqïdïm. Ol y(ïl ... ičikdi ...)z bašï anta aqsïraq ordu örgin anta ïltdim, čït anta toqïtdïm, yay anta yayladïm, yaqa anta yaqaladïm ... belgümin bitigimin anta yaratïtdïm. Ančïp ol yïl küzün ilgärü yorïdïm, tatarïğ aytdïm, tabïšğan yïl

(21) bešinč ayqa teg ...qa Otükän yïš bašï anta ...iŋiz bašï anta ïduq baš kedintä. Yabaš Toquš beltirintä anta yayladïm, örgin anta yaratïtdïm, čït anta toqïtdïm, bïŋ yïllïq tümän künlik bitigimin belgümin anta yasï tašqa

(22) yaratïtdïm, toquz oğuz ... bägläri kelti ... yağïd(u är)miš, örüŋ begig qara buluqiğ anï olurmïš, qïrqïz tapa er ïdmïš. Siz tašïqïŋ, čikig tašïğïrïŋ, – temiš, men tašïqayïn – temiš, kör bod qal, ïda

(23) qabïšalim!», – temiš. Ötü(kän ...) temiš ... (toqu)z (yaŋïqa) sü yorïdïm.... Tutuq bašïn čik tapa bïŋa ïtïm, eši yer tapa az er ïtïm, köp, tedim. Qïrqïz qanï Kögmän ičintä..

(24) Eb-barqïnta ermiš yelmäsin eš yeriŋärü ïdmïš, yelmäsin meniŋ er anta basmïš, tïl tutmïš qanïŋa

*Janubga qaragan yuzi*

(25) eš(iŋä) er kelti, qarluq ešiŋä kelmädük tedi ... qarluq ... Kem ... Ärtiš ögüz Arqar baši tošï anta Är-qamïs altïn anta s(alla)p kečdim, bir yägirminč ay säkiz yägirmikä yoluqdïm. Bolču ögüzdä üč qarluqïğ

(26) anta toqïdïm. Anta yana tüšdim, čik boduniğ bïŋïm sürä kelti ... siz bašï čitïmïn yayladïm, yaqa anta yaqaladïm, Čik bodunqa tutuq bertim, ïšbaraš tarqat ančuladïm... anta ... er kelti, Qazluq költä

(27) (ta)ğda körti, yağ ... (tep) ayu kelti. Beš yägirmikä ... Tayğan költä teriltim, bidgüči er anta ït(tïm ...er kel)ti. Qara Yotalïq kečip kelirti. Ben utru yorïd(ïm) ...boltï, qarluq

(28) (tapa) er ïdmïš ... temiš, ičrä ben bulğayïn, temiš, tašdïntan (qabï) šayïn temiš, basmïl yağïdïp ebimrü bardï, anï ičgirmädim, tašdïntan üč qarluq, üč ïduq tat(ar) ..türgäš ... Ötükäntä ben

(29) (baš)ï anta t(oqïdïm. B)ešinč (ay,) altï otuzqa sünüšdim, anta sančdïm. Íčüy k(eči)g toğuru sančdïm, anta ötrü türgäš, qarluqïğ tabarïn alïp, ebin yulïp barmïš, ebimä tüšmiš ...

(30) Y(ağï) bol... turup yerin tapa bardï. Anï udu ... uğru ... säkizinč ay ben udu yorïdïm, ebimin Ärsägüntä Yula költä qotïm, anta ertim,

(31) basmïlïğ qo(dup) ...nč ay bir otuzqa qarluqïğ ...Yoğra yarïšda süsin anta sančdïm. Ebi on kün öŋrä ürküp barmïš. Anta yana yorïp tüšdim ...

(32) bir yägirmi(kä) ... sančdïm, kentü ...bodun(ïma k)irtim, Írlüntä Talaqïmïnta yetdim. Ašnuqï tabğačdaqï oğuz, türk t(ašïq)mïš, anta qatïlmïš, anta beglär ...

@tarixchi_kutubxonasiga

(33) Meniŋ süm üč ... (berti) ...tuğ ar beš yüz kedimlig yadağ biriki šašïp kelti, küŋim, qulïm boduniğ täŋri yer anta .... ayu bertï, anta sančdïm.

(34) anta bodun ičikdi ... Qarluq tapa tezip kirti. Anta yana tüšip Orqun Balïqlïğ bältirintä el örginin anta örgipän etitdim, el ebi(n) ...

(35) bir yägirminč ay, yägirmikä Qara buluq öŋdin Soquq yolï anta čigil tutuq..

(36) Toğurğuğ kečürü ...sančdïm, qarluq, basmïl ... terilip ...

(37) ...tüšdim ...basmïlqa ...

(38) apa ... tumïš ... bilmä(z) barča töküp tezä

(39) ...ben itdim, bunča bitigig ... bitig (biti)dim.

*G'arbga qaragan yuzi*

(40) kelti ... qarluq bod q(almadï) ... Ančip säkizinč ay, üč yaŋïqa yor(idïm) .... (qar)luq tirigi barï türgaškä kel(ti), yana tüšip

(41) onunč ay, äki yaŋïqa bardïm, temiš üč ... toqïdïm...tüšdim, anta tağ-ru (?), basmïl, qarluq yoq boltï. Qon yïlqa ...

(42) ... yayladïm ... tabğač qanï qağan ... barmïš ...bir (qï)z, säki(z urï oğlïn) tutdïm ...yana (tüšdim)...äki boduniğ alïp ...

Ötükän ...toqïdïm, anta olurup biŋä ïtïm, qut yartağ tuğïn

(43) ... anta ... bodunuğ ebimä äkintï ay altï yäŋïqa tüšdim, taqïğu yïlqa ... ... yoq qïlmïš, ančip kelti, äki qïzïn

(44) tapïğ berti ...barmïš ... sözinä yazmayïn tedi, yaŋïlmayïn, tedi ... ičikmädi ... soğdaq, tabğačqa Selänädä Bay balïq yapïtï bertim

(45)... (yägirmikä) anta yana ... üč tuğïn ... qabïšïm ... bir otuzqa örgin ... üč otuzqa anta sančdïm, Yarïš Ağulïğ ara yit bašinta

(46) ...üč tümän ... sančduq yerdä ... saqïnmïš ... äkinti ay, altï yägirmikä üč tuğlïğ

(47) türk bo(duniğ ... säkiz) oğuz, toquz (tatar) ... qatun yigäni Öz bilgä bünin

(48) (quy?) ... biŋ yont qalmïš, tümän qon qalmïš,

(49) sü bašï ben ...(Äl)täbär biŋ yont, tümän qon ben tut(dïm, ke)lürtim..

**Mazmuni**

*Toshning shimoliy yuzi*

(1) Tangrining inoyatiga erishgan, elni tiklagan Bilga xoqon ... To'lis ... (2) O'tukan tegrasidagi el ikkisining oralig'ida edi. Suvi Selenga edi. U yerda eli (gullab-yashnagan) ... (ular shu xilda) yashab o'tar ekan ... (3) Qo'shini, u yerda qolgan xalqi, o'n uyg'ur va to'quz o'g'uz xalqini yuz yil boshqargan ... O'rqun daryosi ... (4) Turk qipchoqlar turk eli ustidan ellik yil hukmronlik qilganda, mening yigirma olti yoshimda ... (xoqon menga shad unvonini) berdi ... O'shanda Bo'yla (bag'a tarxan mening otam edi)

@tarixchi_Kutib_olmasiga

(5) qaytib keldi. To'quz o'g'uz xalqimni terib, uyushtirib oldim. Otam Kul Bilga xoqon ... (6) lashkar tortdi. O'zimni Janubga mingboshi etib jo'natdi. Kayrada Janubdan qaytuvchi ... (7) (o'zimizga) bo'ysundirib, yana olg'a ketdim. Kayra boshida Uch Birkuda xon lashkari (bilan) to'qnashdim. U yerda ... (8) edim. Qoraqumni oshib Ko'gurda, Ko'mur tog'da (va) Yar daryosida uch tug'li turk xalqi ... (9) O'zmishtegin xon bo'ldi. Qo'y yilida (743-y.) qo'shin tortdim. Ikkinchi zarbani ilk bor (birinchi) oyning oltisida berdim. ... O'zmishteginni ... (10) tutdim, malikasini o'shanda oldim. Turk davlati o'shanda yo'q bo'ldi. Shundan keyin tovuq yilida (745-y.) ... xalq ... buni bilib. (11) Uch qarluq (xalqi) yovuz niyatda qochib ketdi. G'arbda o'n o'q (qavmi)ga qo'shildi. To'ng'iz yilida (747-y.) ularni ham yengdim. ... Tay Bilga tutuqni (12) yabg'u atadi. Shundan keyin otam xoqon vafot etdi. Qora xalq tartibga keldi. ... sanchdim.

*Toshning sharqiy yuzi*

(13) Tutdim... bar ... Bukagukka yetdim. Kechqurun, kunbotar vaqtida jang qildim. O'shanda sanchdim. Kun yorug' chog'ida qochdi, tunda esa yana terildi. Bukagukda sakiz o'g'uz, to'quz tatar qolmagan. Ikkinchi kuni kunchiqar chog'ida jang qildim. Qulim, joriyam, xalqim ustidan hukm chiqarishga Tangri (14) yer [ya'ni, Ko'k va Yer] izn berdi. O'shanda sanchdim. Gunohkor va nomdor ... (yetakchilarni) ... tangri tutib berdi. Oddiy, nochor xalqni yo'q qilmadim, uy-joyini, yilqisini yulmadim. Jazo berdim va o'z yerida yashashiga izn berdim. O'z xalqim, – dedim, – ketimdan (bosh egib) keling, – dedim. Ularni qo'yib, ketdim. Ular (bosh egib) kelmadi. Yana (15) ketidan quvdim. Burg'uda yetdim. To'rtinchi oyning to'qqizinchi kuni jang qildim, sanchdim. Yilqisini, mol-mulkini, qiz-juvonini (o'z o'rdamga) keltirdim. Beshinchi oy ular ketimdan keldi, sakiz o'g'uz, to'quz tatar (ham) qolmadi, bari keldi. Selenganing g'arbida, Yilunqo'l janubida, to Ship boshiga qadar lashkarimni joyladim. (16) Kergu bilan, Saqish bilan, Ship boshi bilan yurib keldi ... Selengaga qadar lashkarini joylashtirdi. Beshinchi oyning yigirma to'qqizinchi kuni jang qildim. O'shanda yengdim. Selengaga siqib borib sanchdim, to'zitib yubordim. Ko'pi Selenganing quyi tomoniga bordi. Selengani kechib izma-iz yurdim. Jangda tutib o'n er ... jo'natdim. (17) Tay Bilga tutuqning tubanligi uchun, bir-ikki amaldorning tubanligi uchun, sen qora xalqim, o'lding, zarba yeding. Qayta birlash, o'lmayajaksan, zarba yemayajaksan, – dedim. Yana menga xizmat qil, – dedim. Ikki oy kutdim, (bosh egib) kelmadi. Sakkizinchi oyning birinchi kuni lashkar tortayin, – dedim. Tug'li qo'shin yo'lga otlanganda (18) yelma eri [ya'ni, otliq razvedkachi] keldi: Yov kelayotir, – dedi. Yovboshi yomon niyat bilan keldi. Sakkizinchi oyning ikkinchisida Achig'-Altir ko'lda Kasuyni kezib jang qildim. O'shanda yengdim, o'shanda ularni izma-iz quvdim. O'sha oyning o'n beshida

@tarixchi kutubxonasiga

Kayra boshida Uch Birkuda tatar bilan qayta to'qnashdim. Yarim xalq (19) bizga birikdi, ikkinchi yarmi ...ga kirdi. Shundan keyin qaytib keldim. O'tukan etagida qishladim. Yovdan ozod bo'ldim. Ikki o'g'limga «yabg'u» va «shad» unvonini berdim ...(Bu unvonni ularga) tardush, to'lis xalqiga (hukmronlik qilishi uchun) berdim. Shundan so'ng bars yili (750-y.) Chik tomon yurdim. Ikkinchi oyning o'n to'rtinchisida Kem (daryosi)da (20) jang qildim. O'sha yili ... taslim bo'ldi. ... boshida oq o'rda chodirini tiktirdim mudofaa devorlarini qurdirdim, yozni o'sha yerda o'tkazdim, o'sha yerda Tangriga ibodat o'tkazdim, tug'roimni, bitigimni, (tuzugimni) o'sha erda yarattirdim. Shundan keyin o'sha yili kuzda sharq tomon lashkar tortdim. Tatarni so'roqladim tovushqon yil ...(21) beshinchi oyda teg ...ga O'tukan yish boshida o'shanda ... ingiz boshi, o'shanda g'arbda Iduq bashda, Yabash va To'qush (daryolarining) quyilishida yozni o'tkazdim. O'sha yerda saroyimni qurdirdim, mudofaa devorlarini o'sha yerda qurdirdim, ming yillik, tuman kunlik bitigimni tuzugimni o'sha yerda yassi toshga (22) yarattirdim. To'quz o'g'uz ... beklar keldi ... yov bo'libdi. U O'gun-Beg, Qora Buluqda o'ltirar edi. Kirg'u tomon odam jo'natibdi: Siz (ittifoqdan) chiqing, chikni ham chiqartiring, – debdi. Men (ittifoqdan) chiqayin, – debdi ko'p xalq kelsin. O'rmonda (23) birlashaylik, – debdi. O'tukan ... debdi ... to'qqizinchi kuni lashkar tortdim. Tutuq boshini chik tomon ming kishilik qo'shin jo'natdim, eshi (ittifoqchisi)ning yeri tomon oz kishini yubordim. (Shuni ham) ko'p ko'rdim. Qirg'iz xoni Ko'gman ichida (24) uy-joyida ekan. Elmasini (eluvchi qo'shinini) o'z ittifoqchilarining yeriga jo'natibdi. Eluvchi qo'shinini mening kishilarim o'sha yerda bosibdi. Ular aytibdiki: xoniga

*Toshning janubiy tomoni*

(25) ittifoqchisiga kishilar keldi, qarluq ittifoqchisiga kelmagan, – dedi ... qarluq ... Kem (daryosi) ... Ertis daryosini Arqar boshi to'shida [ro'parasida] Erqamish quyisida sol bilan kechib o'tdim. O'n birinchi oyning o'n sakkizinchisida ularga yo'liqdim. Bo'lchu daryosida uch qarluqni (26) o'shanda yengdim. So'ng orqaga qaytib, (o'rdamga) keldim. Ming erli qo'shinim chik xalqini surib keldi ... siz boshida o'z kishilarim orasida yozni o'tkazdim, o'sha yerda ibodatimni qildim. Chik xalqiga tutuq [bek, boshqaruvchi] tayinladim, ishbara va tarxonlarni o'shanda sayladim. So'ng ... kishilar keldi. Qazluq ko'lda (27) tog'da ular ko'rdi, yov ... deb, aytib keldi. O'n beshinchi kun ... Tayg'an ko'lda terildim. Ularni chalg'itish uchun kishilar yubordim. Kishilar qaytib keldi, Qora Yo'taliqni kechib, (dushmanni quvib bizga yaqin) keltirdi. Men ularga yuzma-yuz yurdim ... bo'ldi. Karluq (28) tomon kishi yubordi ... debdi, – men ichidan bulg'atay [bosh qo'zg'atay], – debdi. – Tashqarida siz bilan bir bo'lay, – debdi. Basmil yov bo'lib, uyim tomon bordi. Uni ichimga yo'latmadim. Tashqi (dushmanlarim)dan uch qarluq,

@tarixchi_kutubxonasiga

uch qarluq tatar ... turgash ... O'tukanda men (29) boshida o'shanda ular bilan to'qnashdim. Beshinchi oyning yigirma oltisida jang qildim, o'shanda sanchdim. Ichuy (daryosini) kechib ... tong otarda sanchdim. Shundan so'ng turgas va qarluqning mol-mulkini olib, uylarini vayron qilib, uyimga qaytdim. (30) Yov bo'l ... yashab ... yeri tomon bordi. Uni izma-iz ... sakkizinchi oy men izma-iz yurdim. Uyimni Ersagunda, Yula ko'li yaqinida qoldirdim. O'sha yerdan (ularni) kuzatib bordim ... (31) basmilni qoldirib ... ... inchi oyning yigirma birinchi kuni qarluqni ... Yo'g'ra tuzligida lashkarini o'shanda sanchdim. Uning uy-ichi [oilasi] o'n kun burun hurkib qochib ketdi. Men (o'z qo'shinim bilan) o'sha yerdan qaytib (o'rdamga) keldim... (32) o'n birinchi kuni ... sanchdim. O'z xalqimga kirdim. Irlun yonida Talaqiminda ularga yetdim. Avval tabg'achdagi o'g'uz va turk (shahardan) tashga chiqdi, u yerda birlashdi. O'shanda beklar ... (33) mening lashkarim uch ... berdi, tug' ... ar besh yuz to'liq qurollangan qo'shini yayov birikki shoshib keldi. Joriyam, qulim, xalqim ustidan hukm chiqarishga Tangri yer [ya'ni, Ko'k va Yer] (menga) izn berdi. O'shanda sanchdim ... (34) o'shanda xalq menga bo'ysundi ... qarluq tomon qochib borib qo'shildi. O'shanda yana orqaga qaytib O'rqun va Baliqliqning birikkan joyida davlat saroyini [majlislar uyini], saroyni qurdirdim, davlat uyini ... (35) O'n birinchi oyning yigirmasida Qora Buluq g'arbida, So'qoq yo'lida Chigil Tutuq yonida ... (36) To'g'urg'uni kechib ... sanchdim. Qarluq, basmil ... terilib ... (37) ... qaytib keldim ... basmilga (38) apa ... bilmas edi. Hamma qochib, tarqab (ketdi) (39) ... men tartibga soldim. Buncha bitikni ... bitik bitdim.

*Toshning g'arbiy yuzi*

(40) keldi ... qarluq qavmi qolmadi. Shunday qilib, sakkizinchi oyning uchinchi kuni yurish qildim ... qarluqning tirik qolganining bari Turgeshga kelib qo'shildi. Qaytib (o'z o'rdamga) qo'nib (41) o'ninchi oyning ikkinchi kuni bordim ... degani uch ... to'qnashdim ... (qaytib) qo'ndim. O'sha yoqda basmil va qarluq yo'q bo'ldi. Qo'y yilida ... (42) ... yozni o'tkazdim ... tabg'ach xoni xoqon ... bordi ... bir qiz, sakkiz nafar o'g'il bolasini tutdim [asir oldim]. ... (uyimga qaytib) qo'ndim. ... ikki xalqni olib ... O'tukan ... to'qnashdim. O'sha yerda o'ltirib ming kishilik qo'shinimni yubordim. Qut bag'ishlovchi tug'ini ...(43) ... o'shanda ... xalqni ... uyimga ikkinchi oyning oltinchi kuni qaytdim. Tovuq yilida (757-y.) berdi ... yo'q qildi, shunday qilib, qaytib keldi. Ikki qizini (44) hurmat ko'rsatib menga berdi ... ketdi ... so'zingga qarshi borib gunoh qilmay, – dedi. – Yanglishmay, – dedi ... (lekin) davlatimga birlashmadi ... sug'd, tabg'achga Selenga qirg'og'ida Baybaliqni qurishga buyruq berdim. (45) ... yigirmanchi kuni o'shanda qaytdim ... uch tug'ini ... birlashib ... yigirma birinchi kuni saroy ... yigirma uchinchi kuni o'sha yerda sanchdim. Yarish [tuzlik yer] va Ag'ulig' orasida ... (46) ...

@tarixchi_kutubxonasiga

uch tuman ... sanchilgan yerda ... o'yladilar ... ikkinchi oyning o'n oltinchi kuni uch tug'li (47) turk xalqini ... sakiz o'g'uz, to'quz tatar ... malikasining qarindoshi O'z Bilga ... (48) ... mingta ot qoldi, tuman qo'y qoldi (49) ... tashkarboshi men ... Eltabar mingta ot, tuman qo'yni men tutdim ... keltirdim.

## KULI-CHO'R BITIGI

Yodgorlik Mongoliyaning Ixe-Xushotu degan joyidan topilgan. U Kuli-cho'r sharafiga tiklangan bo'lib, sanasi aniq emas. Matn ko'k turk xatida (*nashriga qarang*: Malov 1959,25–30).

Kuli-cho'r Ikkinchi turk xoqonligida yashab o'tgan mashhur kishilardan. Uning oti mazkur yodgorlikdan tashqari Xoyto-Tamir va Bilga xoqon bitiklarida ham tilga olinadi. Bitiklarda qayd etilishicha, u tardush elini boshqargan.

Yodgorlikdagi yozuv toshning uch tomoniga bitilgan bo'lib, jami 29 qator. Lekin ancha shikast yegan. Shuning uchun matnni to'liq tiklashning imkoni yo'q.

### Matn transkripsiyasi

*Toshning g'arbga qaragan yuzi*

(1) ... čïqan Tonuquq atïq bermiš ...

(2) ... tduqda yörtürmiš ïšbara čïqan Küli-čor bolmïš. ... Küli-čor, Tonuquq ...

(3) ... (Eltäriš) qağan elintä qarïp edgü bŋi (?) körti (?), uluğ Küli-čor säkiz on yašap yoq bol(tï) ...

(4) ... özlüki boz at erti, kedim b... alpï erdämi anta kökdi (?) türk bodunqa ...

(5) ... ağïr čoluğïn yağïtuqda Küli-čor ...ğ sančïp ölürip oğlïn, kišisin bolun (?) qï...

(6) ... buz elig tutdï yer z ...rti, Küli-čor türk bodun beglär ...

(7) ... (b)ilgäsin üčün, erdämin ...n q...

(8) ... r ... lr ïsbara bilgä Küli-čor kiši ...

(9) erti, sünüš bulsar, čerig itär erti. Ab ablasar (?), rmlä (?) -teg erti

(10) ... sančdï. Käčindä tümt sükä sünüšdi. Küli-čor oplayu tegip süsin

(11) ... altï ... Beš balïqda tört sünüš sünüšdükdä Küli-čor oplayu tegip, bulğayu

(12) ... (tab)ğačqa bunča sünüšip, alpïn, erdämin üčün kü bunča tutdï.

*Toshning sharqqa qaragan yuzi*

(13) ... oğlïn ... ïn uduztuq ... dïqï ... düki yr (?) ... duqï (?)

(14) ... (bil)gä Küli-čor tarduš bodunïğ iti ayu olurtï...

@tarixchi_janubxonasiga

(15) ... qtm (?) ... ğ özlüki binip o(playu tegi)p üč erig sančdï t... (sü) ŋüšdükdä Küli-čor özlüki yägrän at binip

(16) ... anta kerü barïp, Yinčü ögüzüg kečä Temir qapïğqa, täzikkä tegi sü...ä qazğantï, toquz oğuzqa yeti sünüš sünüšdükdä

(17) ...a tökdi, qïtay, tata(bï) ...dä beš sünüš sünüšdükd(ä Küli-č)or antaq bilgä eši čab eši erti, alpï, bökäsi erti

(18) ... (Kü)li-čor yeti yašïŋa ygr (?) ... rti...zğlïğ to... lrtï, qarluq yağïtuqda tüzdä (?) sünüšdükdä

(19) ... (bilg)ä Küli-čor anta kisrä qarluqqa yem...ü... idl (?) ... n binip, oplayu sanča ïdïp at opulu önti, yana ağïtïp ...

(20) ... sü sürti. Qarluqïğ kečgint (?) ... sïmadï, qarluq tapa ... ğlï barïp znr (?) yana ebiŋä sünüš kigürti, qarluq atlantï anča sün

(21) ... (q)arluq yägrän erimlig (?) alqasïn sïyu urtï, qarluqïn ... at uru ... ğ Ältäbär özi kelti, eši eri Ärkin oğlï Yigän-čor kelti.

(22) ... sü dä sünüšip, süsin sančdï, elin altï, oğlïn kišisin bu ... qağanïŋa (?) ïsbara bilgä Küli-čor ...

(23) ... rükä t ... bu ... üd ülüki anča ermis erinč yağïqa yalïŋus oplayu tegip, opulu kirip, özi qïsğa kergäk boltï

(24) ... n qağa(n) inisi ... čor tegin (?) kelip ulayu tört tegin kelip ïsbara bilgä Küli-čorïğ yoğlatï, bedizin bedizti, olurtï

(25) ... (üčü)n (?) bu ... qazğantï artuq yïlqïğ igiti

*Toshning janubga qaragan yuzi*

(26) kelti ... eki (?) tegin kelti tad ... čorïŋ oğlï yigän čor

(27) ïn üčün bunča bodun qobarïp yoğladï, bäntäz ben

(28) ... bilmäz biligin biltükimin, ödükimin bunča bitig bitidim

(29) ... m buŋ ...t ...

**Mazmuni**

*Toshning g'arbga qaragan yuzi*

(1) ... Chiqan To'nyuquq otini berdi...

(2) ... biz uni ko'targanda Ishbara Chiqan Kuli-cho'r bo'lgan. ... Kuli-cho'r, To'nyuquq ...

(3) ... (Eltarish) xoqon davlatida qarib, ezgu, mangu nom qozondi. Ulug' Kuli-cho'r sakson yil yashab, vafot etdi. ...

(4) ... o'ziniki bo'z ot edi. Kiyim b... botirligi, mardligi unda ortdi. Turk xalqiga ...

(5) ... u o'zining mard kishilari bilan yov bo'lganda, Kuli-cho'r ... yengib, o'ldirib, o'g'lini, ayolini asir qi...

(6) bu... z... davlatni tutdi, yer ... Kuli-cho'r turk xalqi, beklar ...

(7) ... dono yo'ldoshi bilan bo'lgani uchun pahlavoni bilan, qahramoni bilan ...

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) ... Ishbara bilga Kuli-cho'r kishi ...
(9) ... urush bo'lsa, lashkarni boshqarar edi, ov ovlanganda (?) -dek edi.
(10) ... yengdi. Kechinda kuchli qo'shinga qarshi jang qildi. Kuli-cho'r hujum qilib, o'z lashkarini
(11) ... Beshbaliqda to'rt bor jang qilganda Kuli-cho'r hujum qilib, g'azablanib
(12) ... Tabg'achga (qarshi) shuncha jang qilib, botirligi, mardligi bilan bu qadar dovruq tutdi.

*Toshning sharqqa qaragan yuzi*

(13) ... o'g'lini ... jo'natilgan ... gani ...gani yer ...gani
(14) ... (bi)lga Kuli-cho'r tardush xalqini boshqardi ...
(15) ... o'z otiga minib hujum qilib, uch erni sanchdi ... jang qilganda Kuli-cho'r o'zining jiyron otini minib
(16) ... undan g'arb tomon borib Yinchu o'guzni kechib, Temir qopiq-qa, tazikka [ya'ni musulmonlarga] qadar lashkar ...a zafar qozondi. To'quz o'g'uzga (qarshi) yetti bor jang qilganda
(17) ...a to'kdi. Qitay, tata(bi) ...da besh bor jang qilganda Kuli-cho'r (uning) shunday dono yo'ldoshi, shavkatli yo'ldoshi edi, botiri, qahramoni edi.
(18) ... Kuli-cho'r yetti yoshida ... qarluq yov bo'lganda Tezda (?) jang qilganda
(19) ... (bil)ga Kuli-cho'r shundan keyin qarluqqa ... (otiga) minib hujum-ga kirib yengib, oti o'ldi. Yana (boshqasiga) minib
(20) ... lashkar surdi. Qarluqni .... yengmadi, qarluq tomon ... gan borib ..?.. uyiga qadar quvdi. Qarluq otlandi, shuncha qo'shin bilan
(21) (qa)rluq ... olishib yengdi, qarluqni ... Eltabir o'zi keldi, safdoshi Er-kin, o'g'li Yigan-cho'r keldi.
(22) ... jang qilib, lashkarini sanchdi, davlatini oldi, o'g'lini, ayolini bu... xoqoniga Ishbara bilga Kuli-cho'r ...
(23) ... o'lganlari shu qadar ediki, dushmanga yolg'iz hujum qilib, o'rtaga tashlanib halok bo'ldi.
(24) ... xoqon inisi ...-cho'r tegin kelib, u bilan birga to'rt shahzoda kelib Ishbara bilga Kuli-cho'rning azasini o'tkazdi, maqbarasini qurdirib, (yod-gorlik) qo'ydirdi.
(25) ... uchun bu ... zafar qozondi, yilqini ko'paytirdi.

*Toshning janubga qaragan yuzi*

(26) keldi ... ikki shahzoda keldi, tad... -cho'rning(?) o'g'li Yigan-cho'r
(27) ...in uchun shuncha xalq butunlay yig'ilib, yo'qladi. Binosini men...
(28) ... bilmaydi. Aniq (voqealar)ni, eshitgan-bilganlarimni, xotiralarimni shu bitikda yozdim.
(29) ... m mung ...t...

@tarixchi_kutubxonasiga

## QORABALG'ASUN BITIKLARI

Qorabalg'asun obidalari Uyg'ur xoqonlig'i davridan qolgan yirik va qadrli tarixiy monumental yodgorliklardir. Ular asl holatida saqlangan emas. Mangutoshlardan parchalar qolgan, xolos. Shunga qaramay, tosh parchalarida qolgan bitiklar yodgorlik qadrini nihoyatda oshiradi.

Qorabalg'asun obidalari uch bitikdan iborat. V.Radlovning «Atlas drevnosti Mongolii» kitobida (Orhun, 61) va Anqarada chop etilgan «Moğolistandaki Türk Anıtları Projesi Albümü»da (MTA, 214–226) mazkur bitiklarning rasmlari berilgan. Quyida ushbu kitoblarda berilgan rasmlar asosida yodgorliklardagi turkiy matnlarni keltiramiz (*qaralsin:* Sodiqov 2004(2).

### 1-Qorabalg'asun bitigi

1-Qorabalg'asun bitigi katta bir tosh parchasida. Yodgorlik go'zal bir ko'rinishda, biroq ancha shikastlangan (MTA,214-218). Yodgorlikning ust qismiga bir tasvir ishlangan. Uni o'rgangan olimlar ikki ajdar tasviri deya talqin etmoqdalar. Ammo unga sinchiklab razm solgan kishi, tasvirda ajdarni emas, o'z o'ljasini eyayotgan arslonni ko'radi.

Ostidagi qalqonga ko'k turk harflari bilan besh qatorli turkiy matn bitilgan. Unda shunday jumla yozilgan: *[B]u teŋrikän teŋridä q[u]t bulmuş al[p] bilgä teŋ[r]i uyğur q[ağan]* ...

Matn ma'nosi: «Bu xudojo'y Tangridan qut topgan [Tangrining inoyatiga erishgan] Alp Bilga uyg'ur xoqoni...».

### 3-Qorabalg'asun bitigi

3-Qorabalg'asun bitigi ko'p yildan buyon olimlar e'tiborini qozonib kelmoqda. Buning boisi, obidaning uch til – turkiy, sug'dcha va xitoy tilida bitilganligi, shuningdek, uning Uyg'ur xoqonlig'i tarixining muhim yodgorligi ekanligida. Yodgorlikning xitoycha matnida yozilishiga qaraganda, mangutosh to'quz o'g'uz (uyg'ur) xoqoni Alp Bilga (Xitoy manbalarida Baoi) xotirasiga 820–821-yillarda tiklangan.

Kunimizgacha yodgorlik tosh parchalari holida saqlangan. Tosh sirtidagi yozuvlarning ham oz qismi qolgan.

Boshqalariga qaraganda xitoycha matnning katta bo'lagi mavjud. Yodgorlikdagi sug'dcha matnning holati ham nisbatan durust. Ammo uni o'rgangan olimlarning xulosalariga qaraganda, hozirgi holati asl matnning 1/4 qismidir.

Bularning ichida eng yomon saqlangani turkiy matndir. Chunonchi, toshning yuzi ortiq darajada yemirilgan bo'lib, matndan uzuq-yuluq jumlalar, ayrim so'z va harflar qolgan, xolos. Matn qoldiqlarini o'qib ma'no chiqarish nihoyatda mushkul.

@tarixiy_kitobxonasiga

«Moğolistandaki Türk Anıtları Projesi Albümü»da 3-Qoraboloʻgʻasun yodgorligidagi turkiy matn parchalaridan ikkisining rasmi berilgan (MTA, 222–226). Unga koʻra, birinchi tosh parchasidagi turkiy matn qoldiqlaridan quyidagilarni oʻqish mumkin:

1. ... a (?) ...
2. ... eki: ...
3. ... [ya]ğï: ermiş ...
4. ...ir : ilin ...
5. ... [r´]ä : boğu er (?) ...
6. ... : ergimä ...
7. ... kidä : yig...
8. ... [i]lgärü : kün : toğsu[q]...
9. ... : isidip : yaŋïlyu : ol...
10. ... kirü : kün : batsïq...
11. ... l´...a : y[ämä?din b(?)ranç ...
12. ...y´...
13. ...k...

Ikkinchi tosh parchasidagi turkiy matn qoldiqlari esa shunday oʻqiladi:

1. ...tan : yarat...
2. ...din...
3. ... : adan...
4. t´...i : mär...
5. ... : törün : yan...
6. [tör]ün : yemä : qu...
7. ...b ata adan : at...
8. [ke]rgäkintä : in...
9. [bi]rlä : uluğ ...
10. eki : ögränç ...
11. ...i : qamağ : ...
12. ...di : anta
13. ...ranç : ...

V.Radlov Atlasida yuqoridagi ikki tosh parchasi bilan birga yana bir qancha naqshlar ishlangan, turkiy yozuvli tosh parchalari ham berilgan va ular raqamlab chiqilgan (Orhun, 61). Ulardagi matn qoldiqlari shunday oʻqiladi:

Ikkinchi raqamli tosh yuzidagi matn qoldiqlari:

1. min : ...
2. ..... (?)

@tarixchi_kutubxonasiga

Uchinchi raqamli toshdagi matn qoldiqlari:
1. ... (?)
2. ...mqa...
3. ...ïdğïsïz ...
4. ...qïn : qanu ...
5. yämä : atïn : o...
6. küçlüg: boltï ...
7. ...maz : olurğusuz : bil[gä] ...
8. ... zaqï ...r...nu : yanu : ïnançlïğ : ...
9. är : eki adaq ... emgeksizin : ...
10. armaq : qonuşmaq : tartïşmaq :
11. ü şan ... ...gün : ...

To'rtinchi raqamli toshdagi matn qoldiqlari:
1. : igid (?)
2. ...üçi : bol...
3. ...lig ar...
4. yi...

Oltinchi raqamli tosh sirtida matn izlari saqlangan, xolos:
1. ..... (?)
2. .....(?)
3. .....(?)

Radlov Atlasida 1-Qorabalg'asun yodgorligi bilan birlikda yana ikki tosh parchasi ham berilgan. Ularning yuzida ham yozuv qoldiqlari bor. Yozuvlarning o'qilishi shunday.

Birinchi raqamli toshning sirtida:
1. ...t...
2.....

Uchinchi raqamli toshning sirtida:
1. .....
2. ğms...
3. ö (?)
4. ...är : küzät...
5. l : özüm : igl[ig]

3-Qorabalg'asun yodgorligining turkiy matni uzuq-yuluq holatda saqlangan bo'lishiga qaramay, matn tuzilishi, til va uslubiy xususiyatlari borasida ayrim muhim xulosalarni aytishga imkon beradi.

@tarixiy_kutubxonasiga

Birinchi toshning 8–10-satrlaridagi *ilgärü kün toğsuq...esidip yanïlyu ol... kirü kün batsïq...* (Sharqqa Kuntug'ar ... eshitib, yanglishib, u ... G'arbga Kunbotar ...) jumlalari Kultegin bitigidagi *ilgärü kün toğsïqda bökli qağanqa tegi ..., qurïğaru Temir qapïğqa tegi ...* (Sharqda Kuntug'arda Bo'kli xoqoniga qadar ... G'arbda Temir qopiqqa qadar ...) satrlarini esga soladi. Matnning bu jihati ko'k turk davri monumental matn tuzish an'analari yaxshi bir holda saqlanganidan dalolat beradi.

## SUJI BITIGI

Yodgorlik Mongoliyadagi Suji dovonining janubidan topilgan. Yozuvi ko'k turk alifbosida. Bitik, taxminlarga ko'ra, IX asrda yozilgan. Uni G. Ramstedt, A.N. Bernshtam, H.N. O'rqun, S.E. Malov nashr ettirganlar (qarang: Malov 1951,76–77; 1952,84–90; Orkun 1987,155–159). Matnning o'qilishi va talqinida ayrim tortishuvli o'rinlar bor.

### Matn transkripsiyasi

(1) Uyğur yerintä Yağlaqar qanta kel(tim).
(2) Qïrqïz oğlï-men. Boyla qutluğ yarğan-
(3) men. Qutluğ Bağa tarqan ögä buyruqï-men.
(4) Küm, soruğum küntoğsuq(q)a, batsïq(q)a
(5) tegdi. Bay, bar ertim. Ağïlïm on, yïlqïm sansïz erti.
(6) İnim yeti, urïm üč, qïzïm üč erti. Eblädim oğlumïn,
(7) qïzïmïn qalïnsïz bertim. Marïma yüz er, turuğ b(er)tim.
(8) Yeginimin, atïmïn körtim. Amtï öltüm. Q...
(9) oğlanïm, erdä marïmïnča bol, qanqa tap, qatïğlan.
(10) Uluğ oğlum s ... ä bardï.
(11) Körmädim r ... m oğul.

### Mazmuni

(1) Uyg'ur yeriga Yag'laqar xon(yurti)dan keldim.
(2) Qirg'iz o'g'liman. Bo'yla qutlug' yarg'an-
(3) man. Qutlug' Bag'a tarxon o'ga buyrug'iman.
(4) Dovrug'im, so'rovim kun tug'ardan kunbotarga
(5) yetdi. Boy-u bor edim. Og'ilim o'nta, yilqim son-sanoqsiz edi.
(6) Yetti inim, uch o'g'lim, uch qizim bor edi. O'g'illarimni uyladim,
(7) qizlarimni qalinsiz [sonsiz tortiq bilan] uzatdim. Marimga [ya'ni ustozimga] yuz er [ya'ni xizmatkor], uy-joy berdim.
(8) Nevara-yu chevaralar ko'rdim. Endi o'ldim. Q...

@tarixchi_kutubxonasiga

(9) o'g'lonim, kishilar orasida marimdek bo'l, xonga xizmat qil, jasur bo'l.
(10) Ulug' o'g'lim s...a bordi.
(11) Ko'rmadim r...m o'g'il.

## YENISEY BITIKLARI

Sibirning Oltoy o'lkasi, Yenisey, Kama daryolari tevaragidan topilgan ko'k turk yozuvli toshbitiklar fanda «Yenisey bitiklari» nomi bilan yuritiladi. Ular O'rxun bitiklari singari yirik-yirik emas, kattasi – o'n olti-o'n yetti satrli. Shunday esa-da, til va poetik xususiyati, ahamiyatiga ko'ra muhim sanaladi. Qizig'i, o'rxun bitiklaridan farqli o'laroq, ushbu bitiklarda ko'pincha matn o'liklar tilidan so'zlanadi. To'g'ri, ularni marhumning o'g'il-qizi otasining o'limidan keyin bittirgan. Lekin u yerda kechgan voqealar, marhumning mungli so'zlarini o'tganning tilidan bitgan. Bu narsa matnning poetik ta'sirini oshirishga xizmat qiladi.

Quyida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bitiklardan keltiramiz.

## UYUG'-TARLIQDAN TOPILGAN BITIKTOSH (E.1)

Toshning bir yuziga yozilgan. Matn ikki qator (Malov 1952,11–13; Orkun 1987,439–442).

### Matn

(1) Siz, elim-ä, qunčuyum-a, oğlanïm-a, sizim-ä, altmïš yašïmda (adïrïltïm).
(2) Atïm El Toğan tutuq-ben, täŋri elimkä elčisi ertim, altï bağ bodunqa beg ertim.

### Mazmuni

(1) Siz, elim-a, malikalarim-a, o'g'illarim-a, sizim-a, oltmish yoshimda (ayrildim).
(2) Otim El To'g'an tutuq-men, qudratli elimning elchisi edim, olti bog' xalqqa bek edim.

## UYUG'-TURAN BITIKTOSHI (E.3)

Toshning o'ng va ters yuzlarida uch qatordan, jami olti qatorli matn (Malov 1952, 16–20; Orkun 1987, 447–455).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn**

*Toshning o'ng yuzi*

(1) Quyda qunčuyïm, sizdä, oğlum, yïta, sisim-ä, yïta, bökmädim, adïrïltïm, künüm, qadašïm, yïta, adïrïltïm.

(2) Altun elig käšig belimtä bantïm. Täŋri elimkä bökmädim, sizim-ä, yïta.

(3) Üčin Külüg Tirig-ben, täŋri elimtä jemlig-ben.

*Toshning ters yuzi*

(4) Üč yetmiš yašïmqa adïrïltïm. Ägüg qatun yerimkä adïrïltïm.

(5) Täŋri elimkä, qïzğaqïm, oğlum, öuz (?) oğlum, alti biŋ yontum,

(6) qanïm tülbäri, qara bodun, külüg qadašïm, sizim-ä, el-ešim, er, öküš er oğlan er, küdägülärim, qïz, kelinlärim, bökmädim.

**Mazmuni**

*Toshning o'ng yuzi*

(1) Quyda malikam, sizdan, o'g'lim, esiz, sizim-a, esiz, to'ymadim, ayrildim, xalqim, do'stim, esiz, ayrildim.

(2) Ellik oltinli kamarimni belimga bog'ladim. Qudratli elimga to'ymadim, sizim-a, esiz.

(3) (Men) Uchin Kulug Tirigmen, qudratli elimning xizmatchisimen.

*Toshning ters yuzi*

(4) Oltmish uch yoshimda ayrildim. Egug-qatun (otli) yerimdan ayrildim.

(5) Qudratli elimga, qizlarim, o'z o'g'lim, olti ming yilqim,

(6) xonimning tulbari, avom xalq, dovrug'i ketgan do'stlarim, sizim-a, elning mardlari, er-u o'g'lonlar, kuyovlarim, qiz-kelinlarim, (sizga) to'ymadim.

## ELEGESHDAN TOPILGAN BITIKTOSH (E.10)

Ko'k turk yozuvli mazkur bitiktosh Yenisey yodgorliklari turkumiga kiradi. Yodgorlikdagi matn 12 qatorli. Yozuvi uringan; matnni tiklash ancha qiyin. Shuning uchun mazkur bitik bo'yicha amalga oshirilgan nashrlar orasida farqlar bor.

Yodnomaning yaratilgan davri aniq emas. Muhim xususiyatlaridan biri, bu yodnomada ham, boshqa yenisey bitiklarida bo'lgani singari, matn marhumning o'z tilidan yozilgan.

Quyida yodnomaning o'zbekcha talqinini keltiramiz. Matn uchun S.E. Malov nashri (Malov 1952, 25–28) asosga olindi. Biroq S.E. Malov

@tarixchi_kutubxonasiga

bitikni chap qatordan boshlab o'qigan. Ayrim olimlar (masalan, N. O'rqun) uni o'ng qatoridan boshlab o'qigan. Biz ham matn satrlaridagi ayrim mazmuniy bog'lanishlarni inobatga olib, N. O'rqun nashridagi tartibda (Orkun 1987,587–595) berishni ma'qul topdik.

**Matn**

(1) Qadašïm-a, kešim-ä, adaq(lïğ) atïm-a, yïta, qara bodunum-a, adïrïltïm, yïta men.

(2) Tört adaq(lïğ) yïlqïm, sekiz adaqlïğ barïmïm, buŋum yoq erdim.

(3) Buŋ baŋa ... bat ermis, öldim, yïta, sizim-ä yoluqayïn.

(4) ...lmn beriyä ... qïlïnu adïrïlayïn uŋ...b...š yïlta er...

(5) Elim oğurunta sü bolup erlärim, edküm yoq čeligdä bir tegmä sekiz er erdim(iz).

(6) Qara bodunum, qatïğlanïŋ! El törüsü ïdmïš, yïta, siz elim, qanïm.

(7) Uruŋu külüg[1] Toq Bögü erkiŋä qaŋïn beg erdäm üčün ben er(ki bardïm).

(8) Kürt el qan al(p) uruŋu altunlïğ kešig belimkä bantïm jerdä elim toquz qïrq yašïm(ta)

(9) qanïm(-a), elim-ä, sizim-ä, yïta, bökmäd(im) ... qanïm(-a), elim(-ä), yïta, adïrïltïm.

(10) Kök täŋridä, kün, ay azdïm, yerim-ä, yïta, sizim-ä adïrïltïm.

(11) Yüz er qadašïm uyarïn üčün, yüz erän elig öküzün tekdük üčün adïrïltïm.

(12) Quyda qunčuyïm-a, sizim-ä, yïta, özdä oğlum, sizim-ä adïrïltïm.

**Mazmuni**

(1) Qarindoshlarim-a, o'qdonim-a, oyoq(li) otim-a, ne g'am, qora xalqim-a, (sizdan) ayrildim yitib men.

(2) To'rt oyoq(li) yilqim, sakkiz oyoqli molim (bor edi), g'amim yo'q edi.

(3) G'am menga bot keldi. Yitib o'ldim. (U dunyoda, oxiratda) sizga yo'liqayin.

(4) O'ngga [ya'ni janubga] ... qo'shin tortib, ayrilayin ... yilda er ...

(5) Davlatim uchun jangga kirganda yonimda qahramon sheriklar topilmadi. Olishuvda biz bor-yo'g'i sakkiz er edik.

(6) Qora xalqim, tetik bo'ling! Davlatning qonun-yo'sunlarini saqlang! Ne g'am, siz davlatim, xonim (dan ayrildim).

(7) Urungu kulug To'q Bo'gu erki uchun, otam bek sharafi uchun men (jangga kirdim).

[1] *Uruŋu külüg* – titul, unvon. *Uruŋu* – «bayroq», *külüg* – «shuhratli» degan ma'noni beradi, lekin birikma shaklida unvonga to'g'ri keladi. S.Y. Malov buni «по воле (под-) знаменного именитого» deb tarjima qilgan.

@tarixim_kutubxonasiga

(8) Kurt eli xoni Alp Urunguning oltin o'qdonini belimga bog'ladim[1]. Yerda elim, o'ttiz to'qqiz yoshim(da)

(9) xonim, davlatim-a, esiz, sizga to'ymadim. ... xonim, davlatim, yitib, sizdan ayrildim.

(10) Ko'k osmondagi kun-u oyni ko'rishdan mahrum bo'ldim. Yerim-a, ne g'am, sizdan ayrildim.

(11) Yuz nafar safdosh qahramonlarim bilan bo'lganim uchun, yuz nafar er bilan kurashga qodir bo'lganim uchun ayrildim.

(12) Uydagi malikam-a, sizdan, esiz, hayotdagi o'g'lim, sizdan ayrildim.

## OLTINKO'LDAN TOPILGAN BITIKTOSHLAR

Abakan daryosi yonidagi Oltinko'l yaqinidan ko'k turk yozuvli ikki yodgorlik topilgan. Ular Minusink muzeyiga keltirilgan. Ulardan biriga shikast yetgan, ikkinchisi esa ikkiga bo'linib ketgan (Malov 1952,52–58).

### Birinchi yodnoma (E 28)

Toshning old, o'ng va so'l yog'ida – jami 9 qator bitik bitilgan.

### Matn

(1) Yerdäki bar ertigimä, erdämligimä bökmä(dim).

(2) Atsar, alp ertiŋiz, utsar küč ertiŋiz, inlig böri uča bars adïrïlmay itu (?).

(3) Bu atïmïz Umay-beg-biz. Biz uya alp er özin el eti qïlmadïŋ. Özläk at özin üč erig almadïŋ, yïta, äzänčümä közünčümä adïrïlma ič älinmü (?) iyü (?) erdämim.

(4) Er erdäm üčün, inim-äčim uyarïn üčün beŋümin tikä berti.

(5) Tört änilgü (?) ertim(iz), bizni erklig adïrtï, yïta.

(6) Altun šuŋa, yaš keyiki arït, ağlat, uğlat, udačina barsïm adïrïlu bardï yïta.

(7) On ay eltdi ögüm-ä, kelürti elimkä erdäm üčün, men yerlädim-ä.

(8) Elim ökünčüŋä qalïn yağïqa qïymatïn tegipän adïrïldim yïta.

(9) Íniŋizkä, ečiŋizkä iŋän yüki iŋäz tüšürtiŋiz.

---

[1] Mazkur jumlani S.E. Malov *Kört äl qan al(p) uruŋu altunlïğ käšig bälimkä bantïm* shaklida transkripsiyaga o'girib, «Красивое алое знамя государства; я привязал свой золотой пояс (колчан) у поясницы» deb tarjima qilgan. Misoldagi *al(p) uruŋu*, harqalay, ism yo unvon bo'lgan ko'rinadi. Bunga sabab, Yenisey bitiklaridan biri *Al(p) uruŋu tutuq-ben* (Men Alp urungu tutuqman) deb boshlangan (qarang: Malov 1952,38–39). Mazkur jumladagi *tutuq* – unvonni anglatadi. Shunday ekan, undan avvalgi so'z ism ekanligi ayon. S.E. Malov bu jumlani «Я тутух алого знамени» deb tarjima qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Mazmuni**

(1) Yerdagi bor narsalarimga, shuhratimga to'ymadim.

(2) O'q otganda alp edingiz, kurashganda kuchli edingiz. Inli bo'ri ucholmay, bars ajralolmay qoldi.

(3) Bu otimiz Umay bekdir. Bizning avlod alp erlarmiz, o'zingni qiynamading. O'zingning oting, o'zingning uch yigitingni olmading. Ajralma odatlarimdan, istaklarimdan, xalqimdan, shon-shuhratimdan.

(4) Yigitlik sharafim uchun, aka-ukalarim qudrati uchun mangu toshimni tikib berdi.

(5) Biz to'rt aka-uka edik. Bizni o'lim ayirdi, esiz.

(6) Oltin o'rdak, yosh kiyikni arit, yig'lat, qichqirtir. Qudratidan barsim ayrilib bordi kuyib.

(7) O'n oy eltdi onam-a. Tug'di elimga shuhrat uchun. Men yashadim.

(8) Elim o'kinchiga, qalin yoviga qarshilashib halok bo'ldim, ayrildim.

(9) (O'lib) iningizga, akangizga [ya'ni, og'a-inilaringizga] ingan yukini ortdingiz.

**Ikkinchi yodnoma (E 29)**

Toshning old, so'l va o'ng yuzida jami 8 qator matn bor.

**Matn**

(1) Erdäm bolsar bodunuğ erk bodunuğ. Er atïm Erän Uluğ-a, erdämig bodun batur-men.

(2) Er erdäm elim bolsar, bodun isrik yörümädi, erinčim ikizimä...

(3) Quyda qadašïma, qunčuyïma adïrïlu bardïm. Men oğlïmqa ... bodunïmqa bökmädim.

(4) Sekiz qïrq yašïma....

(5) On ay eltdi ögüm, oğlan toğdïm, erin ulğatïm.

(6) Elimdä tört tegzindim erdämim üčün, ïnanču alp ičindä ...

(7) Erdäm bolsar andağ ermäs. Esin-men, Altun Qaparqa kirtim.

(8) Erdäm üčün Tüpüt qanqa yalabač bardïm, kelürtim.

**Mazmuni**

(1) Jasoratli xalq erkli xalqdir. Er otim Eran Ulug'. Jasur xalq botiriman.

(2) Qahramon yigitlarim, elim bor uchun xalq darbadar yurmadi.

(3) Do'stlarimdan, malikamdan ayrilib, bordim. Men o'g'limga ... xalqimga to'ymadim.

(4) O'ttiz sakkiz yoshimda (vafot etdim).

(5) O'n oy eltdi onam (meni o'z qornida), o'g'il bo'lib tug'ildim, mard bo'lib ulg'aydim.

@tarixchi_kutubxonasiga

(6) Elimda to'rt bora kezdim. Shavkatim uchun Inanchu alplari orasida ...
(7) Shavkat bo'lsa, shunday bo'lar ekan. (Men) Esinman. Altun Qaparga kirdim.
(8) Sharaf uchun Tuput xoniga elchi bo'lib bordim. (Undan tovon) keltirdim.

## UYBAT MANGUTOSHLARI

Uybat daryosi yaqinidan ko'k turk yozuvli beshta mangutosh topilgan (qarang: Malov 1952,58–65; Orkun 1987,549–556). Quyida ulardan uchtasining matnini keltiramiz.

### Birinchi bitik (E 30)

Uybat yaqinidan topilgan birinchi toshning old tomoni, so'l va o'ng yog'ida jami 5 satr yozuvi bor.

#### Matn

(1) Erdäm qaŋ Altuğa bermiši
(2) On ninäsi, toquz oğlï bar üčün b...
(3) Čab Šatun tarqan beŋüsi tikä bertim(iz)
(4) Erdämin üčün el arada Qara qanqa barïpan,
(5) yalabač barïpan, kelmädiŋiz begimiz.

#### Mazmuni

(1) (Bu yodgorlik) jasur ota Altuga bag'ishlangan.
(2) O'n (nafar) ona-urug'i [buvisi, egachi-singli], to'qqiz o'g'li bor uchun ...
(3) Mashhur Shatun tarqan mangutoshini tikladik.
(4) Jasurligi uchun el orasida Qoraxonga borib,
(5) elchi bo'lib borib, qaytmadingiz, begimiz.

### Ikkinchi bitik (E 31)

Uybat yaqinida topilgan ikkinchi bitik, aftidan, katta matnning yarmisi chiqar. Bu ham 5 satrdan iborat. Ikkinchi bo'lagi topilmagan.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn**

(1) Uz bilgä Čaŋšï, uz t...
(2) (Qan)ïn üčün, alpïn üčün, erdämin üčün
(3) ... tökdi, tört buluŋqa tökdi.
(4) ...pdi üč qata tegzinti.
(5) ...ta siz er, iki oğlïn birlä ölti.

**Mazmuni**

(1) Mohir va dono Changshi, mohir ...
(2) xoni uchun, mardlik uchun, shavkat uchun
(3) ... (olamning) to'rt yog'iga taratdi.
(4) ... uch bora kezdi.
(5) ... siz – jasur(siz). Ikki o'g'li bilan o'ldi.

**Uchinchi bitik (E 32)**

Uchinchi bitik boshqalaridan ancha katta. Uning old tomonida, so'l va o'ng yog'ida hamda ters tarafida – jami 17 satr yozuvi bor.

**Matn**

(1) Er erdämi üčü(n äčim)ä, yïta, yoqladï, qulï as tutsar, küč üč äčimä.
(2) Beg erigčä Sabïq basar äčimiz
(3) yağïda ... qop bodun teŋin bilir erti.
(4) ...gn toquz.
(5) Üzä täŋri yarlïqadï, q...
(6) Qara bodun ... bodunïm, üč oğlïma bökmädim.
(7) Tarqan Saŋun-men ... kg bökmädi bodunïŋa.
(8) El-čur eliŋä qazğandïm-men, ... er erdämin üčün yoqladï.
(9) Yoqlamaz-biz elin ... bökmädim eltä qalmïs altï bilgä beg oğlïŋa.
(10) Bedizin üčün türk qan balbalï el ara toquz erig udïš er oğlïn ögürüp ödür altï erdäm begimä.
(11) ... toquz tezginip atïn eriglig ...
(12) otuz erig bašlayu tutuğqa ba(r)dï erinč.
(13) ... üč äčimä adïrïndïm.
(14) ... bir-mat atačïmqa adïrïndïm, toquz beg er ... ma a(dï)r(ïndï)m.
(15) ... uruŋ baši ertim, ïnanči ertim.
(16) Altï yašïmta qaŋ adirdïm, bilinmädim, üč ečimä, yïta, adïrdïm, bči ... üč äčimä qaŋ-men, erdäm atïm erti birlä ...
(17) Elimkä, qanïmqa bökmädim ... (oğla)nïma, inimä, ečimä men emkim (?) körä bökmädim.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Mazmuni**

(1) Er shavkati uchun akamga atab ta'ziya o'tkazdi (yo'qladi). Qullari marosimda kuchli uch akam ruhiga atab xizmat qildi..

(2) Bek er yanglig' Sabiq basar akamiz.

(3) Jangda ... xalqning tengini xo'p bilar edi.

(4) ... to'qqiz.

(5) Yuqorida tangri yorlaqadi ...

(6) Qora xalq ... xalqim, uch o'g'limga to'ymadim.

(7) (Men) Tarxan Sangunman ... to'ymadi xalqiga.

(8) El Chur eli uchun zafar qozondim men. ... Er shavkati uchun ulug'landi.

(9) Biz (uning qadar) ulug' bo'la olmasmiz. El bilan ... to'ymadim elda qolgan olti nafar dono bek o'g'liga.

(10) Hashamli bo'lsin uchun turk xon balbali el aro to'qqiz erni, birinketin, mard o'g'illarini yig'ib, ular ichidan saylab oldi shavkatli begimga.

(11) ... to'qqiz marta tezikib, otini to'xtatdi.

(12) O'ttiz erni boshlab borib, o'zini tutqunlikka bog'lab berdi.

(13) ... uch akamdan ayrildim.

(14) ... bittagina otaginamdan ayrildim, to'qqiz bek er ... ma ayrildim.

(15) ... Urung boshi (uruŋ baši) edim, ishonchi (inančï) edim.

(16) Olti yoshimda otamdan ayrildim, anglab yetmadim. Uch akamdan faryod chekib ayrildim. ... uch akamga men sharafli otaman, mening nomim ular bilan ....

(17) Elimga, xonimga to'ymadim ... o'g'lonimga, inimga, akamga men diydorini ko'rib to'ymadim.

## KO'K TURK YOZUVIDAGI «IRQ BITIGI»

«Irq bitigi» ko'k turk xatidagi yaxlit kitob holida saqlangan yagona asardir (Malov 1951,80–92; Aydarov 1990,146–169). Qadimgi turkiy tilda *ïrq* – «fol», *ïrq bitig* – «fol kitobi» degan ma'noni anglatadi. Asar qo'lyozmasi hozir Angliyada, Britaniya kutubxonasidagi S.A. Steyn kolleksiyasida (British Library, Or. 8212/161) saqlanmoqda.

Asar yakunida uning nomi qayd etilgan: *Amtï amraq oğlanïm, anča bilinlär, bu ïrq bitig edgü-ol (Endi suyukli o'g'illarim, bilib qo'ying, bu «Irq bitigi» iyilidir).* Shundan so'ng matnning yozilgan tarixi, uning kimlarga atalgani bitilgan: *Bars yïl, ekinti ay, beš yigirmikä Taygüntan Manistantäki kičig dintar buru ğuru ešidčimiz Ísig Saŋun, Ítäčük üčün bitidim ((Men bu kitobni) bars yili ikkinchi oyining yigirma beshinchisida Tayguntan Manistandagi kichik dindorlar, burua g'uru (darajasidagi) tinglovchilarimiz Isig Sangun va Itachuk uchun ko'chirtirdim).*

@tarixchi_kutubxonasiga

Asar tush ta'birlariga bag'ishlangan bo'lib, 65 bo'limdan tuzilgan. Har qaysi bo'lim muayyan masala xususida. Kitob yuz betli.

Tush ta'birlari turli hayvon va qushlarning obrazlari, har xil voqealar bilan bog'liq holda bayon etiladi. Bular yaxshilik va yomonlikning tushda belgi berishidir. Muhimi shundaki, asarda aks etgan yaxshilik va yomonlik timsoli turklarning eng qadim tasavvurlariga borib tutashadi.

Asar nihoyasidagi uning moniy jamoasidagi ikki shogird Isig Sangun, Itachuk uchun yozilganligi haqidagi qayd hamda asarda qo'llangan ayrim atamalarga asoslanib, bitik moniy muhitida yaratilganligini e'tirof etish mumkin. Asardagi obrazlar tizimida, syujet yoki voqealar bayonida aynan moniylik tasavvurlari bilan bog'lanuvchi detallar kuzatilmaydi. Ayniqsa, hayvon ramzlari bilan bog'liq mifologik tasavvurlar asar ildizlarini ko'k tangri dini, shamanlik inonchi bilan bog'laydi. Anglashiladiki, asarda aks etgan tasavvurlar ildizi ancha chuqur.

## Matn transkripsiyasi

(1) Tänsi-men. Yarïn kečä altun örgin üzä olurupan, meŋiläyür-men. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(2) Ala atlïğ yol täŋri-men. Yarïn kečä ešür-men. Otru eki aylïğ kiši oğlïn soqušmïš. Kiši qorqmïš. Oorqma, – temiš, – qut bergäy-men, – temiš. Anča biliŋ – edgü-ol.

(3) Altun qanatlïğ talïm qaraquš-men. Tanïm tüsi taqï tükämäzkän, taluyda yatïpan, tapladuqïmïn tutar-män, sebdükimin yeyür-men. Andağ küčlüg-men. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(4) Örüŋ esri toğan quš-men. Čïntan ïğač üzä olurupan, meŋiläyür-men. Anča biliŋlär.

(5) Beg er yontïŋaru barmïš, aq bisi qulunlamïš, altun tuyuğluğ adğïrlïq yarağay. Tebäsiŋärü barmïš, örüŋ iŋgäni butulamïš, altun budluluğ buğralïq yarağay. Ebiŋärü kelmiš. Üčünč, quncuy urulanmïš, beglik yarağay, – ter. Meŋilig beg er ermiš. Añïğ edgü-ol.

(6) Adïğlï toŋuzlï art üzä soqušmïš ermiš, adïğïŋ qarnï yarïlmïš, toŋuzuŋ azïğï sïnm-

(7) ïš, – ter. Anča biliŋ – yablaq-ol. Er terkläyü kelir, edgü söz sab elti kelir, –ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(8) Altun bašlïğ yïlan-men. Altun qoruğsaqïmïn qïlïčïn kesipän, özüm yol intin, bašïmïn yol ebintin, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(9) Uluğ eb örtänmiš, qatïŋa tegi qalmaduq, bökiŋä tegi qodm(ad)uq, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(10) Esnägün bars-men. Qamuš ara bašïm, andağ alp-men, erdämlig-men. Anča biliŋlär.

(11) Sarïğ atlïğ sabčï, yazïğ atlïğ yalabač edgü söz sab elti kelir, – ter. Anča biliŋ – añïğ edgü-ol.

@tarixchi_kutubxonasiga

(12) Er abqa barmïš, tağda qamlamïš, täŋridä erklig, – ter. Anča biliŋlär – yabïz-ol.

(13) Täŋrilig qurtğa yurtda qalmïš, yağlïğ qamïč buluŋïn yalğayu tirilmiš, ölümdä ozmïš, – ter. Anča bilinlär.

(14) Quzğunuğ ïğačqa bamïš, qatïğtï ba, edgüti ba, – ter. Anča biliŋlär.

(15) Üzä tuman turdï, asra toz turdï, quš uğï (oğlï ?) uča aztï, kiyik oğlï yügürü aztï, kiši oğlï yorïyu aztï, yana täŋri qutïnta üčünč yïlta qop esäntükäl körüšmiš, qop ögirär sebinür, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(16) Turuq at semriti yerin öpän yügürü barmïš. Otru yerdä oğrï sooqušup tutuupan, minmiš-yiliŋä qudursuğ ïŋnïŋa tegi yağrïpan qamšayu umatïn turur, – ter. Anča biliŋ – yablaq-ol.

(17) Özlük at öŋ yerdä arïp oŋuup turu qalmïš. Täŋri küčiŋä tağ üzä yul sub körüpän, yïš üzä yaš ot körüpän, yorïyu barïpan, sub ičiripän, yaš yepän ölümdä ozmïš, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(18) Keräkü ičintä-teg-ol, tügünüki ne-teg-ol, közünükki ne-teg körüklüg-ol, egni ne-teg edgü-ol, bağïšï ne-teg bar-ol, – ter. Anča biliŋlär – añïğ edgü-ol. Aq at qarš-

(19) ïsïn üč boluğta talulapan, ağanqa ötügkä yadmïš, – ter. Qorqma, edgüti ötün, ayïnma, edgütï yalbar, – ter. Anča biliŋ – edgü-ol.

(20) Tetir buğra-men. Örüŋ köpükümin säčär-men, üzä täŋrikä tegir, asra yerkä kirür, – ter. Udïğmağ odğur(u) yatïğlïğ turğuru yorïyur-men, antağ küčlüg-men. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(21) Qara öpgük yïl yarumazqan, – tedi, – ödmäŋ, körmäŋ, ürkittiŋ, – ter. Anča biliŋ.

(22) Uzuntonluğ közüŋüsin kölkä ïčğïnmïš, yarïn yaŋrayur, kečä keŋränür, – ter. Anča biliŋlär – muŋluğ-ol, añïğ yablaq-ol.

(23) Oğlan käkük tezkin bultï čuk (?) tiŋ qutluğ bolzun, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(24) Täglük qulun erkäk yonda (yontda?) emig tiläyür, kün ortu yütürük, tün ortu qanta, negüdä bolğay ol, – ter. Anča biliŋlär – yabïz-ol.

(25) Eki ögüzüg bir boqarsïqa kölmiš qamšayu umatïn turur, – ter. Anča biliŋ – yablaq-ol.

(26) Taŋ taŋlardï, udu yer yarudï, udu kün toğdï, qamïğ üzä yaruq boltï, – ter. Anča biliŋ – edgü-ol.

(27) Bay er qoñï ürküpän barmïš börikä sooqušmïš, böri agzï emsimiš, esän- tüükäl bolmïš, – ter. Anča bilinlär – edgü-ol.

(28) Qan olurupan, ordu yapmïš, eli turmïš, tört buluŋtaqï edgüsi uyarï terilipän, meŋiläyür bedizläyür, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(29) Oyma er oğlanïn kišisin tutuğ urupan, usïč oyuğ alïp barmïš oğlïn kišisin utuzmaduq yana toquzon boš qoñ utmïš oğlï yutuzu qop ögirär, – ter. Anča biliŋ – edgü-ol.

@tarixchi_kutubxonasiga

(30) Čiğañ er oğlï qazğančqa barmïš, yolï yaramïš, ögirä sebinä kelir, – ter. Anča bilinlär – edgü-ol.

(31) Bars kiyik äŋkä-mäŋkä barmïš, eŋin-meŋin bulmïš, bulupan uyasïŋaru ögirä sebinü kelir, – ter. Anča biliŋ – edgü-ol.

(32) Bir tabïlqu yüz boltï, yüz tabïlqü miŋ boltï, miŋ tabïlqu tümän boltï, – ter. Anča biliŋlär – asuğï bar, edgü-ol. Ki(d)izig

(33) subqa suqmïš, taqï ur, qatïğdï ba, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(34) Qan sükä barmïš, yağïğ sančmïš, köčürü qonturu kelir, özi süsi ögirä sebinü ordusïŋaru kelir, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(35) Er sükä barmïš, yolta atï armïš, er quğu qušqa soqušmïš, quğu quš qanatïŋa urup(an a)nïn qalïyu barïpan, ögiŋä-qaŋïŋa tegürmiš. Ögi-qaŋï ögirär sebinür, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(36) Öküš atlïğ ögrünčüŋ yooq, qobï atlïğ qorqïnčïŋ yooq, učruğluğ qutuŋ yooq, – ter. Anča biliŋlär – añïğ yablaq-ol.

(37) Bir qarï öküzüg belin bičä qumursğa yemiš, qamšayu umatïn turur, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(38) Qamïš ara qalmïš täŋri unamaduq abïnču qatun bolzun, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(39) Tağïğ tärtrü kišämiš, qamšayu umatïn, turur, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(40) Talïm urï yaranča yasïčïn yalïm qayağ yara uruupan, yalŋusun yorïyur, – ter, antağ alp ermiš. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(41) Örüŋ esri ingäk bozağulačï bolmïš, ölgäy-men, – temiš. Örüŋ esri erkäk bozağü kelürmiš ïduqluq yarağay ülügdä ozmïš, – ter. Anča biliŋ – edgü-ol.

(42) Uzuntonluğ idišin-ayağïn qodupan barmïš, yana edgüti saqïnmïš: idišimtä-ayaqïmta öŋi qanča barïr-men, – ter; yana kelmiš: idišin-ayaqïn esän- tüükäl bulmïš, ögirär sebinür, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(43) Toğan ögüz qušï qušlayu barmïš, otru talïm qaraquš qopupan barmïs, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(44) Toğan quš täŋridän qodu tabïšğan tepän qapmïš, toğan quš tïŋaqï sučulunmïš, yana titürmiš, toğan qušïŋ tïŋaqï ögüšüpän qalïyu barmïš, tabïšğan terisi öŋüšüpän yügürü barmïš antağ, – ter. Anča biliŋlär – yabïz-ol.

(45) Kiyik oğlï-men. Otsuz subsuz qaltï uyïn, nečük yorïyïn, – ter. Anča biliŋlär – yabïz-ol.

(46) Tebä titigkä tüšmiš, bašïnu yemiš, özin tilkü yemiš, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(47) Er ömäläyü barmïš täŋrikä sooqušmïš qut qulmïš, qut bermiš, ağïlïŋta yïlqïŋ bolzun, özüŋ uzun bolzun, – temiš. Anča biliŋlar – edgü-ol.

(48) Qara yol täŋri-men. Sïnuqïŋïn sepär-men, üzüükiŋin ulayur-men; ilig etmiš-men, edgüsi bolzun, – ter. Anča biliŋlär.

@tarixchi_kutubxonasiga

(49) Bars kiyik äŋläyü mäŋläyü barmïš, otru yerdä mağaqa soqušmïš, esri mağa yalïm qayaqa ünüp barmïš, ölümtä ozmïš, ölümtä ozupan ögirä sebinü yorïyur, – ter. Anča biliŋ – edgü-ol.

(50) Tïğ at qudruuqïn tügüp tirgät yazïğ qodu yadrat tooquz qat üčürgün, topu uluğ anča teritzün, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(51) Talïm qaraquš-men. Yašïl qaya yaylağïm, qïzïl qaya qïšlağïm-ol. Tağda turupan, meŋiläyür-men. Anča biliŋlär.

(52) Er busušluğ täŋri bulïtlïğ boltï ara kün toğmïš busanč ara meŋi kelmiš, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(53) Boz bulït yorïdï, bodun üzä yağdï, qara bulït yorïdï, qamïğ üzä yağdï, tarïğ bišdi, yaš ot ündi, yïlqïqa kišikä edgü boltï, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(54) Qul sabï beginärü ötünür, quzğun sabï täŋrigärü yalbarur, üzä täŋri ešidti, asra kiši bilti, – ter. Anča biliŋ – edgü-ol.

(55) Alp er oğlï sükä barmïš. Sü yerintä eriklig sabčï türtmiš, – ter. Ebiŋärü kelsär, özi atanmïš ögrünčülüg atï yigitlig kelir, – ter. Anča biliŋlär – aŋïğ edgü.

(56) Ögriŋä qutluğ adğïr-men. Yağaq ïğač yaylağïm, qušluğ ïğač qïšlağïm, anda turupan, mäŋiläyür-men, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(57) Qanğï ölmiš köŋäki toŋmïš, qanğï nelük ölgäy ol beglig ol köŋäki nelük toŋğay ol künäškä olurur ol. Anča biliŋlär – bu ïrq bašïnta az emgäki bar, kin yana edgü bolur.

(58) Oğlï ögrintä-qaŋïnta öbkäläpän tezipän barmïš, yana saqïnmïš kelmiš. Ögüm ötin alayïn, qaŋïm sabïn tïŋlayïn, tep kelmiš, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(59) Yulda tegmišig yïdïtmayïn, ayda tegmišig artatmayïn, edgïsi bolzun, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(60) Toquz aralï sïğun kiyik-men. Bediz tiz üzä önüpän müŋräyür-men. Üzä täŋri ešidti, asra kiši bilti, antağ küčlüg-men, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(61) Turuñaya quš tüšnäkiŋä qonmïš, tuymatïn tozda ilinmiš, uča umatïn, olurur, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

(62) Yarğun kiyik-men. Yaylïğ tağïma ağïpan yaylayur turur-men, meŋlig-men, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(63) Qanlïq süsi abqa ünmiš, sağïr ičrä elik kiyik kirmiš, qan eligin tutmïš, qara qamïğ süsi ögirär, – ter. Anča biliŋlär – edgü-ol.

(64) Kök buymul toğan quš-men. Körüklüg qayaqa qonupan, közläyür-men, yağaqlïğ toğraq üzä tüsüpän, yaylayur-men, – ter. Anča biliŋlär – aŋïğ edgü-ol.

(65) Semiz at ağzï qatïğ boltï, idisi umaz, – ter. Anča biliŋlär – yablaq-ol.

Amtï, amraq oğlanïm, anča biliŋlär: bu Ïrq bitig edgü-ol. Inčïp alqu, kentü ülügi erklig-ol.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bars yil, ekinti ay, beš yigirmikä Taygüntan manïstantaqï kičig dintar buruağuru ešidčimiz Isig saŋun, Itäčük üčün bitidim.

**Matnning mazmuni**

(1) Men Tansiman [ya'ni, «Osmon o'g'li» = imperatorman] kecha-kunduz oltin taxt uzra o'ltirib shodlanyapman. Bilingki – (buning alomati) yaxshidir.

(2) Men ola otli yo'l [ya'ni, taqdir] tangrisiman. Kecha-yu kunduz otimda yelib boraman. U [ya'ni, taqdir tangrisi] ikki oyli odam bolasi bilan uchrashdi. Bola qo'rqdi. «Qo'rqma, – dedi, – qut bergayman», – dedi u. Bilingki – (belgisi) yaxshidir.

(3) (Men) oltin qanotli yirtqich qoraqush[ya'ni burgut]man. Tanimning tusi (patlarim) toki tugamas ekan dengizda yotib, istaganimni tutarman, suyganimni yeyman. Shunday kuchliman. Bilingki – yaxshidir.

(4) Men chipor tusli lochinman. Sandal daraxti uzra qo'nib shodlanyapman. Buni biling – (yaxshidir).

(5) Bek kishi o'z otlari tomon bordi, oq biyasi qulunlabdi. Olti tuyoqli qulun ayg'irlikka yaraydi.

U tuyalari tomon bordi. Oq ingani [urg'ochi tuyasi] bo'talabdi. Oltin burunduqli bo'ta bug'raga yaraydi.

U uyiga keldi. Uchinchi (hodisa) – malikasi o'g'il tug'ibdi. (O'g'il) beklikka yaraydi, dedi. Bek (bularning baridan) shod edi. Aniq – yaxshidir.

(6) Ayiq va to'ng'iz cho'qqi ustida to'qnashibdi. Ayiqning qorni yorilibdi, to'ng'izning oziq tishi sinibdi, der. Bilingki – yomondir.

(7) Kishi tez qaytib kelmoqda, xushxabar eltmoqda, der. Bilingki – yaxshidir.

(8) Oltin boshli (tojli) ilonman. Oltin qorin-qurug'sog'imni qilich bilan kesib, o'zimni yo'lga, boshimni uyim ostonasiga qo'ydilar, der. Buni bilingki – yomondir.

(9) Katta uy yondi, tubiga qadar hech narsa qolmadi, devorigacha qolmadi, der. Bilingki – bu yomon.

(10) Men esnagan barsman. Boshim qamish orasida. Shunday botirman, shijoatliman. Bilinglar – (bu yaxshi).

(11) Sariq otli xabarchi, bo'z otli elchi ezgu xabar olib kelayotir, der. Bilingki – aniq yaxshidir.

(12) Kishi ovga bordi. Tog'da fol ochdi. Erk Tangrida, der. Shundan bilinglar – (belgisi) yovuzlikdir.

(13) O'sal kampir uyda qoldi. Yog'li cho'mich tubini yalab, tetik tortdi. O'limdan omon qoldi, der. Buni bilinglar – (bu yaxshidir).

(14) Quzg'unni daraxtga bog'ladi. Qattiq bog'la, yaxshi bog'la, der. Buni bilinglar!

@tarixchi_kutubxonasiga

(15) Yuqorida tuman yoyildi, pastda to'zon turdi. Qush bolasi uchib, (yo'ldan) ozdi, hayvon bolasi yugurib adashdi, kishi o'g'li yurib adashdi. Ular Tangri inoyati bilan uchinchi yil xo'p eson-omon, tugal ko'rishdilar. Ular xo'p o'rgilib, sevindi, der. Bilingki – yaxshidir.

(16) To'riq ot yemxonasini eslab yugurib bordi. Ro'paradagi yerda bir o'g'ri duch kelib, uni tutib mindi. Yag'rinidan yoligacha yag'ir bo'lgan, qo'tir bosgan ot holsizgina turdi, der. Shunday biling – (alomati) yovuzlikdir.

(17) O'zlik ot sharq tomonda adashib, charchab turib qoldi. Tangri kuchi bilan tog' uzra suvni ko'rib, tepaliklar uzra o't-o'lanlarni ko'rib, yurib borib, suv ichib, maysalarni yeb o'limdan omon qoldi, der. Bilinglarki – yaxshidir.

(18) O'tovning ichi qanday, tuynugi qanday, derazasi qanday chiroyli, usti qanday yaxshi, bog'ichi qanday ishlangan ekan, der. Bilinglarki – aniq yaxshidir.

(19) Oq ot raqibini uch nasldan ham ajratib tavba qilishga, o'tinishga majbur qiladi, der. Qo'rqma, yaxshilab o'tin, vahimaga tushma, yaxshilab yolbor, der. Bilingki – yaxshidir.

(20) (Men) tetir bug'ra[tuyaning erkagi]man. Oq ko'pigimni socharman. U yuqorida osmonga yetadi, pastda yerga kiradi, der. Uxlayotganni uyg'otib, yotganni turg'izib yurarman. Shunday kuchliman. Bilingki – yaxshidir.

(21) Qora popishak yil bo'yi oqarmas ekan [ya'ni hech zamon o'zgarmas ekan], dedi. O'git bermang, (menga) qaramang, (meni) hurkitding, der. Shunday bilingki!

(22) Uzunto'nli [«xotin kishi», ba'zilar «rohib» deb beradi] ko'zgusini ko'lga tushirib yubordi. Ertalab siqtadi, kechda ingradi, der. Bilinglar – munglidir, aniq yovuzdir.

(23) O'g'lon [yigit] kakku patini topib oldi. Buni taqqan kelin qutli bo'lsin, der. Bilinglarki – yaxshidir.

(24) Ko'r [ahmoq] qulun ayg'irlar uyurida em tiladi [onalik mehrini izladi]. Kun o'rtasi [tushda] bo'zladi, qoq tun qon yig'ladi. U nima qilsin, der. Buni bilinglar – yovuzlikdir.

(25) (Kimsa) ikki ho'kizni bir omochga qo'shdi. Ularning yurishga majoli kelmay turardi, der. Bilinglarki – yomonlikdir.

(26) Tong otdi, izma-iz yer yorishdi, so'ng kun tug'di, hamma yoq yop-yorug' bo'ldi, der. Bilingki – yaxshidir.

(27) Boy kishining qo'yi hurkib qochdi, borib bo'riga yo'liqdi. Bo'rining og'zi em [davo] topdi, uni yeb tugal eson qoldi, der. Buni bilinglar – yaxshidir.

(28) Xon taxtga o'tirib o'rda qurdi, eli mustahkamlandi. To'rt tomondagi a'yonlari terilib suyundilar, uni ulug'ladilar, der. Shundan bilinglar – ezgudir.

(29) Qimorboz kishi o'g'lini va xotinini otga mindirib, qimor o'ynagani sheriklarining oldiga bordi. (Qimorda) o'g'lini, xotinini yutqizmadi, aksin-

@tarixchi_kutubxonasiga

cha, to'qsonta qo'y yutdi. O'g'li va xotini xo'p suyundi. Shundan bilinglar – (belgisi) yaxshidir.

(30) Yo'qsil kishining o'g'li pul ishlagani bordi. Yo'li ochilib, (uyiga) shod-hurram qaytmoqda, der. Bilinglarki – yaxshidir.

(31) Bars kiyik oviga bordi. O'ljasini topdi. Topib uyasiga suyunib qaytmoqda, der. Bilingki – yaxshidir.

(32) Bir tabilg'u (daraxti) yuz bo'ldi [undan buyumlar yasaldi], yuz tabilg'u ming bo'ldi, ming tabilg'u tuman bo'ldi, der. Bilinglar – foydasi bor, ezgudir.

(33) Kigizni suvga suqibdi. Yana ur, qattiq bog'la, der. Buni bilinglar – yomondir.

(34) Xon jangga bordi. Yovni sanchdi. Ularni ko'chirib, qo'ndirib kelmoqda. O'zi va lashkari sevinib o'rdasi tomon kelmoqda, der. Shundan bilinglar – ezgudir.

(35) Yigit jangga boribdi. Yo'lda oti holdan toyibdi. Yigit oqqushga yo'liqibdi. Oqqush uni qanotiga mindirib ko'kka ko'tarilibdi va ona-otasiga yetkazibdi. (Yigitning) ona-otasi sevinmoqda, der. Bundan bilinglar – ezgudir.

(36) (Atrofingda) amaldor ko'p bo'lsa quvonching yo'q. Amaldorlar oz bo'lsa qo'rqinching yo'q, uchurug'li [uchib ketadigan] quting yo'q, der. Buni bilinglar – butunlay yovuzlikdir.

(37) Bir qari ho'kizning tanasini mayda qumursqalar taladi. Uning yurishga majoli qolmay, turibdi, der. Buni bilinglar – yomondir.

(38) U qamishzorda qoldi [ya'ni, to'qayda yashadi]. Tangri unamagan [ya'ni, qo'llamagan] ayol unga xotin bo'lsin, der. Bilinglarki – yaxshidir.

(39) Otni qattiq tushovlab tashladilar, qimirlashga majoli kelmay turibdi, der. Buni bilinglar – yomondir.

(40) Dovyurak o'g'il o'z o'q-yoyi bilan qoya va jarlarni urib [tog'larni tolqon qilib] yolg'iz yuradi, der shunday alp emish. Buni bilinglar – yaxshidir.

(41) Oq dog'li [ola] sigir to'lg'oq tuta boshladi. O'laman, dedi. Ola erkak buzoq tug'di. (Buzoqcha) qurbonlikka yaraydi. (U) o'lmasdan qoldi, der. Shunday biling – ezgudir.

(42) Uzunto'nli [ya'ni, ayol] idish-oyoqini qo'yib, yo'lga tushdi. Bu ishidan ko'p qayg'urdi. Idish-oyoqni qoldirib qayerga boryapman, der. Qaytib keldi, idish-oyoqni butunligicha ko'rib, bundan sevinur, der. Buni bilinglar – ezgudir.

(43) Yirtqich suvqushi qush oviga bordi. Ro'parada yirtqich qora qush [burgut] paydo bo'ldi, der. Shuni bilinglar – yomondir.

(44) Yirtqich qush osmondan quyiga tovushqon deb hamla qildi. Yirtqichning panjalari ochilib yopildi. Yirtqich o'ljasiga chang soldi va yuqori

@tarixchi_kutubxonasiga

ko'tarildi. Tovushqonning terisi shilinib yugurib borardi, shunday der. Buni bilinglar – yovuzlikdir.

(45) «Kiyik bolasiman, o'tsiz, suvsiz holim ne kechadi? Men qanday yashayman?» der. Buni bilinglar – yovuzlikdir.

(46) Tuya balchiqqa tushib ketdi. Boshlab, o'z boshini o'zi edi, (keyin uni) tulki edi, der. Shunday bilinglar – yomondir.

(47) Kishi ta'zim bilan borardi. Tangriga yo'liqdi. Undan qut tiladi. (Tangri) qut berdi: Og'ilingda yilqing bo'lsin, umring uzoq bo'lsin, dedi. Shunday bilinglar – ezgudir.

(48) Katta yo'l tangrisiman. Singaningni tuzataman, uzilganingni ulayman, elni tuzaman. Ezgulik bo'lsin, der. Shunday bilinglar!

(49) Bars kiyik ovlashga bordi. Yo'l yarmida ilonga duch keldi. Chipor ilon tik qoyaga tirmashib borardi. (Bars) o'limdan omon qoldi. O'limdan omon qolib quvonib, shodlanib yurardi, der. Shunday biling – ezgudir.

(50) To'riq otning quyrug'idan tugib yugurtir, ostida dashtni yayratgin [oyoqlarining ostida dasht yozilsin]. To'qqiz qat terlikdan ham o'tkazib terlasin, der. Shunday bilinglar – yovuzlikdir.

(51) Yirtqich qora qush [burgut]man. Yashil qoya – yaylovim, qizil qoya – qishlog'im [qishlaydigan yerim]. O'sha tog'da yashab, shodlanaman. Shunday bilinglar!

(52) Kishi qayg'uli, osmon bulutli bo'ldi. Ular orasida kun tug'di. Qayg'uaro shodlik kelmish. Buni bilinglar – ezgudir.

(53) (Ko'kni) bo'z bulut bosdi, xalq uzra yog'di. Qora bulut bosdi, hamma uzra yog'di. Ekin pishdi, yosh o't undi. Hayvonlarga, insonlarga yaxshi bo'ldi, der. Buni bilinglar – ezgudir.

(54) Qulning (aytadigan) so'zi – begiga o'tinishdir, quzg'unning so'zi – osmonga yolvorishdir. Yuqorida osmon eshitdi, pastda inson bildi, der. Shunday biling – ezgudir.

(55) Alp kishining o'g'li jangga bordi. Jang maydonida erkli notiqlar shunday uqtiradi, der: Agar jangchi uyiga (zafar qozonib) kelsa, o'zi nom chiqaradi, o'rgatilgan oti esa jilovlanib keladi, der. Buni bilinglar – bu juda yaxshi.

(56) Uyurga (fayz bag'ishlovchi) qutlug' ayg'irman. Yong'oqzor – yaylovimdir, qush qo'nadigan daraxt – qishlaydigan yerim. O'sha yerda turib shodlanaman, der. Shundan bilinglar – ezgudir.

(57) Xonning jonivori o'ldi, idishi muzladi. Xonning jonivori nega o'ladi, axir u bekniki-ku? Idishi nega muzlaydi? U quyoshga qaragan-ku? Buni bilinglar – bu faol boshida biroz emgagi bor, keyin yana ezgu bo'lur.

(58) O'g'li onasi va otasidan o'pkalab, ketib qoldi. Qayg'u chekib yana qaytib keldi. Onamning o'gitini olayin, otamning so'zini tinglayin, – deb keldi, der. Bilinglarki – ezgudir.

@tarixchi_kutubxonasiga

(59) Yilga [katta yoshga] yetganlarni o'ldirmayin, oyga [kichik yoshga] yetganlarni nobud qilmayin. Yaxshilik bo'lsin, der. Buni bilinglar – ezgudir.

(60) «To'quz» orolidagi maral-kiyikman. Chiroyli tizlarim uzra turib mungrayman. Yuqorida osmon eshitdi, pastda kishi bildi. Shunday kuchliman, der. Buni bilinglar – ezgudir.

(61) Turna (o'z) qo'nalg'asiga qo'ndi. Bilmayin to'z [shox-shabbalar]ga ilinib qoldi. Ucha olmay qoldi, der. Buni bilinglar – yomondir.

(62) Yarg'un kiyikman. Yozlik tog'imga ko'tarilib yozni o'tkazajakman. Sergakman, der. Buni bilinglar – ezgudir.

(63) Xonning lashkari ovga chiqdi. Qurshov ichiga ellikta kiyik kirdi. Xon ularni o'z qo'li bilan tutdi. Barcha avom, lashkar sevinar, der. Shunday bilinglar – ezgudir.

(64) Yovvoyi ko'k lochinman. Ko'rkli qoyaga qo'nib, (atrofni) ko'zlayman. Yong'oq, tollar uzra tushib yozni o'tkazaman, der. Buni bilinglar – juda ezgudir.

(65) Semiz otning og'zi yara bo'ldi. Egasi uni tuzata olmayapti, der. Buni bilinglar – yomondir.

Endi suyukli o'g'illarim, bilib qo'yinglar – bu «Irq bitigi» iyilidir. Shunday qilib, hammaning o'z ulushi [dunyodan oladigan ulushi, nasibasi, qismati] erklidir.

(Men bu kitobni) bars yili ikkinchi oyining yigirma beshinchisida Tayguntan Manistandagi kichik dindorlar, burua g'uru (darajasidagi) tinglovchilarimiz Isig Sangun va Itachuk uchun ko'chirtirdim.

## II. UYG'UR YOZUVIDA BITILGAN ASARLAR

Turkiy tildagi qadimgi tarixiy asarlarning katta bir qismi hozirda «uyg'ur yozuvi» deb yuritilayotgan qadimgi turkiy yozuvdadir. Ushbu alifbo o'tmishda turlicha atalgan. Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida uni «turkcha yozuv» deb atagan. Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning o'g'li Badiuzzamonga yozgan maktublaridan birida uni «turkcha xat» deb tilga oladi. Shuningdek, yozma manbalarda tarixchilar, o'sha davrning adabiyot va ilm egalari uni «uyg'ur xati» yoki «mo'g'ul xati» ham deganlar. Qanday atalganidan qat'i nazar, bu xat turkiy yozuv madaniyati tarixida katta iz qoldirgan. Muhimi, X asrda turkiy xalqlar arab xatiga o'ta boshlaganlaridan keyin ham uyg'ur xati o'z mavqeyini yo'qotmadi, musulmon-turklar orasida XV asr oxiriga qadar arab yozuvi bilan yonma-yon (parallel) ishlatildi, islomni qabul qilmagan turkiy jamoalar ichida (buddistlar orasida) XVIII yuz yillikda ham uyg'ur xati amalda bo'lgan. Shuning uchun ham arab xatiga qadar yaratilgan eski bitiklar orasida uyg'ur xatidagilari ko'p.

@tarixchi_kutubxonasiga

## «O'G'UZ XOQON» DOSTONI

Uyg'ur yozuvli «O'g'uzxoqon» dostoni mazmuni va tiliga ko'ra keyingi davrlarga mansub boshqa rivoyatlardan ajralib turadi. Qo'lyozmasi hozir Parijdagi Milliy kutubxonada (Suppl. turk,1001) saqlanmoqda. Qo'lyozmada dostonning boshlanishi ham, yakuni ham yo'q. Matnning jami 42 sahifa (21 varaq). Har sahifada uyg'ur yozuvli matn 9 qatordan bitilgan bo'lib, jami 376 satrdir. Qo'lyozmaning bitilgan sanasi ma'lum emas. Xat uslubiga qaraganda, harqalay, XIII–XIV asrlarda ko'chirilgan ko'rinadi (nashrlariga qarang: Radlof 1900,232–244; Sherbak 1959,11–110; Mahmudov, Sodiqov 1994,96–117). Doston shu davrlarda ko'chirilgan bo'lishiga qaramay, uning tarixiy ildizlari juda qadimga – miloddan burungi zamonlarga borib taqaladi. U turkiy xalqlar og'zaki adabiyotining eng eski namunalaridan sanaladi.

Quyida matn transkripsiyasi va asarning o'zbekcha o'girmasini keltiramiz.

### Matn transkripsiyasi

1

(1)... bolsunğïl, dep dedilär. Anuŋ aŋağusï
(2) ošbu turur. Taqï mundïn soŋ sewinč
(3) taptïlar. Kenä künlärdïn bir kün Ay qağan-
(4) nuŋ közü yarïp, bodadï, erkäk oğul toğurdï.
(5) Ošul oğulnuŋ öŋlügi-čïrağï kök
(6) erdi. Ağïzï ataš qïzïl erdi. Közläri al, sačlarï, qašlarï
(7) qara erdilär erdi. Yaqšï näpsikilärdïn
(8) körüklügräk erdi. Ošul oğul ana-
(9) sïniŋ köküzündün oğuznï ičip, mundun

2

(1) artïğraq ičmädi. Yig et, aš, sürmä
(2) tilädi, tili kelä bašladï. Qïrïq kündin soŋ
(3) bedüklädi, yürüdi, oynadï. Adağï ud adağï-deg, belläri
(4) böri belläri-deg, yağrï kiš yağrï-deg, köküzü
(5) aduğ köküzü-deg erdi. Bedäninüŋ qamağï
(6) tük-tülüglüg erdi, yïlqïlar kütäyä
(7) turur erdi, atlarğa minä turur erdi, kik
(8) aw awlaya turur erdi. Künlärdïn
(9) soŋ, kečälärdïn soŋ y(i)git boldï. Bu

@tarixchi_kutubxonasiga

3

(1) čaqta bu yerdä bir uluğ orman bar erdi.
(2) Köp müränlär, köp ögüzlär bar erdi. Bunda kelgän-
(3) lär kik köp-köp, bunda učqanlar quš köp-köp erdi.
(4) Ošul orman ič(i)ndä bedüg bir qïat bar
(5) erdi. Yïlqïlarnï, el-künlärni yer erdi. Bedüg
(6) yaman bir kik erdi. Berkä emgä(k) birlä
(7) el-künni basup erdi. Oğuz qağan bir eriz
(8) qağaz kiši erdi. Bu qïatnï awlam(a)q tilädi. Kün-
(9) lärdä bir kün awga čïqtï. Čïda birlä,

4

(1) ya, oq birlä, taqï qïlïč birlä, qalqan
(2) birlä atladï. Bir buğu aldï. Šul buğunï tal-
(3) nuŋ čupuğï birla ïğačqa bağladï, ketti.
(4) Andïn soŋ ertä boldï. Taŋ ertä čaq-
(5) ta keldi, kördi-kim, qïat buğunï alup
(6) turur. Kenä bir aduğ aldï, altunluğ
(7) belbağï birlä yïğačqa bağladï, ketti.
(8) Mundun soŋ ertä boldï, taŋ ertä
(9) čaqta keldi, kördi-kim, qïat aduğnï alup turur.

5

(1) Kenä ošu ïğačnïŋ tüb(i)ndä turdï. Qïat
(2) kelip bašï birlä Oğuz qalqanïn urdï. Oğuz
(3) čïda birlä qïatnïŋ bašïn urdï, anï
(4) öltürdi. Qïlïč birlä bašïn kesti, aldï, ketti. Kenä
(5) kelip kördi-kim, bir šuŋqar qïat ičägüsin
(6) y(e)mäktä turur. Ya birlä, oq birlä
(7) šuŋqarnï öltürdi, bašïn kesti. Andan
(8) soŋ dedi-kim, šuŋqarnuŋ aŋağu-
(9) sï ošbu turur: Buğu y(e)di, aduğ yedi. Čïdam

6

(1) öltürdi, temür bolsa. Qïatnï šuŋ-
(2) qar y(e)di, ya oqum öltürdi, yel bolsa, dep dedi,
(3) ketti. Taqï qïatnïŋ aŋağusu ošbu
(4) turur. Kenä künlärdä bir kün
(5) Oğuz qağan bir yerdä täŋrini čalbarğu-
(6) da erdi. Qaraŋğuluq keldi. Köktün
(7) bir kök yaruq tüšti. Kündün aya(n),

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) aydan quğulğuluğraq
(9) erdi. Oğuz qağan yürüdi, kördi-kim,

7

(1) ošbu yaruqnuŋ arasïnda bir qïz
(2) bar erdi, yalğuz olturur erdi, yaqšï körük-
(3) lüg bir qïz erdi. Anuŋ baš(ï)nda ataš-
(4) luğ yaruqluğ bir meŋi bar erdi,
(5) altun qazuq-deg erdi. Ošul qïz andağ
(6) körüklüg erdi-kim, külsä, kök
(7) täŋri külä turur; y(ï)ğlasa, kök täŋri
(8) y(ï)ğlaya turur. Oğuz qağan
(9) anï kördüktä özi qalmadï, ketti, sewdi, aldï. Anuŋ

8

(1) birlä yattï, tilägüsin aldï. Töl-boğaz
(2) boldï. Künlärdän soŋ, kečälärdän soŋ
(3) yarudï, üč erkäk oğulnï toğurdï. Birinči-
(4) sigä Kün at qoydïlar, ikin-
(5) čisigä Ay at qoydïlar, üčünčü-
(6) sügä Yulduz at qoydïlar. Kenä bir kün
(7) Oğuz qağan awğa ketti. Bir
(8) köl aras(ï)nda alïndan bir ïğač
(9) kördi. Bu ïğačnuŋ qapučağïnda

9

(1) bir qïz bar erdi, yalğuz olturur erdi.
(2) Yaqšï, körüklüg bir qïz erdi. Anuŋ
(3) közü köktün kökräk erdi.
(4) Anuŋ sačï mürän usuğï-deg, anuŋ
(5) tiši ünčü-deg erdi. Andağ körük-
(6) lüg erdi-kim, yerniŋ el-küni anï körsä,
(7) ay-ay, ax-ax, ölärbiz, dep süttän
(8) qumuz bola tururlar. Oğuz qağan
(9) anï kördüktä özi ketti, yürägigä ataš

10

(1) tüšti. Anï sewdi, aldï, anuŋ birlä yattï, tilägü-
(2) sün aldï. Töl-boğaz boldï. Künlär-
(3) dän soŋ, kečälärdän soŋ
(4) yarudï, üč erkäk oğulnï toğurdï. Birin-

@tarixchi_kutubxonasiga

(5) čisigä Kök at qoydïlar, ikin-
(6) čisigä Tağ at qoydïlar, üčünčü-
(7) sügä Teŋiz at qoydïlar.
(8) Andan soŋ Oğuz qağan bedüg
(9) toy berdi. El-küngä jarlïq

11

(1) čarlap, keŋäštilär, keldilär. Qïrïq širä,
(2) qïrïq bendäŋ čapturdï. Türlüg ašlar, tür-
(3) lüg sürmälär, čupuyanlar, qïmïzlar
(4) aš(a)dïlar, ičtilär. Toydan soŋ Oğuz
(5) qağan beglärgä, el-künlärgä
(6) jarlïq berdi, taqï dedi-kim: Men senlär-
(7) gä boldum qağan, alalïŋ ya taqï
(8) qalqan. Tamğa bizgä bolsun
(9) buyan, kök böri bolsunğïl uran. Temür čïda-

12

(1) lar bol orman, aw yerdä yürüsün qulan,
(2) taqï taluy, taqï mürän. Kün – tuğ bolğïl, kök –
(3) qurïqan, – dep dedi. Kenä andan soŋ
(4) Oğuz qağan tört sarïğa jarlïq
(5) jumšadï. Bildürgülük bitidi, elčilärigä
(6) berip yebärdi. Ošbu bildürgülüktä bitil-
(7) miš erdi-kim: Men uyğurnïŋ qağanï bola-men-
(8) kim, yernïŋ tört buluŋïnuŋ qağanï
(9) bolsam keräk turur. Senlärdän baš čalunğu-

13

(1) luq tiläp men turur. Ošul kim menïŋ ağïz-
(2) umğa baqar turur bolsa, taratğu
(3) tartïp, dost tutar-men, – dep dedi. – Ošbu kim
(4) ağïzumğa baqmas turur bolsa, čamat
(5) čaqïp, cerig čekip, dušman tutar-men.
(6) Tağuraq basïp, asturïp, yoq bolsunğïl,
(7) dep qïlur-men, – dep dedi. K(e)nä bu čaq-
(8) ta oŋ jaŋaqta Altun qağan
(9) degän bir qağan bar erdi. Ošbu Altun

@tarixchi_kutubxonasiga

14

(1) qağan Oğuz qağanğa elči yumšap
(2) yebärdi. Köp-telim altun, kümüš tartïp, köp-telim
(3) qïz yaqut taš alïp, köp-telim erdänilär yebär-
(4) ip yumšap, Oğuz qağanğa s(o)yurqap
(5) berdi, ağïzïğa baqïndï. Yaqšï begü birlä
(6) dostluq qïldï, anuŋ birlä amïraq
(7) boldï. Čoŋ jaŋaqïda Urum degän
(8) bir qağan bar erdi. Ošbu qağannuŋ
(9) čerigi köp-köp, balïqlarï köp-köp erdilär

15

(1) erdi. Ošul Urum qağan Oğuz qağan-
(2) nuŋ jarlïğïn saqlamas erdi, qatağla-
(3) ğu barmas erdi. Munï söz söz-
(4) ni tutmas-men, turur-men, dep yarlïq-
(5) qa baqmadï. Oğuz qağan čamat
(6) atup, aŋa atlağu tïlädi. Čerig birlä
(7) atlap tuğlarnï tutup ketti. Qïrïq
(8) kündün soŋ Muz tağ degän
(9) tağnuŋ adağïğa keldi. Qurïqan-

16

(1) nï tüškürdi, šük bolup uyup turdï. Taŋ ertä
(2) bolduqta Oğuz qağannuŋ
(3) qurïqanïğa kün-deg bir
(4) jaruq kirdi. Ol jaruqtun kök
(5) tülüklüg, kök jalluğ bedüg
(6) bir erkäk böri čïqtï. Ošul böri Oğuz
(7) qağanğa söz berip turur erdi.
(8) Taqï dedi-kim: Ay-ay Oğuz, Urum
(9) üstigä sen atlar bola-sen.

17

(1) Ay-ay Oğuz, tapuğuŋlarğa men
(2) yürür bola-men, – dep dedi. Kenä
(3) andan soŋ Oğuz qağan
(4) qurïqannï türtürdi, ketti. Kördi-
(5) kim, čerigniŋ tapuqlarï-

@tarixchi_kutubxonasiga

(6) da kök tülüklüg, kök jalluğ
(7) bedüg bir erkäk böri yürügüdä
(8) turur. Ol böriniŋ artlarïn qatağ-
(9) lap yürügüdä turur erdilär erdi. Bir

18

(1) nečä künlärdän soŋ kök
(2) tülüklüg, kök jalluğ bu bedüg
(3) erkäk böri turup turdï. Oğuz taqï čerig
(4) birlä turup turdï. Munda İtil mürän degän
(5) bir talay bar erdi. İtil mürännüŋ quduğ-
(6) ïda bir qara tağ tapïğïda
(7) urušğu tutuldï. Oq birlä, čïda
(8) birlä, qïlïč birlä uruštïlar. Čerig-
(9) lärniŋ aralarïda köp-telim boldï urušğu.

19

(1) El-künlärniŋ köŋülläridä
(2) köp-telim boldï qayğu. Tutulunč-urušunč
(3) andağ yaman boldï-kim, İtil mürän-
(4) nüŋ suğï qïp-qïzïl, sip-siŋir-deg
(5) boldï. Oğuz qağan baštï, Urum qağan
(6) qačtï. Oğuz qağan Urum qağan-
(7) nuŋ qağanluğïn aldï, el-
(8) künin aldï. Ordusïğa köp
(9) uluğ ölüg barğu, köp-telim tirig

20

(1) barğu tüšü boldï. Urum qağannuŋ
(2) bir qarundašï bar erdi, Urus beg degän
(3) erdi. Ol Urus beg oğulun tağ bašï-
(4) da Teräŋ mürän arasïda
(5) y(a)qšï berik baluqqa yumšadï. Taqï
(6) dedi-kim: Baluqnï qatağlağu keräk turur.
(7) Sen taqï urušğulardan soŋ baluq-
(8) nï beŋä saqlap kelgil, – dep dedi. Oğuz
(9) qağan ošul baluqqa atladï. Urus

@tarixchi_kutubxonasiga

21

(1) begniŋ oğulï aŋa köp altun,
(2) kümüš yebärdi. Taqï dedi-kim: Ay meniŋ
(3) qağanum-sen, meŋä atam bu
(4) baluqnï berüp turur. Taqï dedi-kim, baluq-
(5) nï qatağlağu keräk turur. Sen taqï
(6) urušğulardan soŋ baluqnï beŋä
(7) saqlap kelgil, dep dedi. Atam čamat atup ersä,
(8) menüŋ tapum erürmü? Sendän
(9) jarluq, bayluq, billük bilä-men.

22

(1) Biznïŋ qut(ï)bïz, seniŋ
(2) qutuŋ bolmuš, biznïŋ uruğ(ï)-
(3) bïz seniŋ ïğač(u)ŋnuŋ
(4) uruğï bolmuš bolup turur. Täŋri sen-
(5) gä yer berip bujurmuš bolup turur. Men seŋä
(6) bašumnï-qutumnï berämen. Bergü
(7) berip, dostluqtan čïqmas tur(ur-men), -
(8) dep dedi. Oğuz qağan y(i)gitniŋ
(9) sözün y(a)qšï kördi, sewindi, küldi, taqï

23

(1) aytï-kim: Meŋä köp altun yumšap-sen,
(2) baluqnï yaqšï saqlap-sen, – dep dedi. Anuŋ
(3) üčün aŋa Saqlap at qoydï, dostluq
(4) qïldï. Kenä čerig birlä Oğuz qağan
(5) İtil degän mürän(gä kečti). İtil (degän)
(6) bedüg bir (mürän) turur. Oğuz qağan anï
(7) kördi, taqï dedi-kim: İtilniŋ usuğïdan
(8) nečük kečärbiz? – dep dedi. Čerigdä bir
(9) y(a)qšï beg bar erdi. Anuŋ atï Uluğ Ordu

24

(1) beg erdi. Uzluğ, uqğuluğ bir er erdi.
(2) Kördi-kim, (quduğïda köp-telim) tallar, köp-telim
(3) yïğačlar (bar erdi. Ošbu beg ...) ošul yïğačlar,
(4) ... kesti, yïğačlarda
(5) yattï, kečti. Oğuz qağan sewinč attï, küldü.

@tarixchi_kutubxonasiga

(6) Taqï aytti-kim: Ay-ay, sen munda beg
(7) boluŋ, Qïpčaq degän sen beg boluŋ, –
(8) dep dedi. Taqï ilgärü ketti. ... Andan soŋ
(9) Oğuz qağan kenä kök tülüklüg,

25

(1) kök jalluğ erkäk böri kördi. Ošbu kök
(2) böri Oğuz qağanğa aytti-kim: Emdi
(3) čerig birlä mundun atla, Oğuz.
(4) Atlap, el-künlärni, beglärni keltür-
(5) gil. Men seŋä bašlap yolnï körgürür-
(6) men, – dep dedi. Taŋ ertä bolduqta
(7) Oğuz qağan kördi-kim, erkäk böri
(8) čerigniŋ tapuqlarïda yürügü-
(9) dä turur. S(e)w(i)ndi, ilgärü ketti. Oğuz

26

(1) qağan bir čoqur tan ayğïr atqa minä
(2) turur erdi. Ošul ayğïr atnï beg čoq sew(ä)yür
(3) erdi. Jolda ošbu ayğïr at közdän yitü
(4) qačtï, ketti. Munda uluğ bir tağ bar
(5) erdi. Öšä üstündä toŋ, taqï muz
(6) bar turur. Anuŋ bašï soğuqtan ap-aq
(7) turur. Anuŋ üčün anuŋ atï Muztağ
(8) turur. Oğuz qağanniŋ atï Muztağ
(9) ičigä qačïp ketti. Oğuz qağan mundan

27

(1) köp čağï emgäk čeküp turdï. Čerigdä
(2) bir bedüg qağaz er beg bar erdi.
(3) Čalaŋ-bulaŋdan qoruqmas turur
(4) erdi. Jürügüdä, soğurğuda oŋa
(5) er erdi. Ošul beg tağlarğa kirdi,
(6) yürüdü. Toquz kündän soŋ Oğuz
(7) qağanğa ayğïr atnï keltürdi. Muz
(8) tağlarda köp soğuq boluptan, ol beg
(9) qağardan sarunmïš erdi, ap-aq erdi. Oğuz

28

(1) qağan s(e)winč birlä küldü, aytti-kim:
(2) Ay sen, munda beglärgä bolğïl bašlïğ,

@tarixchi_kutubxonasiga

(3) (mä) meŋläp seŋä at bolsun Qağarlïğ, -
(4) dep dedi. Köp erdäni soyurqadï, ilgärü ketti.
(5) Kenä yolda bedüg bir üy kördi. Bu üynüŋ
(6) tağamï altundan erdi, tuŋluqlarï taqï
(7) kümüštün, qalïq(a)larï temürdün erdilär
(8) erdi. Qapuluğ erdi, ačqïč yoq erdi.
(9) Čerigdä bir y(a)qšï čewär er bar erdi, anuŋ

29

(1) atï Tömürdü qağul degän erdi. Aŋa
(2) jarlïq qïldï-kim: Sen munda qal, ač. Qalïq(a)
(3) ačğuŋdun soŋ kel orduğa, – dep
(4) dedi. Mundan aŋa Qalač at qoydï, ilgä-
(5) rü ketti. Kenä bir kün kök tülük-
(6) lüg, kök jalluğ erkäk böri yürümäyin
(7) turdï. Oğuz qağan taqï turdï, qurïqan
(8) tüšürä turğan turdï. Tarlağusïz
(9) bir yazï yer erdi. Muŋa Čürčit detürürlär erdi.

30

(1) Bedüg bir yurt, el-kün erdi. Yïlqïlarï
(2) köp, ud-buzağlarï köp, altun, kümüšläri köp,
(3) erdäniläri köp erdilär erdi. Munda Čürčit qağan-
(4) ï el-küni Oğuz qağanğa qaršu
(5) keldïlär. Uruš-toquš bašlandï, oqlar birlä, qilïč-
(6) lar birlä uruštïlar. Oğuz qağan baštï,
(7) Čürčit qağannï bastï, öltürdi, bašïn
(8) kesti. Čürčit el-künin öz ağïziğa
(9) baqïnturdï. U(ru)šğudun soŋ Oğuz qağan-

31

(1) nuŋ čerigigä, nükärlärigä, el-kün-
(2) igä andağ uluğ ölüg barğu tüšti-kim,
(3) yüklämäkkä, keltürmäkkä at, qağatïr, ud
(4) azlïq boldï. Anda Oğuz qağannuŋ
(5) čerigidä uzluğ ïšay bir čewär kiši bar erdi. Anïŋ
(6) atï Barmaqluğ Josun Billig erdi. Bu čewär
(7) bir qanğa čaptï. Qanğa üstündä ölüg
(8) barğunï qoydï, qanğa bašïda tirig
(9) barğunï qoydï; tarttïlar, kettilär. Nükärlär-

@tarixchi_kutubxonasiga

32

(1) nüŋ, el-künnüŋ qamağï munï kördilär, šaštïlar.
(2) Qanğalar taqï čaptïlar. Munlar qanğa yürümäk-
(3) tä qanğa-qanğa söz berä turur
(4) erdilär erdi. Anuŋ učun anlarğa
(5) qanğa at qoydïlar. Oğuz qağan qanğa-
(6) larnï kördi, küldi. Taqï aytdï-kim: Qanğa qanğa
(7) birlä ölügni tirig yürügürsün, Qanğa-
(8) luğ seŋä at bolğuluğ qanğa
(9) bilgürsün, – dep dedi, ketti. Andan soŋ

33

(1) kenä bu (kök) tülüklüg, kök jalluğ
(2) erkäk börï birlä Sïndu, taqï Taŋğut, taqï
(3) Šağam yaŋğaqlarïğa atlap ketti.
(4) Köp urušğudan, köp toqušğudan soŋ
(5) anlarnï aldï, öz yurtïğä birlädi,
(6) baštï, bastï. Kenä, tašqarun qalmasun,
(7) billüg bolsun-kim, kündünki buluŋda
(8) Baraqa degän bir yer bar turur. Uluğ
(9) barğuluğ bir yurt turur, köp ïsïğ bir yer

34

(1) turur. Munda köp kikläri, köp qušlarï bar turur,
(2) altunï köp, kümüši köp, erdäniläri köp turur. El-kün-
(3) läriniŋ öŋlügi-čïrağï qap-qara turur.
(4) Ošul yerniŋ qağanï Masar degän bir qağan
(5) erdi. Oğuz qağan anuŋ üstigä
(6) atladï. Andağ yaman urušğu boldï. Oğuz
(7) qağan baštï, Masar qağan qačtï. Oğuz
(8) anï bastï, yurtïn aldï, ketti. Anuŋ dostlarï
(9) köp sewinč(lig) erdi, anuŋ dušmanlarï köp

35

(1) qayğular t(aptï). Oğuz (qağan anï) baštï,
(2) sanağuluqsïz nämälär, yïlqï-
(3) lar aldï, yurtïğa, üyigä tüšti, ketti.
(4) Kenä, čašqarun qalmasun-kim,
(5) bellüg bolsun-kim, Oğuz qağannuŋ
(6) janïda aq saqalluğ, muz sačluğ,
(7) uzun uzluğ bir qart kiši turur, bar erdi,

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) uqğuluğ, tüzün bir er erdi, tüšimäl
(9) erdi. Anuŋ atï Uluğ Türük erdi. Kün-

36

(1) lärdä bir kün uyquda bir altun
(2) ya kördi, taqï üč kümüš oq kördi. Bu altun
(3) ya kün toquš'idan dä kün batuš'ï-
(4) ğača te(k)kän erdi, taqï bu üč
(5) kümüš oq tün yaŋğaqqa ketä
(6) turur erdi. Uyqudun soŋ tüštä kör-
(7) gänin Oğuz qağanğa bildürdi.
(8) Taqï dedi-kim: Ay qağanum, seŋä
(9) yaš(a)ğu bol(sun)ğïl uzu(n. Ay qağan)um, seŋä

37

(1) tör(ü)lüg bol(sun)ğïl tüzün, (beŋä kök)
(2) täŋri berdi tüšümdä, keltürsün. Talay
(3) turur yerni uruğuŋğa berdürsün, –
(4) dep dedi. Oğuz qağan Uluğ Türük-
(5) nüŋ sözün y(a)qš'ï kördi, ögüdün
(6) tilädi. Ögüdügä körä qïldï. Andan
(7) soŋ ertä bolupta ağalarnï, ini-
(8) lärni čarlap keltürdi, taqï aytti-kim: Ay, meniŋ
(9) könülüm awnï tilap turur. Qarï bolğumdan

38

(1) meniŋ qağazluğum yoq turur. Kün,
(2) Ay, Yulduz, taŋ sarïğa senlär baruŋ.
(3) Kök, Tağ, Teŋiz, tün sarïğa sen-
(4) lär baruŋ, – dep dedi. Andan soŋ üčägü-
(5) sü taŋ sarïğa bardïlar, taqï üčägü-
(6) sü tün sarïğa bardïlar. Kün, Ay,
(7) Yulduz köp kiklär, köp qušlar awlağu-
(8) larïdan soŋ joldä bir altun yanï
(9) čaptïlar, aldï(lar), atasï(ğa berdilär).

39

(1) (Oğuz qağan sewindi, küldi, taqï anï)
(2) üč buzğuluq qïldï. Taqï (aytti)-kim: Ay ağa-
(3) lar, ya bolsun senlärnüŋ, ya-deg
(4) oqlarnï kökkäčä atuŋ, – dep

@tarixchi_kutubxonasiga

(5) dedi. Kenä andan soŋ Kök, Tağ,
(6) Teŋiz köp kiklär, köp qušlar awlağu-
(7) larïdan soŋ jolda üč kümüš oq-
(8) (nï) čaptïlar, aldïlar, atasïğa berdilär.
(9) Oğuz qağan sewindi, küldi, taqï oq-

40

(1) larnï üčügä üläštürdi. Taqï aytti-
(2) kim: Ay inilär, oqlar bolsun senlär-
(3) nüŋ. Ya attï oqnï. Oqlar-deg
(4) senlär boluŋ, – dep dedi. Kenä andan
(5) soŋ Oğuz qağan uluğ qurultay
(6) čaqïrdï, nükärlärin, el-künlärin
(7) čarlap čaqïrdï. Kelip, keŋäšip olturdï(l)ar. Oğuz
(8) qağan bedüg ordu(da) ...
(9) ... (oŋ yağïda)

41

(1) (qïrïq qulač yïğačnï tiktürdi. Anuŋ)
(2) bašïda bir altun (tağuq qoydï, adağï-)
(3) da bir aq qoyun bağladï. (Čo)ŋ
(4) yağïdä qïrïq qulač y(ï)ğačnï tiktür-
(5) di. Anuŋ bašïda bir kümüš tağuq qoydï,
(6) adağïda bir qara qoyunnï bağladï.
(7) (Oŋ) yaqta bozoqlar olturdï,
(8) čoŋ yaqta üčoqlar olturdï.
(9) Qïrïq kün, qirïq kečä aš(a)dïlar,

42

(1) i(č)tilär, sewinč taptïlar. Andan soŋ Oğuz qağan
(2) (oğ)ullarïğa yutrïn ül(ä)štürüp berdi. Taqï dedi-kim:
(3) Ay (oğ)ullar, köp men aštum, urušğular köp men kördüm,
(4) čïda bilä köp oq attum, ayğïr b(i)rlä köp yürü-
(5) düm, dušmanlarnï y(ï)ğlağurdum, dostlarumnï men
(6) küldürdüm. Kök täŋrigä men ötädüm,
(7) sizlärgä berämen yurutum, – dep dedi.
(8) ... ...
(9) ... ...

@tarixchi_kutubxonasiga

## Matnning mazmuni

(1) ... bo'lsin, – deb aytdilar. (*Uning qiyofasi*
(2) *shunday*[1]). Shundan so'ng sevindilar.
(3) Kunlardan bir kun Oy xoqon-
(4) ning ko'zi yorib, bo'shadi: o'g'il tug'di.
(5) U o'g'ilning yuz-chiroyi ko'rkli
(6) edi, lablari otashday qizil, ko'zlari xol, sochlari, qoshlari
(7) qop-qora edi, go'zal parilardan ham
(8) ko'rkliroq edi. Bu o'g'il ona-
(9) sining ko'ksidan sut emdi, undan

2

(1) ortiq emmadi. Xom go'sht, osh, may
(2) so'radi, tili chiqa boshladi. Qirq kundan so'ng
(3) ulg'aydi, yurdi, o'ynadi. Oyog'i buqa oyog'idek, bellari
(4) bo'ri belidek, yag'rini suvsar yag'rinidek, ko'kragi
(5) ayiq ko'kragidek edi. Butun badanini
(6) tuk qoplagan edi. Yilqini boqar
(7) edi, otlarga minar edi, hayvon
(8) ovlar edi. Kunlar o'tib,
(9) kechalar o'tib, u yigit bo'ldi. Bu

3

(1) chog'da bu yerda bir katta o'rmon bor edi.
(2) Ko'p daryo irmoqlari bor edi. Bu yerda
(3) yovvoyi hayvonlar ko'p edi, ko'plab qushlar uchib yurardi.
(4) Bu o'rmon ichida katta bir qiyot[2] bor
(5) edi, yilqilarni, odamlarni yer edi. Katta
(6) yomon bir hayvon edi. U elga og'ir qayg'u-alam
(7) keltirardi. O'g'uz xoqon jasur bir
(8) kishi edi. U ana shu qiyotni ovlamoqchi bo'ldi. Kun-
(9) lardan bir kun u ovga chiqdi. Nayza,

4

(1) yoy, o'q, yana qilich va qalqon
(2) bilan (ovga) otlandi. Bir bug'u ushladi. O'sha bug'uni tol-
(3) ning novdasi bilan daraxtga bog'lab ketdi.

[1] Qo'lyozmada shu o'rinda bug'uning rasmi chizilgan. Matndagi *Uning qiyofasi shunday* jumlasi kotib tomonidan kiritilgan. Shuning uchun uni qavsga olib, ajratib berildi.

[2] *Qiyot* – bir xil hayvon. Qanday hayvon ekani noma'lum. Qo'lyozmada yakkashox hayvon shaklida rasmi chizib qo'yilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(4) Shundan so'ng tong otdi. Erta saharda
(5) kelib ko'rsa, qiyot bug'uni olib ketibdi.
(6) U yana bir ayiqni ushlab, oltin
(7) belbog'i bilan daraxtga bog'lab ketdi.
(8) Shundan so'ng tong otdi. Erta saharda
(9) kelib ko'rsa, qiyot ayiqni ham olib ketibdi.

5

(1) Endi o'sha daraxtning ostida o'zi turdi. Qiyot
(2) kelib boshi bilan O'g'uzning qalqonini urdi. O'g'uz
(3) nayza bilan qiyotning boshiga urib, uni
(4) o'ldirdi. Qilichi bilan boshini kesib olib ketdi. Keyin
(5) kelib ko'rsa, bir shunqor qiyotning go'shtini
(6) yemoqda. Yoy va o'q bilan
(7) shunqorni o'ldirdi, boshini kesdi. Shundan
(8) so'ng dedi (*Shunqorning tasviri*
(9) *shunday*[1].): «Qiyot bug'uni yedi, ayiqni yedi. U temirdek bo'lsa ham nayzam

6

(1) uni o'ldirdi. Qiyotni
(2) shunqor edi. U eldek bo'lsa ham yoy va o'qim (uni) o'ldirdi», – deb aytdi
(3) va ketdi. (*Qiyotning qiyofasi shunday*[2].)
(4) Kunlardan bir kun
(5) O'g'uz xoqon bir yerda Tangriga ibodat qilayotgan
(6) edi. Qorong'ilik bosib, ko'kdan
(7) bir ko'k yorug' tushdi. U kundan yorug',
(8) oydan nurliroq
(9) edi. O'g'uz xoqon borib qarasa,

7

(1) bu yorug'ning orasida bir qiz
(2) bo'lib, u yolg'iz o'tirar edi. Nihoyatda ko'rk-
(3) li bir qiz edi. Uning peshonasida otash-
(4) dek yarqiragan bir xoli bo'lib,
(5) Oltun qoziq [ya'ni, Qutb yulduzi] dek edi. O'sha qiz shu qadar
(6) go'zal ediki, kulsa, ko'k
(7) osmon kular edi; yig'lasa, ko'k osmon ham

[1] Shu yerda shunqorning rasmi chizilgan.
[2] Shu yerda qiyotning rasmi chizilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) yig'lar edi. O'g'uz xoqon
(9) uni ko'rganda hushini yo'qotdi, sevdi, uni oldi, u

8

(1) bilan bo'ldi, tilagiga yetdi. (Ayol) homilador
(2) bo'ldi. Kunlar o'tib, kechalar o'tib,
(3) uning ko'zi yoridi: u uch o'g'il tug'di. Birinchi-
(4) siga Kun deb ot qo'ydilar, ikkin-
(5) chisiga Oy deb ot qo'ydilar, uchinchi-
(6) siga Yulduz deb ot qo'ydilar. Yana bir kun
(7) O'g'uz xoqon ovga chiqdi. Qarshisida
(8) bir ko'lning o'rtasida bir daraxt
(9) ko'rdi. Shu daraxtning kovagida

9

(1) bir qiz bor edi. U yolg'iz o'tirar edi.
(2) U g'oyat sohibjamol bo'lib, uning
(3) ko'zlari samodan ham ko'kroq,
(4) sochi daryo oqimidek,
(5) tishlari injudek edi. Shu qadar chiroy-
(6) li ediki, bu dunyoning kishilari uni ko'rsa:
(7) «Hay-hay, oh-oh, o'lamiz», – deyishardi. Sut ham
(8) qimizga aylanar edi. O'g'uz xoqon
(9) uni ko'rganda hushini yo'qotdi, yuragiga otash

10

(1) tushdi, uni sevdi, u bilan birga bo'ldi, ko'nglini
(2) xushladi. (Ayol) homilador bo'ldi. Kunlar
(3) o'tib, kechalar o'tib
(4) uning ko'zi yoridi: uch o'g'il tug'di. Birin-
(5) chisiga Ko'k deb ot qo'ydilar, ikkin-
(6) chisiga Tog' deb ot qo'ydilar, uchin-
(7) chisiga Dengiz deb ot qo'ydilar.
(8) Shundan so'ng O'g'uz xoqon katta
(9) to'y berdi. Elga yorliq

11

(1) yuborib, ularni taklif qildi. Ular kengashib, to'yga keldilar.
(2) Qirq o'rindiq tuzdirdi, qirq xon yasatdi, turli taomlar
(3) yedilar, lazzatli ichimliklar, qimizlar
(4) ichdilar. To'ydan so'ng O'g'uz

@tarixchi_kutubxonasiga

(5) xoqon beklarga, elga
(6) farmon berib, shunday dedi: «Men senlar-
(7) ga xoqon bo'ldim, yoy va qalqonni olaylik,
(8) «ezgu ishlar» bizga tamg'a bo'lsin,
(9) «ko'k bo'ri» jangovar shiorimiz bo'lsin, temir nayza-

12

(1) lar o'rmon bo'lsin, ovloq yerda qulonlar yursin
(2) hamda dengiz va daryolar oqsin, kun – tug'imiz bo'lsin, ko'k –
(3) qo'rg'onimiz». Mana shundan so'ng
(4) O'g'uz xoqon to'rt yoqqa yorliq
(5) yubordi. Bildirgulik bitib, elchilaridan
(6) berib yubordi. Ushbu bildirgulikda shunday deb yozil-
(7) gan edi: Men uyg'urning xoqoni bo'laman,
(8) Er yuzi to'rt tarafining xoqoni
(9) bo'lsam kerak. Sizlardan menga bo'ysunishingizni

13

(1) so'rayman. Kim mening og'zimga
(2) boqadigan bo'lsa [ya'ni, menga itoat etsa], tortiq
(3) berib, esh tutaman. Mabodo kim
(4) og'zimga boqmaydigan bo'lsa [ya'ni, itoat etmasa], g'azablanib,
(5) qo'shin tortib, uni yov tutaman;
(6) qo'qqisdan bosib, dorga ostirib yo'q qilaman».
(7) Mana shu chog'-
(8) da o'ng yoqda Oltun xoqon
(9) degan bir xoqon bor edi. O'sha Oltun

14

(1) xoqon O'g'uz xoqonga elchi
(2) yo'lladi. Juda ko'p oltin-kumush, ko'plab
(3) noyob yoqut toshlar, dur-u marvaridlar yubo-
(4) rib, O'g'uz xoqonga tortiq qilib,
(5) unga itoat etdi. Yaxshi sovg'alar bilan
(6) do'stlik qildi, u bilan yaqin
(7) bo'ldi. So'l yog'ida Urum degan
(8) bir xoqon bor edi. Bu xoqonning
(9) lashkari, shaharlari juda ko'p edi.

@tarixchi_kutubxonasiga

15

(1) O'sha Urum xoqon O'g'uz xoqon-
(2) ning yorlig'ini saqlamas, u bilan birlashishni
(3) istamas edi. «Bu so'z-
(4) ni qabul qilmayman», – deya yorliq-
(5) qa itoat etmadi. O'g'uz xoqon darg'azab
(6) bo'lib, unga qarshi hujum qilmoqchi bo'ldi. Qo'shin bilan
(7) otlarga minib, tug'larni ko'tarib, yo'lga chiqdi. Qirq
(8) kundan so'ng Muztog' degan
(9) tog'ning etagiga keldi. Chodir

16

(1) tikdi, osoyishtalik cho'kib, uyquga ketdi. Erta
(2) tongda O'g'uz xoqonning
(3) chodiriga kundek bir
(4) yorug' tushdi. Bu yorug'dan
(5) ko'k tusli, ko'k yolli katta
(6) bir erkak bo'ri chiqdi. O'sha bo'ri O'g'uz
(7) xoqonga so'z boshlab:
(8) «Ey O'g'uz! Sen Urum
(9) ustiga hujum qilmoqqa taraddud ko'ryapsan.

17

(1) Ey O'g'uz, men sening oldingga tushib boraman», –
(2) deb aytdi. Mana
(3) shundan so'ng O'g'uz xoqon
(4) chodirlarni yig'ishtirib, oldinga qarab ketdi. Ko'rdi-
(5) ki, qo'shin oldida
(6) ko'k tusli, ko'k yolli
(7) katta bir erkak bo'ri borar-
(8) di. Lashkar esa bo'rining ortidan
(9) ergashib borardi. Bir

18

(1) necha kundan keyin ko'k
(2) tusli, ko'k yolli bu katta
(3) erkak bo'ri to'xtadi. O'g'uz ham qo'shini
(4) bilan to'xtadi. Bu yerda Etil degan
(5) bir daryo bor edi. Etil daryosining qirg'o-
(6) g'idagi Qoratog' etagida
(7) jang bo'ldi. O'q, nayza,

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) qilich bilan urushdilar. Lashkar-
(9) lar o'rtasida juda qattiq jang bo'ldi.

19

(1) El ko'nglida
(2) juda ko'p qayg'u-alam kechdi. Olishuv – jang
(3) shunday kuchli bo'ldiki, Etil daryosi-
(4) ning suvi qip-qizil rangga
(5) bo'yaldi. O'g'uz xoqon yengdi, Urum xoqon
(6) qochdi. O'g'uz xoqon Urum xoqon-
(7) ning xoqonlig'ini oldi, elini o'ziga
(8) qaratdi. O'rdasiga juda
(9) ko'p o'lik hamda tirik

20

(1) o'lja [ya'ni mol-mulk va asirlar] tushdi. Urum xoqonning
(2) bir qarindoshi bo'lib, Urusbeg degan
(3) edi. Shu Urusbeg o'z o'g'lini tog' boshi-
(4) dagi chuqur xandaq bilan o'ralgan
(5) mustahkam qal'aga yubora turib, shunday
(6) dedi: «Shaharni qo'riqlash kerak.
(7) Sen urushlardan shaharni
(8) menga saqlab kelgin», – deb aytdi. O'g'uz
(9) xoqon ham o'sha shaharga yo'l oldi. Urus-

21

(1) bekning o'g'li unga ko'p oltin-
(2) kumush tortiq qildi va shunday dedi: «Ey mening
(3) xoqonim! Otam menga bu
(4) shaharni topshirib: Uni
(5) himoya qilish kerak; sen
(6) urushlardan shaharni menga
(7) saqlab qaytgin, deb aytgan edi. Otam g'azablansa,
(8) mening istagim shu bo'ladimi? Sening
(9) yorlig'ingni ijro etishga tayyorman.

22

(1) Bizning baxtimiz – sening
(2) baxting bo'ladi, bizning urug'i-
(3) miz sening nasl-nasabingning
(4) urug'i bo'ladi. Tangri sen-

@tarixchi_kutubxonasiga

(5) ga yer yuzini ato qildi. Men senga
(6) boshimni, erkimni beraman. Xiroj
(7) to'lab, do'stlikdan chiqmayman», –
(8) deb aytdi. O'g'uz xoqon yigitning
(9) so'zlarini ma'qul ko'rdi, sevinganidan kuldi va:

23

(1) «Menga ko'p oltin yuboribsan,
(2) shaharni yaxshi saqlabsan», – deb aytdi. Shuning
(3) uchun unga Saqlab deb ot qo'ydi; uning bilan do'st
(4) bo'ldi. Mana, O'g'uz xoqon qo'shini bilan
(5) Etil degan daryoga keldi. Etil
(6) katta bir daryo edi. O'g'uz xoqon uni
(7) ko'rdi, keyin: «Etil oqimidan
(8) qanday kechib o'tamiz?» – dedi. Qo'shinda bir
(9) yaxshi bek bor edi. Uning oti Ulug' O'rdu-

24

(1) bek edi. Hunarli, uquvli bir kishi edi.
(2) U ko'rdiki, qirg'oqda tollar,
(3) daraxtlar bor edi. Bek bu daraxtlarni
(4) ... ... kesdi, daraxtlarga
(5) o'tirib, daryodan kechib o'tdi. O'g'uz xoqon bundan sevinib kuldi
(6) va shunday dedi: «Ey sen, bu yerda bek
(7) bo'lgin, sen Qipchoq degan bek bo'lgin».
(8) U yana ilgari ketdi ... Shundan so'ng
(9) O'g'uz xoqon ko'k tusli,

25

(1) ko'k yolli erkak bo'rini ko'rdi. O'sha ko'k
(2) bo'ri O'g'uz xoqonga aytdi: «Endi
(3) qo'shin bilan bu yerdan qo'zg'al. O'g'uz,
(4) otlanib, xalqni, beklarni bu yerga keltir-
(5) gin. Men senga yo'l ko'rsatib bora-
(6) man», – dedi. Tong yorishganda
(7) O'g'uz xoqon qarasa, erkak bo'ri
(8) qo'shin oldida ketib borardi.
(9) Bundan O'g'uz xoqon sevindi va oldinga tomon ketdi. O'g'uz

@tarixchi_kutubxonasiga

26

(1) xoqon bir chipor tanli ayg'ir minar
(2) edi. O'sha ayg'irni bek juda sevar
(3) edi. Yo'lda shu ayg'ir ko'zdan g'oyib bo'lib,
(4) qochib ketdi. Bu yerda katta bir tog' bor
(5) edi. Uning ustida muz va qorlar
(6) bor edi. Uning cho'qqisi sovuqdan oppoq
(7) edi. Shuning uchun uning oti Muztog'
(8) edi. O'g'uz xoqonning oti Muztog'
(9) orasiga qochib ketdi. Bundan O'g'uz xoqon

27

(1) ko'p vaqt aziyat chekdi. Qo'shinda
(2) bir o'ta jasur bek bor edi. U
(3) hech narsadan qo'rqmasdi.
(4) Yurishlarda faol, sovuqqa chidamli
(5) er edi. O'sha bek tog' orasiga kirib
(6) ketdi. To'qqiz kundan so'ng O'g'uz
(7) xoqonga ayg'irini (topib) keltirdi. Muz-
(8) tog'da qattiq sovuq bo'lganidan, bek
(9) ustini qor qoplab, oppoq bo'lib ketgan edi. O'g'uz

28

(1) xoqon sevinganidan kuldi va:
(2) «Ey, sen bu yerda beklarga boshliq bo'lgin,
(3) Qag'arlig' senga abadiy nom bo'lsin», –
(4) dedi. Ko'p hadyalar tortiq qildi va yana ilgari ketdi.
(5) Yo'lda katta bir uy ko'rdi. Bu uyning
(6) tomi oltindan, derazalari
(7) kumushdan, eshiklari temirdan edi. (Lekin u)
(8) qulflangan bo'lib, ochqichi yo'q edi.
(9) Qo'shinda mohir bir kishi bor edi. Uning

29

(1) oti To'murdu qag'ul degan edi. (O'g'uz xoqon) unga
(2) buyruq qildi: «Kimsan? Shu yerda qol, eshikni och. Eshikni
(3) ochganingdan so'ng o'rdaga kel», – dedi.
(4) Shu tufayli unga Qalach deb ot qo'ydi. Keyin ilga-
(5) ri ketdi. Yana bir kun ko'k tus-
(6) li, ko'k yolli erkak bo'ri yurmay,
(7) to'xtab qoldi. O'g'uz xoqon ham to'xtadi. Chodirini

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) tikdi. Bu yer bo'z
(9) tuzluk bir yer bo'lib, uni Jurjit der edilar.

30

(1) Bu katta yurt bo'lib, xalqi ko'p edi. Yilqilari,
(2) sigir, buzoqlari, oltin-kumushlari,
(3) dur-u javohirlari ko'p edi. Bu yerda Jurjitning xoqoni
(4) va xalqi O'g'uz xoqonga qarshi
(5) chiqdi. Urush, jang boshlandi, o'q va qilich-
(6) lar bilan jang qildilar. O'g'uz xoqon g'olib keldi,
(7) Jurjit xoqonni yengdi, uni o'ldirib, boshini
(8) kesdi. Jurjit xalqini o'ziga
(9) bo'ysundirdi. Urushdan so'ng O'g'uz xoqon-

31

(1) ning askariga, navkarlariga, xalqiga
(2) shunday katta o'lja tushdiki,
(3) uni yuklab ortib ketishga ot, xachir, ho'kiz
(4) ozlik qildi. O'g'uz xoqonning
(5) qo'shinida mohir, barvasta, usta kishi bor edi.
(6) Uning ismi Barmaqlug' Jo'sun Billig edi. Bu usta
(7) bir arava yasadi. Arava ustiga o'lik
(8) o'ljani [ya'ni, mol-mulkni] qo'ydilar, arava boshiga tirik
(9) o'ljani [ya'ni, asirlarni] qo'shdilar va tortib ketdilar. Navkarlar-

32

(1) ning odamlarning bari buni ko'rib hayron bo'ldi.
(2) Ular ham aravalar yasadi. Aravalar yurgan-
(3) da «qang'a-qang'a» degan tovush chiqarardi.
(4) Shuning uchun ularni
(5) «qang'a» deb atadilar. O'g'uz xoqon qang'a-
(6) larni ko'rib kuldi va: «Arava
(7) bilan jonsiz o'ljani [ya'ni, mol-mulkni] tirik o'lja [ya'ni, asirlar] tortsin.
(8) Senga Qang'aluq deb qo'yilgan nom qang'ani [ya'ni, aravani]
(9) eslatsin», – dedi va ketdi. Shundan so'ng

33

(1) o'sha ko'k tusli, ko'k yolli
(2) erkak bo'ri bilan Sindu, Tangg'ut va
(3) Shom [ya'ni, Hindiston, Tibet va Suriya] tomonlarga jo'nab ketdi.

@tarixchi_kutubxonasiga

(4) Ko'p urush, jang-u jadallardan so'ng
(5) ularni oldi, o'z yurtiga birlashtirdi,
(6) g'alaba qildi. Chetda qolmasin,
(7) ma'lum bo'lsinki, janub tomonda
(8) Barqan degan bir yer bor edi. G'oyat
(9) boy bir yurt edi, nihoyatda issiq bir yer

34

(1) edi. Uning yovvoyi hayvon, qushlari ko'p,
(2) oltin, kumush, dur-u javohirlari ko'p edi. Xalqi-
(3) ning rangi qop-qora edi.
(4) O'sha yerning xoqoni Masar degan bir xoqon
(5) edi. O'g'uz xoqon uning ustiga
(6) hujum qildi. Chunon yomon urush bo'ldi. O'g'uz
(7) xoqon yengdi, Masar xoqon qochdi. O'g'uz
(8) uni zabt etdi, yurtini oldi va ketdi. Bundan uning do'stlari
(9) juda xursand bo'ldi, dushmanlari

35

(1) qayg'ular chekdi. O'g'uz uni yengib,
(2) hisobsiz boylik, yilqi-
(3) larni qo'lga tushirib, yurtiga, uyiga jo'nab ketdi.
(4) Chetda qolmasin,
(5) ma'lum bo'lsinki, O'g'uz xoqonning
(6) yonida oq soqolli, oq sochli
(7) oqil bir qariya bor edi.
(8) U zakovatli, to'g'ri bir odam bo'lib, o'zi ta'birchi
(9) edi. Uning oti Ulug' Turuk edi. Kun-

36

(1) lardan bir kun tushida bir oltin
(2) yoy bilan uchta kumush o'q ko'rdi. Bu oltin
(3) yoy kunchiqardan kunbotar-
(4) gacha cho'zilgan edi. Uch
(5) kumush o'q esa tun tomonga [ya'ni, shimolga] ketgan
(6) edi. Uyg'onganidan keyin tushida ko'r-
(7) ganini O'g'uz xoqonga bildirdi.
(8) U aytdi: «Ey xoqonim!
(9) Umring uzun bo'lsin, xoqonim senga

@tarixchi_kutubxonasiga

37

(1) ... ... ... Ko'k tangri [muqaddas osmon tangrisi]
(2) tushimda belgi berdi. Bular ro'yobga chiqsin.
(3) Egallagan yerlarni urug'ingga [ya'ni, farzandlarga] bersin», –
(4) dedi. O'g'uz xoqonga Ulug' Turuk-
(5) ning so'zlari ma'qul tushdi. Uning maslahatini qabul
(6) qildi. Maslahatiga ko'ra ish yuritdi. Shundan
(7) so'ng erta saharda akalar, ini-
(8) larni [ya'ni, katta va kichik o'g'illarini] chaqirdi. Aytdiki:
(9) «Ey (o'g'illarim)! Mening ko'nglim ovni tusamoqda. Keksaligimdan

38

(1) avvalgi shijoatim yo'q. Kun,
(2) Oy, Yulduz! Sizlar kunchiqar tomon boring.
(3) Ko'k, Tog', Dengiz! Sizlar kunbotar tomon
(4) boring». Shundan so'ng uch nafari
(5) kunchiqarga bordilar, boshqa bir uchi-
(6) si kunbotarga yo'l oldilar. Kun, Oy,
(7) Yulduz ko'p hayvon va qushlar ovlagan-
(8) laridan so'ng yo'lda bir oltin yoy
(9) topdilar, uni olib otasiga keltirib berdilar.

39

(1) (O'g'uz xoqon sevinib kuldi. So'ng uni)
(2) uch bo'lakka bo'ldi va: «Ey aka-
(3) lar [ya'ni, katta o'g'illar], yoy sizlarniki bo'lsin, yoy kabi
(4) o'qlarni ko'kka oting», – deb
(5) aytdi. Ko'k, Tog' va
(6) Dengiz ko'p hayvon va qushlarni ovlagan-
(7) laridan so'ng yo'lda uchta kumush o'q
(8) topib oldilar, ularni otasiga keltirib berdilar.
(9) O'g'uz xoqon sevinib kuldi. Keyin o'q-

40

(1) larni uch bo'lib aytdi-
(2) ki: «Ey inilar [ya'ni, kichik o'g'illar], o'qlar sizlarga bo'lsin.
(3) Yoy o'qni otdi. Sizlar ham
(4) o'qlardek bo'ling», – deb aytdi. Shundan
(5) so'ng O'g'uz xoqon katta kengash
(6) chaqirdi, navkarlarini, xalqini
(7) chaqirdi. Ular kelib kengashdilar. O'g'uz

@tarixchi_kutubxonasiga

(8) xoqon buyuk o'rda ... ... ...
(9) ... ... ... ... ... (o'ng yog'ida).

41

(1) (qirq quloch daraxtni tiktirdi. Uning)
(2) boshiga bir oltin (tovuq qo'ydi, pasti-)
(3) ga bir oq qo'yni bog'ladi. So'l
(4) qanotiga ham qirq quloch daraxtni tiktir-
(5) di. Uning boshiga bir kumush tovuq qo'ydi,
(6) pastiga esa bir qora qo'y bog'ladi.
(7) O'ng qanotda Buzuqlar o'tirdi,
(8) so'l qanotda Uchuqlar o'tirdi.
(9) Qirq kun, qirq kecha edilar,

42

(1) ichdilar, xursandchilik qildilar. Shundan so'ng O'g'uz xoqon
(2) o'g'illariga yurtini ulashib berdi. Yana aytdiki:
(3) «Ey o'g'illarim, men ko'p yashadim, ko'p urushlarni ko'rdim;
(4) nayza va o'q ko'p otdim; ayg'irda ko'p yur-
(5) dim; dushmanlarimni yig'latdim, do'stlarimni men
(6) kuldirdim. Ko'k tangri [ya'ni, muqaddas osmon tangrisi] oldidagi burchimni men o'tadim.
(7) Endi sizlarga yurtimni beraman», – deb aytdi.

## «XUASTUANIVT»NING ESKI TURKCHA MATNI

«Xuastuanivt» moniylik dinining o'tinchidir (nashrlariga qarang: Malov 1951,108–130; Dmitrieva 1963; Sodiqov 2009,318–331). Asarning oti matnda *N(i)ǧošaklarnīŋ suyïn yazuqïn öküngü Huastuan(i)vt* deb berilgan. Ushbu jumladagi *niǧošak* – sug'dchadan o'zlashgan bo'lib, «tinglovchi» ma'nosini anglatadi, u moniy diniy jamoasida quyi darajani bildirgan; *suy yazuq* – juft so'z, «gunohlar, yozuqlar» degan ma'noni bildiradi; *öküngü* esa hozirgi «o'kinuv, tavba qiluv» so'ziga teng. Shunga ko'ra, ushbu jumladan «Nig'o'shaklarning yozuqlardan o'kinuvchi «Xuastuanivt» degan ma'no kelib chiqadi.

«Xuastuanivt»ning turkiy matnlari uyg'ur va moniy yozuvlarida. Qo'lyozmalari hozir Sankt-Peterburg, London va Berlin fondlarida saqlanmoqda.

Asar o'n besh bo'limli. Bo'limlari *bölüg* deyilgan. Har qaysisi muayyan masalaga bag'ishlangan. Matnda, hatto uning ko'chiriluv jarayonida asarning tuzilishiga alohida urg'u qaratilgan. Uyg'ur yozuvli matnda jumlalar qo'sh nuqta (..), bo'limlar esa ikki juft nuqta (.. ..) bilan ajratilgan. Matnda har qaysi bo'lim o'zining tartib ko'rsatkichi bilan boshlanadi: *üčünč, törtünč, bišinč, altïnč, yitinč, säkizinč* va boshqalar.

@tarixchi kutubxonasiga

Qo'lyozma so'ngida, asar tugagandan keyin, uni ko'chirgan kotib va tavbanomaning tugaganligi to'g'risidagi qayd yozib qo'yilgan: *Bütürmiš Tarxan. Tügädi n(i)ğošaklarnïŋ suyïn yazuqïn öküngü Xuastuan(i)vt.* – (Matnni) tugallagan Tarxon. Tugadi nig'o'shaklarning yozuqlardan o'kinuv kitobi – «Xuastuanivt».

O'tmishda diniy asarlar, xususan, moniy yodgorliklarini bitishda yozuvning xos bir uslubi tanlangan. «Xuastuanivt»ning xati ham o'ta chiroyli, uyg'ur yozuvining klassik uslubidadir.

Quyida keltirayotgan matnimiz asarning Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanayotgan uyg'ur yozuvli qo'lyozmasi asosida tayyorlandi. Matn chiroyli xat bilan o'rama qog'ozga bitilgan. Qog'ozning bosh qismi chirib, titilib ketgan. Matndan 160 qator saqlangan.

## Matn transkripsiyasi

(1) ... [bošu]ğalï (?) y(a)ruqu[ğ]
(2) ... [t]ägzinür : tört buluŋ[uğ]
(3) ... [bi]lmätin kün ay t(ä)ŋrikä iki
(4) ... [t(ä)ŋr]ilärkä näčä yaz(ï)nt(ï)m(ï)z ärsär
(5) ... [t(ä)ŋri] tipän kirtgünmäd(i)m(i)z ärsär :
(6) ... [čul]vu saw sözläd(i)m(i)z ärsär : y(ä)mä kün ay
(7) ... [är]ksizin tuğar batar ärki ...
(8) ... [ärs]är : k(ä)ntü özümüzni küntä ayda
(9) [öŋi]biz tidim(i)z ärsär : bu ikinti bilmätin yaz(ï)nmïš ...
(10) ... M(a)na[star xir]za :: Üčünč y(ä)mä biš
(11) [t(ä)ŋr]ikä : X[ormuzta] ... a : bir tïntura t(ä)ŋri :
(12) ikinti yil t(ä)ŋri ... ya[ruq] t(ä)ŋri : törtünč suw t(ä)ŋri :
(13) bišinč oot t(ä)ŋri : suïn yäglükün süŋüšüp bal(ï)qduqïn
(14) üčün q(a)raqa qatïltuğïn üčün t(ä)ŋri yiringärü baru
(15) umatïn bu yirdä ärür : üzä on qat kök asra
(16) säkiz qat yir biš t(ä)ŋri üčün turur : qamağ yir üzäki-i
(17) niŋ q[utï] q[ïwï öŋi mäŋiz]i : özi özüti küči y(a)ruğï
(18) tözi yïltïzï bi[š] t(ä)ŋri-ol (?) : t(ä)ŋrim suyda baru biš t(ä)ŋrig
(19) bilmätin anïğ y(a)wlaq biligin näčä sïdïm(ï)z b(i)rtd(i)m(i)z ärsär :
(20) tört y(i)girmi türlüg baš qïlt(ï)m(ï)z ärsär : on yïlan bašl(ï)ğ
(21) ärŋäkin iki qïrq tišin tirig özüg aš ičkü
(22) t(ä)ŋrig näčä ačïtd(ï)m(ï)z ağrïtd(ï)m(ï)z ärsär : quruğ öl yirkä
(23) biš türlüg tïnl(ï)ğqa : biš türlüg otqa ïğačqa
(24) näčä yaz(ï)nt(ï)m(ï)z ärsär: ... [t(ä)]ŋrim yazuqda bošunu ötünür-
(25) biz: M(a)nastar xirza :: Törtünč söki t(ä)ŋri

@tarixchi_kutubxonasiga

(26) y(a)lawači burxanlarqa buyančï bögtägči arïğ dintarlarqa
(27) bilmätin näčä yaz(ï)nt(ï)m(ï)z ärsär : y(ä)mä kirtü t(ä)ŋri yalawači burxan[qa?]
(28) tipän ädgü qïlïnčl(ï)ğ arïğ dintar tip kirtgünmäd(i)m(i)z ärsär : t(ä)ŋri
(29) nomïn sözläsär biligsizin ötrü üzänd(i)m(i)z ärsär : nomuğ
(30) törüg yadturmatïn tidt(i)m(i)z ärsär : t(ä)ŋrim amtï ökünür-biz
(31) yazuqda bošunu öt[ünür]-biz : M(a)nastar xirza :: Bišinč
(32) biš türlüg tïnl(ï)ğqa : bir y(ä)mä iki adaql(ï)ğ kišikä ikinti
(33) tört butluğ tïnl(ï)ğqa : üčünč učuğma tïnl(ï)ğqa :
(34) törtünč suw ičräki tïnl(ï)ğqa : bišinč yirdäki bağrïn
(35) yoriğma tïnl(ï)ğqa : suyda baru t(ä)ŋrim bu biš türlüg
(36) tïnl(ï)ğağ tural(ï)ğağ uluğqa kičigkä tägi näčä qorqïtd(ï)m(ï)z
(37) ürkitd(i)m(i)z ärsär : näčä urtumuz yontumuz ärsär : näčä ačïtd(ï) m(ï)z
(38) ağrïtd(ï)m(ï)z ärsär : näčä ölürdümüz ärsär : munča tïnl(ï)ğqa
(39) tural(ï)ğqa öz ötägči boltumuz : t(ä)ŋrim amtï yazuqda
(40) bošunu ötünür-biz : M(a)nastar xirza :: Altïnč y(ä)mä
(41) t(ä)ŋrim suyda baru : saqïnčïn sözin qïlïnčïn on
(42) türlüg suy yazuq qïlt(ï)m(ï)z ärsär : näčä igid igdäd(i)m(i)z
(43) ärsär : y(ä)mä näčä igdäyü antïqd(ï)m(ï)z ärsär : näčä igid
(44) kiši tanuqï boltumuz ärsär : y(ä)mä yazuqsuz kišig näčä
(45) quwlad(ï)m(ï)z ärsär : y(ä)mä saw älitip saw k(ä)lürüp kišig näčä
(46) kikšürü sözlädim(i)z ärsär : köŋülin biligin artatd(ï)m(ï)z ärsär
(47) näčä yilvi yilviläd(i)m(i)z ärsär : yämä näčä öküš tïnl(ï)ğağ
(48) tural(ï)ğağ ölürdümüz ärsär : näčä t(ä)wläd(i)m(i)z kürläd(i)m(i)z ärsär
(49) näčä äwiŋ kiši urunčaqïn yidim(i)z ärsär : kün ay t(ä)ŋri
(50) taplamaz išig näčä išläd(i)m(i)z ärsär : yämä ilki özün
(51) bu özün : uzuntonluğ urïlar öz bolup näčä yaz(ï)nt(ï)m(ï)z
(52) yaŋïlt(ï)m(ï)z ärsär : munča öküš tïnl(ï)ğqa näčä üz buz
(53) qïlt(ï)m(ï)z ärsär : t(ä)ŋrim amtï bu on türlüg yazuğda
(54) bošunu ötünür-biz : M(a)nastar xirza :: Yitinč
(55) y(ä)mä suyda baru iki ağuluğ yol bašïŋa (!) tamu qapgïŋa (!)
(56) azğuruğlï yolqa kim tisär bir igid nomuğ törüg
(57) tutuğma ikinti y(ä)mä yäkkä ičkäkkä t(ä)ŋri tipän yükünč
(58) yükünügmä suyda baru t(ä)ŋrim kirtü t(ä)ŋrig arïğ nomuğ
(59) bilmätin uqmatïn burxanlar arïğ dintarlar nomlasar
(60) kirtgünmädin tätrü yana igdäyü t(ä)ŋriči-m(ä)n nomči-m(ä)n
(61) tigmäkä artïzïp anïŋ sawïn alïp näčä yaŋïlu bačağ
(62) bačad(ï)m(ï)z ärsär : näčä yaŋïlu yüküntümüz ärsär : näčä yaŋïlu

@tarixchi_kutubxonasiga

(63) buši bird(i)m(i)z ärsär : y(ä)mä buyan bögtäg qïlur-biz tip yaŋïlu
(64) näčä ay(ï)ğ qïlïnč qïlt(ï)m(ï)z ärsär : yämä yäkkä ičkäkkä
(65) t(ä)ŋri tipän tïnl(ï)ğağ tural(ï)ğağ ölürüp yüküntümüz ärsär : y(ä)mä
(66) burxan tipän igid nomqa tapïnt(ï)m(ï)z uduntumuz ärsär
(67) qut qolu yüküntümüz ärsär : t(ä)ŋrikä yazïnïp yäkkä
(68) tapïnt(ï)m(ï)z ärsär : t(ä)ŋrim amtï ökünür-biz : yazuqda bošunu
(69) ötünür-biz : M(a)nastar qirza :: S(ä)kizinč kirtü
(70) t(ä)ŋrig arïğ nomuğ biltügümüzdä baru : iki yiltizig üč
(71) üč ödki nomuğ bilt(i)m(i)z : y(a)ruq yiltizin t(ä)ŋri yirin
(72) tünärig yiltizin tamu yirin bilt(i)m(i)z : yir t(ä)ŋri yoq
(73) ärkän öŋrä nä bar ärmiš tipän bilt(i)m(i)z : t(ä)ŋrili yäkli
(74) nädä ötrü süŋüšmiš y(a)ruqlï q(a)ralï q(a)ltï qatïlmïš yirig
(75) t(ä)ŋrig kim y(a)ratmïš tipän bilt(i)m(i)z : y(ä)mä arqon yir
(76) t(ä)ŋri nädä ötrü yoq bolğay : y(a)ruqlï q(a)ralï q(a)ltï adr(ï)lğay
(77) antada kisrä nä bolğay tipän bilt(i)m(i)z : azrua t(ä)ŋrikä
(78) kün ay t(ä)ŋrikä : küčlüg t(ä)ŋrikä : burxanlarqa :
(79) ïnant(ï)m(ï)z tayant(ï)m(ï)z n(i)ğošak boltumuz : tört y(a)ruq tamğa
(80) köŋülümüzdä tamqalad(ï)m(ï)z : bir amranmaq azrua t(ä)ŋri
(81) tamqasï : ikinti kirtgünmäk kün ay t(ä)ŋri tamqasï üčünč
(82) qorqmaq biš t(ä)ŋri tamqasï : törtünč bilgä bilig
(83) burxanlar tamqasï : t(ä)ŋrim biligimizni köŋülümüzni bu tört
(84) türlüg t(ä)ŋrilärdä ağïtd(ï)m(ï)z ärsär : ornïnta qamšatd(ï)m(ï)z
(85) ärsär : t(ä)ŋri tamqasï buzultï ärsär : amtï t(ä)ŋrim yazuqda
(86) bošunu ötünür-biz : M(a)nastar xirza : : Toquzunč
(87) on č(a)xsap(a)t tutduqumuzta baru : üč ağzïn üč
(88) köŋülün üč älgin : bir qamağ özin tükäti tutmaq
(89) k(ä)rgäk ärti : t(ä)ŋrim bilip bilmätin ät öz säwinčä
(90) yorïp y(a)wlaq iš tuš adaš qudaš sawïn alïp köŋülin
(91) körüp : yïlğïqa bar(ï)mqa bulup : azu muŋumuz taqïm(ï)z
(92) tägip bu on č(a)xsap(a)t(ï)ğ sïdïm(ï)z ärsär : näčä äksütümüz
(93) k(ä)rgät(i)m(i)z ärsär : t(ä)ŋrim amtï yazuqda bošunu ötünür-biz
(94) M(a)nastar xirza : : Onunč künkä tört alqïš
(95) azrua t(ä)ŋrikä : kün ay t(ä)ŋrikä küčlüg t(ä)ŋrikä
(96) burxanlarqa bir biligin arïğ köŋülün alqansïq
(97) törü bar ärti : y(ä)mä qorqmatïn ärmägürüp ädgüti tükäti
(98) alqanmad(ï)m(ï)z ärsär : y(ä)mä alqanur ärkän köŋülümüzni
(99) saqïnčïm(ï)znï t(ä)ŋrigärü tutmad(ï)m(ï)z ärsär : alqïšïm(ï)z ötügümüz
(100) t(ä)ŋrikä arïğïn tägmädi ärsär : nä yirdä tïdïntï tutuntï
(101) ärsär : amtï t(ä)ŋrim yazuqda bošunu ötünür-biz : M(a)nastar
(102) xirza : : Bir y(i)g(i)rminč y(ä)mä yiti türlüg buši arïğ

@tarixchi_kitobxonasiga

(103) nomqa ančulasïq törü bar ärti : y(ä)mä biš t(ä)ŋri y(a)ruqïn
(104) quwrat(ï)ğlï b(a)rištilar xroštag p(a)duaxtag t(ä)ŋri : t(ä)ŋrigärü
(105) bardačï bošuntačï biš t(ä)ŋri y(a)ruqïn biziŋärü k(ä)lürdi ärsär :
(106) biz adruq adruq itip y(a)ratïp nomqa kigürsük törü
(107) bar ärti : azu muŋ üčün azu bušï birgäli qïzğanïp
(108) yiti türlüg bušï arïğ nomqa tükäti birü umad(ï)m(ï)z ärsär :
(109) t(ä)ŋrigärü bardačï bošuntačï biš t(ä)ŋri y(a)ruqïn äwkä barqqa
(110) badïm(ï)z ärsär : ay(ï)ğ qïlïnčl(ï)ğ kišikä y(a)wlaq tïnl(ï)ğqa
(111) tural(ï)ğqa bird(i)m(i)z ärsär : töktümüz sačt(ï)m(ï)z ärsär : t(ä)ŋri
(112) y(a)ruqïn y(a)wlaq yirgärü ïdt(ï)m(ï)z ärsär : amtï t(ä)ŋrim yazuqda
(113) bošunu ötünür-biz : M(a)nastar xirza : : Iki y(i)g(i)rminč
(114) bir yïlqa älig kün arïğ dintarča vusanti olursuq
(115) törü bar ärti : arïğ bačağ bačap t(ä)ŋrikä ančulasïq
(116) k(ä)rgäk ärti : y(ä)mä äw barq tutduq üčün yïlqïqa
(117) bar(ï)mqa bulup : azu muŋumuz taqïm(ï)z tägip : y(ä)mä todunčsuz
(118) uwutsuz suq yäk üčün : y(ä)mä qorqunčsuz köŋülümüz
(119) üčün ärinip ärmägürüp ärkligin ärksizin bačağ sïdïm(ï)z
(120) ärsär : y(ä)mä bačağ olurup ädgüti nomča törüčä bačamad(ï)m(ï)z
(121) ärsär : amtï t(ä)ŋrim yazuqda bošunu ötünür-biz : M(a)nastar
(122) qirza :: Üč y(i)girminč ay t(ä)ŋri künin sayu
(123) t(ä)ŋrikä nomqa arïğ dintarlarqa suyumuznï yazuqumuznï
(124) bošuyu ötünmäk k(ä)rgäk ärti : y(ä)mä ärkligin ärksizin
(125) ärinip ärmägürüp iškä ködügkä tïltanïp : yazuqda
(126) bošunğalï barmad(ï)m(ï)z ärsär : amtï t(ä)ŋrim yazuqda bošunu
(127) ötünür-biz : M(a)nastar xirza : : Tört y(i)g(i)rminč
(128) bir yïlqa yiti yimki olursuq törü bar ärti : bir ay
(129) č(a)xsap(a)t tutmaq k(ä)rgäk ärti : y(ä)mä čaydanta yimki olurup
(130) bačağ bačap t(ä)ŋri burxanqa bir biligin köŋültä baru
(131) bir yïlqï yazuqumuznï bošuyu qolmağ k(ä)rgäk ärti : t(ä)ŋrim
(132) yiti yimki tükäti oluru umad(ï)m(ï)z ärsär : bir ayqï č(a)xsap(a)t(ï)ğ
(133) ädgüti arïtï tutu umad(ï)m(ï)z ärsär : bir yïlqï yazuqumuznï
(134) bir biligin köŋültä baru bošuyu qolmad(ï)m(ï)z ärsär : näčä
(135) äksük k(ä)rgäk boltï ärsär : amtï t(ä)ŋrim yazuğda bošunu
(136) ötünür-biz : M(a)nastar xirza : : Biš y(i)g(i)rminč kün
(137) sayu näčä y(a)wlaq saqïnč saqïnur-biz : näčä sözlämäsig
(138) irinčülüg söz : sözläyür-biz : näčä išlämäsig irinčülüg
(139) iš išläyür-biz : ay(ï)ğ qïlïnčqa irinčükä k(ä)ntü özümüzni
(140) ämgätir-biz : y(ä)mä künkä ašaduğumuz biš t(ä)ŋri y(a)ruqï k(ä)ntü
(141) özümüz özütümüz todunčsuz uwutsuz suq yäk säwigінčä
(142) yorïduq üčün y(a)wlaq yirgärü barïr : anï üčün t(ä)ŋrim
(143) qop yazuqda bošunu ötünür-biz : M(a)nastar xirza : :

@tarixchi_kutubxonasiga

(144) t(ä)ŋrim äksüklüg yazuqluğ-biz : ötägči birimči-biz todunčsuz
(145) uwutsuz suq yäk üčün saqïnčïn sözin qïlïnčïn
(146) y(ä)mä közin körüp qulqaqïn äšidip tilin sözläp äl(i)gin
(147) sunup : adaqïn yorïp : ürkä üzüksüz ämgätir-biz :
(148) biš t(ä)ŋri y(a)ruqïn quruğ öl yirkä biš türlüg tïnl(ï)ğağ
(149) biš türlüg otuğ ïğačïğ : y(ä)mä äksüklüg yazuqluğ-biz :
(150) on č(a)xsap(a)tqa : yiti bušïqa üč tamğaqa n(i)ğošak
(151) atïn tutar-biz : qïlïnčïn qïlu umaz-biz : y(ä)mä y(a)ruq
(152) t(ä)ŋrilärkä arïğ nomqa t(ä)ŋriči nomči arïğ dintarlarqa
(153) näčä yaz(ï)nt(ï)m(ï)z yaŋïlt(ï)m(ï)z ärsär : y(ä)mä t(ä)ŋri aymïš ötčä
(154) biligčä yorïmad(ï)m(ï)z ärsär : t(ä)ŋrilär köŋülin b(i)rtd(i)m(i)z ärsär:
(155) y(ä)mä yimki vusanti alqïš č(a)xsap(a)t nomča törüčä tutu
(156) umad(ï)m(ï)z ärsär : näčä äksütümüz k(ä)rgät(i)m(i)z ärsär : kün sayu
(157) ay sayu suy yazuq qïlur-biz : y(a)ruq t(ä)ŋrilärkä nom
(158) qutïŋa(!) arïğ dintarlarqa suyda yazuqda bošunu
(159) ötünür-biz : M(a)nastar xirza : : bütürmiš Tarxan
(160) tügädi n(i)ğošaklarnïŋ suyïn yazuqïn öküngü Xuastuan(i)vt .

## Mazmuni

(1) ... qutilmoq uchun yorug'ni (2) ... evrilur. To'rt yoqni (3) ... bilmayin Kun-oy tangriga, ikki (4) ... Tangrilarga qancha yozuq qilgan bo'lsak, (5) ... Tangri deb topinmagan bo'lsak, (6) ... yolg'on so'zlarni aytgan bo'lsak, yana Kun-oy (7) ... erksiz holda tug'ar va botar [ya'ni, Kunning tug'ishi va botishi] istagi ... (8) ... esa, o'z-o'zimizni Kundan, Oydan (9) yuqori qo'ygan bo'lsak, bu ikkisini bilmay, yozuq qilgan ... (10) ... Yozug'imizni kechirgaysan!

**Uchinchi (bo'lim).** Yana besh (11) Tangriga, Xo'rmuzta ... a: birinchisi – Havo-tangri; (12) ikkinchisi – El-tangri; (uchinchisi) – Yorug'-tangri; to'rtinchisi – Suv – tangri; (13) beshinchisi – O't-tangri qabohat bilan to'qnashib, jarohatlangani (14) uchun, qorong'ilikka qorishgani uchun Tangri yeriga bora (15) olmay, bu yerda erur. Yuqorida o'n qat ko'k, pastda (16) sakkiz qat yer besh Tangri tufayli turur. Yer yuzidagi borliq (17) ning baxt-u saodati, rang-tusi, ruhi, vujudi, kuchi, yorug'i, (18) asosi besh Tangridandir. Tangrim, yozuq qilib, besh Tangrini (19) bilmay, yovuz, bo'lmag'ur o'ylar bilan ularni qancha vayron qilgan, shikast yetkazgan bo'lsak, (20) o'n to'rt xil jarohat yetkazgan bo'lsak, o'nta ilon boshli (21) barmoqlarimiz bilan, o'ttiz ikki tish bilan tirik jonni yemish qilib, (22) Tangrini qancha ranjitgan bo'lsak, quruq-ho'l yerga, (23) besh xil jonzotga, besh xil o'simlikka (24) qancha ozor yetkazgan bo'lsak, ... Tangrim, yozuqdan qutqarg'il deya o'tinur- (25) miz. Yozug'imizni kechirgaysan!

@tarixchi kutubxonasiga

**To'rtinchi (bo'lim).** Burungi Tangrining (26) elchisi burxonlarga, taqvodor, pok rohiblarga (27) bilmay turib qancha yozuq qilgan bo'lsak, yana Tangrining sadoqatli elchisi burxonga (28) deb, ezgu qilmishli pok rohib deb e'tiqod qilmagan bo'lsak, Tangrining (29) qonunlarini [ya'ni, qutlug' kitobdan] so'zlaganda, bilimsizlik bilan unga qarshi chiqqan bo'lsak, qonun-(30) qoidalarni yoyish o'rniga ularni tiygan bo'lsak, Tangrim, endi o'kinurmiz, (31) yozuqdan qutqarg'il deya o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan!

**Beshinchi (bo'lim).** (32) Besh xil jonzotga: birinchidan, yana ikki oyoqli insonga, ikkinchidan, (33) to'rt oyoqli hayvonga, uchinchidan, uchuvchi jonzotlarga, (34) to'rtinchidan, suv ichidagi jonzotlarga, beshinchidan, yerdagi sudralib (35) yuruvchi jonzotlarga ozor yetkazib, Tangrim, bu besh xil (36) mavjudotni, ulug'idan kichigiga qadar qancha qo'rqitib (37) hurkitgan bo'lsak, qancha urib azoblagan bo'lsak, qancha ranjitgan (38) bo'lsak, qancha o'ldirgan bo'lsak, shuncha jonzotga (39) qarzdor bo'ldik. Tangrim, endi yozuqdan xalos etgin deya (40) o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan!

**Oltinchi (bo'lim).** Yana (41) Tangrim, yozuq qilib yomon xayollar bilan, so'z bilan, ish bilan o'n (42) xil yozuq qilgan bo'lsak, qancha soxta ishlar qilgan (43) bo'lsak, yana qancha yolg'on so'zlab, ont ichgan bo'lsak, qancha yolg'onchi (44) kishiga qo'l tutgan bo'lsak, yana yozuqsiz kishini qancha (45) g'iybat qilgan bo'lsak, yana gap tarqatib, kishini qancha (46) yomonlagan bo'lsak, ko'nglini, bilimini yerga qorgan bo'lsak, (47) qancha jodu-afsun qilgan bo'lsak, yana qanchadan qancha jonivorlarni (48) o'ldirgan bo'lsak, qancha aldagan bo'lsak, (49) qancha bola-chaqali kishining omonatini yeb ketgan bo'lsak, Kun-oy tangri (50) ma'qul ko'rmagan ishni qanchalar qilgan bo'lsak, yana ilk chog'lardan (51) shu kezga qadar rohib o'g'lonlar yaralgandan buyon, qancha yozuq qilgan, (52) yanglishgan bo'lsak, buncha ko'p jonzotga qanchalik qahr-g'azab (53) qilgan bo'lsak, Tangrim, endi bu o'n xil yozuqdan (54) qutqargin deya o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan!

**Yettinchi (bo'lim).** (55) Yana yozuq qilib ikki og'uli yo'l boshiga, do'zax eshigiga, (56) ozdiruvchi yo'lga, kim desa: birinchi – yolg'on qonun-u odatlarni (57) tutuvchi, ikkinchi – yana shayton-u iblislarga Tangri deb sig'inuvchi (58) yozuq qilib, Tangrim, haqiqiy Tangrini, chin qonunlarni (59) bilmay, anglamay, burxonlar, pok ruhoniylar da'vat qilsalar, (60) topinmay, aksincha, qayta yozuq qilib xudojo'yman, ulamoman deb (61) har kimsaga ergashib, uning so'zini olib, qancha yanglishib, ro'za (62) tutgan bo'lsak, qancha yanglishib topingan bo'lsak, qancha yanglishib (63) ehson qilgan bo'lsak, yana savob ishlar qilamiz deb, yanglishib, (64) qancha yovuz ishlar qilgan bo'lsak, yana shayton-u iblislarga (65) tangri debon (ularning haqiga) tirik jonivorlarni o'ldirib, topingan bo'lsak, yana (66) burxon deb soxta aqoidga topingan, inongan bo'lsak, (67) (ulardan) qut tilab yukungan

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'lsak, Tangriga yozuq qilib, shaytonga (68) topingan bo'lsak, Tangrim endi o'kinurmiz, yozuqdan xalos etgin deya (69) o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan!

**Sakkizinchi (bo'lim).** Haqiqiy (70) Tangrini, chin qonunlarni anglab yetganimizda ikki asosni, (71) uchala zamonga tegishli qonunni bildik. Yorug'likning asosini, Tangri yerini, (72) zimistonning asosini, do'zax yerini bildik. Yer va osmon yo'q (73) ekanidan burun nima bo'lganligini bildik. Tangri va iblis (74) nimadan keyin urushdilar, yorug'lik bilan qorong'ilik qanday qilib aralashdilar, yerni, (75) osmonni kim yaratganini bildik. Yana ilk zulmat, yer-u (76) osmon nimadan so'ng yo'qolgay, yorug'lik va qorong'ilik qanday qilib ajralg'ay, (77) shundan keyin nima bo'lishini bildik. Azrua tangriga (78) Kun-oy tangriga, kuchli tangriga, burxonlarga (79) inondik, tayandik, nig'o'shak bo'ldik. To'rt yorug' tamg'ani (80) ko'nglimizda tamg'aladik: birinchisi – sevgi – Azrua tangri (81) tamg'asi; ikkinchisi – e'tiqod – Kun-oy tangri tamg'asi; uchinchisi – (82) qo'rquv – besh tangri tamg'asi; to'rtinchisi – dono fikr – (83) burxonlar tamg'asi. Tangrim, aqlimizni, ko'nglimizni bu to'rt (84) xil tangrilardan qaytargan bo'lsak, o'rnidan qo'zg'atgan (85) bo'lsak, tangri tamg'asi buzilgan bo'lsa, endi Tangrim, yozug'imizni (86) kechirgin deb o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan.

**To'qqizinchi (bo'lim).** (87) O'nta diniy aqoidni tutganimizda: uchtasi og'iz bilan bog'liq, uchtasi (88) ko'ngil bilan, uchtasi qo'l bilan, biri butun o'zlik bilan bog'liq (aqoidlarni) tugal tutmoq (89) kerak edi. Tangrim, bilib-bilmay vujud farog'atiga (90) berilib, yomon yo'ldosh, o'rtoqlarning so'ziga kirib, ko'ngil bilan (91) ko'rib, mol-mulkka hirs qo'yib yoki hojatimizni (92) ko'zlab bu o'nta diniy aqoidni buzgan bo'lsak, qancha zarar (93) yetkazgan bo'lsak, Tangrim, endi yozuqdan qutqargil deya o'tinurmiz. (94) Yozug'imizni kechirgaysan!

**O'ninchi (bo'lim).** Kunda to'rt olqish – (95) Azrua tangriga, Kun-oy tangriga, kuchli tangriga, (96) burxonlarga, ixlos bilan, chin ko'ngil bilan olqish aytish (97) farzi bor edi. Yana qo'rqmasdan, erinib, yaxshi va tugal (98) alqamagan bo'lsak, yana alqov aytganda ko'nglimizni, (99) o'y-fikrimizni Tangriga tutmagan bo'lsak, duolarimiz (100) Tangriga poklik bilan yetmagan bo'lsa, qay yerda tiyilib-tutilib qolgan (101) bo'lsa, endi, Tangrim, yozuqdan qutqargil deya o'tinurmiz. Yozug'imizni (102) kechirgaysan!

**O'n birinchi (bo'lim).** Yana yetti xil ehson chin (103) aqoidga tortiq qilish farzi bor edi. Yana besh tangri yorug'ini (104) yig'uvchi farishtalar Xro'shtag, Paduaxtag tangri Tangriga (105) boruvchi, qutqarg'uchi besh tangri yorug'ini bizlarga keltirganda, (106) biz ularni sharhlab qonunga tortiq qilish farzi (107) bor edi. Yoki qayg'u-musibatga atab ehson bergani qizg'anib (108) yetti xil ehson, chin aqoidga butkul bera olmagan bo'lsak, (109) Tangriga boruvchi, (yozuqlardan) qutqarg'uchi besh tangri yorug'ini uy-joyga (110) bog'lagan bo'lsak, yovuz ishlar qilg'uchi kishiga, iflos joni-

@tarixchi_kutubxonasiga

vorlarga (111) bergan bo'lsak, to'kib-sochgan bo'lsak, Tangri (112) yorug'ini nojoiz yerga tashlagan bo'lsak, endi, Tangrim, yozuqdan (113) qutulaylik deya o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan.

**O'n ikkinchi (bo'lim).** (114) Bir yilda ellik kun pok rohiblarcha farzni bajarish (115) kerak edi. Chin ro'za tutib, Tangriga ehson qilish (116) kerak edi. Yana uy-joyni tutish uchun, mol- (117) mulkka hirs qo'yib yoki hojatimizni ko'zlab, yana to'ymas, (118) andishasiz, suq shayton uchun, yana qo'rqmaydigan ko'nglimiz (119) uchun erinib, bilib-bilmay ro'zani buzgan (120) bo'lsak, ro'za tutib, ezgulik bilan qonun-qoidalarga mos holda ro'za tutmagan (121) bo'lsak, endi Tangrim, yozuqdan qutulaylik deya o'tinurmiz. Yozug'imizni (122) kechirgaysan!

**O'n uchinchi (bo'lim).** Oy tangrining kun sayin (123) Tangriga, qonunga, pok ruhoniylar oldida yozuqlarimizdan (124) qutulishni so'rab, o'tinmak kerak edi. Yana bilib-bilmay, (125) parvosizlik bilan, yumushni bahona qilib, yozuqdan (126) qutulishni istamagan bo'lsak, endi Tangrim, yozuqdan qutulaylik deya (127) o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan.

**O'n to'rtinchi (bo'lim).** (128) Bir yilda yettita diniy marosim o'tkazish farzi bor edi. Bir oy (129) din ko'rsatmalarini tutmoq kerak edi. Yana ibodatxonada topinib, (130) ro'za tutib, Tangri burxonga chin iymon bilan ko'ngil qo'yib (131) bir yilgi yozug'imizdan tavba qilmoq kerak edi. Tangrim (132) yetti marosimni tugal ado eta olmagan bo'lsak, bir oylik din ko'rsatmalarini (133) ezgulik bilan, pokizalik bilan tuta olmagan bo'lsak, bir yilgi yozug'imizni (134) chin iymon bilan ko'ngil qo'yib xalos bo'lishni tilay olmagan bo'lsak, qancha (135) nuqsonlar bo'lgan bo'lsa, endi, Tangrim, yozuqdan qutulaylik, deya (136) o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan.

**O'n beshinchi (bo'lim).** Kun (137) sayin qancha yomon xayollarga berilamiz, qancha beadab (138) so'zlarni aytamiz, qancha nojo'ya (139) ishlarni qilamiz, yovuz ishlarga, yozuqqa o'z-o'zimizni (140) tutib, azoblanamiz. Yana kunlik rizqimizni deb, besh tangri Tangri yorug'i, o'z (141) vujudimiz, to'ymas, uyatsiz, suq, shayton istagicha (142) yurganimiz uchun yomon yerga boradi. Shuning uchun Tangrim, (143) butunlay yozuqdan qutulaylik deya o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan! (144) Tangrim, yozuqlimiz, qarzdormiz, to'ymas, (145) uyatsiz, suq iblis uchun xayol qilib, so'z bilan, ish bilan, (146) yana ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, til bilan so'zlab, qo'l bilan (147) sunub, oyoqda yurib, (besh tangri yorug'ini) uzluksiz qiynaymiz. (148) Besh tangri yorug'ini quruq ho'l yerga (tashlab), besh xil jonzotni (149) besh xil o'simlikni (qiynaymiz). Yana yozuqlimiz. (150) O'nta diniy aqoidga, yetti xil ehsonga, uch tamg'aga nig'o'shak (151) otini tutamiz, amalda esa bajara olmaymiz. Yana yorug' (152) tangrilarga, chin qoidaga, xudojo'y, ulamo, pok ruhoniylarga (153) qancha yozuqlar qilib, yanglishgan bo'lsak, yana Tangri aytgan o'git (154) bilimlarga amal qilib yurmagan bo'lsak, Tangrilar

@tarixchi_kutubxonasiga

ko'nglini sindirgan bo'lsak, (155) yana marosim-u farzlarni, olqishlarimizni diniy qoidalar, aqoidga mos holda tuta (156) olmagan bo'lsak, qancha zarar yetkazgan bo'lsak, kun sayin, (157) oy sayin yozuq qilarmiz. Yorug' tangrilarga, qutlug' qonun (158) sha'niga, pok rohiblar oldida, yozuqlardan qutulaylik, deya (159) o'tinurmiz. Yozug'imizni kechirgaysan!

(Matnni) tugallagan Tarxon. (160) Tugadi nig'o'shaklarning yozuqlardan o'kinuv kitobi – «Xuastuanift».

## «OLTUN TUSLI YORUG'»DAN

«Oltun tusli yorug'» ilk o'rta asrlardagi turk-budda adabiyoti va yozma adabiy tilining qimmatli yodgorliklaridan biridir. Asar buddizmning mahayana mazhabida yaratilgan bo'lib, ilk o'rta asrlarda sanskrit, xitoy va qadimgi turkiy matnlarda keng yoyilgan edi. Uning sanskritcha oti «Suvarnaprabhāsasutra» («Oltun jilo sutrasi»), turkiy matnining to'liq oti «Altun öŋlüg yaruq yaltrïqlïğ qopta kötrülmiš nom eligi» («Oltun tusli yorug' taratuvchi hamma narsadan ustun bo'lgan no'm hukmdori») dir. Hozir, otini qisqartirib, «Oltun yorug'» deyishadi. Biroq qadimgi turkiy tildagi otida *öŋlüg* (tusli, rangli) so'zi ham bor (*Altun öŋlüg yaruq*). Shuning uchun hozirgi qisqacha otini «Oltun tusli yorug'» deganimiz ma'qul.

Matn davomida asar *nom bitig, nom erdini, čin erdini, sutur, nom eligi sutur, sutur nom* deb qayd etilgan. Bu atamalardan: *nom bitig* – «no'm kitob» (ya'ni «qonunlar kitobi; aqoid to'plami»), *nom erdini* – «no'm javohir», *čin erdini* – «chin javohir», *sutur* – «sutra» degan ma'noni anglatadi. Ularning ichida *nom bitig, sutur, sutur nom* degan atamalar asarning janrini belgilaydi, qolganlari esa unga berilgan sifatlardir.

Buddizmning ushbu sutrasi boshda anatkak (sanskrit) tilida yaratilgan. Undan tabg'ach (xitoy) tiliga tarjima qilingan. So'ng beshbaliqlik Shingqu Sheli tudung uni tabg'achchadan qadimgi turkiy tilga («turk uyg'ur tiliga») tarjima qilgan. Bu to'g'rida oltinchi bo'lim to'rtinchi tegzinch yakunida shunday qayd etiladi: *Bodisatv Gitsu Samtso atlïğ ačarï änätkäk tilintin tawğač tilinčä ewrilmiš ... bišbalïqlïğ Sïŋqu Seli tuduŋ tawğač tilintin türk uyğur tilinčä ikiläyü ewirmiš (bo'disatv Gitsu Samtso' otli ustoz anatkak tilidan tavg'ach tiliga o'girgan ... beshbaliqlik Singqu Seli tudung tavg'ach tilidan turk uyg'ur tiliga o'girgan).* Ushbu kolofonda asarning ko'chirilgan davri bilan bog'liq holda uning tilini «turk uyg'ur tili» deyilmoqda.

Olim va buddashunos Shingqu Shelining turkshunoslikda bundan boshqa yana ikki tarjima asari ma'lum: biri «Syuan-szan kechmishi» («Tsi-in-čün kavi nom bitig»), boshqasi «Vujud va ko'ngilni anglash kitobi» («Et-özüg könülüg körmäk atlïğ nom bitig») deb ataladi. Ular ham xitoychadan o'girilgan.

«Oltun tusli yorug'» asarining bir nechta qo'lyozmasi bor. Boshqalariga qaraganda to'liqroq nusxasini S.Y. Malov 1910-yili Sharqiy Turkistonga

@tarixiy_kutubxonasiga

uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiya chog'ida Xansu o'lkasidan topgan edi. Qadimgi hind potxi bichimidagi ushbu kitob 1687-yili Dunxuanda ko'chirilgan. Hozir qo'lyozma Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanmoqda.

«Oltun tusli yorug'» o'n ikki bo'limli bo'lib, o'ziga budda rivoyat-u qissalarini birlashtiradi.

Endi «Oltun tusli yorug'» sutrasidan bir uzundi keltiramiz. Matn transkripsiyasi Gabain 1950,270–283 dan olindi.

**Matn transkripsiyasi**

Öŋrä ärtmiš ötdä, bu Čambudivip ulušta Maxaradi atlïğ elig xan bar erti. Ol yemä Maxaradi elig xan ertiŋü uluğ bay barïmlïğ, tsaŋlarï ağïlïqlarï ï tarïğ, ed tawar özä tolu, alp atïm, sülüg küčiŋä tükällig, törttin siŋar yer orunuğ iymiš basmïš, öküškä ayatmïš ağïrlatmïš, ürük uzatï köni nomča törüčä bašladačï, imärigmä qamağ bodunïn qarasïn ašmïš üklitmiš, qoptïn siŋar yağïsïz yawlaqsïz erti. Ol antağ osuğluğ čoğluğ yalïŋlïğ küčlüg küsünlüg elig xannïŋ uluğï xatunïnta toğmïš körgäli sewiglig, körklüg meŋizlig üč oğlanï erti. Aŋ ilki uluğï oğlanïnïŋ atï Maxabali erti. İkintisi ortun oğlïnïŋ atï Maxadivi erti. Üčünči aŋ kičigi oğlïnïŋ atï Maxasatvi erti.

Bir oğurta, ol elig xan üč oğlanï birlä taštïn tağta arïğta ilinčükä bartï. Qačan anta tegip, ilinču meŋi išin ertürdüktä ötrü, ol üč tigitlär xua čečäk tüš yemiš idigäli atalarï elig begkä ötünüp ayïtïp qaltïlar. Anta munta ïnaru berü yorïyu bir uluğ qamïšlïğ berk arïğqa kirip, ötrü anta tïŋalï olurdïlar. Tïŋalï olurmïšta, aŋ uluğï tigin iki inilärïŋä inčä tep tedi: Ay inilärim, meniŋ bükünki kün ertiŋü qorqum beliŋlägüm kelir. Inčä bolmazun qaltï, bu arïğ sämäk ičintä qadïr yawlaq keyiklär bar bolup, biz yoqadğuluq emgängülük bolmalïm, – tep.

İkintisi tigin inčä tep tedi: Ešidü yarlïqazun, ečim-ä, kim meniŋ bu et-özümin isirkägüm idi kelmäz. Tek biziŋä nečükin ersär, amraqlartïn adïrïlğuluq emgäk bolmazun erti, tep qorqar-men, – tep.

Bu sawïğ ešidip, üčünči Maxasatvi tigin iki ečilärïŋä ötrü tep ötünti:

Bu ersär arzilar turğuluq orun-ol,
meniŋ idi qorqïnčïm ayïnčïm yoq.
Öŋi adïrïlmaqlïğ busušum yemä yoq.
İnčip et-özümtä tolu ögrünč sewinč toğar,
bulğay erki biz yig adruq buyanïğ, -

tep tedi. Ol ödün bu üč tiginlär öz öz könüllärintäki saqïnmïš sawlarïn šözläšip, ötrü örü turup, ol arïğ ičintä taqï ičgärü kirdilär. Anča yorïyu yaŋï enüklämiš bir tiši barsïğ kördilär. Ol ač bars yemä enükläp, yeti kün ertmiš erti. Yeti enüklärïŋä egirtip, qawšadïp, ačmaq suwsamaq üzä siqïlïp, tormïš yawrïmïš sïnmïš et-özläri alaŋurup, küči küsüni üzülüp, unaqaya ölgäli yatur erti.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ne anï uluğï Maxabali tigin körüp, inčä tep tedi: Ay irinč tïši bars, enüklägäli yeti kün bolmïš. Yeti enükläri iyp, meŋ yumšaq tilägü oq teginč bulmayuqqa, anïn ačmaq suwsamaq emgäk özä sïqïlïp, yanturu yana öz enüklärin yegäli qïlïnur. Muntada kez irinč tïnlïğ bulğay-mu? – tep tedi. Bu sawïğ ešidip, Maxasatvi tigin ötrü ečisi tiginkä: Bu bars negü yeyür, uzatïqï aši negü-ol? – tep ayïtdï. Ečisi tigin inčä tep kiginč berti:

Barsnïŋ, irbizniŋ, manunuŋ, arslannïŋ,
böriniŋ, tilkünüŋ aši ersär
yalaŋuz yïndam isig et qan erür.
Muntada adïn taqï öŋi aš ičgü yoq.
Kim bu alaŋurmïš ač barsïğ tirgürgülük, -

tep tedi. Bu sawïğ ešidip, ötrü ikintisi Maxadivi tigin uquncsuzïn inčä tep tedi: Bu muntağ osuğluğ törümiš küčsirämiš alaŋurmïš ač bars ačmaq suwsamaq emgäkin ertiŋü sïqïlïp, unaqaya ölgäli turur. Biznitä adïn kim bolğay muŋa yarağlïğ, aš ičgü belgürtdäči, bu irinč tïnlïğ üčün et-özüg titip, munuŋ isig özin ulağalï udači? – tep tedi. Uluğï tigin bu sawïğ ešidip, yana ortun inisiŋä: Ay inim, alp titgülük tawar alp iš näŋ inčip isig öztä artmaz, – tep tedi. Bu sawnïŋ basa soŋïnta, Maxasatwi tigin inčä tep tedi: Ay ečilärim-ä, biz qamağun amtï isig özümüzkä et-özümüzkä ertiŋü ilinmiš yapšïnmïš-biz. Inčip yana adïnağuqa asïğ tusu qïlğalï bilgä biliglig yaruq közümüz yoq bolur erki, yemä antağ birär uluğ yarlïqančučï köŋüllüg qutluğ yalaŋuqlar ürük uzatï öz et-özlärin titip ïdalap, tïnlïğlarqa asïğ tusu qïlurlar, – tep tedi.

Bu munča sawïğ ečiläriŋä sözläp, ötrü kentü köŋülintä inčä tep saqïntï: Qaltï bu meniŋ et-özüm yüz miŋ azunlartïn berü yoqsuz asïğsïz nečä nečä yirüdi artatï. Näŋ yemä ädligsiz bolup, ne ersär, asïğqa tusuqa kirmädi. Nečükin bükünki küntä munï-teg kergäklig išlätgülük yuŋlağuluq orun tapïp, bu muntağ yïdïğ kergäksiz et-özümin sïtmïš kemišmiš yiŋ yar-teg titip ïdalap, bu irinč yarlïğ ač barsqa negülüg umuğ ïnağ bolmaz-men, – tep munčulayu saqïnïp, ečiläri birlä sözläšgülük kezigin tizigin ertdürüp, ol bars özä öŋin yarlïqančučï köŋül turğurup, irinčkädilär tsuyurqadïlar. Inčip olarnïŋ arasïnta ağladï. Taqï Maxasatvi tigin ol barsnïŋ ačïn toruğïn emgäkin tolğaqïn titrü körüp, tegrä tegzinip, közin idi andïrän kitärü umatïn, ür kič titrü körü turup, ötrü qodup, öŋi yorïp bardïlar. Ötrü ol ödün Maxasatvi bodisatv yorïyu, inčä tep saqïntï: Čaq amtï maŋa oğrayu et-özümin titgülük ïdalağuluq öd qolu suqa kelti. Ne üčün tep tesär kim:

Men ilkisizdin berü bu yïdïğ sarsïğ qanlïğ yiriŋlig
sewgüsüz taplağusuz yarsïnčïğ et-özkä inčip ïnandïm.
Aš ičgü, ton kedim, orun tösäk, at yaŋa, qaŋlï kölük,
erdini yinčü, ed tawar özä tapïndïm.
Artamaq bozulmaq törülüg üčün
ürük uzatï artadï bozuldï.

@tarixchi_kutubxonasiga

Neŋ yemä bu et-özüg küyü küzätü
ayayu tutup artatmağalï idi umadïm.
Nečä ked uzanïp igidtim ersär yemä
qaltï yawlaq yağï törüsinčä,
yanturu mini kemišü utup
sewinčsiz utlïsïz qïltï meniŋ küčümin.

Anïn inčä bilmiš kergäk: Et-öz ersär, beksiz meŋüsüz titir. Özkä yanturu asïğsïzï özä yawlaq yağï-teg qorqïnčïğ erür. Yarsïnčïğ kirligi özä tutsar, arïğsïzlïğ qïğ yükmäk titir. Anï üčün amtï men bukünki küntä bu et-özümin yuŋlap, muŋadïnčïğ uluğ iš ködüg qïlayïn. Sansarlïğ taluy ögüz ičintä tar kemi bolayïn. Toğmaq ölmäklig tegzinčdin tašqaru tartïp üntüräyin, – tep saqïntï. Yenä ök inčä tep saqïntï: Abam bir-ök, bu et-özümin titsär men, ötrü ülgüsüz sansïz mün qadağlarïğ qartïğ bezig yiriŋig qanïğ igig ağrïğïğ qorqïnčïğ aymančïğ barčanï titmiš ïdalamïš bolur-men. Taqï yemä bu et-öz ersär, altï qïrq türlüg arïğsïzlarïn tolu, suw üzäki kergü-teg beksiz yarpsïz, qamağ qurtlarnïŋ qoŋuzlarnïŋ tirgini, qannïŋ yiriŋniŋ ornağï, siŋirin tamïrïn yörgälmiš, sünüklär uluğï, özä tutušmïš ertiŋü yirinčig yarsïnčïğ erür. Anï üčün tegimlig ol amtï maŋa bu et-özümin titip ïdalap, üzäliksiz üstünki yig abamuluğ meŋü nïrvanïğ tilägülük, busuš saqïnč emgäk tolğaqïğ birtäm tarqarğuluq, toğmaq ölmäklig tägzinčig amïrtğurğuluq, nïzvanïlïğ ilišig üzgülük, dian bilgä biliglig küčüg küčländürgülük tolu tükäl bïšrunmaqlïğ edgüg egsüksüz bütürgülük, yüz buyanlïğ itigin itingülük, tolu tükäl bilgä biligig tüpkärgülük, alqu burxanlar özä ögütmiš ïduq nomluğ et-özüg tanuqlağuluq, qamağ beš azun tïnlïğlar oğlanïn nom bušïlïğ meŋi özä meŋilätgülük, – tep munčulayu adïra ödürä saqïnïp, ötrü Maxasatvi tigin yeti qïnïğ tölügtä turup, uluğ bedük küsüškä inip, uluğ yarlïqančučï köŋül turğurup, köŋülin kögüzin yağčïrdïp, ol iki ečilärin köŋülkärip, nečükin ersär tuysar oŋarsar, ötrü: Ürküp beliŋläp tïdïğ ada qïlïp, küsämiš küsüšümin qandurmağay, – tep bügünüp, ötrü iki ečilärinä: Azqïa öŋrä yoriyu turzunlar, men una basa yitdim, – tep ötünüp, ečilärin ïdïp, Maxasatvi tigin kentü özi yanturu yana ol arïğqa kirip, ač bars üskintä tegip, terkin tawratï tonïn sučulup qamïš butïqï üzä asïp, inčä tep, bek qatïğ saw sözlädi:

Men amtï tolp sansartaqï tïnlïğlar üčün
üzäliksiz üstünki yig burxan qutï küsüšin,
tebränčsiz yayïlmaqsïz uluğ yarlïqančučï köŋül turğurup,
bu meniŋ sewär amraq et-özümin titär-men, ïdalayur-men.
Bozulmaqsïz čolmaqsïz burxan qutïn tiläyür-men,
kim qamağ bilgälärkä sewgülük taplağuluq.
Üč oğuš yirtinčüdäki emgäklig taluytaqï tïnlïğlarïğ
örü tartïp ozğurup, inč meŋilig qïlayïn, –
tep tedi. Ol ödün tigin munča saw sözläp, ol ač bars üskintä suna yatdï.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Mazmuni

Burun o'tgan zamonda, bu Chambudivip o'lkasida Maxaradi otli elig xon bor edi. O'sha Maxaradi elig xon behad ulug', boy-badavlat, ombor-u xazinalari don-dun, mol-mulkka to'la, alp-u mergan, kuchli cherikka ega, to'rt tomondagi yerni o'ziga bo'ysundirgan, ko'pning hurmatini qozongan, azaldan adolatli siyosat yuritgan, bo'ysungan barcha ellarning xalqini ko'paytirgan, yon-veri butunlay yovsiz-yovuzsiz edi. O'sha tadbirli-cho'g'li, shon-shavkatli elig xonning katta xotinidan tug'ilgan ko'rkli-suyukli, istarasi issiq uch o'g'loni bo'lar edi. Eng katta – to'ng'ich o'g'lonining oti Maxabali edi. Ikkinchi – o'rtancha o'g'lining oti Maxadivi edi. Uchinchi – eng kichik o'g'lining oti Maxasatvi edi.

Kunlarning birida o'sha elig xon uch o'g'loni bilan tashqariga, tog'-u soyda sayr qilgani bordi. U yerga borganlarida, dam olib nafas rostlaganlaridan keyin o'sha uch tegin (shahzoda) gul-u chechak, meva-cheva terib kelgali otalari elig bekdan o'tinib izn so'rdilar. Ular u yon-bu yon yurib katta, bir qamishli berk ariqqa kirib, o'sha yerda tin olgani o'tirdilar. Dam olib o'tirganlarida eng katta tegin ikki inisiga shunday deb aytdi: «Ey inilarim, meni bugun qo'rquv bosib, vahmim kelyapti. Shunday bo'lmasin, ishqilib [ya'ni: aytganlarim o'ngidan kelmasin]. Tag'in bu ariq-chakalak ichidan ashaddiy yovuz hayvonlar chiqib, biz yo'qotg'uliq, zahmatga qolg'uliq bo'lmaylik», – deb.

Ikkinchi tegin shunday deb aytdi: «(Yaratgan ohimizni) eshitib, O'zi yorlaqasin. Akam-a, mening bu et-o'zim(jismim)ni asragim kelmaydi-kim, faqat bizga nima bo'lsa-da, qadrdonlardan ayrilguliq musibat bo'lmasa edi, deb qo'rqarman», – deb.

Bu so'zlarni eshitib, uchinchi tegin ikki akasiga shunday deb o'tindi:

«Bu yer azizlar turadigan [ya'ni: azizlar o'tgan] yerdir,
Mening sira qo'rqinchim, xavotirim yo'q.
O'zga ayrilmoqliq tashvishim ham yo'q.
Shunday qilib, vujudimda to'la shodlig-u sevinch tug'ilayotir,
Topg'aymiz chamasi biz yaxshi, ayri ne'matni», – deb aytdi. O'sha chog'da bu uch tegin o'z vujud-u ko'ngillaridagi o'ylagan o'ylarini so'zlashib, keyin o'rinlaridan turib, o'sha ariqning ichkarisiga qarab yurdilar. Shunday yurib, yangi enuklagan (bolalagan) bir tishi barsni ko'rdilar. O'sha och bars yangi enuklagan, (bunga) yetti kun bo'lgan edi. Yetti enukini bag'riga bosib, ochlik, suvsizlikdan siqilib, holdan toygan, siniqqan, et-o'zi bo'shashib, kuch-quvvati uzilib, o'lasi bo'lib yotar edi.

Taajjubdan uni og'a-inilarning ulug'i Maxabali tegin ko'rib, shunday deb aytdi: «Ey bechora tishi bars, enuklaganiga yetti kun bo'libdi. Yetti enuklari yumshoqqina yemishga o'xshaydi, tishi bars esa bunga jazm qilolmay, ochi-

@tarixchi_kutubxonasiga

qish, suvsash azobidan siqilib, qayta-qayta o'z enuklarini yeyishga urinyapti. Bundan ham ortiq bechorahol jonivor topilurmi?» – deb aytdi. Bu gapni eshitib, Maxasatvi tegin keyin akasi teginga: «Bu bars nima yeydi, yoqtirgan ovqati nima turur?» – deb aytdi. Akasi tegin shunday deb javob berdi:

«Barsning, ilvirsning, manuning, arslonning, bo'rining, tulkining ovqati esa yakka-yolg'iz issiq et va qon erur. Bundan boshqa yana o'zga osh-ichgu yo'q- kim, bu holdan toygan och barsni tiriltirgulik», – deb aytdi. Bu so'zni eshitib, ikkinchisi Maxadivi tegin ixtiyorsiz shunday deb aytdi: «Bu yo'sunda yaratilmish, kuchsiramish, holdan toygan och bars ochqamoq, suvsamoq azobidan g'oyat qiynalib ana-mana o'lgali turur. Bizdan boshqa kim borki, bunga yaroqli osh-suv topib beruvchi, bu bechora jonivor uchun tanasini fido qilib, buning issiq jonini uzaytirishni uddalaydigan?» – deb aytdi. Ulug' tegin bu so'zni eshitib, qayta o'rtancha inisiga: «Ey inim, saxiylik (molni mardona ulashish) botirning ishi. Nima bo'lganda ham issiq jondan kechib bo'lmaydi», – deb aytdi. Bu so'zning so'ngida Maxasatvi tegin shunday deb aytdi: «Ey akalarim-a, biz hammamiz issiq jonimizga, jasadimizga g'oyat bog'lanib qolganmiz. Shunday qilib, qayta biror jonzotga foyda yetkazgali dono fikr, ko'rar ko'zimiz yo'q, holbuki, andog' biror ulug', mehribon ko'ngilli, irodali kishilar azaldan o'z jasadlarini fido qilib, jonzotlarga foyda keltiradilar», – deb aytdi.

Bu gaplarni akalariga so'zlab, keyin o'z ko'nglida shunday deb o'yladi: «Axir bu mening et-o'zim yuz ming zamonlardan beri foydasiz necha-necha chiridi. Hech-da etli bo'lmay, qanday bo'lsa ham, foydaga, manfaatga yaramadi. Qanday qilib, bugungi kunda bunday kerakli, ishlatadigan, foydalanadigan o'rnini topib, bu xildagi chirkin, keraksiz et-o'zimni, qoqilgan, tashlangan, manqa-yu tupukday, fido qilib, qurbon qilib, tashlab, bu bechora, nochor, och barsga qanday qilib xaloskor-u panoh bo'lmayman», – deb shu tarzda o'ylab, akalari bilan so'zlashgulik jasoratini, qo'rqinchini tiyib, o'sha bars tepasida o'zgacha mehrlari uyg'onib, afsuslandilar, achindilar. Shunday qilib, ularning orasida yig'ladi. Yana Maxasatvi tegin o'sha barsning ochligini, oriqligini, emgagini, azobini aniq ko'rib, yoniga yaqinlashib, ko'zini undan uza olmay, anchagacha tikilib qarab qoldilar, so'ngra boshqa tomon yurib ketdilar. So'ngra o'sha paytda Maxasatvi Bo'disatva ketayotib, shunday deb o'yladi: «Shu chog'da menga yuzlanib, et-o'zimni, issiq jonimni fido qiladigan, qurbon qiladigan vaqt to'qnash keldi. Nima uchun desa-kim:

Men almisoqdan beri bu chirik, sassiq qonli, yiringli, mehrsiz, mardud, jirkanch jasadga shunchalik inondim. Osh-ichgu, kiyim-kechak, o'rin-to'shak, ot-u fil, arava-yu ulov, dur-u javohir, mol-mulkka topindim. Aynimoq, buzulmoq qonuni tufayli azal-azaldan aynidi, buzuldi. Hech-da bu et-o'zni kuyib, asrab-avaylab saqlab, aynitmaslikni uddalay

@tarixchi_kutubxonasiga

olmadim. Har qancha qattiq qonib tarbiyalasam ham qoldi yovuz dushman rusmini tutib, qayta meni tark etib, qovushib, sevinchsiz bebahra qildi mening kuchimni. Uning bilan shunday bilmish kerak: «Et-o'z mavjud bo'lsa, beqaror-u, o'tkinchi turur. Jonga yana foydasizligi uzra yovuz dushmanday qo'rqinchli erur. Jirkanch, kirligi, nopokligi bilan axlat hosilasini ajratadi. Shuning uchun men bugungi kunda bu et-o'zimni fido qilib, ajoyib, ulug' amalni qilayin. Sansar dengiz-u daryosi ichida solkema bo'layin. Tug'ilmoq, o'lmaklik taqdiridan tashqariga tortib chiqarayin», – deb o'yladi. Yana shunday deb o'yladi: «Agar birgina bu et-o'zimni qurbon qilsam, keyin son-sanoqsiz gunohlarni, shishni-yu bezni, yiring-u qonni, dard-u og'riqni, qo'rqinchni, xavfni – barchasini qurbon qilgan, tark etgan bo'lurmen. Tag'in-da bu et-o'z mavjud bo'lsa, o'ttiz olti xil nopokliklar bilan to'la, suv yuzidagi ko'pikday beqaror-u omonat, barcha qurtlarning, qo'ng'izlarning to'planadigan joyi, qonning, yiringning o'rnashadigan yeri; pay bilan, tomir bilan chirmalgan suyaklar bo'g'in orqali tutashgan. Shuning uchun menga tegishli bu et-o'zimni qurbon qilib, benuqson oliy ezgu Abamulug' abadiy nirvanni tilagulik, diltanglig-u parishonxotirlik, mehnat va tashvishni biryo'la tarqatish, tug'moq-o'lmoqlik qismatini ta'sirsizlantirish, nafsoniy aloqani uzgulik, ruhiyatning bilim kuchini kuchlantirgulik, to'la tugallikka erishish, ezgulikni o'ksimay bitirgulik, yuz yorug'lik harakatini qilishlik, tugallik ilmining tubiga yetishlik, hamma burxonlar qoshida madh etilgan muqaddas shar'iy et-o'zni shohid qilishlik, butun besh olam jonivorlarining avlodini shariat zakoti yo'rig'ida ko'rsatgulik», – deb shunday ayirib-saralab o'ylab, so'ngra Maxasatvi tegin o'tkir hayajon bilan turib, ulug' orzularga cho'mib, ko'ngli-yu ko'ksi ravshanlashib, o'sha ikki akasini ko'ngliga solib, har holda ular ham anglasalar-u, o'ngarsalar (deb o'yladi). So'ngra hurkib, xavfsirab, qarshilik qilib: «tilagan orzumni qondirmaydi», – deb o'ziga kelib, so'ngra ikki akasiga ozgina oldinga yurib tursinlar, men yuraverib juda toliqdim, deya o'tinib, akalarini jo'natib, Maxasatvi tegin o'zi orqaga qaytib, o'sha ariqqa kirib, och barsning tepasiga borib, shoshila kiyimlarini egilgan qamish butog'iga osib, shunday deb, (ko'ngil tubida) qattiq saqlanayotgan so'zlarini so'zladi [ya'ni: niyatlarini aytdi; duo qildi, duosini so'zladi]:

«Men endi to'lib, sansardagi jonivorlar uchun eng oliy ezgu burxon xohish-irodasini, har xil xayollarga berilmay, ulug' yorlaqaguchi ko'ngil berib, bu mening suyukli-qadrdonim, et-o'zimni fido qilaman, qurbon qilaman. Buzilmas mustahkam burxon qutini [saodatini] tilayman-kim, (u) barcha donolarga sevikli, maqbul(dir).

Uch nav o'rinda mavjud bo'lgan, emgak dengizidagi (g'arq bo'layotgan) jonzotlarni yuqori tortib, xalos qilib, tinchlantirayin», – deb aytdi. O'sha chog'da tegin shunday so'zlarni aytib, o'sha och bars oldiga uzala yotdi.

@tarixchi_kutubxonasiga

## YUSUF XOS HOJIBNING «QUTADG'U BILIG» ASARIDAN

Ulug' donishmand va shoir Yusuf Xos Hojib (XI asr) qalamiga mansub «Qutadg'u bilig» asarining uch qo'lyozma nusxasi ma'lum: asarning Namangan (yoki Farg'ona) nusxasi – XIII asr, Qohira nusxasi – XIV asr, Hirot (yoki Vena) nusxasi XV asrga tegishli. Shulardan dastlabki ikkisi arab xatida, uchinchisini esa 1349-yili Hirotda Hasan Qara Sayil Shams baxshi uyg'ur xatida ko'chirgan.

«Qutadg'u bilig» o'rta asr turkiy adabiyotida g'oyat shuhrat topdi. Kitobning muqaddimasida yozilishicha, asar qay mamlakatga yetsa, u yurtning fozillari uni qabul qilib, o'zlaricha nom berdilar. Chinliklar «Adab ul-muluk», mochinliklar «Oyin ul-mamlakat», mashriqliklar «Ziynat-ul-umaro», eronliklar «Shohnoma-yi turkiy» deb atadilar, ba'zilar «Pandnomai muluk» dedilar, turonliklar «Qutadg'u bilig» deb ot berdilar.

Asarda to'rt timsol gavdalanadi: biri – adl, ikkinchisi – davlat, uchinchisi – aql, to'rtinchisi – qanoat. Bularning har biri turkcha ism olgan: adlga Kuntug'di ismi berilib, podshoh lavozimida tutiladi; davlatning ismi Oyto'ldi bo'lib, uning vaziridir; aql – O'gdilmish atalib, vazirning o'g'li o'rnida kelgan; qanoatga O'zg'urmish ot berilib, asarda O'gdilmishning qarindoshi bo'lib keladi. Yusuf Xos Hojib bularning savol-javoblari orqali o'zining siyosiy, ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etadi. Muhimi, asarda davlat tuzumi, uning siyosiy qurilishi haqidagi fikrlar bayon etilgan. Shu tufayli ham doston davlat yo'riqnomasi darajasiga ko'tarilgan.

Quyida asarning uyg'ur yozuvli Hirot nusxasidan parcha keltiramiz. U Hirot nusxasining 127–191-baytlaridan iborat (Sodiqov, 2010).

**[Bešinč bab]. Yeti yulduz, on iki ökäk buruj(nuŋ ögdükini) ayur**

Bayat atï birlä sözüg bašladïm,
Törätkän, igidgän, kečürgän idim.

Törätti, tiläk-teg tözü 'alamïğ,
Yaruttï ažunda künüg ham ayïğ.

Yarattï, kör, ewrän tučï ewrilür,
Anïŋ birlä tezginč yemä tezginür.

Yašïl kök yarattï yemä yulduzï,
Qara tün yaruttï yaruq kündüzi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bu köktäki yulduz bir anča bezäk,
Bir nečä ködäzči, bu yegkä yezäk.

Bir nečä qulağuz bulur yitsä yol,
Bir nečä yarutmïš xalayïqqa ol.

Qayusï örüräk, qayusï qudï,
Qayusï yaruqraq, qayu öksüdi.

Bulardïn eŋ üstün Sekäntir yurïr,
İki yïl sekiz ay bir ewdä qalïr.

Anïŋda basa keldi iklinč Oŋğay,
Bir ewdä qalïr on adïn iki ay.

Üčünči Körüd keldi köksin yurïr,
Qayuqa bu baqsa, yašarmïš qurïr.

Yašïq toldï törtinč yarudï ažun,
Baqïšsa yarutur, yaqïšsa özün.

Sewüg yüz urundï bešinči Sewit,
Sewä baqtï ersä, sen özni awït.

Basa keldi Arzu tiläk arzular,
Qayuqa yawusa, aŋar öz ular.

Bularda eŋ altïn bu Yalčïq yarur,
Yašïq birlä otru yaqïšsa tolur.

On ikki ökäk ewi bular miŋ (bulardïn?) adïn,
Qayu iki ewlig, qayu birkä in.

Qozï yazqï yulduz, basa Ud kelir,
Eräntiz Učïq birlä sabču yurïr.

Kür Arslan birlä qoštï Tuğdï bašï,
Basa Ülgü boldï Čidan Ya eši.

Basa keldi Oğlaq, Könäk ham Balïq,
Bular tuğdï ersä, yarudï qalïq.

@tarixchi_kutubxonasiga

Üči yazqï yulduz, üci – yayqï, bil,
Üci küzkü yulduz, üči – qïšqï, bil.

Üci – ot, üci – su, üci boldï yel,
Üči keldi tupraq, ažun buldï, el.

Bularda birisi biringä yağï,
Yağïqa yağï ïdtï, kesti čoğï.

Qarïšmaz yağï(lar) yarašti ičin,
Körüšmäz yağïlar kötärdi öčin.

Etigli bayatïm ne-täg etdi öz,
Etä berdi, tüzdi, yarašturdï tüz.

**[Altinč bab]. Yalïnğuq oğlanï 'azizlïqï bilig, uquš birlä erdükin ayur**

Törätti, adïrdï sečü yaluŋuquğ,
Aŋgar berdi erdäm, bilig, ög, uquš.

Köŋül berdi, söz ham yoruttï tilig,
Uwut berdi, qïlq ham qïlïnčï silig.

Bilig berdi, yaŋluq bedüdi bu kün,
Uquš berdi, ötrü yazïldï tügün.

Bayat kimkä bersä uquš, ög, bilig,
Öküš edgülükkä uzadï elig.

Biligni bedüg bil, uquššuğ uluğ,
Bu ikin bedütür ödürmiš quluğ.

Bu sözkä tanuğï masal keldi, söz,
Bu söz iškä tutğïl, sözüŋ munda üz.

Uqušluğ uqar-ol, biliglig bilür,
Biligli, uqïğlï tilägkä tegir.

Uquš qayda bolsa, uqušluğ bulur,
Bilig qayda bolsa, bediglig ulur.

Bilig ma'nisï bil, nekü ol bilig,
Bilig bilsä ötrü arïr erdä ig.

@tarixchi_kutubxonasiga

Biligsïz kiši barča iglig bolur,
İgig emlämäsä, kiši terk ölür.

Yurï, ey biligsiz, igiŋni ota,
Biligsiz otïn-sen, ey, bilgä – qut-a.

Uquš-ol burunduq anï tutsa er,
Tiläkkä tegir ol, tümän arzu yer.

Uquš bolsa erkä, kör, asgï öküš,
Bilig bilsä ötrü bolur er köšüš.

Uquš birlä išlä qamuğ iš kedüg,
Bilig birlä beklä bu bilmiš ödüg.

**[Yetinč bab]. Til erdämin, munïn, asgï, yasïn ayur**

Uqušqa, biligkä bu tïlmäčï til,
Yarutačï yerni yaruq tilni bil.

Kišig bil ağïrlar, bulur qut kiši,
Kišig til učuzlar, barïr öz bašï.

Til arslan turur, kör, ešiktä yatur,
Aya, ewlig arsaq bašïŋnï yitür.

Tilin emgämiš er nekü ter, ešit,
Bu söz iškä tutğïl, köŋülni lasit.

Meni emgätür til, edi-ök telim,
Bašïm kesmäsüni, kesäyin tilim.

Sözüŋni közädgil, bašïŋ barmasun,
Tiliŋni közädgin, tišiŋ sïnmasun.

Biliglig bilig berdi tilkä bašïğ,
Aya, til ewindä ködäzgil bašïğ.

Bilip sözlä sözni bilig kisänür,
Biligsiz sözin öz bašïnï yeyür.

@tarixchi_kutubxonasiga

Öküš sözdä artuq asïğ körmädim,
Yana sözlämištä tatïğ körmädim.

Öküš sözlämä söz, birär sözlä, az,
Tümän söz tügünin bu bir sözdä yaz.

Kiši söz birlä qoptï, buldï muluk,
Öküš söz bašï qïldï yerkä külüg.

Öküš sözläsä, igšidi ter bilig,
Yana sözlämäsä, ağïn ter tilig.

Xalï mundağ ersä, yorïğ otru ur,
Yorïğ otru ursa, kišig yuqlatur.

Tiliŋni közädgil, közätildi baš,
Sözüŋni qïsurğïl, uzatïldï yaš.

Esänlik tiläsä seniŋ bu özüŋ,
Tiliŋdin čïqarma yarağsïz sözüŋ.

Til asğï telim bar, yasï ma öküš,
Ara ögdilür til, ara miŋ söküš.

Xalï mundağ ersä, bilip sözlä söz,
Sözüŋ bolsu közsüz qarağuğa köz.

Biligsiz qarağü turur belgülüg,
Yurï, ey biligsiz, bilig al ülüg.

Tuğuğlï ölär, kör, bolur belgüsüz,
Sözüŋ edgü sözlä, özüŋ ölgüsüz.

İki näŋ bilä er qarïmaz özi,
Bir edgü qïlïnčï, bir edgü sözi.

Kiši tuğdï, öldi, sözi qaldï, kör,
Sözi birlä yalğuz atï qaldï, kör.

Tiriglik tiläsä, özüŋ ölmägü,
Ol edgü qïlïnčï sözüŋ qut bögü.

@tarixchi_kutubxonasiga

Tilïğ ögdügüm ham ara yäzdügüm,
Tilägim söz erdi seŋgä yördügüm.

Qamuğ sözni yïğsa, uquš taplamaz,
Keräk sözni sözlä, kiši kezlämäz.

Sözüm oğluma sözlädim men seŋä,
Oğul mendin alïn meŋä ne teŋ-ä.

Seŋgä sözlädim men sözüm, ey oğul,
Seŋgä berdi bu pand özüm, ey oğul.

Kümüš qalsa, altun meniŋdin seŋä,
Anï yutmağïl sen bu sözgä teŋ-ä.

Kümüš iškä tutsa, tügäl alqïnur,
Sözüm iškä tutğïl, kümiš qazğanur.

**Mazmuni**
**[Beshinchi bob]. Yetti yulduz,**
**o'n ikki o'kak-burj(ni madh etganini) aytadi**

Tangri oti birla so'zni boshladim,
Yaratgan, parvarishlagan, kechirguchi Egam.

Butun olamni o'zi tilaganidek yaratdi,
Olamda kunni va oyni yoritdi.

Falakni yaratdi, ko'rgin, doim evriladi,
Aning birla charx ham aylanadi.

Yashil ko'kni yulduzi bilan yaratdi,
Qora tunni yorug' kunduz bilan yoritdi.

Bu ko'kdagi yulduzlarning bir qanchasi bezakdir,
Bir nechasi yo'l ko'rsatuvchi, yaxshiga rahnamo.

Bir nechasi yo'l yo'qolganda yetakchi bo'ladi,
Bir nechasi xaloyiqqa yo'l yoritadi.

Qay biri yuqoriroq, qay biri quyi,
Qay biri yorug'roq, qay biri xira.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bulardan eng ustun Sekantir [ya'ni, Zuhal] yuradi,
Ikki yil-u sakkiz oy bir burjda qoladi.

Aningdan so'ng ikkinchi bo'lib O'ngg'ay [ya'ni, Mushtariy] keladi,
Bir burjda o'n-u ikki oy qoladi.

Uchinchi bo'lib Ko'rud [ya'ni, Mirrix] keladi, u ko'ksini kerib yuradi,
U qay yoqqa boqsa, yashnab turgan narsa quriydi.

To'rtinchi bo'lib, Yashiq [ya'ni, Quyosh] to'ldi, olam yorishdi,
O'zi yaqin kelib boqsa, yoritadi.

Suyukli yuzini ko'rsatdi, beshinchi Sevit [ya'ni, Zuhra],
U sevib boqsa, sen o'zni ovut.

So'ng keladi Arzu [ya'ni, Utorid] – tilak-orzular,
Qay nimaga yaqinlashsa, unga o'zini ulaydi.

Bulardan eng oldda Yalchiq [ya'ni, Oy] yorishadi,
Yashiq [ya'ni, Quyosh] birla qarshi kelsa, to'lishadi.

O'n ikki o'kak uyi bulardan boshqadir,
Qaysisi ikki uyli [ya'ni, juft], qaysisi bir uyli[toq]dir.

Qo'zi [ya'ni, Hamal] ko'klamgi yulduz, so'ngra Ud [ya'ni, Savr] keladi,
Erantiz [ya'ni, Javzo] Uchiq [ya'ni, Saraton] birla yaqin yuradi.
Jasur Arslan [ya'ni, Asad] birla Tug'di bashi [ya'ni, Sunbula] qo'shdir,
So'ng Ulgu [ya'ni, Mezon], Chadan [ya'ni, Aqrab] va Yoy [ya'ni, Qavs] esh bo'ldi.

So'ngra keldi O'g'laq [ya'ni, Jadiy], Ko'nak [ya'ni, Dalv] ham Baliq [ya'ni, Hut],
Bular tug'sa, osmon yorishadi.

Uchi ko'klamgi yulduz, uchi – yozgi, bil,
Uchi kuzgi yulduz, uchi – qishki, bil.

Uchi – o't, uchi – suv, uchi bo'ldi yel,
Uchi keldi tuproq, olam va el (shulardan) paydo bo'ldi.

Bulardan birisi biriga yog'iy,
Yovga yovni yubordi, cho'g'ini kesdi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Qorishmas yovlar o'z ichida yarashdilar,
Ko'rishmas yovlar orasidagi o'ch ko'tarildi.

Yashnatuvchi Tangrim o'zi istagicha etdi,
Eta berdi, tuzdi, barchani yarashiqli qildi.

**[Oltinchi bob]. Kishi o'g'lonining azizlig'i bilim, uquv birla erkanini aytadi**

Tangri insonni yaratdi, tanladi,
Unga hunar, bilim, aql va uquv berdi.

Unga ko'ngil hamda so'z berdi, tilini ravon qildi,
Uyat berdi, xulq hamda suluv fe'l ato qildi.

Bilim berdi, (uning bilan) inson yuksaldi bu kun,
Uquv berdi, so'ng tugunlar yozildi.

Tangri kimga uquv, aql va bilim bersa,
Ko'p ezguliklarga qo'l cho'zadi.

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug',
Bu ikki narsa bilan tanlangan bandasini yuksaltiradi.

Bu so'zga isbot bo'larli masal, so'z keldi,
Bu so'zni ishga solgin, so'zingni shu bilan tugat.

Uquvli uqadi, bilimli biladi,
Bilimli va uquvli tilagiga yetadi.

Uquv qayda bo'lsa, uquv keladi,
Bilim qayda bo'lsa, yuksaklik ulanadi.

Bilimning ma'nisini bilgin, bilim nimadir,
Bilim bilsa, so'ng kishidan ofat ariydi.

Bilimsiz kishilarning barchasi dardchil bo'ladi,
Dardni emlamasa, kishi bot o'ladi.

Kel, ey bilimsiz, dardingni davola,
Bilimsiz – tubansan, ey (kishi), donolik – baxtdir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Uquv burunduq singaridir, agar kishi unga erishsa,
Tilagiga yetib, tuman orzulari ushaladi.

Kishida uquv bo'lsa, ko'rgin, foydasi talay,
Bilim o'rgansa, so'ng kishi aziz bo'ladi.

Hamma amallarni uquv birla bajar,
Barcha bilganlaringni bilim birla saqlagin.

## [Yettinchi bob]. Tilning fazilatini, zarar-u foydasi, ziyonini aytadi

Uquvga, bilimga bu tilmoch tildir,
Erni yorituvchi yorug' til deb bilgin.

Bilgin, u kishini e'zozlaydi, kishi undan baxt topadi,
Kishini til qadrsiz qiladi, o'zining boshi ketadi.

Til eshikda [ya'ni, qafasda] yotgan arslon singaridir, ko'rgin,
Ey (inson), qafasdagi vahshiy boshingga yetadi.

Tili tufayli ozor topgan kishi nima deydi, eshit,
Bu so'zga amal qilgin, ko'ngilni unga bog'la.

Til meni juda ko'p kulfatlarga soladi,
Boshimni kesmasin, men tilimni kesayin.

So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,
Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin.

Bilimli [ya'ni, Xudo] til bilan boshga bilim berdi,
Ey (inson), til uyida boshingni saqlagil.

Bilib so'zla so'zni, bilim orttiradi,
Bilimsiz so'zi bilan o'z boshini yeydi.

Ko'p so'zda ortiq foyda ko'rmadim,
Qayta-qayta so'zlayverishning totig'ini ko'rmadim.

So'zni ko'p so'zlama, bir-bir, oz so'zla,
Tuman so'zning tugunini shu bir so'zda yozib ber.

@tarixchi_kutubxonasiga

Kishi so'zi birla ko'tarildi, amal topdi,
Ko'p so'z (esa) boshini yerga egdi.

Ko'p so'zlasa, aqli dardga chalindi, deydi,
Aksincha, so'zlamasa, tilni gung-soqov deydi.

Garchi shunday ersa, o'rtacha yo'riq tut,
Yo'riq o'rtacha bo'lsa, kishini yuqorilashtiradi.

Tilingni ehtiyot qil, bosh saqlanadi,
So'zingni qisqa qil, yoshing uzayadi.

Sening o'zing esonlik tilasang,
Tilingdan yaroqsiz so'zingni chiqarma.

Tilning foydasi talaydir, ziyoni ham ko'p,
Goho maqtalur til, gohida ming so'kish eshitadi.

Garchi shunday erkan, so'zni bilib so'zla,
So'zing ko'r-u so'qirga ko'z bo'lsin.

Aniqki, bilimsiz – ko'rdir,
Kel, ey bilimsiz, yetarlicha bilim ol.

Tug'ilgan o'ladi, ko'rgin, nom-nishonsiz ketadi,
So'zingni ezgu so'zla, o'zing o'lmaysan.

Erning o'zligi ikki narsa birla qarimaydi [ya'ni, tugamaydi],
Biri – ezgu xulqi, biri – ezgu so'zi.

Kishi tug'iladi, o'ladi, so'zi qoladi, ko'rgin,
So'zi birla yolg'iz oti qoladi, ko'rgin.

Tiriklikni, o'zingning o'lmasligingni tilasang,
Xulqingni, so'zingni ezgu tut, dono.

Tilni madh etganim hamda goho yozg'irganim,
Boisi senga aytgan so'zlarni aytish edi.

Hamma so'zni yig'sa, aql sig'dirolmaydi,
Kerakli so'zni so'zla, kishi yashirmaydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ey o'g'lim, men senga so'zimni so'zladim,
O'g'lim, mendan olgin, mening (so'zlarimga) nima teng keladi?

Men senga so'zimni so'zladim, ey o'g'il,
O'zim senga bu nasihatni berdim, ey o'g'il.

Mendan senga kumush bilan oltin qolsa ham,
Uni sen bu so'zga teng tutmag'il.

Kumushni ishga solsang, tugal alqinadi,
So'zimni ishga tutg'il, kumush qozonadi.

## UYG'UR YOZUVIDA BITILGAN RASMIY HUJJATLAR

### TURFONDAN TOPILGAN RASMIY HUJJATLAR

O'tgan asrning boshlarida Turfon xarobalaridan ko'plab yozma yodgorliklar topildi. Ularning muayyan bo'lagi IX–XI acrlarga tegishli rasmiy hujjatlardir. Muhim qirrasi, ushbu rasmiy bitiklar xonlarning yorliqlari yoki yurt egalarining o'zaro yozishmalari, diplomatik hujjatlar emas. Ular yirik yer egalari, boylar, dehqonlar, oddiy kishilarning oldi-berdisi, xo'jalikning kirim-chiqimi, kimgadir sotilgan yer hujjati, ijaraga olingan yer uchun yozilgan tilxatlar, qarzga olingan don-dunni, matoni evazi bilan qaytarish to'g'risidagi vasiqalar, qullarning o'z beklari ustidan yozgan shikoyatlari yoki yirik boylarning o'z quliga bergan erk hujjatlaridir. Ushbu hujjatlar jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlar tarixini o'zida yaxshi aks ettirgan.

Eski, sarg'ayib ketgan qog'ozlardagi bitiklarning hammasi ham yaxshi saqlangan emas; ko'pi chirib, matn bo'laklari uzilib tushgan; ayrimlari kichik uzindilar. Ularning ichida matni uzuq-yuluq saqlanganlari ham ancha, orada ayrim joylarini o'qib ma'no chiqarish qiyin. Shunday esa-da, siyohi hanuz tiniq.

Hujjatlar turkiy tilda bo'lib, davlat ishlarida uning mavqeyi yuqori ekanini bildiradi. Ular eski uyg'ur xatida bitilgan. Qadimgi turk hujjatchiligida rasmiy ishlarni yuritish uchun bir paytning o'zida uyg'ur yozuvining ikki-uch xil xat uslubi qo'llanilgan: rasmiy yozmalarni bitishda keng yoyilgan turlaridan biri – jo'n, kursivli, yuguruk xat; boshqa biri – diniy-falsafiy matnlarda uchraydigan klassik xat turidir. Ba'zi hujjatlar tartibli, chiroyli xatda, ayrimining esa shoshib yozilgani bilinib turadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ta'kidlamoq o'rinliki, ushbu bitiklar turkiy hujjatchilikning ilk namunalari emas. Ular Qo'chu davlati zamonidan qolgan (ayrim hujjatlarda *Qo'chu* nomining berilganligi ham shuni ko'rsatadi). Vaholanki, turkiy hujjatchilik bundan-da eski zamonlarga borib taqaladi. Shunday esa-da, ular hujjatchilikning nodir namunalari bo'lib, turkiy rasmiy uslubning yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyotini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Bitiklar hujjatchilikning barcha talablariga javob beradi: tuzilishi puxta; matn komponentlari o'zaro uyg'un; matn uslubi, terminlar tizimi yuksak bosqichda. Qadimgi turkiy hujjatchilik uzoq uslubiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, o'rta asr jamiyatida, davlat siyosatida kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asoslari chuqur ishlab chiqilgan edi. Qanday bo'lishidan qat'i nazar, kishining haq-huquqini belgilovchi ishlar, oldi-berdi, davlat idoralari va xo'jalikdagi kirim-chiqimlar rasmiylashtirilgan, ular hujjatlarda qayd etib qo'yilgan. Ish yuritishdagi ushbu huquqiy talablar, o'z navbatida, kishilar o'rtasida huquqiy savodxonlikning o'sishi, qolaversa, yozma adabiy til, xususan, turkiy rasmiy uslubning takomiliga ham yo'l ochdi.

Turfon hujjatlarining muayyan qismi nemis, rus, uyg'ur olimlari tomonidan chop ettirilgan. Berlin fondida saqlanayotgan Turfondan topib keltirilgan hujjatlarning ko'pi hozirgi kezda Internet saytlariga ham kiritilgan. Biroq ularning o'qilishi, matn interpretatsiyasi masalasida hali tortishuvli o'rinlar bor.

Quyida Turfondan topilgan hujjatlardan ayrimlarining matnini keltiramiz. Hujjatlarni nashrga tayyorlashda ularning veb-sayt sahifalarida va ilmiy nashrlarda berilgan fotonusxalaridan foydalanildi.

## 1

Qo'ludi otli qulning o'z begi ustidan yuqori amaldorlarga yozgan shikoyat xati, o'tinch bitigi. Asl matnda u *ötüg* deb atalgan. Hujjatni S.E. Malov 1913-yili Urumchida bir ziyolidan olgan hamda fotonusxasi, uyg'urcha terma harfi, transkripsiyasi va ruscha tarjimasi bilan chop ettirgan (Malov 1951, 200–204).

Matn 36 qator. Xatni qulning o'zi yozgan bo'lishi kerak. Sababi, matnda u yoshligida xat-savod o'rganib, diniy bilimlarni egallagani to'g'risida ma'lumot beradi. Xatining tartibli, chiroyli, shu bilan birga, balog'at darajasida yozilganiga qaraganda, Qo'ludi ancha bilimli kishi o'tgan.

Arizachining shikoyat xati bo'lgani uchun devonxona yoki biron rasmiy kishining muhri bosilmagan. Yana bir jihati, hujjatda uning yozilgan sanasi (tarixi) berilgan emas.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Matn transkripsiyasi

(1) Buyanči beglärim qutïŋa,
(2) muŋ ötüglüg Qoludï
(3) (...)üŋ ötügüm
(4) teginür-men. Bintüŋ
(5) atayniŋ ewintin ünärtä išin-küčin
(6) bütürü umadïn ünmiš ermäs. Kičigimtä
(7) bitig, üžik, nom boqšut ögränmiš üčün
(8) netäg ersär toyïn bolup, toyïn törüsintä
(9) yorïğaymu men saqïnïp. Tigüy tayši bašlap
(10) qïtay tayšïlarqa keŋäšär-men. Tigüy tayši
(11) ma taqï özgä kišilär, ma yulup alayïn,
(12) boš qïlayïn tesär, bu begim: Men yulup alayïn,
(13) seŋä burunča boš bitig beräyin, tep,
(14) küwäŋ miŋiŋ üskintä men bar erkinčä
(15) meŋä tapïnïp yorïsun. Munta soŋ qalsar,
(16) tört yolï boš bolup, könülinčä toyïn bolup,
(17) elkä-qanqa buyan alqïš berip yorïsun, tep,
(18) miŋ beginiŋ tamğasïn qaqïp, meŋä boš
(19) bitig berip, anta soŋ meni yulup alïp
(20) boš bitig ma qulup aldï erdi. Soŋ
(21) yorïyu mendäki boš ïdmïš bitigni begim:
(22) Meŋä bergil, men yïqayïn, yoq qïlğay-sen, tesär,
(23) ol bitigni ma begimkä berdim. Amtï
(24) ol bitiglärni begim yaman qayuta qodup,
(25) unïtdï. Kišikä-mü alsïqdï? Meni alyuq-
(26) sen, tep, inč qïlmadïn turur. Men küčüm yetmiš-
(27) inčä iš-küč qïlïp, tapïnïp, yazmïšïm yoq.
(28) Begim ma meŋä yawuz-yaman qïlïnmïšï yoq.
(29) Nekü iškä oğrïlar-men, anïndïn berü nekü
(30) ma temiši yoq erdi. Yana bir qul alğalï
(31) meni bilä keŋilägip turur,
(32) el-qan atïŋa toyïn bolup buyan bersün tep.
(33) Üžik, boš bitig berip meni aldï erdi,
(34) yanturu satqalï almadï erdi. Amtï satar-men,
(35) tep ermiš. Beglärim buyanlayu tsuyurqayu
(36) yarlïqasar, könülgärü uqa yarlïqasunlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Mazmuni

(1) Marhamatli beklarim qudratiga (ta'zim qilaman),
(2) qayg'u bilan o'tinuvchi Qo'ludi
(3) ...ung arzimni
(4) yetkazaman. Bintung
(5) Atayning uyidan (erkinlikka) chiqar chog'da, xizmatini
(6) bajara olmay, chiqa olmadim. Kichikligimda
(7) xat-savod egallaganim, muqaddas kitoblarni o'rganganim uchun
(8) qanday qilsa, rohib bo'lib, rohiblik darajasida
(9) yurar ekanman, deb o'ylab, Tiguy tayshidan boshlab
(10) Xitoy tayshilariga qadar (hammasi bilan) kengashganimda, Tiguy tayshi
(11) hamda yana o'zga kishilar ham «seni qutqarib olamiz,
(12) erkinlik beramiz», deganlarida, bu begim: «Seni men qutqaraman,
(13) ulardan burun erk hujjatini beraman, dedi.
(14) Mening qo'l ostimda, mening tirikligimda,
(15) menga topinib yursin. Bu yerda yana qolsa,
(16) to'rt yo'la erkin bo'lib, ko'ngli istagancha rohib bo'lib,
(17) yurtga-xonga savobli ishlar qilib yursin, deb,
(18) ming begining tamg'asini bostirib, menga erkinlik
(19) hujjatini berib, shundan so'ng meni ajratib olib
(20) erkinlik hujjatini ham so'rab olgan edi. So'ng
(21) yura-yura mendagi erkinlik beruvchi hujjatni begim:
(22) «Menga bergil, men (uni) saqlay, (sen uni) yo'qotib qo'yasan», – deganida,
(23) o'sha hujjatni ham begimga berdim. Endi
(24) begim o'sha hujjatlarni qarovsiz joyga qo'yib,
(25) yo'qotdi. Biror kimsaga oldirib qo'ydimi? Meni «olgan-
(26) san», deb, tinchlik bermayapti. Men kuchim yetgani-
(27) cha xizmatini qilib, topinib (keldim), gunohim yo'q.
(28) Begimning ham menga yovuzligi yo'q edi.
(29) Qanday ishga kirishgan bo'lsam, o'shandan beri biror
(30) narsa demagan edi. Yana bir qul olish uchun
(31) men bilan kengashib turibdi,
(32) rohib bo'lib, yurt-xon nomiga savob ishlar qilsin deb.
(33) Xat, erkinlik hujjatini berib meni (ishga) olgan edi,
(34) qayta sotish uchun olmagan edi. Endi «sotaman»,
(35) deyapti. Beklarim rahm-shafqat qilib
(36) yorlaqasalar, ko'ngilga mos holda yorlaqasinlar [ya'ni ularning buyrug'i ko'ngilga taskin bag'ishlasin].

@tarixchi_kutubxonasiga

2

Ellik tosh bo'z evaziga qulni almashtirilganlik to'g'risidagi hujjat. Berlin fondida T.M.95 (U 5235) ko'rsatkichi ostida saqlanmoqda. Vasiqa uyg'ur olimlari tomonidan nashr etilgan (QUV,203–206).

Matn 33 qator, yozuvi tartibli, yuguruk xat. Qog'ozi biroz chirib, ayrim o'rinlari uzilib tushgan, lekin matnni o'qib, ma'no chiqarish mumkin.

**Matn transkripsiyasi**

(1) Toŋuz yïl, ikinti ay, üč yaŋïqa
(2) meŋä, Quğdamunï Tamuyqa yuŋlaq-
(3) lïğ böz kergäk bolup Alpïš-
(4) tïn elik taš böz eligtä
(5) alïp, özümniŋ Yuŋčï atlïğ
(6) on üč yašar er ulannï
(7) Alpïšqa toğu tomlïdu satdïm.
(8) Eligtä alïp, bu bitigni
(9) qïlmïš kün üzä men Alpïš
(10) tügäl sanap berdim, men Quğdamunï
(11) yämä tügäl sanap aldïm. Bir eksüg-
(12) süz bu Yuŋčïqa miŋ yïl, tümän
(13) künkä tegi Alpïš egälik bolsun.
(14) Taplasar, özi tutsun, taplamasar,
(15) adïn kišikä ötkürü satsun.
(16) Bu Yuŋčïnïŋ soŋ bayan
(17) oğrïsï, yalğanï bolsa, tewi qasa-
(18) sï bolsa, onluqï-yüsrüki bolup
(19) čam čarïm qïlsar, men Quğdamunï
(20) bilir-men, Alpïš bilmäs. Kim-kim
(21) nämä bolup, čam čarïm qïlsar,
(22) uluğ süükä aq yastuq, beg
(23) lärka edärkä yarağu at
(24) berip, sözlari yorïmasun.
(25) Bu nišan-tamğa men Quğdamunï-
(26) nïŋ-ol. Tanuq – Ötgäk; tanuq – Elči Buqa;
(27) tanuq – Tüštemür. Bu nišan men, tanuq
(28) Ötgäkniŋ-ol.
(29) Bu nišan men, tanuq Elči Buqanïŋ-ol.
(30) Bu nišan men, tanuq Tüštemürniŋ-ol.
(31) Bu nišan men, Toğan Tuğdïğanniŋ-ol.
(32) Men Šila Quqdamunïqa inčkä aytïp
(33) bitidim.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Mazmuni**

(1) To'ng'iz yili, ikkinchi oyning uchinchi kuni
(2) menga, Qug'damuni Tamuyga ishlatish uchun
(3) bo'z kerak bo'lib Alpish-
(4) dan ellik tosh bo'zni qo'limga
(5) olib, (evaziga) o'zimning Yungchi otli
(6) o'n uch yashar qulimni
(7) Alpishga uzil-kesil sotdim.
(8) (Yungchini) o'zimga olib, bu hujjat
(9) bitilgan kun men, Alpish
(10) (bo'zni) tugal sanab berdim, men Qug'damuni
(11) ham (uni) tugal sanab oldim. Hech bir qarshiliksiz,
(12) bu Yungchiga ming yil, tuman
(13) kunga qadar Alpish egalik qilsin.
(14) Istasa, o'zi tutsin [ya'ni, ishlatsin], istamasa,
(15) o'zga kishiga sotib yuborsin.
(16) Bu Yungchining buningdan buyon
(17) o'g'risi-yolg'oni bo'lsa, suiqasd qilsa, biron voqea sodir
(18) etsa, yaqinlari chiqib
(19) da'vo qilsa, men Qug'damuni
(20) javobgar bo'laman, Alpish javob bermaydi. Kimda-kim
(21) biror narsa bo'lib janjal-mojaro qilgudek bo'lsa,
(22) xon qo'shiniga oq [ya'ni, kumush] yastuq, bek-
(23) larga ishlatishga yaraydigan ot
(24) berib, so'zlari ikki bo'lmasin.
(25) Bu nishon-tamg'a men Qug'damuni-
(26) nikidir. Guvoh – O'tgak; guvoh Elchi Buqa;
(27) guvoh – Tushtemur. Bu nishon men, guvoh
(28) O'tkannikidir.
(29) Bu nishon men, guvoh Elchi Buqanikidir.
(30) Bu nishon men, guvoh Tushtemurnikidir.
(31) Bu nishon men, To'g'an Tug'dig'annikidir.
(32) Men Shila Qug'damunidan aniq so'rab [ya'ni uning aytganlari bo'yicha]
(33) yozdim.

**3**

Qayimtuning egalik qilishi uchun berilayotgan yer hujjati. Hozir Berlin fondida T.M.101 (U 5237) ko'rsatkichi ostida saqlanmoqda. Qog'ozi nihoyatda parokanda, ko'p yeri chirib uzilib tushgan. Matnning boshlanishi ham chirib tushgan, orada ayrim joylarini o'qib ma'no chiqarish qiyin. Matnning o'n to'rt qatori uzuq-yuluq saqlangan (QUV, 216–217).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn transkripsiyasi**

(1) ... bir sïğ
(2) ...qa yanturup teŋ bölüp
(3) yänä Yol Toğandaqï yarïm ekin yerim-
(4) ni Qayïmtuqa tešgürüšüp-üzülüšüp
(5) (ber)timiz. Bu yerkä miŋ kün, tümän kün-
(6) (kä t)egi Qayïmtu egälik bolsun. Taplasar,
(7) özi tutsun, taplamasar, adïn kišikä
(8) ötkürü satsun, tep bitig
(9) berdimiz. Bu yertä biz – Torči, Yolči, Elči,
(10) üč aqa-inilärniŋ, soŋ bayan uruğ, tarïğ
(11) ... ünüp, kim-kim nämä bolup, čam-čarïm qïlmasun-
(12) (lar. T)anuq – Tapmïš; tanuq – Qara baxšï; tanuq –
(13) ...ma Seŋä; tanuq – Temür Seŋä. Bu nišan biz,
(14) üčägüniŋ-ol. Men Torči aqa-inilärkä
(15) ayïtïp bitidim.

**Mazmuni**

(1) ... bir sig'
(2) ...ga qaytarib, teng bo'lib
(3) yana Yo'l To'g'andagi yarim ekin yerim-
(4) ni Qayimtuga kelishib
(5) berdik. Bu yerga ming kun, tuman kun-
(6) ga qadar Qayimtu egalik qilsin. Istasa,
(7) o'zi tutsin, istamasa, boshqa kishiga
(8) o'tkazib sotsin, deb hujjat
(9) berdik. Bu yerda biz – To'rchi, Yo'lchi, Elchi,
(10) uch og'a-inilarning avlodlari, so'ng, mayli,
(11) hech kimsa biror narsa bo'lib, da'vo qilmasin-
(12) (lar.) Guvoh – Tapmish; guvoh – Qara baxshi; guvoh –
(13) ...ma Senga; guvoh – Temur Senga. Bu nishon biz,
(14) uchovimiznikidir. Men To'rchi og'a-inilarimga
(15) aytib [ularning aytgan so'zlari bo'yicha] yozdim.

**4**

Temur Buqa otli dehqonning Qayimtu otli boydan ijaraga olingan yer uchun bergan vasiqasi. Hujjat oxiridagi jumla mazmuniga qaraganda, matn-ni Qayimtuning o'zi yozgan. Xati jo'n. Shoshib yozilgan bo'lsa kerak, huj-jatchilikning ba'zi texnik jihatlariga e'tibor berilmagan. Buning bilan Qayim-tuni hujjat ishini yaxshi bilmagan, deb bo'lmaydi, matn to'g'ri va savodli tuzilgan. Matn 14 qator (QUV, 224–226, 442).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn transkripsiyasi**

(1) Bičin yïl, aram ay, iki
(2) yaŋïqa meŋä, Temür Buqaqa
(3) tarïğ tarïğü yer kergäk bolup
(4) Qayïmtunïŋ Čaŋïqtaqï Elči
(5) birläki teŋ ülüšlüg yerin
(6) iki šïğ yaqaqa tu(t)tum. Bu
(7) yerkä ekin tutsa, berim-
(8) alïm kelsä, men, Temür Buqa bilür-
(9) men, Qayïmtu bilmäs. Uluğ berim
(10) kelsä, ol arqalïq bolur. Tanuq –
(11) Misïr; tanuq – Seŋä. Bu nišan
(12) men, Temür Buqanïŋ-ol. Men,
(13) Qayïmtu Temür Buqaqa
(14) ayïtïp bitidim.

**Mazmuni**

(1) Maymun yil, aram oyining ikkinchi
(2) kunida menga, Temur Buqaga
(3) ekin ekiluvchi yer kerak bo'lib
(4) Qayimtuning Changiqdagi Elchi
(5) bilan teng keladigan
(6) ikki sig' (yerini) ijaraga oldim. Bu
(7) yerning hosilini olganda, berim-
(8) soliq kelsa, men – Temur Buqa to'layman,
(9) Qayimtu javob bermaydi. Katta soliq
(10) kelsa, u javobgar bo'ladi. Guvoh –
(11) Misir; guvoh – Senga. Bu nishon
(12) men, Temur Buqanikidir. Men,
(13) Qayimtu Temur Buqadan
(14) so'rab turib (ikkimizning kelishuvimiz bo'yicha) yozdim.

**5**

Qarzga kunjut olinganligi xususidagi hujjat. U Berlin fondida T.M.75 (U 5252) raqami ostida saqlanmoqda. Matn o'n bir qator, yozuvi jo'n, yuguruk xat. Shoshib yozilgan. Qog'ozining tevaragi, 9–10-qatorlarning orasi titilgan, ayrim harflari chirib tushgan.

Matnni Qayimtuning o'zi yozgan, shoshib yozilgani ko'rinib turibdi. Bir-ikki o'rinda tuzatishlari bor. Xat uslubi Qayimtuning yuqoridagi hujjati bilan bir xil. Uyg'ur xatini bilgan kishi ikkala hujjatni bir-biriga solishtirsa, undagi o'xshashlikni aniq ko'radi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Yana bir jihati, yuqoridagi ijaraga berilayotgan yer to'g'risidagi hujjatda yerni qarzga olgan *Temür Buqa* otli dehqon bu yerda guvoh sifatida qatnashadi; faqat uning oti *Temir* shaklida yozilgan. Yuqoridagi hujjatda ikkinchi guvoh bo'lib kelgan *Seŋä* otli kishi ushbu hujjatda ham guvoh sifatida qo'l qo'ygan.

### Matn transkripsiyasi

(1) Bičin yïl törtünč ay on
(2) yaŋïqa meŋä, Qïmïrqa tüškä
(3) künčit kergäk bolup Qayïmtudïn
(4) tört šing künčit aldïm. Küz
(5) yaŋïta sekiz šing künčit köni
(6) berür-men. Bergünčä bar-yoq bolsa-men,
(7) inim Ïtapa anï tegilär bilä
(8) köni bersünlär. Tanuq – Temir;
(9) tanuq – Seŋä. Bu nišan men, Ïta(pa)-
(10) nïŋ-ol. Men Qayïmtu Ïtaba(qa)
(11) ayïtïp bitidim.

### Mazmuni

(1) Maymun yili, to'rtinchi oyning o'ninchi
(2) kunida menga, Qimirga, ortig'i bilan qaytarish evaziga
(3) kunjut kerak bo'lib, Qayimtudan
(4) to'rt shing kunjut oldim. Kuz
(5) boshida uni sakkiz shing qilib
(6) qaytaraman. Berguncha bor-yo'q bo'lsam [ya'ni borman-yo'qman],
(7) inim Itapa uni uydagilar bilan
(8) to'liq bersinlar. Guvoh – Temir;
(9) guvoh – Senga. Bu nishon men, Itapa-
(10) nikidir. Men Qayimtu Itapadan
(11) so'rab yozdim [uning og'zidan chiqqan so'zi bo'yicha yozdim].

### 6

Qayimtudan tariq (*yür*) olinganligi to'g'risidagi hujjat. Hozirda Berlin fondida T.M.83 (U 5254) raqami ostida saqlanmoqda. Matn 14 qator. Xati jo'n. Qog'ozining tevaragi, oradagi ayrim yerlari titilib ketgan. Ba'zi harflari ham chirib tushgan. Hujjatni yuqoridagi singari Qayimtuning o'zi emas, balki Misir otli rasmiy kishi bitgan (QUV, 273–274).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn transkripsiyasi**

(1) Qoyn yïl, ikinti ay, beš yaŋïqa-
(2) qa meŋä, Toŋamaqa tüškä yür
(3) kergäk bolup, Qayïmtudïn bir
(4) siq yür aldïm. Küz yaŋïda
(5) bir yarïm siq yür köni berür-
(6) men. Bermädin, kečürsär-men, el yaŋïn-
(7) ča tüši bilä köni bersün-
(8) lär. Berginčä bar-yoq bolsar-
(9) men, inim Barčaqï anï tegilär
(10) bilä köni bersünlär. Tanuq –
(11) Temür; tanuq – Seŋä. Bu nišan
(12) men, Toŋamanïŋ-ol. Men, Misïr
(13) šila Toŋama(qa) ayïtïp
(14) bitidim.

**Mazmuni**

(1) Qo'y yili, ikkinchi oyining beshinchi kunida
(2) menga, To'ngamaga ekib foyda ko'rish uchun tariq
(3) kerak bo'lib, Qayimtudan bir
(4) siq tariq oldim. Kuzning boshida
(5) bir yarim siq tariq qilib qaytaraman.
(6) Bermay, kechiktirsam, el qoidasi bo'yicha
(7) oshig'i bilan bersin-
(8) lar. Berguncha bor-yo'q bo'lsam [borman-yo'qman],
(9) inim Barchaqi uni ukalari
(10) bilan qaytarsinlar. Guvoh –
(11) Temur; guvoh – Senga. Bu nishon
(12) men, To'ngamanikidir. Men, Misir
(13) shila To'ngamadan so'rab [To'ngamaning og'zidan eshitganim bo'yicha]
(14) yozdim.

**7**

Qayimtudan ortig'i bilan qaytarish evaziga olingan tariq uchun bitilgan hujjat. Hozirda Berlin fondida T.M.106 (U 5256) ko'rsatkichi ostida saqlanmoqda. Matn 14 qator. Qog'ozi ancha uringan, varaq chap tomondan titilib, matnning so'nggi so'zlari ham uzilib tushgan. Xat uslubi tanish, tartibli, jo'n, yuguruk xat. Uni Qayimtu o'z qo'li bilan bitgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

### Matn transkripsiyasi

(1) Yont yïl, üčünč (ay),
(2) beš otuzqa meŋä, Mï(sïr-
(3) qa), tüšikä yür kergäk …
(4) Qayïmtu[dïn] tört küri (yür)
(5) aldïm. Yaŋïnda altïnč …
(6) …kči… sekiz küri y…
(7) köni berür-men. Bermädin, k(ečürsär-)
(8) men, el yaŋïnča tüši bil(ä) …
(9) berür-men. Berginčä bar-yo(q ersär-)
(10) men, inim Temür köni be(rür).
(11) Tanuq – Tarbïš; tanuq – Seŋä. (Bu)
(12) nišan (men), Mïsïr(nïŋ-ol). Men,
(13) Qayïmtu Mïsïrqa ayïtïp,
(14) özüm bitidim.

### Mazmuni

(1) Ot yili, uchinchi (oyining)
(2) yigirma beshinchi kuni menga, Mi(sir-
(3) ga), ekib foyda ko'rish uchun tariq kerak (bo'lib)
(4) Qayimtudan to'rt kuri (tariq)
(5) oldim. (Kelasi yilning) boshida oltinchi …
(6) …kchi… sakkiz kuri t(ariq)
(7) berurman. Bermay, kechiktirsam,
(8) el yo'sinicha ortig'i bilan …
(9) berurman. Berguncha bor-yo'q bo'lsam [borman-yo'qman]
(10) inim Temur qaytaradi.
(11) Guvoh – Tarbish; guvoh – Senga. (Bu)
(12) nishon men, Misirnikidir. Men,
(13) Qayimtu Misirdan so'rab,
(14) o'zim yozdim.

### 8

Qayimtudan nasiyaga bo'z olinganligi to'g'risidagi hujjat. Berlin fondida T.M.86 (U 5255) ko'rsatkichi bilan saqlanmoqda. Matn 15 qator, xati chiroyli emas, pala-partish yozilgan. Hujjatni bo'zni nasiyaga oluvchi Marlanning o'zi bitgan (QUV, 260–262).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn transkripsiyasi**

(1) Taqïğu yïl, üčünč ay,
(2) beš yigirmikä meŋä, Marlan-
(3) qa asïğqa böz kergäk bolup
(4) Qayïmtudïn üč yarïm pu
(5) taš böz aldïm. Yaŋïda
(6) yeti taš böz berür-m(en).
(7) Bermädin, kečürsär-men, el
(8) yaŋïnča asïğï bilä köni
(9) berür-men. Be(r)ginčä bar-yoq
(10) bolsar-men, inim Sutyaširi
(11) anï tegilär bilä köni bersün-
(12) lär. Tanuq – Temür; tanuq –
(13) Seŋä. Bu nišan men, Marlanniŋ-
(14) ol. Men, Marlan özüm
(15) bitidim.

**Mazmuni**

(1) Tovuq yili, uchinchi oyining
(2) yigirma beshinchi kunida menga, Marlan-
(3) ga daromad olish uchun bo'z kerak bo'lib
(4) Qayimtudan uch yarim pu
(5) tosh bo'z oldim. Kelasi yilning boshida
(6) yetti tosh bo'z qilib qaytaraman.
(7) Bermay, kechiktirsam, el
(8) yo'sinicha ortig'i bilan
(9) beraman. Berguncha bor-yo'q
(10) bo'lsam [borman-yo'qman], inim Sutyashiri
(11) uni ukalari bilan birga qaytarsin-
(12) lar. Guvoh – Temur; guvoh –
(13) Senga. Bu belgi men, Marlanniki-
(14) dir. Men, Marlan o'zim
(15) yozdim.

**9**

Sinsiduning Ko'k Buqaga yer sotganligi to'g'risidagi hujjat. Berlin fondida T.M.99 (U 5236) ko'rsatkichi ostida saqlanmoqda.

Qog'ozi nihoyatda uringan, bo'ylamasiga salkam yarmi chirib, uzilib tushgan. Shuning uchun matnni to'liq o'qib chiqishning imkoni yo'q.

Matn 14 qator, boshlanishi yo'q (QUV, 174–175).

@tarixchi_kutubxonasiga

### Matn transkripsiyasi

(1) lüg tam üz...
(2) satdïm. Bu yer...
(3) qïlmïš kün üzä t(ügäl) ...
(4) aldïm. Bu yer sïč(ï)sï ö...
(5) Buqa Sal yer adïrar. Kedink...
(6) tört sïčï ičintäki yerk(ä) ...
(7) bolsun. Taplasar, özi tutsun, t(aplamasar,) ...
(8) men Sïnsïdunuŋ aqam-inim onl(uqï) ...
(9) qïlmasunlar. Erklig beg iši-küčin tu(tup) ...
(10) yer berip, sözläri yorïmasun. Yold...
(11) Kök Buqa qursuz bolsun. Tanuq – Türk ...
(12) Buqa. Bu nišan men, Sïnsïdünüŋ-ol. Ö...
(13) Bu nišan tanuq Türk Buqanïŋ(-ol).
(14) Bu nišan tanuq Bulmïšnï(ŋ-ol).

### Mazmuni

1) luk tom uza...
2) sotdim. Bu er...
3) tuzilgan kuni tugal ...
4) oldim. Bu yer chegarasi (sharq tarafdan) ...
5) Buqa Salning yeri ayiradi. G'arb (tarafdan)...
6) to'rt chegara ichidagi yer (ming yil, tuman kunga qadar Ko'k Buqaning ixtiyorida)
7) bo'lsin. Istasa, o'zi tutsin, istamasa, (boshqa kishiga o'tkazib sotsin)...
8) men Sinsiduning og'am-inim, yaqinlarim (bu yerga da'vo)
9) qilmasinlar. Erkli bekning kuchiga tayanib, (da'vo qilib chiqsalar, boshqa joydan bu yerga teng keladigan)
10) yer berib, (da'vo qiluvchilarning) so'zlari o'tmasin. Yo'ld...
11) Ko'k Buqa zarar ko'rmasin. Guvoh – Turk ...
12) Buqa. Bu nishon men, Sinsidunikidir. O'...
13) Bu nishon guvoh Turk Buqanikidir.
14) Bu nishon guvoh Bulmishnikidir.

## 10

Bulmish otli kishining soliq to'lash maqsadida Qara O'g'uldan qarzga olgan kumush tanga uchun bergan tilxati. Matn 10 qator (QUV, 252–253, 443).

@tarixchi_kutubxonasiga

### Matn transkripsiyasi

(1) Küskü yïl, törtünč ay, bir yaŋïqa
(2) meŋä, Bulmïšqa, asïğqa kümüš
(3) (ker)gäk bolup Qara Oğulta altï s(a)tïr
(4) (k)ümüš aldïm. Qač ay tutsar-men, ay
(5) sayu birär yarïm baqïr kümüš asïğ-
(6) ï bilä köni berür-men. Berginčä yoq
(7) (ba)r bolsar-men, kišim Tüzüg köni
(8) (b)ersün. Tanuq – Borluqči; tanuq – Er Buqa.
(9) (Bu) tamğa men, Bulmïšnïŋ-ol. Men,
(10) (A)ğïna tutuŋ ayïtïp bitidim.

### Mazmuni

(1) Sichqon yil, to'rtinchi oyning birinchi kunida
(2) menga, Bulmishga, soliq to'lashga kumush
(3) kerak bo'lib, Qara O'g'uldan olti satir
(4) kumush oldim. (Uni) qancha oy tutsam, oy
(5) sayin bir yarim misqol kumushni foydasi
(6) bilan to'liq beraman. Berguncha yo'q-
(7) bor bo'lsam [borman-yo'qman] xotinim Tuzug to'liq
(8) bersin. Guvoh – Bo'rluqchi; guvoh – Er Buqa.
(9) Bu tamg'a men, Bulmishnikidir. Men,
(10) Ag'ina tutung so'rab [ular o'z og'zidan aytgani bo'yicha] yozdim.

## 11

Ko'ni Quz otli xo'jayinning Burxan Quli otli quliga bergan erk hujjati. Matn 21 qator (QUV, 312–315, 444).

### Matn transkripsiyasi

(1) Taqïğü yïl, üčünč ay, iki yaŋïqa men,
(2) Köni Quz ağïr igkä tegip, ölüp-yïtïp
(3) barğay-men, tep Šïŋuy tutuŋ begkä,
(4) küdägüm Likäkä keŋäšip-aytïšïp,
(5) Gäŋsidä tuğmïš Burxan Qulï atlïğ
(6) oğulanqa ögkä-qaŋqa buyanï
(7) tegsün, tep boš bitig berdim.
(8) Bu küntä mïnča Burxan Qulïnïŋ ya
(9) örü tağqa, qudï quumqa barsar,
(10) öz körülinčä buyan berip yorïsun.

@tarixchi_kutubxonasiga

(11) Meniŋ qatïnlarïm, Tirig Eltmišä bašlap
(12) ewdäki qatïnlarïm, meniŋ tuğmïšlarïm-
(13) kim, yemä čamlamasunlar. Čamlasarlar, ya
(14) ičkärü ağïlïqqa bir altun yastuq, ya
(15) Quču beginkä bir at, baliq beginkä bir
(16) ud berip, ağïr qïy(ï)nqa tegsün. Tanuq –
(17) tört maxarač täŋrilär; tanuq – yeti äkä baldïz
(18) täŋrimlär yügärüki; tanuq – Íkiči; tanuq – Er Toŋa.
(19) Bu bitigni Čaqasï Boqsaŋ toyïn üskintä
(20) qatïnlarïmqa ayïtïp berdim. Bu tamğa men,
(21) Likäniŋ-ol. Men, Qaysïn tu(tuŋ) ayïtïp bitidim.

**Mazmuni**

(1) Tovuq yil uchinchi oyining ikkinchi kunida men,
(2) Ko'ni Quz og'ir kasallikka chalinib, o'lib-yitib
(3) qolmayin deya Shinguy tutung bek,
(4) kuyovim Lika bilan kengashib-so'zlashib,
(5) Gangsida tug'ilgan Burxan Quli otli
(6) o'g'longa (qulga), onamga-otamga savobi
(7) tegsin deb, erklik hujjatini berdim.
(8) Bugundan boshlab Burxan Qulining (erki o'zida),
(9) yuqori toqqa (boradimi), quyi qumga boradimi,
(10) o'z ko'nglicha yo'l tutsin, savob uchun yuraversin.
(11) Mening qaramog'imdagilar, Tirig Eltmishdan boshlab
(12) uydagi bola-chaqam, mening tug'ishganlarim-
(13) kim, hech biri da'vo qilmasin. Da'vo qilsalar, yo
(14) ichki xazinaga [o'rdaga] bir oltin yastuq, yo
(15) Quchu begiga bir ot, shahar begiga bir
(16) sigir berib, og'ir jazo yuklatilsin. Guvoh –
(17) to'rt maxarach solih; guvoh – yetti egachi-singil,
(18) endigi solihalar; guvoh – Ikichi; guvoh – Er To'nga.
(19) Bu hujjatni Chaqsi Buqsang rohib qoshida
(20) bola-chaqamga aytib berdim [o'qib eshittirdim]. Bu tamg'a men,
(21) Likanikidir. Men, Qaysin tutung so'rab [ular o'z og'zidan aytgani bo'yicha] yozdim.

**12**

O'tuz hamda To'yinchug' otli kishilarning so'rovsiz er-xotin bo'lib olgan qul va joriyalari ustidan chiqargan hukmi. Matn 18 qator (QUV, 336–338, 445).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Matn transkripsiyasi**

(1) Bars yïl, toquzunč ay, altï otuzqa
(2) biz: Otuznüŋ – Baltur atlïğ temirči
(3) qarabaš; Toyïnčuğnuŋ – Aysïlïğ
(4) atlïğ ewči-qarabaš bözči, bu ikägü,
(5) begärläringä ayïtmadïn, er-ewči
(6) bolmïšlar. Kin men, Toyïnčuğ
(7) Otuz bilä ešitip, adïrmadïn
(8) Toyïnčuğnuŋ, ewči-qarabašnïŋ
(9) bertin Toyïnčuğ-oq alïr-men.
(10) Men, Otuznuŋ, temirči qarabašnïŋ
(11) bertin men, Otuz-oq alïr-men. Men,
(12) Otuz qulumnuŋ nekü ersär, bar
(13) tep, Toyïnčuğqa, ewčikä čam qïlmaz-
(14) men. Men, Toyïnčuğ meniŋ, küŋnüg nekü
(15) ersär, bar tep, Otuzqa, qulqa
(16) čam qïlmaz-men. Tanuq – Qarïq; tanuq – Čawsu;
(17) tanuq – Ötükän Temir. Bu tamğa biz, ikägü-
(18) nüŋ-ol. Men, Muŋul Buqa ayïtïp bitidim.

**Mazmuni**

(1) Bars yil to'qqizinchi oyining yigirma oltinchisida
(2) biz – O'tuzning, Baltur otli temirchi
(3) quli, To'yinchug'ning Aysilig'
(4) otli joriya to'quvchisi, bu ikkovi
(5) (biz) beklariga aytmay, er-xotin
(6) bo'lib olibdilar. Keyin men, To'yinchug',
(7) O'tuz bilan eshitib qolib, (ularni bir-biridan) ajratmay, (shunga kelishdik:
(8) (men) To'yinchug' (bundan buyon) o'z joriyamning (to'laydigan)
(9) to'lovlarini faqat o'zim olaman.
(10) Men O'tuz, o'z temirchi qulimning (to'laydigan)
(11) to'lovlarini faqat o'zim olaman. Men
(12) O'tuz, o'z qulimning qanday ishi bo'lsa, bor
(13) deb, To'yinchuq va uning joriyasiga da'vo qilmayman.
(14) Men To'yinchuq, o'z joriyamning qanday ishi
(15) bo'lsa, bor deb O'tuz va uning quliga
(16) da'vo qilmayman. Guvoh – Qariq; guvoh – Chavsu;
(17) guvoh – O'tukan Temir. Bu tamg'a biz, ikkovimiz-
(18) nikidir. Men, Mungul Buqa so'rab turib [ular o'z og'zidan aytgani bo'yicha] yozdim.

@tarixchi_kutubxonasiga

13

Yapig' tutung va Qutlug' Arslan otli kishilarning Alp Turmishdan olgan mis tanga uchun bergan tilxati. Hujjat Urumchidagi Shinjon tarix muzeyida saqlanmoqda.

Matn yetti qator, qog'ozning oxiriga yetmay tugaydi. Qog'ozi ham anchа titilgan. Xati jo'n, tezkor usulda. 5–6-qatorlar satr oxiriga yetmay tugaydi (QUV, 382–386).

## Matn transkripsiyasi

(1) Bars yïl, sekizinč ay, üč yigirmikä Alp Turmïš
(2) berilmiš iki yüz quan baqïrta yüz quan baqïr
(3) men Yapïğ tutuŋ, Qutluğ Arslan aldïmïz. Yüz quan
(4) baqïr Čuy tutuŋ aldï. Bu (V)apšï tutuŋ begniŋ-ol.
(5) Bu tamğa Qutluğ Arslannïŋ-ol.
(6) Bu baqïr toquz on toquz ar-ol.
(7) Xou koŋ.

## Mazmuni

(1) Bars-yili, sakkizinchi oyning o'n uchinchi kunida Alp Turmish (tarafidan)
(2) berilgan ikki yuz quan mis(tanga)dan yuz quan misni
(3) men Yapig' tutung (va) Qutlug' Arslan oldik. Yuz quan
(4) misni Chuy tutung oldi. Bu (nishon) Vapshi tutung beknikidir.
(5) Bu tamg'a Qutlug' Arslannikidir.
(6) Bu mis(tanganing ulushi) to'qson to'qqiz ar(ning qiymatiga teng)dir.
(7) Bu hujjatning oxiri bo'sh [bu hujjatning oxirida boshqa yozuv yo'q].

@tarixchi_kutubxonasiga

## ARMAN MANBALARI

### Arman mualliflari va ularning asarlari haqida

Xrestomatiyaning uchinchi jildida taniqli arman olimasi L.X. Ter-Mkrtchyanning 1979-yili nashr etilgan «Arman manbalari O'rta Osiyo haqida (V–VII asrlar)»[1] kitobi asosida tahliliy maqola va manbalardan parchalar keltirgan edik. Olima O'rta Osiyo tarixini arman manbalariga ko'ra tahlil qilishni davom etib, 1985-yili «Arman manbalari O'rta Osiyo haqida (VIII–XVIII asrlar)»[2] kitobini nashr etdi. Arman tarixchilari o'z asarlarini Armaniston tarixiga bag'ishlagan bo'lsalar ham, ular muayyan davrdagi boshqa xalqlarning, jumladan, O'rta Osiyo xalqlarining hayoti bilan bog'liq hodisalarni ham yoritganlar.

Arab xalifaligi davrida arman tarixchilaridan Gevond (VIII asr), Tovma Arsruni va Ioannes Drasxanakertsi (IX–X asrlar), Movses Kagankatvasi (X asr), Stepanos Toronetsi Asoxik (X–XI asrlar) ijod qilganlar.

Saljuq turklarining g'arbga siljishi bilan bog'liq voqealar Aristakes Lastivertsi (XI asr), Matteos Urxayetsi va Samuel Anetsi (XII asr) asarlarida yoritilgan.

Mo'g'ul istilosi davri Kirakos Ganzaketsi, Vardan Arevelsi (yoki Buyuk Vardan), Smbat Sparapet (XIII asr) asarlarida qayd etilgan.

Amir Temur va Temuriylar davri tarixi Tovma Mesopetsi (XIV–XV asr) asarida yoritilgan.

Xrestomatiyaning ushbu jildiga XIII–XV asrlarda tuzilgan «Kichik xronikalar» va «XV asrdagi arman qo'lyozmalaridagi esdalik yozuvlar»dan ham parchalar kiritildi.

### Gevond (VIII asr) va uning «Buyuk Gevond, arman vardapetining, Muhammadning zuhuri va uning vorislari xususida; qanday qilib va qay yo'sinda (arablar) olamni va ayniqsa, arman xalqini istilo qilganlari haqida bayoni» asari

Gevond haqida faqat u ruhoniy bo'lgani ma'lum. Muallif kitobini «hokim Shapux Bagratunining buyrug'iga ko'ra» yozgan. O'z asarini Gevond

[1] Л.Х. Тер-Мкртчян. Армянские источники о Средней Азии (V–VII вв). – М., 1979.

[2] Л.Х. Тер-Мкртчян. Армянские источники о Средней Азии (VIII–XVIII вв). – М., Наука. 1985.

@tarixchi_kutubxonasiga

632-yil voqealari bayonidan boshlaydi va o'zining Stefannosga katolikoslikka saylangan yili, ya'ni 788-yil bilan tugatadi.

1982-yili arman olimi A.N. Ter-Gevondyan Gevond «Tarix»ining hozirgi armanchaga tarjimasini so'zboshi va izohlar bilan birga nashr etdi[1].

Gevond «Tarix»ining ruscha tarjimasini K.P. Patkanyan (1833–1889) Sankt-Peterburgdagi Osiyo muzeyida saqlanadigan XVII asrga oid qo'lyozma asosida nashr etdi[2]. Nashrda K.Patkanyanning so'zboshisi va izohlari ham keltirilgan.

## Tovma Arsruni (IX–X asrlar) va uning «Arsrunilar xonadoni tarixi» asari

Tovma Arsruni o'zining «Arsrunilar xonadoni tarixi» asarida Arsruni urug'ining tarixini alohida ajratib, bu urug' Armanistonning eng mashhur naxararlari xonadonidan ekanligini ta'kidlagan.

Tovma Arsrunining tarjimayi holiga aloqador ba'zi ma'lumotlarni uning o'z asariga yozgan so'zboshisidan topamiz. U ruhoniy va ancha ma'rifatli kishi edi. Arsrunining teri (hokimi) va Vaspurakanning ishxani Grigor-Derenik (885-yili o'ldirilgan) unga Arsruni urug'ining shajarasini va tarixini yozishni buyuradi. Tovma Arsruni kitobining birinchi qismidagi boblaridan birida unga «Tarix»ni yozishni arman lashkarboshisi va Vaspurakanning amiri Gachik buyurganini aytgan: u esa Grigor-Derenikning ikkinchi o'g'li bo'lib, akasi Ashot o'lganidan so'ng, 905-yili Vaspurakanning amiri bo'lgan[3].

Muallif o'z asarini «olam yaratilishidan» boshlaydi va uni 936-yilgacha yetkazadi. Tovmaning asari uch qismdan iborat bo'lib, ularning oxirgisida muallif zamonidagi voqealar bayon etilgan. Tovma Arsrunining asari ma'lumotlarning yangiligi va bayonning qiziqarliligi bilan IX–X asrlardagi tarixiy asarlarning eng mo'tabarlari qatoridan o'rin oladi. Arsruni – haqiqatgo'y tarixchi, u keltirgan ma'lumotlar arab manbalaridagi xabarlar bilan tasdiqlanadi.

Arsruni urug'ining ilk tarixini yozishda arman asarlaridan foydalanilgan: muallif ular haqida kitobning birinchi qismining oxirida eslaydi. Ancha keyingi davrlardagi voqealar haqida muallif hech kim o'z asarida ularni yoritmaganini va uning o'zi bu voqea haqida ilk bor yozganini ta'kidlaydi.

[1] Гевонд. История. Перевод, предисловие и комментарии Арама Тер-Гевондяна. Ер., 1982 (арман тилида).

[2] История халифов вардапета Гевонда, писателя VIII века. Спб., 1862.

[3] Товма Арцруни. История дома Арцруни. Спб., 1887. С. 45 (qadimgi arman tilida).

@tarixon_kutubxonasiga

O'zi ham Arsruni urug'idan bo'lgani uchun u Arsruni ishxanlari – Grigor, Ashot va Gagikka ko'p ahamiyat beradi; u ularning urushlari va quruvchilik faoliyatlari haqida mufassal bayon qiladi.

Arman tarixchilari «Arsrunilar xonadoni tarixi» ikki kishi tomonidan yozilganligini isbotladilar. Qo'lyozmaning talay qismi (261-dan 305-betgacha) boshqa, noma'lum muallifga tegishli; uning nomini shartli ravishda Tovma-Otsiz (Tovma-Anonim) deyilgan. V.Nersesyanning ko'rsatishicha, «ikkala alohida kitobdan birining oxirgi betlari yo'qolgan. Ikkinchisining – oldingi va oxirgi betlari yo'q bo'lib, ular ikkalasi keyin qo'shilgan, chunki ularning ikkisi ham bir narsani – Arsrunilar tarixini o'z ichiga olgan va bir asar sifatida ko'chirib yozilgan. Faqat birinchi kitob muallifining nomi saqlanganligi uchun kitobning hammasi unga mansub deyilgan»[1].

Tovma – Otsizga kelsak, uning asariga ko'ra, u o'zi tavsiflagan voqealarning guvohi va zamondoshi bo'lganga o'xshaydi va balki u ham Arsruni urug'idan bo'lgan.

Asarda O'rta Osiyo tarixiga oid muhim sahifalar ham mavjud (O'rta Osiyoning qadimgi davrdagi tarixiga oid xabarlar va shuningdek, Sosoniylar davri va Arab xalifaligiga doir ma'lumotlar).

«Arsruni xonadoni tarixi» birinchi marta Istanbulda 1852-yili nashr etilgan[2]. 1887-yili u Sankt-Peterburgda K. Patkanyan tahriri ostida qayta nashr etildi[3]. Asarning uchinchi nashri 1917-yili Tiflisda chiqdi[4].

V.Vardanyan Tovma Arsruni asarining hozirgi arman tiliga tarjimasini nashr etdi[5].

## Movses Kagankatvatsi (X asr) va uning «Ag'vank tarixi» asari

Tarixchining o'zi xabar berishicha, u Utik viloyatidagi Kagankatuyk qishlog'idan kelib chiqqan. U haqda boshqa ma'lumotlar saqlanmagan.

Movses Kagankatvatsining Ag'vank (Albaniya), ya'ni hozirgi Shimoliy Ozarbayjon tarixiga bag'ishlangan asari uch kitobdan iborat. Asarning avvalgi ikki kitobi qadimgi arman mualliflari Movses Xorenatsi, Yegishe, Lazar Parpetsi, Petros Syunetsilarning asarlari asosida yozilgan: bundan tashqari u arman katolikoslarining risolalari, arman avliyolarining aytganlari va

[1] Видные деятели армянской культуры С. 129; Абегян. М. История древнеармянской литературы. Ер.. 1975. С.255–257; Товма Арцруни и Аноним. История дома Арцруни. Введение. перевод на совр. арм. яз. и комм. Врежа Варданяна. Ер.. 1978. С. 18–23 (arman tilida).

[2] Tovma Arsruni. Arsruni xonadoni tarixi. Istanbul,1852 (qadimgi arman tilida).

[3] Vardapet Tovma Arsruni. Arsruni xonadoni tarixi. Spb., 1887 (qadimgi arman tilida).

[4] Vardapet Tovma Arsruni. Arsruni xonadoni tarixi. Tiflis. 1917 (qadimgi arman tilida).

[5] Товма Арцруни и Аноним. История дома Арцруни. Введение. перевод и комментарии Врежа Варданяна. – Ереван, 1978 (arman tilida).

@tarixiy_kutubxonasiga

tarjimayi hollaridan ham foydalangan. Asarning uchinchi kitobi esa asosan arab istilosi tarixiga bag'ishlangan. Unda, shuningdek, Ag'vankda X asrda yuz bergan voqealar tavsiflangan.

Movses Kagankatvatsi siyosiy va diniy voqealar bilan birga rohiblarning chekkan azoblari, nasroniylarning quvg'in qilinganliklari haqida ham bayon qiladi. Uning asarida arman cherkovining unga bo'ysungan Ag'vank cherkovi bilan munosabatlari, Vizantiya imperatori Irakliy (610–641) bilan fors shohi Xusrav o'rtasidagi urushlar haqida ma'lumotlar beradigan qimmatli sahifalar ham bor. Arablarning Armanistonni istilo qilganiga katta ahamiyat berilgan. Asarning bir necha bobi Ag'vank hokimi Jevanshirga bag'ishlangan. Bu asarning oxirgi ikki bobida ag'vank katolikoslari va ishxanlarining 988-yilgacha yetkazilgan ro'yxati keltirilgan.

Movses Kagankatvatsining asarida O'rta Osiyo tarixiga aloqador xabarlar ham ko'p.

«Ag'vank tarixi» birinchi marta 1860-yili Mkrtich Emin tomonidan nashr etilgan[1].

Asarning ruscha tarjimasini 1861-yili K.Patkanyan amalga oshirdi[2]. Kagankatvatsi asarining hozirgi zamon arman tiliga tarjimasini 1969-yili V.Arakelyan nashr etdi [3]. (Movses Kagankatvatsi. Ag'vank tarixi. Yer... 1969, arman tilida).

1984-yili Matenadaranning ilmiy xodimi Sh.V. Smbatyan Movses Kagankatvatsi asarining yangi ruscha tarjimasini nashr etdi. U o'z tarjimasiga asarning barcha qo'lyozmalarini va yevropa tillariga qilingan tarjimalarini jalb qildi[4].

## Aristakes Lastiversi (XI asr) va uning «Tarix» asari

Aristakes Lastiversining hayoti haqida juda kam ma'lumot saqlangan. Uning o'z asarida yozganlariga ko'ra, Aristakes vardapet unvoniga ega bo'lgan, ya'ni u ruhoniylar toifasiga kirgan. Uning to'liq ismiga ko'ra, Aristakes Arsn shahri yaqinidagi Lastivert qishlog'ida tug'ilgan.

---

[1] Movses Kagankatvatsi. Ag'vank mamlakati tarixi. Mkrtich Emin nashri. – M., 1860 (qadimgi arman tilida).

[2] История Агван Маисея Каганкатваци, писателя X века. Перевод с армянского К.Патканяна. Спб., 1861.

[3] Movses Kagankatvatsi. Ag'vank tarixi. Arakelyan nashri. – Yerevan, 1969 (qadimgi arman tilida).

[4] Movсес Каланкатуаци. История страны Алуанк. Перевод с древнеармянского, предисловие и комментарий Ш.В. Смбатяна. – Ереван, 1984.

@tarixchi_kutubxonasiga

Aristakesning asari «Bizni o'rovchi yot qabilalar keltirgan balolar haqida vardapet Aristakes Lastiversining bayoni» (Qisqacha «Tarix» yoki «Armaniston tarixi») deb ataladi. Uning yozilish payti saljuqiy sulton Alp Arslon (1063–1072) o'limidan keyingi vaqtga, aniqrog'i, 1072–1087-yillar oralig'iga to'g'ri keladi.

Aristakes Lastiversining asari she'riy muqaddima, 25 bob va xotimadan iborat. Muallif asarini Vizantiya imperatori Vasiliy II ning (976–1025) podshohlik yillaridan boshlaydi. So'ngra arman podshohi Gashk I Bagratunining (990–1020) podshohlik yillari va uning o'g'illari Smbat va Ashot o'rtasidagi taxt uchun kurash haqida naql qiladi.

Aristakes Lastiversi asaridagi asosiy mavzu, bu – saljuq turklarining istilosi bilan bog'liq voqealar tafsilotidir.

Aristakesning asari qadimgi arman tilida birinchi marta 1844-yili Venesiyada nashr etilgan[1]. Shundan 50-yil keyin asar hozirgi arman tilida nashr etildi[2]. 1968-yili K.N. Yuzbashyan asarning ruscha tarjimasini nashr etdi[3]. V.A. Gevorkyan 1971-yili asarning hozirgi arman tiliga tarjimasini yangidan nashr etdi[4].

## Ctepanos Taronetsi Asoxik (X–XI asrlar) va uning «Umumiy tarix» asari

Stepanos Taronetsining laqabi Asoxik («hikoyachi», «kuychi») bo'lib, X asrning ikkinchi yarmi – XI asrning birinchi yarmida yashagan. U katolikos Sargisning (992–1019) buyrug'i bilan «Umumiy tarix» nomli asar yozgan. Bu asarda arman xalqining va Yaqin Sharqdagi boshqa xalqlarning qadimgi davrlardan to XI asr boshigacha tarixi yoritiladi.

Stepanos Taronetsi hayotining tafsilotlari ma'lum emas. Faqat u G'arbiy Armanistonning Taron viloyatidan kelib chiqqanligi va shuning uchun Taronetsi deb atalganligi ma'lum. U asarining bir joyida aytgan so'zlaridan o'smirlik yillarini Gladzor monastirida o'tkazgani anglashiladi. Taniqli faylasuf va yozuvchi Grigor Megistros (taxm. 990–1058) guvohlik berishicha, Stepanos uzoq umr ko'rgan.

Stepanos Taronetsining asari uch kitobdan iborat. Birinchi kitob qadimgi tarixning qisqacha bayoniga bag'ishlangan. Unda Isroil, Fors, Assuriya, Midiya, Partava, Rim, arman podshohlarining xronologik ro'yxatlari keltiriladi. Asarning ikkinchi kitobida Armanistonning Trdat I (mil.avv. 160–95) podshohligidan to Ashot I Bagratuni (886–890) podshohligigacha tarixi

[1] Vardapet Aristakes Lastivertsining tarixi. – Venetsiya, 1844 (qadimgi arman tilida).

[2] Vardapet Aristakes Lastivertsining Armaniston tarixi. Yangi arman tiliga Minas Ter-Petrosyan tarjimasi. – Aleksandropol, 1893.

[3] Повествование вардапета Аристакеса Ластивертци. – М., 1968.

[4] Aristakes Lastiversi. Tarix V.A. Gevorkyan tarjimasi. – Yerevan, 1971 (arman tilida).

@tarixni_kutubxonasiga

bayon qilinadi. Shu yerda Grigoriy ma'rifatparvardan boshlab to Georg Garnetsigacha (878–898) katolikoslari haqida ham yozilgan. Shu kitobning o'zida Sosoniylar sulolasining, arab xalifalarining va Vizantiya imperatorlarining podshohliklari tavsiflanadi va Konstantindan Vasiliy II gacha bo'lgan imperatorlarning ro'yxati keltiriladi. Asarning Asoxik «Men o'zim mustaqil hikoya qiladigan vaqtlar tarixi» deb atagan uchinchi kitobida Armanistonning Ashot I dan to Gagik I gacha, ya'ni 886-yildan 1004-yilgacha tarixi bayon qilinadi. Bu kitobni yozishda u o'zidan avval o'tgan mualliflarning asarlaridan foydalanish bilan birga guvoh sifatida o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarni ham aks ettirgan. «Umumiy tarix» uchinchi kitobining diqqatga sazovor tarafi shundaki, Armanistonda olib borilgan qurilish ishlari, monastir hayoti, u yerdagi tartiblar va rohiblar haqida mufassal yozgan.

Yerevandagi Matenadaran kutubxonasida Stepanos Taronetsi asarining 12 ta qo'lyozma nusxasi mavjud. Shundan ham ko'rinadiki, unga qiziqish va e'tibor katta bo'lgan.

«Umumiy tarix» birinchi marta Parijda 1859-yili K.Shaxnazaryan tomonidan nashr etilgan[1]. Asarning izohli ruscha tarjimasi 1864-yili Moskvada N.Emin tomonidan nashr etilgan[2].

### Matteos Urxayetsi (XII asr) va uning «Xronografiya» asari

Matteos Urxayetsi haqidagi ma'lumotlar juda kam. U o'zini: «Matteos Urxayetsi rohib», «Matteos Urxayetsi monastir xodimi» degan. Shunga ko'ra u Urfadagi (Urxay, Edessa) monastirlarning birida rohib bo'lgan, deyish mumkin. U 1138–1144-yillar oralig'ida vafot etgan.

Matteos Urxayetsining asari «Xronografiya» deb nomlangan. Muallif qadimgi arman manbalarini sinchkovlik bilan o'rgangan.

«Xronografiya» uch qismdan iborat: birinchi qism – 952-yildan 1051-yilgacha bo'lgan voqealar bayoni; ikkinchi qism – 1051–1101-yillar voqealari bayoni; uchinchi qismini Matteos keksaygan chog'ida yozadi va 1136–1137-yilgacha yetkazadi. Umuman, «Xronografiya» X–XII asrlardagi Armaniston tarixi bo'yicha muhim manbadir.

Matteos Urxayetsining «Xronografiya»sini ruhoniy Grigor davom ettirib, 1162–1163-yillargacha yetkazgan.

«Xronografiya» arman, fransuz va turk tillarida nashr etilgan. Armancha nashrlari birinchi marta 1869-yili Quddusda[3] va ikkinchi marta 1973-yili Yerevanda nashr etilgan[4].

---


[1] Stepanos vardapet Taronetsining «Umumiy tarixi». – Parij, 1859 (qadimgi arman tilida).

[2] Всеобщая история Степаноса Таронского, Асохика по прозванию писателя, XI столетия. Перевод с армянского и объяснения Н. Эмина. – М., 1864.

[3] Matteos Urxayetsining Armaniston tarixi. – Quddus, 1869 (qadimgi arman tilida).

[4] Matteos Urxayetsi. Xronografiya. – Yerevan, 1973 (qadimgi arman tilida).

@tarixchi_kutubxonasiga




Ismoil Somoniy maqbarasi. Buxoro. X asr.

@tarixchi_kutubxonasiga



O'rta asrlar asturlobi.




Ahmad Farg'oniy Nil daryosiga o'rnatgan miqyos. IX asr. Qohira.

@tarixchi_kutubxonasiga





Abu Rayhon Beruniyning dunyo xaritasi. «At-Tafhim» asari.
O'zRFA SHI qo'lyozmasi № 3423.



Sug'd hujjatlari. Panch hukmdoriga maktub.


@tarixchi_kutubxonasiga






Sug'd hujjatlari. Panch hukmdoriga maktub.

@tarixchi_kutubxonasiga






Sug'd hujjatlari. Farmondan namuna. VIII asr boshi.

@tarixchi_kutubxonasiga



Kultegin bitiktoshi (732-y.).

@tarixchi_kutubxonasiga



«Xuastuanivt»ning Berlinda saqlanayotgan uyg'ur yozuvida bitilgan uzindisi.

@tarixchi_kutubxonasiga



Uyg'ur yozuvida bitilgan rasmiy hujjat.

@tarixchi_kutubxonasiga

### Samuel Anetsi (XII asr) va uning «Tarixiy hujjatlar to'plami»

Samuel Anetsining hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar deyarli saqlanmagan. Faqat uning XII asrda yashagani va katolikos Grigoriy IV ning (1173–1193) iltimosiga ko'ra, yunon tarixchisi Yevseviy va arman solnomachilarining taqvimlari asosida o'z taqvimini va «olam ibtidosidan» to 1179-yilgacha jadvalini tuzgani ma'lum.

1181–1330-yillar oralig'ida bu asar noma'lum mualliflar tomonidan davom ettirilgan. Ba'zi qo'lyozmalarda Anetsining asari hatto 1657 va 1665-yillargacha davom ettirilgan. Samuel Anetsining asari bir marta 1893-yili nashr etilgan[1].

### Kirakos Gandzaketsi (XIII asr) va uning «Armaniston tarixi» asari

Kirakos Gandzaketsi 1200-yili Gandzak (hozirgi Ganja)da tug'ilgan. U mashhur murabbiy va tarixnavis vardapet Vanakandan ta'lim olgan, u esa atoqli huquqshunos olim Mxitar Goshning (1120–1213) shogirdi bo'lgan.

Xorazmshoh Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi askar to'plash maqsadida Gurjiston va Armanistonga kelganida Vanakan Xoranashat monastirida edi. Shundan so'ng u monastirni tark etib, Tovush qal'asi yaqinidagi bir g'ordan panoh topgan. Kirakos Gandzaketsi yoshlik yillarini ustozi bilan o'sha yerda o'tkazadi.

So'ngra Armanistonga mo'g'ullar bostirib kelib, Ganja shahrini egallaydi, Vanakanni shogirdi Kirakos Gandzaketsi bilan birga asirlikka olib ketadilar. Ko'p o'tmay vardapet Vanakan badal pulini to'lab xalos bo'ladi, Kirakos esa qochib qutuladi. Bundan keyin ustoz va shogird Xoranashat monastiriga qaytib kelib, uni ta'mirlaydilar. Kirakos Gandzaketsi 1236-yildan 1271-yilgacha, ya'ni umrining oxirigacha Nor-Getik monastirida yashaydi va o'sha yerga dafn etiladi.

Kirakos Gandzaketsi «Armaniston tarixi»ning muallifi sifatida ma'lum. Akademik M. Abegyanning ta'kidlashicha, Kirakosning asarisiz armanilar va Armaniston tarixining ko'p taraflari, ko'p tarixiy va madaniy voqealar, tarixiy hujjatlar va shaxslar yo butunlay noma'lum, yoki kam ma'lum bo'lib qolardi[2].

Kirakos Gandzaketsining asari ikki qismdan iborat. Birinchi qismda muallif Armanistonning Grigoriy Ma'rifatparvardan boshlab cherkov tarixi voqealari bayon qilingan, keyingi katoliklar va ba'zi siyosiy voqealar haqida ham yozilgan.

[1] Samuel Anetsi. Tarixiy hujjatlar to'plami. – Vagarshapat, 1983 (qadimgi arman tilida).
[2] Абегян.М. История древнеармянской литературы, С. 449.

@tarixchi_kutubxonasiga

Asarning ikkinchi qismi 68-yillik davrni o'z ichiga oladi. Kirakos Gandzaketsi voqealarni Levon (1197) ishxanligidan to 1265-yilgacha yoritadi, bu qismni u voqealarning zamondoshi va guvohi sifatida yozadi.

1236-yildan 1243-yilgacha o'tgan yetti yillik oraliqda butun Armaniston mo'g'ullar tomonidan bo'ysundirildi. Faqat birgina Kilikiya arman davlati o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Kirakos Gandzaketsining asarida xorazmshoh Jaloliddinning Kavkazga tomon yurishlari haqida ham ma'lumotlar bor. Umuman olganda, Kirakos Gandzaketsining asari nafaqat XIII asrdagi Armaniston tarixi, balki o'sha davrdagi xorazmshohlar davlati tarixi va mo'g'ul istilosi tarixi bo'yicha ham muhim manbadir.

Rossiya ilmiy jamoatchiligi Kirakos Gandzaketsining asari bilan XIX asr o'rtalarida tanishdi. «Русское слово» jurnalining 1860-yildagi oltinchi kitobida «Краткий обзор писателя XIII века Киракоса Гандзакеци о монголах» nomli maqola nashr etildi.

Kirakos Gandzaketsining «Tarix»i birinchi marta 1858-yili Moskvada nashr etildi[1].

1961-yili Yerevanda qadimgi armancha matnning ilmiy-tanqidiy nashri K.A. Melik Oganjanyan tarafidan amalga oshirildi[2]. K.A. Melik Oganjanyan o'z nashrida yuqorida eslatilgan nashrlardan tashqari «Armaniston tarixi»ning 47 ta qo'lyozma nusxasidan foydalangan.

Asarning birinchi ruscha tarjimasini 1874-yili K.P. Patkanyan amalga oshirdi[3]. 1976-yili L.A. Xanlaryan asarning yangi ruscha nashrini amalga oshirdi[4]. Bu nashr chuqur ilmiy izohlari tufayli katta ahamiyatga egadir.

Kirakos Gandzaketsining «Armaniston tarixi» 1870-yilda Peterburgda M.I. Brosse tomonidan fransuz tilida nashr etilgan[5].

[1] История Армении, сочиненная вардапетом Киракосом Гандзакеци. Издана Восканом Тер-Григоряном. – М., 1858 (qadimgi arman tilida).

[2] Kirakos Gandzaketsi. Armaniston tarixi / So'zboshi muallifi va ilmiy tanqidiy matnni nashrga tayyorlovchi: K.A. Melik Oganjanyan. – Yerevan, 1961 (qadimgi arman tilida).

[3] История монголов по армянским источникам. Вып. II / Перевод и пояснения К.П. Патканова. Спб., 1874.

[4] Киракос Гандзакеци. История Армении / Перевод с древнеармянского, предисловие и комментарий Л.А. Ханларян. – М., 1976.

[5] Brosset M. Historie d' Arménie, par le vartabied Kirakos de Gandzac. – Deux historiens arménence, 1870.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Vardan Arevelsi (Buyuk Vardan) (XIII) va uning «Umumiy tarix» asari

Vardan Arevelsi yoki zamondoshlari unga bergan atamaga ko'ra, Buyuk Vardan, kelib chiqishi bo'yicha Sharqiy Armanistondan bo'lgan; bu uning nisbasidan – Arevelsi (Sharqiy) – ko'rinadi. U XIII asrning boshida tug'ilgan va Kirakos Gandzakesi kabi, vardapet Vanakandan ta'lim olgan.

Vardan 1239–1240-yillar Quddusni ziyorat qilgan, so'ng Kilikiya arman davlatida bo'lgan, biror muddat (1245-yilgacha) podshoh Getumning turli monastirlarida yashagan, mudarrislik bilan shug'ullangan.

Vardan ko'p asarlar yozgan; ular orasida – ilohiyotga doir, ruhoniy qo'shiqlar, madhlar va kichik asarlar bo'lgan. Vardan Arevelsining eng muhim asari «Umumiy tarix» deb atalgan. Bu asarda u umumiy tarixni «olam yaratilishidan» boshlab yozadi va o'z davrigacha, ya'ni katolikos Konstantin Bardzbersi (1221–1267) vafot etgan 1267-yilgacha yetkazadi. Vardan o'z zamonida ro'y bergan voqealar va ularning eng muhimi bo'lmish mo'g'ul istilosi haqida mufassal yozadi. Uning Huloguxon bilan uchrashuvi va u Vardanni izzat-ikrom bilan qabul qilgani (1264-yil) diqqatga sazovordir.

Buyuk Vardan 1271-yili vafot etgan. U keng ko'lamli bilimga ega olim edi. Uni «yangi ma'rifatchi», «uch karra buyuk» kabi atamalar bilan ulug'lashgan. Uning shogirdlari orasida mashhur olim Ovannes Yerznkatsi, Gladzor dorilfununining asoschisi Nerses Mshesilar bor edi.

«Umumiy tarix»ning talay qismi taqlidiy bo'lib, u Agafangel, Zenob Glak, Movses Xorenatsi, Yegishe, Sebeos, Gevond, Movses Kagankatvatsi, Ioannes Drasxanakertsi kabi avval o'tgan olimlarning tarixiy asarlari asosida yozilgan. XIII asr voqealarini esa Vardan zamondosh va o'z ko'zi bilan ko'rgan guvoh sifatida tavsiflaydi.

Vardan Arevelsining «Umumiy tarix»ida O'rta Osiyo tarixiga taalluqli sahifalar ham ko'p.

Vardan fanning boshqa sohalarida ham ijod qilgan. Xususan, uning geografiyaga oid «Ashharasuys» (Geografiya) asari VII asrdagi xuddi shu nomli geografik asardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. O'z «Geografiya»sida Vardan nafaqat geografiyaga va topografiyaga oid, balki tarix, iqtisodiyot va etnografiyaga oid ma'lumotlarni ham keltiradi.

Vardan Arevelsining «Umumiy tarixi» bilan ilmiy jamoatchilikni birinchi marta akademik M.Brosse tanishtirdi: u 1851-yili asarning parchalarini fransuzchaga tarjima qilib, nashr etdi[1]. 1851-yili M.Emin asarning to'liq matnini nashr etdi[2]. O'n yil keyin N.Emin asarning ruscha tarjimasini nashr etdi[3].

[1] Brosset M. Additations et eclaircissements á l'histoire de Gèorgie. Spb, 1851.

[2] Buyuk Vardanning umumiy tarixi. Mkrtich Emin nashri. – M., 1851 (qadimgi arman tilida).

[3] Всеобщая история Вардана Великого. Перевел Н.Эмин. – М., 1861.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Smbat Sparapet (XIII asr) va uning «Solnoma» asari

Smbat Sparapet yirik davlat arbobi, diplomat, lashkarboshi va tarixchi bo'lib, Kilikiya Armanistonidagi 1226-yili Rubeniylar sulolasi o'rniga kelgan Getumiylar xonadonining vakili edi. Bu yangi suloladan birinchi podshoh Smbat Sparapetning akasi Getum I bo'lgan.

Smbat Sparapet 1208-yili tug'ilgan. Uning ismining ikkinchi qismi mansabni anglatadi, chunki 1226-yili Rubeniylar sulolasining so'nggi vakili Filipp taxtdan tushirilib, o'rniga Getum o'tirganidan keyin ukasi Smbatni sparapetlik lavozimiga o'tkazadi va shu mansabda u ellik yil o'tiradi.

Smbat Sparapet Tars yaqinidagi 1246-yilgi jangda va 1259-yili Ko'niya sultoni bilan bo'lgan jangda o'zining lashkarboshilik iste'dodini namoyish qildi. U boshqa ko'p janglarda ham ishtirok etgan va lashkarboshilik qilgan. 1276-yili Misr sultoni Baybars bilan bo'lgan oxirgi jangda Smbat o'ldirilgan.

Smbat Sparapet siyosiy arbob va diplomat sifatida G'arbiy Yevropa davlatlari bilan ham, mo'g'ul xonlari bilan ham muvaffaqiyatli muzokaralar olib borgan. Xususan, u 1246-yili Qoraqurumga Guyukxon huzuriga borganida, o'zini usta va dono diplomat sifatida ko'rsatdi. Guyukxon bilan bo'lgan muzokaralarda Smbat Sparapet nafaqat Kilikiyaning xavfsizligi masalalari, balki mo'g'ullarga qaram bo'lgan barcha armanilarning ahvoli haqida qayg'urgan. Xon Smbatga katta iltifot bildirgan va unga qizini nikohlab bergan, bu nikohdan Smbatning o'g'li Vasil dunyoga kelgan. Smbat Sparapet bilan Guyukxon o'rtasida tuzilgan bitim podshoh Getum I 1254-yili Mangu qoon huzuriga borganida mustahkamlandi. Elchilar orasida Smbat Sparapet ham bor edi.

Smbat Sparapetning adabiy merosi juda boy. Birinchi galda bu yirik tarixiy asar – «Solnoma»dir. U, shuningdek, Kilikiya Armanistoni qonunlarining muallifi hamdir.

Smbat Sparapet bir necha falsafiy dostonlar ham yozgan. Uning she'rlari Smbatakayl qal'asining devorlariga bitilgan. Smbat tarjimonlik bilan ham shug'ullangan. Uning XIII asr adliya hujjati – «Antioxiya Assizlari»ning eski fransuz tilidan qadimgi arman tiliga tarjimasi katta ilmiy qiziqish uyg'otadi. Bu qonunlar to'plami tarjimasining muhimligini shundan ham ko'rish mumkinki, uning fransuzcha asl nusxasi saqlanmagan.

Smbat Sparapet o'zining tarixiy tavsifini X asr ikkinchi yarmidan boshlaydi va 1272-yilgacha, ya'ni Kilikiya taxtiga Levon II ning o'g'li Getum o'tirishi vaqtigacha yetkazadi. U o'z asarini yozishda qator o'rta asrlar mualliflarining asarlaridan va asosan Matteos Urxayetsining «Xronika»-sidan foydalangan.

Smbat o'z «Solnoma»sida saljuqlarning fathlari, arman-saljuq munosabatlarini yoritadi, armanilarning Buyuk Armanistondan Vizantiyaga va Yaqin Sharq mamlakatlariga ko'chishlari haqida qiziqarli ma'lumotlarni

@tarixchi_kutubxonasiga

keltiradi. U arman-mo'g'ul munosabatlarini mufassal ta'riflaydi. Mangu qoon bilan podshoh Getum o'rtasidagi muzokaralarni, arman qo'shinlari Huloguxon yurishlarida ishtirok etganini yoritadi. Smbat Sparapet asarining oxirida salibchilar qirolligining yemirilishi, ular Kilikiya Armanistonidan haydalgani tavsiflanadi, arman-mo'g'ul munosabatlari yomonlashgani va Huloguiylar davlati parchalangani bayon qilinadi.

Smbat Sparapetning «Solnoma»siga birinchi marta 1848-yili M. Brosse ahamiyat berdi va bu haqda o'zining «Kavkazorti bo'ylab sayohat»ida hikoya qiladi[1]. 1856-yili «Solnoma»ning matni Voskan Gevorkyan tomonidan nashr etildi[2].

«Solnoma»ning parchalarini birinchi marta rus tiliga K.P. Patkanyan tarjima qildi[3]. Nihoyat A.G. Galotyan 1974-yili asarning to'la ruscha tarjimasini nashr etdi[4].

## Getum Patmich (XIII–XIV asrlar) va uning «Mo'g'ullar tarixi» asari

Getum Patmich Kilikiya podshohi Getum I ning ukasi Oshinning o'g'li va Smbat Sparapetning jiyanidir va G'arb adabiyotida Gayton (Haiton) nomi bilan ham ma'lum. U o'zining «Mo'g'ullar tarixi» nomli asarini Rim papasi Kliment V ning buyrug'i bilan rohib Nik Falkon yordamida XIV asr boshida eski fransuz tilida yozgan.

Getum Patmichning asari – o'rta asrlar Sharq tarixi bo'yicha qimmatli manbadir. Sharqshunos S.M. Mimiy Getum Patmichga bag'ishlangan maqolasida uni o'rta asrlarning mashhur sayyohlari Vilgelm Rubruk va Marko Polo bilan tenglashtiradi va uning asarini XIII asrdagi mo'g'ullar tarixidan eng ishonchli manba, deb baholagan[5].

Getum Patmichning o'zi aytishicha, u o'zining «hurmatli amakisi», ya'ni Smbat Sparapetning hujjatlaridan ham foydalangan. Getum Patmichning qalamiga yana bir qimmatli asar – «Xronika» mansub bo'lib, u 1076–1307-yillar oralig'ini o'z ichiga oladi.

---

[1] Brosset M. Rapports sur un voyaqe archioloqiue dans la Giorgie et dans larminie Spb, 1849. P.42.

[2] История, сочиненная Смбатом Спарапетом, братом царя Гетума I. Издал Воскан Геворкян. – Москва. 1856 (qadimgi arman tilida).

[3] История монголов по армянским источникам. Вып.I. Перевод и объяснения К.Патканова. Спб., 1873.

[4] Смбат Спарапет. Летопись. Перевод с древнеармянского, предисловие и примечания А.Г. Галотяна. Ереван, 1974.

[5] Мирный С.М. «La flor des esteires de terres d'Orient» Гайтона как историко-географический источник по истории монголов // Советское востоковедение. 1956, №5. С.73–75.

@tarixchi_kutubxonasiga

1307-yili «Mo'g'ullar tarixi» mazkur Falkon tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. XVI–XVII asrlarda u fransuz, golland, italyan va ingliz tillarida nashr qilingan. 1842-yilga kelibgina Getum Patmichning asari qadimgi arman tilida nashr etilgan[1].

## Stepanos Orbelyan (XIII–XIV asrlar) va uning «Sisakan o'lkasining tarixi» asari

Stepanos Orbelyan XIII asrning 50-yillarida tug'ilgan. U Orbelyan ishxanlar urug'idan kelib chiqqan, ularning vakillari Syunik arman o'lkasining hokimlari bo'lgan.

Stepanos Orbelyanning tarjimayi holi haqidagi ma'lumotlar uning «Sisakan o'lkasining tarixi» asarida keltirilgan. U Orbelyanlar ishxanligining hokimi, «shohlardek buyuk ishxan» Smbatning ukasi Tarsaichning o'g'li bo'lgan. Stepanos Orbelyan bolalik chog'laridan cherkov xizmatiga topshirilgan, maktabda asosan diniy kitoblarni o'qigan va o'spirinlik kezidayoq vardapetlik kursisiga o'tirgan.

1285-yili episkoplar majlisining qaroriga ko'ra Stepanos Orbelyan Kilikiya Armanistoniga Syunik mitropolitligiga yuboriladi. Mitropolitlik lavozimini olganidan so'ng Stepanos Orbelyan o'z vataniga qaytib keladi va uzoq yillar davom etgan kurashdan so'ng Syunikning mitropolitlik kursisiga o'tiradi va qarorgohini Tatev monastirida tayinlaydi.

Armaniston uchun og'ir bo'lgan u paytlarda Stepanos Orbelyan o'z yeparxiyasida tinchlik va osoyishtalikni saqlash uchun ko'p kuch sarflaydi. Stepanos Orbelyan 1305-yili vafot etadi.

«Sisakan o'lkasining tarixi» asarini Stepanos Orbelyan 1297-yili yozib tugatgan. Bu asar – mo'g'ullar istilosi davridagi Armaniston tarixidan muhim manbadir.

Muallif nafaqat o'zining qadrdon o'lkasining, balki Orbelyanlar urug'ining tarixini yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu asarni yozishda qadimgi mualliflarning, jumladan, Movses Xorenatsi va Zenob Glakning asarlari, hozirgi kungacha saqlanib qolmagan arxiv hujjatlari va rasmiy materiallar, monastirlarning devorlaridagi yozuvlar manba bo'lib xizmat qiladi.

Stepanos Orbelyan urug'ining kelib chiqishi haqida mufassal bayon qiladi va bu ham xuddi Mamikonlarning kelib chiqishidek bo'lganligini ko'rsatadi. Orbelyanlarning ajdodi ta'qibdan qutulish uchun o'z oilasi bilan Xitoydan qochgan, kelib Gurjistonda joylashgan va u yerda katta iltifot bilan

[1] Getum Patmich. Mo'g'ullar tarixi. Lotincha matndan qadimgi arman tiliga Mkrtich Avgaryan tarjimasi. – Venetsiya, 1842.

@tarixchi_kutubxonasiga

qabul qilingan. U oila Orbet qal'asiga joylashgani uchun «Orbetliklar» (gurjichasiga Orbeli) deb atalgan. Keyinchalik bu oila Syunikda qaror topgani uchun ularning familiyalari armancha Orbelyan shaklini oladi.

Stepanos Orbelyan o'z asarida monastirlarga – asosan Tatev va Noravank monastirlariga katta ahamiyat beradi. U saljuq turklari va mo'g'ullarning istilolari, ularning Armanistonda qilgan vayronagarchiliklari haqida hikoya qiladi.

Stepanos Orbelyan tarixnavislikka oid yana bir asar – «Xronika»ni yozgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bu asar XII asr muallifi Samuel Anetsi asarining davomi va tahlilidir. Orbelyanning «Xronika»si 1291-yil bilan yakunlanadi. Bu ish hajmi jihatidan aytarlik katta bo'lmasa ham, o'z ichiga olgan ma'lumotlari tufayli, o'zi qamragan davr tarixini to'ldirish va aniqlashtirish bo'yicha muhim asar hisoblanadi.

Stepanos Orbelyan she'riyat bilan ham shug'ullangan. O'zining vatanparvarlik hissiyotlarini u «Yig'i» (1300-yil) nomli dostonida aks ettirgan.

«Sisakan o'lkasining tarixi» bir necha marta nashr etilgan. 1846-yili u Kalkuttada[1], 1858-yili – Moskvada[2], 1859-yili – Parijda[3], 1910-yili Tiflisda[4] nashr etilgan. Tiflisdagi oxirgi nashrdan K.P. Patkanyan va X. Ioannesovlar ruscha nashrlarini amalga oshirganlar[5].

## Tovma Mesopetsi (XIV–XV asrlar) va uning «Temurlang va uning vorislari» asari

XIV–XV asrlardagi arman tarixnavisligida aytgulik asar birgina Tovma Mesopetsining kitobi bo'lib, u Amir Temurning harbiy yurishlari va uning vorislarining mamlakat boshqaruviga bag'ishlangan.

Tovma Mesopetsi 1370-yilga yaqin tug'ilgan. U mansub bo'lgan xonadon XIV asr ikkinchi yarmida Van ko'li bo'yida joylashgan Vaspurakan o'lkasida yashagan. Tovma Mesopetsi monastirda o'qigan va umrining ko'p qismini o'sha yerda o'tkazgan.

---

[1] Ishxan Tarsaichning o'g'li Stepanos Syunetsining «Tarix»i. – Kalkutta, 1846 (qadimgi arman tilida).

[2] История архиепископа Сюнеци... Издал Воскан Тер-Геворкян. – М., 1858 (qadimgi arman tilida).

[3] «Sisakan o'lkasining tarixi», Stepanos Orbelyan, Syunetsi arxiyepiskopi yozgan. Izohlar bilan K.Shaxnazaryan nashr etgan. Parij, 1859 (qadimgi arman tilida).

[4] «Sisakan o'lkasining tarixi», arxiyepiskop Syunetsi Stepanos Orbelyan yozgan. – Tiflis, 1910 (qadimgi arman tilida).

[5] История монголов по армянским источникам. Вып.1 / Перевод и объяснения К.Патканова. Спб., 1873; История князей Орбелян, извлечения из сочинений Стефана Сюнийского, армянского писателя XIII в. Перевел с армянского Х.Иоаннесов. – М., 1883.

@tarixchi_kutubxonasiga

Tovma Mesopetsining tarixiy asari – voqealarning vaqtnomasi bo'lib, u asosan xotira bo'yicha yozilgan, unda goho qaytariqlar ham uchrab turadi. Bu haqda uning o'zi bunday yozadi: «Bu voqea 874 (1425-yili), bundan biroz avval yoki kech, ro'y bergan, – meni ma'zur tut, chunki men keksayib qoldim va yozishni ellik yoshimdan keyin boshladim, shuning uchun tartib bo'yicha bo'lmadi»[1].

Tovma Mesopetsi o'z bayonini Amir Temurning Armanistonga birinchi yurishidan boshlaydi, bu yurish 1387-yil Syunikning olinishi bilan yakunlangan. Keyin u Amir Temurning 1388-yili Qoraqo'yunlilarga qilgan yurishini bayon qiladi. So'ngra Amir Temurning 1394-yili Armanistonga qilgan ikkinchi yurishini tavsiflaydi. U Erzni, Bassan shaharlari, Ararat vodiysi va boshqa yerlarning olingani, qahatchilik bo'lgani haqida yozadi.

Mesopetsi o'zi aytganidek, ba'zi voqealarning yillarini va ishtirokchilarini chalkashtirib yuborgan ko'rinadi. Masalan, u Amir Temur 1400-yili Armanistonga yurish qilib, Sebastiya shahrini g'orat qilgani va so'ng Samarqandga qaytgani haqida aytadi. Aslida Sohibqiron 1401-yili Sivas va Arzinjonga Boyazidning o'g'liga qarshi yuradi. Samarqandga esa 1404-yil iyunida qaytadi. Tovma Mesopetsi, shuningdek, Amir Temurning O'rta Osiyo, Eron va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi fathlari haqida ham bayon qiladi. Asarining oxirida u Amir Temur vafotidan so'ng uning o'g'li Shohrux (1405–1447), Qora Yusuf (1389–1420), uning o'g'illari – Iskandar (1420–1438) va Jahonshoh (1438–1467) zamonlarida ro'y bergan voqealarni ham mufassal bayon qiladi.

O'zi tavsiflagan ko'p voqealarning zamondoshi va guvohi bo'lgan Tovma Mesopetsi o'z asarini yozishda Mesop monastiridagi rohiblar yozgan, lekin mualliflari noma'lum qolgan ba'zi vaqtnomalardan ham foydalangan.

Tovma Mesopetsining «Tarix»i birinchi marta 1860-yili Parijda nashr etilgan[2]. 1957-yili T.Ter-Grigoryan bu asarning ruscha va ozarbayjoncha tarjimalarini Bokuda nashr etdi[3].

## Xachatur Jugayetsi (XVIII asr) va uning «Eron tarixi» asari

Xachatur Jugayetsi Isfahon yaqinidagi Yangi Juga (Yangi Julfa)da tug'ilgan. Lekin uning tug'ilgan va o'lgan-yillari noma'lum. Faqat u Gukas Karpetsi (1780–1799) katolikosligida va arxiyepiskop Akop (1788–1791)

[1] Абегян М. История древнеармянской литературы. С. 458.

[2] Товма Мецопеци. История Ленг-Тимура и его преемников. – Париж, 1860 (qadimgi arman tilida).

[3] Фома Мецопский. История Тимур-ланка и его преемников. – Баку, 1957.

@tarixiy_kutubxonasiga

davrida yashaganligi ma'lum. Xachatur Jugayetsi ma'lumotni Surp Prkich (Avliyo Xaloskor) monastirida olgan. U monastirning vakili qilib yuborilganida Basrada o'lgan.

U o'z asari «Eron tarixi»ni arman va fors manbalari asosida yozgan. Ish ikki qismdan iborat. Birinchi qismida Axomaniylar sulolasining asoschisi Kurushdan boshlab to Karimxon Zandgacha o'tgan fors podshohlarining tarixi keltirilgan. Ikkinchi qismi shoh Karimxon Zandning o'limigacha (1779-yil) davlatni boshqarish tarixiga bag'ishlangan.

«Eron tarixi» birinchi marta 1795-yili Madrasda «Azdarar» gazetasida (№ 15-16) nashr etilgan. Bizning tarjima L.X. Ter-Mkrtchyanning 1985-yili Moskvada nashr etilgan «Армянские источники о Средней Азии VIII–XVIII вв.» kitobida keltirilgan ruscha tarjimasidan bajarildi.

## Kichik vaqtnomalar

Bizgacha yetib kelgan eng qadimgi vaqtnoma VII asrga taalluqlidir[1]. Umuman olganda arman tarixnavisligida vaqtnomalarning aksariyati XIII–XVI asrlarga oiddir. Mualliflari ma'lum yoki noma'lum vaqtnomalarning ko'pi shu davrga tegishli bo'lib, ularda mualliflar yashagan yillardan ancha avvalgi voqealar bilan birga ular guvoh bo'lgan voqealar ham yoritilgan.

Arman tarixnavisligida XIII–XVI asrlarga tegishli vaqtnomalarning ko'pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan belgilangan. O'sha asrlarda Armaniston mayda ishxanliklarga bo'linib ketgan bo'lib, ularning deyarli hammasi yirik davlatlarning tasarrufida milliy zulm ostida yashardilar. Arman tarixchilarining bunga e'tibor bermasliklarining iloji yo'q edi.

Arman vaqtnomalarini birinchi marta G.Aganyan «Arman tarixi arxivi» nomli nashrda to'plashga uringan[2]. 1951–1956-yillar V.A. Akopyan eng boy qo'lyozmalar jamg'armasi Matenadaranda, Moskva va Leningrad kutubxonalarida saqlanadigan barcha vaqtnomalarni to'plab nashr qildi[3]. Bu vaqtnomalarda O'rta Osiyo tarixiga oid parchalar ham mavjud.

[1] Nomsiz vaqtnoma. VII asr. – Venetsiya, 1904 (qadimgi arman tilida).

[2] «Arman tarixi arxivi». – Tiflis, 1912 (qadimgi arman tilida).

[3] Мелкие хроники XIII–XVIII вв. Составил В.А. Акопян. Т. I. Ереван, 1951; Т. II. Ереван, 1956 (qadimgi arman tilida).

@tarixchi_kutubxonasiga

### XV asr arman qo'lyozmalaridagi xotira yozuvlari

Xotira yozuvlari ham muhim hujjatlar bo'lib, ularda XV asrdagi Armaniston va qo'shni o'lkalardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarix va madaniy hayot yoritiladi. Ular tarixiy manbalar bo'lib, o'sha voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan munshiylar, kotiblar va nusxa ko'chiruvchilar tomonidan yozilgan.

Arman akademigi L.S. Xachikyan minglab arman qo'lyozmalarini diqqat bilan qarab chiqib, ulardagi barcha xotira yozuvlarini to'pladi va ularni 1955–1967-yillarda uch jildda nashr ettirdi[1].

**Ashraf Ahmedov**

## MANBALARDAN LAVHALAR

### SOSONIYLAR SULOLASI HUKM SURGAN DAVR TOVMA ARSRUNI. «ARSRUNILAR XONADONI TARIXI»DAN

**2-qism. 1-bob.** Forslarning shohi (Varaxran V[2]) kushonlar bilan jang qilish uchun Cho'ra jarliklari tarafiga yurar edi; shuning uchun Armaniston forslarning bosqinidan xalos bo'lib turdi. Kushonlar esa forslarning shohini o'ldirdilar va uning o'rniga taxtga Yazdigard[3] o'tirdi[4].

**3-bob. Sosoniylar sulolasi davridagi zolim Eron podshohligi ag'darilganligi haqida.**

Sharqda hukmronlik qilgan va katta kuchga ega bo'lgan Vahram Mixrevandak[5] tetaliylar lashkarini jasurlik bilan tor-mor qildi va kuch

---

[1] «XV asr arman qo'lyozmalaridagi xotira yozuvlari. L.S. Xachikyan tuzgan. T. I. (1401–1451). Yerevan, 1955; T. II (1451–1480). Yerevan, 1958; T. III (1481–1500) Yerevan, 1967 (qadimgi arman tilida).

[2] «Kushonlarning buyuk podshohi» Varaxran V (421–439) hukm surgan davrda Eronning sharqiy chegaralarida ahvol birmuncha osoyishta bo'lgan. Manbalarning ta'kidlashiga ko'ra, eftalitlar (arman manbalari ularni ham kushonlar deydi) bilan to'qnashuvlar Varaxran V podshohligining oxiriga to'g'ri keladi (Луконин В. Г. Культура сасанидского Ирана. – М., 1969. С. 151).

[3] Sosoniy shohi Yazdigard II (439–457) davrida armanilarning Eronga qarshi mustaqillik kurashi bo'lgan va u tarixga «Vardan urushlari» nomi bilan kirgan. Bu kurashning sababi – Yazdigardning kuch bilan armanilarni nasroniylikdan yana otashparastlikka qaytarishga urinishlari bo'ldi. Bu urushlarga armanilarning lashkarboshisi Vardan Malikonyan boshchilik qilgani uchun mazkur nom bilan atalgan.

[4] Товма Арцруни. История дома Арцруни. С.79.

[5] Mashhur Eron lashkarboshisi Bahrom Cho'bin arman tarixiy asarlariga Vaxram Mixrevandak (История епископа Себеоса, Ереван, 1939. С. 33-34) nomi bilan kirgan. U avval sosoniy shohi Xurmuzd IVga (579–590), so'ng uning o'g'li Xusrav II ga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Bahrom eftalitlarga qarshi ham muvaffaqiyatli urushlar qilgan, so'ng avval Balxga chekingan, keyin Xorazm yaqinidagi cho'llarga turk xoqonining huzuriga qochgan. U yerda xoqonning qiziga uylangan va o'sha yerda o'ldirilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

bilan Balxni va butun kushonlar zaminini to Vehrud[1] deb ataladigan katta daryogacha hammasini egalladi. U forslar podshohligini qo'lga oldi, Hurmuzdning o'g'li Xusrav[2] esa Vizantiya imperatori Mavrikiyning[3] huzuriga qochdi[4].

## BUYUK VARDAN. «UMUMIY TARIX»DAN

... Shu kunlari Sembat Bagratuni Xusravning butun dushmanlarini uning oyog'i uzra yotqizdi. U esa bunga javoban, mukofot sifatida uni Verkan o'lkasiga hokim qilib tayinlaydi. U yerga kelib, Sembat asirlikka olingan, Turkistondagi Sagaston[5] deb atalgan buyuk sahroga joylashtirilgan armanilarni – tillarini ham, yozuvlarini ham unutgan armanilarni ko'rdi. Ular Sembatni ko'rib sevindilar va darhol tillarini va yozuvlarini o'rganishga kirishdilar[6].

## MOVSES KAGANKATVATSI. «AG'VANK TARIXI»DAN

### Birinchi kitob

**16-bob. Aluank podshohi Vachaganning hayoti va faoliyati. Vachagan Aluankni tiklagani.**

Avliyolar xoklarining to'planishi.

...O'z g'azabining asosi bilan u (xudo) zo'ravon va qonxo'r fors shohiga[7] qarshi eftalitlarni qo'zg'atdi. Ular esa Eronga hujum qilib, eronlilar mamlakatidagi qabila sardorlarini qirib, oddiy qora xalqini va lashkarini ham o'ldirdilar[8].

...Bu bashorat ashaddiy va yovuz dushman – fors shohiga nisbatan ikkinchi marta ham to'g'ri chiqdi. Chunki eftalitlar, bahodir xalq amri bilan

---

[1] Vehrud deb Amudaryo nazarda tutilayotir. Uning asl nomi yuqori oqimida Vaxsh, quyi oqimida O'kuz bo'lgan. Shu nomlarning biridan qadimgi yunoncha Uksus nomi kelib chiqadi. Lekin forslar uni Vehrud deb ataganlar. Armancha nom shundan kelib chiqadi.

[2] Xusrav II Parvez (590–627) – sosoniy shohi. Eronning markaziy qismini egallab, o'zini shahanshoh deb e'lon qilgan Bahrom Cho'binga qarshi kurashda Xusrav Parvez Vizantiyadan yordam so'raydi va evaziga Armanistonning g'arbiy qismini berishni va'da qiladi. Eronning Xusravga sodiq qolgan qo'shinlari va Vizantiyaning ular bilan birlashgan kuchlariga bardosh berolmay, Bahrom yengiladi.

[3] Vizantiya imperatori Mavrikiy 582–602-yillar hukm surgan.

[4] Товма Арцруни. История дома Арцруни. С. 85, 87–88.

[5] Sagaston (yoki Sakaston) – hozirgi Seiston; bu o'lka Turkiston tarkibiga kirganligi haqida faqat shu muallif xabar beradi

[6] Всеобщая история Вардана Великого.

[7] Sosoniy shohi Firuz (yoki Fero'z) (459–484-yillar) nazarda tutiladi.

[8] Movсес Каланкатуаци. История страни Алуанк. – Ереван, 1984. С.40.

@tarixchi_kutubxonasiga

Tangrining qahrini bajo keltirish uchun fors shohiga qarshi yurdilar. Eng avvalo, uning ko'z o'ngida o'g'illari, butun lashkarboshilari va mamlakatdagi noiblari, ular bilan birga ko'p sonli askarlarini o'ldirdilar va so'ngra uning o'zi ham (zolim shoh Feruz nazarda tutilmoqda) o'ldirildi, qilich bilan yanchib tashlandi, uning jasadi boshqa ko'plab jasadlar orasida qolib ketdi[1].

## STEPANOS TARONETSI ASOXIK. «UMUMIY TARIX»DAN

### 3-bob. Fors sosoniy shohlari, ularning otlari va podshohlik muddatlari

... Xurmuzd 12-yil podshohlik qildi[2]. Uning vaqtida Vahram Mehevand ismli bir kishi yashagan – forslarning sharqiy yerlarining hokimi, tetallar lashkarini yenggan, u Balxni va Vexrud deb ataladigan katta daryoning narigi qirg'og'igacha hamda Gasbun deb ataladigan joygacha Kushonlar zaminining hammasini kuch bilan oldi. Vahram Maskutlarning podshohi bilan bo'lgan shu jangda ularning ko'p sonli lashkarini mag'lubiyatga uchratdi, ularning podshohini o'ldirdi va davlat xazinasini oldi; boy o'ljaning kichik bir qismini shoh Xurmuzdga yubordi, qolgan qismini lashkariga ulashib berdi[3].

## IOANNES DRASXANAKERTSI. «ARMANISTON TARIXI»DAN

... Pero'z Armanistonni vayron qilishga tayyorgarchilik ko'rayotgan paytida, Xudo tomonidan yuborilgan avliyo Ovannes o'z duolarida Pero'zning va uning butun lashkarining kushonlardan halok bo'lishini bashorat qildi[4].

...Smbat[5] esa o'sha mamlakatga yetganida u yerda asir tushgan armanilarning oilalarini uchratdi; ularning manzillari Turkistonda, Sagaston deb atalgan katta sahroda edi. Ular tillari va yozuvlarini unutgan edilar[6].

---

[1] O'sha yerda.

[2] Xurmuzd IV (579–590) nazarda tutiladi.

[3] Всеобщая история Степаноса Таронского. С. 81–82.

[4] Иоаннес Драсханакертци. История Армении. Тифлис, 1912. С. 61 (qadimgi arman tilida).

[5] *Smbat Bagratuni* – Sosoniy shohi Xusrav II Parvezning lashkarboshisi.

[6] Ioannes Drasxanakertsi. O'sha asar. 68-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

## XACHATUR JUGAYETSI. «ERON TARIXI»DAN

### Birinchi qism

### 5-bob. Sosoniylar sulolasining Ardashirdan[1] boshlab uchinchi podshohligi va uning qulashi haqida

...Mana endi Pero'z, Yizdigard II ning o'g'li, unga voris bo'ldi. Forslar uni Piruz Yazkort o'g'li derdilar (katolikos Ovannes va boshqa tarixchilar). U avliyo Gevondning[2] kishanlanib qamoqda yotgan muridlarini o'lgunlaricha azobladi. Nihoyat, u armanilar mamlakatini yo'q qilmoqchi bo'lganida, to'satdan (bu payt katolikoslik arshida turgan avliyo Ovannesning duolari bilan) u va uning lashkari Kusti Xurosonda turganida kushonlar[3], ya'ni oriylar tomonidan o'ldirildi. U 22 yil podshohlik qildi[4].

...Uning (Xusrav Anushirvonning[5]) davrida jasur Smbat Bagratuni katta jasorat va qahramonlik ko'rsatib, uning dushmanlariga qarshi kurashdi. Shu munosabat bilan Xusrav Smbatga Vrkan[6], ya'ni Enterapat marzbonligini berdi. Smbat bu mamlakatga kelganida, u asir qilingan va Turkistondagi Sagaston, ya'ni Seiston deb ataladigan sahroga ko'chirilgan armanilarni ko'rdi[7].

## ARAB XALIFALIGI DAVRI GEVOND. «XALIFALAR TARIXI»DAN

**5-bob. Uning o'rniga vorisi o'z o'g'li Valid[8] ismoiliylar[9] hokimi bo'ldi va 10 yil-u 8 oy hukm surib, vafot etdi. Uning tafsiloti mana bunday.**

...O'sha payt lashkarboshi Mahmet[10] tchenlarga[11] qarshi gijgijlatilardi. Shuning uchun u ismoiliylar hokimidan o'ziga katta lashkar berilishini so'radi va Xitoy hokimligini itoatga keltirishni va'da qildi. Ismoiliylar hokimi 200000 kishidan iborat katta lashkar to'pladi va shu 200 ming kishini unga topshirdi. Mahmet ko'pming kishilik askar bilan Damashqdan chiqdi,

[1] Ardashir I Popokon (224–241) – Eron shohlari Sosoniylar (224–651) sulolasining asoschisi.

[2] *Gevond* – arman rohibi, nasroniylikning tashviqotchisi.

[3] Bu yerda eftalitlar nazarda tutiladi.

[4] Xachatur Jugayetsi. Eron tarixi. Vagarshapat, 1905, 46-bet (qadimgi arman tilida).

[5] Xusrav I Anushirvon (531–579) – mashhur No'shiravoni Odil.

[6] *Vrkan Marzbonligi* – Gurgon viloyati, Kaspiyning janubi-sharqida.

[7] Xachatur Jugayetsi. O'sha asar. 48-bet.

[8] Xalifa Valid I (705–715-yillar) nazarda tutiladi. Muallif ismni Vlid shaklida bergan.

[9] Muallif ismoiliylar deb arablarni ularning afsonaviy ajdodlari nomi bilan atagan.

[10] Muallif Mahmet deb arab lashkarboshisi Muhammad ibn Uqbani nazarda tutadi.

[11] *Tchenlar* – chinlar, ya'ni xitoylar.

@tarixdan_kutubxonasiga

Suriya, Eron va Xuroson orqali Xitoy saltanatining hududlariga yetdi. Botis daryosi[1] bo'yida o'rdu qurib, xitoylar podshohiga ushbu yorliqni yubordi: «Nega sening bir o'zing, – deb yozgan edi u, – bizning hukmdorimizga bo'ysunmaysan, uning nomi hammani dahshatga soladi-ku? Axir sen bizga bo'ysunmasdan kimga ishonasan? Sen bizlarni ham, pardoz qilib olib, oralarida chiranib yuradiganing qizlarga o'xshatmayapsanmi?... Endi esa agar sen bizning zulmimizga quldek bo'ysunmasang, bilginki, sening yeringni xarob qilaman va sening hukmdorligingni tugataman. Lekin beparvo bo'lma, javobni kechiktirma va mumkin qadar tezroq nima qilmoqchi ekanligingni bizga bildir». Xitoy podshohi Jenbakur[2] bu xatni o'qib chiqib, o'z soqchilari va arboblarini huzuriga chaqirdi va olingan maktubga qanday javob yozish haqida ular bilan maslahat qildi. Nihoyat, quyidagi javobni yozish haqida kelishildi: «Nahotki, sen qadimdan shu paytgacha olamni boshqarib kelayotgan podshohlardan – olamni bo'ysundirgan Bobil podshohidan, Makedon va Fors podshohlaridan sharafliroqsan? Nega ular bizning podshohligimizni bo'ysundirolmadilar? Bilib qo'yki, sen har qanday itdan ham hayosizroqsan: sen faqat hirsing va shahvatparastliging bilan nafas olasan. Mening qizlarimning go'zalligi haqidagi ovozalar sening o'zingni va sen bilan kelgan lashkaringning hayotini qurbon qilishga olib keldi: go'yo sizlar uchun Damashqda mozor yo'qdek. Bilginki, bizning mamlakatimiz hech kimga bo'ysunmagan, men ham sening taklifingni qabul qilolmayman; biroq sen mendan hadya so'ramoqchi bo'lsang, u holda men senga ularni shohlarning odatiga ko'ra beraman va sen tinchgina o'z yurtingga qaytib ketasan». Mahmet Jenbakurga yana maktub yo'llab bunday yozadi: «Menga 30000 qizni ber, shunda men tinchgina ketaman. Bermasang, senga qarshi urush e'lon qilaman».

Xitoy podshohi uning talabiga ko'ndi va Mahmetning huzuriga elchi yuborib, uning iltimosi bajo keltirilguniga qadar o'z o'rdusida turishini so'radi. Keyin o'z askarlariga shoyi bilan niqoblangan ikki g'ildirakli bekik aravalar yasashni va ularning ichiga Mahmet so'ragan qizlar o'rniga boshidan oyog'igacha qurollangan, saralangan askarlarni o'tqazishni va shu yo'sinda dushmanni aldab, pistirmalarga keltirishni buyurdi. Daryoning bo'yiga kelib, ular Mahmetning lashkari qarshisida o'rdu qurib turdilar; aravalarda 40000 dan ortiq otliq o'rnashdi, Jenbakurning o'zi esa bir necha otliq bilan biror chaqirim narida turdi va lashkarboshi Mahmetga kishi yuborib: «Kel va men mamlakatimning hamma tarafidan to'plagan, sen so'ragan 30000 qizni ol; o'zingning askarlaringdan qizlarning soniga to'g'ri keladigan

[1] Bu yerda Ili yoki Irtish daryosi nazarda tutiladi.

[2] Jenbakur aniq bir Xitoy imperatorining ismi emas. Lekin bu nom ostida arabcha yoki forscha «Fag'furi Chin», ya'ni «Xitoy imperatori» atamasi yotganligi aniq.

@tarixchikutubxonasiga

munosiblarini tanla, daryoning bu tarafiga o't va men qizlarimni, askarlaring orasida janjal chiqmasin deb, qur'a tashlab, kimga qaysi qiz to'g'ri kelsa, o'shanisini berib taqsimlayman». Shu xabar bilan birga u, askarlarning hammasi birdaniga o'tishi uchun kemalar ham yubordi. Tanlangan 30000 eng yaxshi askar daryoning narigi qirg'og'iga o'tdi. Askarlar qarshi sohilga o'tishlari bilanoq Xitoy podshohi o'z askarlariga ismoiliylar askariga hujum qilishni buyurdi va jang boshlangan chog'da to'satdan o'z chodirlarida bekingan askarlar ham chiqib, ularni o'rab oldilar va hammasini qilich bilan qirdilar; bitta odam ham qochib qutulolmadi. Dushman ta'qibidan qochib qutulmasligi va narigi qirg'oqqa o'tolmasligi uchun kemalarning arqonlari ham kesib tashlangan edi. Faqat Mahmetning bir o'zi ozgina askarlari bilan otlariga minib, suvga tashlandilar va otlarining kuchi bilan o'z sohillariga suzib o'tdilar. Shunday qilib, xitoylar podshohi tomonidan sharmanda qilinib, o'z manzillariga qaytib keldilar va Xitoyga yurishga endi boshqa botinmadilar. Ismoiliylarning hukmdori 10 yil-u 8 oy hukm surib, vafot etdi»[1].

## STEPANOS TARONETSI ASOXIK. «UMUMIY TARIX»DAN

### Ikkinchi kitob

**2-bob. Arshakiy podshohlardan keyingi arman hokimlari haqida.**

... Shu payt totchiklarning[2] amirapeti Xalifa ko'p sonli lashkar bilan Sino sahrosidan chiqdi va dengiz orqali janubi-sharqqa Sindga, Porsga, Sagastonga, Srmanga[3] va Hindistonga yo'l oldi; shu mamlakatlarning barchasini zabt etdi, g'orat va asir qildi, faqat Rum podshohligiga tegmadi[4].

## BUYUK VARDAN. «UMUMIY TARIX»DAN[5]

...Xurosonda Mahmud[6] ismli ismoiliy yashardi, u Jayhun[7] daryosidan o'tib, tetallar yeriga keldi, u tarafdan Xurosonga, ya'ni sharqqa[8], ko'p asirlarni olib kelib, ularni alohida joylashtirdi. Ular ko'payib ketganida Mah-

[1] История халифов вардапета Гевонда. Спб., 1862. С. 25–27.

[2] *Totchiklar* – arablar, keyinchalik «totchik» so'zi «tojik» shaklini olib, eroniyzabon tojik xalqining milliy nomi bo'lib qoldi.

[3] *Srman* – Kermon bo'lsa kerak.

[4] Всеобщая история Степаноса Таронского. С. 62-63.

[5] Quyida keltirilayotgan parchada g'aznaviylar, qoraxoniylar va saljuqiylar orasidagi munosabatlarni talqin qilishda haqiqiy tarixiy voqealar bilan uydirmalar qorishtirilgan, ismlar va sanalarda ham chalkashliklar bor.

[6] Sulton Mahmud G'aznaviy (998–1030) nazarda tutiladi.

[7] *Jayhun* – Amudaryo, matnda Jaxan.

[8] Xuroson so'zining asl ma'nosi qadimgi forsiyda «sharq tarafi» demakdir.

@tarixchi kutubxonasiga

mud ular ustidan amirni qo'ydi va o'lganidan so'ng unga tojni vasiyat qildi. Uning omadi keldi: u Eronni bosib oldi va sulton bo'ldi; bu amirning ismi Do'xlabek[1] edi, – tarixchi Vaxram, Tig'ron o'g'li, shunday bayon qiladi. Biroq janob ierey Mxitar Aniy, Hayot kitobida uning nomi saqlanib qolsin, deb bunday hikoya qiladi: «Men o'sha Sulton haqida turklarning o'zidan xabar to'plash uchun ko'p harakat qildim va Tangrining madadi bilan quyidagini topdim: biz eslatgan Mahmud Sabukteginning o'g'li bo'lib, bu esa Ardashir Sosoniyga o'xshab past tabaqadan chiqqan edi[2]. U Muhammad[3] urug'idan, Muhammaddan keyingi o'ttiz uchinchi hokim bo'lgan Mahmud Mustafodan 246-yili hokimiyatni tortib oldi. U kushonlar mamlakatida, Balx shahrida qudratga erishdi; uning dovrug'i juda kuchli tarqaldi va qo'rquvga tushgan xalifaning quloqlariga yetdi va bu darhol unga in'omlar yuborib, uni Alam, Lalab, Amin, Abdulloh va Sulton deb atay boshladi[4]. Mahmud bu unvonlarni qabul qilib, yanada qudrati oshdi. U Hindistonga yurishlar qilib Matan timsollarini sindirdi va u yerda o'g'li Muhammadni[5] qoldirib, o'zi o'ljalar bilan qaytib keldi. Keyin u Gurgonga borib, u yerning hokimidan 40000 dinor pul olib, ularning hisobi bo'yicha 440-yili qurolga to'la bir uyni ham oldi. U yerdan u Rayga[6] bordi, Rayning hokimi Majduddavla Rustam – bundan uch kun avval u Delmisni[7] olgan edi – darhol uning qarshisiga chiqdi... Shunda Israv unga kishan solib, darhol Xurosonga yubordi; o'zi esa uning barcha boyliklarini olib, Ray shahrini qo'lga oldi. Keyin u Tabaristonga, Tarabiga va Sardga bordi, o'g'li Maxsudga[8] esa Ray, Qazvin[9] va Kerxistonni berdi. Israv yana Rayga qaytib keldi va 100000 dinorni olib, Nishopurga yo'l oldi. Mahmud Homiyon va Isfahonni olib, Rayga qaytib kelmagan edi hamki, uning Isfahondagi shixnasi o'ldirilganligini eshitdi. U darhol o'sha tarafga yo'l oldi va to'rt ming kishini qirib, yana Rayga qaytib keldi. Shu yerda unga otasi o'lgani va uning birodari Mahmud sulton bo'lganini xabar qildilar. U Xurosonga ketdi; birodarini tutib, ko'ziga nil tortdi va hokimiyatni, taxtni o'z qo'liga oldi. Maxsudning otasi boshliqlari Xederxon

[1] *Do'xlabek* – To'g'rulbek I Saljuqiy (1038–1063).

[2] *Sabuktegin* – matnda Sebekgan. Aslida Buxoro turklaridan bo'lib, g'ulom sifatida sotib olingan, so'ng Somoniylarning sipohsolori va Xurosondagi noibi bo'lgan, 977-yildan o'z mulkini Somoniylardan mustaqil deb e'lon qilgan.

[3] Muhammad payg'ambar nazarda tutiladi.

[4] Abbosiy xalifa Al-Qodir billah (991–1039) haqiqatan ham sulton Mahmud G'aznaviydan xavfsiragan va unga «Yamin ud-davla va amin ul-milla» unvonini bergan.

[5] *Muhammad* – matnda Mahmed-sulton Mahmud G'aznaviyning katta o'g'li va valiahdi.

[6] *Ray* – matnda Re – hozir Tehronning sharqiy nohiyasi.

[7] Eronning shimolidagi Daylam o'lkasi nazarda tutiladi.

[8] *Aslida Mas'ud* – Sulton Mahmudning ikkinchi o'g'li, akasi Muhammadni taxtdan tushirib, 1031–1041-yillar G'azna sultoni bo'lgan.

[9] Matnda Xazvin.

@tarixchi_kutubxonasiga

Bexerxore[1] deb ataladigan xalqqa yordamga ketayotganida, yo'lda turklarning ko'p chodirlariga duch keldi; u o'sha yo'ldan katta g'alaba bilan orqaga qaytayotganida turk amiri Apaxani asir qildi va Xurosonga olib kelib, kishanlab qo'ydi[2].

...Turklar orasida ajralib turgan Musa Paygu, Saljuq o'g'lining akasi[3] tarafidan besh jiyani bor edi, ularning ismlari bu: Abu-Salis, Dovud, Chag'ribek[4], Ap'udalik va To'g'rilbek; bunisi sultonlik hokimiyatini qo'lga olib, o'n besh yil davrida o'z saltanatini kengaytirdi[5].

## SALJUQ TURKLARI SALTANATI DAVRI «VARDAPET ARISTAKES LASTIVERSI HIKOYASI»DAN

### 9-bob. Basean gavarida va Smbat tog'i yaqinidagi qirg'inlar

...O'sha yili bizning mamlakatimiz ustida osmon g'azabining darvozasi ochildi[6]. Turkistondan katta lashkar keldi, ularning otlari burgutdek chopqir, tuyoqlari toshdek qattiq. Ularning kamonlari tarang, o'qlari o'tkir, kamarlari qattiq tortilgan, etiklaridagi bog'ichlari ham uzilmasdir[7].

## BUYUK VARDAN «UMUMIY TARIX»[8]DAN

Undan (To'g'rilbekdan) keyin taxtga Alp Arslon[9], To'g'rilning akasi tarafidan jiyani, o'tirdi va olamni qip-qizil qon qildi.

Uning sakkiz o'g'li bor edi, ulardan Malikshoh[10] mehribon va tinchlikparvar, birinchi bo'lib taxtga o'tirdi; undan keyin Sulton Mahmud[11]; undan keyin akasi Bo'rkiyoruq[12], bu uni o'ldirib, qirq yil davomida taxtda o'tirdi. Alp Arslonning o'g'li Tutush unga qarshi qo'zg'olon ko'tardi, Bo'rkiyoruq uni juda og'ir ahvolga tushirdi, uning lashkarini mag'lubiyatga

---

[1] Muallif Qoraxoniylar xoni Qodirxon ibn Bug'raxonning ismini buzib yozgan.

[2] Buyuk Vardan. Umumiy tarix. 118–120-betlar.

[3] Ismlar matnda Muse-P'axu, Sarchuk deyilgan.

[4] Matnda Chaxer-bek.

[5] Buyuk Vardan. O'sha asar. 120–121-betlar.

[6] Bu yerda 1060-yillarning oxirida saljuq turklarining Sharqiy Anato'liyaga kelishi bilan bog'liq voqealar haqida so'z ketadi.

[7] Повествование вардапета Аристакэса Ластивертци. – М., 1968. С. 86–87.

[8] Yuqorida aytilganidek, Buyuk Vardanning asarida voqealar bayoni va nomlarda chalkashliklar borligini unutmaslik kerak.

[9] Matnda Alp Aslan. Alp Arslon (1063–1072) – saljuqiy sulton, u To'g'rilbekning akasi Chag'ribek Dovudning o'g'li edi.

[10] Jaloluddavla Malikshoh I (1071–1092) – saljuqiy sulton.

[11] Nasiriddin Mahmud I (1092–1094) – saljuqiy sulton.

[12] Ruknidin Bo'rkiyoruq (1094–1105) – saljuqiy sulton.

@tarixiy_kutubxonasiga

uchratdi va nihoyat, Tutushning o'zini o'ldirdi. Sulton Mahmudning o'g'li Mahmud[1], o'spirin bo'lishiga qaramay, Bo'rkiyoruqni yengdi va o'n ikki yil davomida sulton bo'ldi. Uning vorisi o'g'li Mahmud[2] bo'ldi, Sanjar[3] bunga qarshi chiqdi va yengdi. Hokimiyat Charaxayning qo'liga o'tdi, u Sanjarni og'a etib tayinladi. Undan keyin uning o'g'li Dovuz[4] sulton bo'ldi, uni melxedlar[5] o'ldirdilar. Keyin To'g'ril[6] keldi, undan so'ng Mas'ud[7], keyin buning o'g'li Arslon[8], nihoyat Tangrining madadi bilan taxtni kuch bilan To'g'ril[9] oldi, bu hozir mening zamonimgacha taxtda o'tiribdi[10].

## SMBAT SPARAPET. «SOLNOMA»DAN

... Shu payt Alp Arslon lashkar to'pladi, Samarqandga kirdi va Xom qal'asiga yaqin kelib, uni qamal qildi. Qal'aning egasi jasur va bahodir kishi edi, lekin u gut qabilasidan bo'lib, zolim edi. Sulton uni o'z huzuriga chaqirdi va taslim bo'lishini talab qildi. U uch kun muhlat berilishini so'radi, shundan so'ng sultonning talabiga bo'ysunishga va'da berdi. Shu uch kun davomida u mashshoqlarni va kuychilarni keltirib, xotini va bolalari bilan xursandchilik qildi. Uchinchi kunning oxirida, tun bo'lganida, u farzandlari va xotinini o'z qo'li bilan so'ydi. Ertasi tongda u yengida pichoqni bekitib, sultonning huzuriga bordi. Sultonning yaqiniga kelganida ta'zim qilib, pichog'ini chiqarib unga hamla qildi va uch marta urib, og'ir yarador qildi. Sultonning soqchilari uni darhol o'ldirdilar. Besh kundan so'ng, o'zidan keyin taxtga voris qilib nabirasi Malikshohni qo'yib, sultonning o'zi ham jon taslim qildi.

## STEPANOS ORBELYAN. «SISAKAN O'LKASI TARIXI»DAN

...Arman taqvimi bo'yicha 498 (1049)-yili, Vizantiya imperatori Monomax davrida, gurji podshohi David va arman podshohi shahanshoh Gagik Vanandda turganlarida, agariy-ismoiliylar – nasroniy xalqlar kuchsizligini ko'rib – o'zlarining Xurosondagi, Xorazmdagi, Forsdagi, Kermondagi,

[1] Muallif yanglishayapti, aslida sulton Mahmud I ning o'g'li saljuqiy sulton G'iyosiddin Muhammad I (1105–1118) bo'lgan.

[2] Sulton Muhammad I ning o'g'li saljuqiy sulton Mug'isiddin Mahmud II (1118–1131) faqat Iroq va G'arbiy Eronda hukm surgan.

[3] Sulton Sanjar 1118–1157-yillar hukm surgan.

[4] Sulton G'iyosiddin Dovud (1131–1132) Iroq va G'arbiy Eronda hukm surgan.

[5] Melxedlar – ismoiliylar, hoshimiylar.

[6] Sulton Rukniddin To'g'ril II (1132–1134), matnda Duxril.

[7] Sulton G'iyosiddin Mas'ud (1137–1152), matnda Masxut.

[8] Sulton Mu'iziddin Arslon (1161–1176).

[9] Sulton Rukniddin To'g'ril III (1176–1194).

[10] Buyuk Vardan. Umumiy tarix, 121–122-betlar

@tarixiy_kutubxonasiga

Buxorodagi, Mozandarondagi, Araxdagi, Bag'doddagi, Basradagi, Arrondagi va Ozarbayjondagi odamlariga xabar qilib, forslar, xazarlar Xurosondan, Arabistondan, Turkistondan va Skifiyadan ko'p sonli bo'lib to'planib, ulkan lashkar Karin vodiysida joylashdi. Ular Armaniston, Gurjiston va Vizantiyadagi nasroniylarni yo'q qilmoqchi bo'ldilar, lekin bu niyatlarini amalga oshirolmadilar[1].

## XACHATUR JUGAYETSI. «ERON TARIXI»DAN

### Birinchi qism. 7-bob. Skif turklarining qahrli zulmlari haqida

...Chunki ular (saljuqiylar) Osiyo skiflaridir, ularni turkmanlar ham deydilar, ularning avvalgi yerlari Kaspiy dengizidan sharqdagi Turkiston deb ataladigan yerlardadir[2]. Bu yerdan ular birinchi marta fors podshohi Kambizning[3], Kurushning[4] o'g'lining – ba'zilar buni ikkinchi Navuxodonosor[5] deydilar – podshohligi zamonida chiqqanlar. Kambizning lashkarida uning (Kambizning) dushmanlari bilan urushib, enggan yollangan turklar bor edi, Tangrining amri bilan ularni Falastinga yubordi. Ikkinchi marta ular Arab xalifaligi davrida Aykazyan[6] yil hisobi bo'yicha 260-yili yurish qildilar[7].

---

[1] Stepanos Orbelyan. «Sisakan o'lkasi tarixi». 373-bet.

[2] Arman mualliflari Ananiya Shirakasidan (VII asr) boshlab Ptolemey «Geografiya»sidagi Birinchi Skifiyani, ya'ni Volga daryosidan sharqdagi yerlarni Turklar zamini (forschada Turkiston) yoki to'g'ridan to'g'ri Turkiston deb ataganlar. O'g'uz turklarining bir qismi bo'lgan saljuqiylar ham aslida shu yerlardan kelib chiqqan bo'lsalar ham, avval ular G'arbiy Turk xoqonligi yemirilishi natijasida Shimoliy Kavkazda Don va Volga daryolari oralig'ida tashkil topgan Xazar xoqonligiga xizmat qilganlar. Keyinroq X asr o'rtalarida ular Volgadan sharqqa o'tib, Orol atrofida muqimlashadilar. Ular asta-sekin Sirdaryoning quyi oqimidagi Jand bilan Nurota tog'i oralig'ida o'rnashadilar. So'ng X asr oxirida ular Toshkent yaqinida Sirdaryodan g'arbga o'tadilar va XI asr birinchi yarmida Amudaryodan Xurosonga o'tib, Eron, Janubiy Kavkaz, Iroq va Kichik Osiyoning sharqiy qismini zabt etib, Saljuqiy saltanatiga asos soladilar. Saljuqiylar sulolasidan birinchi sulton To'g'ril I (1038–1063) edi. To'g'ril 1055-yili Bag'dodni oladi, hech qanday siyosiy va harbiy kuchga ega bo'lmagan Abbosiy xalifa Al-Qonta uning sultonligini tan oladi.

[3] Kambiz (mil. avv. 529–522-yillar) – Qadimgi Eronning Axomaniylar sulolasidan ikkinchi shoh.

[4] Kurush (mil. avv. 558–530-yillar. Yevropa adabiyotida Kir) – Axomaniylar sulolasidan birinchi shoh.

[5] Navuxodonosor I nazarda tutiladi – Bobilda mil. avv. 605–562-yillar podshohlik qilgan.

[6] Armanilar o'zlarini qadimda aykazyan yoki askazyan deb ataganlar.

[7] Arman yil hisobi 551-yili boshlangan, demak, bu voqea 811-yilga to'g'ri keladi. O'sha yili bo'lajak Abbosiy xalifa Al-Ma'mun akasi xalifa Al-Aminga qarshi isyon ko'tarib, u bilan urush boshlaydi va Bag'dodga xalifaga qarshi Tohir ibn al-Husayn boshchiligida o'z lashkarini yuboradi. Uning askarlarining asosiy qismi Turkiston turklaridan iborat edi. Xachatur Jugayetsi. «Eron tarixi». 72-bet.

@tarixchi_kutubxonasiga

...Mana shu yerda (Eronda) turk skiflarining saltanati batamom yo'q qilindi, ular kuch bilan Eronni va boshqa o'lkalarni o'z hukmlari ostiga o'tkazganlar; ularda To'g'ril sultondan boshlab 14 hukmdor bo'lgan, ularning hukmdorligi 156 yil davom etgan[1].

[1] Agar To'g'ril I ning sultonligi 1038 yili boshlanganligini e'tiborga olsak, Saljuqiylar saltanati tugatilgan sana 1194-yilga to'g'ri keladi, o'sha yili Xorazmshoh Alouddin Takash (1172–1200) Eron, Iroq va Xurosondagi oxirgi saljuqiy sultoni To'g'ril III ni (1176–1194) asir qilib, o'ldiradi. Lekin Suriya, Kermon va Sharqiy Anato'liyada Saljuqiy saltanat shoxobchalari saqlanadi. (Xachagur Jugayetsi. O'sha asar. 77–78-betlar).

@tarixchi_kutubxonasiga

## ARAB TILIDAGI MANBALAR

### MUHAMMAD IBN JARIR AT-TABARIY VA UNING «TARIX AR-RUSUL VA-L-MULUK» ASARI

Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839–923) Eronning Tabariston viloyatida tug'ilib o'sgan mashhur tarixchi, faqih, tilshunos olim; Bag'dodda yashab, ijod qilib, o'sha yerda vafot etgan. Qur'on va hadislarga oid bilimlarni yaxshi egallagan, shu sohalarga oid asarlar yozgan. Qur'oni karimga mukammal tafsir tuzgan va mazkur asar Somoniy podshoh Abu Solih Mansur ibn Nuh (961–976) topshirig'i asosida qisqartirilib, ba'zi tarixiy ma'lumotlar qo'shib, fors tiliga o'girilgan va u «Tarjimayi Tafsiri Tabariy» deb ataladi.

Olimning tarixga oid yirik asari «Tarix ar-rusul va-l-muluk» («Payg'ambarlar va podshohlar tarixi») nomi bilan ma'lum. Uni qisqacha «Tarixi Tabariy» ham deyishadi. Mazkur asarda insoniyat tarixi Odam Atodan boshlab hikoya qilinadi; so'ngra qadimgi tarix – qadimgi Eron, Rim, Vizantiya va o'rta asrlar tarixi – Arab xalifaligi, xususan, O'rta Osiyoning VIII–IX asrlar tarixi ancha to'la aks etgan.

Somoniy hukmdor Mansur ibn Nuh 352/963–964-yili «Tarixi Tabariy»ni fors tiliga o'girishni buyurgan va uning vaziri Muhammad al-Bal'amiy asarni qisqartirib forschaga o'girgan; bu asar fanda «Tarjimayi Tarixi Tabariy» nomi bilan mashhurdir.

«Tarixi Tabariy»dagi O'rta Osiyo tarixiga oid ma'lumotlar V.I. Belyayev tomonidan arab tilidan rus tiliga o'girildi va A.B. Xolidov, O.G. Bolshakov, D.E. Bertels tomonidan qayta ishlangan holda chop etildi[1]. Quyida «Tarixi Tabariy»dagi O'rta Osiyo tarixiga oid ma'lumotlar mazkur ruscha nashrdan saylanma tarzda o'zbek tiliga o'girildi (tarjimonlar: O. Bo'riyev va G'. Karimov).

**O. Bo'riyev, G'. Karimov**

[1] «История» ат-Табари. Избранные отрывки. Предисловие и перевод с арабского В.И. Беляева. Дополнения к переводу О.Г. Большакова и А.Б. Халидова. – Ташкент: Фан, 1987. С. 442.

@tarixchi_kutubxonasiga

## MUHAMMAD IBN JARIR AT-TABARIY. «TARIX AR-RUSUL VA-L-MULUK»DAN

### Ellik to'rtinchi (673–674) yil

(42) Shu yili Muoviya[1] Ubaydulloh ibn Ziyodni Xurosonga noib qilib tayinladi...

(44) Ubaydulloh [Amu]daryodan o'tib, tuyalarda Buxoro tog'lari tomon yurdi. U (arablardan) birinchi bo'lib [Amu]daryodan lashkarni boshqarib o'tgan kishidir. U Romitanni va Baykand (Poykand)ning yarmini qo'lga kiritdi, ular ikkalasi ham Buxoro (viloyati)ga tegishli. U yerdan buxorolik kamonchilarga ega bo'ldi.

Ali dedi: bizga Al-Hasan ibn Rushayd amakisidan eshitganlarini aytdi; u shunday degan ekan: Ubaydulloh ibn Ziyod Buxoroda turklarga to'qnash keldi. Ularning podshosi bilan birga, uning xotini Kaboj-xotun ham bor edi. Alloh ularni qochishga majbur qilganda, musulmonlar zudlikda hujumga o'tdilar va unga ikkala kovushini kiyishga ham fursat bermadilar: u birini kiydi xolos, ikkinchisi esa qoldi. Musulmonlar uni o'lja qildilar va bu kovush ikki yuz ming dirhamga baholandi...

Ali dedi: bizga Maslama bergan xabarga ko'ra Ubaydulloh ibn Ziyod Basraga olib kelgan buxorolik kamonchilar ikki mingta ekan va ularning hammasi yog'och o'q (vushshob) otishda o'ta mohir edilar...

Ubaydulloh ibn Ziyod Xurosonda ikki yil turdi.

### Ellik beshinchi (674–675) yil

(45) [Shu yili] Muoviya Abdulloh ibn Ammi Basra hokimligidan olib, o'rniga Ubaydulloh ibn Ziyodni tayinladi. Ubaydulloh [o'z o'rniga] Aslama ibn Zur'unni Xurosonga noib qilib qoldirdi; u birorta ham yurish qilgani yo'q.

### Ellik oltinchi (675–676) yil

Shu yili... Said ibn Usmon Xurosonga noib etib tayinlandi... (46) Ali dedi: Maslama dedi: Said ibn Usmon [Xurosonga] kelgach, Samarqand yo'nalishida [Amu]daryodan o'tdi. Sug'diylar unga qarshi qo'shin tortdilar. Jangchilar kun bo'yi yuzma-yuz turdilar, so'ngra jangsiz tarqaldilar... Ertasiga Said ibn Usmon yana jangga otlandi, sug'diylar unga qarshi turdilar. U jangga kirishdi va ularni chekinishga majbur qildi, ularni o'z shaharlarida

[1] *Muoviya ibn Abu Sufyon* – Umaviylar sulolasidan taxtga o'tirgan birinchi xalifa (661–680).

@tarixchi_kutubxonasiga

qamal qildi. Ular sulh taklif qildilar va (47) zodagonlarning farzandlaridan ellikta yigitni ularning ixtiyoriga garovga berdilar. U daryodan o'tib Termizda to'xtadi. U tuzilgan sulhga unchalik ishonmadi va garovdagi yigitlarni Madinaga o'zi bilan birga olib ketdi.

### Oltmish birinchi (680–681) yil

(48) Shu yili Yazid ibn Muoviya Sijiston va Xurosonga Salm ibn Ziyodni hokim etib tayinladi...

(50) Ali ibn Muhammad dedi: Hasan ibn Rashid al-Juzjoniy xuzoa qabilasining bir oqsoqolidan eshitgani bo'yicha (51) [shunday] dedi; u esa [bu xabarni] o'z otasidan u [o'z navbatida] o'z buvasidan eshitgan ekan. [U shunday degan]: Men Salm ibn Ziyod bilan birga Xorazmga yurish qildim va ular u bilan katta pul mablag'i to'lash evaziga sulh tuzishga erishdilar. So'ngra u Samarqandga yurish qildi va uning aholisi ham xuddi shu yo'sinda sulh tuzdilar...

### Oltmish to'rtinchi (683–684) yil

(57) Shu yili Xurosonda Abdulloh ibn Hozim noib edi... 75 (694–695) yili Xurosonni Umayya ibn Abdulloh boshqarardi... 77 (696–697) yili Umayya Buxoroga yurish boshlab Balx daryosi (Amudaryo)dan o'tdi, biroq o'z askarlari bilan qurshovda qolib tinka-madori quridi va zo'rg'a omon qolib Marvga qaytdi...

### Yetmish sakkizinchi (697–598) yil

(79) Shu yili Abdulmalik ibn Marvon[1] Xurosonni boshqarishni Umayya ibn Abdullohdan olib, Hajjoj ibn Yusufga topshirdi... U al-Muhallabni[2] o'ziga o'rinbosar qilib oldi.

### Saksoninchi (699-700) yil

(81) Shu yili Balx daryosi (Amudaryo)dan o'tib Keshni qamal qildim... Ali ibn Muhammad o'z navbatida Al-Mufazzal ibn Muhammad va boshqalar ma'lumotiga tayanib aytadi: Uning ilg'or qismini uch ming askar bilan Abuladham Ziyod ibn Amr az-Zimmoniy boshqarardi; ular jami besh ming

[1] *Abdulmalik ibn Marvon* – Umaviy xalifa (684–705).

[2] *Al-Muhallab ibn Abu Sufro al-Azdi* – taniqli arab lashkarboshisi, Xuroson noibi (697–702), vafoti 702-y.

@tarixchi_kutubxonasiga

kishini tashkil qilardi. Abuladham Bahodirlikda va uddaburonlikda ikki ming [askar] ga teng kelardi.

U dedi: Al-Muhallab Keshni qamal qilganida Xuttal podshosi amakisining o'g'li kelib, uni Xuttalga yurish qilmoqqa undadi; Al-Muhallab o'g'li Yazidni unga qo'shib jo'natdi. [Xuttalning] podshosini As-Sabla atardilar...

U dedi: Yazid ibn al-Muhallab [yetib kelib] As-Sablaning qo'rg'onini o'rab oldi va u tovon to'lash evaziga sulh tuzishga erishdi. U Al-Muhallab o'g'li Habibni Rabinjonga jo'natdi va Buxoro hukmdorining qirq ming kishilik lashkariga yuzma-yuz turdi. Ko'pxudolilardan biri yakka kurashga chorladi va unga qarshi Habibning quli – [xos askari] Jabala maydonga chiqdi; u ko'p xudolikni halok qildi va ularning lashkariga tashlanib yana uch kishini o'ldirdi. So'ngra u qaytdi va lashkar ham qaytdi. Dushman o'z yurtiga chekindi. Dushman qo'shini bir qishloqqa qo'ndi. Habib to'rt ming kishilik qo'shinni boshlab ular bilan yuzlashdi; jang qilib ustun keldi va qishloqqa o't qo'yib otasi yoniga qaytdi.

(82) U dedi: Al-Muhallab ikki yil Kesh [viloyati]da qoldi. Undan: «Sen oldinga yurib Sug'd va undan nariga o'tmaysanmi?» – deb so'radilar. U esa: «Men bu yurishda askarlarim bilan eson-omon Marvga qaytsam, shuning o'zi katta baxt bo'lardi», – deb javob qildi.

### (85) Sakson ikkinchi (701–702) yil

Shu yili Xurosonda Al-Mug'ira ibn al-Muhallab vafot etdi.

Ali ibn Muhammad o'z navbatida Al-Mufazzal ibn Muhammad so'zi bilan dedi: Al-Mug'ira ibn al-Muhallab Marvda uning butun viloyat bo'yicha o'rinbosari edi. U 82 (701)-yilning rajab oyida vafot etdi... Al-Muhallab al-Mug'ira o'lganda daryo ortida Kesh [yonida] uning aholisi bilan jang qilishga shaylanib turardi...

(86) Shu yili Al-Muhallab Kesh aholisi bilan, ular to'lov to'laydigan bo'lgach, sulh tuzdi va Marvga qaytdi... (88) U o'sha yili vafot etdi... (89) Xuddi shu yili Hajjoj ibn Yusuf, Al-Muhallabning o'limidan so'ng Yazid ibn al-Muhallabni Xurosonga hokim etib tayinladi.

### (95) Sakson beshinchi (704) yil

Shu yili Al-Hajjoj ibn Yusuf Yazid ibn al-Muhallabni Xuroson hukmdorligidan olib, o'rniga Yazidning ukasi Al-Mufazzal ibn al-Muhallabni hokim qilib tayinladi.

(99) Shu yili Termizda Muso ibn Abdulloh ibn Hozim as-Sulamiy o'ldirildi... (100) Muso ikki yuz yigirma otliq bilan Marvdan chiqib Amulga keldi...

@tarixchi_kutubxonasiga

Unga sulaym qabilasidan anchagina qo'shildi. U yerdan Zamingа o'tdi... so'ngra [Amu]daryodan o'tib. Buxoro tomon yurdi... va uning hokimidan [siyosiy] boshpana so'radi. Biroq u: «U [Muso] va uning odamlari o'ta jangari, yomon odamlar, men ularga ishonmayman», – deb rad javobi berdi. U qayerga bormasin, shu yo'sinda qarshilikka uchradi.

Ali ibn Muhammad aytadi: u Samarqandga keldi va ... podshoh Tarxun uni siylади va xohlaganicha turishga ruxsat etdi.

Sug'd ahli har yili bir kun dasturxon yozib, unga go'sht, non va bir ko'za may qo'yardilar va bular eng kuchli Sug'd jangchisiga atalgan bo'lardi... Kimki u bilan bellashmoqchi bo'lsa, ana shu dasturxonga kelib, u bilan birga tanovul qilardi... Musoning askarlaridan biri dasturxonga keldi va undagi narsalarni yedi. [Sug'd Bahodiri] unga qarab: «Hoy arab! Men bilan yakkama-yakka jangga chiq!» – dedi. U javob qildi: «Mening maqsadim ham faqat shudir». Ular jang qildilar va Musoning askari uni o'ldirdi. Sug'd podshosi shunday dedi: «Men sizlarga boshpana berdim, yordamlashdim, sizlar esa Sug'd Bahodirini o'ldirdingiz. Agar sizlarga omonlik va'da qilmaganimda, hammangizni qirib tashlagan bo'lardim. Endi esa mening yurtimdan chiqib ketinglar»... Muso Keshga (101) keldi. Kesh hukmdori Tarxunga noma yo'lladi va yordam so'radi. U yordamga yetib keldi. Muso yetti yuz askar bilan unga qarshi chiqib to tungacha jang qildi. Tong otgach, Muso o'z askarlariga xorijiy [qabilasi odati] bo'yicha soch-soqollarini qirib tashlashni buyurdi va ular yana chodirlarining barcha tirgovichlarini qirqib tashladilar; forslar o'zlarini o'limga mahkum etganlarida shu yo'sinda ish tutadilar.

Muso Zur'a ibn Alqamani Tarxunning huzuriga borib biror hiyla o'ylab topishni buyurdi. Tarxun undan ular [arablar]ning nega bunday holatga tushganlarini so'radi. U shunday javob qildi: «Ular o'zlarini o'limga mahkum etmishlar. Ey podshoh, Muso ham o'ladi, seni ham halok qiladilar, bundan ne foyda? ... Mabodo sen ularni qirib tashlaganingda ham, u Xurosonda katta obro'ga ega va uning uchun sendan, albatta, o'ch oladilar. Tarxun e'tiroz bildirib: «Keshni uning ixtiyoriga topshirib bo'lmaydi», – dedi. U dedi: «Unday bo'lsa sen jang qilma, toki u bu yerni tark etsin». U jang qilmadi.

Muso Termizga yetib keldi, uning daryoning bir sohilida qurilgan qo'rg'oni bor edi. Muso Termiz shahrining tashqarisida bir dehqonning uyida to'xtadi, bu dehqon Termizshohga qarshi edi...

Termizning hukmdori ziyofat berdi va [Musoni] mehmonga taklif qildi. Muso yuzta sara askar bilan keldi... Ziyofatdan so'ng Muso ketishdan bosh tortdi, ikki o'rtada urush boshlandi... Muso shaharni egalladi... (Muso ko'p janglarda g'olib chiqib, bu viloyatda o'z mavqeyini mustahkamladi).

(11) Xuroson ahli aytardilar: «Muso ibn Abdullohga o'xshash [jasoratli shaxs]ni ko'rmaganmiz va eshitmaganmiz» U o'z qo'rg'onida o'n besh yil

@tarixchi_kutubxonasiga

hukmdorlik qildi, Movarounnahr Musoning hukmiga o'tdi, hech kim u bilan bellasha olmasdi...

Yazid taxtdan olinib, Xurosonni boshqarish Al-Mufazzal ixtiyoriga o'tdi... (111) U Usmon ibn Mas'udni Muso ibn Abdullohga qarshi kurashga yo'lladi...

U Balxdan yurishga otlandi... [Amu]daryodan o'tib, Termiz yaqinidagi orolda joylashdi; bu [orol] hozir «Usmon oroli» deb ataladi[1]. Chunki Usmon o'n besh ming [askar] bilan o'sha yerda to'xtagandi. U As-Sabla va Tarxunga maktub yo'lladi va ular yetib keldilar. Ular [birgalikda] Muso va uning tarafdorlarini qurshab oldilar... Sug'diylar va turklar qayta hujumga o'tib, Muso bilan qal'a devori o'rtasini egallab turdilar. U jangga kirishdi, biroq otining ayilini qirqdilar va u yiqilib tushdi; o'z odamlaridan birining otiga mingashib (112) ketayotganida, uning oti qoqilib, ikkalasi yiqilib tushdi. [Dushman] askarlari yetib kelib qurshab oldilar va uni halok qildilar... Aytishlaricha, Muso ibn Abdullohni Vosil ibn Taysal al-Anbariy o'ldirgan ekan.

### (113) Sakson oltinchi (705) yil

Shu yili Qutayba ibn Muslim[2] al-Hajjoj nomidan Xurosonni boshqarishga erishdi... U askarlar va qurol-aslahani ko'rikdan o'tkazib, so'ngra Marvda o'rniga harbiy ishlar bo'yicha (114) Iyas ibn Abdulloh ibn Amrni, xiroj bo'yicha Usmon ibn Sa'dni o'rinbosar tayinlab, yurish boshladi. Taliqonga yetib kelganida, unga Balx dehqonlari va yana ba'zi zodagonlar qo'shildilar va u bilan birga ketdilar.

U [Amu]daryodan o'tganida, Sag'oniyon podshosi sovg'a-salomlar va oltin kalit bilan qarshi oldi va o'z yurtiga taklif qildi. Kufton podshosi ham sovg'alar va pul olib keldi va o'z yurtiga taklif qildi... Sog'oniy podshosi o'z saltanatini Qutaybaga [jangsiz] topshirdi.

Qutayba To'horistonga tegishli Oharun va Shumon tomon yurdi. Gushtasbon kelib, to'lov to'lash sharti bilan sulh tuzishga erishdi. Qutayba to'lovni olib Marvga qaytdi; ukasi Solih ibn Muslimni Termizga hokim qilib tayinladi...

### (115) Sakson yettinchi (705–706) yil

Shu yili Qutayba Baykand [Poykand]ga yurish qildi... (116) U Marvdan chiqib Marvarrudga keldi, undan Amulga, so'ngra Zammga yetib [Amu] daryodan o'tdi va Baykandga yo'l oldi. Bu Buxoroning [Amu] daryoga eng

[1] Hozirgi nomi «Payg'ambarorol».

[2] *Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy, Abu Hafs* – 705–715-yillarda Xuroson hukmdori.

@tarixchi_kutubxonasiga

yaqin shaharlaridan biridir, uni «savdogarlar shahri» deyishadi, chol yoqasida joylashgan. U [Qutayba] yetib kelganida, ular sug'diylar va yaqin atrofdagilarni yordamga chaqirdilar.

### (144) To'qson beshinchi (713–714) yil

Shu yili Qutayba ibn Muslim Shoshga yurish qildi... (145)

Ali ibn Mujohid aytadi: Al-Hajjoj Iroqdan askarlar jo'natdi va ular to'qson beshinchi yili Qutaybaning ixtiyoriga yetib keldilar. U yurish boshladi, Shosh yoki Kushmayhanda turganida shavvol [oyi]da Al-Hajjojning o'limi haqida xabar yetib keldi. U bundan qayg'uga botdi va Marvga qaytdi...

### To'qson oltinchi (714–715) yil

Shu yili Qutayba ibn Muslim Qashg'arni zabt etdi va As-Singa yurish qildi... (149) Shu yili Xurosonda Qutayba ibn Muslim o'ldirildi... Sababi, Al-Volid ibn Abdulmalik[1] o'z o'g'li Abdulaziz ibn al-Volidni merosxo'r etib tayinlamoqchi edi... (157) Abu Ubayda aytadi: Abu Malik shunday hikoya qildi: Qutaybani to'qson oltinchi (714–715) yili o'ldirdilar va Muslim avlodlaridan yana o'n bitta erkakni halok etdilar...

(177) Shu yili (102/720–721) musulmonlar sug'diylar va turklar ustiga yurish qildilar va Qasr al-Baxili yonida ular o'rtasida jang bo'ldi... Turklarning xoqoni lashkar to'plab Kursul boshchiligida Sug'dga jo'natdi. Ular Qasr al-Baxili yoniga kelib qo'ndilar [va ushbu qo'rg'onni qamal qildilar]. Usmon (178) ibn Abdulloh Samarqand hokimi edi. Qamaldagilar undan yordam kech keladi, deb o'ylab turklar bilan sulh tuzdilar va ularga qirq ming dirham [pul] to'lov hamda o'n yettita erkakni garovga berdilar.

Usmon ibn Abdulloh al-Musoyyab boshchiligida to'rt ming kishini [yordamga] yubordi... (179) Shahar [devori ortidagi xandaq] suv bilan to'ldirilgan edi va qo'rg'onga kirish qiyinlashgandi... Al-Musoyyab tungi hujumni rejalashtirdi... Tongga yaqin hujumga o'tdilar. Turklar shoshib qoldilar, musulmonlar ularning otlarining ayilini qirqishga kirishdilar, lekin turklar chidam bilan hujumni qaytardilar. Musulmonlar chekindilar ... [Qattiq jang bo'ldi]. So'ngra g'ayridinlar chekindilar... Qo'rg'ondagilarni (180) xalos etib olib ketdilar...

Ertasiga turklar qaytib keldilar, biroq qo'rg'onda biror tirik zotni topa olmadilar...

[1] *Al-Volid ibn Abdulmalik (Al-Volid I)* – Umaviy xalifa (705–715).

@tarixchi_kutubxonasiga

Shu yili Said Xuzayna Balx daryosi (Amudaryo) dan o'tib, Sug'dga yurish qildi. Sug'dlar shartnomani buzib, musulmonlarga qarshi kurashgan turklarga yordam berdilar.

Aytishlaricha, bu yurishning sababi turklarning Sug'dga qaytishi bo'lgan. Odamlar Saidga: «Sen yurish (181) qilmading, shu sababdan turklar hujum qilishdi va Sug'd aholisi [islom] dinidan qaytdilar. Shunda u [Amu]daryodan o'tib Sug'dga yo'l oldi... Said ikki marta [Amu]daryodan o'tdi, biroq Samarqanddan nariga borgani yo'q.

## Bir yuz uchinchi (721–722) yil (184)

Shu yili Umar ibn Xubayra Xurosonga Said ibn Amr al-Xarashiyni voliy etib tayinladi... Shu yili Said ibn Amr al-Xarashiy kelishi bilan sug'dlar o'z yurtlaridan ketdilar va Farg'onaga borib, uning podshosidan musulmonlarga qarshi kurashish uchun yordam so'radilar... (185) Aytishlaricha, Ibn Xubayra ularga [maktub] yo'llab yurtlaridan ketmasliklarini va ular xohlagan kishini hokim qilajagini aytgan ekan. Lekin ular ko'nmaganlar va Xo'jandga borganlar. Isama darasi – bu Isfaraning rustoqlaridan biri; Isfara – bu o'sha kezlarda Farg'ona podshosi Balazaning merosxo'ridir.

## Bir yuz to'rtinchi (722–723) yil

(186) Shu yili Al-Xarashiy bilan Sug'd aholisi o'rtasida jang bo'ldi va u bir nechta dehqonni o'ldirdilar... (187) Sug'dlar [qo'rg'ondan] chiqib jang qildilar, biroq yengilib chekinishga majbur bo'ldilar... Ular sulh taklif qilib, Sug'dga qaytishga ruxsat berishlarini iltimos qildilar. [Arablar] ularning qo'l ostidagi arablar, ayollar va bolalarni ozod qilishlari va xiroj to'lashlari, birortalari ham Xo'jandda qolmasliklari sharti bilan rozi bo'ldilar...

[Sug'diylarning boshlig'i] Karzanj podshohlar va savdogarlarni sharq tomondan olib chiqdi; Xo'jandning mahalliy aholisini esa o'z o'rnida qoldirdi...

[Sug'diylar] bitta [arab] ayolini o'ldirgani haqida Al-Xarashiyga xabar yetib keldi va o'sha ayolni Soit al-Ishtixoniy o'ldirgani aniqlandi... Al-Xarashiy uni (188) halok qildi...

Sug'diylar qo'lida asir olingan musulmonlar bor edi, ulardan bir yuz elliktasini, ba'zi xabarlarga ko'ra, qirqtasini o'ldirdilar. Ularning orasidan bir yigit qochib Al-Xarashiyga xabar qildi... Al-Xarashiy ular [sug'dlar]ni o'ldirmoqqa hukm qildi; savdogarlarni omon qoldirdi, ular to'rt yuz kishi bo'lib katta boylik bilan As-Sindan qaytgandilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sug'diylar qarshilik ko'rsatdilar, biroq qurol-yarog'lari yo'q edi, [shu sababdan] ularni bitta qoldirmay, qirib tashladilar, aytishlaricha, ular uch ming yoki yetti mingta bo'lgan ekanlar.

[Al-Xarashiy arablar tomonida] jang qilishdan bosh tortgan va «Biz urishmaymiz», – degan savdogarlarning molini [tortib olish] uchun Jarir ibn Hamyon va [boshqalarni] yubordi va ular mol-mulklarni hisoblab chiqdilar. U [Al-Xarashiy] sug'dlarning boyliklarini musodara qildi, bolalarini tortib oldi; ulardan bir qismini o'zida qoldirib, qolganini [askarlariga] tarqatdi (189).

[Ali ibn Muhammad] shunday hikoya qiladi: Aytishlaricha, Divashti – bu samarqandlik dehqon bo'lib, uning asli ismi Divashtish bo'lgan, uni arabchada Divashti atadilar. Al-Xarashiy Sulaymon ibn Abu-s-sariyni [Divashtining] qo'rg'oniga jo'natdi. [Bu qo'rg'on uch] tomondan Sug'd daryosi[1] bilan o'ralgan. U bilan Shavkar ibn Xumayk, xorazmshoh va Guram, Oharun va Shumon hokimi ham birga edilar. Sulaymon ibn Abu-s-sariy o'zining ilg'or qismini Al-Musayyab ibn Bishro ar-Riyahiyni boshchiligida jo'natdi. [Qo'rg'ondagilar] ularni qo'rg'ondan bir farsax masofada Qum qishlog'i yaqinida qarshi oldilar. Al-Musoyyab ularni mag'lub qildi va qo'rg'ongacha ta'qib qilib bordi. Sulaymon ularni qamal qildi, qo'rg'on dehqonini Divashti atashardi.

... Divashti taslim bo'lish to'g'risida taklif yo'lladi; Sulaymon [bu taklifga] rozi bo'ldi va uni Said al-Xarashiy huzuriga yubordi. U unga izzat-hurmat ko'rsatdi. U [Divashti] ketgach, qo'rg'on ahli o'zlaridan yuz kishiga va ularning oila a'zolariga daxlsizlik bo'lishi sharti bilan sulh taklif qildilar va qo'rg'onni berishga rozi bo'ldilar... Ular [arablar] qo'rg'ondagilarni kim oshdi savdosiga qo'yib sotdilar va mol-mulklarini o'zaro taqsimlab oldilar.

Al-Xarashiy Kiss [Kesh]ga yetib bordi, ular sulh taklif qildilar va o'n ming bosh to'lov to'lashga rozi bo'ldilar; boshqa ma'lumotga ko'ra, Vik ismli Kiss (Kesh dehqoni agar u [Keshga] kelmasa, qirq kun ichida olti ming bosh to'lov to'lashga rozi ekanligini ma'lum qildi. U Kiss (Kesh)da ishlarini tugatgach, Rabinjonga o'tdi va Divashtini o'ldirib, yog'och ustunga mixlab tashladi hamda (190) rabinjonliklarga agar u (murda) shu joydan yo'q bo'lsa, yuz kishi [qatl] qilinajagini yozib ma'lum qildi.

Divashtining boshini Iroqqa jo'natdi, qo'lini esa To'horistonga Sulaymon ibn Abu-s-Sariyga yubordi.

U (Ali ibn Muhammad) shunday deydi: Xuzor o'ta mustahkam [qo'rg'on] edi. Al-Xarashiy [qo'rg'onga] Al-Masarbalni yubordi; u Xuzor podshohining do'sti edi. Mazkur podshohning ismi Sabkari edi. U (Al-Masarbal) Al-Xarashiy xo'jandliklarga qanday zulm o'tkazganini so'zlab Sabkarini

[1] *Sug'd daryosi* – hozirgi Zarafshon daryosi.

@tarixchi_kutubxonasiga

qo'rqitdi... U (Al-Xarashiy) [xuzorliklarga] omonlik berdi va ular sulh tuzdilar.

Al-Xarashiy Marvga qaytdi, Sabkari ham birga edi... Al-Xarashiy Sabkariyni qatl qilib, mixlab tashlashni buyurdi, vaholanki, uning omonlik berilgan hujjati bor edi...

Shu yili Umar ibn Xubayra Xuroson voliyligi vazifasidan Said ibn Amr al-Xarashiyni chetlatib, u yerga Muslim ibn Saidni tayinladi... Al-Xarashiyning [mansabdan] chetlatilganligining asosiy sababi Divashti voqeasi edi. Aniqrog'i, u Divashtini ozod qilishni buyurgandi, lekin [Al-Xarashiy] uni o'ldirdi.

## Bir yuz beshinchi (723–724) yil

Shu yili Muslim ibn Said turklar [yurti]ga yurish qildi, biroq hech narsa zabt eta olmadi va qaytdi; so'ngra Sug'd shaharlaridan biri bo'lmish Afshinaga yurish qildi va uning podshosi va aholisi bilan sulh shartnomasi tuzdi (196)... va unga ko'ra, ular qal'ani topshirishlari va uch ming bosh [to'lov] to'lashlari lozim edi... (198) Shu yili Xolid ibn Abdulloh Xuroson voliyligidan uni [Muslim ibn Saidni] olib, o'rniga Asad ibn Abdullohni tayinlagani haqida xabar keldi... Mazkur xatni u Buxoroga yetib borganida oldi. Unda yurishni oxiriga yetkazish ham aytilgan edi va u Farg'ona tomon yurish qildi... (199)

U Farg'onaga yetib borganida xoqon unga qarshi yo'lga chiqqani haqida xabar oldi... Vodiy as-Sabuhdan o'tganida xoqonga duch keldi; otliqlar unga qarshi chiqdilar. Abdulloh oriflar va mavlolar qismini o'z o'rnida qoldirdi, turklar hujum qilib ularni tor-mor qildilar va Muslimning ko'plab otlarini qo'lga kiritdilar. Al-Musollab ibn Bishr va Al-Muhallabning Bahodirlaridan bo'lmish Al-Bara' hamda G'urakning birodari o'ldirildi... Ular [chekinib] sakkiz kun yo'l yurdilar. Turklar ularni qurshab oldilar... Ular yo'l yurib daryo bo'yiga yetib bordilar, sohilda farg'onaliklar va shoshliklar turishardi. Muslim ibn Said: «Har bir kishi o'z qilichini yalang'ochlasin», – dedi.

Shu yo'sinda ish tutdilar, [go'yo] butun dunyo qilichga to'lganday edi. Ular daryoning narigi tomoniga o'tdilar. U bir kun [o'sha yerda] qolib, ertalab daryodan o'tdi; uning ortidan xoqonning o'g'illaridan biri [ta'qib qilib] borardi... Ular ochlik va mashaqqatlardan tinkalari qurigan holda Xo'jandga yetib keldilar...

At-Tag'libiy shunday deydi: «Biz turklar bilan jang qildik. Ular musulmonlarni qurshovga oldilar va ular halok bo'lishlariga ko'zlari yetib, qo'rquvdan ranglari oqarib ketgandi». Xavsara ibn Yazid to'rt ming kishi boshchiligida turklarga tashlandi, bir muddat jang qildi, so'ngra qaytdi; Nasr ibn Sayyor o'ttizta otliq bilan shaylanib, to ularni o'rnidan siljitma-

@tarixchi_kutubxonasiga

guncha jang qildi, shunda qolganlar ham yopirilib hujumga o'tdilar va turklar qochdilar...

(201) Shu yili Xolid o'z ukasi Asad ibn Abdullohni Xuroson amiri etib tayinladi...

### Bir yuz sakkizinchi (726–727) yil

Shu yili Asad ibn Abdulloh Xuttalga yurish qildi. Ali ibn Muhammad aytishicha, xoqon Asad tomon yurish qilgan, lekin u Quvodiyonga jo'nab daryodan o'tgan edi va bu yurishda ular orasida jang bo'lmadi... (204) Aytishlaricha, bir yuz sakkizinchi yili Xuttaldan mag'lub bo'lib qaytgan ekan.

### Bir yuz to'qqizinchi (727–728) yil

Shu yili Hishom ibn Abdulmalik Xolid ibn Abdulloh va uning ukasi Asadni Xurosonni [boshqarishdan] chetlatdi. ... (207) Shu yili Hishom ibn Abdulmalik Xuroson noibi etib Ashras ibn Abdulloh as-Sulamiyni tayinladi...

(208) Shu yili Ashras Samarqand va Movarounnahr zimmiylarini[1] islomga da'vat qildi va evaziga ularni jizyadan[2] ozod qilishni va'da qildi. Ular bunga rozi bo'ldilar, biroq islomni qabul qilganlaridan so'ng, yana jizya to'lashga majbur etildilar, natijada unga qarshi urush boshladilar.

(209) Ashras Xurosonda hukmronligi chog'ida shunday degan ekan: «Menga e'tiborli va munosib biror kishini ko'rsatinglar, toki men uni [Amu] daryoning naryog'iga yuboray, ularni islomga da'vat qilsin. Unga banu-dabba mavlosi Abu-s-Sayda Solih ibn Tarifni taklif qildilar. Lekin u: «Men fors tiliga mohir emasman», – deb [e'tiroz bildirdi]. Shunda unga Ar-Rabi' ibn Imron at-Tamimiyni qo'shib yubordilar. Abu-s-Sayda dedi: «Men shu shart bilan boramanki, kimki islomni qabul qilsa, undan jizya olmasinlar: axir Xurosonning xiroji ham shu odamlarga yuklangan-ku. Ashras: «Xo'p», – deb javob qildi...

Abu-s-Sayda Samarqand va uning yaqin atrofidagi aholini islomni qabul qilishga da'vat qildi va ulardan jizya olinmasligini aytdi. Odamlar [islomni qabul qilishga] shoshildilar. Gurek «Ashrasga: «Haqiqatda xiroj yakun topdi», – deb yozdi. Ashras Ibn Abu-l-Amarratga quyidagi mazmunda xat yo'lladi: «Haqiqatda, musulmonlarning qudrati xirojda. Bilishimcha, sug'dlar va ularning toifasidagilar islomni chin dildan emas, balki jizyadan xalos bo'lish uchun qabul qilganlar. Ko'rgil, kimki sunnat qilgan bo'lsa, shariatga amal qilsa, islomga sodiq bo'lsa va Qur'ondan sura o'qiy olsa,

[1] *Zimmiylar* – islom dini hukmron mamlakatlarda maxsus sharoitda yashovchi zardushtiylar, yahudiylar va xristianlar.

[2] *Jizya* – o'rta asrlarda musulmon davlatlarida islomni qabul qilmagan aholidan olinadigan soliq.

@tarixchiKutubxonasiga

o'shani xirojdan ozod qil»... Xani' Ashrasga [shunday] yozdi: «Haqiqatda, odamlar endi islomni qabul qildilar, masjidlar qurdilar». Buxoro dehqonlari Ashrasning huzuriga kelib: «Sen kimdan xiroj olmoqchisan, axir hamma arab bo'ldi-ku?» – deb so'radi. Ashras esa Xani' va moliya xizmatchilariga [ummol]: «[Ilgari] kimdan xiroj olgan bo'lsangiz olishda davom eting», deb yozdi. Ular islomni qabul qilganlarga qaytadan jizya to'lashni yukladilar. Sug'dlar qarshilik ko'rsatib, ulardan yetti ming kishi ketib qoldi va Samarqanddan yetti farsax masofada qo'shin tuzdi...

(210) Ashrasning buyrug'i bilan Sulaymon ibn Abu-s-Sariy va Xani' xiroj yig'ishga kirishdilar. Xani' va uning gumashtalari qattiqqo'llik bilan xiroj yig'ardilar va arab bo'lmaganlarning zodagonlarini mensimadilar. Al-Mujashshir Umayra ibn Sa'dni dehqonlarni jazolashga buyurdi. Ularni yirtiq kiyimlarda, bo'ynilariga sirtmoq solingan holatda sazoyi qildilar; islomni qabul qilgan ozgina aholidan jizya undirdilar. Shunda Sug'd va Buxoro islomdan chiqdilar va turklarni yordamga chaqirdilar...

(211) Dushman[1] hujum qildi, musulmonlar ular bilan jang qildilar. Bu urushda musulmonlardan ko'plab Bahodirlar o'ldirildi. Musulmonlar bir chekinib, yana hujumga o'tdilar, ayovsiz jang qildilar va ko'pxudolilar qochdilar. Ashras qo'shin bilan birga to Baykend (Paykand)gacha bordi... [Paykand ostonasida] qattiq jang qildilar va [musulmonlardan] yetti yuz kishi halok bo'ldi... [Musulmonlar] Sobit boshchiligida yana hujum qildilar, qattiq jang bo'ldi, Sobit va yana ancha [musulmonlar] halok bo'ldi... [Musulmonlar] otliq askarlar bilan hujumga o'tib jang qildilar va ustun keldilar... Ashras Buxoroga yetib kelib, [shaharni] qamal qildi... (212) Bu jangda Gurek turklar tomonga o'tib ketdi... [Arablarga] qarshi Farg'ona, Torband, Afshina, Nasaf va Buxoro aholisi [vakillari] temir tog' misoli turardi... Kechgacha jang bo'ldi... [Arablar] huzuriga Xusrav Yazdijard o'g'li o'ttiz kishi bilan kelib, shunday xitob qildi: «Arablar, o'zingizni bekorga halok qilyapsiz; xoqonni men olib keldim, maqsadim, u jangda podshohlik saltanatimni qaytaradi va men sizlar uchun marhamat so'rashim mumkin». Ular so'kinib javob qildilar va u qaytib ketdi...

## (240) Bir yuz o'n sakkizinchi (736) yil

(241) Shu yili... Iroq hukumatini Xolid ibn Abdulloh boshqardi... Xurosonni esa uning ukasi Asad ibn Abdulloh boshqarardi.

[1] *Dushman* – mahalliy aholi vakillari.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Bir yuz o'n to'qqizinchi (737) yil

Shu yili Asad ibn Abdulloh Xuttalga yurish qildi va Zagarzak qo'rg'onini egalladi...

(242) Shu yili Asad turklar hukmdori, xoqon bilan yuzma-yuz bo'ldi va uni hamda ko'plab jangchilarni halok qildi. Asad va musulmonlar talafotsiz, katta o'lja va asirlar olib qaytdilar.

[Mazkur voqea haqida] Ali ibn Muhammad o'z qariyalarining aytgani bo'yicha shunday hikoya qiladi: ... Xoqon Navokatda turganida unga Asadning Xuttalga bostirib kirgani haqida xabar berdilar va u jangga hozirlik ko'rishga buyurdi. Xoqonning o'tloqlar va tog' qo'riqlari bo'lib, ularga yaqinlashishga hech kimning haddi sig'masdi, ular urush [ehtimoli] uchun qoldirilgan edi. Mazkur o'tloq va tog' qo'rg'onining sathi har biri uch kunlik yo'lni tashkil etardi. Odamlar hozirlik ko'rishga kirishdilar va o'z suruvlarini o'tlashga haydadilar, ovda o'ldirilgan hayvonlar terilarini oshlay boshladilar va ulardan meshlar tayyorladilar, kamon va o'qlar tayyorladilar. Xoqon ot keltirishni va so'yib go'shti osib sur qilingan qo'yni hozirlashni buyurdi. So'ngra u zarur miqdorda tuz olib xaltaga joyladi va uni belbog'iga mahkamlab oldi. U har bir turk xuddi shunday qilmog'ini aytib: «Bu sizning – sizlar Xuttalda to arablarni uchratgungacha yetarli yo'l ozig'ingiz bo'ladi», – dedi...

(247) Asad Balx tomon ketdi va uning [yaqinidagi] yaylovga qo'ndi. Qish [fasli] boshlanishi bilan odamlar uylariga tarqaldilar, u esa shaharga kirdi...

Xoqon Toharistondan o'ttiz ming kishidan iborat qo'shimcha yordam olib, Movarounnahrdan yo'lga chiqdi (248) va Xulmga kelib to'xtadi...

(250) Xoqon Juzjondan o'tib, Shibirg'ongacha yetib bordi... [Ikki o'rtada qattiq jang bo'lib] turklar [yengilib] tartibsiz holatda qochdilar... (253) Xoqon yuqori Toharistonga ketdi... [u yerdan] o'z yurtiga yo'l oldi... Usrushanaga yetib bordi... So'ngra o'z yurtiga qaytib urushga Samarqandni qamal qilmoqqa tayyorgarlik ko'ra boshladi...

Kunlarning birida xoqon Kursul[1] bilan nard o'ynab [tortishib qoldi va] Kursul uning qo'lini sindirib qo'ydi. Shunda xoqon Kursulning qo'lini sindirmoqqa ahd qildi. Bu xabar Kursulga yetib borgach, ... u lashkar yig'di va tunda xoqonga hujum qilib, uni o'ldirdi... Turklar o'zaro urush-talashlar qilib to'zib ketdilar, bir qismi Shoshga bordi; sug'dlar Sug'dga qaytmoqqa hozirlandilar...

[1] *Kursul (Kursul at-Turgashiy)* – turgashlarning boshlig'i, 121/738–739-yili Nasr ibn Sayyor tomonidan qatl qilingan.

@tarixchi_kutubxonasiga

### Bir yuz yigirmanchi (737–738) yil

(259) Shu yili Asad ibn Abdulloh vafot etdi va (262) Nasr ibn Sayyor[1] Xuroson hokimi etib tayinlandi.

### Bir yuz yigirma birinchi (738–739) yil

(266) Shu yili Nasr ibn Sayyor ikki marta Movarounnahrga yurish qildi. So'ngra uchinchi marta yurish qilganida, Kursulni halok qildi.

Alining o'z qariyalari so'zidan hikoya qilishicha, Nasr Balxdan [chiqib] Temir darvoza orqali Movarounnahrga yurish qildi va Marvga qaytib keldi. So'ngra u ikkinchi marta yurish qildi, Varag'sar va Samarqandgacha borib qaytdi. Nihoyat uchinchi yurishida Marvdan chiqib, Shosh tomon yurdi. Biroq Shosh daryosi [Sirdaryo]ga yetganida Kursul o'n besh ming kishilik lashkar bilan uning yo'lini to'sdi...

(267) [Bu yurishda] Buxoro, Samarqand, Kesh va Usrushanadan, jami yigirma ming kishi Nasr bilan birga edi...

(268) Nasr Farg'ona tomon yurdi va u yerda o'ttiz ming kishini asir qildi...

(269) Nasr Shoshga yetib keldi, uni Shosh podshosi Kadar sulh shartnomasiga ko'ra, sovg'alar va qullar bilan kutib oldi... U Shoshda Nizak ibn Solihni hokim qilib qoldirdi, o'zi esa yurishga otlandi va Farg'onaning Qubo (Quva)sida to'xtadi... (270) U Farg'ona hukmdori bilan sulh shartnomasi tuzdi. (271)

### (311) Bir yuz yigirma to'qqizinchi (746–747) yil

Shu yili [Abbosiy] Ibrohim ibn Muhammad Abu Muslimni[2] Xurosonda Abbosiylarni ochiq targ'ib qilishga undadi...

(313) Ramazon oyida Abu Muslim Xurosondan Marvga keldi... (314) Marv aholisidan unga maslakdosh bo'lganlar huzuriga yig'ildilar... (317) Shu yili [Abu Muslimning lashkarboshisi] Hozim ibn Huzayma Marvarrudni egalladi va Nasr ibn Sayyorning [u yerdagi] hokimini halok qildi.

### Bir yuz o'ttiz ikkinchi (749–750) yil

(347) Shu yili Xuroson va Al-Jibol hokimi Abu Muslim edi.

---

[1] *Nasr ibn Sayyor* – taniqli arab lashkarboshisi va Xuroson hokimi (738–748).

[2] *Abu Muslim* (745–748) – Xurosonda Abbosiylar harakatining boshlig'i va harbiy sarkardasi hamda hokimi (755-yilgacha); xalifa Al-Mansur buyrug'i bilan qatl etilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

### Bir yuz o'ttiz uchinchi (750–751) yil

Shu yili Xurosonda Sharik ibn Shayx al-Maxriy Abu Muslimga qarshi bosh ko'tardi... unga o'ttiz ming kishi ergashdi. Abu Muslim unga qarshi Ziyod ibn Solih al-Xuzoiyni yubordi; u jang qilib uni o'ldirdi.

Shu yili Abu Dovud Xolid ibn Ibrohim[1] Vaxshdan Xuttalga yurish qildi; uning podshosi Xanash ibn as-Sabl qarshilik ko'rsatmadi. Xuttal dehqonlaridan ba'zilari uning yoniga kelib, qo'rg'onda panoh izladilar. Ba'zilar esa tog' o'tkillari, daralari va qo'rg'onlarida joylashib o'zlarini himoya qildilar. Abu Dovud Xanashni qattiq qamalga olgach, u tunda qo'rg'onni tark etdi va o'zining dehqonlari hamda yollanma [askar]lari bilan (348) Farg'onaga yetib bordi; so'ngra u yerdan turklar mamlakatiga, undan esa Xitoy podshosi qoshiga ketdi. Abu Dovud ulardan ba'zilarini tutib Balxga jo'natdi, so'ngra Abu Muslim huzuriga yetkazdi.

### Bir yuz o'ttiz to'rtinchi (751–752) yil

Shu yili Abu Dovud Xolid ibn Ibrohim Kashsh (Kesh) aholisi ustiga yurish qildi va uning podshosi Ixridni halok qildi... Abu Dovud bu jangda halok bo'lgan Ixrid va uning jangchilaridan ko'plab o'lja oldi: o'ymakorlik qilib naqshlar solingan, oltin suvi yuritilgan xitoy idishlari, xitoy egarlari va turli xitoy gazlamalari va boshqa turli xitoy mollari. Bularning hammasini Abu Dovud o'sha kezlarda Samarqandda turgan Abu Muslimga yubordi. Abu Dovud Kashsh (Kesh) dehqoni va unga qarashli boshqa dehqonlarni o'ldirdi; Ixridning akasi Taranga omonlik berib, uni Kashsh (Kesh)ga podshoh qilib tayinladi...

Abu Muslim Sug'd va Buxoro aholisi o'rtasida [ba'zi] aybdor deb bilganlarini halok qilib, so'ngra Marvga qaytdi. U Samarqand [shahri] devorini qurishni buyurdi va Ziyod ibn Solihni Sug'd va Buxoroda o'zining o'rinbosari qilib qoldirdi. Abu Dovud Balxga qaytdi.

### (350) Bir yuz o'ttiz oltinchi (753–754) yil

Shu yili Abu Muslim [Haj ziyorati niyatida] Xurosondan Iroqqa [xalifa] Abul Abbos[2] huzuriga yetib keldi... Abul Abbos uni izzat-ikrom ila kutib oldi... (351) Shu yili Abu Muslim Haj ziyoratini ado etib [Iroqqa] qaytdi...

(353) Shu yili [xalifa] Abul Abbos vafot etdi... [Xalifalik taxtini uning ukasi] Abu Ja'far[3] egalladi.

---

[1] *Abu Dovud Xolid* (vaf. 140/757–758) – Abu Muslimning Xurosondagi lashkarboshisi, Tohariston hokimi, keyinroq Xuroson noibi (umrining oxirigacha).

[2] *Abul Abbos* – birinchi Abbosiy xalifa (750–754).

[3] *Abu Ja'far (Al-Mansur Muhammad ibn Abdulloh)* – ikkinchi Abbosiy xalifa (754–775).

@tarixchi_kutubxonasiga

**Bir yuz o'ttiz yettinchi (754–755) yil**

Shu yili [Abu Ja'far farmoni bilan] Abu Muslim qatl etildi... Xuroson hokimi Abu Dovud Xolid ibn Ibrohim edi...

**(362) Bir yuz oltmish birinchi (777–778) yil**

Shu yili Xurosonda Marv qishloqlaridan birida Hakim al-Muqanna qo'zg'oloni yuz berdi. Aytishlaricha, u ruhning ko'chib yurishi haqida so'z qotarkan va bu holatni o'ziga mansub deb bilarkan. U ko'plarni yo'ldan ozdirdi va Movarounnahrga bordi. [Xalifa] Al-Mahdiy[1] unga qarshi jang qilish uchun o'zining bir qancha lashkarboshilarini (363), jumladan, Said al-Xarashiyni jo'natdi.

Al-Muqanna esa Kashsh (Kesh) qo'rg'onlaridan biriga oziq-ovqat jamlab qamalga tayyorgarlik ko'rdi.

**(367) Bir yuz sakson ikkinchi (798–799) yil**

Shu yili [xalifa] Ar-Rashid[2] o'g'li Abdulloh al-Ma'munni[3] Xuroson hokimi etib tayinladi va [g'arbda] Hamadongacha bo'lgan joylarni unga tobe etdi...

**(368) Bir yuz to'qsoninchi (805–806) yil**

Shu yili Samarqandda Rafi' ibn Lays ibn Nasr ibn Sayyor [xalifa] Xorun [ar-Rashid] ga qarshi bosh ko'tardi...

**(369) Bir yuz to'qson birinchi (806–807) yil**

Shu yili Samarqandda Rafi' ibn Laysning mavqeyi kuchaydi. Nasaf aholisi xat yo'llab, unga o'z tobeliklarini bildirdilar va [hokimlari] Iso ibn Alini o'ldirmoqqa yordam yuborishni so'radilar. U Shosh hukmdorini, unga qarashli turklar bilan birga (370) va unga qo'shib o'zining sarkardalaridan birini jo'natdi. Ular yetib kelib, Iso ibn Alini qurshab oldilar va halok qildilar.

[1] *Al-Mahdiy (Muhammad ibn al-Mansur)* – Abbosiy xalifa (775–785).
[2] *Ar-Rashid (Horun)* – Abbosiy xalifa (786–813).
[3] *Al-Ma'mun* – dastlab Xuroson hokimi, so'ngra Abbosiy xalifa (813–833).

@tarixchi_kutubxonasiga

## MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY VA UNING «KITOB AT-TARIX» HAMDA «KITOB SURAT AL-ARZ» ASARLARI

Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy al-Majusiy al-Qatrabbuliydir. Bundagi Abu Abdulloh Muhammad ismi islomga yangi o'tgan musulmonlarga beriladigan an'anaviy nomdir; ismning keyingi qismlari olimning otasining ismi Muso va asli xorazmlik majusiylardan (mug'lardan) bo'lganligidan dalolat beradi. Nihoyat, ismning oxirgi qismi – «al-Qatrabbuliy» nisbasi olim Bag'dodga borganida shaharning Qatrabbul mahallasida yashaganini bildiradi.

Olimning tug'ilgan va vafot etgan yillari hamda hayot yo'li, qanday sharoitda Xorazmni tark etganligi haqida ham fanda aniq ma'lumot yo'q. Ba'zi mulohazalarga ko'ra, xalifa Horun ar-Rashidning o'g'li Abdulloh al-Ma'mun bilan bog'liq. Bu mulohozaga ko'ra, Abdulloh 809-yili Marvga noib bo'lib kelgach, atrof o'lkalardan, jumladan, Xorazm, Farg'ona, Shosh, Forob, hozirgi Afg'oniston hududi va boshqa qo'shni erlardan olimlarni to'plab, o'z saroyida ularning ilmiy ishlariga sharoit yaratib bergan. Al-Ma'mun olimlarga homiyligi bilan boshqa hokimlardan ajralib turgan. Avvalo uning o'zi turli ilmlarga qiziquvchan bo'lgan. Uning saroyida Al-Xorazmiydan tashqari Al-Javhariy, Ahmad al-Marvaziy, Al-Farg'oniy kabi boshqa yirik olimlar ham bo'lgan.

813-yili xalifalik taxtiga o'tirgan Al-Ma'mun (813–833) 819-yili poytaxt Bag'dodga ko'chadi va o'zi bilan birga Marvda to'plangan barcha olimlarni ham olib ketadi. Keyinchalik bu olimlar Sharqda «almaroviza», ya'ni «marvliklar» nomi bilan mashhur bo'lgan[1]. Ular orasida Al-Xorazmiy ham bor edi. Al-Ma'mun ilk Abbosiylar davrida avvalgi poytaxt Damashqdan keltirilgan olimlar – tabib va tarjimonlarni «marvliklar» bilan «Bayt ul-hikma» deb atalgan va keyinchalik «Al-Ma'mun akademiyasi» nomi bilan mashhur bo'lgan ilmiy muassasaga birlashtiradi. Al-Ma'mun akademiyasida ko'plab olimlar, tarjimonlar va xattotlar xizmat qiladi. Ularning aksariyati O'rta Osiyo va Xurosondan kelgan edi.

Al-Xorazmiy «Al-Ma'mun akademiyasi»dagi barcha ilmiy izlanishlarda faol qatnashadi va shu bilan birga u «Bayt ul-hikma»ning kutubxonasiga mudirlik ham qiladi. Bundan tashqari, 830-yil atrofida xalifa Al-Ma'mun Al-Xorazmiy boshchiligida uchta ilmiy ekspeditsiya uyushtiradi: Hindistonga, Vizantiyaga va Xazariyaga.

Al-Xorazmiy fan tarixiga «algebraning otasi» nomi bilan kirdi. Haqiqatan ham, uning qiziqish doirasi ko'proq matematika va astronomiya sohalariga aloqadordir. Lekin u ijtimoiy fanlar, jumladan, tarix va geografiya sohasida ham o'z davrining birinchilaridan bo'lgan va fanning bu sohalarida ham chuqur iz qoldirgan. U tarix sohasida xalifalikning ilk muarrixlaridan bo'lib,

[1] Beruniy. Qonuni Mas'udiy. 281-b; Bulgakov G. K istorii, S.54–56.

@tarixchi_kutubxonasiga

«Kitob at-tarix» nomli asar yozgan, biroq bu asar bizgacha to'liq holda yetib kelmagan va uning ba'zi parchalari o'rta asr mualliflari – Beruniy, Yoqut Hamaviy, Al-Ya'qubiy, Elias Bar Shinaya, Hamza al-Isfahoniy, At-Tabariy, Ahmad ibn Tayfur, Ibn Badrun asarlarida va «Tarix ul-xulafo»da saqlangan. Al-Xorazmiyning 1200-yillik yubileyi munosabati bilan bu parchalarning ruscha tarjimasi 1983-yili nashr etildi[1].

Al-Xorazmiyning geografik asari «Kitob surat al-arz» («Yer surati kitobi») Ptolemeyning «Geografiya» asari ta'sirida yozilgan, lekin unda IX asr boshiga kelib, xalifalikda to'plangan talay geografik ma'lumotlar kiritilgan. Al-Xorazmiy geografik asarining yagona qo'lyozma nusxasi Fransiyada Strasburg universiteti kutubxonasida 4247 raqami bilan saqlanadi. Avstraliyalik sharqshunos G.Mjik asarning arabcha matnini nashr etdi[2] va shu asosda asarning qisqacha o'zbekcha tarjimasi chop etildi[3].

Xorazmiy bu asarini jadval tarzida – zijga o'xshatib tuzgan va uni o'rta asr asarlariga xos bo'lgan kirish so'zini keltirmay, faqat bismillohdan boshlagan. Bu asar tarkibiy jihatdan boblar va alohida bo'limlarga ajratilmagan bo'lsa ham, material joylashtirilishiga ko'ra uni olti bo'limdan iborat deb qarash mumkin.

Birinchi bo'limda yerning odamlar yashaydigan [ma'mur] qismidagi shaharlarning nomlari yetti iqlim bo'ylab, jadvalda, uzunlama va kenglamalari bilan keltiriladi. Shaharlar yunon an'anasiga ko'ra, g'arbdan sharqqa va janubdan shimolga yo'nalishda sanab ko'rsatiladi. Asarning keyingi bo'limlarida ham shu tartibga qat'iy rioya qilinadi. Ikkinchi bo'limda yuqorida aytilgan tartib bilan jadvalda tog'lar va uchinchi bo'limda Yer sharidagi dengizlar tavsiflangan. Kitobning to'rtinchi bo'limi dengizlardagi orollarni tavsiflashga bag'ishlangan. Muallif dengizlarning ham, orollarning ham qirg'oq chiziqlaridagi nuqtalarning koordinatalari bilan ko'rsatadi. Asarning beshinchi bo'limida mamlakatlar, davlat va o'lkalar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shu bo'limda Al-Xorazmiy o'z asarini yozishda xaritadan foydalanganligi aniq seziladi. U xaritada mamlakat nomi yozuvini o'qib, shu yozuv o'rtasining geografik koordinatalarini keltiradi. Bunda u «yozuvning o'rtasi» iborasini ishlatadi. Kitobning oxirgi – oltinchi bo'limida Yerning odamlar yashaydigan qismidagi daryo va buloqlar tavsiflanadi. «Kitob surat al-arz»da jami 2402 ta geografik punktning koordinatlari berilgan.

Quyida Al-Xorazmiyning mazkur ikki asaridan O'rta Osiyoga tegishli qismlari keltirildi (tarjimon A.Ahmedov).

**A.Ahmedov**

[1] *Ал-Хорезми. Книга истории.* С. 234–260.

[2] Das Kitab surat al-ard.

[3] *Al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar.* 223–470-b.

@tarixchi_kutubxonasiga

# MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY. «KITOB AT-TARIX»DAN

## I. Beruniy keltirgan parcha[1]

1) Payg'ambar alayhissalomning hayot paytidagi ahvoli va qilmishlari. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Kitob at-tarix»iga ko'ra, payg'ambar alayhissalom, Makkaga «ashobi fil» kelganidan[2] ellik kun keyin, ya'ni Anushirvon[3] podshohligining qirq ikkinchi yili 17-daymohda[4] yoki Iskandar erasi[5] 882-yilining 20-niysonida (571-y., 20-aprelida) tug'ilgan.

## II. Yoqut ar-Rumiyda[6] saqlangan parcha

1) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy dedi: Rasulullоh sallallohu alayhi va sallam Xaybarni[7] hijratdan olti-yilu uch oy va yigirma bir kun o'tganida (h. 7-yil 21-rabi' us-soniy/628-y. 28-avgust) zabt etdi.

## III. Al-Ya'qubiyda[8] saqlangan parchalar

1) Al-Xorazmiy dedi: Rasulullоh tug'ilgan kuni (571-y., 20-aprel) Quyosh – Savrda, bir darajada, Oy – Asadda, o'n sakkiz darajayu o'n daqiqada, Zuhal – Aqrabda, to'qqiz daraja-yu qirq daqiqada, harakat oxirida, Mushtariy – Aqrabda, ikki daraja-yu o'n daqiqada, harakat oxirida, Mirrix – Saratonda,

---

[1] Beruniy. «Qadimgi xalqlar».

[2] *«Ashobi fil»* («fil bilan kelgan odamlar») – 570-yil atrofida Habashiston podshohi Abraha fillar bilan Makkaga bostirib kelgan va to'qnashuvda yengilgan; o'sha yil «fil yili» deb atalgan. «Ashobi fil» haqida Qur'oni Karimning «Fil» surasida aytiladi.

[3] Xusrav Anushirvon (531–579) – Eronning Sosoniy shohi.

[4] *Daymoh* – qadimgi fors taqvimida o'ninchi oy, fors oylari ekliptika burjlariga mos kelgan, shuning uchun daymoh Jadiy burjiga, grigoriy taqvimi bo'yicha 22-dekabr – 19-yanvarga to'g'ri keladi.

[5] Iskandar erasi miloddan avvalgi 312-yil 1-oktabrida boshlangan; aslida bu «salavkiy erasi»dir.

[6] *Yoqut ar-Rumiy al-Hamaviy* (1119–1229) – suriyalik, Hamo shahridan, tarixchi va geograf, asli kelib chiqishi yunon bo'lgan; mashhur «Mu'jam al-buldon» asarining muallifi. Quyida keltirilayotgan parcha shu asardan olingan (Ifcut's geographisches, s.504).

[7] *Xaybar* – Madinadan 150 km shimolda joylashgan vodiy va qishloq, payg'ambar uni 629-yili zabt etgan.

[8] Ahmad ibn Abu Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vozih al-Kotib al-Abbosiy al-Ya'qubiy (vaf. 908-y.) – tarixchi va geograf, «Tarix» va «Kitob al-buldon» («Mamlakatlar kitobi») asarlarining muallifi. Quyida keltirilayotgan parchalar uning «Tarix» kitobidan olingan (Ibn Wadhih, p. 5, 21, 126, 261).

@tarixchi_kutubxonasiga

ikki daraja-yu o'n daqiqada, Zuhra – Savrda, o'n ikki daraja-yu o'n daqiqada edi[1].

2) Al-Xorazmiy dedi: o'sha kuni Rasulullohga vahiy kelgan kuni, Quyosh – Dalvda, yigirma to'rt daraja-yu o'n besh daqiqada, Oy – Saratonda, o'n yetti darajada, Zuhal – Dalvda, o'n to'qqiz darajada, Mushtariy – o'n ikki darajada, Mirrix – Hutda, o'n besh daraja-yu o'ttiz daqiqada, Zuhra – Hamalda, o'n bir darajada, Utorid – Dalvda, o'n uch daraja-yu o'ttiz daqiqada edi.

3) Al-Xorazmiy dedi: Rasulullоh vafot etgan kuni (632-y., 26-may) Quyosh – Javzoda, olti darajada, Oy – Javzoda, yigirma uch darajada, Zuhal – Qavsda, yigirma to'qqiz darajada, Mirrix – Hutda, o'n bir darajada, Zuhra – Saratonda, o'n sakkiz darajada, Utorid – Javzoda, yigirma sakkiz darajada, Bosh esa[2] – Jadiyda, yigirma besh darajada edi.

## IV. Elias Bar Shinayada[3] saqlangan parchalar

1) 11-yil yunonlarning 943-yili 28-aprelida (632-y., 28-mart) boshlandi[4]. Shunda Muhammad ibn Abdulloh safarning oxirgi kuni, (632-y., 26-mart) dushanba kuni vafot etdi, o'sha kuniyoq hokimiyatga As-Siddiq deb atalgan Abu Bakr Abdulloh ibn Usmon keldi[5]. Unda forslarning podshohi Yazdigard ibn Shahriyor[6] taxtga o'tirdi. Unda Muhammadning qizi Fotima[7] o'ldi, – **Al-Xorazmiy.**

---

[1] Bu yerda keltirilgan payg'ambar tug'ilgan kunning toleyida mos burjlarning daraja va daqiqalari keltirilgan. Shu va quyidagi tole daraja va daqiqalarini ekliptikaning daraja va daqiqalariga aylantirish uchun Savr darajalariga–30°, Javzonikiga–60°, Saratonnikiga–90°, Asadnikiga–120°, Sunbulanikiga–150°, Mezonnikiga–180°, Aqrabnikiga–210°, Qavsnikiga–240°, Jadiynikiga–270°, Dalvnikiga–300°, Hutnikiga–3300 qo'shilishi kerak.

[2] Quyosh tutilishlari ekliptika aylanasi bilan osmon ekvatori aylanasining kesishish nuqtalariga yaqin joylarda yuz berganligi uchun qadimgilar shu paytlarda bu yoritkichni go'yo ajdar yutadi, deb tasavvur qilganlar. Shuning uchun ajdarning boshi va dumini alohida osmon obyektlari deb qaralgan.

[3] *Elias Bar Shinaya* (975–1050) – suriyalik nasroniy olim, Nisibinning mitropoliti, «To'g'rilikning isboti haqida» («Kitob al-burhon ala sahih») asarining muallifi. Bu asar «Xronografiya» nomi bilan ham ma'lum bo'lib, fransuz va nemis tillariga tarjima qilingan. Quyida keltirilayotgan parchalar asarning nemischa tarjimasidan (Baethgen. Fragmente, r. 109–132). Elias va boshqa mualliflarning asarlaridan bajarilgan ruscha tarjimalarda barcha parchalar tartib bilan raqamlangan. Biz bu raqamlarni saqlagan holda parchalardan faqat hozirgi xrestomatiyaga moslarini oldik.

[4] Elias o'z asarida hijriy va Iskandar eralaridan foydalangan. Qavsda ularga mos milodiy sanalarni qo'ydik.

[5] Abu Bakr Abdulloh ibn Usmon – Muhammad payg'ambardan keyingi birinchi xalifa (632–634), payg'ambarning rafiqasi Oyshaning otasi.

[6] *Yazdigard ibn Shahriyor* – Yazdigard III (632–651), Eronning oxirgi Sosoniy shohi. Forslar uning taxtga o'tirgan kuni – 132-yil 16-iyundan yangi era hisoblaganlar.

[7] *Fotima* – payg'ambarning qizi, Ali ibn Abu Tolibning rafiqasi.

@tarixni_kutubxonasiga

6) 16-yil yunonlarning 948-yili 2-shu betda (637-y., 2-fevral) yakshanba kuni boshlandi. Unda Sa'd ibn Vaqqos[1] Qadisiyani[2] zabt etdi va jumod ul-avvalda (637-y., may-iyun) fors Rustamni o'ldirdi[3] va jumod us-soniyda u al-Madoinni[4] zabt etdi. Unda amir Maysara arablarning lashkari bilan rumlarning mamlakatiga kirib bordi, bu arablarning rumlar[5] yeriga kirgan birinchi lashkari edi. Unda Umar ibn al-Xattob[6] Quddusni[7] zabt etdi. Unda Suruj va Urfa[8] zabt etildi. Unda Kufa va Basraga asos solindi, – **Al-Xorazmiy.**

10) 21-yil yunonlarning 953-yili 10-qonun avvalda (641-y., 10-dekabr) dushanba kuni boshlandi. Unda Yazdigard, forslar podshohi, Marvga[9] qochdi. Unda Amr ibn al-As[10] Barqani[11] zabt etdi, – **Al-Xorazmiy.**

11) 22-yil yunonlarning 954-yili 30-tishrin soniyda (642-y., 30-noyabr) shanba kuni boshlandi. Unda Abu Muso al-Ash'ariy Ahvoz mamlakatini zabt etdi.[12] Unda Mug'ira ibn Shu'aba[13] Ozarbayjonni zabt etdi – **Al-Xorazmiy.**

12) 23-yil yunonlarning 955-yili 19-tishrin soniyda (643-y., 19-noyabr) boshlandi. Unda Abu Muso al-Ash'ariy bilan Usmon ibn Abu Os Istaxr shahrini bosib oldilar. Unda Hamadon, Isfahon va Ray shaharlari zabt etildi. Unda Umar ibn al-Xattob o'ldirildi, uni Abu Lulua o'ldirdi. Undan keyin

---

[1] *Sa'd ibn Abu Vaqqos* – payg'ambarning ilk sahobalaridan, mashhur lashkarboshi; Iroqni zabt etgan va Kufa shahriga asos solgan.

[2] *Qadisiya* – Iroqdagi shahar, Bag'doddan janubroqda bo'lgan.

[3] *Rustam* – Sosoniylar Eronining eng so'nggi yirik lashkarboshisi, Qadisiya jangida Sa'd ibn Abu Vaqqos yakkama-yakka jangda o'ldirgan.

[4] Al-Madoin (Ktesifon) – Sosoniylar davrida Eronning poytaxti; bunday atalishiga sabab, Ktesifonning atrofida yettita kent bo'lgan, ular Bag'dod, Maxozo va h.k. deb atalgan. Arablar ularni umumlashtirib, Al-Madoin (shaharlar deb ataganlar. Keyinchalik Abbosiy xalifa Al-Mansur 762-yili ulardan biri – Bag'dodni markaz qilib, qolgan yettita kentni o'z ichiga oluvchi devor bilan o'ragan. Shundan so'ng faqat Bag'dod nomi saqlangan.

[5] *Rumlar* – vizantiyaliklar, umuman olganda, Vizantiya yunonlari (greklar).

[6] *Umar ibn al-Xattob* (634–644) – ikkinchi xalifa, payg'ambarning xotini Hafsaning otasi.

[7] *Quddus* – Ierusalim (Uvrishalim ).

[8] *Suruj va Urfa* – hozirTurkiyaning janubi-sharqidagi shu nomdagi shaharlar.

[9] *Marv* – Sosoniylar davlatining shimoliy qismidagi yirik shahar, eng so'nggi Sosoniy shoh Yazdigard III 651-yili shu yerda o'ldirilgan. Arab xalifaligi davrida Xurosonning poytaxti bo'lgan.

[10] *Amr ibn al-As as-Sahliy* (vaf. 663) – yirik arab lashkarboshisi, Misr va Liviyani zabt etgan.

[11] *Barqa* – Liviyadagi shahar.

[12] *Abu Muso al-Ash'ariy* – arab lashkarboshisi, Xuziston, Fors va Kurdistonni zabt etgan, bu yerda Xuziston shu viloyat poytaxtining nomi bilan Ahvoz atalgan.

[13] *Mug'ira ibn Shu'aba* – arab lashkarboshisi, avvaliga Basraning noibi, so'ng Janubiy Ozarbayjonni zabt etuvchilardan biri.

@tarixchi_kutubxonasiga

hokimiyatga Usmon ibn Affon[1] 28-zulhijjada juma kuni (644-y., 7-noyabr) keldi, – **Al-Xorazmiy.**

14) 30-yil yunonlarning 953-yili 12-obda (652-y., 12-avgust) yakshanba kuni boshlandi. Unda Ahnaf ibn Qays Hiray va Marvarrudni zabt etdi, – **Al-Xorazmiy.**

18) 37-yil yunonlarning 968-yili 19-hazironda (657-y., 19-iyun) dushanba kuni boshlandi. Unda Ali ibn Abu Tolib[2] bilan Muoviya ibn Abu Sufyon[3] o'rtasida Furot bo'yidagi Saffinda jang yuz berdi. Ikki tarafdan ham ko'p odam o'ldirildi. Ali Kufaga va Muoviya Falastinga qaytib keldi, – **Al-Xorazmiy.**

19) 40-yil yunonlarning 971-yili 17-iyorida (660-y., 17-may) yakshanba kuni boshlandi. Unda Ali ibn Abu Tolib o'ldirildi[4], uni Abdurahmon ibn Muljam o'ldirdi. Undan keyin hokimiyatga uning o'g'li Al-Hasan 19-ramazon (661-y., 26-yanvar) seshanba kuni o'tirdi[5], – **Al-Xorazmiy.**

23) 45-yil yunonlarning 975-yili 24-ozarda (665-yil 24-martda) dushanba kuni boshlandi. Unda Abdurahmon ibn Somira Kobulni zabt etdi, – **al-Xorazmiy.**

36) 58-yil yunonlarning 989-yili 3-tishrin soniyda (677-y., 3-noyabr) seshanba kuni boshlandi. Unda Oysha Abubakrning qizi Muhammadning xotini vafot etdi, – **Al-Xorazmiy.**

44) 76-yil yunonlarning 1006-yili 24-nisonida (695-y., 24-aprel) chorshanba kuni boshlandi. Unda Abdulmalik ibn Marvon dirhamlar va dinorlar arabcha nomlar bilan zarb etilsin, deb farmon berdi[6], – **Al-Xorazmiy.**

52) 91-yil yunonlarning 1021-yili 9-tishrin soniyda (709-y., 9-noyabr) shanba kuni boshlandi. Unda Qutayba ibn Muslim[7] Tohariston, Buxoro va Samarqandni zabt etdi, – **Al-Xorazmiy.**

---

[1] *Usmon ibn Affon* (644–656) – xulafoi roshidinning uchinchisi, uning davrida «Qur'on» matni «mushaf» qilinib, qonunlashtirilgan va boshqa nusxalari yo'q qilingan.

[2] *Ali ibn Abu Tolib* (656–661) – xulafoi roshidinning to'rtinchisi va oxirgisi, payg'ambarning amakivachchasi va kuyovi.

[3] *Muoviya ibn Abu Sufyon* (661–680) – avvaliga Suriya voliysi, so'ng Umaviylar sulolasidan birinchi xalifa.

[4] Ali ibn Abu Tolib o'ldirilganidan so'ng musulmonlar ikki mazhabga ajraladilar: sunniylarga, ya'ni payg'ambar sunnasining (tartibi, yo'l-yo'rig'i) tarafdorlariga va shialarga («shia Ali» – Ali guruhi, partiyasi) tarafdorlariga bo'lindilar. Odatda, «klassik islom», «ortodoksal islom» deganda payg'ambar sunnasi nazarda tutiladi.

[5] Eliasning bu xabari shuning bilan diqqatga sazovorki, Al-Hasan ibn Alining xalifaligi tarixda tan olinmagan.

[6] 695-yilgacha arablar o'z pullariga ega bo'lmaganlar, ular Vizantiya va Eronning oltin va kumush dinor va dirhamlarini orqa taraflariga «zarb» berib, ulardan foydalanaverganlar. Xalifalik o'zining moliyaviy mustaqilligini faqat mazkur yili o'rnatgan.

[7] Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (660-715) – Movarounnahrni zabt etgan, Farg'ona vodiysida o'ldirilgan, qabri Andijon viloyatining Jalolquduq tumanida.

@tarixchi_kutubxonasiga

55) 94-yil yunonlarning 1024-yili 7-tishrin avvalida (712-y., 7-oktabr) juma kuni boshlandi. Unda Abbos ibn Valid rumlar mamlakatiga kirdi va ichki Antakiyani zabt etdi. Unda qirq kun davomida zilzila bo'ldi va Antakiyani vayron qildi. Unda Muhammad ibn Qosim Hindiston mamlakatini zabt etdi, – **Al-Xorazmiy.**

60) 99-yil yunonlarning 1028-yili 14-obida (717-y., 14-avgust) shanba kuni boshlandi. Unda Sulaymon ibn Abdulmalik[1] o'ldi. Undan keyin hokimiyatga Umar ibn Abdulaziz[2] 8-safar (717-y., 21-sentabr) seshanba kuni keldi. Unda Nisibin[3] yerida va Jazirada[4] 15-jumod us-soniy kuni (718-y., 23-yanvar) zilzila bo'ldi. Zilzila olti oy davom etdi, – **Al-Xorazmiy.**

70) 109-yil yunonlarning 1038-yili 27-nisonda (727-y., 27-aprel) yakshanba kuni boshlandi. Unda Maslama ibn Abdulmalik[5] Ozarbayjon va Armanistonga kirdi. U, shuningdek, turklar mamlakatiga[6] ham kirdi, ular bilan urishdi va ularni yengdi... – **Al-Xorazmiy.**

71) 111-yil yunonlarning 1040-yili 5-nisonida (729-y., 5-aprel) seshanba kuni boshlandi, uning (Abbosiylar sulolasining) boshlig'i Sulaymon ibn Kasir edi,[7] – **Al-Xorazmiy.**

73) 112-yil yunonlarning 1041-yili 26-adarda (730-y., 26-mart) yakshanba kuni boshlandi. Unda turklar Jarroh ibn Abdullohni o'ldirdilar, arablarni ta'qib qildilar va ularni Marji Irbilda[8] taladilar. Shunda Said ibn Amr turklar bilan jang qilib, ularni yengdi va ular arablardan o'lja qilgan barcha narsalarni qaytarib oldi, – **Al-Xorazmiy.**

74) 113-yil yunonlarning 1042-yili 15-adarda (731-y., 15-mart) payshanba kuni boshlandi. Unda Maslama ibn Abdulmalik turklar podshohi Xoqon bilan jang qildi va Xoqonni o'ldirdi. Unda Marvon ibn Muhammad[9] Armaniston va Ozarbayjonning amiri etib tayinlandi, – **Al-Xorazmiy.**

---

[1] *Sulaymon ibn Abdulmalik* (715–717) – Umaviylar sulolasidan yettinchi xalifa.

[2] *Umar ibn Abdulaziz* (717–720) – Umaviylar sulolasidan sakkizinchi xalifa.

[3] *Nisibin* – Suriyaning shimolidagi qadimgi shahar, hozir Turkiyaning janubi-sharqidagi Nusaybin shaharchasi.

[4] *Jazira* – Iroqning Bag'doddan shimol tarafdagi ikki daryo (Furot va Dajla) oralig'i qismi. Yunonlar uni Mesopotamiya deganlar.

[5] *Maslama ibn Abdulmalik* – mashhur arab lashkarboshisi, Xazariyaga qilgan yurishlari bilan ma'lum. 728-yili u Xazar xoqonini ta'qib qilib, Kama daryosining Volgaga quyilish joyigacha boradi, hoqon va unga yaqinlarni vaqtincha bo'lsa ham islomga o'tkazadi.

[6] Turklar deb bu yerda hazar turklarini atalayapti; turklar mamlakati (arabchada – «arzi turk»); Jarroh ibn Abdulloh – xalifaning Jaziradagi noibi va lashkarboshisi, Xazariyaga bir necha marta yurish qilgan. Vizantiya manbalarida Garax nomi bilan ma'lum bo'lgan.

[7] Albatta, Abbosiylar sulolasi Sulaymon ibn Kasirdan boshlangan emas, lekin u mazkur yili Abbosiylar foydasiga targ'ibot va tashviqotni boshlagani aniq.

[8] *Marj Irbil* – Iroqning shimolidagi hozirgi Erbil shahri.

[9] *Marvon ibn Muhammad* – 731-yildan 744-yilgacha Armaniston va Ozarbayjonning amiri, so'ng (744–750) Umaviy xalifa va ularning oxirgisi.

@tarixchi_kutubxonasiga

76) 115-yil yunonlarning 1044-yili 21-shubotida (733-y., 21-fevral) shanba kuni boshlandi. Unda Xurosonga Bukayr ibn Mohon keldi va aholini abbosiylarga bo'ysundirmoqchi bo'ldi. Abu Avn va Akkiy uning tarafdorlari bo'ldi[1], – **Al-Xorazmiy.**

80) 119-yil yunonlarning 1048-yili 8-qonun soniysida (737-y., 8-yanvar) seshanba kuni boshlandi. Unda Muoviya ibn Hishom o'ldi[2]. Unda Marvon turklar zaminiga kirdi va ularni yengdi, – **Al-Xorazmiy.**

89) 129-yil yunonlarning 1058-yili 22-elulida (746-y., 22-sentabr) payshanba kuni boshlandi. Unda Abu Muslim Marv hududlariga keldi va odamlarni ochiqdan ochiq abbosiylar hukmi ostiga chaqira boshladi, – **Al-Xorazmiy.**

90) 130-yil yunonlarning 1053-yili 11-elulida (747-y., 11-sentabr) dushanba kuni boshlandi. Unda Abu Muslim Marvga keldi. Unda Abu Muslim al-Karmaniyning o'g'illari Abu Dovud va Usmonni o'ldirdi, – **Al-Xorazmiy.**

92) 132-yil yunonlarning 1060-yili 20-obida (749-y., 20-avgust) chorshanba kuni boshlandi. Unda Muhammad ibn Xolid Kufa shahrini abbosiylarning xos mulkiga oldi. Unda Abul Abbos o'z aka-ukalari va xonadon a'zolari bilan Kufa shahriga ko'chdi. Unda Abul Abbos taxtga as-Saffoh[3] nomi bilan 5-rabiulavvalda juma kuni (749-y., 22-oktabr) keldi, – **Al-Xorazmiy.**

94) 134-yil yunonlarning 1062-yili 30 tammuzida (751-y., 30-iyul) juma kuni boshlandi. Unda Abul Abbos Kufadan chiqib, Anborga[4] bordi va yakshanba kuni 15-zulhijjada (752-y., 3-iyul) uning qurilishini boshladi. U Kufadan Makkaga boradigan yo'lda millar ko'rsatilgan toshlar qo'ydirdi, – **Al-Xorazmiy.**

96) 137-yil yunonlarning 1065-yili 27-hazironida (754-y., 27-iyun) payshanba kuni boshlandi. Unda Abdulloh ibn Ali Harronni[5] qamal qildi va oldi. Unda Abu Ja'far[6] Abu Muslimni o'ldirdi. Shunda Abu Muslim uchun qasos olish maqsadida nishopurlik Sinbad[7] qo'zg'aldi. U ellik ming kishini

---

[1] *Bukayr ibn Maxon, Abu Avn va Akkiy* – abbosiylarning Xurosondagi tashviqotchilari, ularning faoliyati Movarounnahrning janubiga ham o'tgan.

[2] *Muoviya ibn Hishom* – Umaviy xalifalarning o'ninchisi Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvonning (724–743) o'g'li.

[3] *Abul Abbos as-Saffoh* (749–754) – birinchi Abbosiy xalifa.

[4] *Anbor* – Bag'doddan g'arbroqda Furot bo'yidagi shahar, As-Saffoh u yerda Al-Hoshimiya qasrini qurdirgan va u abbosiylarning ilk qarorgohi bo'lgan. Bu yerda shu qasr qurilishi haqida so'z ketayotir.

[5] *Harron* – o'rta asrlarda Iroqning shimolidagi shahar, hozirgi Turkiyaning janubi-sharqida Suriya chegarasiga yaqin joylashgan. Mazkur yilga kelib Abu Muslimning abbosiylarga hojati qolmagan bo'lib, endi ular unga qarshi kurashayotgan edi. Harronda Abu Muslimning qarorgohi joylashgan edi.

[6] Abbosiy xalifa Abu Ja'far al-Mansur (754–775) nazarda tutiladi.

[7] *Nishopurlik Sinbad* (755-yili o'ldirilgan) – Sumbat Mug' nomi bilan ham ma'lum, zardushtiy, Eronda arablarga qarshi kurashning boshliqlaridan.

@tarixchi_kutubxonasiga

to'pladi va Jahvar ibn Murdar u bilan jang qildi va uni o'ldirdi. Unda haruriy[1] Mulabbad ibn Xarmala[2] qo'zg'olon ko'tardi, – **Al-Xorazmiy.**

97) 138-yil yunonlarning 1066-yili 16-hazironida (755-y., 16-iyun) dushanba kuni boshlandi. Unda haruriy Mulabbad ibn Xarmala o'ldirildi, uni Hozim ibn Xuzayma[3] o'ldirdi. Unda Fazl ibn Salloh rumlar mamlakatiga, Abbos ibn Muhammad esa Xurosonga kirdi, – **Al-Xorazmiy.**

100) 142-yil yunonlarning 1070-yili 4-iyarida (759-y., 4-may) juma kuni boshlandi. Unda Tabariston aholisi qo'zg'olon ko'tardi, Raux ibn Xotam va Hozim ibn Xuzayma uni bostirishga bordilar[4], – **Al-Xorazmiy.**

101) 143-yil yunonlarning 1071-yili 22-nisonida (760-y., 22-aprel) boshlandi. Unda Al-Mahdiy[5] Xurosondan keldi, uning otasi podshoh Abu Ja'far uni qarshilashga chiqdi, – **Al-Xorazmiy.**

102) 144-yil yunonlarning 1072-yil 11-nisonida (761-y., 11-aprel) shanba kuni boshlandi. Unda al-Mahdiy Xurosondan keldi. Abu Ja'far uning qarshisiga chiqdi. Unda Muhammad ibn Xolid Madinaning noibi mansabidan tushirildi. Uning o'rniga Rabih ibn Usmon tayinlandi, – **Al-Xorazmiy.**

105) 147-yil yunonlarning 1075-yili 9-adarida (764-y., 9-mart) juma kuni boshlandi. Unda turklar Tiflisga keldilar, Harb ibn Abdullohni o'ldirdilar va ko'p asirlarni olib ketdilar[6], – **Al-Xorazmiy.**

107) 150-yil yunonlarning 1078-yili 5-shubotida (767-y., 5-fevral) payshanba kuni boshlandi. Unda Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit[7] o'ldi. Unda Hozim ibn Xuzayma Xuroson mamlakatida Ushtasinni[8] va u bilan birga bo'lgan yetti ming kishini o'ldirdi, – **Al-Xorazmiy.**

---

[1] *Haruriylar* (haruriyya) – islomdagi ilk oqimlardan biri – xorijiylarning avvalgi nomlari, bu nom harakat shakllangan joy – Kufa yaqinidagi Harura kentining nomi bilan bog'liq. Xorijiylar «xulafoi roshidin» o'rniga Umaviylar va bular o'rniga Abbosiylar kelishida muhim ahamiyat kasb etganlar.

[2] *Mulabbad ibn Xarmala ash-Shayboniy* (756-y.) – xalifalikka qarshi qo'zg'olonlardan birining rahbari.

[3] *Hozim ibn Xuzayma at-Tamimiy* – VIII asrdagi arab lashkarboshilaridan, arablarga qarshi qo'zg'olonlarni bostirishda faolligi bilan ma'lum bo'lgan.

[4] VIII asr ikkinchi yarmida Tabaristonda bo'lgan arablarga qarshi yirik qo'zg'olon nazarda tutiladi. Raux ibn Xotam al-Muhallabiy – VIII asrdagi yirik arab lashkarboshilaridan.

[5] *Al-Mahdiy* (775–782) – uchinchi Abbosiy xalifa.

[6] Bu yerda 764-yili xazarlar Tiflisni olganliklari haqida eslatilayotir. Mazkur yili xazarlar arablarga katta talafot yetkazganlar (*Istoriya Gruzii*,S.122) Harb ibn Abdulloh ar-Ravandiy – arab lashkarboshisi.

[7] *Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit* (690–767) – mashhur islom faqihi, asli Kufa shahridan, hanafiya mazhabining asoschisi.

[8] *Ushtasin, ba'zi manbalarda Ustazsiz* – Xurosonda arab hukmronligiga qarshi qo'zg'olon boshlig'i.

@tarixchi_kutubxonasiga

## V. Hamza al-Isfahoniyda[1] saqlangan parcha

1) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'zining «Kitob at-tarix»ida eslatganki, hijriy to'qson to'rtinchi yil o'ninchi adarda (713-y., 10-mart) olamda zilzila boshlandi va qirq kun davom etdi, baland binolarni buzdi va Antaliyadagi uylarni vayron qildi.

## VI. At-Tabariyda saqlangan parchalar

1) Keyin bir yuz qirq yettinchi yil boshlandi (10-mart 764-y., 26-fevral 765- y.), unda ro'y bergan hodisalar haqidagi xabar mana budir. Unda ro'y berganlar haqida, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning so'zlariga ko'ra, bu – Astarxonning[2] turklar boshchiligida Armaniston viloyatidagi musulmonlarga qarshi yurishi, ko'p musulmonlarni va ahli zimmani[3] asir qilishi, Tiflisga kirish va Harb ibn Abdulloh ar-Ravandiyning o'ldirilishidir, – Bag'doddagi mahalla uning nomi bilan atalgan. Abu Harb, xabar qilinishicha, Mosulda ikki ming askar bilan xorijiylarning Jaziradagi joyida turgan. Abu Ja'far esa, u yerda turgan turklar bilan bo'layotgan urush haqidagi xabar unga yetganida, ular bilan urushish uchun Jabroil ibn Yahyoni yubordi va Harbga maktub yozib, u bilan birga ularga qarshi chiqishini buyurdi. Harb u bilan birga bordi va o'ldirildi va Jabroil chekinib qochdi va musulmonlar bilan men aytgandek bo'ldi[4].

2) Bir yuz oltmish to'qqizinchi (785–786) yilda ro'y bergan boshqa voqealar haqidagi xabarlarni eslatish. Unda ro'y bergan narsa: al-Husayn ibn Ali ibn al-Hasan ibn al-Hasan ibn al-Hasan ibn Ali ibn Abu Tolibning xuruji va tuzoqqa tushirib o'ldirilishi[5]. Eslatilishicha, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy aytganki, al-Mahdiyning o'limi bilan Al-Hodiyning[6] xalifaligi orasida sakkiz kun o'tgan. U aytganki, Al-Mahdiyning o'limi haqidagi xabar tarqalganida Al-Hodiy Gurgonda[7] bo'lgan va u Madinat us-salomga[8]

---

[1] *Hamza al-Isfahoniy* (893–taxm.970) – eronlik tarixchi.

[2] VIII asrdagi Xazar hoqoni, lekin uning hukm surgan yillari aniq ma'lum emas.

[3] «Ahli zimma» deb arablar xalifalik davrida ma'lum soliq to'lab o'z dinlarida qolish kafolatini olgan g'ayridinlarni ataganlar. Bular, asosan, nasroniy, yahudiy va zardushtiylardan iborat bo'lgan. Boshqacha aytganda, zimmiylar ma'lum shartni bajarishni o'z «zimmalariga olib», o'z dinlarida qolish huquqini saqlaganlar. Ularni musulmonlardan farq qilish uchun zimmiylar bellariga kokillik belbog' taqib yurishlari kerak bo'lgan.

[4] Keltirilgan parcha Bar Shinayadagi (105) parchaning bir oz kengaytirilganidir.

[5] Bu yerda eslatilgan shaxs Ali ibn Abu Tolibning avlodi.

[6] *Al-Hodiy* (785–786) – to'rtinchi Abbosiy xalifa.

[7] *Gurgon* – Kaspiy dengizining janubi-sharqidagi viloyat va shahar.

[8] *Madinat us-salom* (tinchlik shahri) – Bag'dodning ikkinchi nomi, bunday atalishiga sabab shahar qurilayotgan ikki yil davomida xalifalik hech qanday urush olib bormagan.

@tarixchi_kutubxonasiga

yetib kelguniga qadar o'sha vaqt o'tgan. Al-Husayn ibn Ali al-Hasanning xurujidan to Al-Husaynning o'ldirilguniga qadar to'qqiz oy-u o'n sakkiz kun o'tgan.

3) Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyga kelsak, uning aytganiga havola qilib aytishlaricha, u deganmishki, Muhammad ibn Horunning[1] xalifaligi 193-yili jumodussoniyning (869-y., aprel) o'rtasida boshlangan. U o'sha-yili odamlar bilan birga Haj qilgan, o'shanda Makkaga noib etib Dovud ibn Iso ibn Muso tayinlangan edi, Abul Bukturiy esa o'z viloyatida noib edi. U tayinlanganidan o'n oy-u besh kun o'tganidan so'ng Ismat ibn Abu Ismat uni Sovaga[2] yubordi, u esa o'z noibligini rabiulavval oyining uchinchisida o'z o'g'li Musoga meros qilib berdi. Uning lashkariga Ali ibn Iso ibn Moxon boshchilik qilardi. Muhammad ibn ar-Rashid[3] odamlar bilan birga 194-yili (809–810) haj qildi, o'shanda Ismoil ibn Abbos ibn Muhammad Madinada va Dovud ibn Iso Makkada noib edi. Dovud ibn Iso noiblikni o'z o'g'liga ishonganidan to Ali ibn Iso al-Moxonning Tohir ibn al-Husayn[4] bilan uch-rashguniga va Ali ibn Iso ibn Moxonning 195 (810–811)-yili o'ldirguniga qadar bir yil-u uch oy va yigirma to'qqiz kun o'tgan. U aytganki, noiblik mansabidan tushirilgan yakshanbaga o'tar kechasi muharramning oxiriga besh kun qolganida (810-y., 27-oktabr) o'ldirilgan. U aytganki, uning noibligi isyoni bilan birga to'rt yil-u yetti oy va uch kun davom etgan. Muhammad o'ldirilganini Al-Ma'mun[5] unga Tohir yuborgan maktubdan 198-yili safarning 12-kechasidan so'ng (813-y., 13-oktabr) seshanba kuni bildi. Al-Ma'mun bu voqeani xalqqa e'lon qildi, o'z huzuriga lashkarboshilarni chaqirdi, ular kir-dilar, Al-Fazl ibn Sahl[6] o'rnidan turdi va bu xabar kelgan maktubni o'qidi va ular uni tabrikladilar va unga Allohning marhamatini so'radilar. Muham-mad o'ldirilganidan so'ng Tohir va Harsamaga[7] Al-Ma'mundan Al-Qosim ibn Horunni[8] taxtdan tushirish haqida maktub keldi, ular maktubni xalq-qa bildirdilar. Taxtdan tushirish haqidagi maktub juma kuni rabiulavval

[1] *Muhammad ibn Horun* – xalifa Horun ar-Rashidning katta o'g'li, taxtga Al-Amin (809–813) nomi bilan o'tirgan; Horunning shar'iy xotini Zubaydadan ko'rgan o'g'li.

[2] *Sova* – Markaziy Eronda, Tehronda qariyb 250 km janubi-g'arbdagi shahar.

[3] Bu shaxs Al-Aminning (73-izoh) o'zi.

[4] *Tohir ibn al-Husayn* (775–822) – xalifa Al-Ma'munning lashkarboshisi, u shuning yordamida xalifalik taxtiga keldi. 821-yili Al-Ma'mun uni Xurosonga amir qilib yuboradi, u yerda mustaqil Tohiriylar sulolasiga asos soladi.

[5] *Abdulloh Al-Ma'mun* (813–833) – Abbosiy xalifalarning yettinchisi, Horun ar-Rashidning fors kanizagidan o'g'li.

[6] *Al-Fazl ibn Sahl* (vaf. 819) – Al-Ma'mun Marvda turgan paytdagi vaziri, Tohir ibn al-Husayn bilan birga Al-Ma'munning xalifalik taxti uchun akasi Al-Amin bilan kurashida unga yordam bergan.

[7] *Harsama ibn A'yan* – avvaliga Horun ar-Rashidning soqchisi, keyinchalik Al-Ma'munning lashkarboshilaridan biri.

[8] *Al-Qosim ibn Horun* – Horun ar-Rashidning Zubaydadan ikkinchi o'g'li.

@tarixni_kutubxonasiga

oyining oxiriga ikki kecha qolganida (917-y., 27-noyabr) o'qib eshittirildi. Muhammadning umri, menga ma'lum bo'lishicha, hammasi bo'lib yigirma sakkiz yosh edi, u xushbichim edi, chakkalarida biroz sochi tushgan, sariqsoch, ko'zlari kichik, qirraburun, yoqimli, suyaklari yirik, keng yag'rinli edi, u Rusofada[1] tug'ilgan edi. Tohir uni o'ldirganida bunday dedi: «Men xalifani o'z saroyida o'ldirdim va qilichim uning boyligini yo'q qildi», – va yana bunday dedi: «Men odamlarni qattiqqo'llik bilan lekin aql bilan boshqardim, men buyuk zolimlarni o'ldirdim va xalifalikni boshqarish [xabari]ni Marvga Al-Ma'munga yubordim, buning o'z qiyinchiliklari va xavf-xatari ham bor edi».

## VII. Ahmad ibn Abu Tohir Tayfurda saqlangan parchalar[2]

Astronom Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy dedi: Al-Ma'mun Zu-l-yaminayn Tohir ibn al-Husayn bayrog'ini u Madinat us-salomga kelganidan bir oy keyin butun G'arbda o'rnatdi. Tohir al-Ma'mun bilan yashil kiyimdaligida so'zlashdi, lekin Bag'dodga kirganidan sakkiz kun keyin u kiyimni tashladi[3]. Tohir zulqa'daning oxiriga o'n bir kun qolganida (813-y., 22-iyul) Bag'dod o'rdusining boshlig'i bo'ldi. 205-yilning zulqa'dasida (821-y., 8-aprel – 7-may) Talha ibn Tohir[4] uning muqaddamida Xurosonga kirdi, so'ng zulhijjada (821-y., 8-may – 5-iyun) uning Bag'doddan Xurosonga chiqishi bo'ldi. Tohirning Xurosonga chiqqanidan so'ng Abul Abbos Abdulloh ibn Tohir[5] Nasr ibn Shabas al-Uqayli bilan jang qilish uchun Jaziraga chiqdi va Abdulloh ibn Tohir [jangda] Nasr ibn Shabasni yengdi va 209-yil rajabning o'rtasida (824-y., 14-noyabr) dushanba kuni u Madinat us-salomga kirdi.

2) Abu Hasan az-Ziyodiy,[6] Al-Hoshimiy[7] va Al-Xorazmiylar ularning hammasi «Tarix»ning muallifi, aytganlar: Al-Ma'mun Abdulloh ibn Tohir-

[1] *Rusofa* – Bag'dodning bir qismi. Dajlaning chap sohilida bo'lgan.

[2] *Ahmad ibn Abu Tohir Tayfur al-Xurosoniy* (819–893) – Bag'dodda ishlagan muarrix, asli Xurosonning Marvarrud shahridan bo'lgan. Quyida keltirilayotgan parchalar uning «Bag'dod tarixi» («Tarixi Bag'dod») asarida saqlangan.

[3] *Yashil kiyim* – shialarning kiyimi. Al-Ma'mun Marvda turgan paytda, u yerda shialarning ta'siri kuchli bo'lganligi uchun sunnalarning qora rangini vaqtincha kiyimlarda va bayroqlarda ham yashilga almashtirdi. Lekin sunna tarafdorlari Bag'dodda isyon ko'tarib, Ibrohim ibn al-Mahdiyni xalifa deb e'lon qilganlaridan so'ng, sunnalarning qora rangiga qaytdi. Lekin Al-Xorazmiyning xabariga ko'ra, Tohir yashil kiyimni tezroq tashlagan.

[4] *Talha ibn Tohir* – Tohirning o'g'li va 822–828-yillar Xurosonning amiri.

[5] *Abul Abbos Abdulloh ibn Tohir* – Tohirning ikkinchi o'g'li va 828–845-yillar Xurosonning amiri.

[6] *Abu Hasan ibn Usmon az-Ziyodiy* (773–857) – bag'dodlik tarixchi, «Yillar bo'yicha tarix kitobi»ning («Kitob at-tarix ala as-sinin») muallifi.

[7] *Abu Ya'qub Ishoq ibn Sulaymon al-Hoshimiy* (VIII–IX) – bag'dodlik tarixchi, «Tarix va satrlar kitobi»ning («Kitob at-tarix va-s-sitar») muallifi.

@tarixchi_kutubxonasiga

ga, u Nasr ibn Shabasni Bag'dodga yuborganidan keyin, maktub yuborib, u Misrga borsin dedi, lekin u bilan Ibn as-Sariy orasida ixtilof bor edi va bu uning yo'lga chiqishiga izn bermadi. Shunda u amir Al-Mo'mininga maktub yozib, o'zi bilan yuz bergan ahvolni bayon qildi. Shunda u bunga maktub yozib, agar anavi bosh tortsa, u bilan jang qilsin dedi. Lekin toki rahm-shafqat so'rashga majbur bo'lmagunigacha u o'zi aytganida qattiq turib oldi.

## MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY. «KITOB SURAT AL-ARZ»DAN

### Yer sharining odamlar yashaydigan qismidagi shaharlar[1]

**Ikkinchi iqlim, kenglamasi 24° 0'**

**Ikkinchi iqlimdagi shaharlar nomi**

| | Shaharlar nomi | Uzunlama | | Kenglama | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Darajalar | Daqiqalar | Darajalar | Daqiqalar |
| 1 | Atrobas shahri | 142° | 0' | 22° | 0' |
| 2 | Tug'ma shahri, tog' bilan birga | 142° | 40' | 20° | 45' |
| 3 | Astafir shahri, dengiz bo'yida, Xitoyning yuqorisida | 167° | 15' | 18° | 30' |
| 4 | Xitoy shahri | 164° | 40' | 18° | 30' |

**Uchinchi iqlim, kenglamasi 30°22'**

**Uchinchi iqlimdagi shaharlar**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 5 | Kobul | 100° | 0' | 28° | 0' |
| 6 | Farsis shahri, tog'da | 103° | 0' | 25° | 0' |
| 7 | Quni | 104° | 10' | 24° | 45' |
| 8 | Qandahor | 110° | 0' | 30° | 0' |

[1]Quyida biz Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» asaridan geografik obyektlarning faqat Markaziy Osiyo hududida va uning chegaralarida joylashganlarini koordinatlari bilan birga keltiramiz.

@tarixchi_kutubxonasiga

**To'rtinchi iqlim, kenglamasi 36°0'**
**To'rtinchi iqlimdagi shaharlar**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 9 | Qumm | 74° | 15' | 35° | 40' |
| 10 | Ray | 75° | 0' | 32° | 0' |
| 11 | Isfahon | 74° | 40' | 34° | 30' |
| 12 | Bardasir | – | – | – | – |
| 13 | Sharqiy Iskandariya shahri | 125° | 0' | 32° | 20' |

**Beshinchi iqlim, kenglamasi 41°0'**
**Beshinchi iqlimdagi shaharlar**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 14 | Omul, dengiz yaqinida | 77° | 20' | 37° | 45' |
| 15 | Soriya, dengiz yaqinida | 77° | 50' | 38° | 0' |
| 16 | Qumis | 78° | 15' | 36° | 25' |
| 17 | Tamis, dengiz yaqinida | 78° | 40' | 38° | 40' |
| 18 | Astrobod | 79° | 50' | 38° | 45' |
| 19 | Jurjon, dengiz yaqinida | 80° | 45' | 38° | 50' |
| 20 | Nishopur | 80° | 45' | 37° | 0' |
| 21 | Tus | 82° | 50' | 37° | 0' |
| 22 | Saraxs | 83° | 20' | 38° | 0' |
| 23 | Marv | 84° | 20' | 38° | 35' |
| 24 | Marvarrud | 85° | 0' | 38° | 50' |
| 25 | Amuya | 85° | 45' | 37° | 40' |
| 26 | Buxoro | 87° | 20' | 37° | 50' |
| 27 | Balx | 88° | 35' | 38° | 40' |
| 28 | Samarqand | 89° | 30' | 37° | 30' |
| 29 | Usrushana | 91° | 10' | 36° | 40' |
| 30 | Xo'jand | 92° | 30' | 37° | 10' |
| 31 | Banokat | 94° | 30' | 38° | 30' |
| 32 | Axsikat | 96° | 30' | 36° | 40' |
| 33 | Torband | 96° | 30' | 39° | 35' |
| 34 | Isfijob | 98° | 10' | 39° | 50' |
| 35 | Taroz, bu savdogarlar shahri | 100° | 30' | 40° | 24' |
| 36 | Atroqaro | 149° | 10' | 37° | 50' |

@tarixchi_kutubxonasiga

**Oltinchi iqlim, kenglamasi 45°**
**Oltinchi iqlimdagi shaharlar**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 37 | Xorazm | 91° | 50′ | 42° | 10′ |
| 38 | Xazar | 98° | 0′ | 45° | 0′ |
| 39 | Navokat | 104° | 0′ | 44° | 0′ |
| 40 | Shahar | 110° | 0′ | 44° | 45′ |
| 41 | Shahar | 112° | 45′ | 42° | 0′ |
| 42 | Darisoqiy | 151° | 30′ | 42° | 0′ |
| 43 | Ya'ma'juj shahri | 170° | 25′ | 43° | 25′ |
| 44 | Ma'juj shahri | 171° | 0′ | 45° | 0′ |

## Yer sharining odamlar yashaydigan qismidagi dengizlar va ularning orollari

Xorazm dengizi, Jurjon, Tabariston va Daylam dengizi – bir dengizdir[1].

Boshlanishi 74°40′ uzunlamadan bo'lib, Yun[2] tog'iga urinadi, kenglamasi – 43°50′ dir; bundan uzunlamasi – 76°0′, kenglamasi – 37°50′ ga o'tadi; yana uzunlama – 77°30′, kenglama – 38°0′ga o'tadi; yana uzunlama – 78°40′, kenglama – 38°40′ga o'tadi, bundan uzunlama – 79°0′, kenglama – 39°30′ga o'tadi; yana uzunlama – 81°0′, kenglama – 39°45′ ga o'tadi; yana uzunlama – 57°0′, kenglama – 42°30′ga o'tadi; yana uzunlama – 87°40′, kenglama – 42°20′ ga o'tadi, yana uzunlama – 90°40′, kenglama – 44°0′ga o'tadi; yana uzunlama – 90°20′, kenglama – 45°0′ ga o'tadi. Bundan taylason shaklida uzunlama – 89°0′, kenglama – 50°0′ga o'tadi. Yana taylason shaklida o'tib, 89°30′ uzunlamadan o'tadi va 88°30′ uzunlamaga yetadi, yana uzunlama – 87°0′, kenglama – 50°20′ dan o'tadi; yana uzunlama – 86°30′, kenglama – 50°40′dan o'tadi. Keyin sopol shaklida o'tib, 50°20′ kenglamadan o'tadi va uzunlama – 85°30′, kenglama – 51°30′ga yetadi; yana taylason shaklida uzunlama – 84°30′, kenglama – 50°20′dan o'tadi va uzunlama – 83°0′, kenglama – 51°10′ga yetadi; yana taylason shaklida uzunlama – 82°0′, kenglama – 49°20′ ga o'tadi; yana uzunlama – 81°0′, kenglama – 49°30′ga o'tadi; yana uzunlama – 78°0′, kenglama – 48°10′ga o'tadi. Keyin ikki daryoning quyilish yeridan o'tadi va uzunlama – 77°40′, kenglama – 45°20′ ga o'tadi.

[1] Bu yerda Kaspiy dengizi uning atrofidagi viloyat va o'lkalar nomi bilan atalgan.
[2] *Yun (yoki Nun)tog'i* – Elbrusning g'arbiy etagi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Yana sopol shaklida o'tadi, 44°30' kenglamadan ham o'tadi va uzunlama – 76°0', kenglama – 44°0' ga yetadi. Keyin u o'tib, biz yuqoridan undan boshlagan tog'ga urinadi. Bu esa Nun tog'i bo'lib, unga uzunlamasi – 74°40', kenglamasi – 48°50' bo'lgan joyda urinadi.

### Jurjon va Tabariston dengizidagi orollar[1]

Bir orol bor, miqdori – bir yarim darajaga ikki daraja, o'rtasining uzunlamasi – 79°30', kenglamasi – 46°0'; yana bir orol bor, miqdori – bir darajaga ikki daraja, o'rtasining uzunlamasi – 84°0', kenglamasi – 44°40'; yana bir orol, miqdori – bir darajaga ikki daraja, o'rtasining uzunlamasi – 85°50', kenglamasi – 43°30'; yana bir orol, miqdori – uchdan ikki darajaga ikki daraja, o'rtasining uzunlamasi – 83°0', kenglamasi – 47°30'.

### Mamlakatlarning chegaralari tavsiflanadigan joylar

Sind mamlakati, mamlakat o'rtasining[2] uzunlamasi – 108°30', kenglamasi – 32°40'. Xitoy mamlakati,[3] nomining yozuvi o'rtasining uzunlamasi – 182°0', kenglamasi – 56°30'. Kermon o'lkasi[4], yozuvi o'rtasining uzunlamasi – 96°5' , kenglamasi – 28°30'. Kermon cho'li[5], yozuvi o'rtasining uzunlamasi – 96°0', kenglamasi – 29°40'. Kobul o'lkasi[6], nomining yozuvi o'rtasining uzunlamasi – 101°30', kenglamasi – 29°0'. Fors mamlakati[7], yozuvi o'rtasining uzunlamasi – 100°0', kenglamasi – 58°30'. Hirot o'lkasi[8], yozuvi o'rtasining uzunlamasi – 108°0', kenglamasi – 85°50'. Ozarbayjon o'lkasi[9], o'rtasining uzunlamasi – 73°40', kenglamasi – 41°20'. Shosh va Torband o'lkasi[10], o'rtasining uzunlamasi – 98°0', kenglamasi – 42°0'. Ya'juj mamlakati[11], o'rtasining uzunlamasi – 167°20', kenglama-

[1] Bu yerda Boku va Nebit Dog'ga yaqin orollar tavsiflangan.

[2] Bu bo'limda Al-Xorazmiy o'zi ko'rib o'qiyotgan «Al-Ma'mun xaritasi»dagi mamlakatlar nomi o'rtasining geografik koordinatlari keltirilgan. Sind mamlakati – Hindiston g'arbida Sind daryosi bo'ylab joylashgan o'lka, hozirgi Pokiston.

[3] *Xitoy mamlakati* – hozirgi Xitoyning sharqiy qismi.

[4] *Kermon o'lkasi* – Eronning markaziy qismi.

[5] *Kermon cho'li* – hozirgi Erondagi Dashti Kevir cho'li.

[6] *Kobul o'lkasi* – shu nomli shahar atrofidagi viloyat.

[7] *Fors mamlakati* – Eronning janubi-sharqidagi shu nomli oston.

[8] *Hirot o'lkasi* – shu nomli shahar atrofidagi voha.

[9] *Ozarbayjon o'lkasi* – Janubiy Ozarbayjon.

[10] *Shosh va Torband o'lkasi* – Toshkent va O'tror shaharlarini va viloyatlarini o'z ichiga olgan o'lka. IX asr birinchi yarmida bunday ma'muriy-geografik birikma bo'lganligini birinchi bo'lib Al-Xorazmiy qayd qilgan.

[11] Daunixtning fikriga ko'ra, Ya'juj mamlakati va Ma'juj mamlakati Ichki Mo'g'uliston bilan Koreyani o'z ichiga olgan hududga to'g'ri keladi (Daunicht. Der Osten, p.103–108.)

@tarixchi_kutubxonasiga

si – 44°0'. Skifiya[1] mamlakati, bu Turklar yeridir, o'rtasining uzunlamasi – 114°0', kenglamasi – 57°30'. Skifiya mamlakati bu To'qqizg'uzlar yeridir, o'rtasining uzunlamasi – 148°, kenglamasi – 59°30'. Serika[2] o'lkasi bu Siniston yeridir, o'rtasining uzunlamasi – 152°0', kenglamasi – 54°30', Ma'jui mamlakati, o'rtasining uzunlamasi – 171°30', kenglamasi – 58°0'.

## Yer sharining odamlar yashaydigan qismidagi daryo va buloqlar
## Yettinchi iqlimdagi buloq va daryolar

Balx daryosi[3] boshi uzunlama – 100°30', kenglama – 43°0' dagi bir ko'ldir, ko'lning miqdori – bir daraja, u uzunlama – 102°0', kenglama – 47°0' da tog' etagiga o'tadi va uzunlamasi – 96°40', kenglamasi – 44°30' joyga o'tadi; yana uzunlamasi – 96°30', kenglamasi – 42°0' joyga o'tadi; keyin Xorazm shahriga[4] yetadi va uni kesib o'tadi; so'ng undan chiqib, uzunlamasi – 91°30', kenglamasi – 59°40' joyga yetadi. U Balx yonidan o'tadi va uzunlamasi – 88°0', kenglamasi – 39°10' bo'lgan yerda ko'lga quyiladi. Bu ko'lning uzunlamasi – 86°30'dan – 90°0' gacha[5], kenglamasi Balx daryosining quyilish joyi bilan 42°0' kenglamaning orasidir. Balx daryosi so'ngra Xorazm boshlangan joyning chegarasiga o'tishi bilan u tarafda bo'linadi. Undan keyin Xorazm boshlangan joyning uzunlamasi – 90°0', o'sha yerning kenglamasi – 41°0'.

Balx daryosidan bir daryo ajraladi, boshi uzunlama – 91°30', kenglama – 39°40'da o'tib borib, uzun tog'ni kesib o'tadi va Usrushana shahrining quyisi bilan Xo'jand shahrining orasidan o'tib, uzunlama – 92°30', kenglama – 37°40' ga yetadi. Keyin Al-Muhammadiya shahri ostonasidan o'tadi. Kermon shahrining yaqinidan o'tadi va uzunlama – 87°30', kenglama – 28°40'da dengizga tushadi[6]. Shu daryoga tog'dan Salaman daryosi[7] kelib tushadi, bu tog' boshi uzunlama – 88°0', kenglama – 38°0'da. U avvalgi

[1] Al-Xorazmiy ham Ptolemey kabi Volga daryosidan Mo'g'ulistonning sharqigacha bo'lgan yerlarni umumiy nom bilan Skifiya (matnda – Iqusiya) deb ataydi va Ptolemey kabi Skifiyani ikki qismga – Sharqiy va G'arbiyga – ajratadi. Biroq Ptolemey G'arbiy Skifiyani – Skifiya Intra Imaum, Imaum (Pomir-Oloy) tog'lari ichidagi Skifiya deydi, Al-Xorazmiy esa aniq qilib bu Skifiyani Turklar yeri deydi. Ptolemey Sharqiy Skifiyani – Skifiya Ekstra Imaum, ya'ni Imaum tog'lari ortidagi Skifiya deb ataydi, Al-Xorazmiy bu holda ham aniq qilib, bu Skifiyani To'qqizg'uzlar yeri deydi.

[2] *Siriqa* – Ptolemeyda Serika, hozirgi Xitoyning markaziy qismi; qadimda u yerda xitoylardan farqli xalq – serlar yashagan, ular ipakni ixtiro qilgan.

[3] Balx daryosi deb Al-Xorazmiy Jayhunni, ya'ni Amudaryoni nazarda tutadi, chunki bu daryo Balxga shimol tarafdan tutashib o'tgan.

[4] *Xorazm shahri* – Xorazmning IX asrdagi poytaxti Kot.

[5] Bu yerda Orol dengizining ancha aniq o'lchamlari berilgan.

[6] Bu yerda Amudaryoning Kaspiy dengiziga quyilgan sharqiy tarmog'i tavsiflangan, lekin u haddan tashqari janubiy hududlardan o'tkazilgan.

[7] Shu eslatilgan tarmoqqa janubdan kelib tushgan irmoqni Al-Xorazmiy Salaman daryosi degan.

@tarixchi_kutubxonasiga

daryoga Al-Muhammadiya shahri yaqinida uzunlama – 89°40', kenglama – 32°0'da quyiladi.

Bir buloq bor, u uzunlama – 94°0', kenglama – 39°0' da tog'dan chiqadi va Savdogarlar shahri[1] yonidan o'tadi, keyin uzunlama – 100°0', kenglama – 41°30' ga yetadi. U o'ta borib, uzunlama – 96°40', kenglama – 44°30' da Balx daryosiga quyiladi. Shu buloq suvi bir buloqdan chiquvchi anhorga tushadi. Shu buloq boshining uzunlamasi – 101°40', kenglamasi – 39°20'. Keyin u Savdogarlar shahriga yondashib o'tadi-da, uzunlama – 100°0', kenglama – 41°30' da avvalgi buloq anhoriga tushadi. O'sha avvalgi buloq suviga bir tog'dan yana bir daryo kelib tushadi. Bu tog' boshining uzunlamasi – 104°30', kenglamasi – 47°5'. U daryoning buloq suviga quyilish joyi uzunlama – 97°20', kenglama – 44°5' da.

Bir uzun daryo bor[2], uning boshi uzunlama – 129°30', kenglama – 48°0' dagi bir buloqdir; keyin u uzunlama – 118°0', kenglama – 48°5' dagi joydan o'tadi; yana uzunlama – 107°5', kenglama – 50°30' dan o'tadi. Keyin uzunlamasi – 100°30', kenglamasi – 51°0' bo'lgan joyga yetadi va Xazar shahri yonidan o'tadi, so'ng dengiz yonidan dengiz bilan Xorazm shahri oralig'idan o'tadi-da, Balx daryosining ko'liga uzunlamasi – 90°5', kenglamasi – 41°30' bo'lgan joyda quyiladi.

Shu daryoga Arasana tog'idan[3] bir daryo kelib quyiladi. Uning boshi uzunlama – 99°0', kenglama – 57°30' da. Uning katta daryoga tushish joyining uzunlamasi – 92°3', kenglamasi – 45°5'. Katta daryoga Arasana tog'idan yana bir daryo kelib tushadi, uning boshi uzunlama – 100°0', kenglama – 59°5'; katta daryoga quyilishidagi uzunlama – 94°5', kenglama – 46°5'. Katta daryoga yana bir daryo Asfasiya[4] tog'idan kelib tushadi, uning boshi uzunlama – 104°40', kenglama – 56°5' da. Uning katta daryoga quyilishidagi uzunlama – 100°30', kenglama – 51°5'. Katta daryoga Asfasiya tog'idan yana bir daryo kelib quyiladi; buning boshi uzunlama – 106°30', kenglama – 54°5', katta daryoga quyilish joyidagi uzunlama – 104°30', kenglama – 51°0'. Katta daryoga Asfasiya tog'idan yana bir daryo kelib quyiladi; uning boshi uzunlama – 108°5', kenglama – 52°30' da; katta daryoga quyilishidagi uzunlama – 107°20', kenglama – 50°30'.

O'sha katta daryoga bir tog'dan yana uch daryo kelib quyiladi. Birinchi daryo boshi uzunlama – 108°0', kenglama – 48°30' da; katta daryoga quyi-

[1] *Savdogarlar shahri* – Paykand, uning xarobalari Buxorodan g'arbda; bu yerda Zarafshon daryosi tavsiflangan.

[2] Uzun daryo deb Al-Xorazmiy Sirdaryoni nazarda tutadi.

[3] Al-Xorazmiyning Arasana (yoki Narasana) tog'i Ptolemeydagi Naressus tog'iga mos keladi (Ptolemaei.Geographiae. Asiae – VII tabulae). Bu yerda Pomir – Oloy tog'larining bir qismi nazarda tutiladi.

[4] *Asfasiya tog'i* – Ptolemeydagi Aspiliy tog'i, bu ham Pomir – Oloyning bir qismi.

@tarixchi_kutubxonasiga

lishidagi uzunlama – 103°10', kenglama – 51°30'. Ikkinchi daryoning boshi uzunlama – 103°30', kenglama – 47°30'da; katta daryoga quyilish joyi uzunlama – 104°30', kenglama – 50°40'da. Uchinchi daryo boshi uzunlama – 104°45', kenglama – 48°5' da; katta daryoga quyilishidagi uzunlama – 106°5', kenglama – 50°20'.

Katta daryoga yana uch daryo Tafura[1] tog'idan kelib tushadi. Ulardan birinchisining boshi uzunlama – 11°20', kenglama – 58°10' da; uzunlama – 108°20', kenglama – 50°5' da katta daryoga quyiladi. Ikkinchi daryo uzunlama – 114°5', kenglama – 52°5'da boshlanadi va uzunlama – 112°10', kenglama – 49°30'da katta daryoga quyiladi. Uchinchi daryo boshi uzunlama – 115°30', kenglama – 51°30' da, u uzunlamasi – 114°5', kenglamasi – 48°30' joyda katta daryoga quyiladi. Katta daryoga yana bir buloq suvi kelib qo'shiladi, uning boshi uzunlama – 124°30', kenglama – 49°5'da; katta daryoga quyilishidagi uzunlama – 123°0', kenglama – 46°20'.

## AHMAD AL-FARG'ONIY VA UNING ASARLARI

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy hayoti haqida manbalarda faqat bir sana – 861-yil eslatiladi: o'sha yili Al-Farg'oniy xalifa Al-Mutavakkilning farmoni bilan Qohirada Nil daryosidagi Ravzo orolida miqyos – suv sathini o'lchovchi asbob yasaydi. O'rta asrlar biobibliograflari Ibn an-Nadim, Ibn al-Qiftiy va Abul Faraj Bar Ebrey u haqida faqat mazkur sanani keltirib, olti asarining nomini eslatadilar.

Al-Farg'oniy haqida biografik ma'lumotlar saqlanmagan. U 809–819-yillar oralig'ida Marvda Abdulloh al-Ma'mun saroyida boshqa olimlar bilan to'planganligi ma'lum.

Al-Farg'oniy Bag'dodga kelganidan so'ng «Bayt ul-hikma»da amalga oshirilgan ilmiy ishlarda ishtirok etgan. Xususan, u Bag'dodning Shammosiya mahallasidagi rasadxonada va Damashq yaqinidagi Dayr Murron tepaligidagi astronomik kuzatishlarda, Mosul yaqinida Sinjor sahrosidagi Yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda faol qatnashgani va Al-Fustot (hozirgi Qohira) hududida Nildagi Ravzo (Ro'da) orolida miqyosni barpo qilgani ma'lum.

Al-Farg'oniyning ijodi va ilmiy merosiga kelsak, u matematik, astronom, geograf, muhandis va geodezist bo'lib, ko'proq astronomiya sohasida mashg'ul bo'lgan. Bizgacha yetib kelgan va yetib kelmagan asarlarining nomlaridan ular, asosan, astronomiyaga bag'ishlanganini bilamiz.

1. «Kitob fi usul ilm an-nujum» («Astronomiya ilmi asoslari», «Astronomiya asoslari haqida kitob»), eng mashhuri, manbalarda yana bir nechta nom bilan qayd qilingan: «Kitob fi harakat as-samoviyya va javomi' ilm

[1] *Tafura tog'i* – Ptolemeydagi Tapura tog'i.

@tarixchi_kutubxonasiga

an-nujum» («Samoviy harakatlar haqida kitob va ilmi nujum to'plami»), «Kitob al-hay'a, al-fusul as-salasin» («O'ttiz fasllik astronomiya kitobi»), «Kitob fi javome' ulum an-nujum va-l-harakat as-samoviyya» («Ilmi nujum va samoviy harakatlar to'plami haqida kitob»), «Risola fi usul ilm an-nujum» («Astronomiya ilmi asoslari»), «Al-fusul madxal fi Majisti va huva salasuna faslan» («Al-majistiy»ga kirish fasllari, o'ttiz fasldan iborat»), «Ilal al-aflok» («Osmon falaklarining illati»), «Tarkib al-falak» («Osmon falaklarining tuzilishi»), «Al-majistiy», «Ilm al-hay'a» («Astronomiya ilmi»). Bu asarning qo'lyozmalari hozir Amsterdam (47), Bag'dod (2959), Dublin (4114), Qohira (Miqot, 944, 47, Universitet, 310–311), Leyden (84185), Sankt-Peterburg (V 3059/3), Moskva (154/2), Oksford (1879/1), Parij (2504/3), Prinston (Garriet, 967), Istanbul (Ayo Sufiya, 2843/2, Jorulla,1279), Tunis (Milliyot, 02103/1) va Fes (Zoviya, 56) shaharlarida ko'rsatilgan raqamlar ostida saqlanadi.

Bu asarni Al-Farg'oniy 840-yil atrofida yozgan, chunki kitob ichida shu sana qalamga olingan. Asar XII asrda ikki marta lotin tiliga, keyinchalik boshqa tillarga ham tarjima qilingan. Birinchi lotincha tarjimani 1145-yili seviliyalik Ioann va ikkinchisi 1175-yili kremonalik Gerardo bajargan. Yahudiycha tarjimani Yakob Anatoli bajargan. Asar Ovrupo Renessansi davrida va undan biroz so'ng bir necha marta nashr etilgan va u yerda uzoq muddat astronomiyadan asosiy qo'llanma vazifasini bajargan. Uning eng birinchi nashri seviliyalik Ioanning tarjimasi asosida 1493-yili Ferrarida (Italiya) bajarilgan. Ikkinchi nashr kremonalik Gerardoning tarjimasidan 1537-yili Nyurnbergda Y.Shener tomonidan amalga oshirilgan. Asarning uchinchi lotincha nashri yahudiycha tarjimadan Y.Xristmani tomonidan 1590-yili Frankfurtda amalga oshirildi. Nihoyat, oxirgi lotincha nashrni Oksfordda saqlanuvchi qo'lyozmaning arabcha matni bilan birga golland sharqshunosi va fan tarixchisi Yakob Gool 1669-yili Amsterdamda amalga oshirdi. 1930-yili asarning birinchi marta hozirgi tillardan italyan tiliga qilingan tarjimasi nashr etildi. Noshir R.Kampani o'z so'zboshisida Al-Farg'oniy asarining o'rta asrlardagi buyuk italyan mutafakkiri Dantening ijodiga ta'siri xususida to'xtalgan.

Al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari lotincha tarjimalarining Yevropada paydo bo'lishi Yevropa madaniyati uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Buyuk nemis matematigi va astronomi Regiomontan (Iogann Myuller) 1464-yili Paduya universitetida shu asar asosida astronomiyadan ma'ruzalar o'qigan. Asarning o'zi esa o'rta asrlar Yevropasida tarqalgan eng birinchi va deyarli eng mashhur arab astronomik asari bo'lgan. Yevropa madaniyatining buyuk arboblaridan Dante Aligeri (1265–1321) uning nomini o'z «Ilohiy komediya»sida va F.Shiller (1759–1805) o'z «Vallenshteyn»ida eslat-

@tarixchi_kutubxonasiga

gan. Olimning 1200-yillik yubileyi munosabati bilan 1998-yili bu asar rus[1] va o'zbek[2] tillarida nashr etilgan.

2. «Asturlob yasash haqida»gi risola. Bu asar yana quyidagi nomlar bilan ma'lum: «Al-komil fi san'a al-asturlab ash-shimoliy va-l-janubi bi-l-handasa va-l-hisob» («Geometrik va hisob usuli bilan shimoliy va janubiy asturlob yasash haqida to'la ma'lumot»), «Kitob fi san'a al-asturlab» («Asturlob yasash haqida kitob»), «Kitob al-kamil Al-Farg'oniy» («Al-Farg'oniyning mukammal kitobi»). Bu nomlarning ikkinchisi – «Asturlob yasash haqida kitob» uning ancha keng tarqalgan va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan nomidir. Asarning qo'lyozmalari Berlin (5790/1, 5791–5792), Kastamonu (794/4), London (5479/2), Mashhad (5593), Parij (2456/5), Tehron (6411, Sipohsolor, 702) kutubxonalarida saqlanadi. Olimning 1200-yillik yubileyi munosabati bilan bu asar 1998-yili rus tilida nashr etilgan[3].

Al-Farg'oniyning qolgan oltita asari hali o'rganilmagan. Ular quyidagilardir:

3. «Kitob amal bi-l-asturlab» («Asturlob bilan amal tutish kitobi»); uning birgina nodir qo'lyozmasi Hindistonda Rampur (164) kutubxonasida saqlanadi.

4. «Jadval Al-Farg'oniy» («Al-Farg'oniy jadvali») asari, buning birgina nodir qo'lyozma nusxasi Hindistonda Patna (2580/8) kutubxonasida saqlanadi.

5. «Jadval Al-Farg'oniy ila qutr al-jadiy» («Jadiy diametri uchun Al-Farg'oniy jadvali») risolasining birgina qo'lyozmasi Turkiyada Manisa (1698/3) kutubxonasida saqlanadi.

6. «Risola fi ma'rifa al-avqot allati yakunu al-qamar fiha favqa al-ard ay tahtaha» («Oy yer ustida va ostida bo'lgan vaqtida vaqtni aniqlash haqida risola»), buning birgina qo'lyozmasi Qohirada (V 311) saqlanadi.

7. «Hisob al-aqolim as-sab'a» («Yetti iqlimni hisoblash») risolasining ikki qo'lyozmasi mavjud: biri – Germaniyada Gota (1523) kutubxonasida, ikkinchisi – Qohirada (V 310) saqlanadi.

8. «Kitob amal ar-ruxama» («Quyosh soatini yasash haqida kitob») risolasining ikki qo'lyozmasi mavjud: birinchisi – Suriyaning Halab shahrida Qaddur kutubxonasida, ikkinchisi – Qohirada Qahrabon kutubxonasida saqlanadi.

«Ta'lil li-zij Al-Xorazmiy» («Al-Xorazmiy zijining sabablari haqida») nomli yana bir risolasini faqat Beruniy eslatadi, lekin uning o'zi saqlanmagan.

---

[1] *Ал-Фаргани. Астрономические трактаты.* С.7–80, 181–208.

[2] *Al-Farg'oniy. Astronomiya.*

[3] *Ал-Фаргани. Астрономические трактаты.* С.81–190, 209–231.

@tarixchi_kutubxonasiga

Al-Farg'oniyning asarlari son jihatidan ko'p bo'lmasa ham, uning nomi, Xorazmiyning nomi kabi, Sharq va G'arbda mashhurdir. Uning nomi o'rta asrlarda tabiiy ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida manbalarda, G'arb va Sharq mualliflari asarlarida, o'z yurti O'zbekistonda, ayniqsa, g'urur va iftixor bilan tilga olinadi.

Quyida Al-Farg'oniyning «Kitob fi usul ilm an-nujum» («Astronomiya ilmi asoslari») asarining to'qqizinchi bobidan parcha berildi (1998-yildagi ruscha nashri asosida), rus tilidan A.Ahmedov tarjimasi.

**A.Ahmedov**

## AHMAD AL-FARG'ONIY. «KITOB FI USUL ILM AN-NUJUM»DAN

«Yerdagi ma'lum o'lkalar va shaharlarning nomlari, ularning qaysi iqlimga tegishliligi haqida» deb atalgan bu bobi quyidagicha boshlanadi: «Bu yerda har bir iqlimdagi o'lkalar va shaharlarning nomlarini eslatishni istaymiz. Ularni Sharq tomondan boshlaymiz. Eng avval o'lkalarning uzunligi va kengligining ma'nosini bayon etamiz. Har bir shaharning uzunligi deb, uning Yerda aholi yashaydigan chorakning sharqdan yoki g'arbdan boshlanadigan masofasiga aytamiz. Bu kattalik Yer ekvatori aylanasi bo'ylab shahar meridiani bilan aholi yashaydigan chorak boshining meridiani orasidagi masofadir.

Ammo joy kengligi uning Yer ekvatoridan masofasi bo'lib, u qutbning ufqdan balandligiga tengdir.

**Birinchi iqlim**ga kelsak, u sharqdan Xitoy[1] mamlakatining eng uzoq joylaridan boshlanadi va Xitoy mamlakatining janubidagi joyidan o'tadi. Unda Xitoy podshohining shahri Ashfatir[2] joylashgan, bu Xitoyning bandaridir. So'ngra u dengiz sohillari orqali Hind mamlakatining[3] janubidan o'tadi, so'ngra Sind mamlakatiga[4] boradi. Keyin dengizda Karala yarim oroli orqali o'tib, dengizni kesib, Arabiston yarimoroligacha Yaman yeriga boradi. Unda ma'lum shaharlardan Zafar, Ummon, Hazramavt va Adan, San'o, Al-Qiyn, Mara, Tabola, Jurash, Mahra va Sabo bor[5]. So'ngra bu iqlim Qulzum dengizini kesadi[6] va Habash mamlakatidan o'tadi va Misrning Nil daryosini kesib o'tadi. Mana shu yerda Habash mamlakatining Jarmi

[1] *Xitoy* – As-Sin, bu nom bilan, asosan, Janubiy Xitoy atalgan.

[2] *Ashfatira* – bu Ptolemeydagi va Al-Xorazmiydagi Asfatir shahri.

[3] *Hind mamlakati* – matnda Al-Hind, hozirgi Hindiston.

[4] *Sind mamlakati* – As-Sind, hozirgi Pokistonning Sind daryosi vohasida joylashgan qismi.

[5] Bu yerda, asosan, Yamanda va Arabiston yarimorolining janubida joylashgan qadimgi shaharlar eslatilgan.

[6] *Qulzum dengizi* – Qizil dengiz.

@tarixiy_kutubxonasiga

shahri[1] va Nubaning Dunqula[2] shahri bor. So'ngra bu iqlim Mag'rib yeri orqali janubga Barbarlar mamlakatiga o'tadi va G'arb dengizida[3] tugaydi.

**Ikkinchi iqlim** sharqdan boshlanadi. U Xitoy mamlakatidan o'tadi, so'ngra Sind mamlakatiga boradi: unda Al-Mansura, Nirun va Daybul shaharlari bor[4]. So'ngra Yashil dengiz bilan Basra dengizi tutashgan yerga boradi. Arabiston yarimorolini Najd yerida va Tihoma yerida kesadi. Bu yerda shaharlardan Al-Yamoma, Bahrayn, Hajar, Yasrib, Hijoz, Makka, Toif va Jidda bor. So'ngra Qulzum dengizini kesib, Yuqori Misrdan o'tadi va unda Nilni kesadi. Bu yerda shaharlardan Qus, Ahmim, Isno, Ansino, Asvon bor. So'ngra Mag'rib eri orqali Ifriqiya mamlakatining[5] o'rtasidan o'tadi, so'ngra Barbarlar mamlakatiga o'tadi va G'arb dengizida tugaydi.

**Uchinchi iqlim** sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, so'ng Hind mamlakatidan o'tadi, unda Qandahor shahri bor. Keyin Sind o'lkasi shimoliga boradi, so'ng Kobul, Kermon, Iskandariya[6], Sijiston, Muhammadiya, Jiruft va Sirjon o'lkalaridan o'tadi. So'ng Basra dengizi sohillari bo'ylab o'tadi. Unda Istaxr, Jur, Faso, Sobur, Sheroz, Sirof, Sinniz, Jannoba, Mahrubon shaharlari bor. So'ngra bu iqlim Ahvoz cho'li va Iroqdan o'tadi. Unda shaharlardan Xiyor, Salamiya, Ho'ms, Damashq, Sur, Akko, Tabariya, Qaysariya. Arsuf, Bayt ul-muqaddas, Ramla, Asqalon, G'azza, Madyan, Al-Qulzum bor. So'ngra Quyi Misrni kesadi. Unda Al-Faramo, Tinnis, Damiyot, Fustot, Misr Fayumi, Iskandariya bor. Keyin Barqa o'lkasiga[7], undan so'ng Ifriqiya o'lkasiga o'tadi. U yerda Qayruvon shahri bor. Iqlim G'arb dengizida tugaydi.

**To'rtinchi iqlim.** U sharqdan boshlanib, Tibet o'lkasi orqali Xurosonga boradi. Unda shaharlardan Xo'jand, Usrushana, Farg'ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya[8], Marvarrud, Marv, Saraxs, Tus, Nishopur, Jurjon, Qumis, Tabariston, Damovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfahon shaharlari bor. So'ngra Shomning shimoliga o'tadi. Unda Valis, Manbij, Sumaysot, Malatiya, Zibatra, Halab, Qinnasrin, Antokiya, Tarablus, Al-Masisa, Saydo, Qora al-Kanisa, Adana, Tarsus, Amoriya va Loziqiya orollari orqali

[1] *Jarmi* – Habashistondagi hozirgi Jarmi shahri.
[2] *Dunqula* – hozirgi Sudandagi Dongola shahri.
[3] *G'arb dengizi* – Atlantika okeani.
[4] *Mansura, Nirun, Daybul* – hozirgi Pokistonning janubidagi shaharlar.
[5] *Ifriqiya mamlakati* – Tunis.
[6] *Iskandariya* – Makedoniyalik Iskandar tomonidan Sharqiy Eronda barpo qilingan qadimgi shahar.
[7] *Barqa o'lkasi* – Liviyaning shimolida O'rta dengizdagi qo'ltiq.
[8] *Amuya* – eski Chorjo'y.

@tarixchi_kitobxonlarga

o'tadi. Keyin Mag'rib zaminidan Tanja o'lkasiga[1] boradi va G'arb dengizida tugaydi.

**Beshinchi iqlim.** U sharqdan – Ya'juj mamlakatidan boshlanadi. So'ngra Xurosonning shimoliga o'tadi. Unda quyidagi shaharlar bor: Taroz, uni Savdogarlar shahri ham deyishadi, Navokat, Xorazm, Isfijob, Shosh, Turarband, Ozarbayjon, Armaniya viloyati, Bardaa, Nashavo[2], Sisjon, Arzon, Xidot, Rum mamlakatlaridan Xarshana, Karra, Buyuk Rum[3] shaharlariga o'tadi. So'ngra Shom dengizi sohili bo'ylab shimolgacha boradi. So'ng Andalus mamlakatidan[4] o'tib, G'arb dengizida tugaydi.

**Oltinchi iqlim.** U sharqdan boshlab Ya'juj mamlakatidan o'tadi, so'ngra Xazar mamlakatiga boradi, Jurjon dengizi o'rtasini kesib, Rum mamlakatiga boradi. So'ng Jurzon[5], Amasiya, Hiraqla[6], Xalqidun, Qustantaniyadan[7] o'tib, Burjon o'lkasi[8] orqali G'arb dengizida tugaydi.

**Yettinchi iqlim.** U sharqda Ya'juj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so'ngra Turklar mamlakatidan o'tadi, keyin Jurjon dengizi sohili orqali Rum dengizini[9] kesadi. Burjon va Saqoliblar[10] mamlakatlaridan o'tib, G'arb dengizida tugaydi.

Ammo bu iqlimlarning orqasida, bizga ma'lum barcha aholi yashaydigan joylardan keyin nimalar kelishini bilmoqchi bo'lsak, u sharqda Ya'juj mamlakatidan boshlanadi. So'ng To'g'uzg'uz va Turklar yerlaridan o'tadi, keyin Adlonlar yurtiga boradi. Tatar, Burjon va Saqolibdan o'tib, G'arb dengizida tugaydi.

## IBN XURDODBEH VA UNING «KITOB AL-MASOLIK VA-L-MAMOLIK» ASARI

Abulqosim Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Xurdodbehning nomi fanda o'rta asrlardan beri mashhur. Uning asaridan ko'pchilik hanuzgacha foydalanib kelmoqda va nomi tadqiqotlarda qayd etilgan[11]. Xususan, gollandiyalik arabshunos De Gue uning hayoti va ijodini ancha chuqur o'rganganlardan sanaladi.

[1] *Tanja o'lkasi* – Marokashning Gibraltar bo'g'oziga tutashgan qismi.
[2] *Nashavo* – Naxchivon.
[3] *Buyuk Rum* – Rim.
[4] *Andalus mamlakati* – Ispaniya.
[5] *Jurzon* – Gurjiston.
[6] *Xirqla* – Gerakleya, hozir Turkiyadagi Eregli.
[7] *Qustantaniya* – Konstantinopol (hozirgi Istanbul).
[8] *Burjon o'lkasi* – Bolgariya.
[9] *Rum dengizi* – Qora dengiz.
[10] *Saqoliblar* – slavyanlar.
[11] Bu haqda qarang: *Велиханова. Введение. С.8.*

@tarixchi_kutubxonasiga

Ibn Xurdodbeh haqida birinchi yozgan muallif Ibn an-Nadim o'zining «Kitob al-fihrist» asarida olimning bobosi Xurdodbeh yirik zodagon bo'lib, avvaliga majusiylik diniga e'tiqod qilgani, so'ngra Barmakiy vazirlarning biri ta'sirida islomga kirgani, o'g'li Abdulloh, ya'ni muallifning otasi ham yirik lavozimda xizmat qilgani, jasoratli kishi sifatida tanilganini yozadi. U hijriy 201–203 (816–819)-yillar Tabaristonning hokimi vazifasida xizmat qilgan va Daylamga qarashli Lariz va Shirriz nohiyalarini fath etib, «islom yerlariga qo'shgan». Yana u Tabaristonning tog'li yerlarini fath etib, u yerdan xalifalikka qarshi chiqqan. Abdulloh ibn Xurdodbeh o'z zamonining ancha bilimli kishilaridan va musiqaga ham mayli kuchli bo'lgan. Shuning uchun ham u o'g'li Ubaydullohga yaxshi bilim bergan va unda musiqaga ham katta qiziqish va muhabbat uyg'otgan.

Ibn Xurdodbehning tug'ilgan yili aniq ma'lum emas. Fransuz tadqiqotchisi Barbe de Meynarning taxminiga ko'ra, u hijriy III asrning boshida (taxm. 820-y.) tug'ilgan. Hozir sharqshunoslar orasida shu fikr ma'qul topilgan.

Turk biobibliografi Hoji Xalifa olimning Al-Xurosoniy nisbasini ham keltiradi[1]. Shunga ko'ra, uni asli Xurosondan deyish mumkin. Mag'riblik tarixchi Abdulvohid al-Marokashiy uning fors bo'lganini ta'kidlaydi[2].

Ibn Xurdodbeh oilaviy an'anaga ko'ra tabiiyki o'z vaqtida keng va ancha chuqur bilim oladi va keyinchalik, otasining yuqori mansab egasi bo'lgani hamda xalifa saroyiga yaqinligi tufayli, G'arbiy Erondagi Jibol viloyatida sohib al-barid va-l-xabar, ya'ni pochta va xabar boshlig'i mansabiga tayinlanadi. Ana shu kasbi taqozosi bilan u keyinroq «Kitob al masolik val-mamolik» asarini yozishga muvaffaq bo'ladi.

Mazkur asar hisobot-axborotnoma tarzida yozilganga o'xshaydi. A.Mesning Qudama ibn Ja'farga (X asr boshi) tayanib yozishi bo'yicha har bir sohib al-barid soliq yig'uvchilar, dehqonchilik ishlari, fuqaroning ahvoli, mansabdor qozi va hakamlarning hayoti va dor ul-zarbning faoliyati haqida batafsil xabar qilishi, o'ziga qarashli hududdagi choparlarning faoliyati to'g'risida daftar yuritishi lozim bo'lgan; choparlarning soni, nomlari, maoshi, yo'llar, aholi maskanlari orasidagi masofalarning milda qayd etilgan uzunligi, bekatlar haqidagi hamma ma'lumotlarni hisobotga kiritgan[3].

Ibn Xurdodbehning Jiboldagi xizmat muddati aniq emas. Lekin u sohib devon al-barid mansabiga xalifa Al-Vosiq (842–847) hukmronligi chog'ida, ya'ni IX asrning 40-yillarida ko'tarilgan ko'rinadi. Chunki xalifa Al-Vosiq davridan boshlab to xalifa Al-Mu'tadid (870–892) hokimiyatining deyar-

[1] *Hoji Xalifa. Kashf az-zunun.* 423-b.
[2] Крачковский. Арабская географическая литература. С.346.
[3] Мец. Мусульманский Ренессанс. С. 72-73.

@tarixchi_kutubxonasiga

li oxirigacha Ibn Xurdodbeh xalifa saroyida xizmat qilgani, hatto vazirlik mansabiga ham ko'tarilgani to'g'risida yozma ma'lumot bor[1].

Ibn Xurdodbeh uzoq umr ko'rdi, u hijriy 300 (912)-yili vafot etgan.

Uning qalamiga quyidagi asarlar mansub deb hisoblanadi:

1. «Kitob al-adab as-samoiy» («Musiqa tinglash odobi kitobi»);
2. «Kitob al-jamharat ansab al-fors va an-navoqil» («Forslarning nasablari to'plami va ularning ko'chgan yerlari kitobi»);
3. «Kitob al-masolik va-l-mamolik» («Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob»);
4. «Kitob at-tabx» («Taom tayyorlash kitobi»);
5. «Kitob al-lahv va-l-malah» («Xursandchilik va maishat haqida kitob»);
6. «Kitob ash-shurb» («Sharob ichish haqida kitob»).
7. «Kitob al-anvo» («Ob-havo haqida kitob»);
8. «Kitob an-nudama va-l-julasa» («Hamsuhbatlar va ulfatlar haqida kitob»);

Quyida Ibn Xurdodbehning «Kitob al-masolik va-l-mamolik» asaridan Nailya Velixanova nashri bo'yicha parchalar ruschadan o'zbek tiliga o'girib berildi (tarjimon A.Ahmedov).

**A.Ahmedov**

## IBN XURDODBEH. «KITOB AL-MASOLIK VA-L-MAMOLIK»DAN

### 1. Har bir mamlakat aholisining qiblasi

...Butun Xuroson, xazarlar mamlakatining qiblasi Ka'baning devoriga, aniqrog'i, darvozasi turgan tarafga yo'nalgan. Bu yerlar Shimoliy qutbdan chaproqda Mashriqning o'rtasigacha [oraliqda] joylashgan.

Tubbat (Tibet), turklar mamlakati, Sin va Al-Mansuraga kelsak, ular mashriq o'rtasining narigi tarafida sakkiz qismda joylashgan, ularning qiblasi «qora tosh»[2] yaqinida...

### (15) 9. Yerning podshohlari qadimgi zamonlarda va ularning mulklari

Afridun Yerni uch o'g'li o'rtasida bo'lashdi[3]. Mag'ribni u Salamga, bu Sharam, mulk qilib berdi. Rum va Sug'dning podshohlari uning avlodlari. Mashriqni, shuning o'zi Tuj, mulk qilib berdi. Turk va Sinning podshohlari uning avlodlari. Eron shahrni, bu Iroqning o'zi, u Eronga, ya'ni Irajga mulk qilib berdi...

[1] Велиханова. Введение. С.12-13.

[2] Ka'ba devoriga o'rnatilgan tosh nazarda tutilgan.

[3] Bu yerda muallif yerning podshohliklarga taqsimlanishini qadimgi Eron an'anasi bo'yicha keltirgan. Bu xususda Beruniy ham to'xtalgan (Beruniy. Qadimgi xalqlar. 130-b.).

@tarixchi_kutubxonasiga

### (16) 10. Yer podshohlarining unvonlari

Iroqning podshohlarini oddiy xalq *qisra* deydi, unvonlari *shahanshoh*[1]. Rum podshohlarini oddiy xalq *qaysar* deydi, – aslida *basil*. Turklarning, tibetlarning, xazarlarning hammalarining podshohlari – *xoqon*lar, faqat tarluqlarning podshohlari *jabguya* deb ataladi...

### (17) 11. Ardasher[2] shoh deb atagan podshohlar

Buzurg Kushonshoh[3], Sijistonshoh, Marvshoh, Karmanshoh, Mushkizdanshoh (Xurosonda),... Turonshoh[4] (turklar mamlakatida), Kobulshoh...

### 12. Mashriq haqida ma'lumotlar

Mashriqdan boshlaymiz. Bu ma'mur yerlarning sharqiy choragidir. Xurosonning tavsifidan boshlaymiz, u o'zining ispahbadi – Bazusbon va to'rt marzbonning hukmi ostida edi. Har bir marzbonga Xurosonning to'rtdan biri qaram edi: to'rtdan biri Marv ash-Shohijon va uning atroflarining marzboniga, to'rtdan biri – Balx va Toharistonning marzboniga, to'rtdan biri – Hirot, Bushanj, Badg'is va Seistonning marzboniga... va to'rtdan biri – Movarounnahrning marzboniga qaram edi[5].

### 13. Madinat us-salomdan[6] Xurosonning eng uzoq chegaralarigacha yo'l

Bag'doddan Nahravongacha 4 farsax,[7] keyin Dayr Bazmgacha 4 farsax, Daskaragacha 8 farsax, Jalulagacha 7 farsax ... (19) So'ngra Xonikingacha 7 farsax, Qasri Shiringacha 6 farsax ...

### (21) 15. Hamadondan Qazvinga[cha yo'l]

Hamadondan Harrakon rustoqi orqali Qazvingacha 40 farsax: Hamadondan Darnavagacha 5 farsax, keyin Buzanjirdgacha 5 farsax, Zarahgacha 4 farsax, Tazragacha 4 farsax, (22) Mavirgacha 4 farsax, Bustah va Ruzahga-

[1] Aslida, bu Iroqning emas, Eronning Sosoniy shohlarining unvonlaridir. Beruniy bu unvonlarning biroz farqli shaklini keltiradi (*Beruniy. Qadimgi xalqlar*. 129-b.).

[2] Sosoniylar sulolasining asoschisi Ardasher Popakon (226–241) nazarda tutiladi.

[3] Bu atama Markaziy Osiyoda kushonlar hukm surgan davr I–IV asrlarga xos.

[4] Bu atama turklar mamlakati Turon deb atalganligini isbotlovchi *ilk* hujjatdir va *u* Firdavsiy «Shohnoma»sidagi ma'lumotdan kamida qariyb bir yarim asr ilgari qayd etilgan.

[5] Xurosonni to'rt qismga bo'lib, bu qismlarga Seiston va Movarounnahrni qo'shish bu yerlarda arablar hukmronligining ilk davriga, ya'ni VIII asr boshlariga xos edi. Chunki bu davrda Movarounnahr va Seiston xalifaning Marvda turgan noibi tomonidan boshqarilgan. VIII asr o'rtalariga kelib, ikkala mulk ham mustaqil noib (yoki omil) tomonidan boshqarilgan.

[6] *Madinat us-salom* – Bag'dodning epiteti.

[7] *Bir farsax (yoki farsang, ya'ni «shohiy tosh»)* – taxm. 6 km (Хинц. Мусульманские меры, с.72).

@tarixchi_kutubxonasiga

cha 3 farsax, Dovudobodgacha 4 farsax. Susanqingacha 3 farsax, Daruzgacha 4 farsax, Sovagacha 4 farsax, Mashkuyagacha 9 farsax, Qustanagacha 8 farsax, Raygacha 7 farsax. Jami Bag'doddan Raygacha 167 farsax.

Raydan boy [shahar] Qazvingacha 27 farsax, Qazvindan Abhargacha 12 farsax, Abhardan Zanjongacha 15 farsax.

Raydan Mufazzalobodgacha 4 farsax, keyin Kasibgacha 6 farsax, Afrizingacha 8 farsax, Xuvargacha 6 farsax, Qasr al-Malxgacha 7 farsax, Ra's al-Qalbgacha (23) 7 farsax, Simnongacha 8 farsax, Ahringacha 9 farsax, Qumisgacha 8 farsax. Raydan shu yergacha hammasi 63 farsax.

Keyin Al-Haddodgacha 7 farsax, Bazashgacha 7 farsax, Maymadgacha 12 farsax, Haftkandgacha 7 farsax, Asadobodgacha 7 farsax, Bahmanobodgacha 6 farsax, Nukagacha 6 farsax, Xusravjirdgacha 6 farsax, Husaynobodgacha 6 farsax, Sankardargacha 5 farsax, Biskandgacha 5 farsax, Nishopurgacha 5 farsax; Nishopurda qal'a bor. Bag'doddan Nishopurgacha (24) 305 farsax Nishopurga qaram shaharlar: Zam, Boxarz, Juvayn, Bayhaq.

So'ngra Bag'isgacha 4 farsax, Hamrogacha 6 farsax, Tusdagi Al-Musoqqabgacha 5 farsax, Nuqongacha 5 farsax, Mazdurongacha 6 farsax, Obkinagacha 8 farsax, Saraxsgacha 6 farsax. Buning hammasi 345 farsax. Keyin Qasr an-Najrgacha 3 farsax, Ushturmakakgacha 5 farsax, Tilstonagacha 6 farsax, Dandanakongacha 6 farsax, Yanujirdgacha 5 farsax, Marv ash-Shohijongacha[1] 5 farsax. Jami 375 farsax (25). Marvda qal'a bor...

Marvdan ikki yo'l ketadi: biri – Shosh[2] va turklar mamlakatiga,[3] ikkinchisi – Balx va Toharistonga[4].

Shosh va turklar mamlakatiga olib boradigan yo'lga kelsak, Marvdan Kushmayhangacha[5] 5 farsax, keyin Ad-Divobgacha[6] 6 farsax,

---

[1] *Marv ash-shohijon* – Marvning o'zi, uning xarobalari hozir Turkmanistonda Bayram Ali yaqinida yotadi.

[2] *Shosh* – Toshkentning eski nomi Chochning arab tiliga moslashtirilgan shakli. X asrning ikkinchi yarmidan boshlab Toshkent deb atalgan. Lekin Ptolemey «Geografiya»sida bu shaharning «Lisinos purgos» («Tosh qal'a») deb atalganligi «Toshkent» nomi Ptolemey davrida ham bo'lganligini ko'rsatadi.

[3] Ibn Xurdodbeh «Shosh va turklar mamlakati» deb Toshkent va undan sharqdagi yerlarni ataydi.

[4] *Tohariston* – mil.avv. II asr oxiri va I asrda Amudaryoning o'rta va yuqori oqimidagi ulkan hudud, Badaxshonni ham o'z ichiga olgan; ilk o'rta asrlarda shu daryoning o'rta oqimidagi qisman o'ng sohilidagi va ko'proq chap sohilidagi yerlar. Lekin muallif bu tushunchaga hozirgi Afg'onistonning deyarli hammasini kiritgan. Bu esa toharlarning yuksak quvvatga erishgan davri – mil.avv. II asr o'rtalariga to'g'ri keladi.

[5] *Kushmayxon* – Marvdan Omulga (Chorjo'yga) olib boruvchi yo'ldagi qishloq.

[6] *Ad-Divob* (yoki Ad-Divon) – mazkur yo'ldagi qishloq, uning o'z «Dor al-barida», ya'ni yozishmalar mahkamasi bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Al-Mansafgacha[1] 6 farsax. Al-Axsogacha 8 farsax, Bir Usmongacha 3 farsax, Omulgacha 8 farsax Marvdan Omulgacha jami 36 farsax[2].

Omuldan Balx daryosi[3] bo'yigacha 1 farsax, Firabrdagi[4] kechikkacha 1 farsax, keyin Hisn Umm Ja'fargacha[5] sahro bo'ylab 6 farsax, u yerdan Poykandgacha[6] 6 farsax, keyin Buxoro devorining darvozasigacha 2 farsax, Mastingacha 1,5 farsax, Buxorogacha 1,5 farsax. Omuldan Buxorogacha jami – 19 farsax[7] Buxoroda qal'a bor. Buxoro atrofidagi shaharlardan: Karminiya[8], Tavovis[9], Bumijkas[10], Vardona[11], Poykand – savdogarlar shahri va Firabr.

Buxorodan Sharg'gacha[12] 4 farsax, Tavovisgacha 3 (26) farsax, Kukshibag'ongacha[13] 6 farsax. Shu yerdan janubroqda As-Sin tog'lari joylashgan. Kukshibag'ondan Karminiyagacha 4 farsax, keyin Dabusiyagacha 5 farsax, Arbinjongacha 5 farsax, Zarmongacha 5 farsax, Qasri Alqamgacha 5 farsax, Samarqandgacha 2 farsax. Buxorodan Samarqandgacha jami 39 farsax.

Samarqandda qal'a bor. Uning atrofidagi shaharlar: Dabusiya,[14] Arbinjon[15], Kushoniya[16], Ishtixon, Kashsh[17], Nasaf va Xo'janda.

---

[1] *Al-Mansaf* – bu ham o'sha yo'ldagi qishloq, uning ham yozishmalar mahkamasi bo'lgan.

[2] *Omul* – hozirgi Turkmanobod eski Chorjo'y, bu yerda ko'rsatilgan farsaxlarni kilometrga aylantirsak, Marv bilan Omul orasidagi masofa 36×6=216 km bo'ladi. Bayram Ali (Marv) bilan Chorjo'y orasi hozirgi o'lchovlarga ko'ra 210 km ni tashkil qiladi.

[3] *Balx* – Amudaryo.

[4] *Firabr* – hozirgi Forob.

[5] *Hisn Umm Ja'far* – Forob bilan Poykand orasidagi yo'lning yarmidagi qasr.

[6] *Poykand* – Buxorodan g'arbroqdagi savdogarlar shahri, uning xarobalari hozir Yangitut temiryo'l bekati yaqinidadir.

[7] Agar bu farsaxlarni kilometrlarga aylantirsak, Omul bilan Buxoro orasidagi masofa 19×6=114 km bo'ladi. Aslida Chorjo'y bilan Buxoro orasidagi masofa hozirgi o'lchamlarga ko'ra 112 km ni tashkil qiladi.

[8] *Karminiya* – hozirgi Karmana.

[9] *Tavovis* – Buxorodan 7 farsax g'arbroqdagi katta qishloq, unda yilda bir marta katta bozor bo'lgan, xarobalari hozirgi Shahrivayron qishlog'ida.

[10] *Bumijkas* – Buxoro yaqinidagi qishloq, shahardan 4 farsax masofada joylashgan.

[11] *Vardona* – qadimgi qal'a, qal'asining xarobalari hozir Vardanze qishlog'ida joylashgan.

[12] *Sharg'* – asli Charg'ning arabiylashgani. U hozir Buxoroga suv keltirayotgan kanalning boshlanish joyida bo'lgan.

[13] *Kukshibag'on* – Tavovisdan 3 farsax masofadagi qishloq.

[14] *Dabusiya* – Buxorodan Samarqandga olib boruvchi yo'ldagi kichik shahar, Zarafshon daryosidan janubroqda joylashgan. Hozir uning xarobalari Qal'ai Dabus deb ataladi va u Ziyovuddin mavzeyiga yaqin joylashgan.

[15] *Arbinjon* – ba'zi manbalarda Rabi'njon, 1158-yili Xorazmshoh El Arslon tomonidan vayron qilingan, Kattaqo'rg'ondan g'arbroqda, Zirabuloq tepaliklari yaqinida joylashgan.

[16] *Kushoniya* – kushonlar davridan qolgan shahar, balki ularning poytaxti vazifasini o'tagan; Istaxri, Al-Muqaddasi va Yoqut Hamaviy u o'tmishda qudratli shahar bo'lganini e'tirof etganlar. Arxeologik qazishmalarga ko'ra, u Oqdaryo bilan Qoradaryo qo'shilgan joydan 12–15 km sharqroqda bo'lgan. Hozir unga Kattaqo'rg'on yaqinidagi Koshokota mos keladi.

[17] *Kashsh-Kiss-Kesh* – hozirgi Shahrisabz.

@tarixchi_kitoblar_olamiga

Samarqanddan Barkatgacha[1] 4 farsax, keyin sahro bo'ylab Xushufakangacha[2] 4 farsax, keyin Burnamazgacha[3] 5 farsax, Zomingacha (27) sahro bo'ylab 4 farsax. Zomin – ikkita yo'l kesishadigan joydir: [biri] Shosh va turklarga va [ikkinchisi] Farg'onagacha[4].

Shoshga yo'l: Zomindan Xovosgacha cho'l bo'ylab 7 farsax, keyin Shosh daryosining[5] bo'yigacha 9 farsax. So'ngra ko'prikdan Banokatga[6] o'tiladi, undan Turklar daryosigacha[7] 4 farsax, keyin Shuturkatda[8] Turklar daryosidan o'tiladi, Banunkatgacha[9] 3 farsax yuriladi, keyin Shoshgacha 2 farsax. Jami Samarqanddan Shoshgacha 42 farsax[10].

Shoshdan Iloqdagi[11] kumush koni va Balankanakkacha[12] 7 farsax, Shoshdan Temir darvozagacha[13] 2 mil; Shoshdan Qubalgacha[14] 2 farsax, keyin Garkardgacha[15] 6 farsax, keyin sahro orqali Isfijobgacha[16] 4 farsax, Shoshdan Isfijobgacha hammasi bo'lib 13 farsax.

---

[1] *Barkat* – As-Sam'oniy uni avval Usrushonaga tegishli bo'lgan va keyinchalik Samarqand tarkibiga kirgan qishloq sifatida eslaydi. Hozir uning o'rnida Oqtepa qishlog'i joylashgan.

[2] *Xushufakan yoki Xushufagn* – As-Sam'oniy uni Ishtixon bilan Kushoniya orasida, ya'ni g'arbda Samarqanddan 10 farsax masofadagi qishloq degan. Lekin bizning muallifda u Samarqanddan sharqda, Zomin tarafida «sahro bo'ylab», ya'ni Bulung'ur cho'llari orqali 8 farsax masofada ko'rsatilgan.

[3] *Burnamaz* – As-Sam'oniy uni Samarqanddan 2 farsax masofada sharqiy yo'nalishdagi qishloq deb ko'rsatgan. Bizning muallifda bu masofa 13 farsaxni tashkil qiladi va taxminan G'allaorol – Baxmal oralig'iga to'g'ri keladi.

[4] Haqiqatan hozirgi kunda ham Samarqanddan keladigan yo'l Zominda ikkiga ajraladi: biri shimoli-sharqqa – Toshkentga olib boradi, ikkinchisi – janubi-sharqqa – Farg'onaga olib boradi.

[5] *Shosh daryosi* – Sirdaryo.

[6] *Banokat* – Ohangaron daryosining Sirdaryoga quyilish yeridagi o'rta asr shahri, mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan. Amir Temur uni qayta tiklagan va kichik o'g'lining nomi bilan Shohruxiya deb ataldi.

[7] *Turklar daryosi* – Chirchiq.

[8] *Shuturkat* – Shuturkas, Ushturkat, Ushturkas, Suturkat – Chirchiq bo'yidagi o'rta asr shahri, qal'asi, kanali, bozorlari bo'lgan, mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan, Eski Toshkentga yaqin joyda bo'lgan.

[9] *Banunkat* – Shuturkat bilan Shosh orasidagi qishloq, hozirgi Zangiotaga mos keladi.

[10] Bu farsaxlar 252 km ni tashkil qiladi. Lekin hozirgi Toshkent halqa yo'lidan Samarqanddagi Cho'ponotagacha masofa 280 km. Ibn Xurdodbeh keltirgan masofa Afrosiyob bilan Eski Toshkent oralig'iga mos keladi.

[11] Iloq deb bu yerda Ohangaron daryosi havzasidagi mulk (yoki amal) nazarda tutiladi. Uning markazi Tunkat shahri bo'lgan.

[12] *Balankanak* – o'rta asrlarda Balayon deb ham atalgan va Tunkatdan 5 farsax masofada joylashgan.

[13] Temir darvoza – Shoshdan shimolroqdagi tog' darasi.

[14] *Qubal* – boshqa manbalarda Kadak, Katek, Kandak shakllarida ham yozilgan. Odatda, uni Shoshdan 2 farsax masofadagi Jabg'ukatga mos keltiriladi.

[15] *Garkard* – Keles daryosining yuqori oqimida bo'lgan, hozirgi Duvon xarobasiga mos keladi.

[16] *Isfijob (yoki Isbijob)* – Qozog'istonning Chimkent viloyatidagi hozirgi Sayram.

@tarixni_kutubxonasiga

(28) So'ngra Sharobgacha[1] 4 farsax, Buduxkatgacha[2] 5 farsax, Tamtajgacha[3] 4 farsax, Abarjajgacha[4] 4 farsax, daryodagi bekatgacha 6 farsax. Abarjaj yaqinida bir tepalik bor, undan mingta buloq chiqadi va ular daryo bo'lib sharqqa oqadi. Uni Barkuob[5], ya'ni teskari oquvchi suv deb ataydilar. Shu yerda qora qirg'ovulga ov qiladilar. Daryodan kechish joyidan Juvikatgacha[6] 5 farsax yuriladi va Torozgacha[7] 3 farsax Isfijobdan Torozgacha jami 26 farsax.

So'ngra Qavikatgacha[8] 7 farsax, u yerdan kimoklar podshohining qarorgohigacha[9] 80 kunlik yo'l, bu esa ko'p ovqat g'amlanishini talab qiladi.

Torozdan Quyi No'shajongacha[10] 3 farsax, keyin Qasri Basgacha[11] 2 farsax. Bu issiq joy, bu yerda qarluqlar[12] qishlaydilar, ularning yaqinida xalajlarning[13] qishloqlari bor. Keyin Kul Shubgacha[14] 4 farsax, Jul Shubgacha[15] 4 farsax, bosh qishloq Qulongacha[16] 4 farsax (29), katta bir qishloq Birkigacha[17] 4 farsax. Asbaragacha[18] 4 farsax, katta qishloq Nuzkatgacha[19] 8 farsax,

---

[1] *Sharob* (yoki Shavob) – Yettisuvda Oqsoy bo'yidagi hozirgi Qabalbuloq manzili.

[2] *Buduxkat* (yoki Buzaxkas) – bir necha quduqlari bo'lgan qishloq, Sayramdan 60 km shimoli-sharqdagi Qazatliq manzili o'rnida bo'lgan.

[3] *Tamtaj* (yoki Tamtax) – cho'ldagi shahar, quduqlari ko'p bo'lgan, u hozir Aris daryosi bo'yidagi Tulkibosh xarobalariga mos keladi.

[4] *Abarjaj* (Barjaj, Barjah) – o'rta asrlardagi manzil, hozirgi Mingbuloq (Chaqloq) mavzesi.

[5] *Barkuob* – hozirgi Ters (ya'ni «teskari») daryosi.

[6] *Juvikat* – Yettisuvni arxeologik tadqiqotlarining hujjatlariga ko'ra, Ass suvi bo'yidagi Bektoba xarobalari shu shaharga mos keladi.

[7] *Toroz* – hozir Qozog'iston janubida shu nomli shahar.

[8] *Qavikat* – Yettisuvdagi o'rta asr shahri, kimoklar makoniga olib boruvchi yo'lda bo'lgan.

[9] Kimoklar ilk o'rta asrlarda ulkan maydonda – G'arbiy Sibirdan to Ural-Volga oraliqlarigacha hududda tarqalgan. Bu yozilgan manbalar bilan ham bu yerlarning toponimikasi va gidronimikasi bilan ham tasdiqlanadi. Kimoklar podshohining qarorgohi Irtish daryosining quyi oqimida bo'lgan.

[10] *Quyi No'shajon* –Toroz yaqinida bo'lgan.

[11] *Qasri Bas* – Chu daryosi vodiysini tadqiq qilgan A.N. Bernshtam uni Suyug'uti soyi va atrofi deb hisoblagan.

[12] Qarluq turklarining asosiy qismi o'zbek millatining tarkibiga kirgan.

[13] Xalaj turklari XI–XII asrlarda G'arbiy Hindistonga ko'chgan va pushtular bilan assimilatsiyaga kirgan. Hozir afg'onlarning gilzay qabilasi qadimda xalaj turklari bo'lgan deb hisoblanadi.

[14] A.N. Bernshtam Kul Shubni Yettisuvdagi Qayindiga mos keltiradi.

[15] Jul Shub aslida Jul Shubning o'zi deb hisoblanadi (Караев. Арабские источники. С.71-72).

[16] *Qulon* – hozir Yettisuvda, Lugovoye bekati yaqinida, shu nomli kent.

[17] *Birki* – hozirgi Merki shahri.

[18] *Asbara* – hozirgi Aspara shahri.

[19] *Nuzkat* – hozir uning xarobalari Qorabolat yaqinidagi Shishtepa mavzesida saqlangan.

@tarixchi_kutubxonasiga

katta qishloq Xaranjavangacha[1] 4 farsax, Julgacha[2] 4 farsax, katta qishloq Sarig'gacha[3] 7 farsax, keyin turkashlar xoqonining poytaxtigacha[4] 4 farsax, Navkatgacha[5] 4 farsax, Qubalgacha[6] 3 farsax, so'ng Yuqori No'shajongacha[7], ya'ni Xitoyning chegarasi o'tadigan joygacha, o'tloq yerlar bilan 15 kunlik karvon yo'li. Turklarning xat tashuvchi choparlari bu masofani uch kunda o'tadi.

### 16. Zomindan Farg'onagacha[8] yo'l

Zomindan Sabatgacha[9] 2 farsax, keyin Usrushonagacha[10] 7 farsax; shundan 2 farsax tekis yo'ldan va 5 farsax daryo oqimiga qarshi, bu daryo shahar tarafidan oqib keladi. Samarqanddan Usrushonagacha hammasi bo'lib 26 farsax.

Sabatdan G'alukgacha[11] 6 farsax, keyin Xo'jandgacha 4 farsax (30), Samg'argacha[12] 5 farsax, Xajistongacha[13] 4 farsax, Turmukangacha[14] 7 farsax, Top shahrigacha 3 farsax va Farg'onagacha 4 farsax. Samarqanddan Farg'onagacha hammasi bo'lib 53 farsax. Har bir uydan odamlarni ko'chirib, uni Anushirvon barpo qilgan. U uni «Az har xona», ya'ni «har bir uydan» deb atagan[15].

---

[1] *Xaranjavan* – ba'zi manbalarda Xarran ham deyilgan. A.N. Bernshtam uni Oqsuv daryosining o'ng sohilidagi Chaldivor (Oqtepa) xarobalari deb hisoblaydi.

[2] *Jul* – A.N. Bernshtam uni Bishkekdan 8 km g'arbdagi Cho'la Qozoq xarobalari bilan mos keltiradi.

[3] *Sarig'* – A.N. Bernshtamning fikriga ko'ra, bu qishloq Bishkekdan 32 km sharqdagi Qizilsuv xarobalariga mos keladi.

[4] A.N. Bernshtam turkashlar hoqonining poytaxtini Burani xarobalariga mos keltiradi.

[5] *Navkat* – ko'p arab geograflari eslatgan. Movarounnahrning sharqidagi yirik shahar. A.N. Bernshtamning tadqiqotlariga ko'ra, uning o'rni Orlovka qishlog'i yaqinidagi xarobalarda bo'lgan.

[6] Yuqorida eslatilgan Kubaldan o'zining o'rnashgan joyi bilan farq qiladi. A.N. Bernshtamning arxeologik tadqiqotlariga ko'ra, bu shahar Novorossiyskoye qishlog'i yaqinidagi xarobalar o'rnida bo'lgan.

[7] *Yuqori No'shajon* – muallifning so'zlariga ko'ra, bu shahar Sharqiy Turkistonning markaziy qismida bo'lgan.

[8] *Farg'ona* – umuman, vodiyning tarixiy nomi. Lekin turli davrlarda poytaxt vazifasini o'tagan Koson, Axsikat va Quva ham shu nom bilan atalgan.

[9] *Sabat* – katta qishloq bo'lgan, hozirgi Eski Savat mavzesiga mos keladi.

[10] *Usrushona* – manbalarda Sutrushona, Ustrushona, Shutrushona, Сурушона – arab istilosi davridagi mustaqil o'lka. Uning poytaxti Panjikent ham shu nom bilan atalgan.

[11] *G'aluk* – hozir ham shu nomli kent, Eski Savat bilan Xo'jand oralig'ida.

[12] *Samg'ar* – hozir ham shu nomli kent.

[13] *Xajiston* (yoki Jajiston) – Shosh bilan Farg'ona orasidagi chegaraviy kent.

[14] *Turmukan* – vodiydagi kent, Sirdaryo bo'yida joylashgan.

[15] Bu yerda keltirilgan «dalil» somoniylar davrida yuzaga kelgan afsona bo'lsa kerak, chunki birinchidan, Xusrav Anushirvon hech qachon Farg'ona vodiysida bo'lmagan va hatto

@tarixchi_kutubxonasiga

So'ngra Quba[1] shahrigacha 10 farsax, keyin O'sh[2] shahrigacha 10 farsax, O'zgandgacha[3], bu Xurteginning shahri, 7 farsax, keyin dovongacha[4] bir kunlik yo'l, keyin Otboshigacha[5] bir kunlik yo'l, Yuqori No'shajonga 6 kunlik yo'l, bu yo'lda hech qanday maskan uchramaydi. Otboshi – Tubbat va Farg'ona orasida joylashgan tog' tepasidagi shahar; Yuqori No'shajon va Tubbat – Mashriqning o'rtasi.

Yuqori No'shajondan to'g'uzg'uzlar xoqonining poytaxtigacha (31) uch oylik yo'l, serhosil yerli katta qishloqlardan o'tadi. Ularning aholisi turklar. Bular orasida o'tga topinuvchi majusiylar, xudosiz zindiqlar ham bor. Podshoh 12 temir darvozali ulkan shaharda turadi. Bu shahar aholisi zindiqlardir. Ulardan chaproqda, (shimolroq)da, kimoklar joylashgan. Bularning qarshisida (ya'ni janubroqda) Xitoy turadi.

To'g'uzg'uzlarning podshohi oltin chodirda turadi, bu uning qasridan yuqoriroqda, unga yuz kishi joylasha oladi va u 5 farsax masofada ko'rinadi. Kimoklarning podshohi o'z o'tovlaridan o'tloqlarni kuzatib turadi. Toroz bilan to'g'uzg'uzlarning maskanlari oralig'i sahro orqali 81 kunlik yo'l.

To'g'uzg'uz turklarining mamlakati turklar mamlakatlarining ichida eng kattasidir. Ular Xitoy, Tubbat va qarluqlar bilan chegaradosh. Keyin kimoklar, g'uzlar, chigillar, turkashlar, azkishilar, qipchoqlar, qirg'izlardir; ularda mushk bor, qarluqlar va daryoning u tarafidagi xalajlar keladi[6].

---

Amudaryoning chap sohiliga, eftalitlar va turklar sababli, yaqin kelolgan ham emas va daryoning o'ng sohilidagi yerlarga ta'sirini o'tkaza olmagan; ikkinchidan, «az har xona» iborasi forsiy – dariyda (yangi forschada), ya'ni VIII asr oxiri va IX asrda yuzaga kelgan tilda aytilgan, Xusrav Anushirvonning davrida, ya'ni VI asrda Eronda o'rta fors tili, Farg'onada sug'd tili tarqalgan va bu ikkala tilning hech birida «az har xona» jumlasi talaffuz qilinmagan.

[1] *Quba* – hozirgi Quva.

[2] *O'sh* – O'rta Osiyodagi qadimgi shahar, hozir ham shu nom bilan ataladi, 1998-yili uning 3000 yilligi nishonlandi.

[3] *O'zgand* (yoki O'zkand) – hozirgi O'zgan.

[4] Bu yerda Farg'ona bilan Sharqiy Turkiston orasidagi Yassi dovoni nazarda tutiladi.

[5] Qirg'izistonning janubi-sharqida Otboshi deb ataladigan mavze hozir ham bor. Lekin bu o'rta asrlardagi joy emas A.N. Bernshtamning tadqiqotlariga ko'ra, o'rta asrlardagi Otboshiga Qo'shuyqo'rg'on xarobalari mos keladi (Bernshtam. Ocherki. S. 100-103).

[6] Turkiy qavmlarning shunga o'xshash nomlarini boshqa mualliflar ham keltiradi. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, to'g'uzg'uzlar yashagan ulkan hududning markazi Turfon va Guchen atroflarida bo'lgan; arablar bu nomni keyinroq uyg'urlarga ham ko'chirganlar; kimoklar Irtishning o'rta oqimida yashagan; g'uz – o'g'uzlar quyi Volgadan to Xitoy chegarasigacha ulkan hududni egallaganlar, ularning markazi Sirdaryoning quyi oqimida bo'lgan; chigillar Issiqko'ldan shimol tarafda yashaganlar; turkashlar, ya'ni g'arbiy turklar Yettisuvda yashaganlar, ular xoqonining qarorgohi Chu daryosi vodiysida bo'lgan; azkishi yoki edkishilar Oltoy bilan Balxash oralig'ida va qisman O'zgand va Farg'onada yashaganlar; qipchoqlar avvaliga kimoklarga g'arb tarafdan qo'shni bo'lganlar, so'ngra yanada g'arbroqqa – Dashti Qipchoq, Sharqiy va Janubi–Sharqiy Yevropa hududlariga ko'chib, tarqalganlar, qirg'izlar (xirxizlar) yuqori Yeniseyda asl ohular tarqalgan yerlarda yashaganlar, so'ng janubga – Yettisuv, Sharqiy Turkiston va Shimoli–Sharqiy Farg'onaga siljiganlar;

@tarixchi_kutubxonasiga

Farob[1] shahriga kelsak, uning o'rdusi musulmon askarlar va qarluq turklaridan iborat. Turklarning shaharlari hammasi bo'lib 16 ta[2].

### (32) 17. Marv ash-Shohijondan Toharistongacha yo'l

Marvdan Fozgacha[3] 7 farsax, keyin Mahdiobodgacha[4] 6 farsax, Yahyoobodgacha[5] 7 farsax, Al-Qarinayngacha[6] 5 farsax, Asadobodgacha[7], Marvob daryosi bo'ylab 7 farsax, Havzongacha[8] daryo bo'ylab 6 farsax, Al-Ahnaf ibn Qays qasrigacha[9] daryo bo'ylab 4 farsax, Marvarrudgacha[10] 5 farsax, Araskangacha[11] 5 farsax, Al-Asrabgacha[12] 7 farsax, Ganjaobodgacha[13] 6 farsax, Talliqongacha[14] 6 farsax, Kisxobgacha[15] 5 farsax, Arg'ingacha[16] 5 farsax, Qasri Hutgacha[17] 5 farsax, Faryobgacha[18] 5 farsax, Ka'agacha[19] – Juzjon[20]

---

qarluqlar VIII asr o'rtalarida Chu daryosi vodiysida yashagan, so'ng ularning bir qismi g'uzlar va turkmanlar tarkibiga kirgan; xalajlar arab istilosigacha Seiston bilan Hindiston oralig'ini egallaganlar va Beruniyning xabariga ko'ra Kobul u payt xalaj turklarining poytaxti bo'lgan, keyin ular afg'onlar tarkibiga singib ketgan.

[1] *Farob* – hozirgi O'tror.

[2] Ibn Xurdodbeh «turklar shaharlari hammasi bo'lib 16 ta» deyish bilan ularning barchasining nomlarini eslatmaydi.

[3] *Foz* – Marv yaqinidagi qishloq.

[4] *Mahdiobod* – Marvdan janubroqdagi qishloq.

[5] *Yahyoobod* – karvonsaroyi va boshqa ma'muriy binolari bo'lgan bekat, Shoshning hokimi Yahyo ibn Asad ibn Abdulloh tomonidan barpo qilingan.

[6] *Al-Qarinayn* – ikkinchi nomi Barakdiz, hozirgi Imomobod qishlog'i o'rnida bo'lgan.

[7] *Asadobod* – xalifaning Xurosondagi omili Asad ibn Abdulloh (735–738) nomiga atalgan qishloq.

[8] *Havzon* – Marvarrud yaqinidagi qishloq.

[9] *Al-Ahnaf ibn Qays qasri* – arab lashkarboshisi Al-Ahnaf ibn Qays h.32/652–653-yili Sinvon qal'asini zabt etganidan so'ng u uning nomi bilan atalgan, hozirgi Qorovulxona qishlog'i yaqinidagi Ulug'tepaga mos keladi deb hisoblanadi.

[10] *Marvarrud* – hozirgi Afg'onistonning shimoli-g'arbidagi Bolo Murg'ob shahri.

[11] *Araskan* – Marvarrud yaqinidagi qishloq.

[12] *Al-Asrab* – tog'dagi kichik qishloq, uylarining bir qismi tog'da o'yilgan g'orlardan iborat bo'lgan.

[13] *Kanjaobod* – Talliqon yaqinidagi qishloq.

[14] Talliqon nomli shahar ilk o'rta asrlarda ikkita bo'lgan: biri – Kaspiy dengizidan janubda Daylamda, ikkinchisi – Xurosonda. Bu keyingisi hozir Afg'onistonning shimolidagi Tohar viloyatining markazi.

[15] *Kisxob* – Talliqon yaqinidagi tog' darasidagi katta qishloq.

[16] *Arg'in* (yoki Arg'un) – Marv vohasidagi aholisi zich qishloq.

[17] *Qasri Hut* – Guzgon yaqinidagi aholisi zich va yemagi mo'l qishloq.

[18] *Foryob* – Guzgon viloyatidagi shahar. Hozir Afg'onistonning shimoli-g'arbidagi shu nomli viloyat. Shahar o'rta asrlarda vayron bo'lgan, uning xarobalari hozir Davlatobod yaqinida.

[19] Al-Ka'a hozir saqlanmagan; o'rta asrlarda Shopurkon (Shibirg'on) daryosi bilan Shirin daryochasi orasidagi dasht va undagi karvonsaroy shu nom bilan atalgan.

[20] *Juzjon* – Xurosondagi Guzgon viloyati nomining arabcha o'qilishi, hozir Afg'onistonning shimoli-g'arbidagi viloyat.

@tarixchilikkutubxonasiga

viloyatidagi qishloq – 9 farsax, Shapurkongacha[1] 9 farsax, Sidragacha[2] ya'ni Balx yaqinidagi qishloqqacha 6 farsax, Dastgirdgacha[3] 5 farsax, G'o'rgacha[4] 4 farsax, Balxgacha 3 farsax. Marvdan Balxgacha hammasi bo'lib 125 farsax.

(33) So'ngra Siyohgirdgacha[5] 5 farsax, Jayhun – Balx daryosi qirg'og'igacha 7 farsax. Shu daryoning sohilidan o'ng tarafda Xulm[6] nohiyasi va Nahr Darg'om[7] joylashgan, sohildan chap tarafda – Marv va Xorazm. Buning poytaxti Fil[8], Balx daryosining ikkala qirg'og'ida joylashgan. Yana Omul, Zamm, Talliqon tog'lari, Faryob, An-Nahuz[9], Juzjon ham bor.

Va nihoyat, Balxning eng uzoq qishloqlari, Balx daryosidan Termizda o'tiladi. Daryoning suvlari uning devorini yuvib turadi, shaharning o'zi esa Sag'oniyon[10] yo'lida joylashgan.

Termizdan Sarminjongacha[11] 6 farsax, keyin Darzanjigacha[12] 6 farsax, Baranjigacha[13] 7 farsax, Sag'oniyongacha (34) 5 farsax, Bunzagacha[14] 6 farsax, Hamavarongacha[15] 7 farsax. Mana shu ikki manzil orasida daryoning vodiysi[16] bor, kengligi 3 yoki 2 farsax, balki bundan biroz kam yoki ortiq. So'ngra Obon-qasvongacha[17] 8 farsax, Shumongacha[18] 5 farsax, Vashgirdga-

---

[1] *Shopurkon* – hozir Afg'onistonning shimoli-g'arbidagi Shibirg'on viloyati va shahri.

[2] *Sidra* – Afg'onistonning shimoli-g'arbidagi hozirgi Aqcha shahri.

[3] *Dastgird* – bu nomli shaharlar bir nechta bo'lgan. Shulardan biri Balx yaqinida bo'lgan, shunisi nazarda tutilayotgan ko'rinadi.

[4] *G'o'r* – Balx yaqinidagi katta qishloq nazarda tutilayotir. Markaziy Afg'onistondagi G'o'r tog'li o'lkasi bundan mustasno.

[5] *Siyohgird* – Balx bilan Amudaryo orasidagi katta qishloq.

[6] *Xulm* – Afg'onistonning shimolidagi qadimgi shahar, xarobalari hozirgi Toshqo'rg'on yaqinida.

[7] *Nahri Darg'om* – Afg'onistonning shimolidagi daryocha, hozirgi nomi Oqsaroy, shuningdek, Obi Qunduz deb ham ataladi.

[8] *Fil* (Fir) – Xorazmning qadimgi poytaxti Katning ikkinchi nomi, Amudaryoning o'ng sohilida bo'lgan, hozirgi Beruniy.

[9] *An-Nahuz* – o'rta asrlarda Marv bilan Balx orasida cho'l chekkasidagi shahar, uzoq muddat Andxud deb ham atalgan. Hozir Afg'onistonning shimoli-g'arbida, Turkmaniston chegarasiga yaqin joylashgan Andxo'y shahri.

[10] *Sag'oniyon* (o'rta asrlarda Chag'oniyon) – Surxon vohasi, qadimgi va ilk o'rta asrlarda o'zining maxsus tili va ma'muriy hududiga ega bo'lgan.

[11] *Sarminjon* (yoki Sarminkon) – o'rta asrlarda Termiz yaqinidagi yirik qishloq, hozir Jarqo'rg'on tumani markazi yaqinidagi Minor qishlog'i.

[12] *Darzanji* (yoki Darazni) – Sag'oniyondagi qishloq, uni Sam'oniy ham eslatadi.

[13] *Baranji* (Baranj) – Sag'oniyondagi qishloq.

[14] *Bunza* – Sag'oniyondagi katta qishloq

[15] *Hamavaron* – Sag'oniyondagi katta qishloq, unga hozirgi Shahrinav xarobalari mos keladi.

[16] Bu yerda Kofirnihon daryosi ko'zda tutiladi.

[17] *Obon-qasvon* – Shumondagi qishloq.

[18] *Shumon* – o'rta asrlarda bu shahar turklar chegarasida deb hisoblangan. Uning o'rni Hisor vodiysida hozirgi Hicor shahri o'rnida bo'lgan deb hisoblanadi.

@tarixchikkutubxonasiga

cha[1] 4 farsax, Ar-Rastgacha[2] 4 kunlik yo'l. Ar-Rast o'sha tarafda Xurosonning eng uzoq nuqtasi. U ikki tog' oralig'ida joylashgan, turklar chopqinlari chog'ida shu yerdan o'tardilar. Shuning uchun Al-Fazl ibn Yahyo ibn Xolid ibn Barmak[3] o'sha yerga darvoza qo'ygan.

### 18. Balxdan Yuqori Toharistonga yo'l

Balxdan Valarigacha[4] 5 farsax, keyin Xulm shahrigacha 5 farsax, Bahorgacha[5] 6 farsax, Bakbanulgacha[6] 5 farsax, Karidomgacha[7] 7 farsax; uning yaqinida Bistam ibn Savr ibn Amir ibn Musovirning qishloqlari joylashgan.

### 19. Abul Abbos Abdulloh ibn Tohirning zimmasiga yuklangan Xuroson va boshqa unga tobe yerlardan hijriy 211–212-yillarda yig'iladigan xiroj miqdori[8]

Ray – 10 million dirham, Qumis – 2196000 (35) dirham, Jurjon va uning shaharlari: Nomiya[9], Dehiston[10] va Vajala[11] – 10176800 dirham, Kermon – 5 million dirham. Kermonning sathi 180 farsaxga 170 farsax. Xusravlar uchun soliq 60 million dirham yig'ilgan[12]. Sijiston – Tohariston bilan chegaradosh

[1] *Vashjird* (yoki Vashgird) – o'rta asrlarda Xuttalonning turklar bilan chegaradosh bo'lgan eng katta shahri hisoblangan va unda go'yo 700 ta qal'a bo'lgan. Unga hozirgi Talli Vazjir xarobalari mos keladi.

[2] *Ar-Rast* – to'g'rirog'i Rasht, unga hozir Qorategindagi G'arm shahri mos keladi.

[3] *Al-Fazl ibn Yahyo ibn Xolid ibn Barmak* – ilk Abbosiy xalifalar vazirlari sulolasining vakili, h.148/765–766-yili tug'ilgan, asli balxlik, 792–797-yillarda Jibal, Tabariston, Dunbavand, Qumis, Ozarbayjon va Armanistonda, 794–796-yillarda Xuroson va Movarounnahrda xalifaning noibi bo'lgan, vazirlik darajasigacha ko'tarilgan va 808-yili qatl qilingan.

[4] *Valari* – Balxdan sharqroqdagi qishloq.

[5] *Bahor* – cho'ldagi bekat

[6] *Bakbanul* – cho'ldagi bekat.

[7] *Karid Om* – tog' qoyalari orasidagi bekat, Amudaryodan 18 farsax masofada bo'lgan. Bir paytlar u Bastam ibn Savr ibn Amir ibn Musovirning ajdodi Amir ibn Musovirning qaramog'ida bo'lgan va o'shanda Karid Amir deb atalgan, keyinchalik atama qisqartirilgan.

[8] *Abul Abbos Abdulloh ibn Tohir* – Xurosonda mustaqil Tohiriylar sulolasiga asos solgan Tohir ibn al-Husaynning o'g'li. Keltirilgan hijriy yillardagi sana milodiy 826–827-yillarga mos keladi.

[9] *Nomiya* – Jurjondagi shahar.

[10] *Dehiston* – Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi qadim va o'rta asrlardagi o'lka, uning bosh shahri Atrek daryosidan shimolroqdagi Mashhadi Misriyon xarobalari o'rnida bo'lgan.

[11] *Vajala* – yoki Vajah – Jurjondagi botqoqli chakalakzorlar orasidagi qal'a.

[12] «Xusravlar» deb bu yerda Sosoniylarni nazarda tutilayapti.

@tarixchi_kutubxonasiga

Muvarrik[1] va Ar-Ruxxajning[2] qishloqlari bilan va Dovar[3], Zobulistonning[4] shaharlari bilan xiroj haqidagi bitim buzilganidan so'ng xiroj 947000 dirhamga kamaydi va endi 6776000 dirhamni tashkil qiladi. Tabasayn[5] – 113880 dirham; Tabasaynning xiroji 15370 dirhamga kamaygan. Qo'histon[6] – 787880 dirham, bundan kamtugi – 121879 dirham, al-ma'una solig'i[7] – 2600 dirham. Nishopur – 4108900 dirham, buning kamtugi – 758724 dirham, al-ma'una solig'i – 8000 dirham. Tus – 74860 dirham, bundan kamtugi – 139020 dirham, al–ma'una solig'i – 7700 dirham. Naso[8]– 893499 dirham, bundan kamtugi – 160331 dirham va yana uchdan bir va beshdan bir dirham. Abivard[9] – 700000 dirham (36), bundan kamtugi – 317704 dirham. Saraxs – 307440 dirham, bundan kamtugi – 209600 dirham. Marv ash-Shohijon – 1 147000 dirham, 67144 dirham va 3 daniq. Bundan o'rmonlarning xiroji 48669 dirham va uchdan bir-u beshdan bir dirham. Marvarrud – 420400 dirham, bundan kamtugi – 317225 dirham va yana yarim dirham. Badg'is – 440000 dirham, bundan kamtuk – 60000 dirham. Hirot, Isfizor[10] va Andoh[11] 1159000 dirham, bundan kamtugi – 45454 dirham. Bushanj – 559350 dirham, bundan al-ma'una solig'i – 89154 dirham. Talliqon – 21400 dirham. G'archiston[12] 100000 dirham, 2000 bosh qo'y. Toharistonning atroflariga: Zamm – 106000 dirham, Faryob – 55000 dirham, Juzjon – 154000 dirham, Xuttalon, Balx al-Sa'd Hurra[13] va uning tog'lari – 193300 dirham. Xulm – 12300 dirham. Qabrugash[14] 4000 dirham, Tirmiz – 2000 dirham. Ar-Ru'b[15] (37) va Samangon[16] – 12600 dirham, Rivsharon[17] 10000 dirham, Bomiyon[18] – 5000 dirham. Bar-

[1] *Muvarrik* – Sijistonning chegara shahri.

[2] *Ar-Ruxxaj* – Sijistondagi nohiya va shahar, qadimgi Araxosiya.

[3] *Dovar* (yoki Zamindovar) – Sijiston bilan G'o'r orasidagi chegara o'lka.

[4] *Zobuliston* (yoki Zobul) – Afg'onistonning janubida Hilmand daryosi bo'ylab joylashgan o'lka, markazi G'azna shahri.

[5] *Tabasayn* (ya'ni ikkita Tabas) – Qo'histondagi shahar.

[6] *Qo'histon* – Xurosonning janubidagi tog'li o'lka.

[7] *Ma'una solig'i* – g'ayriqonuniy soliqlardan biri.

[8] *Naso* (yoki Niso) – Ashxobodning eski nomi, eski shahar xarobalari Ashxobod yaqinida.

[9] *Abivard* (Bovard) – Saraxs va Naso oralig'idagi shahar.

[10] *Isfizor* – hozirgi Sabzavor.

[11] *Andoh* – Ganji Rustak, Xurosondagi nohiya.

[12] *G'archiston* – hozirgi Kushkadni o'z ichiga olgan va janubdan shimolga yo'nalgan tog'li o'lka.

[13] *Al-Sa'd Hurra* – Balxdan sharqroqdagi nohiya.

[14] *Qabrugash* – Xulm yaqinidagi nohiya.

[15] *Ar-Ru'b* –Toharistondagi nohiya.

[16] *Samangon* –Tohariston tog'laridagi shahar, hozir Afg'onistonning shimolida shu nomli shahar.

[17] *Rivsharon* (yoki Rubiston, Ravon) – Samangon bilan Bomiyon orasidagi o'lka.

[18] *Bomiyon* – Kobuldan shimoli-g'arbdagi o'lka va shahar, hozir ham shu nom bilan ataladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

maxon[1], Jumarin[2] va Banjar[3] – 206500 dirham. At-Termiz – 47100 dirham. Binokan[4] – 3500 dirham. Karron[5] – 4000 dirham. Shuginon[6] – 4000 dirham. Vahon[7] – 20000 dirham. Mandajin[8] – 2000 dirham. Axarun[9] – 32000 dirham. Kast[10] – 1000 dirham. Nihom[11] – 20000 dirham. Sag'oniyon – 48500 dirham. Basara[12] – 7300 dirham. Vashgird – 1000 dirham. Andamin[13] va Zamason[14] – 12000 dirham va 13 miniladigan hayvon. Kobul – 2500000 dirham, bundan asir g'uzlar – 2000 bosh, ularning qiymati 600000 dirham. Kobul Tohariston bilan chegaradosh. Unga bu shaharlar tegishli: Farvof[15], Azron[16] (38), Xuvas, Xushshak, Xabra[17]. Kobulning udi yaxshi emas. Bu yerda norjil, za'faron va halilaj o'sadi, chunki u Hind bilan chegaradosh. Nasaf – 90000 dirham, Kashsh – 111500 dirham, Buttam[18] – 5000 dirham, Bakbakin – 6200 dirham, Javon Rustoqi – 7000 dirham, Ruyon Rustoqi – 2220 dirham, Afna[19] – 48000 dirham, Xorazm va Kardar[20] – 489000 xorazmiy dirhami, Omul – 293400 dirham.

Daryoning narigi tarafidan: Buxoro, uning qal'asi bor – 1189200 g'itrifiy dirhami; Sug'd va Nuh ibn Asad qo'li ostidagi boshqa viloyatlardan – 326400 dirham: bundan Farg'onaning [xiroji] – 280000 muhammadiy dirhami, turklar shaharlaridan 46400 xorazmiy va musoyyabiy dirhami va yana karobis «al-kundajiya» gazlamasi – 1187 ta kiyimlik, kuraklar va temir tunukalar – 1300 dona, yarim-yarim har biridan. Hammasi bo'lib olinadigan xiroj

[1] *Barmaxon* (yoki Buruxon, Parvon) – Kobuldan shimolroqda shu nomli shahar.

[2] *Jumarin* – o'qilishi shartli.

[3] *Banjar* – o'rta asrlarda Panjhir, hozir Panjsher, Kobuldan shimolda.

[4] *Banokan* – Surxondaryo vohasidagi mavze.

[5] *Karron* – V.Bartoldning fikricha, bu Badaxshondagi Rushon yoki Darvozga mos keladi.

[6] *Shuginon* (Shug'non) – Amudaryoning o'rta oqimidagi o'lka, hozir ham shunday ataladi.

[7] *Vahon* – Badaxshondagi hozir ham shu nomli shahar.

[8] *Mandajin* – Axarun yaqinidagi nohiya.

[9] *Axarun* – Surxon va Hisor vodiylarini tutashtiruvchi nohiya.

[10] *Kast* – Surxonning boshlanishida Axarunga yaqin mavze.

[11] *Nihom* – Surxonning yuqori oqimidagi To'palang irmog'i atroflari.

[12] *Basara* – Chag'oniyon bilan Vashgird oralig'idagi nohiya.

[13] *Andamin* – Pomirdagi mavze.

[14] *Zamason* – Andamin yaqinidagi mavze.

[15] *Farvof* (yoki Farvoz, Barfak) – Kobuldan shimolroqdagi shahar.

[16] *Azron* (yoki Mazron, Azon) – Kobul yaqinidagi shaharcha.

[17] *Huvas, Xushshak, Xabra* – Kobul yaqinidagi shaharchalar.

[18] *Buttam* – Sirdaryo va Amudaryoning boshlanishi joylari oralig'idagi o'lka.

[19] Bakbakin, Javon, Ruyon va Afna manzillaridan faqat Ruyonning joylashish yeri biroz aniq – Pomirda.

[20] *Kardar* – qadimgi Xorazmda Amudaryoning quyi oqimidagi shahar. Ba'zan uni hozirgi Chimboy yoki Xo'jayli bilan moslashtiriladi.

@tarixiy_kutubxonasiga

solig'i miqdori – 21722500 muhammadiy dirhami[1], shu jumladan, Sug'dga, Buttamdagi konlarga, Kashshdagi tuz koniga, Kashshga, Nasafga, Buttamga va Sug'dning boshqa viloyatlariga solingan xiroj miqdori – 1089000 muhammadiy dirhami, Usrushonaniki – (39) 50000 dirham – shundan 48000 muhammadiy dirhami va 2000 musoyyabiy dirhami, Shosh va kumush konlari – 607100 musoyyabiy dirhami va Xo'janda — 100000 musoyyabiy dirhami.

Butun Xurosonning va Abul Abbos Abdulloh ibn Tohirga qaram viloyatlar, nohiyalar va atroflardan olinadigan xirojning miqdori 44846600 dirham va yana 13 bosh miniladigan hayvon, 2000 bosh qo'y, qiymati 600000 dirhamga teng 2000 bosh asir g'uzlar, 1187 kiyimlik kirbos «al-kundajiya» gazlamasi va 1300 ta kurak va temir tunukadan – har biridan yarim-yarim – iborat.

## 20. Xuroson va Mashriq hokimlarining laqablari[2]

Nishopurning hokimi – kunar[3], Marvning hokimi – mohuya, Saraxsning hokimi – zoduya, Abivardning hokimi – bahmana, Nasoning hokimi – abraz[4], G'archistonning hokimi – baraz banda[5], Marvarrudning hokimi – firuz, Kobulning hokimi – Kobulshoh, Termizning hokimi – Termizshoh, Bomiyonning hokimi – shiri Bomiyon, Sug'dning hokimi (40) – firuz, Farg'onaning hokimi – ixshid, Ar-Rivsharonning hokimi – ar-rivshar, Juzjonning hokimi – guzgonxudo, Xorazmning hokimi – xusravi Xorazm[6], Xuttalning hokimi – Xuttalonshoh, uni yana shiri Xuttalon deydilar, Buxoroning hokimi – buxorxudot, Usrushonaning hokimi – afshin, Samarqandning hokimi – tarxon, Sijistonning, Ruxxajning va Ad-Davar mamlakatining hokimi – rutbil.

---

[1] Xorazmiy, g'itrifiy, muhammadiy va musoyyabiy dirhamlari Xurosonda va ko'proq Movarounnahrda muomalada bo'lgan arab tangalari. Ular oltinga ma'lum munosabatda mis va qalayi aralashtirilib zarb qilingan. Bu dirhamlar Buxoroda mahalliy oltin asosida zarb qilinganligi uchun xalifalikning boshqa yerlaridagi oltin dirhamlarga nisbatan qizilroq bo'lgan va tovar qiymatiga ega bo'lib, tovar sifatida ham sotilgan. Ular hatto xalqaro muomalada ham bo'lgan. Bu tanga pullarning nomi ularni zarb qilgan arab omillarining nomi bilan atalgan. Xususan, musoyyabiy dirhami Xurosonda hijriy 166-yil jumod ul-avval oyidan to 167-yil muharramining o'rtasigacha (782-y. dekabr – 783-y. avgust) noib bo'lgan Al-Musoyyab ibn Zuhayr nomi bilan bog'liq; g'itrifiy dirhami xalifa Horun ar-Rashidning tog'asi G'itrif ibn Ata al-Kindiy nomi bilan bog'liq; muhammadiy dirhami Muhammad ibn Zubayra nomi bilan bog'liq; bu shaxslarning har biri pul islohoti o'tkazgan.

[2] Bu yerda arabcha matnga amal qilib, «laqab» so'zini tarjima qilmagan bo'lsak ham, bu so'zdagi ma'no o'zbek tilidagi laqab so'zining ma'nosiga to'g'ri kelmaydi va uni unvon deb tushunmoq kerak.

[3] Beruniy Nishopur podshohlarini «kanabar» degan (Beruniy. «Qadimgi xalqlar». 129-b.).

[4] Beruniy Naso va Abivardning podshohlarini bir xil unvon bilan «bahmana» deb atagan (*Beruniy. «Qadimgi xalqlar»*. 127-bet).

[5] Beruniy va boshqa mualliflar G'archiston podshohlarini «shor» deb ataganlar.

[6] Boshqa barcha manbalarda Xorazmning podshohlari xorazmshoh deb atalgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Hirot, Bushanj va Badg'isning hokimi – barazon, Kashshning hokimi – naydun, Buttamning hokimi – zu an-na'na'a, Movarounnahrning hokimi – kushonshoh, turklarning hokimi – xaylub xoqon, jabg'uya xoqon, shabax xoqon. Bir necha mayda turk hokimlarining laqablari quyidagicha: tarxon, nizak, xurtegin, tamrun, g'uzak, suhrob, furak.

## 21. Mashriqning xat aloqa yo'llari

Surramanraodan Daskaragacha 12 sekka[1], Madinat us-salomdan Daskaragacha 10 sekka, keyin Jalulagacha 4 sekka, Hulvongacha 10 sekka, Nasirobodgacha 9 sekka, Qarmasingacha 6 sekka, Xundazgacha 10 sekka, Hamadongacha 3 sekka, Mashkuyagacha 21 sekka, Raygacha 11 sekka. Qumisgacha 23 sekka va Nishopurgacha 18 sekka... .

(154) **72. Agar Rus savdogarlari haqida so'ylasak,** ular slavyanlarning bir jinsidir. Ular quyon mo'ynasini, qora tulki mo'ynasini va slavyanlar o'lkasining eng uzoq joylaridan qilichlarni Rum dengiziga[2] keltiradilar. Rumning hokimi[3] ulardan ushrni (o'ndan birini) soliq sifatida oladi. Agar ular Tanais[4] slavyan daryosi orqali yursalar, Xamlij,[5] xazarlar shahri, yaqinidan o'tadilar. Ularning hokimi ham ulardan ushrni oladi. Keyin ular Jurjon dengizi bo'ylab suzib, istagan qirg'oqda tushadilar. Bu dengizning aylanasi 500 farsax. Ba'zi vaqt ular o'z tovarlarini Jurjondan Bag'dodgacha tuyada olib boradilar. Ularga slavyan xodimlari tarjimonlik qiladi. Ular o'zlarini nasroniy deydilar va jizya to'laydilar.

**73. Agar ularning quruqlik bo'ylab yo'llari haqida so'ylasak,** bu yo'l bilan ular [safarni] Andalusdan yoki Firanjadan[6] boshlaydilar: bu yo'l [dengizdan] Sus al-Aqsoga[7] (155) o'tadi va undan Tanjaga[8], keyin Ifriqiyaga[9], so'ng Misrga, Ar-Ramlaga, Damashqqa, Kufaga, Bag'dodga, Basraga, Ahvozga, Forsga, Kermonga, Sindga, Hindga, Xitoyga o'tadi. Goho ularning yo'li Rumiyaning u tarafidan (shimolidan) o'tadi, slavyanlar mamlakatiga boradi, undan Xamlijga – xazarlarning bosh shahriga, keyin dengiz bo'ylab

[1] Sekka aslida «yo'l» ma'nosini anglatadi, lekin u amalda ana shu yo'lda joylashgan maktublar qabul qiladigan va jo'natilgan otlar almashtiriladigan manzil va bekatni anglatgan. Odatda, bunday manzillar orasidagi masofa 25–30 km dan 60–70 km gacha bo'lgan. Xuddi shu yo'llarda bekatlarning ba'zilarida yirik karvonsaroylar ham bo'lgan.

[2] *Rum dengizi* – Qora dengiz.

[3] *Rum hokimi* – Vizantiya imperatori.

[4] *Tanais* – Don daryosi.

[5] *Xamlij* – Donning Volgaga eng yaqin yeridagi, hozirgi Volga-Don kanali yo'lidagi Xazar shahri. Xazar xoqonligi davrida (VI–X asrlar) xalifalik, Xorazm va Movarounnahrning Sharqiy va Shimoliy Yevropa bilan savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan.

[6] *Firanja* – bu yerda tor ma'noda Fransiya va keng ma'noda G'arbiy Yevropa.

[7] *Sus al-Aqso* – Marokashdagi shahar.

[8] *Tanja* – Marokashning shimolidagi hozirgi Tanjer shahri.

[9] *Ifriqiya* – hozirgi Tunis.

@tarixchi_kutubxonasiga

Jurjonga, keyin Balxga va Movarounnahrga, so'ng to'g'uzg'uzlar yurtiga va so'ng Xitoyga.

**74. Yerning ma'mur qismi to'rt qismga bo'lingan.** ... Shu jumladan, Isqutiya:[1] unda Arminiya, Xuroson, turklar va xazarlar yerlari bor.

**75. Yerning ba'zi ajoyibotlari.** ...(157) Qutayba ibn Muslim Poykand degan shaharda bir ulkan qozon topgan, unga narvon bilan chiqilardi...

## (162) 77. Ya'juj va Ma'juj devorining tavsifi[2]

Menga Sallom Tarjimon hikoya qilib berdi: Xalifa Al-Vosiq billoh tushida Iskandar Zulqarnayn tomonidan biz bilan Ya'juj va Ma'jujlar orasida barpo qilingan devor buzilgani ko'ringach, o'sha yerga borib, bu haqda xabar topib keladigan odamni izlay boshladi. Ashnos xalifaga dedi: «Bu yerda bu sayohatga yaray oladigan Sallom Tarjimondan boshqa (163) hech bir kimsa yo'q. U o'ttiz tilda gaplasha oladi».

Sallom aytadi: «Meni Al-Vosiq o'z huzuriga chaqirib, dedi: «Men sening o'sha devorgacha borishingni, uni o'z ko'zing bilan ko'rib, menga u haqda biror xabar keltirishingni istayman». Al-Vosiq men uchun 50 ta yosh va kuchli kishilarni to'pladi, menga 5000 dinor berdi va yana menga 10000 dirham «qon haqini» to'ladi. U ellik kishining har biriga ming dirham mukofot va bir yillik maoshini berishni buyurdi. U yana kishilarga teri bilan qoplangan jun qalpoqlar to'qishni, shuningdek, mo'yna yoping'ichlar tikishni va yog'och uzangilar yasashni buyurdi. U oziq-ovqat va suvni tashish uchun menga ikki yuz xachir berdi. Biz Surramanraodan Al-Vosiq billohning Arminiyaning Tiflisda turgan hokimi Ishoq ibn Ismoilga[3], bizni qabul qilsin, deb yozgan maktubi bilan chiqdik. Ishoq biz haqimizda As-Sarirning hokimiga yozdi, As-Sarirning hokimi biz haqimizda Allonning[4] malikiga yozdi, Allonning maliki biz haqimizda Filonshohga yozdi, u biz haqimizda Tarxonga – Xazar xoqoniga yozdi. Biz Xazar xoqonining huzurida, u biz bilan besh yo'l ko'rsatuvchini yuborsin deb, bir

[1] *Isqutiya* – Skifiya.

[2] Sallom Tarjimonning «Ya'juj va Ma'juj devoriga» ekspeditsiyasi haqidagi xabar boshqa arabiynavis mualliflarda (Muhammad Al-Xorazmiy, Al-Idrisiy, Al-G'arnatiy) ham keltiriladi. Bu ekspeditsiya haqiqatan ham bo'lganligi va «devor» va «darvoza» aslida Buyuk Xitoy devori va undagi qurilmalar ekanligi isbotlangan. Ekspeditsiya haqidagi xabarga, avvalo, Sallomning o'zi tomonidan va keyinchalik nusxa ko'chiruvchilar tomonidan afsonaviy elementlar kiritilgan. Ekspeditsiyaning yo'li ketishda Kavkaz orqali va qaytishda Markaziy Osiyo orqali o'tgan.

[3] Tiflisning hokimi Ishoq ibn Ismoil bu tavsiflanayotgan voqealardan biroz keyin xalifaga qarshi isyon ko'targan, so'ng xalifaning turk lashkarboshisi Bug'a al-Kabir tomonidan tor-mor etilib, 851-yilda qatl qilingan.

[4] *Allon* – hozirgi Shimoliy va Janubiy Osetiya.

@tarixni_kutubxonasiga

kecha-kunduz turdik. Ulardan keyin biz 26 kun yurdik va yoqimsiz hidli bir qoratuproq yerga keldik. Bu yerga oyoq qo'yishdan avval biz sirkadan g'amlab oldik va uni hidlab turdik, bu bilan yoqimsiz hidni qaytarib turdik va shu tariqa 10 kun yurdik. Keyin biz xaroba bo'lib yotgan shaharlarga duch keldik va shu yerlardan yana 20 kun yurdik. Biz bu shaharlarning bunday ahvoldaligining sababini so'radik, bizga aytdilarki, bir vaqtlar bu shaharlarga ya'juj va ma'jujlar kelib, ularni vayron qildilar, dedilar. Keyin biz tog'ning yaqinida barpo qilingan qal'alarga yetdik, ularning devorlari jarliklardan o'tardi. Bu (164) qal'alarda arabcha va forscha so'zlashuvchi xalq yashaydi. Ular bizlardan qayerdan kelganimizni so'radilar. Biz ularga amiralmo'mininning elchilari ekanligimizni aytdik. Ular bizga yaqin keldilar va eshitganlaridan hayratlanib, so'radilar: «Amiralmo'mininmi?» Biz dedik: «Ha». Shunda ular yana so'radilar: «U keksami yoki yoshmi?» Biz: «Yosh», – dedik. Ular yana juda qiziqdilar va so'radilar: «U qayerda yashaydi?» Biz esa: «Iroqda, Surramanrao degan shaharda», – dedik. Ular yana dedilar: «Biz bu haqda hech qachon eshitmaganmiz».

Shu qal'alar orasidagi masofa bir farsaxdan ikki farsaxgacha yo bundan kam yoki ko'proq... Keyin biz Ika[1] deb ataladigan shaharga yetdik. Uning yuzasi tomonlari 10 farsax kvadratdan iborat.

Shaharning temir darvozasi bor, uning atrofida ekinzorlar bor, shaharning ichida esa tegirmonlar bor. Bu o'sha Zulqarnayn o'z askarlari bilan joylashgan shahar. Shahar bilan devor orasidagi masofa uch kunlik yo'ldan iborat. Shahardan devorgacha yo'lning oralig'ida qal'alar va qishloqlar joylashgan, devorga uch kunda yetiladi. Devor tog'ga o'xshab dumaloq shaklda. Aytishlaricha, ya'juj va ma'jujlar shu yerda yasharmish. Ular ikki xil toifadir. Yana aytishlaricha, ya'jujlarning bo'yi ma'jujlarnikidan baland – farqi bir yoki bir yarim gaz, yoki bundan biroz kam yo ko'p.

Keyin biz baland toqqa yetdik, unda qal'a va (165) Zulqarnayn barpo qilgan devor turardi. O'sha yerda ikki tog' orasida jarlik bor, eni 200 gaz. Bu yo'l bo'lib, ya'juj va ma'jujlar shu yo'l orqali chiqib, yerga tarqalganlar. Devorning asosini o'ttiz gaz chuqurlikdan temir va mis bilan boshlaganlar va yer yuzasigacha ishlab chiqqanlar. Keyin jarlikning ikkala tarafida ikkita ustun o'rnatganlar. Har bir ustunning eni – yigirma besh gaz, balandligi – ellik gaz. Bu qurilmaning hammasi mis bilan qoplangan temir palaxsalardan iborat. Har bir palaxsaning kattaligi bir yarim gaz. Palaxsaning qalinligi to'rt ellik. Shu ikki ustun oralig'i temir peshburundan iborat, uning uzunligi yuz yigirma gaz, qalinligi o'n gaz va eni besh gaz; u ikkala ustunga tirkalgan. Peshburunning ustida – o'sha mis bilan qoplangan

[1] Ika shahri uyg'urlarning poytaxti Igu-Xami deb hisoblanadi (*Вейхинова. Введение*, с. 334, прим.9).

@tarixchi_kutubxonasiga

temir palaxsalardan barpo qilingan imorat tog' cho'qqisigacha ko'tarilgan, balandligi ko'z ilg'amaydi. Bu bino peshburunning ustida taxminan oltmish gaz ko'tarilgan. Binoning ustida – temir ayvonlar. Har bir ayvonning chekkalarida ikki shox bo'lib, ular bir-biriga qarab egilgan. Har bir ayvonning uzunligi besh gaz, eni to'rt gaz. Darvozaning ustida o'ttiz yettita ayvon bor. Temir darvozaning ularga biriktirilgan ikkita tavaqasi bor. (166) Har bir tavaqaning eni ellik gaz, balandligi yetmish besh gaz, qalinligi besh gaz. Ikkala ustun darvoza aylanishida peshburun bilan hamo'lcham. Bu qurilma shunday o'rnatilganki, shamol na darvozadan, na tog' tarafidan o'ta oladi, u go'yo tabiatning o'zi tomonidan barpo qilingandek. Darvozaning qulfi bor, uzunligi yetti gaz, aylanasi bir bog'. Uni ikki kishi quchoqlab ololmaydi va u yerdan yigirma besh gaz balandlikda turadi. Qulfdan besh gaz balandda g'iloqi bor, bu qulfdan ham uzun. Ikkala g'iloqning har biri – ikki gazdan. Qulfda osilib turgan kalitning uzunligi bir yarim gaz. Kalitning o'n ikkita tishi bor, bu tishning har biri o'g'ir dastasiga o'xshaydi. Kalitning aylanasi to'rt qarich; u eshikka yopishtirilgan zanjirga biriktirilgan. Zanjirning uzunligi sakkiz gaz, uning aylanasi to'rt qarich. Zanjirni eshikka yopishtirgan halqa manjaniqning halqasiga o'xshaydi. Eshikning ostonasi, ikkita kesaki ostida qolgan qismlarini hisoblamaganda, eni o'n gazga va bo'yi yuz gazga teng. Eshikning tashqariga chiqib turgan qismi besh gazga teng.

Ishlatilgan «gazlarning» o'lchami «qora gaz» uzunligiga teng.

Darvozaning old tarafida ikkita qal'a bor, har birining sathi ikki yuz kvadrat gaz. Bu ikki qal'aning darvozasi oldida (167) ikkita daraxt o'sadi. Ikkala qal'a orasida buloq chiqadi. Qal'alarning birida devorni qurishda ishlatilgan asbob-uskunalar saqlangan, shu jumladan, temir qozonlar va temir cho'michlar. Har bir uch oyoqda to'rt qozon o'rnatilgan, ular sovun qaynatiladigan qozonga o'xshaydi. O'sha yerda devor qurishda ishlatilgan temir g'ishtlar bor. Zanglash sababli ular bir-biriga yopishib qolgan.

Bu qal'alarning raisi har dushanba va payshanba kuni otlanib, temir darvoza oldiga boradi. Raislar bu darvozani meros sifatida oladilar, xuddi xalifalar xalifalikni merosga olgandek. U darvoza oldiga uchta kuzatuvchi bilan birga keladi, ularning har birining bo'ynida dasta osilib turadi. Darvozaga narvon o'rnatilgan. U narvonning eng yuqori pog'onasiga chiqib, qulfga sahar paytida bir uradi, shunda ularga bezovtalantirilgan asalari uyasining guvullaganidek ovoz eshitiladi, keyin ovoz asta so'nadi. Tush paytida qulfga yana bir uradilar. Rais qulog'ini darvozasiga qo'yib quloq soladi; ikkinchi ovoz avvalgisidan kuchliroqligi bilinadi. Keyin ovoz yana so'nadi. Asr payti kelganida darvozaga yana bir marta uradilar. Yana o'sha tovush eshitiladi. U bu yerda quyosh botgunicha turadi, faqat shundan so'ng ketadi. Darvozaga urishning sababi shuki, darvoza orqasida

@tarixchi_kutubxonasiga

birov bor-yo'qligini rais bilishi kerak, agar bo'lsa, bilib qo'ysinki, bu yerda soqchilar bor. Qal'adagilar ham bilsinlarki, ular darvozaga nisbatan (168) biror ish qilolmaydilar.

Bu yerdan biroz narida katta qal'a bor, o'lchamlari 10 farsaxga 10 farsax, ya'ni sathi 100 kv farsax.

Sallom dedi: «Men qal'a ahlining shu yerda turgan biridan: «Bu darvozaning biror kamchiligi bormi?» – deb so'radim. Ular javob berdilar: «Mana bu darzdan boshqa hech kamchilik yo'q. Bu darz eni bo'ylab ingichka ipdek o'tgan». Men so'radim: «Siz darvoza uchun ozgina bo'lsa ham qo'rqasizlarmi?» Ular javob berdilar: «Yo'q! Bu darvozaning qalinligi Iskandar gazlarida besh gaz, bir Iskandar gazi esa bir yarimta qora gazga tengdir».[1]

Sallom yana dedi: «Men darvozaning yoniga keldim, etigimning qo'njidan pichoqni oldim, darz joyni qira boshladim va u yerdan yarim dirhamga teng joyni qirib oldim, uni ro'molchaga o'rab, Al-Vosiq billohga ko'rsatish uchun saqladim. Darvozaning o'ng tavaqasida yuqorida arab tilida temir harflar bilan bunday yozilgan: «Rabbimning va'da qilgani kelsa, u buni kukun qiladi; Rabbimning va'dasi haqiqat bo'ladi»[2].

Biz qurilmani qarab chiqdik, u yo'l-yo'l edi: bir yo'l – sariq jezdan, ikkinchi yo'l – qora temirdan. Tog'da darvozani quyish uchun maxsus joy o'yilgan, qozon uchun joy, unda mis qorishtirilgan va qalay bilan misni quyish uchun o'yilgan joy. Bu qozonlar sariq misdan yasalgan. Har bir qozonning uch qulog'i bor. U yerda misni devorga ko'tarish uchun o'rnatilgan zanjir va ilgaklar bor. Biz u yerda bo'lganlardan so'radik: «Siz o'sha ya'juj va ma'jujlardan birontasini ko'rganmisiz?» Ular haligilardan bir nechtasini tog' ustida ko'rganlarini esladilar. O'shanda qattiq shamol bo'lib, ya'juj-ma'jujlarni bularning tarafiga tushirgan. Ularning bo'yi taxminan bir yarim gaz. Tog' tashqari tarafidan (169) yassilikka ham, og'malikka ham ega emas va uning ustida na o't, na daraxt va na boshqa narsa bor. Bu baland, silliq va oppoq tog'.

Qaytayotganimizda yo'lchilar bizni Xuroson nohiyasigacha kuzatdilar. O'sha yerning hokimi Al-Lub deb ataladi. Keyin biz u joydan chiqdik va hokimi Tabanuyon deb ataladigan joyga keldik. Biz ularnikida bir necha kun turdik, so'ng u yerdan ketdik va yuraverib, sakkizinchi oy Samarqandga keldik. Keyin biz Isfijobga keldik, Balx daryosini kechib o'tdik, Usrushona, Buxoro, Termizdan ham o'tdik va nihoyat, Nishopurga yetdik. Sayohat

[1] Bir «qora gaz» 54,04 sm ni tashkil qiladi (*Xins. Musulmanskie mery*, s.70). Demak, bir Iskandar gazi 81,06 sm ni tashkil qilgan.

[2] Qur'oni karim, 18-sura (Kahf surasi), 98-oyat.

@tarixchi_kutubxonasiga

asnosida biz bilan birga bo'lgan odamlarning ko'pi halok bo'ldi. U yoqqa ketayotganda, yigirma ikki kishi kasal bo'ldi. O'lganlarni biz o'z kiyimlarida ko'mardik, kasal bo'lganlarni esa yo'ldagi qishloqlarda qoldirardik. Orqaga qaytishda o'n to'rt kishi halok bo'ldi. Biz Nishopurga kelganimizda, odamlarimizdan faqat o'n to'rt kishi qolgan edi. Qal'alarning raislari bizni muhtoj bo'lgan narsalarimiz bilan ta'minlab turdilar. Keyin biz Abdulloh ibn Tohirning huzuriga bordik. U menga sakkiz ming dirham mukofot berdi, menga hamroh bo'lganlarning har biriga besh yuz dirham mukofot berdi. U har bir otliqqa kuniga besh dirhamdan, piyodaga – kuniga uch dirhamdan tayinlab, bizni Raygacha yubordi. Xachirlarimizdan (170) faqat 23 tasi sog' qoldi. Nihoyat, biz Surramanraoga keldik va men Al-Vosiqning huzuriga kirdim, butun sarguzashtlarni unga xabar qildim va darvozadan qirib olgan temir parchasini unga ko'rsatdim. U Allohga shukurlar aytdi, har birimizga hadyalar berilishiga farmon qildi va odamlarga tuhfalar berib, har bir kishiga 1000 dinordan berdi. Bizning devorgacha yo'limiz 16 oy davom etdi, orqaga qaytishga esa – 12 oy va bir necha kun ketdi.

Sallom Tarjimon menga bu voqeani umumiy tarzda hikoya qilib berdi, so'ngra menga Al-Vosiq billohga bu haqda yozgan inshosidan so'zma-so'z o'qib berdi.

### 73. Turli mamlakatlardagi tabiat mo"jizalari haqida

... (172) Samarqandda Sug'd tog'idagi ayvon ajoyibdir – u iqlimining sog'lomligi va go'zalligi bilan alohida ajralib turadi. Xudayn ibn al-Munzir ar-Rikashiy uni boshqa o'xshash joylar bilan solishtirib, aytgan edi: «U go'yo osmondek, u shunchalik yam-yashilki, uning saroylari – yulduzlardek, ular shunchalik yarqirab turadi, uning daryosi (Zarafshon) – Somon yo'li, uning devorlari – quyoshdek, ular uni shu qadar har tomondan o'rab turardilar»...[1]

### (173) 79. Daryolarning boshlanish joylari haqida

Jayhun, Balx daryosi[2] Tubbat tog'larida boshlanadi, keyin Balx, Termiz, Xasasakdan[3], Kardar shahridan o'tadi. Keyin u Omul, Xarmari, Farabr va Xorazmdan o'tadi, davom etib, Jurjon dengiziga va Kurdan ko'liga tushadi. Mehron, Sind daryosi Shignon tog'laridan boshlanadi. Sind daryosi – (174) Jayhun daryosining tarmog'i ...[4]

[1] Samarqand yaqinidagi eng xushmanzara yer – Og'aliq (Oxalik) tog'lari tavsiflanayotgan ko'rinadi.

[2] *Xasasak* – Axsis – Kerki shahrining Amudaryo o'ng qirg'og'idagi qismi.

[3] *Xarmari* – Omul va Farabr oralig'idagi mavze.

[4] Bu fikrning xatoligi X asrdayoq isbotlangan.

@tarixchi_kutubxonasiga

**(178) 80. Bismillahir rohmanir rohiym!**

Mamlakatlarni savdo ishlari bilan kezadigan ishonchli bir odam menga hikoya qilib aytdiki, Jayhunning – Balx daryosining narigi tarafidagi daryolari va Jayhunga o'xshash boshqa buyuk daryolar – [chunonchi] Xasart[1] bu Kankar[2], deb ataladigan daryo, Shosh mulkiga yaqin joylashgan, Turk deb ataladigan daryo[3], Suyavat deb ataladigan daryo, Torozob deb ataladigan daryo va boshqa turklar mamlakatiga, to Xitoygacha kema bilan boriladigan daryolarning hammasi sharqdan g'arbga qarab oqadi.

Irmoqlari buloqlardan boshlanadigan Saraxs daryosi, Nishopur, Ray va Iroq daryolari sahroning chegarasigacha va Qadisiyadagi manzilgacha oqadi. Bularning hammasi g'arbdan sharqqa qarab oqadi...

O'sha odam yana aytdiki, Jayhun aslida ikki tarmoqqa ajraladi. Bu daryoning boshi Xitoyda yoki Xitoydan ham narida. U tarafda u katta toshlar va qoyalardan o'tib, nihoyat, kema yura oladigan bo'ladi. Kimki shunday narsalarga o'rganmagan bo'lsa, daryodan kechib o'tolmaydi. Daryoning bo'linish joyidan, ya'ni bir tarmog'i Sind tarafiga, ikkinchisi – Jayhunning o'zi uch yarim kunlik masofada turklar tarafiga o'tiladigan bir kechik bor, uni Shignon deb ataydilar. Ular (savdogarlar) yo'lga Xuttalon shahrida hozirlanadilar va «falon rabot» deb ataladigan rabotgacha boradilar, u shahardan bir farsax masofada yuqoriroqda joylashgan. Keyin bir tog'ga qarab yuradilar, u bu buyuk daryoning qirg'oqlaridan birida joylashgan. Mahalliy hammollarning yordamisiz odam bu tog'ning cho'qqisiga chiqolmaydi, ular chiqishga o'rganib qolganlar. Savdogarlar ularning joylariga kelib tushganlarida, ularni yuk va tovarlarni tashishga chorlaydilar va ular bu tog'ning cho'qqisiga [yuk bilan] birinchi bo'lib chiqib oladilar. Har bir hammol 30 man og'irlikdagi yukni ko'taradi va cho'qqiga yetmaguncha yuradi; u yerda o'zini bexatar sezadi, (179) ular o'zaro imo-ishoralarni ko'rib, shignonliklar savdogarlar tog' cho'qqisiga chiqqanlarini biladilar, u yerdan yurayotgan odamning bir qadamigacha kenglikdagi so'qoq yo'l bilan ketiladi. Savdogarlar pastga tusha boshlaganlarida, hammollar oldinga o'tadilar va tog' cho'qqisidan yuklari bilan to daryoning labigacha birinchi bo'lib tushadilar. Hammollar daryodan o'tishga o'rgangan tuyalarda kelayotgan savdogarlarni ko'rgach, soqchilar bilan daryodan o'tadilar va ularga qo'shiladilar. Keyin ular o'zlariga majburiyat oladilar va savdogarlar bilan bitim tuzib, shundan so'ng ularning yuklarini tuyalarga ortib, birgalikda daryodan kechib o'tadilar. Bundan so'ng har bir savdogar o'zi xohlagan yo'ldan yuradi: Xitoyga yoki Mo'ltonga.

[1] *Xasart, Yaksart* – Sirdaryo.

[2] *Kankar* – Sirdaryoning xitoycha nomi Kangitning buzilib yozilishi.

[3] *Turk daryosi, Shosh daryo* – Chirchiq.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ta'kidlashlaricha, bu daryo Oltintog'dan[1] o'tadi, ulkan toshlar va qoyalardan o'tadi, tog'dagi oltinlarni yuvadi, uning filga o'xshagan mayda donalari baliq tangasidek, yoki undan kichik yo katta keladi. Shu daryoda, eslatilgan kechikdan yuqoriroqda, Vaxad degan qishloq bor. Shu qishloqda Jayhunga Baxshu[2] degan daryo kelib quyiladi, u Vashgird nohiyasidan oqib keladi. Bu nohiyaning aholisi to Jayhunning labiga tushmagunlarigacha Baxshuning bo'yidan yuradilar; ular daryo bo'yiga echki terilarini, yungini tepaga qilib, yozadilar, ularni tarang qilib tortadilar va ishonchli bo'lishi uchun qoziqlarga bog'lab qo'yadilar. Keyin ularning biri suvga tushib, terilarga suv sepadi, ikkinchisi terilardagi suvni salqitib, kuzatib turadi. Suv loyqa va og'ir. Ular terilar qum va oltin bilan qoplanganini ko'rgach, terilarni o'rab olib, quritish uchun quruq yerga quyoshning tig'iga yoyadilar. Keyin ularni yig'ib oladilar. Ularda teridan ishlangan maxsus chorshaflar bor, uni yoyib, unga haligi qum va oltin aralash terilarni silkitadilar. Va nihoyat, oltinni qumdan ajratib oladilar. Aytishlaricha, Balxda bu oltin – eng yaxshi, eng qizil va eng tozasi emish.

(180) Xuttalon degan shaharda, bu esa Firuzga chopqin qilgan Dovud ibn Abbosning jiyani Horis ibn Asadning mulki, 1000 dan ortiq buloq bor, bular ichida ikkita chashma ko'zga tashlanadi: biri quyi darvoza oldida va boshqasi yuqori darvoza oldida. Yuqoridagisi Nozko'l deb ataladi.

Abulfazl, Ibn al-Haris ibn Asad otlarining o'rgatuvchisi aytgan ediki, o'z sifatlari bilan mashhur bo'lgan xuttaloniy otlarning urug'i, kelib chiqishi bo'yicha, shu chashma bilan bog'liq. Uning aytishicha, o'sha paytlar bu yerlarning Bek deb ataladigan hokimida biyalar ko'p bo'lib, ular maysazorlarda o'tlagan. Tush paytida ular shu chashmaning bo'yiga kelar va daraxtning soyasida dam olardilar. Cho'pon hayvonlarni har doim shu yerga to'plardi. Chashmaning havzasi juda keng: eniga ham, bo'yiga ham 400 gaz bo'lib, suvi tinch, oqmas va top-toza edi. Bir kun cho'pon uyg'onib qarasa, otlarining orasida bir favqulodda tanasi uzun va bahaybat ayg'ir yuribdi. Cho'pon uni kuzata boshladi. Kechki paytga yaqinlashib qolganida, nogoh ayg'ir chashmaning ichida g'oyib bo'ldi, cho'pon esa hayratlanib, nima qilishini bilmay turardi. U bu chashmaga qatnashni to'xtatmadi va doimo kuzatib bordi, toki bir kun o'sha ayg'ir chashmadan bir yosh biya va boshqa shunaqa otlar bilan chiqdi. Bu hayvonlar o'tloqda hadeb uning otlari bilan aralashaverdilar va bu holat toki cho'pon boqib yurgan biyalarning hammasi bo'g'oz bo'lmaguniga qadar davom etdi. Natijada xushbichim, chiroyli va ajoyib toychoqlar tug'ildi. Buni ko'rgan cho'pon shu zahoti xushxabarni o'z sohibiga aytgani shoshildi. Sohibi cheksiz xursand bo'ldi...

[1] *Oltintog'* – Oltoy tog'larining janubiy qismi. Bu turkiy atamani Ptolemey (II a.) o'z «Geografiya»sida Xryuzon oros deb tarjima qilgan.

[2] *Baxshu* – Amudaryoning irmog'i Vaxsh.

@tarixchi_kutubxonasiga

## AL-BALAZURIY VA UNING «FUTUH AL-BULDON» ASARI

Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir ibn Dovud al-Balazuriy (vaf.892-y.) «Futuh al-buldon» («Mamlakatlarning zabt etilishi») asari Arab xalifaligi tarixiga oid muhim manbalardan biri. Al-Balazuriyning hayoti va ijodi Bag'dod xalifaligining eng yorqin madaniy taraqqiyot pallasi (IX asr)ga to'g'ri keladi.

«Futuh al-buldon»da anchagina katta davr, ya'ni 622–869-yillar tarixiy voqealari qamrab olingan. Asar arab tilida yozilgan va ikki qismdan iborat; birinchi qism – hijratdan (622-y.) to arablarning g'arbiy mamlakatlarni zabt etganigacha bo'lgan davr voqealari bayoni; ikkinchi qism – sharqiy o'lkalarning bosib olinishi tafsilotlari. Xuroson va Movarounnahrning zabt etilishi ham ana shu ikkinchi qismdan o'rin olgan.

«Futuh al-buldon» XIX asrdan boshlab ilmiy jihatdan o'rganishga kirishildi. Yevropada va Sharq mamlakatlarida bir necha marta nashr etildi, ingliz, nemis va fors tillariga o'girilib chop qilindi; turli qismlari rus tiliga ham tarjima qilingan.

Al-Balazuriyning «Futuh al-buldon» asaridan O'zbekiston hududiga doir quyidagi lavhalar Xuroson qismining ruscha tarjimasidan[1] o'zbek tiliga o'girildi (tarjimon O.Bo'riyev).

**O. Bo'riyev**

## AL-BALAZURIY. «FUTUH AL-BULDON»DAN

### (11) Xuroson[2]

(16) Abu Ubayda dedi: Ibn Omir [Amu]daryogacha bo'lgan yerlarni egalladi. Movarounnahr aholisi bundan xabar topgach, sulh taklif qildilar va u (Ibn Omir) bunga rozi bo'ldi... Ushbu shartnomaga ko'ra, u [Movarounnahrdan] chorva, xizmatkorlar (erkak va ayol), ipak matolar va kiyim-kechak oladigan bo'ldi. Ibn Omirning [Amu]daryodan o'tgani va sharqiy tomondagi aholi bilan sulh tuzgani haqida Abu Ubaydadan boshqa hech kim eslatmagan.

(19) Muoviya yigirma besh yoshli Ubaydulloh ibn Ziyodni Xuroson voliysi etib tayinladi. U yigirma besh minglik askar bilan [Amu] daryodan o'tib Paykendga yetib keldi. O'sha paytda Xotun[3] Buxoroda edi. U yordam

---

[1] Ал-Балазури. Завоевание Хорасана.

[2] Al-Balazuriy «Xuroson» o'lkasi tarkibiga Movarounnahrni ham kiritgan. Umuman, Arab xalifaligining dastlabki davrida Movarounnahr siyosiy-ma'muriy jihatdan Xuroson viloyati tarkibida olib qaralgan.

[3] *Xotun* – Narshaxiy ma'lumotiga ko'ra, o'sha kezlarda Buxoroni boshqargan ayol podshohni shunday ataganlar; u o'n besh yil davomida hukmronlik qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

so'rab turklarga murojaat qildi va ular yordamga katta qo'shin jo'natdilar. Musulmonlar ular bilan jang qilib g'olib chiqdilar va ularning qarorgohidagi hamma narsani o'lja qilib olib ketdilar, musulmonlar yo'llaridagi barcha narsani vayron qilib, yoqib borardilar. Xotun elchi yuborib sulh tuzishni iltimos qildi. U 1000000 (dirham)ga sulh tuzib, so'ngra shaharga kirdi. Ubaydulloh Ramdin[1] va Paykendni ham zabt etdi.

Undan so'ng Muoviya Said ibn Usmon ibn Affonni[2] Xuroson voliyligiga tayinladi. U birinchi bo'lib [Amu]daryodan lashkar bilan o'tganlardan sanaladi. Xotunga bu haqda xabar yetib borgach, u sulh shartiga ko'ra, unga boj yubordi. Sug'd[3] ahli, turklar, Kesh, Nasaf yoki Naxshab aholisi 120000 kishilik lashkar bilan unga qarshi chiqdilar: ular Buxoro (yaqini)da birlashdilar. Xotun boj to'laganiga pushaymon bo'lib, shartnomani bekor qildi. Biroq [noma'lum sababga ko'ra] yig'ilganlar birin-ketin tarqaldilar va Xotun Saidga qul [va cho'rilar] jo'natib shartnomani yangiladi. Said Buxoro shahriga kirdi.

So'ngra Said ibn Usmon Samarqandga yurish qildi, unga Xotun va Buxoro aholisi ko'maklashdi. U Samarqand darvozalari yonida to'xtab, shaharni egallab, qal'asini yakson qilmoqqa ont ichdi. U uch kecha-kunduz jang qildi. Uchinchi kun juda qattiq qonli urush bo'ldi va u bir ko'zidan ayrildi; Al-Muhallab ibn Sufro ham bir ko'zidan judo bo'ldi. Aksariyat yarador dushmanlar shahar ichidan panoh izladilar, Saidning qoshiga bir kishi kelib, hukmdor, uning o'g'illari va a'yonlar turgan qasrni ko'rsatdi. U kelib qasrni qamal qildi. Shahar ahli [dushman] qasrni bosib olib, undagi barcha kishilarni yo'q qilishi mumkinligidan qo'rqib, sulh tuzmoqni taklif qildilar. 700000 dirham [to'lov] evaziga sulhga rozi bo'ldi. Qo'shimcha: zodagonlar o'g'illaridan garovga berishni, ularni shaharga kiritishni, xohlaganlar boshqa darvozadan chiqib ketishlari mumkinligi shartlarini ham qo'ydi. Ular 15 ta, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 40 ta yoki 80 ta yigitni berdilar. U qasrni vayron qildi va shundan so'ng Samarqandni tark etdi.

Said Termizda ekanligida Xotun, tuzilgan sulh shartlariga ko'ra, unga o'lpon yubordi. U Termizni tinch yo'l bilan qo'lga kiritgunga qadar o'sha yerda bo'ldi. Keyinroq, Abdulloh ibn Hozim as-Sulamiy o'ldirilgach, uning o'g'li Muso, xalifalikdan ajraldi va Termiz hokimining qoshiga keldi. Hokim unga va uning odamlariga boshpana berdi. Biroq ular Termiz hokimini haydadilar va shaharni egalladilar. Muso o'ldirilgach, Termiz [arab] voliylari qo'liga o'tdi. Shundan so'ng aholi qo'zg'olon ko'tardi va Qutayba ibn Muslim uni egalladi...

[1] *Ramdin* – Romitan.
[2] Xalifa Usmonning ukasi.
[3] *Sug'd* – Zarafshon va Qashqadaryo vodiylari.

@tarixni_kitobxonlarga

Qusam ibn al-Abbos ibn Abd al-Mutallib Said ibn Usmon bilan birga edi va Samarqandda vafot etdi. U shahid bo'lgan ham deyishadi. Abdulloh ibn al-Abbos uning o'limi haqida xabar topib: «Uning tug'ilgan joyi bilan dafn qilingan yeri o'rtasida qanchalik uzoq masofa-ya!» – dedi.

Yazid ibn Muoviya Salim ibn Ziyodni Xurosonga hokim qilib tayinladi. U xorazmliklar bilan 400000 dirhamga sulh tuzdi va ular mazkur mablag'ni yetkazdilar. U xotini Umm Muhammad bilan birga [Amu]daryodan o'tdi. U (22) [Amu]daryodan o'tgan birinchi arab ayoli edi. U Samarqandga keldi va shu yerda o'g'il ko'rdi, uni Sug'd sharafiga As-Sug'diy atadilar.

Salim ibn Ziyod Sug'dda turganida Xo'jandga qo'shin jo'natdi, biroq ular mag'lub bo'ldilar. Shundan so'ng Salim Marvga qaytdi va yana yurish qildi; [Amu]daryodan o'tib, Sug'd podshosi Bandunni o'ldirdi. Sug'dlar unga qarshi birlashdilar va jang-jadallar bo'ldi.

(25) Hajjoj ibn Yusuf Xuroson noibi bo'ldi va Al-Muhallab ibn Sufroni (26) Xurosonga hokim qilib tayinladi. Al-Muhallab ko'p yurishlar qildi. U bundan oldin g'ariblar hukmidan chiqqan Xuttalni hamda Xo'jandni egalladi. Sug'd unga o'lpon to'ladi. U Kesh va Nasafni bosib oldi, so'ngra qaytib ketdi va Marvirudning Zag'ul degan joyida biqinidagi og'riqdan jon taslim qildi. Al-Muhallab o'rniga [kelgan] o'g'li Yazid ko'p urushlar qildi, Buttamni egalladi.

Yazid Xorazmga hujum qildi va u yerda ko'plarni asir qildi. Uning askarlari asirlarning kiyimini tortib oldilar va ular sovuqdan halok bo'ldilar.

So'ngra Al-Hajjoj Xurosonga al-Mufazzal ibn al-Muhallab ibn Abu Sufroni noib qilib tayinladi. U ilgariroq [arablar] qo'lidan chiqib ketgan Bodg'isni, shuningdek, Shumon va Oharunni ham egalladi, ko'plab o'lja oldi va ularni askarlarga bo'lib berdi.

(28) Shunday hikoyat qiladilar: Al-Hajjoj Xuroson noibligiga Qutayba ibn Muslim al-Bohiliyni tayinladi. U Taliqonga yetib borganida, uni Balx dehqonlari kutib oldilar va u bilan birgalikda [Amu]daryodan o'tdilar. Ular daryoning narigi qirg'og'iga o'tganlarida, Sag'oniyon hokimi sovg'alar va oltin kalit bilan yetib keldi. U tobelik izhor etdi va Qutaybadan uning viloyatida qo'nmoqqa taklif qildi. Oharun va Shumon hokimi ilgariroq Sag'oniyon hokimi [yerlariga] bostirib kirib, uni xafa qilganligi sababli, u [Sag'oniyon hokimi] Qutaybani chorlab, unga tortiqlar keltirdi. So'ngra Qutayba huzuriga, xuddi Sag'oniyon hokimi kabi, Kufyon[1] hokimi ham sovg'alar bilan keldi va ular ikkalasi o'z mulklarini topshirdilar. Shundan so'ng Qutayba Marvga qaytdi va Movarounnahrda o'z o'rniga ukasi Solihni qoldirdi.

Solih Farg'ona [hududiga] qarashli Koson va Urashtni bosib oldi. Nasr ibn Sayyor u bilan birga, qo'shin tarkibida edi. Solih Farg'ona hududidagi

[1] *Kufyon* –Termiz yaqinidagi mulk.

@tarixiy_kutubxonasiga

Bianhor va Xshikat (Axsikat)ni ham zabt etdi; [Xshikat] qadimda Farg'onaning poytaxti bo'lgan. Koson va Urashtni, bu joylar [arablar hukmidan] chiqib ketgandan so'ng, oxirgi marta [Xalifalikda Abbosiy xalifa] Al-Muntasir (861–862) hukmdorligi chog'ida Nuh ibn Asad[1] egallagan. Qutayba Nizak[2] bilan birga 87 (705–706)-yili Paykandga hujum qilmoqchi bo'ldi. U Zolin ro'parasida [Amu]daryodan o'tdi va Buxoro shaharlari ichida daryoga eng yaqin joylashgan Paykandga yo'l oldi. Paykandliklar Sug'ddan yordam so'radilar. Qutayba jang qilib, ularni qurshab oldi. Ular sulh taklif qildilar, lekin Qutayba [ko'nmadi va] shaharni kuch bilan egalladi.

Qutayba 88 (706–707)-yili Tumushkat va Karminiyaga yurish qildi. U Marvda [o'z o'rniga] ukasi Bashshar ibn Muslimni qoldirib, tumushkatliklar bilan sulh tuzdi va bir necha qo'rg'onni egalladi. So'ngra Qutayba Buxoroga hujum qilib, uni jangsiz egallashga muvaffaq bo'ldi.

Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musonna dedi: Qutayba Buxoroga yetib keldi, lekin aholi [shahar] darvozalarini yopib qo'ydilar. U: «Menga shaharga kirib ikki rakaat namoz o'qishimga ruxsat beringlar», – dedi. Uni [shaharga] kiritdilar. Qutaybaning bir guruh odamlari pistirmada edi. U [darvozadan] kirishi bilanoq (29) uning odamlari ham bostirib kirdilar va darvozadagi soqchilarga hujum qilib, ularni o'ldirdilar va shaharga kirdilar. U yerda Qutayba katta pul mablag'ini egalladi va buxoroliklarga nisbatan qaroqchilarcha yo'l tutdi.

Abu Ubayda aytishicha, Qutayba Sug'dga ham hujum qilgan, To'xoristonda Nizakni o'ldirib, mixlab tashlagan. Kesh va Nasaf yoki Naxshabni jangsiz egallagan.

Aytishlaricha, Xorazm podshosi (malik) ancha zaif ekan, uning ukasi Xurrazod, uni bir chekkaga surib qo'yib, o'zi hukmdorlik qilarkan. Xorazm podshosi Qutaybaga quyidagi mazmunda payg'om yo'lladi: «Men senga bir qancha narsalar bilan birga [shahar] kalitini ham topshiraman. Shartim shulki, sen meni o'z o'rnimda podshoh qilib qoldirasan. Xorazm devor bilan o'ralgan uchta shahardan tashkil topgan. Ulardan Fil shahri eng mustahkam edi. Ali ibn Mujohid, Fil – bu Samarqand [kabi]dir», – degan ekan.

[Xorazm] podshosi eng mustahkam shaharda to'xtadi va Qutaybaga ma'lum mablag'dan iborat pul va [shahar darvozalari] kalitlarini yuborib, evaziga sulh tuzdi. Qutayba ukasi Abdurahmon ibn Muslimni Xurrozodning huzuriga yubordi. Abdurahmon unga qarshi jang qilib, uni halok qildi va g'alaba qozondi, to'rt ming asir oldi, ko'p o'tmay ularni ham qirib tashladi. So'ngra kelishuvga muvofiq, oldingi podshohni Xorazmga hukmdor

[1] *Nuh ibn Asad* – Somoniylar sulolasi asoschisi, Somonxudotning to'rt nevarasidan biri; Samarqand hokimi ayni paytda, qolgan uchta ukasi ham unga tobelik izhor qilganlar.

[2] *Nizak* – Bodg'is hokimi.

@tarixni_kutubxonasiga

qilib tayinladi. Biroq Xorazm ahli uni zaif deb o'ldirdilar. Qutayba Xorazmga o'z ukasi Ubaydulloh ibn Muslimni hokim qilib tayinladi.

Qutayba Samarqandga yurish qildi. Qadimda Sug'd podshohlari shu yerda turardilar, lekin keyinchalik Ishtixonga ko'chib o'tdilar. Qutayba Samarqand ahlini o'rab oldi. Ular bir necha marta to'qnashib, jang qildilar. Sug'd podshosi Torbandda qarorgoh qilgan Shosh hukmdorlariga yordam so'rab maktub yo'lladi.

U katta qo'shin bilan yetib keldi. Musulmonlar bilan ular o'rtasida halokatli qattiq jang bo'ldi. Qutayba ularni mag'lub qildi. G'uzak[1] yiliga 2 million 200 ming dirham o'lpon to'lash evaziga sulh tuzishga muvaffaq bo'ldi va Qutaybaning shaharga kirib namoz o'qishiga ham rozilik berdi. U shaharga kirdi. G'uzak unga dasturxon yozdi. Qutayba yeb-ichib, so'ngra namoz ado etdi. Shundan so'ng masjid [uchun joy] tanladi va bir guruh musulmonlarni joylashtirdi. Ularning orasida «Sharh» [asari]ning muallifi Zahhok ibn al-Muzohim[2] ham bor edi. Aytishlaricha, Qutayba mahalliy aholi musulmonlarni uch kecha-kunduz mehmon qilish sharti bilan 700000 dirham to'lovga rozi bo'lgan ekan. [Otashparastlar] butxonalari va ibodatxonalarini [musulmonlar ixtiyoriga] topshirish ham sulh shartiga kirardi. Butlarni uylardan olib chiqdilar, ulardagi barcha qimmatbaho narsalar va zeb-ziynat buyumlarini olib topshirdilar. Mahalliy aholi, butlar orasida shundaylari borki, ularga qo'l tegizgan kishi halok bo'ladi, deyishardi. Qutayba shaxsan o'zi butlarni yoqib yuborgach, [bu holatni kuzatib turganlardan] bir guruhi islomni qabul qildi.

(33) Muhammad Buttamga yurish qildi va [ul joyni] egalladi. Mahalliy aholi unga qarshi bosh ko'tardilar, Muhammad orqaga chekindi. Aholi uni ta'qib qildilar, u qayta hujum qildi va Buttam [shahri]ga kirdi; Jahm ibn Zahr ham kirdi va u yerda ko'plab boylik va oltin butlarni oldi. Buttam aholisi unga bo'ysunadilar.

(34) Shunday hikoyat qiladilar: Umar ibn Abdulaziz xalifa bo'lgach, Movarounnahr hukmdorlariga xat yo'lladi va ularni islomni qabul qilishga da'vat etdi. Ularning bir qismi islomni qabul qildi. Al-Jarroh ibn Abdulloh al-Hakamiy[3] [xalifa] Umarning Xurosondagi noibi edi. U Muhammad ibn Yazid va uning a'yonlarini tutib qamadi. So'ngra Al-Jarroh Movarounnahr yurishiga Abdulloh ibn Muammao al-Yashkuriyni [boshliq] tayinladi. U dushman o'lkasining ancha ichkarisiga kirib bordi va Sin (Xitoy)ga o'tishni

[1] *G'uzak (yoki G'urak)* – Sug'd ixshidi va Samarqand afshini, ya'ni Sug'd viloyati va Samarqand shahrining oliy hukmdori (710–738).

[2] Az-Zahhok ibn al-Muzohim al-Balxiy al-Xurosoniy (vaf. 723-y.) – «Sharh» asarining muallifi; mudarris bo'lgan.

[3] Al-Jarroh ibn Abdulloh al-Hakamiy – arablarning sharqiy o'lkalarga qilgan ko'plab yurishlarida faol qatnashgan, 731-yil Ardabil yonidagi xazarlar bilan jangda o'ldirilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

ham rejalashtirgan edi. Lekin turklar uni o'rab oldilar va u to'lov to'lab qutulib chiqdi hamda Shoshga keldi.

(35) Yazid ibn Abdulmalik xalifalik taxtini egallagach, Maslama ibn Abdulmalikni Iroq va Xurosonga noib qilib tayinladi. Maslama esa Said ibn Abdulazizni Xuroson voliysi vazifasiga belgiladi.

Said avvaliga Savra ibn al-Hurr al-Xanzaliyni, so'ngra o'z o'g'lini Movarounnahrni boshqarishga yubordi. Savra Ishtixonga yetib bordi, [lekin] ilgariroq bu yerga turklar kirib kelgan edi. U turklar bilan jang qildi va g'olib chiqdi. U ikkinchi marta turklar bilan to'qnashdi va turklar uni mag'lub qilib, askarlaridan ko'pini qirib tashladilar. Shundan so'ng Said [Xurosonga] Nasr ibn Sayyorni noib qilib tayinladi.

(38) Shunday hikoyat qiladilar: Al-Ma'mun, musulmonlar amiri, xalifa bo'lgach, Sug'd, Usrushana va bosh ko'targan farg'onaliklarga qarshi lashkar jo'natdi. U Xurosonda [noib] bo'lib turganida va undan keyin ham izchil jang-jadallar olib bordi. U lashkar jo'natarkan, bir vaqtning o'zida xat ham yo'llab, ularni islomga da'vat qilardi.

Usrushana hokimi Kovus al-Fazl ibn Sahl – [xalifa] al-Ma'munning vaziri va kotibiga maktub yo'lladi va musulmonlar uning mamlakatiga hujum qilmasalar o'lpon to'lab turishini ma'lum qildi. [Xalifa] bunga rozilik berdi, biroq, Al-Ma'mun, – uni xudo rahmat qilsin, – Dor us-salom (Bag'dod)ga qaytib borgach, Kovus[1] o'zi taklif qilgan tinchlik shartini bajarishdan bosh tortdi.

Kovusning bitta e'tiborli ish yurituvchisi bor edi. U qizini Kovusning o'g'li Al-Fazlga turmushga uzatdi. U [kuyovi] Al-Fazlni juda hurmat-izzat qilardi, lekin ayni paytda, Kovusning o'g'li Haydarni [Afshin[2] ismi bilan mashhur bo'lgan] xush ko'rmasdi va uning haqida g'iybat tarqatdi. [Kunlarning birida] Haydar ana shu ish yurituvchiga tashlandi va Qunt shahri darvozasi oldida uni o'ldirdi, o'zi esa, [Xuttal] hokimi Hoshim ibn Muhavvir al-Xuttaliyning qoshig'a qochib ketdi.

Haydar [undan] otasi (Kovus)ga xat yozib e'tiborini tortishni iltimos qildi.

Haydar (Afshin) islomni qabul qildi va Dor us-salom (Bag'dod)ga keldi. U Al-Ma'munga Usrushanaga yurish qilishning ayni payti kelganligini, osonlikcha g'alabaga erishish mumkinligini aytib, u tomonga boradigan eng yaqin yo'lni ham tavsifladi. Avvallari esa, Al-Ma'munni [usrushanaliklar bilan] jang qilish juda og'ir, deb ishontirishgandi. Al-Ma'mun Usrushanaga Ahmad ibn Abu Xolid boshchiligida katta qo'shin jo'natdi. Kovus arablar-

[1] *Kovus* – Usrushananing podshosi. Arablar Usrushanani bosib olgach, Kovus, shunchaki, rasmiyatchilik uchun islomni qabul qildi va o'z o'rnida hokim bo'lib qoldi.

[2] *Afshin (yoki Haydar)* – Kovusning o'g'li. Odatda, Usrushana hukmdorlarini ham «afshin» ataganlar.

@tarixchi_kutubxonasiga

ning kelishidan xabar topib, Al-Fazl ibn Kovusni yordam so'rab turklarga yubordi. Ular katta qo'shin jo'natdilar. Ahmad ibn Xolid Usrushanaga yetib keldi va Al-Fazl turklar bilan yetib kelmasdan oldin poytaxtga kirishga muvaffaq bo'ldi. Kovus esa Xolid yaqin yo'lni bilmaydi va uzoq yo'ldan yuradi, deb o'ylagan edi.

Al-Fazl ahvoldan xabar topgach, turklar bilan cho'lga ketdi. So'ngra u turklar huzuridan chiqib otasi yoniga oshiqdi. U yetib kelgach, [arablar tomonidan] otasiga berilgan xavfsizlik kafolati unga ham joriy etildi. [Cho'lda qolgan] turklar suvsizlikdan halok bo'ldilar. Kovus Dor us-salom (Bag'dod)ga borib islomni qabul qildi. Al-Ma'mun uni o'z yurti (Usrushana) ning hukmdori qilib qoldirdi. Uning [vafotidan so'ng] o'rniga o'g'li Haydar, ya'ni Afshinni hokim etib tayinladi.

Undan oldin Al-Ma'mun, Xurosondagi noiblariga maktub yo'llab, Movarounnahrda bo'ysunishdan bosh tortgan va islomni qabul qilmaganlar ustiga qo'shin tortmoqqa buyruq bergan edi. U bu o'lkaga o'z odamlarini yubordi va ular hamkorlik qilishga va devonda ular bilan ishlashga rozilik bildirganlarni, mahalliy xalqdan yoki ularning hukmdorlarining o'g'illari bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum mansablarga tayinladilar va ularga maosh belgiladilar. [Al-Ma'mun] ularning qalbida o'ziga nisbatan ehtirom-e'tiqod uyg'otishga intilardi; huzuriga kelganlarni esa yaxshi kutib olib, saxovat ila sovg'alar ulashardi.

Undan so'ng Al-Mu'tasim billoh xalifalik taxtiga o'tirdi va [ahvol] ilgarigiday qolaverdi. Shunday bo'ldiki, [xalifalik] qo'shinlarining aksariyatini Movarounnahr – Sug'd, Farg'ona, Usrushana, Shosh va boshqa [viloyatlar] askarlari tashkil qilardi. Ushbu viloyatlar hokimlari [xalifa Al-Mu'tasim] huzuriga kelib turardilar va bu yerlarda islom g'alaba qozondi. Ul joylarning aholisi endi o'zlari qo'shni turklarga hujum qilardilar.

Abdulloh ibn Tohir o'z o'g'li Tohir ibn Abdullohni g'uzlar mamlakatiga yurishga yo'lladi. U [arablar] qadami yetmagan joylarni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Al-Umari, u o'z navbatida, Xaysam ibn al-Adiydan eshitgani bo'yicha, menga shunday hikoyat qildi: Qutayba arablarni Movarounnahr, hatto Farg'ona va Shoshda [muqim yashash uchun] qoldirgan ekan.

## AL-YA'QUBIY IBN VOZIH VA UNING «TARIX» ASARI

Al-Ya'qubiyning to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Abu Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vozih al-Kotib al-Abbosiy al-Ya'qubiy bo'lib, adabiyotlarda Ahmad al-Kotib, Ahmad ibn Abu Ya'qub, Ibn Vozih va Al-Ya'qubiy nomlari bilan eslatiladi. Lekin bu qisqartma ismlarning oxirgisi ko'proq uchraydi. Uning ajdodi Vozih, xalifa Al-Mansurning mavlosi, Armaniston

@tarixchi_kutubxonasiga

va Misrda omil bo'lgan. Uning bobosi va otasi xat-xabar xizmati sohasida oliy mansablarda bo'lganlar. Uning o'zi ham shu an'anani davom ettirgan. Har holda uning ko'pdan ko'p sayohatlar qilishga imkoni bo'lganligi shundan dalolat beradi.

Al-Ya'qubiy Bag'dodda tug'ilgan, lekin yoshligida uni tark etadi; u uzoq muddat Armaniston va Xurosonda yashagan, Hindiston va Falastinda bo'lgan va yana uzoq muddat Misrda yashagan, Mag'ribda bo'lgan. Misrda u O'rta Osiyodan chiqqan To'luniylar homiyligidan foydalangan.

Al-Ya'qubiyning vafoti vaqtini ba'zi mualliflar 897-yil, ba'zilar esa 903-yil deb hisoblaydi[1].

Al-Ya'qubiyning qalamiga mansub asarlar asosan uchtadir: «Kitob al-buldon» («Mamlakatlar kitobi»), «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi» yoki «Tarix») va «Mushokalot an-nos li-zamonihim» («Insonlarning o'z zamoniga moslashishi»). Bu asarlardan bizning mavzumizga mosi ularning ikkinchisi – «Tarix» asaridir. Bu asar ikki jilddan iborat bo'lib, birinchi jildi insoniyatning Odam Atodan boshlab to payg'ambar zuhurigacha tarixiga bag'ishlangan, ikkinchi jildida arab xalifaligining tarixi to 872-yilgacha yetkazilgan. Muallif tarixni sulolalar kechmishlari uslubida bayon qilgan va bunda har bir xalifaning hukm surgan yillari tarixi yoritiladi. Biz quyida keltirgan parchalar M.T. Xautsmaning 1883-yilgi nashridan o'girilgan (arab tilidan A.Ahmedov tarjimasi).

**A.Ahmedov**

## AL-YA'QUBIY IBN VOZIH. «TARIX»DAN

(189) [Hijriy] 26 (645–646)-yili Usmon mahalliy aholining joylarini sotib olib, Masjid ul-Haramni kengaytirdi va kattalashtirdi[2].

(192) Abdulloh ibn Amir[3] hijriy 30 (651–652)-yili Nishopurni fath qildi. Tabasaynning hokimi bilan ular yetmish besh ming [dirham] to'lash sharti bilan sulh tuzdi. Keyin [u yerdan] ketdi va Abarshahr shahriga yetdi va uni bir necha oy qamal qilib, so'ng fath qildi va uning aholisi taslim bo'ldi. So'ngra u Hirot aholisiga (193) maktub yozdi... U paytlar Bushanj va Badg'is Hirotga qarardi, Tus va Nishopur esa Abarshahrga. So'ngra u fath qilib,

[1] *Крачковский*. Арабская географическая литература. С.151.

[2] *Usmon ibn Affon* (664–656) – Xulafoi roshidinning uchinchisi. Uning buyrug'i bilan Qur'onning haqiqiy deb hisoblangan va barcha sahobalar tomonidan tasdiqlangan yagona nusxasi – Mushaf tuzilgan va boshqa nusxalar yondirib yuborilgan. Masjid ul-Haram – Ka'bada shakllangan muqaddas masjid.

[3] *Abdulloh ibn Amir* – arab lashkarboshisi, Basraning hokimi, Xurosonni zabt etishda katta faoliyat ko'rsatgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

mingta ming dirham berishlari sharti bilan sulh tuzdi. Al-Ahnaf ibn Qaysni[1] Hirot va Marvarrudga yubordi. U Hirotga keldi. Uning hokimi uni oziqlar bilan va bo'ysunish bilan kutib oldi. So'ngra Marvarrudga kelib, uni tezda fath etdi. Shuningdek, Talliqon, Foryob va Toharistonni ham fath etdi. U Balx daryosi (Amudaryo)ning suvini ichmagunicha Abdulloh ibn Amirning huzuriga qaytmadi.

Xuroson aholisidan ba'zilarining aytishlaricha, Abdulloh ibn Amir Nishopurni zabt etganida, Ahnaf ibn Qaysni Marvarrudga, Avs ibn Nu'mon al-Baxmmiyni – Marvga va Abdulloh ibn Hozim as-Salamiyni Saraxsga yuborgan. Ularning har biri o'zi yuborilgan shaharni fath etgan, faqat Marv istisno, chunki Hotam uning aholisi bilan ular ikki mingta ming va ikki yuz ming uqqiya to'lashlari sharti bilan sulh tuzgan.

## Muoviya ibn Abu Sufyon[2] xalifaligi

...Hijriy 42 (662–663)-yili Muoviya Abdurahmon ibn Somirani Xurosonga yubordi, u bilan birga Abdulloh ibn Hozim as-Salamiyni ham yubordi. U Balx va Kobulni zabt etib, Xurosonga qaytib keldi...

(264) Hijriy 44 (664–665)-yili Muoviya sahoba Al-Hakam ibn Amr al-G'ifariyni Xurosonga yubordi. Lekin u tez orada o'ldi va uning o'rniga ar-Rabi' ibn Ziyod al-Harisiy noib bo'ldi. U esa Abdulloh ibn Uqayl as-Saqafiy bilan birga Xorazmni fath etdi...

(281) Hijriy 54 (675–676)-yili Ubaydulloh ibn Ziyod Muoviyaning huzuriga kelib, otasi Ziyodning o'rniga Xurosonga noib etib tayinlandi.

Ubaydulloh ibn Ziyod Xurosonga keldi va Buxoroni fath eta boshladi. U yerning malikasi Xotun edi. U esa Balx daryosidan o'tib, ular bilan jang qildi va Buxoroni zabt etdi. U Balx daryosidan o'tgan birinchi arab edi. U yerdagi jang juda qahrli bo'ldi. U g'alaba qozondi va so'ngra Xurosondan Muoviyaning huzuriga qaytib keldi. U esa uni hijriy 56 (676–677), boshqalarning aytishicha, 57 (677–678)-yili Basraning voliysi etib tayinladi.

Hijriy 56 (676–677)-yili Muoviya Abdulloh ibn Ziyodni Xurosonning hokimi etib tayinladi. So'ngra uni chetlatib, o'rniga Abdurahmon ibn Ziyodni qo'ydi. Biroq uni ham yoqtirmay, chetlatdi. Lekin Abdurahmon katta boylik bilan ketdi. Aytishlaricha, u bunday degan: «Men shuncha boylik bilan ketdimki, agar men undan har kuni ming dirhamdan sarflaganimda ham yuz yilga yetardi». Lekin shu boylikning hammasi yo'q bo'ldi. Keyinchalik Al-Hajjojning[3] davrida uni eshakda ketayotganini ko'rib, undan so'rashgan:

[1] *Al-Ahnaf ibn Qays* – arab lashkarboshisi va xalifalikning Xurosondagi birinchi omili.
[2] *Muoviya ibn Abu Sufyon* (661–680) – Umaviylar sulolasidan birinchi xalifa.
[3] *Al-Hajjoj ibn Yusuf* – arab lashkarboshisi, Iroqning omili.

@tarixchi_kutubxonasiga

«Sening boyliklaring qani?» U javob bergan: «Menda (282) Allohning siymosidan boshqa hech narsa yo'q. Hatto mana bu eshak ham meniki emas, men tamomila yalang'ochman».

Abdurahmon ibn Ziyoddan so'ng Muoviya Xurosonning hokimi etib Said ibn Usmon ibn Affonni tayinladi. U Balx daryosidan o'tib, Buxoroga keldi. Buxoro malikasi Xotun sulh so'radi. U sulhga rozi bo'ldi. So'ng malika sulhni buzdi va Said ular bilan jang qilib, g'alaba qozondi va ko'p odamni o'ldirdi. So'ngra u Samarqand tarafiga yurib, uni qamal qildi. Lekin uning qamal qilishga toqati bo'lmay, shahar qal'asini qo'liga oldi, uning ichida podshohlarning o'g'illari bor edi. Lekin shahzodalar uning qo'liga tushganlaridan so'ng aholi sulh so'radi. Biroq u jang qilishni davom ettirdi va shahar darvozasini ochib, ichiga kirdi. Ichki qal'adan bir tosh tushdi. Ularning orasida Qusam ibn al-Abbos ibn Abdulmutallib[1] ham bor edi. O'sha tosh buning boshiga tegib, uning joni Samarqandda uzildi. Bu xabar Abdulloh ibn Abbosga yetganida u bunday dedi: «Uning tug'ilgan va o'lgan yerlarining orasi qanchalik uzoq-a?!.. U o'zi Makkada tug'ilgan edi, ko'milgan yeri esa Samarqandda».

Keyin Said ibn Usmon Muoviyaning huzuriga ketdi. Muoviya uning o'rniga Aslom ibn Zur'ani tayinladi. Said Sug'd shahzodalarining oilalarini olib Madinaga ketdi. Shunda ular yo'lda ketayotib, bir-birlarini o'ldirdilar va ulardan hech kim tirik qolmadi...

## Yazid ibn Muoviya xalifaligi[2]

...(300) Yazid [hijriy 63 (682–683)-yili] Xurosonga amir etib Salm ibn Ziyodni tayinladi. U bilan birga bir necha taniqli kishilarni yubordi. Ulardan biri Talha at-Talhot edi. Bu – Talha ibn Abdulloh ibn Xalaf al-Xuzoiy edi. Keyingilari – Al-Muhammad ibn Abu Sufra va Umar ibn Abdulloh ibn Muammar at-Taymiy, Abdulloh ibn Hozim as-Silliy. Salm Xurosonga borib, Nishopurda to'xtadi. So'ngra Xorazmga borib, uni zabt etdi. So'ngra u Buxoroga bordi, uning malikasi Xotun edi. U [Salmning] odamlarining ko'pligini ko'rib, qo'rqdi va Sug'dning podshohi Tarxunga [bunday] maktub yozdi: «Men sening rafiqang bo'laman, sen huzurimga kelib, Buxoroning podshohi bo'l». U yuz yigirma ming kishilik askar bilan uning huzuriga keldi. Shunda Salm ularga qarshi Al-Muhallab Abu Sufrani muqaddam qilib yubordi. U borib, Tarxunni o'ldirdi...

[1] *Qusam ibn al-Abbos ibn Abdulmutallib* – Muhammad payg'ambarning amakivachchasi, uning otasi Al-Abbos Abdulmutallibning o'ninchi va eng kichik o'g'li bo'lgan. Uning qabri Samarqandda Shohi Zinda maqbarasida saqlangan.

[2] *Yazid ibn Muoviya* (680–683) – Umaviylar sulolasidan ikkinchi xalifa.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Abdulmalik ibn Marvonning[1] xalifaligi

Abdulmalik ibn Marvon ibn al-Hakam Marvon vafot etgan kuni podshohlikka o'tirdi. (321) Bu hijriy 65 (697–698)-yili, Al-Hajjojgacha, Xurosonda Al-Muhallab ibn Abu Sufra amirlik qilardi. Uning o'g'li Al-Mug'ira Marvda hukm surdi va o'sha yerda vafot etdi... Bir kuni Al-Muhallab Sug'd mamlakatiga kirdi va Keshda to'xtadi. Sug'dning podshohi sulh so'radi. Al-Muhallab u yerdan garovga asirlarni oldi va ularni Haris ibn Qutbaga topshirib, o'zi Balxga qaytdi.

## Al-Valid ibn Abdulmalik xalifaligi[2]

...(341) Al-Hajjoj o'shanda (91/709–710) Yazid ibn al-Muhallabni Xurosonning amirligidan chetlatdi va o'rniga (342) Al-Mufazzalni tayinladi. Keyin uni ham chetlatib, o'rniga Qutayba ibn Muslim al-Bohiliyni tayinladi. Qutayba Rayning omili edi. U (Al-Valid) unga (Qutaybaga) maktub yozib, Al-Mufazzalni va o'g'illarini tekshirishni va ularni uning huzuriga yuborishni buyurdi. Qutayba Raydan chiqib, Marvga keldi. Kelib Al-Mufazzal ibn al-Muhallabni va al-Muhallabning boshqa o'g'illarini tutdi. Ularni asir qilib, Al-Hajjojning huzuriga yubordi. U esa ulardan mingta ming dirham talab qildi.

Qutayba Buxoroga bordi va uni fath qildi. Shuningdek, o'sha yerdagi bir necha shaharlarni ham zabt etdi. Keyin u yerda hokimlik qildi Varqa ibn Nasr al-Bohiliyni qoldirib, o'zi qaytib keldi va unga tinchlikni saqlab turishga buyurdi. Turklarning boshlig'i Nizak Qutaybaning huzuriga kelib, uning janglarida ishtirok etardi. Biroq Qutayba ketganidan so'ng Sug'dning hukmdori Tarxun va buxorxudot Jil Abu Shukr va turklardagi Qur Ma'anun Tuqsi harakatga keldilar. Bu esa Qutaybada ularga nisbatan nafrat uyg'otdi va ularga qarshi Hayyon an-Nabatiyni yubordi, u borib, ularni taslim qildi. Keyin u Talliqonga ketdi. U yerda Bodom hukm surardi. U isyon ko'tarib, mamlakatni ishg'ol qildi. Lekin Bodomning o'g'li Qutayba bilan birga edi. Bodom qal'ada mustahkam o'rnashib, isyon ko'tardi, degan xabarni eshitgach, Qutayba uning o'g'lini va u bilan birga bo'lgan guruhni yo'q qildi. So'ngra Bodomga duch kelib, u bilan bir necha kun jang qildi. Nihoyat uni ham yengib, o'ldirdi. Shuningdek, uning farzandlari va xotinini qatl etdi... Mamlakatga amir etib o'zining ukasi Amr ibn Muslimni tayinladi. Qutayba Buxoro va Taliqonni zabt etganida, Nizak Tarxun undan o'z yurtiga qaytishiga ruxsat berishini so'radi. Nizak

[1] *Abdulmalik ibn Marvon* (685–705) – Umaviylar sulolasidan beshinchi xalifa.
[2] *Al-Valid ibn Abdulmalik* (705–715) – Umaviylar sulolasidan oltinchi xalifa.

@tarixchi_kutubxonasiga

bungacha islomni qabul qilgan va Abdulloh deb atalardi. U uning qaytishiga ruxsat berdi. U (Nizak) Toharistonga qaytib keldi va isyon ko'tardi, noarablarga maktub yozib, askar to'pladi. Shunda Qutayba unga qarshi yurdi va Sulaymni, maslahatchisini, do'stini yubordi. Keyin Qutayba (343) uni va opasining o'g'lini qatl etib, boshlarini Al-Hajjojga yubordi. So'ngra Qutayba Xorazmga bordi. U yerda Said ibn Vanufar hukm surardi. Jang-u jadal tugagach, Qutayba mamlakatni tinchlantirdi va Xorazmga amir qilib (344) Abdulloh ibn Abu Abdulloh al-Kermoniyni tayinladi. So'ngra Qutayba Samarqandga yo'l oldi. Bungacha Gurek Sug'dning podshohi Tarxunni o'ldirib, mamlakatda hukm surardi. Qutayba kelganida, u (Gurek) u bilan jang qildi. Kuchli jang bo'ldi. Qutayba sulhni juda istardi va Gurekka maktub yozib, uni shunga chaqirdi. Shunda Gurek Samarqand aholisiga murojaat qilib, dedi: «Qaranglar, biz ular bilan sulh tuzamiz, lekin shu shart bilanki, bizning shahrimizga faqat ikki kishi kiradi: ulardan biri Kafki, ikkinchisi Ukof». Shunda Qutayba va hamma musulmonlar «Allohu akbar!» dedilar va aytdilar: «Axir amirimizning ismi «Tuya o'rkachini anglatadi-ku». Shunday qilib, ular uni sulh tuzish uchun shaharga kirishga ko'ndirdilar. U ikki rakaat namoz o'qib, Kesh darvozasidan shaharga kirdi va Xitoy darvozasidan chiqdi. Shunda Gurek Samarqand podshohi Qutayba va uning odamlarini dasturxonga taklif qildi. Va u (Qutayba) unga (Gurekka) sulh tuzilganligi haqida ushbu yozma yorliqni berdi: «Qutayba ibn Muslim va Gurek – Sug'd ixshidi va Samarqand afshini, Sug'd, Samarqand, Kesh va Nasaf uchun sulh to'g'risida va u (Gurek) har yilning boshida uch ming dirham to'lab turishi to'g'risida kelishdilar. Va uning bo'ynida Allohga qasam va qarz va amir Al-Hajjoj ibn Yusufga qarz yotadi. Men bunga yozma guvohlik beraman». Bu hijriy 94 (712–713)-yili bo'lgan edi. Qutayba Samarqandning omili etib o'z ukasi Abdurahmon ibn Muslimni tayinladi. Lekin Samarqand aholisi uni tan olmadi. Shunda Xoqon, turklarning podshohi, unga (Abdurahmonga) qarshi yurdi va u Qutaybaga maktub yozdi. Biroq Qutayba ikkilanib, butun qish bo'yi yordamga kelishga botinmadi. So'ng keldi. Shunda turklarning lashkari chekindi. Va u (Qutayba) Xurosonga qaytdi...

(345) Al-Hajjoj Muhammad ibn al-Qosim ibn Muhammad ibn al-Hakam ibn Abu Uqayl as-Saqafiyni hijriy 92 (710–711)-yili As-Sindni zabt etishga yubordi... Keyin u katta lashkar bilan Ad-Daybul tarafiga yurdi va shu lashkar bilan bir necha oy jang qildi. (346) Ularda Buddaning haykali bor edi va ular unga sajda qilardilar, uning balandligi osmon tarafiga qirq gaz edi. Uni manjaniq yordamida yiqitdilar va buzdilar. Ular toat qiladigan bu Buddaning ichida yetti yuz rotba bor edi. Undan ko'p boylikni oldilar. Ad-Daybul[1] – bu ularning eng katta shaharlaridan edi, olinganidan so'ng

[1] *Ad-Daybul* – Sind daryosining dengizga quyilish yeridan g'arbroqdagi o'rta asr shahri.

@tarixchi_kutubxonasiga

boshqa shaharlarning aholisi ham unga bo'ysundi. Ad-Daybuldan u An-Nirunga bordi va uni taslim qildi. Shunda u Al-Hajjojga maktub yozdi, undan fathlarni davom ettirishga ruxsat so'radi. U esa javob maktubida: «Davom etaver. Sen butun zabt etgan narsalarning amirisan», – dedi. U, shuningdek, Xurosonning omili bo'lib turgan Qutayba ibn Muslimga ham yozib: «Agar ikkingizdan qay biringiz Xitoyga oldin borsangiz, o'shaningiz uning omili bo'lasiz», – dedi...

(348) Al-Hajjoj ibn al-Yusuf shu hijriy 95 (713–714)-yili vafot etdi. O'sha kuni u ellik to'rt yoshda edi. Shundan yigirma yil u Iroqda amir bo'ldi. Uning o'rniga Al-Valid o'zining noibi etib, Yazid ibn Abu Muslimni tayinladi...

(349) Al-Valid hijriy 96-yil jumodulavvalning 14-kuni o'tganida (715-y., 25-yanvar) vafot etdi. Lekin ba'zilar bu jumodussoniyning xuddi shunday kunida (715-y., 24-fevral) bo'lgan deyishadi...

## (351) Sulaymon ibn Abdulmalik[1] xalifaligi

Sulaymon ibn Abdulmalik ibn Marvon hijriy 96-yil jumod ul-avvalning o'rtasida (715-y., 25-yanvar) podshohlik [taxti]ga o'tirdi...

(354) Qutayba ibn Muslim al-Hajjojning Xurosondagi omili edi. Unga Sulaymon o'z dushmanlariga nisbatan qilayotgan ishlari va Al-Valid bilan Al-Hajjojning omillariga nisbatan kelgan qarori haqidagi xabarlarni eshitganidan so'ng o'z ukalarini va xonadoni a'zolarini to'plab, ajam mamlakatlariga ketdi va Farg'ona mamlakatining eng chekkalarigacha yetdi. Abdulloh ibn al-Axtam at-Tamimiy u bilan birga edi. U undan og'ib, Sulaymonning tarafiga o'tdi va uning huzuriga ketdi. Qutayba uning oila a'zolarining iziga tushdi va ularni yo'q qildi. Shafqatsiz tarzda ularning qo'l-oyoqlarini chopdi. Yazid ibn al-Muhallab uning dushmani edi, hatto [At-Tamimiy] oila a'zolari bilan o'sha ishlarni qilganida va ularni boshqarganida ham shunday edi. Bu haqda unga (Sulaymon)ga yozdi. Sulaymon unga javob yozib, fursat topib, Qutaybani va uning yaqinlarini o'ldirishni buyurdi... (355) O'sha kuni odamlar orasida Hayyon an-Nabatiy bor edi. Ular Qutaybaga hamla qilib, uni o'ldirdilar. Voqi' ibn Abu Sud at-Tamimiy Xurosonda qoldi va o'z omillarini tayinladilar. U Sulaymonga yozib, o'zi qilgan ishlarni bildirdi va Qutaybaning, uning oila a'zolarining boshlarini unga yubordi. Bu hijriy 96 (714–715)-yili yuz bergan edi.

Voqi'ning maktubi Sulaymonga yetganida, unga javob yozib, Xurosonga hokim etib tayinlamoqchi ekanligini bildirmoqchi bo'lgan edi. Lekin unga Voqi' [ig'vo] tarqatuvchi ekanligini va uni Xurosonga yuborib bo'lmasligini

[1] *Sulaymon ibn Abdulmalik* (720–724) – Umaviy xalifalarning to'qqizinchisi.

@tarixchi_kutubxonasiga

aytdilar. Shunda Sulaymon Iroqning amiri etib Yazid ibn al-Muhallabni tayinladi. Bu esa Al-Hajjojning omillarini siquvga oldi. So'ngra u Iroqdan Xurosonga o'tdi va Qutaybaning yaqinlari va qarindoshlarini ta'qib qila boshladi.... (356) va Yazid o'zining ukalari va o'g'illarini viloyatlar va shaharlarga hokimlikka tayinlay boshladi: Muhallabni Samarqandga hokim qildi, Mudrik ibn Muhallabni – Balxga, Muhammad ibn al-Muhallabni – Marvga. Xurosonda Yazidning hukmi kuchaydi...

## (371) Yazid ibn Abdulmalikning[1] xalifaligi

Yazid ibn Abdulmalik podshohlikka hijriy 101-yil rajabida (720-y., yanvar-fevral) podshohlikka o'tirdi....

(372) Yazid xalifa Umar ibn Abdulazizning[2] hamma omillarini mansabidan chetlatdi va Adiy ibn Artaga Yazid ibn al-Muhallabni tutishni buyurdi... [Xalifa] Yazid unga qarshi Maslama ibn Abdulmalikni va Al-Abbos ibn al-Muhallabni o'ldiradi. (373) So'ngra u Yazid ibn Al-Muhallabning barcha bolalari va qarindoshlarini o'ldiradi. Barcha ayollarini esa hibsda Damashqqa yuboradi....

O'sha yili Yazid ibn Abdulmalik Iroqqa amir qilib, Maslamaning o'rniga Umar ibn Xubayrani tayinlaydi...

Yazid Jarroh ibn Abdulloh al-Hakamiyni g'azotga yubordi. U turklar[3] bilan jang qilib, Balanjarni zabt etdi va ko'p odamlarni asirlikka oldi. Hijriy 104 (722–723)-yili u Ar-Rana daryosiga[4] yetdi va xazarlarning hukmdori Xoqonning o'g'li bilan to'qnashdi (376). U bilan jang qilib, uni chekintirdi. Jangda u ko'p odamni o'ldirdi va asir qildi. U Balanjarni zabt qilganidan so'ng xazarlarning podshohi Xoqonga qaram yerlarning yanada ichkarisiga kirdi va Ozarbayjondagi Dabil daryosigacha yetdi. U yerda katta jang bo'lib, Al-Jarroh va uning barcha odamlari o'ldirildi.

## (378) Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvonning[5] xalifaligi

(383) Hijriy 111 (729–730)-yili Xurosonda Sulaymon ibn Kasir al-Xuzoiy[6] paydo bo'ldi va o'z odamlari bilan birga odamlarni Hoshimiylar foydasiga tashviq qila boshladi. Ularning tashviqoti borgan sari ochiq bo'la boshla-

[1] *Yazid ibn Abdulmalik* (720–724) – Umaviy xalifalarning to'qqizinchisi.

[2] *Umar ibn Abdulaziz* (717–720) – Umaviy xalifalarning sakkizinchisi.

[3] «Turklar» deb bu yerda xazar turklarini nazarda tutiladi.

[4] Bu yerda Ar-Rana deb Volga daryosiga nisbatan aytilayotganligi, ehtimol, chunki uning Ptolemey keltirgan qadimgi nomi Ra bo'lgan.

[5] *Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvon* (724–743) – Umaviy xalifalarning o'ninchisi.

[6] *Sulaymon ibn Kasir al-Xuzoiy* – Abbosiylarning (hoshimiylarning) Xurosondagi eng birinchi tashviqotchisi.

@tarixchi_kutubxonasiga

di va ularning tarafdorlari ham ko'paya bordi. Ana shu payt Bukayr ibn Mohon ham chiqib, umaviylarni taxtdan tushirib, hoshimiylarga bay'at qolishga chaqira boshladi. Uning ketidan ko'p odam ergashdi va uning firqasining tarafdorlari ko'paydi. Keyin Bukayr ibn Mohonning o'limi yuz berdi va uning o'rniga Abu Salma Hafs ibn Sulaymon al-Hallol keldi. Bu haqda u Muhammad ibn Ali ibn Abdullohga yozib, u Abu Salma, uning xalifaligiga rozi ekanligi va uni tan olishi haqida unga bildirdi. So'ngra u o'z yaqinlari va safdoshlariga yozib, Muhammad ibn Aliga bo'ysunishlarini, unga quloq solib, tan olishlarini buyurdi. Xuddi shu payt Xolid ibn Abdulloh o'z ukasi Asad ibn Abdullohni Xurosondagi noibi etib tayinladi. Ularning (hoshimiylarning) qilmishlari haqidagi xabarlar unga yetdi. U ularning jamoasini tutdi va har birining oyoq-qo'llarini kesib, tanalarini salibga tortdi. Bu Asadni shunday qo'rquvga soldiki, u o'lib qoldi. Xurosonga noib qilib Ja'far ibn Xanzala al-Buhroniy tayinlandi...

## Al-Valid ibn Yazidning[1] xalifaligi

...(397) Nasr ibn Siyyar[2] Hishomning davrida Yahyo ibn Zayd ibn Ali ibn al-Husaynni hibsga olib, u bilan birga Marvga keldi va uni Marv qal'asidagi qamoqqa qamadi. So'ngra Hishomga yozib, o'zi bilan yuz berganlarni bildirdi. Uning maktubining yetib borishi Hishomning o'limiga to'g'ri keldi. Maktubiga javobni Al-Valid yozib, uni (Yahyo ibn Zaydni) ozod qilishni aytdi. Lekin aytishlaricha, uning o'zi qamoqdan qochgan va Abarshahr yaqinidagi Bayhaqqa kelgan. (398) U yerda shia aholisi unga qo'shildi. Ular yuz yigirmaga yaqin kishi edi. U yerdan qaytib Nishopurga keldi. Nishopurning omili Amr ibn Zurara al-Kasriy uning qarshisiga chiqdi va Yahyo u bilan jang qildi. Yahyo yengib, uni quvladi. Ular asir olinib, taslim qilindi...

O'sha yili Sulaymon ibn Kasir, Malik ibn al-Haysam va Qahtaba ibn Shabablar xuruj qildi. Ular hoshimiylarga va bulardan Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbiga mol va tuhfalar bilan tashviq qilganlarning boshliqlari edi. Abu Muslim ham ular bilan birga edi. Muhammad [ibn Ali] ularga bunday dedi: «Agar biror muddatdan so'ng men bo'lmay qolsam va men shu yillari, – bu esa hijriy 125-yil boshi (742-y. oxiri) edi, – o'lsam, o'ldirilgan Ibrohimning o'g'illaridan biri sizning boshlig'ingiz bo'ladi. Agar Allohning irodasi bilan ular ham o'lsa, sizning boshlig'ingiz Abdulloh ibn al-Xarmossiya bo'ladi. U bu ishda mustahkamdir va bu chaqiriqlar uning foydasigadir, Alloh uni podshohlikka olib keladi. Umaviylarning halokati

[1] *Al-Valid ibn Yazid* (743–744) – Umaviy xalifalarning o'n birinchisi.
[2] *Nasr ibn Siyyar* – xalifa Al-Valid ibn Yazidning Xurosondagi noibi.

@tarixchi_kutubxonasiga

uning qo'li bilan bo'ladi». U (Muhammad) ularning oldiga chiqdi, ular uni ko'rdilar va u o'shanda ular oldida turib, yana bunday dedi: «Hozir Abdurahmon, ya'ni Abu Muslim, sizning farmon beruvchingiz. Unga (399) quloq soling, unga bo'ysuning. Bu davlatda u boshliqdir». Shundan keyin, ya'ni hijriy 125 (743)-yil oxirida Muhammad ibn Ali o'ldi. U oltmish yetti yoshda edi.

Xalq Muhammad ibn Alining o'lganini eshitib, Abu Muslim bilan birga Ibrohimning huzuriga keldilar. U Abu Muslimga ularning ishlariga farmon beruvchiligini aytdi. U ularga farmon beruvchi bo'ldi va Qahtaba ibn Shabibga aytdi: «Sen Nabata ibn Hanzalaga va Amir ibn Zubayraga borib, ularni asir qil, askarlari bilan jang qil. Alloh senga g'alaba ato qiladi va sen Firotgacha etasan. Xalq sening ortingdan boradi». So'ng ular Xurosonga ketdilar.

## (404) Marvon ibn Muhammad ibn Marvonning[1] xalifaligi va Abbosiylarning tashviqoti

Marvon ibn Muhammad ibn Marvon hijriy 127-yil safarida (744-y., 12-noyabr – 11-dekabr) podshohlikka o'tirdi...

(407) Xurosonda Al-Kermoniyning shuhrati orta bordi. U bilan Nasr ibn Sayyor o'rtasidagi urush davom etardi va Al-Kermoniy Nasr ibn Siyyar ustidan g'alaba qozondi; Abu Muslim Al-Kermoniyning ishiga homiylik qilardi.

Bizning qariyalar menga hikoya qilib bergan edilarki, (408) Abu Muslim bunday deganmish: «Agar Al-Kermoniy bilan Nasr ibn Sayyor orasida jang bo'lsa, ey Alloh, uni oxiriga yetkazma va ularning hech biriga g'alaba ato qilma!» Lekin Al-Kermoniy zarba olib, o'ldirildi va Nasr uni salibga tortdi. Shunda Abu Muslim uning lashkarini qirdi va uning ishi ayon bo'lib qoldi. Uning jamoasi kuchaya bordi.

Bu orada Nasr ibn Sayyor harbiy harakatlarni kuchaytira boshladi. Hoshimiylarning tashviqotlari borgan sari ochiq olib borilardi. Bu hijriy 129-yilning Ramazon oyida (747-y., may-iyun) bo'ldi...

Biroq Nasr ibn Sayyorning Xurosondagi ishlari asta-sekin susaya bordi, Abu Muslimniki esa kuchayib ketdi. Shunda Nasr [xalifa] Marvonga maktub yozib, unda o'zining ahvolini ta'riflab, u bilan birga bo'lgan kishilar susayayotgani, Abu Muslim esa kuchayayotgani va o'z niyatlarini sir tutmayotganini yozdi...

Shunda Marvon o'zining Iroqdagi omili Yazid ibn Umar ibn Xubayraga maktub yozib, Nasr ibn Sayyoga odamlari bilan yordam berishi kerakligini

[1] *Marvon ibn Muhammad ibn Marvon* (744–750) – oxirgi, o'n to'rtinchi Umaviy xalifa.

@tarixchi_kutubxonasiga

aytdi. Lekin Yazid biror harakat qilmadi. Keyin Marvon unga Void orqali boshqa maktub yozdi. O'shanda u uning o'g'li Dovud ibn Yazid bilan katta lashkar yubordi. Unda Amir ibn Zubara al-Marriy, al-Juvayriya ibn Ismoil, Nabata ibn Hanzala al-Kilabiylar ham bor edi. Lekin Dovud ibn Yazid ibn Umar hali o'spirin edi...

(409) Bu orada Abu Muslim Hoshimiylar uchun ochiqdan ochiq tashviq qilaverdi. Nasr ibn Sayyor undan bu ishini to'xtatishini talab qildi va undan uchrashishni so'rab, uning huzuriga (410) Lahiz ibn Kurayzni yubordi. Nasr ibn Sayyor o'lganidan so'ng Abu Muslim Lahizni o'ldirdi. Abu Muslim to'la g'alabaga erishganidan so'ng Iroq, Xuroson va Movarounnahrga o'z omillarini tayinladi. Samarqandga omil etib Suboa ibn Mi'mora al-Azdiyni tayinladi.

...Abu Muslim Umaviylarning lashkari bilan jang qilish uchun o'z qo'shinlarini yubordi. Qahtaba Jurjonga borib, Nabata ibn Hanzala bilan to'qnashdi. Jangda Nabata o'ldirildi, uning askarlari qochdi. U (Qahtaba) o'sha lashkardagi barcha bo'lgan narsani oldi va o'ljalarni Homid ibn Barmakka yubordi. U o'ljani o'z odamlari orasida bo'lishdi. So'ng Qahtaba hijriy 131-yil birinchi muharramida (788-y., 31-avgust) qaytib keldi. Keyin u o'z o'g'li Al-Hasan ibn Qahtabani Qumisga o'z lashkarining muqaddamida yubordi. Lekin unga yetib olib, uni Raydan Hamadonga yubordi. U Akkiyni Qulim va Isfahonga yubordi. Qahtaba ham u yerga yetdi, u yerda Amir ibn Zubara al-Marriy turardi. Qahtaba (411) uni o'ldirdi. Askarlarining bir qismi chekinib, Ibn Hubayraning huzuriga keldi. U shu payt Jalulada edi. Qahtaba Nihovandga bordi...

...(413) Abul Abbos o'z ukalari va oila a'zolari bilan Kufaga hijriy 132-yil muharramida (749-y., avgust-sentabr) kirib keldi. Abul Abbos masjidga kirib, xutba va namoz o'qidi. So'ngra Abul Abbos o'z amakisi Abdulloh ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbosni Marvon bilan jangga yubordi... Marvon hijriy 132-yil zulhijjasida (750-y., iyul) o'ldirildi...

## (417) Abul Abbos as-Saffohning xalifalik davri

Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbos, kunyasi Abul Abbosga bay'at qildilar. Bu hijriy 132-yil rabiulavvalining o'n uch kechasi o'tganidan so'ng (749-y., 31-oktabr) ba'zilarning aytishicha, zulhijjaning ikki kechasi qolganida (750-y., 6-avgust) bo'lgan...[1] Uning taxtga o'tirishi Kufada Al-Valid ibn Sa'd al-Azdiyning uyida bo'lgan.

[1] Abbosiy xalifalarning birinchisi Abul Abbos as-Saffohning taxtga o'tirgan yili deb, rasman 749-yil qabul qilingan. U 754-yilgacha hukm surgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

...(420) Abu Abbos ukasi Abu Ja'farni Abu Muslimdan bay'at olish uchun Xurosonga yubordi. U Marvga o'ttiz otliq bilan birga keldi. Abu Muslim uni tantana bilan kutib olmadi va u haqida jon kuydirmadi va hatto unga e'tibor ham bermadi. U esa Abu Muslimni ko'rmasdan ketdi va Abul Abbosga u haqda shikoyat qildi, unga nisbatan bo'lgan haqoratli munosabat haqida xabar berdi va birmuncha bo'rttirib, Abu Muslimni yomonladi... So'ng Abu Muslimning o'zi Abul Abbosning huzuriga keldi, unga izzat-e'tibor qilib, uni ulug'ladi. Lekin Abu Ja'farning ishi haqida unga hech narsa demadi. U bir kuni xalifaning huzuriga kirgan edi, Abu Ja'farga salom bermadi. Shunda Abul Abbos Abu Muslimga dedi: «U sening xo'jang, ha, xo'jang. Nega sen unga, ya'ni Abu Ja'farga salom bermaysan?». U dedi: «Men uni ko'rdim. Lekin xalifaning huzurida undan boshqa hech kimning salomga haqqi yo'q ...»

Abul Abbosga Abu Salma al-Hallolning jazolashga loyiq ishlari haqida xabar keldi. Xalifa unga ta'na qilib, nasihat qildi, inson o'zining g'ayrati, kuchini davlat ishlariga sarflashi kerakligini aytdi, shunda uning foydasi boshqalarga ham tegadi, dedi. Abu Muslim xalifaga Xurosondan maktub yozib, Abu Salmani o'ldirganini, u dushman, yolg'onchi va qabih odam ekanligini yozdi. Abul Abbos unga javobida yozdi: «O'ldirgan odamingni menga yubor!» Xalifa Abul Abbos bu qatldan qattiq ranjidi.

(423) Abul Abbos ukasi Abu Ja'farni Vositga yubordi. Bu payt Al-Hasan ibn Qahtaba Yazid ibn Umar Hubayrani qamal qilib turgan edi...

(424) Ibn Xubayrani o'ldirish kerakmi yoki tirik qoldirish kerakmi ekanligi haqida xalifaning odamlari bilan Abu Muslimning odamlari orasida muxolifat yuzaga keldi. Birlari uni o'ldirish kerak, deb hisobladilar, boshqalari esa tirik qoldirish kerak, dedilar. Bu muxolifatni bartaraf qilish uchun bu ishni mudar qabilasidan Hozim ibn Huzayma at-Tilismiyga topshirdilar. U va uning odamlari Ibn Hubayrani va odamlarini o'ldirdilar...

(425) Buxoroda Sharik ibn Shayx al-Mahriy isyon ko'tardi. Abu Muslim unga qarshi Ziyod ibn Solih al-Xuzoiyni yubordi, u esa uni jangda o'ldirdi...

(433) Abul Abbos saxiy, yumshoq va oliyjanob edi. Menga Muhammad ibn Ali ibn Sulaymon an-Navfaliy aytgan ediki, u o'z bobosi Sulaymondan quyidagi hikoyani eshitgan ekan. Namoz paytida xalifa bilan Abu Ja'far va Abu Muslim birga bo'lishardi. Abu Muslim Xurosondan Bag'dodga hijriy 136 (753–754)-yili kelgan edi. Haj payti kelganida azonni Abu Muslim o'qirdi. U bilan birga Abu Ja'far al-Mansur ham haj qildi. Shahardan chiqqanlarida Abul Abbosning dardi kuchaydi. Unga saltanatni Abu Ja'farga vasiyat qilishni maslahat berdilar...

@tarixchi_kutubxonasiga

## (436) Abu Ja'far al-Mansurning[1] xalifaligi

U – Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali, onasi Saloma barbarlardan edi. Abul Abbos o'lgan kuni, ya'ni yakshanba kuni hijriy 136-yil zulhijjaning o'n ikki kechasi qolganida (754-y.,14-iyun) unga bay'at qildilar...

(437) Abu Ja'far haj qilayotgan edi. Iso ibn Ali guvohligida, Hoshimiylarning hammasi va Al-Anborda bo'lgan ularning barcha boshliqlari unga bay'at qildilar. Bu xabar u Makkaga ketayotganida, Abul Abbosning o'limidan 15 kun keyin yetdi. U yerda unga Abu Muslim va o'sha yerda hozir bo'lgan barcha Hoshimiylar va ularning boshliqlari bay'at qildilar...

(438) Abu Ja'far Kufaga hijriy 137-yil muharramining birinchi kuni (754-y., 27-iyun) kirib keldi. Keyin Hirada to'xtadi va odamlar bilan juma namozida ishtirok etdi. Keyin Al-Anborga – Abul Abbosning shahriga yo'l oldi. Atrofdagi barcha omborlarda bo'lgan Abul Abbosga tegishli xazinalar va boyliklarni yig'ib, to'pladi. U Abdulloh ibn Alining ishidan xabardor bo'lib, Iroqqa yo'l oldi. Abu Muslimga u shunday dedi: «Abdulloh ibn Alining men va sendan boshqa hech kimi yo'q». Abu Muslim bu so'zlarga qo'shilmadi va dedi: «Yo amiralmo'minin! Abdullohning Suriyadagi ishi kichik va ahamiyatsiz, ammo Xurosonda u ulkandir». So'ng Abu Muslim o'z qarorgohiga ketdi...

(439) (Abu Muslim Abdulloh ibn Alini ta'qib qilib, Nisibinga keladi). U Basraga, ukasi Sulaymon ibn Alining oldiga ketgan edi, ukasi Basraning omili edi va uning uyida bekingandi.

Abu Ja'far elchilarni yuborib, Abu Muslim to'plagan barcha boyliklar va mollarni musodara qilishni buyurdi. Elchilar orasida Ishoq ibn Muslim al-Uqayli, Yaqtin ibn Muso, Muhammad ibn Amr an-Nusaybiy at-Tag'labiylar bor edi. Abu Muslimning qattiq qahri keldi... (440)

(Bundan keyin Abu Muslim Xurosonga ketadi. Abu Ja'far uni ta'qib qiladi, lekin u bilan yuzma-yuz uchrashishning iloji bo'lmaydi. Abu Ja'far Rumiya degan joyda to'xtaydi... (401) Shu yerda uning huzuriga Abu Muslim keladi. Ular bir xonada yuzma-yuz bo'lib, so'zlashadilar. Xonadan Abu Muslimning baland ovozini eshitib, xalifa Abu Ja'farning odamlari yugurib kiradilar va Abu Muslimni burdalab chopadilar).

Bu voqea hijriy 137-yil sha'bonida (754-y., 21-dekabr – 755-y., 20-yanvar) yuz berdi. Shunda Abu Muslimning yaqinlari va tarafdorlari Xurosonga ketdilar. (442) Ular Sunbadning oldiga keldilar. Sunbad[2] Nishopurda turar edi. U Abu Muslimning o'ldirilganini eshitganidan so'ng isyon ko'tardi va Abu Muslimning qoni uchun qasos olishga qaror qildi. Butun Xuroson

[1] *Abu Ja'far al-Mansur* (754–775) – Abbosiy xalifalarning ikkinchisi.

[2] *Sunbad yoki Sumbat mug'* – islomga va arablar hukmronligiga qarshi kurashgan Eron zardushtiylarining oxirgi namoyandasi.

@tarixchi_kutubxonasiga

to'lqinlandi. Abu Ja'far [unga qarshi] Jahvar ibn Murrafni yubordi. U Sunbadga duch keldi, u bilan jang qildi va uni o'ldirdi. Sunbadning odamlari tarqalib ketdilar...

(445) Abu Ja'far hijriy 140 (758–759)-yili Xurosonga omil qilib, Abduljabbor ibn Abdurrahmon al-Azdiyni tayinladi... Lekin Al-Azdiy ko'p shialarni qatl etgani uchun hijriy 141 (758–759)-yili uni mansabdan tushirdi va o'rniga Al-Mahdiyni[1] tayinladi. (446) Al-Mahdiy Rayga keldi va Xurosonga omil etib, Usayd ibn Abdulloh al-Huzoiyni tayinladi va u bilan birga qo'shinlarni yubordi. U Abduljabborga Marvda duch keldi, uning askarlarini yengdi va Abduljabbor qochdi. Usayd Abduljabborni tutib, kishanladi va Abu Ja'farning huzuriga yubordi.

(457) [Hijriy 146 (763–764)] Al-Mahdiy Xurosonga omil bo'lib ketdi. U bilan birga shavkatli qo'shin va uning yaqinlari ketdilar. Xurosonning atoqli kishilari Abu Ja'farning huzuriga kelib, Al-Mahdiyning ishlarini, fe'lining oliyjanobligini esladilar, uni maqtadilar. Keyin ular undan iltimos qilib, o'zidan keyin xalifalikni o'z o'g'li Al-Mahdiyga vasiyat qilishini so'radilar. Abu Ja'far bu haqda Kufada turgan Iso ibn Musoga[2] maktub yozib, Xuroson aholisi va boshqalarning bu masala haqida qalblarida qanday istaklari borligini bildirdi. Iso ibn Muso avvallari Abu Ja'fardan keyin hokimiyat uning qo'liga o'tajagini aytib yurardi. Lekin unga Abu Ja'fardan mazkur ma'nodagi maktub kelganidan so'ng u ham javob yozib, hokimiyatni unga, ya'ni Isoga va'da qilganini eslatib qo'ydi...

Ular orasida bu haqda davomli yozishmalar bo'lib turdi va nihoyat, Iso Bag'dodga keldi. Uning oldidan har kuni xalifaning askar birikmalari o'tardi va darvozasining oldigacha kelardi. Shundan u qo'rqdi va xalifaning irodasiga bo'ysundi. Va Al-Mansur hijriy 147 (764)-yili hokimiyatni o'z o'g'li Al-Mahdiyga vasiyat qildi. Vasiyat kuni hamma ishtirok etdi. Isoga hokimiyat Al-Mahdiydan keyin va'da qilindi. Al-Mahdiy esa bu payt Xurosonda edi. U xalifalik unga vasiyat qilinganligi haqidagi maktubni oldi. Badg'isning aholisidan boshqa Xurosonning barcha aholisi va zodagon kishilari unga (Al-Mahdiyga) bay'at qildilar.

## (471) Al-Mahdiy xalifaligi

(478) [Hijriy 164 (780–781)-yili] Xurosonda notinchliklar boshlandi, Sug'd va Farg'ona harakatga keldi. Yusuf al-Barm ismli kimsa xuruj qildi. Bu kishi Buxoroda saqif qabilasining mavlosi edi... Ahmad ibn Asad[3] Farg'onaga

[1] *Al-Mahdiy* – xalifa Al-Mansurning o'g'li, bo'lajak xalifa.

[2] *Iso ibn Muso* – Abbosiylar xonadonining vakili.

[3] *Ahmad ibn Asad ibn Somon* – Somoniylarning ilk vakili, avvaliga Abbosiylarning Farg'onadagi omili, 819–864-yillar hukm surgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

yurdi, uni zabt etdi va Kosonga, ya'ni podshohning qarorgohiga yetdi. Yazid ibn Muzad Yusuf ibn Barm bilan jang qildi, uni yengib asir qildi va xalifaning huzuriga yubordi. U esa uni qatl qildi....

(479) Al-Mahdiy qo'l ostidagi barcha viloyatlar va mamlakatlarga elchilar bilan maktublar yo'llab, ulardan itoatkorlik va bo'ysunishni talab qildi. Ular orasida Sug'dning podshohi – ixshid, Farg'ona podshohi – farkaron, Usrushona podshohi – afshin, qarluqlarning podshohi – tarxon, to'g'uzg'uzlarning podshohi – xoqon bor edi.

## (491) Horun ar-Rashid[1] xalifaligi

Horun ar-Rashid ibn Muhammad al-Mahdiy akasi Muso o'lgan kuni, ya'ni hijriy 170-yil rabiulavval oyining 14-kechasi o'tganida (786-y., 13-sentabr) xalifa bo'ldi.

Ar-Rashid xalifa bo'lgan kunning kechasida uning o'g'li Al-Ma'mun tug'ildi. Bu hodisani yaxshi alomat deb bildilar va shuning uchun uni Al-Ma'mun deb atadilar. Muhammad ibn Horun al-Ma'mundan (492) olti oy keyin tug'ildi. ...Horun o'zidan keyin xalifalikni o'g'li Muhammadga hijriy 175 (791–792)-yili vasiyat qildi...

(500) Ar-Rashid xalifalikni o'sha yili (501), ya'ni hijriy 183 (799)-yili Muhammaddan keyin o'z o'g'li Al-Ma'munga vasiyat qildi. Undan vasiyatni butun xalq, hatto bozor ahli ham qabul qildilar. Al-Ma'munga bo'lgan vasiyat bilan Muhammadga bo'lgan vasiyat orasida sakkiz yil o'tdi. Al-Ma'munga ham, Muhammadga ham faqihlar va muhaddislar hozirligida vasiyat qilindi. Ulardan hozir bo'lganlarning hammasi, jumladan, kalom va nazar ahli buni eshitdilar. Muhammadning xotirasi yaxshi emas, Al-Ma'munning xotirasi esa o'tkir edi...

Hijriy 184 (800)-yil edi. Shu yili Ar-Rashid qattiq bemor bo'ldi. Lekin davolanib tuzaldi.

Ar-Rashid bir marta o'zi barpo etgan Ar-Rafiqada to'xtadi. U qasrda hijriy 186 (802)-yili to'xtadi. O'sha yili u haj qilgan edi. U bilan birga Muhammad, Al-Ma'mun va hoshimiy zodagonlar, sardorlar va kotiblar bor edi. Ulardan birortasi Ar-Rashid Madinada gapirganini, qilganini va amalga oshirganini bee'tibor qoldirmas edi.

(Bu yerda u odamlarga tuhfalar tarqatadi va keyin Makkaga o'tadi, u yerda esa bu ishlarni qaytarmaydi. Makkada u Muhammadni va al-Ma'munni o'z huzuriga chaqirib, o'zining maktub-vasiyatini bayon qiladi va ularga so'zma-so'z yozdiradi). Haj davomida Ar-Rashid ikkala maktubni (500) odamlar oldida bir necha marta o'qiydi va so'ng Ka'bada qoldiradi).

[1] *Horun ar-Rashid* (786–809) – Abbosiy xalifalarning beshinchisi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ar-Rashid hajdan qaytib, bir necha kun Hirada to'xtadi. So'ng sahro orqali yurib, Al-Anbar yaqinidagi Hurf degan joyda Al-Umr monastirida to'xtadi. Bu yerda bir kun bo'ldi. O'sha kechada u o'z vaziri Ja'far ibn Yahyo ibn Xolidni[1], avvaldan farmonni tayyorlamay, to'satdan qatl qiladi. Ertasi tongda uning jasadini Bag'dodga keltirib, uch bo'lakka bo'ladi va Bag'dod ko'prigi ustida salibga tortadi.

U Yahyo ibn Xolid ibn Barmakni, uning o'g'lini va oila a'zolarini hibsga oladi. Va ularning butun boyligi va mol-mulkini musodara qiladi...

(514) Horun ar-Rashid hijriy 189 (805)-yili Rayga yo'l oldi. Qarmasindan o'tayotib, u yerda xalifalikni o'z o'g'li Al-Qosimga Al-Ma'mundan so'ng vasiyat qildi. Al-Ma'mun bilan Al-Qosimga qilingan vasiyatlar oralig'ida olti yil o'tdi. So'ng Rayga kelib, u yerda to'xtadi. Bu yerdan u Bag'dodda turgan o'g'li Muhammadga maktub yozib, unga Rayga kelishni va bu yerda vaqtincha uning o'rnida bo'lib turishni buyurdi. Shuningdek, u Tabariston hokimi Bindod Hurmuzga ham maktub yozdi. Toharistonning hokimi Vashruin xuruj qildi. Shuningdek, Bindod Hurmuz ham Harsama ibn A'yon boshchiligida xuruj qildi. Uning o'g'li Korun ham xuruj qildi va Ar-Rashidning lashkariga qo'shildi. Shundan so'ng Ar-Rashid Raydan ketdi...

(515) Ar-Rashid Ali ibn Iso ibn Mohonni hijriy 189 (805)-yili Mansur ibn Yazid ibn Mansur al-Himariyning o'rniga Xurosonning voliysi etib tayinladi. Uning mulozimlari qatoriga yirik lashkarboshilarni qo'shdi. Ular orasida Rafi' ibn al-Lays al-Laysiy[2] ham bor edi. Ali ibn Iso Xurosonga kelganida Rafi' ibn al-Laysni Samarqandga omil etib tayinladi. Lekin buning yetarli kuch-quvvati yo'q edi, shuning uchun Ibn Iso uni tezda mansabdan tushirdi. Shunda Rafi' isyon ko'tardi va jang qila boshladi. Ali ibn Isoning bu ishlari Ar-Rashidga ma'lum bo'ldi va u Harsama ibn A'yonni to'rt ming kishilik askar bilan Ali ibn Isoga qarshi yubordi. So'ng Ali ibn Iso asir qilindi va to Ar-Rashidning o'limigacha qamoqda yotdi...

(520) Hijriy 192-yil sha'bonida (808-y., may-iyun) Horun ar-Rashid Xurosonga keldi va Qarmasinda to'xtadi. U yerda Ramazon oyini o'tkazdi va Rayga o'tdi. U Jurjonga yetganida, Iso ibn Ja'farga maktub yozib, uning huzuriga kelishini buyurdi. Iso yo'lning bir qismini bosib, to'satdan o'lib qoldi...

(521) Ar-Rashidga uning o'limi haqidagi xabar yetganida, u qattiq qayg'urdi... So'ngra Horun Tusga qarab yo'l oldi va Sanabod nomli bir qishloqda to'xtadi. U yerda qattiq kasal bo'ldi va 193-yil jumodulavvalning

[1] *Ja'far ibn Yahyo ibn Xolid, yoki Ja'far Barmakiy* – xalifa Al-Mansur davridan boshlab Abbosiylar saroyida vazirlik lavozimida xizmat qilgan fors, barmakiylar xonadonining oxirgi vakili. Horun ar-Rashid barmakiylarning hammasini qirdi.

[2] *Rafi' ibn al-Lays al-Laysiy* – arab zodagoni. Horun ar-Rashid davrida Movarounnahrda hokimiyatga qarshi isyon ko'targan.

@tarixiy_kutubxonasiga

birinchi kuni (809-y., 20-fevral) vafot etdi. U qirq olti yoshda edi. Janozasini o'g'li Solih ibn Horun o'qidi.

Al-Ma'mun bundan yigirma uch kun burun Marvdan chiqqan edi. U otasining o'limiga Tusdan to Madinat us-salomgacha aza tutib, ya'ni jumodul-avvalning oxiriga o'n ikki kecha qolgunigacha yig'ladi. Horun ar-Rashiddan o'n ikki o'g'il qolgan edi.

## (524) Muhammad al-Aminning[1] xalifaligi

Muhammad al-Amin ibn Horun ar-Rashidga bay'at qildilar... Unga Tusda, Ar-Rashid o'lgan kunda, ya'ni yakshanba kuni hijriy 193-yil jumodulavvalning birinchi kuni (809-y., 20-fevral) bay'at qildilar.

(525) Mavjud bo'lgan hoshimiylar va lashkarboshilardan bay'atni Fazl ibn Rabi' qabul qildi. Xabar beruvchi xizmatkor Bag'dodga chorshanba kuni jumodulavvalning oxirida o'n ikki kecha qolganida kirib bordi... O'sha kuni Bag'dodda butun aholi bay'at qildi.

(528) Xalifa Ar-Rashid o'z vaqtida Xarsama ibn A'yonni lashkar bilan Samarqandga, Rafi' ibn al-Laysga, qarshi yuborgan edi. Rafi'ning olomoni doim ortib borardi. O'sh, Shosh, Farg'ona, Xo'jand, Usrushana, Sag'oniyon, Buxoro, Xorazm, Xuttalon va boshqa viloyatlarning, Balx, Tohariston, Sug'd, Movarounnahr, turklar mamlakati, qarluqlarning, to'g'uzg'uzlarning va Tibat askarlari va boshqa joylarning askarlari qo'shildilar. U ulardan hokimiyat uchun kurashda yordam so'ragan edi. U musulmonlarni o'ldirib, Samarqandga keldi va uni qamal qildi. Xarsama u bilan jang qilolmasdi, chunki xalq uning odamlarini o'ldirgan edi. Keyin Rafi' qarluqlarning jabg'usini ishga soldi. Bu jabg'u Al-Mahdiyning zamonida islomga (529) o'tgan edi. U hiyla qila boshladi va go'yo u bilan birga, unga yordamchi, Rafi' esa – dushman, dedi. Keyin u ochiqdan ochiq bo'ysunmaslikni va tan olmaslikni namoyish qila boshladi. Rafi'ning ishi kuchaydi. U [musulmon] xalqni o'tga tashladi, o'z odamlaridan (musulmon arablardan) chetlasha boshladi va boshqa Hoshimiylar uchun tashviqot qila boshladi. Lekin Xarsama astasekin ularning g'azabini so'ndira bordi, natijada Rafi' sulhga moyil bo'ldi. Shunda Xarsama unga sulh berdi. Nihoyat, u (Rafi') bolalari, oila a'zolari va mol-mulki bilan uning oldiga chiqdi. Bu hijriy 194-yilning muharramida (809-y., oktabr-noyabr) bo'lgan edi. Al-Ma'mun bu g'alaba haqida Muhammadga yozib, amalga oshirilgan tadbirlar, bu ishda o'zining faolligi va Alloh unga qanday qilib g'alaba ato qilgani haqida xabar berdi.

Biroq odamlar Muhammadning qalbida Al-Ma'munga nisbatan ixtilof soldilar, ular orasiga adovat urug'ini sochdilar. Ig'vogarlar Ali ibn Iso ibn

[1] Horun ar-Rashid davrida Movarounnahrda hokimiyatga qarshi isyon ko'targan.

@tarixiy_kutubxonasiga

Mohon va Al-Fazl ibn ar-Rabi' ikkisi edi. Ular unga (Al-Aminga) maslahat berib, o'zidan keyin hokimiyatni o'z o'g'liga vasiyat qilishni va Al-Ma'munni rad etish kerakligini uqtirdilar. U ana shunday qildi va hokimiyatni o'g'li Musoga vasiyat qildi. Bu voqea hijriy 194-yil rabiulavvalning uch kechasi o'tganidan so'ng (809-yil 16-dekabr) bo'ldi. U o'zida turgan Ar-Rashidning vasiyatnomalarini yig'ib, yondirdi va ular orasida hech kechirib bo'lmas dushmanlik o'rnashdi. So'ng Muhammad Al-Ma'munga maktub yozib, o'z lashkarboshilari bilan uning huzuriga kelishlarini buyurdi. Unisi esa o'z javobida xabar berib, endi unda itoatkorlik va bo'ysunish bo'lmasligini bildirdi. U Al-Amin, shuningdek, Al-Ma'munning Xurosondagi lashkarboshilariga ham yozdi. Ular ham xuddi shunday javob berdilar. Bundan tashqari, ular shunday dedilar: «Agar sen o'z birodaringga sodiq bo'lganingda, biz ham sodiq bo'lishimiz kerak edi. Biroq sen bitimlarni buzding va shunday ishlarni qilding, qasamyodlarga sadoqatga xilof qilding». Muhammad bir kishini Umm Isoga, Muso al-Hodiyning qiziga, ya'ni Al-Ma'munning xotiniga yuborib, u Al-Ma'munning marvaridini berishni talab qildi. Lekin u buni berishdan bosh tortdi va unda unga (eriga) tegishli hech narsa yo'qligini aytdi. Shunda u (yuborilgan kishi) to'satdan uning (Umm Isoning) uyiga kirib, bosqinchidek hamma yoqni ag'dar-to'ntar qildi va o'sha marvaridni tortib oldi.

Bu xabar Al-Ma'munga yetganida, o'z yaqinidagi lashkarboshilarini yig'ib, ularga shunday dedi: «Otamning men va Muhammadga nisbatan shartini siz yaxshi (530) bilardingiz. Lekin u bu shartlarni va bitimlarni buzdi, rad etdi va bu bilan o'zining taxtdan qulatilishiga yo'l ochib berdi. U mening mulkimga bostirib kirdi, boyligim va narsalarimga tajovuz qildi, bitim va shartlarni yondirib yubordi...». Ular shu qarorga keldilarki, agar Muhammad hozirgi mavqeyidan qaytsa, u bilan aloqani tiklash kerak, aks holda, uni qulatish kerak. Bu xabar Muhammadga yetdi, u ham lashkarboshilarini yig'ib, ularga Al-Ma'mun uni taxtdan yiqitmoqchiligini aytdi va yig'ilganlarni unga qarshi chiqishga undadi. Ular Ismat ibn Abu Ismat as-Sabi'iyni tanladilar va Muhammad uni lashkar bilan Al-Ma'munga qarshi yubordi. U yurib, Xuroson chegarasiga yetdi va so'ng unga (Muhammadga) maktub yozib, kelishuvga ko'ra u Xuroson hududiga kirmasligi kerakligini va xalifa boshqa hech kimni Xurosonga yubormasligini aytdi, chunki Al-Ma'munni va u bilan birga bo'lganlarni tutib, unga yuborishlarini buyurdi. Uni qirq ming kishilik lashkar va lashkarboshilar bilan birga yubordi...

Bu xabar Al-Ma'munga yetganida, unga qarshi Tohir ibn al-Husayn ibn Mus'ab al-Bushanjiyni[1] yubordi. Bungacha Al-Ma'mun uni Bushanj

[1] *Tohir ibn al-Husayn ibn Mus'ab* – xalifa Al-Ma'munning birinchi lashkarboshisi, 821-yildan Xurosonning amiri. O'sha yili Xuroson va Movarounnahrning mustaqilligini e'lon qilgan va 822-yil oxirigacha hukm surgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

viloyatiga omil qilib yuborgan edi. U Ali ibn Iso bilan hijriy 195 (810–811)-yili Rayda to'qnashdi. Ali ibn Isoning lashkari ulkan edi, Tohirga Ibn al-Husaynda esa atigi besh ming kishi bor edi. Ali ibn Iso kichik bir nafar askari bilan o'z lashkarining oldiga chiqib, u tarafdan bu tarafga yurib, harbiy nayranglar namoyish qila boshladi. Tohir ibn al-Husayn buni biroz kuzatib turdi va o'zining bir guruh odamlari bilan tezda uning (521) tarafiga yurdi. Ular Ali bilan to'qnashdilar: u sariq arg'umoqqa mingan edi. Uning ustida uzun qora taylasoni bor edi. Alining odamlari uni Tohirning odamlari o'ldirmagunigacha, himoya qilib turdilar. Tohir uning bir o'zini ta'qib qildi, qilich bilan bir urib otidan yiqitdi va boshini tanasidan judo qildi. So'ng o'z askarlarining oldiga qaytdi. U Alining boshini o'z nayzasiga qadab, Ali ibn Isoning lashkariga baland ovoz bilan xitob qildi: «Sizning amiringiz o'ldirildi». Buni ko'rib uning odamlari va lashkari ma'yus bo'ldilar va o'z mag'lubiyatlarini tan oldilar. Bu ishda Tohir katta shijoat ko'rsatdi va tunlari uxlamadi. Ali lashkarining ko'pchiligi Tohirning tarafiga o'tdi. Tohir bu g'alaba haqida Al-Ma'munga, Marvga, yozdi, Alining boshini esa o'z odamlarining biri bilan uning qarorgohiga yubordi...

Shundan so'ng Al-Ma'munning xalifaligiga va Muhammadning qulatilganligiga bay'at qildilar. Xurosonning butun aholisi Al-Ma'munga sadoqat bildirdi...

(534) Hijriy 196 (811–812)-yili Ar-Raqqada Abdulmalik ibn Solih o'ldi. U Muhammad ibn Horunning Jaziradagi Qinnasrin jundida va chegaraviy yerlardagi omili edi. Uning o'limidan so'ng bu mamlakatda notinchliklar boshlandi. Har bir qabila sardori o'zini ko'rsatishga urinardi. Odamlar ikki firqaga bo'lindilar: Muhammad firqasiga va Al-Ma'mun firqasiga, mamlakatda fuqarolar urushi boshlandi: mamlakatda buni taqiqlaydigan va aholini himoya qiladigan kishi yo'q edi. Shunda Tohir Jibol tarafidan Ahvozga yurdi va Muhammadning omili Muhammad ibn Yazid ibn Hotamni va Jiluya al-Kurdiyni o'ldirdi. Zuhayr ibn al-Musoyyab az-Zabbiy Forsga borib, uni oldi va Al-Ma'mun bay'atlarini ham qabul qildi. Tohir Vositga yo'l oldi. (Shundan so'ng Iroq va Misr shaharlarining aholisi Al-Ma'munga bay'at qilganlari haqida xabar keldi).

Tohir turli yerlarning aholisini to'plab, hijriy 196-yil rajabining sakkiz kechasi (812-y., 25-mart) o'tganidan so'ng Bag'dodga yo'l oldi. U yerga yetib, Muhammadning firqasini rad etdi va Bag'dod jundini Al-Ma'munga bay'at qilishga tashviq qila boshladi. Ular bunga ko'ndilar. Shunda u shijoat bilan Muhammadning huzuriga kirdi, uning o'zini, onasini, bolalarini asir qildi. U ularni asir qilganida, Bag'dod o'rdusi undan mukofot talab qildi. U esa bahona qidirib, bo'yin torta boshladi. Shunda ular uning o'zini asir qilib, Muhammadni, onasi va bolalarini asirlikdan qutqardilar.

@tarixchi_kutubxonasiga

Keyin ular Al-Husayn ibn Ohonning kallasini olib, Muhammadga bay'at qildilar va undan maosh talab qildilar. U ularning har biriga besh yuz dirhamdan va qishlovchi lashkarboshiga to'rt yuz livodan berdi. Ularga boshliq qilib Ali ibn Muhammad ibn Iso (535) ibn Nahikni tayinladi. Keyin ularga Harsamaga qarshi borishni buyurdi. U payt Harsama lashkari bilan Nahravonda edi. Ular u bilan Ramazonda to'qnashdilar. Harsama ularni tor-mor qildi va Ali ibn Muhammad ibn Iso ibn Nahshoni asir qilib, Al-Ma'munga yubordi. U yana ilgari yurdi va Bag'doddan bir-ikki farsax masofadagi Nahrabi'n degan mavzega keldi. Tohir Bag'doddan to'rt farsaxdagi Sarlar anhori yaqiniga keldi. Tohir g'arbiy qirg'oqda, Harsama – sharqiy qirg'oqda edi. Ularning har biri o'zi turgan qirg'oqdan Bag'dodga yurib, jang qildilar, hamma bilan jang qilindi, faqat bozor ahliga tegmadilar. Shunda Al-Ma'munning tarafdorlari bozorlarga yig'ildilar... (536) Nihoyat Tohir al-Aminning qasriga hujum qilib, uning o'zini o'ldirdi va bu haqda Al-Ma'munga maktub yubordi...

(637) Al-Aminning xalifaligi otasi Ar-Rashidning o'limidan o'zining o'limigacha to'rt yil-u yetti oy yigirma bir kun davom etdi.

## (538) Al-Ma'munning[1] xalifaligi

Biz yuqorida al-Ma'munning va Muhammadning ishlari haqida gapirganimizda, aytganimizdek, Abdulloh al-Ma'mun ibn ar-Rashidga hijriy 195 (810–811)-yiliyoq bay'at qildi. 198-yilning muharramida (813-y., sentabr) Muhammad o'ldirildi. Butun xalq unga qarshi bo'lib, Al-Ma'munni qo'lladi.

Hijriy 198 (813–814)-yili Al-Ma'mun Iroq va o'sha tarafdagi boshqa viloyatlarga omil etib Al-Hasan ibn Sahlni yubordi. Bundan ilgari Kufada Al-Asfar isyon ko'targan edi: u (540) ko'proq Abusaraya ismi bilan mashhur edi, lekin asl ismi As-Saray ibn Mansur ash-Shayboniy edi. Muhammad ibn Ibrohim al-Alaviy u bilan birga edi: bunisi Ibn Tabotabo nomi bilan mashhur edi. Keyin Muhammad ibn Ibrohim o'lib qoldi. Abusaraya uning o'rniga Muhammad ibn Muhammad ibn Zubaydni qo'ydi. Shunda Basrani Al-Abbos ibn Muhammad ibn Muso al-Ja'fariy ishg'ol qildi... Qaysumada va Jazirada undan yuqoridagi Diyor Mudar viloyatida Nasr ibn Shabas an-Nasriy qaror topdi...

Al-Ma'mun al-Hasan ibn Sahl Iroqqa omil qilib tayinlaganida, unga muovin etib Zulalamayn Ali ibn Abu Saidni yuborgan edi. Al-Ma'mun To-

[1] *Al-Ma'mun* – Abdulloh al-Ma'mun ibn ar-Rashid (813–833) – Abbosiylar sulolasidan yettinchi xalifa, 813–819-yillar xalifalikning vaqtincha poytaxti bo'lgan Marvdan boshqargan, 819–833-yillar Bag'dodda hukm surgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

hir ibn al-Husaynga maktub yozib, u Jaziraga borib Nasr ibn Shabas bilan jang qilsin, dedi. Zulalamayn Iroqqa kelganida, Tohirni aldadi va dedi: «Amiralmo'minin menga naqadar adolatli munosabatda bo'ldi!» Keyin u Jaziraga borib, Nasr ibn Shabas bilan jang qildi.

Al-Hasan Iroqqa keldi va Nahravonda to'xtadi va Harsamani Abulsarayaga qarshi yubordi. Ular Kufa atrofida to'qnashdilar, bu hijriy 199-yil jumodussoniyning o'n kechasi o'tganidan keyin (815-y., 27-yanvar) bo'ldi...

Al-Ma'mun Ar-Rizo Ali ibn Muso ibn Ja'farni Madinadan Xurosonga yubordi. Unga elchi qilib Rijo ibn Abu az-Zaxxok, Al-Fazl ibn Sahlning qarindoshi yuborilgan edi. U Bag'dodga kirdi, so'ng Moh Basra yo'lidan yurib Marvga yetdi. Al-Ma'mun u yerda o'zidan keyin xalifalikni unga vasiyat qildi. Bu hijriy 201-yil Ramazon oyining yettinchisida dushanba kuni (817-y., 29-mart) bo'lgan edi. U odamlarning qora kiyimlarini yashilga almashtirdi. Bu haqda butun shaharlarga yozishdi. Va odamlar Ar-Rizoga bay'at qildilar va masjidlarning minbarlaridan uning foydasiga chaqirdilar va uning nomi bilan dinor va dirhamlar zarb qildilar.

Ismoil ibn Ja'far ibn Sulaymon ibn Ali al-Hoshimiydan boshqa hamma yashilga burkandi. U Al-Ma'munning Basradagi noibi edi...(546) Hijriy 201-yili Harsama Iroqdan Marvga yo'l oldi. Aytishlaricha, uning u yerdan ketishidan Al-Ma'mun bexabar bo'lgan. Marvda u Al-Ma'munning huzuriga kirganida, xalifa u bilan qo'pol muomala qildi. U bilan birga Yahyo ibn Amir ibn Ismoil al-Harisiy ham kirdi va bunday dedi: «Assalomu alaykum, ey iymonsizlarning amiri». Darhol Al-Ma'munning hozirligida uning qilichini tortib oldilar va o'zini o'ldirdilar. Shunda Harsama: «Men sening yordamchilaring – mug'larning oldiga kirdim». Al-Ma'mun Harsamaning oyog'i bu yerda bo'lmasin, deb buyruq berdi va darhol uni hibsga oldilar. U hibsda uch kun bo'ldi, so'ng o'ldi...

(548) Hijriy 202 (817–818)-yili Al-Ma'mun Marvdan chiqdi va Iroqqa yo'l oldi. U bilan birga (549) vorisi Ar-Rizo va uning vaziri Zurriyosatayn al-Fazl ibn Sahl bor edi. Bungacha Al-Ma'mun Al-Fazlga maktub yozib, uning vazirligi shart-sharoitlarini bayon qilgan edi...

Biroq Al-Ma'mun Qumisdan o'tayotganida, Al-Fazl ibn Sahlni u hammomdaligida o'ldirdi. Uning huzuriga qilichlari bilan bir rumlik va egarchi xizmatkori kirdilar. So'ngra Al-Ma'mun bu ikkisini va Al-Fazl ibn Sahlning qarindoshlari va yaqinlaridan ko'p kishini yo'q qildi...

(550) Al-Ma'mun Tusga kelganida, Ar-Rizo Ali ibn Muso ibn Ja'far ibn Muhammad – uning vorisi, o'ldi; bu hijriy 203-yil boshida (818-y., iyul) An-Nuqon qishlog'ida bo'ldi. U faqat uch (551) kungina og'ridi. Aytishlaricha, Ali ibn Hasham unga zaharlangan anor bergan. Al-Ma'mun uning o'limidan qattiq qayg'urdi...

@tarixiy_kutubxonasiga

Al-Ma'mun Madinat us-salomga hijriy 204-yilning rabiulavval oyida (819-y., sentabr) kirdi. Uning ustida, lashkarboshilarida, askarlarida va hamma odamlarda o'sha paytda yashil liboslar edi. U bu kiyimda bir jumagacha bo'lib, so'ng qora libosga qaytdi. Uning o'rniga Yahyo ibn Maoz yuborildi. U Ar-Raqqada biror muddat bo'lib, so'ng o'ldi. Al-Ma'mun Tohirni shurtaga[1] tayinladi. U bu mansabda bir yil turdi. So'ng Ahmad ibn Abu Homid al-Ahvolga, Al-Ma'munning kotibiga, shikoyat qilib, o'zining xalifa saroyida xizmat qilayotganidan bezovtalanayotganini va Bag'doddan ketish istagi borligini aytgan. So'ng Tohir Ahmadga uch ming dirham berib, Al-Ma'munni o'zini Xurosonga noib etib yuborilishiga ko'ndirishini so'radi. Ahmad bu ishni epladi va hijriy 206-yil boshida (821-yil, iyun) Tohir ibn al-Husayn Xurosonga G'asson ibn Abbodning o'rniga noib bo'lib ketdi. Tohir u yerga kelishi bilanoq Hamza ash-Shariy xuruj qildi...

(555) Al-Ma'mun Abdulloh ibn Tohirni[2] Jazira, Suriya, Misr va Mag'ribning amiri etib tayinladi. U tomonlardagi noiblarning hammasi unga bo'ysundilar. Xalifa unga agar kim qarshi chiqsa, u bilan jang qilishni buyurdi. U yerga hijriy 206-yili, otasi Xurosonga borganidan ikki oy keyin (821-y., avgust) bordi...

(557) Tohir ibn al-Husayn Xurosonda hijriy 207 (822–823)-yili qirq sakkiz yoshida o'ldi. Al-Ma'mun uning o'rniga Xurosonga noib etib o'g'li Talha ibn Tohirni[3] tayinladi va uning oldiga Ahmad ibn Abu Xolid boshchiligida lashkar ham yubordi. U Xurosonga keldi. U bilan birga, shuningdek, Afshin Haydar ibn Kovus al-Usrushoniy va bir guruh Xuroson podshohlarining o'g'illari ham bor edi...

## IBN AL-FAQIH VA UNING «AXBOR AL-BULDON» ASARI

Olimning to'liq nomi Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Ishoq al-Hamadoniy va laqabi Ibn al-Faqih bo'lgan. Olimning nisbasidan va nashr etilgan kitoblaridan u G'arbiy Erondagi Hamadonga mansub ekanligi bilinadi.

Ibn al-Faqihning tug'ilgan yili aniq ma'lum emas, lekin o'lgan yili ma'lum – 903-yil. Geografiya sohasida u Somoniylarning mashhur vaziri, olim – geograf Al-Jayhoniyning shogirdi va arab geografi Ali ibn Hasan al-Shayzariyning ustozi bo'lgan. Keyingi muallif Ibn al-Faqihning «Axbor al-buldon» («Mamlakatlar haqida ma'lumotlar») asarini qisqartirgan.

[1] *Shurta* – politsiya.

[2] *Abdulloh ibn Tohir* – Tohir ibn al-Husaynning katta o'g'li, xalifa Al-Ma'mun davrida 812–828-yillari xalifalikning Iroqdan g'arbdagi yerlarining amiri bo'lgan.

[3] *Talha ibn Tohir* – Tohir ibn al-Husaynning ikkinchi o'g'li, Xuroson va Movarounnahrning Tohiriylar sulolasidan ikkinchi hokimi, 822–828-yillar hukm surgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ba'zi arab mualliflari Ibn al-Faqih va uning mazkur asari haqida ma'lumotlar keltiradilar. Chunonchi, Ibn an-Nadim «Al-Fihrist» kitobida bunday yozadi: «Ibn al-Faqih al-Hamadoniy, ismi Ahmad, haqida hech narsa ma'lum emas, faqat u adiblardan bo'lganigina ma'lum. U ajoyib kitob yozgan, ming varaqcha, ko'p narsani Al-Jayhoniyning asaridan olgan. Al-shuningdek, she'riyat haqida ham kitob yozgan»[1].

Ibn al-Faqihning asarlari o'zidan keyingi ko'pgina mualliflar uchun manba bo'lish bilan birga, uning o'zi ham oldingi mualliflarning asarlaridan foydalangan. Xuroson va Movarounnahr haqida ham qimmatli tarixiy ma'lumotlar keltiradi. Shuni e'tiborga olish kerakki, «Xuroson» tushunchasiga Movarounnahr ham kiritilgan.

Quyida Ibn al-Faqihning «Axbor al-buldon» asarining A.S. Jamkochyan 1979-yili nashr etgan arabcha matn va ruscha tarjimadan[2] Xuroson xarajiga taalluqli qismini keltiramiz (tarjimon A.Ahmedov).

**A.Ahmedov**

## IBN AL-FAQIH. «AXBOR AL-BULDON»DAN

(166) **Xurosonning[3] xaraji.** Xuroson va unga qo'shiladigan a'mollardan[4] olinadigan shunday xarajni, 211 va 212 (826–827)-yillar uchun uni to'plash Abdulloh ibn Tohirning[5] vazifasi edi.

Ar-Ray – 10 million dirham[6].

Qumis – 2 million 196 ming dirham.

Jurjon – 10 million 176 ming 800 dirham.

Kermondan, [yuzasi] 180 farsaxga 150 farsax, Xusravlar uchun 60 million dirham yig'ilgan.

---

[1] Ibn an-Nadim. «Kitab al-Fihrist», p.154.

[2] Ibn al-Fakix. «Axbor al-buldon». S. 97–101, 218–220.

[3] Muallif «Xuroson» atamasini juda keng ma'noda tushunadi, bu tushunchaga u haqiqiy Xurosondan tashqari, hozirgi Afg'onistonning deyarli hamma qismini, Eronning markaziy, shimoliy, janubi-sharqiy qismlarini, Movarounnahr va Xorazmni ham kiritadi. Buning asosiy sababi, bizningcha, muallif o'z ustozi – Somoniylar vaziri Al-Jayhoniyning asarining katta ta'sirida bo'lganligidadir. Chunki Somoniylar davlatini o'sha davr adabiyotida Xuroson davlati deyilgan. Al-Jayhoniy esa o'z asarida, asosan, Xuroson davlatini tavsiflagan.

[4] *A'mol («amal»ning ko'pligi)* – mulklar, viloyatlar, demakdir.

[5] *Abdulloh ibn Tohir* – Xurosonning Tohiriylar sulolasidan uchinchi amiri, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, u 828–845-yillar hukm surgan hisoblanadi. Lekin bu yerda ko'rsatilishicha, u bu mulkda hijriy 211 (826–827)-yili xaraj to'plagan. Demak, u 826-yildayoq Xurosonga amir bo'lib kelgan.

[6] Muallif «million» tushunchasini «mingta ming» iborasi bilan ifodalagan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Sijiston[1] – Muvarriqa, Ar-Ruxxaj[2], Ad-Davar[3] o'lkasi va (167 a) Zobulistonning[4] viloyati, bular hammasi 947 ming farsax, Toharistonning[5] chegaraviy yerlari, xaraji bekor qilinganidan so'ng – 6 million 776 ming dirham.

At-Tabasayn – 113 ming 800 dirham.

Ko'histon[6] – 787 ming 800 dirham.

Naysabur[7] – 2 million 860 dirham.

Naso – 873 ming 400 dirham.

Abivard – 700 ming dirham.

Saraxs – 307 ming 440 dirham.

Marvarrud – undagi Tanho deyiladigan rustoqi bilan birga – 420 ming 400 dirham.

At-Talliqon – 214 ming 400 dirham.

G'archiston – 100 ming dirham va 2 ming bosh qo'y.

Badg'is – 440 ming dirham.

Hirot, Isfaroq va Isfizanj – 1 million 159 ming dirham. Tohariston, Zamm viloyatlari – 106 ming dirham.

Foryob – 55 ming dirham.

Juzjon – 154 ming dirham.

Xuttalon, Xulm – 12 ming dirham.

Balx va Sha'b-xarra va uning tog'lari – 490 ming 300 dirham.

Firug'is – 4 ming dirham.

Termiz – 2 ming dirham.

Ar-Rub va Shimijon – 12 ming 700 dirham.

Al-Bomiyon – 5 ming dirham.

Barxon, Jumran va al-Muttajon – 106 ming 500 dirham.

At-Termiz – 47 ming 100 dirham.

Al-Qiqon – 3 ming 500 dirham.

Ko'kan – 4 ming dirham.

Shug'non – 4 ming dirham.

Vahon – 20 ming dirham.

Al-Mizjon – 2 ming dirham.

Axarun – 32 ming dirham.

---

[1] *Sijiston yoki Seiston* – o'rta asrlarda Eronning janubi-sharqidagi o'lka, hozir uning yirik qismi Eronda va kichikroq qismi Afg'onistonda.

[2] *Ar-Ruxxaj* – qadimgi Araxosiya, Afg'onistonning janubidagi viloyat.

[3] *Ad-Davar yoki Zamindavar* – Afg'onistonning janubida Faraxdan sharqroqdagi viloyat.

[4] *Zobuliston* – Afg'onistonning janubi-sharqidagi viloyat, markazi G'azna.

[5] *Tohariston* – o'rta asrlarda Amudaryoning o'rta oqimida, uning ikkala qirg'og'iga tutashgan o'lka, hozir Afg'onistonning shimolidagi Tohar viloyati.

[6] *Ko'histon* – Hirotdan g'arbroqdagi tog'li o'lka.

[7] *Naysabur* – Nishopur. Boshqa mulklar va ularning xirojlari haqida yuqorida Ibn Xurdodbeh asarining tegishli bo'limiga qarang.

@tarixchi_kutubxonasiga

Al-Qust– 10 million dirham.
As-Sag'oniyon – 48 ming 500 dirham (167 b)
Bosoro – 7 ming 300 dirham.
Al-Voshjird – 1000 dirham.
Al-Andamin va Ar-Rahshon – 12 ming bosh va 13 ta miniladigan hayvon.
Kobul – 2 million 500 dirham va yosh cho'rilardan 2 ming bosh; ularning qiymati – 600 ming dirham.
Kobul – Toharistonning chegaraviy yerlaridandir. Uning shaharlari – Voron, Juvos, Xashk va Hubara. Kobulda ud, norgil, za'faron va xalilaj o'sadi, chunki u Hindiston bilan chegaradosh.
Nasaf – 90 ming dirham.
Kesh – 112 ming 500 dirham.
Al-Bokbin – 6 ming 200 dirham.
Rustoq Jovon – 7 ming dirham.
Rustoq ar-Ruyon – 2 ming 220 dirham.
Afna – 48 ming dirham.
Xorazm – 489 ming dirham.
Omul – 293 ming 400 dirham.
Movarounnahrdan Buxoro – 1 million 189 ming 200 g'itrifiy dirham.
Sug'd va Nuh ibn Asadning boshqa viloyatlaridan – 326 ming 400 dirham. Ulardan Farg'onadan – 280 ming muhammadiy dirhami. Turklarning shaharlaridan – 48 ming 400 xorazmiy dirham, g'aliz kandajiy karobis kiyimligidan – 1087 dona, kuraklar va temir tunukalardan – 1300 parcha, yarmiga yarim har biridan; va jami – 1 million 72 ming muhammadiy dirhami, shundan Sug'd, Al-Buttamdagi ma'dan va Keshdagi tuz konidan – 1 million 39 muhammadiy dirhami. Kesh, Nasaf va Al-Buttam Sug'dning chegaraviy yerlaridandir.
Usrushona – 50 million 840 ming muhammadiy dirhami.
Ash-Shosh va kumush koni – 607 ming musayyabiy dirhami.
Xo'janda – 100 ming musayyabiy dirhami.
(168 *a*). Butun Xuroson va Abdulloh ibn Tohirning zimmasiga tushgan viloyatlar va o'lkalardan tushgan xirojni jami 440 million 846 ming dirham, miniladigan hayvonlar – 13 million bosh, qo'ylar – 2 ming bosh, asirlar – 2 ming 18 bosh, bularning qiymati 600 ming dirham, kuraklar va temir tunukalar 300 parcha, yarim-yarim har biridan.

## ABU ABDULLOH AL-XORAZMIY VA UNING «MAFOTIH AL-ULUM» ASARI

IX–XI asrlar Markaziy Osiyoda tabobat va kimyo ilmlarini chuqur o'rganib, ularni rivojlantirgan Abu Bakr ar-Roziy, buyuk faylasuf Abu Nasr al-Forobiy, ilmi nujum va jug'rofiya fanlarining taraqqiyotiga munosib hissa

@tarixchi_kutubxonasiga

qo'shgan Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Ibn Kasir al-Farg'oniy, olamga mashhur hoziq tabib Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalar davri edi.

O'sha davrning keng bilimli, peshqadam olimlaridan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiydir[1]. Tarix sahifalarida bu olim haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolingan.

Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Kat shaharlarida o'tgan, Xurosonda ham yashagan. Uning mashhurligi 977–997-yillarda hukmronlik qilgan Somoniylar podshohi Nuh II ning vaziri Abul Hasan al-Utbiy (961–1036) huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davrida cho'qqisiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u «Al-kotib al-Xorazmiy» nomi bilan ham tanilgan. O'z xizmat vazifalari yuzasidan Somoniylar poytaxti Buxoroga tez-tez borib turgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997-yilda vafot etgan.

Olimning dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandalari Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobiy hamda Abu Bakr ar-Roziy ta'siri ostida shakllandi. Ayni vaqtda ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqiga ham ega edi. Bu kutubxonaning tavsifi buyuk qomusiy (ensiklopedik) olim Abu Ali ibn Sinoning o'zi yozgan tarjimayi holida berilgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan yagona asari – «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kalitlari»)ning qo'lyozma nusxalari uncha ko'p emas[2]. Yaqin-yaqingacha uning to'rt nusxasi bor deb hisoblab kelinardi. Ana shu to'rt nusxadan uchtasi Britaniya muzeyida[3] hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi. XX asrning 60-yillarida amerikalik olim K.Bosvort Istanbul (Turkiya) kutubxonalarida ushbu asarning yana olti nusxasi borligini aniqladi: bir nusxa Fotih Milliy kutubxonasida, yana bir nusxa Nuri Usmon kutubxonasida va to'rt nusxa Sulaymoniya xalq kutubxonasida.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bu asari o'rta asrlarda fanlarning rivojlanishi tarixiga doir kamyob manba sifatida davrimizning ko'pgina olimlarining e'tiborini o'ziga jalb etdi.

Bu qimmatbaho asar, uning ko'pgina bo'limlarini olimlarimiz o'rganib, tadqiq qilgan bo'lishlariga qaramay, hozircha o'zbek yoki rus tiliga

---

[1] Baxadirov. Klassifikatsiya nauk; Bahodirov. Abu Abdulloh al-Xorazmiy; *Bahodirov. «Ilmlar fazilati»;* Bahodirov. Ilmlar tasnifi; Баходиров. Илмлар таснифи; *Бахадиров. Из истории классификации; Бахадиров. «История Востока»; Бахадиров. «Сочинение ал-Хорезми»; Bahodirov. «Al-Xorazmiyning falsafiy qarashlari»; Baxadirov. «Mafatix al-ulum».*

[2] Birinchi bo'lib Abu Abdulloh al-Xorazmiyning ushbu asarini gollandiyalik sharqshunos Van Floten o'rgangan va uning 1163-yildagi qo'lyozmasi asosida qiyosiy matnini nashr qilgan (Liber Mafatih).

[3] Britaniya muzeyidagi qo'lyozmalar hozirda Britaniya kutubxonasiga berilgan.

@tarixchi_kurbonsiga

to'liqligicha tarjima qilinmagan. «Mafotih al-ulum»ning tarix, falsafa, mantiq, tib va al-kimyo bo'limlarini R.Bahodirov o'zbek tiliga tarjima qilgan[1].

«Ilmlar kalitlari» o'ziga xos qomusiy asar bo'lib, o'sha davrdagi deyarli hamma asosiy fan sohalarini qamrab olgan. Muallif o'rta asrlardagi har bir fan mazmunini asosiy atamalarini sharhlash yo'li bilan tushuntirib bergan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy «Ilmlar kalitlari» asariga kirish qismida: «...va men bu asarni ikki qismdan iborat qilib tuzdim. Birinchi qism shariat va u bilan bog'liq arab ilmlariga bag'ishlangan»[2], – deb yozgan edi.

Asarning birinchi, ya'ni «arab» ilmlari qismiga o'n bir bobdan iborat fiqh, yetti bobdan iborat kalom, o'n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yurgizish, besh bobdan iborat she'riyat va aruz hamda to'qqiz bobdan iborat tarix kiritilgan. Ikkinchi, ya'ni «arab bo'lmagan» ilmlar qismiga esa uch bobdan iborat falsafa, to'qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tib, besh bobdan iborat arifmetika, to'rt bobdan iborat handasa, shuningdek, to'rt bobdan iborat ilmu-n-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyo kiritilgan. Shunday qilib, ikki qismdan iborat mazkur asarda o'n besh ilm to'qson uch bobda bayon etilgan.

Quyidagi tarjima-lavha «Mafotih al-ulum»ning Van Floten nashri asosida bajarildi (arab tilidan R.Bahodirov tarjimasi).

**R.Bahodirov**

## ABU ABDULLOH AL-XORAZMIY. «MAFOTIH AL-ULUM»DAN

*Birinchi qism*

### (97) Oltinchi bo'lim – tarix[3]

U to'qqiz bobdan iborat.

Birinchi bob. Eron podshohlari va ularning laqablari zikri haqida.

Ikkinchi bob. Xalifalar, islom [ahli] maliklari, ularning sifatlari va laqablari zikri haqida.

Uchinchi bob. Johiliya (islomgacha bo'lgan) davrdagi Yaman maliklari va ularning laqablari zikri haqida.

To'rtinchi bob. Yaman maliklaridan bo'lgan Muaddo maliklari zikri haqida.

---

[1] Bahodirov. Abu Abdulloh al-Xorazmiy. 76–143-b.

[2] Liber Mafatih. 4-b.

[3] Qavs ichida «Mafotih al-ulum»ning Van Floten nashr qilgan arab tilidagi matnining betlari ko'rsatilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Beshinchi bob. Rum va Yunon maliklari zikri haqida.

Oltinchi bob. Forslar [Eron] tarixiga oid [asarlarda] tez-tez uchraydigan so'zlar.

Yettinchi bob. Islom paydo bo'lganidan keyin zabt etishlar va g'azavotlar [haqidagi] arablar tarixiga oid [asarlarda] tez-tez zikr qilinadigan so'zlar.

Sakkizinchi bob. Johiliya davrdagi arab maliklari tarixiga oid [asarlarda] tez-tez zikr qilinadigan so'zlar.

To'qqizinchi bob. Rum maliklari tarixiga oid [asarlarda] tez-tez zikr qilinadigan so'zlar.

## *Birinchi bob*

## Eron podshohlari va ularning laqablari zikri

[Eron] podshohlarining birinchi sulolasi *Peshdodiylardir*.

Bu sulolaning birinchi podshohi – *Kayumars*. Uning laqabi *Kilshoh*, ya'ni «yer podshosi», chunki u forslar fikricha, birinchi inson bo'lib, unda yerdan boshqa hech qanday boylik bo'lmagan, so'ngra

*Ushhang* (Hushang) – uning laqabi «*Bishdod*» («Pishdod») bo'lib, ma'nosi (99) «birinchi odil», so'ngra

*Tahmuras* – uning laqabi «*Najib*» – «oliyjanob», uni, shuningdek, «Zinovand», ma'nosi «yaxshi qurollangan» deb ham atardilar. Chunki u birinchi bo'lib qurol ishlab chiqargan, so'ngra

*Jam* – uning laqabi «*Shid*», ya'ni «yorqin nur sochmoq»; ushbu sababdan quyosh nurini fors tilida «*Xurshid*» deydilar, chunki quyosh [fors tilida] «xur» deyiladi, so'ngra

*Bivarosf* – uning laqabi «*Zahhok*», bu arabiylashtirilgan «*dahok*» so'zi bo'lib, uning ma'nosi «o'n ofat egasi (sohibi)»; bu azdaho, ya'ni ajdarho so'zining arabiylashtirilgani bo'lishi ham mumkin deb taxmin qiladilar, chunki uning yelkalarida ikkita g'urrasi bo'lgan, so'ngra

*Afridun* – uning laqabi «*Mua'ayyid*» – «quvvatlanuvchi, qo'llab-quvvatlanuvchi», so'ngra

*Manujehr* (Manuchehr) – uning laqabi «*Firuz*», ya'ni «zafarli (g'alabali)», so'ngra

*Afrosiyob at-turki* – turk ismining ma'nosi «tegirmon (g'ildiragining) parragi». Forslar podshohi bo'lmagani uchun uning laqabi bo'lmagan, so'ngra

*Navzar* – uning laqabi «Ozoda», ya'ni «ozod», so'ngra

*Zob* va *Karshosb* (100) ular ikki sherik sifatida tanilgan, chunki ular birgalikda podshohlik qilganlar.

Podshohlarning ikkinchi sulolasi – *Kayoniylar*.

*Kay* – «qudratli» degani, «*kayon*» (shu so'zning ko'pligi) – bu «qudratlilar».

@tarixchi_kutubxonasiga

Ularning birinchisi *Kayquboz* – uning laqabi «Birinchi», so'ngra *Kaykovus* – uning laqabi «*Namurd*», ya'ni «o'lmagan». Mening taxminimcha, bu yahudiylar «*Namrud*» deb nomlagan odam, so'ngra

*Kayxusrav* – uning laqabi «*Humoyun*», uning ma'nosi «xudoning marhamatiga sazovor bo'lgan», so'ngra

*Kayluhrosb* – uning laqabi «*Al-Balxiy*», chunki u Balxda yashagan, so'ngra

*Kaybishtosb* – uning laqabi «*Hirboz*», ya'ni «otashparast». Uni shunday deyishlariga sabab, Zardusht unga otashparastlik dinini taklif qilganda uning qabul qilganidir, so'ngra

*Kayardashir* – uning o'zi Bahman ibn Asfandiyor – uni ushbu ikki ism bilan atashgan. Uning laqabi «*Saxiy* (hotamtoy, oliyhimmat)», so'ngra

*Humoy* – buhman qizi (101) – uning laqabi «*Jihrozod*», so'ngra

*Doro* – uning laqabi «Buyuk, katta», so'ngra

*Doro ibn Doro* – uning laqabi «Ikkinchi».

So'ngra bu suloladan keyin Iskandar Makedoniyalik podshohlik qildi; uning yunoncha ismi *Aleksandros ibn Filfus*; uni, shuningdek, «*Zul qarnayn*» – «ikki shoxlik» – ham deyishadi. U Eronni zabt etdi va har bir joyga (viloyatga) malik tayinladi. Ular to'qsonta edi – har bir shaharda bittadan. Ular poytaxt Madoin (Ktesifon) shahri bo'lgan Iroq maliklariga bo'ysunar edilar.

Ular (Eron podshohlari) – Ashkoniylar uchinchi sulolani [tashkil etadilar]. Ular *Ashk ibn Doro* farzandlari bo'lgani uchun shunday deb nomlanishgan. *Ashk ibn Doro* bu sulolaning birinchisi bo'lgan va uning laqabi «*Javshanda*» edi, so'ngra

*Ashk ibn Ashk* – uning o'g'li, uning laqabi «*Ashkon*», so'ngra uning o'g'li

*Sobur* – uning o'g'li «*Zarrin*», ya'ni «*oltin*», so'ngra uning o'g'li

*Bahro* – uning laqabi «*Judarz*», so'ngra uning o'g'li

*Narsi* (102) – uning laqabi «*Niyu*», so'ngra

*Hurmuz* – uning laqabi «*As-Solor*», so'ngra uning o'g'li

*Bahrom* – uning laqabi «*Rushan*», ya'ni «yorug', ravshan», so'ngra uning o'g'li

*Bahro* – uning laqabi «*Nazoda*», ya'ni «oliyjanob», so'ngra

*Narsi* – u ovga berilib ketgani uchun laqabi «*Shikori*», uning ma'nosi «ovchi, sayyod», so'ngra

*Ardavon* – uning laqabi «Qizil».

## To'rtinchi sulola – Sosoniylar

Ular *Bobak ibn Soson* farzandlari. Ularning birinchisi *Ardashir ibn Bobak*, uning laqabi «*Bobakon*», ya'ni Bobak o'g'li, so'ngra uning o'g'li

*Sobur* – uning laqabi «*Nabarda*» so'ngra uning o'g'li

@tarixchi_kutubxonasiga

*Hurmuz* – uning laqabi «*Mard qahramon*», so'ngra uning o'g'li

*Bahrom* – uning laqabi «Burdabor», so'ngra uning o'g'li

*Bahrom ibn Bahrom* – uning laqabi «*Shohanda*», ya'ni «haqqoniy», so'ngra uning o'g'li

*Bahrom ibn Bahromon*, chunki u *Bahrom ibn Bahrom ibn Bahrom*; uning laqabi «*Sakiston shoh*», ya'ni Seiston podshohi, so'ngra uning o'g'li

*Nasri* – uning laqabi «*Naxshirkon*», ya'ni «yovvoyi hayvonlar ovchisi», so'ngra uning o'g'li

*Sobur* – uning laqabi «*Huya Sunbo*», *Huya* fors tilida yelka [degani], *Sunbo* esa (103) teshuvchi. Arablar uni yelkador deb ataganlar. Taxmin bo'yicha, uning laqab olishiga sabab, arablar yelkalarini teshib unga halqa kiygizgandandir, so'ngra uning ukasi

*Ardashir* – uning laqabi «Chiroyli», so'ngra

*Sobur ibn Sobur* – uning laqabi «*Sobur al-junud*» («askarlarni sinovchi»), so'ngra

*Bahrom ibn Sobur* – uning laqabi «*Kirmon shoh*» (qirmon podshohi), so'ngra uning o'g'li

*Yazdajird* – uning laqabi «*Osiy*», «*Qo'pol*»; fors tilida bu – dafr (muttaham, qallob, firibgar, tovlamachi) va bazakar (osiy), so'ngra uning o'g'li

*Bahrom Jur* – uning yovvoyi eshaklarni ov qilishni juda yaxshi ko'rgani uchun unga ushbu laqabni («jur» – «gur») berishgan, so'ngra uning o'g'li

*Yazdajir* – uning laqabi «*Sipoh do'st*», ya'ni askarlarni sevuvchi, so'ngra uning o'g'li

*Hurmuz* – uning laqabi «*Farzona*», ya'ni «donishmand», so'ngra uning ukasi

*Firuz* – uning laqabi «*Mardona*», ya'ni «mard», so'ngra uning ukasi

*Balosh* – uning laqabi «*Karonmoya*», ya'ni «qimmatbaho», so'ngra uning ukasi

*Jomosb* – uning laqabi «*Nikorin*», ya'ni (104) «bo'yalgan», «naqshlangan», so'ngra

*Kisro* (Xisrav) – uning laqabi «*Abarriz*», ya'ni «Qudratli shoh», so'ngra uning o'g'li

*Quboz* – uning laqabi «*Shiruya*», so'ngra uning o'g'li

*Ardashir* – uning laqabi «*Kuchak*», ya'ni «kichik» so'ngra

*Kisro ibn Quboz ibn Hurmuz ibn Anusharvon* — uning laqabi «*Kutoh*», ya'ni «qisqa». So'ngra

*Buron bint Abarviz* – uning laqabi «Baxtli» (saodatli), so'ngra uning singlisi

*Ozarmiduxt* – uning laqabi «*Odila*», so'ngra

*Farruxzod ibn Abarviz* – uning laqabi «*Baxtiyor*», so'ngra

*Yvazdajir ibn Shahriyor* – uning laqabi «*Oxirgi podshoh*».

@tarixchi_kutubxonasiga

## (105) *Ikkinchi bob*

### Xalifalar, islom [ahli] maliklari, ularning sifatlari va laqablari zikri

Ularning birinchisi *Abubakr Abdulloh ibn Abu Quhofa*. Uni Rasulullohi, – Alloh uni qo'llasin va taqdirlasin, – xalifasi (izdoshi, vorisi) deyishadi. Uning laqabi «*Atiq*» («ozod etilgan»), sifati esa «*Siddiq*» («eng haqqoniy»), so'ngra

*Umar ibn al-Xattob* – uning laqabi «*Foruq*» («yaxshi farq qiluvchi») Xalifalar orasida birinchi bo'lib uni «Amiralmo'minin» (xudoga ishonuvchilar amiri) deyishgan, so'ngra

*Usmon ibn Affon* – uning laqabi «*Zu-n-nuroyn*» («ikki nur egasi»), so'ngra

*Ali ibn Abu Tolib* – u «*Vasiyy*»[1] («vasiyat qiluvchi»), – ularning barchasidan Alloh rozi bo'lsin.

So'ngra ulardan keyin Umaviylar.

Ularning na sifatlari va na laqablari bo'lmagan. Ularning birinchisi

*Muoviya ibn Saxr Abu Sufayon ibn Harb*, so'ngra uning o'g'li

*Yazid*, so'ngra uning o'g'li

*Muoviya ibn Yazid*, so'ngra

*Marvon ibn al-Hakim*, so'ngra uning o'g'li

*Abdulmalik ibn Marvon*; unga «*Abu Zabbon*» degan laqab berishgan, so'ngra

*Al-Valid ibn Abdulmalik ibn Marvon*, so'ngra uning ukasi

*Sulaymon ibn Abdulmalik*, so'ngra

*Umar ibn Abdulaziz* (106) *ibn Marvon* – u «*Ashajj bani Umayya*» (boshidan yaralangan (jarohatlangan) Umaviy») so'ngra

*Yazid ibn Abdulmalik*, u «*Ahvol bani Umayya*» («g'ilay Umaviy»), so'ngra

*Al-Valid ibn Yazid ibn Abdulmalik* – uning laqabi «noqis» («nuqsonli»), so'ngra uning ukasi

*Ibrohim ibn al-Valid*, so'ngra

*Marvon ibn Muhammad ibn Marvon ibn al-Hakim*; u [Umaviylar sulolasining] oxirgisi bo'lib, uning laqabi «Himor» («eshak») edi, u , shuningdek, «*al-ja'diyy*» («jingalak soch») [nomi bilan] mashhur bo'lgan.

**[Abbosiylar].** So'ngra *Abbos ibn Abdulmutallib* avlodlari, – Alloh ularning barchasidan rozi bo'lsin, – [hokimlik qilganlar].

Ularning birinchisi *Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbos* – uning o'zi «*As-Saffoh*» [qonxo'r], so'ngra uning ukasi

*Abdulloh ibn Muhammad* – uning o'zi «*Al-Mansur*» («g'olib»), so'ngra uning o'g'li

[1] Van Floten nashr etgan asarda Berlin kutubxonasidagi 1051-raqam ostida saqlanayotgan nusxa bo'yicha «ar-raddiyy» – yoqimli, mamnun deb berilgani qayd etilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

*Muso* – uning o'zi «*Al-Xoddiy*», so'ngra uning ukasi
*Horun* – uning o'zi «*Ar-Rashid*», so'ngra uning o'g'li
*Muhammad ibn Horun* – uning o'zi «*Al-Amin*», so'ngra uning ukasi
*Abdulloh ibn Horun* – uning «*Al-Ma'mun*», so'ngra uning ukasi
*Muhammad Abu Ishoq ibn Horun* – uning o'zi «*Al-Mu'tasim*», so'ngra uning o'g'li
*Horun ibn Muhammad* (107) – uning o'zi «*Al-Vosiq*», so'ngra uning ukasi
*Ja'far* – uning o'zi «*Al-Mutavakkil*», so'ngra uning o'g'li
*Muhammad ibn Ja'far* – uning o'zi «*Al-Muntasir*», so'ngra
*Ahmad ibn Muhammad ibn Al-Mu'tasim* – uning o'zi «*Al-Musta'in*», so'ngra
*Zubayr ibn al-Mutavakkil* – uning o'zi «*Al-Mu'atazz*», so'ngra
*Muhammad ibn al-Vosiq* – uning o'zi «*Al-Muhtadi*», so'ngra
*Ahmad ibn al-Mutavakkil* – uning o'zi «*Al-Mu'tamid*», so'ngra
*Al-Muvaffaq* – valiyul ahd va («*Al-Mu'tamid*») ukasi – uning ismi *Talha*, so'ngra
*Ahmad ibn Muvaffaq* – uning o'zi «*Al-Mu'tadid*», so'ngra uning o'g'li
*Ali* – uning o'zi «*Al-Muktafi*», so'ngra uning ukasi
*Ja'far* – uning o'zi «*Al-Muqtadir*», so'ngra uning ukasi
*Muhammad* – uning o'zi «*Al-Qohir*», so'ngra
*Abul-Abbos Ahmad ibn al-Muqtadir* uning laqabi «*Ar-Rozi*», so'ngra uning ukasi
*Ibrohim* – uning o'zi «*Al-Muttaqi*», so'ngra
*Abdulloh ibn al-Muktafi* – uning o'zi «*Al-Mustakfi*», so'ngra
*Al-Fazl ibn al-Muqtadir* – uning o'zi «*Al-Muti'*», so'ngra uning o'g'li
*Abdulkarim* – uning o'zi «*At-Toi'*».

## *Uchinchi bob*
## Yaman maliklari va ularning laqablari haqida

Qahton avlodlarining biri, Yamanning birinchi podshohi *Himyar ibn Sabo*, so'ngra

*Horis ar-Roish* – uning laqabi «*Tubba'*[1] *al-avval*»; Yaman ahli (108) unga bo'ysungani uchun uni shunday deb atashgan. U haqida «*Roish*» («boyituvchi») deyishardi, chunki u ularni boyitdi, ya'ni kiyintirdi va ularga boylik hadya etdi, so'ngra uning o'g'li

*Abraha* – uning o'zi «*Mayoqlar egasi*», chunki u o'z yurishining butun masofasida mayoqlar o'rnatdi, so'ngra uning o'g'li

*Ifriqas* – u barbarlar yerida «*Ifriqiya*» [shahrini] bunyod etdi, so'ngra uning ukasi

[1] *Tubba'* – qadimgi Yaman podshohlarining unvoni.

@tarixchi_kutubxonasiga

*Al-abd zu-l-az'or* («Vahima soluvchi»), taxmin qilishlaricha, uni bu nom bilan atashlariga sabab, u An-Nasnos mamlakatini bosib olgani va so'ngra asirlik vahimasiga tushgan [uning] aholisini banda qilganligidir.

*Hudod ibn Shurahbil* – uning o'zi Bilqis otasidir, so'ngra

*Bilqis* – Sulaymon ibn Dovud uylangan ayol, – ular ikkalasiga tinchlik ato bo'lsin, – so'ngra uning amakisi

*Yosir Yun'im* – uni shunday deyishlariga sabab, u odamlarga [yashashlari uchun] xayr-saxovat qilganligidandir, Bilqis [Yamanni] tark etganligi natijasida inqirozga uchrayotgan davlatni boshqarishga kirishganligidir, so'ngra

*Shamir Yar'ash* – uning o'zi *Abu Karib ibn Ifriqos;* Yar'ash (ya'ni, titrovchi», «qaltirovchi») deyilishiga sabab, uning titroq (qaltiroq) bo'lganligidir. Shuningdek, Iskandar Rumiy, u ikki shoxli (zu-l-qarnayn) bo'lgan deb taxmin qiladilar. Aytishlaricha, u ikki kokilli bo'lganligi sabab uni shunday deyishgan, so'ngra uning o'g'li

*Abu Malik ibn (109) Shamir,* so'ngra uning o'g'li

*«Tubba' al-Aqran» («Shoxli»)* – uning o'zi *«Ikkinchi Tubba'»*, so'ngra o'zi «Ikki qo'shin egasi», so'ngra

*Tubba' ibn al-Aqran ibn Shamir Yar'ash,* so'ngra uning o'g'li

*Kali Karib,* so'ngra uning o'g'li

*As'ad Abu Karib* – uning o'zi *«O'rtancha Tubba'»*, so'ngra

*Hasson ibn Tubba',* so'ngra uning ukasi

*Amr ibn Tubba'* – uning laqabi *«Mavsok»* («tark etmaydigan»), uni shunday deyishlariga sabab, yotgan o'rnini tark etmaganligidir, *«visob»* ular tilida – o'rin. Uning [shuningdek] *«joy egasi»* laqabi bo'lgan. Chunki kasal bo'lgani uchun taxtiravonda o'tirgan va uni odamlar yelkalarida ko'tarib yurganlar, so'ngra

*Abd Kulol ibn Yasub,* so'ngra

*Tubba' ibn Hasson* – uning laqabi *«Kichik Tubba'»*; u Tubba'lardan oxirgisi va u onasining o'g'li *Al-Horis ibn Amr ibn Hujr al-Kindiyni ma'addo* [qabilasi] maligi [etib tayinladi], so'ngra

*Marsad ibn Abd Kulol,* so'ngra

*Vali'a ibn Marsad,* so'ngra

*Abraha ibn Sabboh,* so'ngra

*Hasson ibn Amr ibn Tubba',* so'ngra

*Zu Shanotir,* himyoriy tilida bu *«Ziraklar egasi»* [ma'nosini] anglatadi, so'ngra

*Zu Nuvos* (*«Osilib turuvchi kokillar egasi»*), uning yelkasiga osilib tushgan, ya'ni tebranib turgan (110) ikki kokili bo'lganligi sababli shunday deb atashgan, so'ngra

*Zu Jadan* – u [ularning] oxirgisi.

So'ngra habashlardan uch nafari maliklik qilgan, ularning birinchisi

@tarixchi_kutubxonasiga

*Abraha al-Ashram*, so'ngra uning o'g'li
*Yaksum*, so'ngra uning ukasi
*Masruq ibn Abraha*, so'ngra
*Sayf ibn zi Yazan* – u fors maligi Anusharvondan yordam so'radi. Anusharvon unga Vahriz boshchiligida qo'shin yubordi va habashlar Yamandan quvildilar. So'ngra [keyinchalik] Sayf ibn zi Yazan o'ldirildi va Yamanda hokimlikni qo'shni fors maliklari egalladilar. So'ngra hokimlik musulmonlarga o'tdi.

## *To'rtinchi bob*

## Johiliya davridagi Yamanning mu'addo maliklari zikri

Johiliya davridagi Mu'addo maliklari:
*Nasr oilasi* – bu Yamandan [kelgan] *laxmiylar*, ular xisraviylar vorislari (xizmatchilari) bo'lib Iroqda yashaganlar.
Ularning birinchisi – *Malik ibn Fahm*, so'ngra uning o'g'li
*Jazima al-Abrash* («*Dog'li, xol-xol*»); u moxov kasali bilan og'rigani uchun «*Al-Abrash*» deb atashgan; [uni] shuningdek, «*Vazzoh*» («yorug', oq») ham deyishardi, so'ngra
*Amr ibn Adiyy* – u o'ziga (111) Xironi poytaxt qilib tanlaganlar ichida birinchidir, so'ngra
*Imru al-Qays al-Bad*, yamanliklar tilida – «Birinchi» , so'ngra uning o'g'li
*Amr* – uning o'zi Ibn Hind, so'ngra
*Avs ibn Kallom*, so'ngra
*Imru al-Qays al-Badan* – uning o'zi «*Muharriq al-avval*» («birinchi yondiruvchi»), chunki u birinchi bo'lib, odamlarni olov bilan jazolagan, so'ngra uning o'g'li
*Nu'mon* – u Al-Xavarnaq va As-Sadirga asos solgan.
*Foris Halima* – uning o'zi «*A'var*» («g'ilay»), shuningdek, «*Soih*» («sayohatchi»), chunki u yer yuzi bo'ylab sayohat qilgan, lekin hech kim uni ko'rmagan, so'ngra uning o'g'li
*Munzir*, so'ngra uning o'g'li
*Asvad*, so'ngra
*Munzir ibn Munzir*, so'ngra
*Nu'mon ibn Asvad*, so'ngra xalifalik
*Abu Ya'fur ibn Alqamaga* o'tdi, so'ngra
*Imru al-Qays ibn Nu'mon* – u [o'z] do'sti Sinnimorni, «Sinning» qal'asini ko'rib bo'lganidan so'ng, o'ldirgan [kishidur], so'ngra uning o'g'li
*Munzir* – u *Moassamo* o'g'li; *Moassamo* uning onasi bo'lib, uni «*Moriya*» deyishardi; uning o'zi «*Zulqarnayn*» («Ikki shox egasi»), so'ngra
*Horis ibn Amr Hajar al-Kindiy* — [uning laqabi] «*Muror yeyuvchi*» so'ngra

@tarixchi_kutubxonasiga

*Munzir ibn Moassamo* ikkinchi marta, so'ngra uning o'g'li

*Amr* – uni «*ibn Hind*», «*Muzarrit al-Hijora*», «*Muharriq as-Soniy*» laqablari bor edi, so'ngra uning o'g'li (112)

*Qobus ibn Munzir*, so'ngra

*Faysharb al-Forsiy* – u Anusharvon davrida podshohlik qilgan, so'ngra

*Munzir ibn Munzir* va uning ukasi

*Amr ibn Hind*, so'ngra

*Nu'mon ibn Munzir* – u Abarviz fil oyoqlari ostida o'ldirgan [kishidir]; u Laxm sulolasining oxirgi podshohi edi. Undan keyin

*Iyos ibn Qubaysa at-Toiy* podshohlik qildi, so'ngra

*Zotviyya al-Forsiy*, so'ngra

*Munzir ibn Nu'mon ibn Munzir* — bir necha oy podshohlik qilgan va «Mag'rur» laqabini olgan, u Javso jangida Xolid ibn Valid Xira [shahriga] kelgan kuni o'ldirilgan.

### Jafna sulolasidagi arab podshohlari

Ular – *G'asoniylar* – Shom (Suriya) maliklari ham Yamandan kelib chiqqanlar; ular [Rum] imperatorlari noiblari bo'lib xizmat qilganlar. Ularning na sifatlari va na laqablari bo'lmagani uchun men ularning ismlarini zikr etmadim.

## *Beshinchi bob*
## Rum imperatorlari (maliklari) zikri haqida

*Doro ibn Doroni* o'ldirgan *Aleksandr ibn Filfus*dan (ya'ni *Iskandar Zulqarnayn*) so'ng Yunon shaharlaridan biri, «donishmandlar shahri» sifatida mashhur bo'lgan Makedoniyadan (113) chiqqan o'n kishi imperatorlik qildilar. Ular hammasi «*Batalmyus*» (Ptolemeylar, Legidlar)[1] – uning ma'nosi harbiy va ularning har birining o'z laqabi bo'lgan. Ulardan birinchisi

*Batalmyus al-Arib ibn Adib*, so'ngra

*Batalmyus ibn Lag'us*, «otasini sevuvchi, otasiga mehribon», so'ngra *Batalmyus as-Soni'* («hunarmand»), so'ngra

*Batalmyus* [astronom] «*sohib al-ilm bin-nujum*», «onasini sevuvchi, onasiga mehribon», so'ngra

*Batalmyus as-Soni' as-soniy* («ikkinchi hunarmand»), so'ngra

*Batalmyus al-Muxlis* («samimiy, ochiq ko'ngil»), so'ngra

*Batalmyus Iskandariy*, so'ngra

*Batalmyus al-Xayr* («xayrli, yaxshi»), so'ngra

[1] Ellinistik Misrda eramizdan oldingi 305–30-yillarda hokimlik qilgan podshohlar sulolasi.

@tarixchi_kutubxonasiga

*Batalmyus al-Hadidiy* («temir»), so'ngra
*Batalmyus al-Xabis* («battol, badjahl»), so'ngra
*Qlufatro bint Muhaysa* (Kleopatra) podshohlik qildi.

So'ngra Rum yunonlar ustidan g'alaba qildi va *Ol Sufar* sulolasi podshohligi boshlandi. (Ularning) birinchisi

*Yuliyus (Yulius)*, so'ngra

*Avgust Qaysar (Sezar)* – uni imperatorlar ichida birinchi bo'lib «*Sezar*», ya'ni «*Qaysar*», deb atashgan. Bu [so'z]ning ma'nosi (114) «kesib olingan», shunday deyishlariga [sabab], uni o'lgan homilador onasining qornini yorib chiqarib olganlar, so'ngra

*Qustantin ibn Xiloniy* (Konstantin Xiloniy o'g'li) o'z poytaxti Bozantiyoni qurdi, uni devor bilan o'radi va [shahar] Qustantiniya (Konstantina) deb atala boshlandi. O'sha paytdan boshlab hozirgacha bu shahar rumliklar poytaxtidir.

*Harkal* (Gerakl) – hijratning birinchi yili Rumda podshohlik qilgan imperator.

*Qustantin ibn al-Yun* (Konstantin Yun o'g'li) – hijratning 301-yilidan boshlab Rumda podshohlik qilgan imperator.

Men bu yerda Ptolemeylardan so'ng podshohlik qilgan Rum imperatorlari ismlarini eslatib o'tmadim, chunki ularning na laqablari va na mashhur sifatlari bo'lgan.

## *Oltinchi bob*
## Forslar (Eron) tarixiga oid [asarlarda] tez-tez uchraydigan so'zlar

*Maroziba – marzubon* [so'zining] ko'pligi – bu podshohdan keyingi [mansab pog'onasidagi] kishilar bo'lib, ular chegara viloyatlari hokimlaridir. «*Marz*» fors tilida «chegara»ni, «*marzubon*» – «chegara viloyati hokimi» ma'nosini anglatadi.

Jayhun daryosi qirg'oqlarini eronliklar «marzi Turon», ya'ni turklar chegarasi deb atasalar, Xuroson[1] ahli uni «marzi Iron», ya'ni Eron chegarasi deganlar.

*Xuroson* – uning ma'nosi Sharq [demakdir].

*Xurboron* – bu G'arb.

*Nimruz* – bu janubi-shimol tomoni, (115) chunki Quyosh tushda uning qarshisida turadi.

*Ozarbadkon* – bu shimoliy shamol va ularning ma'nosi qishki shamol esadigan tomon. So'ngra so'z arabiylashtirilgan va Ozarbayjon bo'lib qolgan.

[1] Bu yerda Movarounnahr nazarda tutilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

*Dirafsh* – bu forscha «*difarshi Kobiyon*» so'zidan arabiylashtirilgan. *Dirafsh* – bu bayroq; Dahhok (Zahhok)ka qarshi chiqib uni o'ldirgan kishining ismi *Afridun Kobi* edi. Uning bayrog'i ayiq terisidan edi; [ba'zilar] arslon terisidan deb aytadilar. Eron podshohlari bayroqni muqaddas deb hisoblab, uni oltin bilan qopladilar va qimmatbaho toshlar bilan bezadilar.

*Asovira* – «usvar» [so'zining] ko'pligi, [usvorning] ma'nosi chavandoz, chunki forslar faqat botir va mashhur qahramonnigina «usvor» deb ataydilar.

*Suriston – bu as-Savod*[1] Suryoniylar unga mansubdirlar, ularning o'zlari nabatiylardir.

*Bog'iston* – majusiylar butxonasi; bog' – bu but, Al-Asmoiy aytishicha, shuning uchun ham *Bag'dod* deyiladi, uning ma'nosi «but hadyasi», (116) shuning uchun podshohni hamda imom va sayid («xo'ja»)ni «bag'» deyishgan. Ushbu (so'z bilan) Xitoy podshohini bag' bur (pur), ya'ni «podshoh o'g'li», deyishgan; Ibn Durustavayh o'z kitobi «Tashih al-Fasih»da Al-Asmoiy Bag'dod so'zining talqinida xatoga yo'l qo'ygan, chunki forslar budparast bo'lmaganlar, deydi. Bu «*Bog' dod*», «*bog'*» – bu bog', «*dod*» esa kishi ismi. Bu Ibn Durustavayhning yolg'on ixtirosi va qo'pol xatosi. Chunki «*bag*» (so'zi forslarda) «xudo», «xo'ja», «podshoh»ni anglatadi; ular butlarni hurmatlaganlar va uning marhamatini so'raganlar. Ular butlarni «*bag'*», butxonani esa «*bag'iston*» deyishgan. Forslar butlarni podshohlar va imomlar shaklida tasvirlashgan. Ehtimol, «*Bag'dod*» – bu «podshoh hadyasi».

*Mavbaz* – majusiylar qozisi; *mavbazon mavbaz* esa qozilar qozisi.

*Hirboz* – bu olovni [saqlovchi] xodim, ko'pligi *harobiza*.

**Forslar tillariga [quyidagilar] kiradi:**

*Pahlaviyya* (pahlavi) (117) – bu podshohlar o'z majlislarida gaplashgan tildir. Bu til Bahlaga mansub, Bahla esa besh viloyat (yoki shahar); Isfahon, Ray, Hamadon, Mohiaxovand. Ozarbayjon nomidir.

*Forsiyya* (fors) – bu majusiylar qozilari va ularning yaqinlari gaplashgan til. Bu til Fors viloyatida [tarqalgan edi].

*Dariyya* (dariy) – bu Madoin[2] shaharlari ahlining tili, unda podshoh saroyida gaplashganlar va bu [til] poytaxtga xos. Mashriq ahli tillaridan eng keng tarqalgani Balx ahli tilidir.

*Xuziyya* – bu Xuziston viloyati aholisiga mansub til; unda, shuningdek, podshohlar va katta amaldorlar hojatxonalarida, istifrog' (qayt qilish) joyla-

[1] Dajla va Frot oralig'idagi tekislik ilgari shu nom bilan atalgan. Iroq ma'nosida ham ishlatiladi.

[2] Madoin, ya'ni Iroq.

@tarixchi_kutubxonasiga

rida, hammomlarda yechinayotganda, [hammomdagi cho'miladigan] hovuz va tahorat xonalarida gaplashganlar.

*Suryoniyya* (suryoniy) – bu Suriston (Assuriya) viloyati, ya'ni Iroq savodi[1], aholisiga mansubdir. Suryoniylarni (osuriylar), shuningdek, nabatiylar deyishgan. Unda podshoh yaqinlari biror narsa so'rab murojaat qilganda yoki zulmdan arz qilganda gapirishgan, chunki u xushomadgo'ylik [bilan so'zlashga mos] til edi.

### Forslar yozuvi [ish yuritish bo'yicha] daftarlari

*Dod dafira* – [sud] hukmi (118) yozuvi ro'yxat daftari

*Shahr hammor dafira* – shaharga soliq solish uchun [yerni hisoblash] ro'yxat daftari

*Kada hamor dafira* – podshoh saroyi [mulkini] hisoblash ro'yxat daftari.

*Kanj hamor dafira* – xazinani hisoblash ro'yxat daftari.

*Oxur hamor dafira* – otxonalarni hisoblash ro'yxat daftari.

*Otash hamor dafira* – olov [o'choq] ni hisoblash daftari.

*Ravonkon dafira* – vaqflarni hisoblash ro'yxat daftari.

*Akosira* – [bu] siniq ko'plik shaklida bilaks *kisro* [so'zining] ko'pligi; kisro [fors tilidagi] xusrav [so'zining] arabiylashtirilgan shakli.

## *Yettinchi bob*

## Islom paydo bo'lganidan keyin zabt etishlar va g'azavotlar [haqidagi] arablar tarixiga oid [asarlarda] tez-tez zikr qilinadigan so'zlar

*Shurta* – bu belgi, uning ko'pligi «*shurat*».

*Shuratiyyun* – bu qora bayroq ko'targanlar, ularning rahbarini esa «*sohib shurat*» deyishadi.

*Harba* (nayza) – Habashiston (Efiopiya) qiroli Najoshiyniki edi va u nayzani Rasulullohga, – Alloh uni qo'llasin va taqdirlasin, – hadya qildi (119). U [nayza] bayramda namozga chiqqanida Rasulullоh, – Alloh uni qo'llasin va taqdirlasin, – qo'llarida bo'lgan. Xalifalarga u meros bo'lib qolgan. Bu payg'ambar, – Alloh uni qo'llasin va taqdirlasin, – o'z qo'li bilan Uhud jangida Abu ibn Xalafni o'ldirgan nayzadir. U, shuningdek, Anaza ham deyiladi.

*Burda* (plash, yaktak) – (bu) Rasulullоh, – Alloh uni qo'llasin va taqdirlasin, – shoir Ka'b ibn Zahayrga kiygizgan plashdir, shoirdan uni [plashni] Muoviya sotib olgan. Xalifalarga u ham meros bo'lib qolgan.

*Robita* – u yilqilari [miniladigan hayvonlari] bo'lgan badaviylardir.

[1] Oddiy xalq.

@tarixchi_kutubxonasiga

Odiya – bu [yaxshi] chopqir otlari bo'lgan [odamlardir].

*Shanoqisa* – bu dehqonlar o'g'illari, undan nisbiy sifat «*shanoqisiy*» [bo'ladi].

*Anbo* – bu dehqonlar o'g'illari, undan nisbiy sifat «*banaviy*» [bo'ladi].

*Farog'ina* – bu Farg'ona ahlidir.

*Ixshid* – bu Farg'ona podshohining ismi, podshohdan so'ng mansab bo'yicha kelgan a'yonlarni esa «*savoratakim*» deyishgan.

*Afshin* – bu Usrushana malikining (podshohining) ismi.

*Hayotila* – bu Toharistonda hokimlik qilgan bir guruh shavkatli kishilar; Xalaj va Ganjina turklari (120) ularning avlodlaridir.

*Xoqon* – buyuk turk maligi (podshohi). *Xon* – u rais, *xoqon* esa xonlar xoni, ya'ni raislar raisi; bu xuddi forslar shahanshoh degani kabidir.

*Jabbuya* – G'uziyya maligi; Xarluxiyya maligini ham jabbuya deyishardi.

*Yanol takin* – bu jabbuyaning valiahdi. Har bir raislar raisi yoki turklar podshohi, yoki dehqonlarning yanoli, ya'ni valiahdi [bor].

*Suboshi* – bu qo'shin (sohibi) qo'mondoni.

*Tarxon* – bu aslzoda, xo'ja, uni (so'zni) ko'pligi *taroxina* bo'ladi.

*Bag'bur* – bu Xitoy podshohi; sind, xitoy va sof fors tilida «*bag'*» – bu podshoh, «*bur*» («pur») esa – o'g'il.

*Roy* – bu Hind podshohining (ismi).

(121) *Qannuj roy* – bu eng katta viloyat Qannujda hokimlik qilgan podshoh.

*Balahroy va Baluhro* – ular (hindlar)da eng buyuk podshoh.

*Sariyya* – bu tungi hujumlarga yuborilgan kishilar guruhi; [so'z] «*suro*» [tungi sayohat]dan kelib chiqadi va uning ko'pligi «*saroyo*».

*Soriba* – bu kunduz kuni biror ishga yuborilgan odamlar guruhi; uning (so'zning) ko'pligi «*savorib*».

*Ba'so* – bu kunduzi va kechasi topshiriq bilan yuborilgan odamlar guruhi.

*Tajmir* – bu askarlarning dushmanga uzoq vaqt qarshi turishi.

*Hamro* – bu ajamlar (ya'ni chet elliklar).

*Arho* – bu mustaqil va bir-biriga muhtoj bo'lmagan qabilalar.

*Ahmos* – bu aslzoda, oliy martabali odamlar; *Banu Tamim, Bakr ibn Voil, Abd al-Qays,* Azd va Kinda qabilalarining har biri *xums* deyilardi. Bu qabilalar boshliqlari (122) ahmos boshliqlaridir.

*Vazoi' al-jund* – bu qo'shin ovqatlari va qurollaridir; uning birligi *vazia.*

*Shu'ub* – bu «*sha'b*»ning ko'pligi, (bu so'z) ajam uchun xuddi arablarga qabilalar ma'nosi kabidir. Alloh taolo so'zlari: «Biz sizlarni hamma [bir-biri bilan] tanishishi uchun xalqlar va qabilalar qilib yaratdik»[1] ajamlarga muta-

[1] Qur'oni karim, 49-sura (Hujurot surasi), 13-oyatdan.

@tarixchi_kutubxonasiga

assibligi (ishtiyoqi, mayli) bo'lgan kishini «shu'biy» deb ataydilar, deyishdi; shuningdek, bu [so'z] arablarga qanday taalluqli bo'lsa, ajamlarga ham shunday taalluqlidir: «*banu Qahton sha'b*» va «*banu Adnon sha'b*», so'ngra

*Qaboil* – uning (so'zning) birligi «*qabila*» bo'lib, «*qaboil ar-ra's*» – ma'nosi bosh suyagi – so'zidan kelib chiqqan.

*Hayy* – aytishlaricha, «*hayy*» va «*qabila*» orasidagi farq shuki, «*hayy*»da «*banu fulon*» deyilmaydi, masalan, «*Quraysh*», «*Saqif*»,

*Ma'add* va *Juzam*, ammo qabila nomi aytilayotganda «*banu fulon*» deyishadi, masalan: *banu Tamim*, *banu Salul*, so'ngra

*Amoir* – (odamlar guruhi) qabiladan so'ng (ya'ni qabiladan kichik), uning (so'zning) birligi «*'amora*», masdari esa «*'mora*», so'ngra

*Butun* – (oila, urug'), uning (so'zning) birligi «*batn*»[1] [bu so'z] muzakkar.

*Afxoz* – (bo'g'in), uning (so'zning) birligi «*faxiz*» so'ngra

*Fasoil* – (faxizdan kichik bo'lgan urug'), uning birligi «*fasila*», so'ngra

*Ashira* – «qarindoshlar».

*Misok* – bu kimgadir o'lja sifatida chekiga tushgan asir.

*Darohim vafiya* (to'liq) – bu vazni (123) [bir] misqolga teng bo'lgan dirhamdir.

*Vazn sab'a* – bu o'ntasining vazni yetti misqolga teng bo'lgan dirhamlar, «*vazn xamsa*»[2] va «*vazn samoniyya*»[3] ham xuddi shunday.

*Qaromil* – bu ikki o'rkachli tuya.

*Buxor* – bu hind majusiylari butxonasi.

*Farxor* – bu Xitoy va Yuqori Sug'd majusiylari butxonasi.

*Budd* – bu eng katta hind sanami bo'lib, uni ziyorat qiladilar va har bir sanamni «budda» deyishadi.

## Hindistondagi odamlarning ijtimoiy tabaqalari

*Barohima – brahmanlar* – bu aslzoda va dindor odamlar, uning [so'zning] birligi «barhamiy».

*Sudariyya* – bu dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan [odamlar].

*Bayshiyya* – bu hunarmandlardir.

*Sandoliyya* – bu cholg'uchilardir.

*Zutt* – bu yo'l qo'riqchilar; bu guruh Sinddan [bo'lib], ularni «jatton» deyishadi.

*Moh Qufa* – bu Dinavar [shahri].

*Moh Basra* – bu Nahovand, Hamadon va Qum [shaharlari].

[1] Batndagi odam soni amoradagidan kam.

[2] Vazni besh misqol.

[3] Vazni sakkiz misqol.

@tarixchi_kutubxonasiga

*Zummm al-akrod* – bu kurdlar mahallasi (yashash joyi) bo'lib, uning (so'zning) birligi (124) «zamm».

*Hashabod* – bu dengizda o'rnatilgan ustunlar; ular ustida, tunda kema egalari yo'nalishni aniqlashlari uchun chiroq yoqib qo'yiladi.

*Mahroj* – bu Zobij va Zanj podshohi.

*Fustot* – bu Misrdagi shahar.

*Iliyo* – bu Bayt ul-Muqaddas shahridir, ivrit tilida Urshalim (musulmonlarda Quddus). U (shahar) Falastinda joylashgan.

*Sug'ur* – (chegara viloyatlar) – bu Rum (Kichik Osiyo) shaharlariga yaqin joylashgan Shom (Suriya) shaharlari.

*Avosim* – bu sug'ur ortida [joylashgan], xuddi u (sug'ur) bilan himoya qilingan shaharlardir.

*Avodil* – bu (sug'ur) chegara viloyatlari, ular [chegaradan] ajratilgan.

*Haramon* – bu Misrdagi ikki katta bino bo'lib, har birining balandligi to'rt yuz cho'zim. Ularning ikkalasi tosh va marmardan ishlangan bo'lib, konus shaklga ega: ular atrofida bir qancha ehromlar bor. Odamlar ta'kidlashicha, ular [Nuh davridagi] to'fongacha qurilgan va ular ichida [boyliklar, qimmatbaho narsalar] yashirilgan. Ba'zilar taxminicha, ular ichida «fir'avnlar» deb ataluvchi (125) qiptiy maliklar qabrlari joylashgan.

*Qiptiylar* – Misr ahli.

*Namorida* – ular suryoniylar maliklari edilar, uning (so'zning) birligi «*numrud*».

## *Sakkizinchi bob*

## Johiliya davridagi arablar tarixiga oid [asarlarda] tez-tez zikr qilinadigan so'zlar

*Hajoba* – (parda, choyshab) – bu Baytulloh al-Harom choyshabi.

*Rifoda* – bu mablag', uni Qusay ibn Kilob quraysh [qabilasiga] hojilarni ovqatlantirish uchun ajratishni farz qilgan [soliq]. Qabilaning] har bir a'zosi imkoniyatiga yarasha o'z molining [bir qismini] ajratgan va natijada hojilarning taomlariga sarflanadigan katta pul mablag'i yig'ilgan.

*Siqoya* – bu hojilarga [suv] ichirish (suv bilan ta'minlash).

*Dor-an-nadva* – bu Makkadagi majlis uchun yig'iladigan bino. *Nadva* so'zi «*nodi*»dan kelib chiqadi, nodining ma'nosi – *majlis*.

*Mutayyabun* – muvaffaqiyatga erishish uchun ko'maklashuvchilar – bu Quraysh qabilasining bir necha urug'i; ularga «xilf (uyushma) mutayyabin» taalluqlidir.

*Ahlof* – bu [qurayshlarning] Abd Manof, Zuhra, Asad ibn Abd al-Uzza, Tayyim va Xoris ibn Faxr [ismlari bilan ataluvchi] urug'lari.

@tarixchi_kutubxonasiga

*Hilf mutayyabin* – bu Banu Qusay bilan mutayyabinlarga qarshi urush uchun ittifoq tuzgan. So'ngra esa fikridan qaytgan [kishilardir].

(126) *Hilf fuzul* – qurayshiylar Makkada bir-birlariga zulm o'tkazganlar, biroq [keyinchalik] mazlumlarga yordam berish uchun ittifoq tuzganlar; bu [ittifoq] hilf fuzul [nomi bilan] mashhur.

*Harb al-fijor* (fijor jangi) – muharram oyida qurayshiylarda va [boshqa] arab qabilalarida har xil [ko'ngilsiz] voqealar bo'lar edi: buning sababi, fijor jangi edi, shuning uchun ular bu jangni inkor etdilar (undan voz kechdilar).

*Yavm zi qor* – bu Abarviz (Xisrav parviz) va Banu Shaybon qo'shinlari orasida jang [bo'lgan kun]. Uning sababchisi podshoh Abarvizdan qochgan va Banu Shaybonda [panoh topgan] Nu'mon ibn Munzir bo'lgan. Abarviz uni qaytarib berishni talab qilgan, lekin uni qaytarmaganlar. [Shundan so'ng] u ular (Banu Shaybon) ustiga qo'shin yuborgan. Banu Shaybon Abarviz qo'shinini tor-mor qilgan, bu arablarning ajam [eronliklar, arab bo'lmagan] lar ustidan qozongan g'alabasining birinchi kuni edi.

*Yavm al-Vaqit* – bu islom davrida Banu Tamim va Bakr ibn Vi'il orasida bo'lgan [jang].

*Yavm shuvohit* – bu [jang] johiliya [davrida] Misr va Yaman ahli orasida bo'lib o'tgan.

*Bakr* [jangi] kunlari va Voil ikki o'g'ilning g'alaba kunlari oltita: *Unayza* kuni, *Voridot* kuni, *Al-Hinv* kuni, *Al-Qusaybot* kuni, *Al-Faysal* kuni va *Tahloq al-Limam* kuni.

(127) *Hums* – bu qurayshiylar va ular diniga sig'ingan Kinon urug'idagi kishilar.

*Tahammus* – dindagi mutaassiblik.

*Ahobish* – bu qurayshiylar bilan ittifoq tuzganlar; ular quyidagi urug'lardan edi: Ol al-Mutsalaq, Al-Xavn ibn Xazima va boshqalar; ittifoqda birliklari uchun ular, shuningdek, «tahabbush» deyilganlar.

*Harb Dohis va G'abro* (dohis va g'abro jangi) – bu [jang] Abs, Zubyon va banu Bag'id [qabilalari] orasida bo'lib o'tdi. Ular [Dohis va G'abro] Qays ibn Zuhayr otlarining nomlari.

*At-tavoin* – o'lat kasallari.

*To'uni Amvos* [o'lati] – bu islom davrida Shomda (Suriyada) [paydo bo'lgan] birinchi o'lat kasali. Undan keyin

*To'un shiruya al-malik* [o'lati] Iroqda bo'ldi.

*Jorif* – [bu] o'lat kasali Ibn Zubayr davrida bo'lgan.

*To'un al-Fatayot* – «qizlar o'lati», u, shuningdek, To'un al-Ashrof – «a'yonlar o'lati» ham – deyiladi – u (o'lat) Al-Hajjoj davrida bo'lgan va bunday deyilishiga sabab, undan ko'p qizlar va a'yonlar o'lganligidandir.

*To'un G'urob* – «g'urob o'lati» – bu [o'lat] shunday deyilishiga sabab, undan vafot etgan birinchi kishining nomi G'urob edi va bu Al-Valid ibn Yazdi davrida bo'lgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Johiliya davridagi arablarda odamlarning ijtimoiy tabaqasi**

Muluk, sanoi', ibod, vazoi', jund (askar) va suqa. Ammo (128).

*Sanoi'* – bu maliklarning yaqinlari.

*Ibod* – bu maliklar xizmatkorlari. Hiradagi Al-Madarda yashaydigan barcha odamlarni ham *ibod* deb atashar edi.

*Vazoi'* – bu qurolsizlar.

*Suqa* – bu oddiy xalq. Bu so'z bir kishiga qanchalik taalluqli bo'lsa, bir guruh odamlarga ham shunchalik taalluqlidir. [Shuning uchun] «*rajul suqa*» va «*rijol suqa*» deyiladi. Bu so'z *siyoqa* [boshqarish] so'zidan kelib chiqadi; *suqa* – ko'pchilik [odamlar] taxmin qilganidek savdogarlar emas.

*Ridf* – bu Hira podshohining xalifasi (vorisi, o'rinbosari), o'ljaning to'rtdan bir qismi unga tegishli, u malikning o'ng tomonida o'tiradi va undan so'ng, lekin boshqa hammadan oldin ichadi, «ridofa» – bu o'rinbosarlik (xilofa).

*Aqyol* – knyazlar (askar boshlig'i va viloyat hokimi), dohiylar, yo'lboshchilar[1] – uning (so'zning) birligi «*qayl*».

*Maqovil* – uning (so'zning) birligi *miqval* – [bu] Yamanda qo'mondon bo'lganlar; [ular tabaqasi] *Zavun* [tabaqasidan] pastroq.

*Zavun* – Tabobi'adan pastroq bo'lgan. Zavun va Azvo zu [so'zining] ko'pligi, shuning uchun ular maliklarining laqabi «*Zi al-Manor*», «*Zi al-A'vod*» va hokazo bo'lgan.

*Maxolif* – Yamandagi viloyatlar, uning (so'zning) birligi «mixlof»; har bir mixlofning o'z nomi bo'lgan.

## *To'qqizinchi bob*
## Rum tarixiga oid [asarlarda] tez-tez zikr qilinadigan so'zlar

*Batriq* (qo'shin boshlig'i) – bu Rum qo'mondonlaridan biri bo'lib, uning qo'li ostida o'n ming kishi bo'lgan. Hammasi bo'lib 12 ta batriqlar bo'lgan: ulardan oltitasi doimo imperator huzurida (129) mamlakatda bo'lgan [qolgan oltitasi – mamlakat chegaralarida]

*Tarxon* – bu besh ming kishiga qo'mondonlik qiluvchi batriqqa bo'ysungan [harbiy qo'mondon]dir.

*Qumus* – ikki yuz kishiga qo'mondonlik qiladi.

*Quntarx* – qirq askar qo'mondoni.

*Doqarx* – o'n nafar askar qo'mondoni.

*Dumistiqxum* (katta batriq va ularning raisi) – imperator xalifasi (o'rinbosari, vorisi) va uning vaziri.

*Lug'utit* – bu xatlarni taqdim etuvchi kishi.

[1] Bu, shuningdek, johiliya davridagi Yamanda malikdan keyingi ma'lum mintaqalar hokimlari, mansabdor shaxslarni anglatgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

**Ammo diniy martabalar [quyidagicha]:**

*Batrak* – bu eng yuqori [diniy] martaba, agar [bu so'z] arabiylashtirilsa, u holda [u] batriq sifatida [talaffuz etiladi]. Podshohlikda batriqlar to'rtta edi: ularning biri Qunstantiniyada, ikkinchisi Rumda, uchinchisi Iskandariyada va to'rtinchisi Antoqiyada joylashgan edi. Bu shaharlar «Karosiy» deyiladi, uning (so'zning) birligi kursiy.

*Qosuliq* – uning o'zi *josuliq*. U batriqqa bo'ysunadi; Iroq imomi qoshidagi josuliq Bag'dod shahrida bo'lgan va Antoqiya batriqiga bo'ysungan.

*Matron* – josulikka bo'ysunadi. (130) Xuroson matroni Marvda istiqomat qilgan.

*Usquf* – ular har bir shaharda bo'ladi va matronga bo'ysunadi, so'ngra *Qasis* so'ngra *Shammos*. Ular qo'l ostida qorilar, musiqachilar, mehrob (cherkovda) xodimlari bo'lgan. So'nggilari martabalarga kirmaydi.

«Mafotih al-ulum» kitobining arab ilmlariga bag'ishlangan birinchi [maqolasi] qismi tugadi.

Allohga beadad hamdlar bo'lsin, – Alloh sayidimiz nabiy Muhammadni, uning tohir oilasini ko'p qo'llasin va taqdirlasin.

## ABU RAYHON BERUNIY VA UNING ASARLARI

Beruniy 973-yil 4-sentabrida Xorazmning qadimiy poytaxti Kot shahrida tug'ilgan. Uning qanday oilada tug'ilgani va otasi kim bo'lganligi noma'lum. Keyinchalik uning o'zi yozib qoldirgan ma'lumotga ko'ra, u bolaligidan mashhur olim, astronom va matematik Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroqning uyida o'sgan. Uning o'zi bo'lajak olimning birinchi ustozi va tarbiyachisi bo'lgan. Abu Nasr Afrig'iylar sulolasidan bo'lib, oxirgi Afrig'iy xorazmshoh Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Iroqning amakisi Ali ibn Iroqning o'g'li bo'lgan va katta imkoniyatlarga ega edi. Ko'p o'rta asr olimlarining e'tirof etishicha, Abu Nasr X–XI asrlarning eng yirik astronom va matematiklaridan sanalgan va o'z shogirdida bu ilmlarga chuqur mehr uyg'ota olgan.

Beruniyning to'liq ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy shaklida fan tarixida ma'lum. U 16–17 yoshlaridayoq olim bo'lib shakllangan. Yoshlik yillaridan xorazmshohlar xonadoniga yaqin bo'lib, hatto yigitlik yillarida u saroy a'yonlari qatoriga kiradi.

995-yili Gurganch amiri Ali ibn Ma'mun Kotni bosib olib, xorazmshoh Abu Abdulloh Muhammadni qatl qiladi va poytaxtni Gurganchga ko'chirib, o'zini xorazmshoh deb e'lon qiladi. Bunday holda afrig'iylar xonadoniga yaqin bo'lgan Beruniyning Xorazmda qolishi xavfli edi. Shuning uchun u 995-yili Rayga ketadi va qariyb ikki yil amir Faxruddavla saroyida xizmat

@tarixchi_kutubxonasiga

qiladi. Asosan ilmiy izlanishlar bilan mashg'ul bo'ladi va u yerda mashhur astronom Abu Mahmud Homid ibn al-Xidr al-Xo'jandiy bilan birgalikda hamkorlik qiladi.

Beruniy 997-yili yana Xorazmning qadimgi poytaxti Kotga qaytib keladi va u yerda qariyb ikki yil yashab, 998-yil oxirida Kaspiy dengizining janubi-sharqidagi Gurgon mulkining amiri Qobus ibn Vashmgirning taklifi bilan Gurgonga boradi. U yerda bir necha yil yashaydi va 1004-yil boshida yana o'z Vatani Xorazmga, lekin bu gal yangi poytaxt Gurganchga, xorazmshoh Ali ibn Ma'munning taklifi bilan uning saroyiga keladi. Ali ibn Ma'mun o'z atrofiga ko'plab boshqa olimlarni ham to'playdi. Ular orasida Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Xammor, Ibn Iroq, Ibn Sino, As-Saolibiy va boshqalar bor edi. Xorazmshoh saroyida yirik ilmiy muassasa shakllanib, u oxirgi xorazmshoh Abul Abbos Ma'mun II 1017-yilning martida o'ldirilguniga qadar unumli ilmiy faoliyat olib boradi. Mazkur yilning oxirida Sulton Mahmud G'aznaviy Xorazmni zabt etib, saroydagi olimlarni, jumladan, Abu Rayhon Beruniy va Abu Nasr ibn Iroqni ham poytaxti G'aznaga olib ketadi. Shundan keyin to umrining oxirigacha, ya'ni 1048-yilgacha Beruniy G'aznaviy sultonlar saroyida yashaydi.

Beruniy G'aznaga kelganidan so'ng Sulton Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlarida ishtirok etdi va sanskrit tilini o'rganib oldi. Umuman, olimning G'aznada yashagan umrining keyingi 31-yili ilmiy jihatdan nihoyatda unumli bo'ldi. U hindlarning ko'plab ilmiy kitoblarini sanskritdan arabchaga tarjima qildi va shu bilan birga qator arab tilida yozilgan kitoblarni yoki Ptolemeyning «Almagesti» kabi yunonchadan arabchaga tarjima qilingan kitoblarni sanskritga tarjima qildi. U «Geodeziya», «Qonuni Mas'udiy», «Saydana» kabi shoh asarlarini yozdi. Beruniyning qalamiga 156 ta asar mansub bo'lib, ularning ko'pi astronomiya va matematikaga bag'ishlangan bo'lsa ham, ularning tarkibida O'zbekiston tarixiga va tarixiy geografiyasiga oid bo'limlar mavjud va shu bilan birga «Xorazm tarixi», «Sulton Mahmudning tarixi va uning otasi haqida ma'lumotlar», «Yodgorliklar», «Hindiston» kabi faqat yoki qisman tarixga bag'ishlangan asarlari ham mavjud. Quyida uning ba'zi asarlaridan mavzuyimizga mos parchalarni keltiramiz.

**A.Ahmedov, I.Elmurodov**

@tarixchi_kutubxonasiga

## ABU RAYHON BERUNIY. «QADIMGI XALQLARDAN QOLGAN YODGORLIKLAR»DAN

### Kecha-kunduzlardan tarkib topuvchi oylar va yillar mohiyati[1]

Xorazm va Sug'dning qadimgi xalqlari eronliklar dinini qabul etib, ularga bo'ysungan va eronliklar hukmronlik [qilgan] vaqtda ularga mansub bo'lgan kishilar ham bu haqda ular yo'lidan yurganlar ...

... Ammo «Almajistiy» kitobida, uning [muallifi] hisoblarida asos tutilgan yillar haqida aytilganga qaraganda, qadimgi qiptiylar, islom davrida eronliklar, Xorazm va Sug'd aholisi fikrlarining taqozosi shunday bo'lgan: ular kasrlardan, ya'ni chorak [kun] va bunga tobe [bo'laklardan] yuz o'girib, ularni butunlay hisoblaganlar[2].

**Tarixlar[3] mohiyati va millatlarning bu haqdagi ixtiloflari ustida so'z.** ... Xorazmliklar ham shunday yo'l tutdilar. Ular Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix oldilar, bu Iskandardan to'qqiz yuz sakson yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush[4] ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav[5] va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohligi [ustidan] hukmronligini yurgizgan edi[6]. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan to'qson ikki yil keyin bo'ldi[7].

So'ngra ular tarix olishda eronliklarga ergashib, Kayxusravning shohlar deb ataluvchi naslidan bo'lgan har bir [podshoh davrining boshlanishidan] tarix oldilar. Nihoyat, Kayxusrav naslidan Afrig'[8] podshohligi boshlandi. Eronliklar «gunohkor» Yazdigardni yomon xabar keltiruvchiga yo'yganlaridek, [xorazmliklar] Afrig'ni shum xabar keltiruvchiga chiqardilar. Afrig'dan keyin uning o'g'li podshoh bo'ldi. [Afrig'] Iskandar tarixining

---

[1] Beruniy. «Qadimgi xalqlar». Quyidagi parchada tarjimaga ayrim tahririy o'zgartishlar kiritildi.

[2] Eng qadimgi davrlarda yilni 360 kundan iborat deyilgan. Birmuncha vaqt o'tmay to'planuvchi kunlarni qo'shib, 365 kun deyilgan va uzoq vaqtlargacha kecha-kunduzning kasrlari hisobga olinmagan.

[3] Bu yerda «tarix» era ma'nosida tushunilyapti.

[4] *Siyovush* – Xorazmning afsonaviy podshohi.

[5] *Kayxusrav* – Siyovushning o'g'li hisoblangan.

[6] Bu ma'lumotga ko'ra Xorazmda Kaykovus kelguniga qadar turk podshohligi hukm surgan, demak, Xorazmga birinchi kelgan odamlar turkiy qavm bo'lgan, degan xulosa kelib chiqadi.

[7] Bu yerda eslatilgan Iskandar aslida Aleksandr III bo'lib, uning bilan bog'liq yil hisobi aslida Selevk Nikator nomi bilan bog'liq va u miloddan avvalgi 312-yili boshlangan. Demak, Xorazmga odamlar joylasha boshlagan yil miloddan avvalgi 312+980=1292-yilga to'g'ri keladi. Demak, Siyovush Xorazmga 1292–92=1200-yili kelgan.

[8] Xorazmshoh Afrig' milodiy 305-yili taxtga o'tirgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

olti yuz o'n oltinchi yilida Al-Fir[1] ustiga o'z qasrini qurdirdi. Keyin xorazmliklar Afrig' va uning avlodi podshohligidan tarix oldilar.

Al-Fir Xorazm shahrining chekkasidagi loy va xom g'ishtdan qurilgan qal'a bo'lib, bir-birining ichiga joylashgan va balandlikda bir-biridan qolishmaydigan uch qavat qo'rg'on edi. Bu barcha qo'rg'onlar tepasida Yamandagi G'umdon singari podshohlarning qasrlari bor edi...

Al-Fir o'n milcha va undan ko'proq masofadan ko'rinar edi. Jayhun har yili uni buzib, yiqitib va parchalab olib keta berdi; nihoyat, Iskandar tarixining ming uch yuz beshinchi yilida[2] undan asar qolmadi.

Payg'ambar alayhissalom kelgan vaqtda, Xorazm shohlaridan Arsamux ibn Bulg'or ibn Xomgari ibn Shovush ibn Saxr ibn Azkajavar ibn Askajamuk ibn Saxxasak ibn Bag'ra ibn Afrig' podshoh edi. Xorazm aholisi [islom dinidan] qaytgandan keyin, Qutayba ibn Muslim Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askajamuk ibn Azkajavar ibn Sabri ibn Saxr ibn Arsamuxni podshoh qildi va uni podshohlikka ko'tardi[3]. Xusravlar nasli qo'lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi, chunki shohlik ularga merosdek edi. Tarix, musulmonlar rasmiga muvofiq, hijriy [yilga] ko'chirildi.

Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u [xabar va rivoyatlar] islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi. Mamlakat idorasi goho bu xonadonda bo'lib, goho boshqalar qo'llariga o'tib yurdi. Nihoyat, shahid Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq ibn Mansur ibn Abdulloh ibn Turkasabasa ibn Shovushfar ibn Askajamuk ibn Azkajavar ibn Sabri ibn Sixr ibn Arsamuxdan[4] – buning zamonida payg'ambar alayhissalomga payg'ambarlik kelganini aytib o'tdim – keyin voliylik ham, shohlik ham ular [qo'li]dan chiqib ketdi.

## Zulqarnayn laqabini olgan podshohning [kimligini] aniqlashda turli millatlarning ixtiloflari ustida so'z

Mamlakatlar va shaharlar haqida gapiradigan kitoblar, chunonchi «Geografiya» va «Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob»lari u millat, ya'ni ya'juj va ma'jujni beshinchi va oltinchi iqlimda yashovchi Sharq turklaridan

[1] Al-Fir yoki Fil qal'asi Xorazmning qadimgi poytaxti Kotning tarkibida bo'lgan va u milodiy 616-311=305-yili, ya'ni Afrig' Xorazm taxtiga o'tirgan yilda qurilgan.

[2] Iskandar tarixining 1305-yili milodiy 1305-311=994-yilga to'g'ri keladi.

[3] Bu voqea 712-yilga to'g'ri keladi.

[4] *Abu Abdulloh Muhammad* – Xorazmning eng so'nggi Afrig'iy shohi, u Gurganch amiri Abu Ali Ma'mun I tomonidan 995-yili o'ldirilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

bir sinf, deb ko'rsatgan. Shu bilan birga, Muhammad ibn Jarir at-Tabariy o'zining «Tarix» kitobida hikoya qilishicha, Ozarbayjon hukmdori u yerni fath etgan kunlarida Xazar tomondan bir odamni o'sha to'siq oldiga yuborgan. U odam borib to'siqni ko'rgan va uni pishiq va mahkam xandaqning narigi tomoniga joylashgan ulkan, baland, qora bino ekan, deb tavsif qilgan.

Abdulloh ibn Abdulloh ibn Xurdodbeh xalifa saroyidagi bir tarjimondan hikoya qilishicha, Al-Mu'tasim[1] tushida o'sha to'siqning fath etilganini ko'rgan va borib ko'rishlari uchun ellik kishini u yerga yuborgan. U kishilar Bob al-Abvob, Allon va Xazar yo'li bilan yurib, to'siqqa yetib borganlar, to'siqning temir parchalardan ishlanib, eritilgan mis bilan mahkam qilingani, uning qulflangan darvozasi borligi va u yerga yaqin shaharlar aholisi uni qo'riqlab turishlarini ko'rganlar. Qaytishlarida yo'lboshchi ularni Samarqand ro'parasidagi joylarga olib chiqqan.

Bu ikki xabar to'siqning odamlar yashaydigan yerning shimoli g'arbiy choragida bo'lganini taqozo etadi.[2] Ayniqsa, bu keyingi qissada inonib bo'lmaydigan mana shunday gaplar bor: u mamlakatlar aholisi yerning odamlar yashaydigan qismidan uzilib qolgan, bu qism bilan ular orasida ancha kun yuriladigan qora, badbo'y tuproqli yer bo'lsa ham, ular islom dinidalar va arab tilida so'zlashadilar. Ular xalifa va xalifalik martabasini, xalifa kim va u qanday kishi ekanini bilmaydilar. Islom mamlakatlaridan uzilib, islom dinida bo'lgan Bulg'or va Suvordan[3] boshqa biror millat borligini biz bilmaymiz. Ular yerning odamlar yashaydigan qismi uzilishining yaqinida va yettinchi iqlimning oxirida turadilar. Yana ular shu to'siq haqida hech narsa gapirmaydilar. Xalifalik [martabasi]ni va xalifalarni biladilar va ular nomiga xutba o'qiydilar, arabcha so'zlashmaydilar, balki turkcha va xazarcha aralash bir tilda gapiradilar. Bu qissa guvohlari shunday bo'lgach, ular orqali haqiqatni bilishni umid qilib bo'lmaydi[4].

### Sug'dlar oylaridagi hayitlar ustida so'z

Sug'dlarga kelganda, ularning oylari ham yil choraklariga taqsim etilgan bo'lib, sug'd oylaridan navsardning birinchisi yoz boshidir. Ular bilan forslar orasida yillar va ayrim oylarning boshlanishi xususida ixtilof yo'q; faqat biz yuqorida bayon etgandek, qo'shimcha besh kunning o'rni xususida [ixtilof] bor.

---

[1] Xalifa Al-Mu'tasim (833–842) nazarda tutiladi. Lekin aslida Sallom Tarjimon ekspeditsiyasini ya'juj va ma'juj devoriga xalifa Al-Vosiq (842–847) yuborgani haqida yuqorida aytildi.

[2] Aslida u devor shimoli-sharqda bo'lgan.

[3] *Bulg'or* – Kama-Volga Bulg'oriyasi, Suvor – Volgabo'yida, undan janubroqdagi ilk o'rta asr davlat birikmasi, hozirgi Chuvashiya.

[4] Beruniy Ibn Xurdodbehning xabariga nisbatan shubhasi va uni asoslashi mantiqan o'rinli. Lekin uning bu shubhasini Sallom Tarjimon hikoyasining afsonaviy jihatlariga nisbatan deb qaralmog'i to'g'riroq bo'ladi.

@tarixni_kutubxonasiga

Sug'dlarning bu [ixtiloflariga] sabab shuki, ular podshohlarni ulug'lab, o'z ishlarida o'zlarini ularga tenglashtirmaganlar. Podshohlar hojatravo Jamshid podshohning yuzaga chiqqan paytini yil boshi deb belgiladilar, sug'dlar esa uning qaytib kelish vaqtini yil boshi qilib olganlar.

Ba'zi kishilar gumonicha, ikkala yil [eroniy va sug'diy yili]ning boshlanishi haqidagi ixtilofga sabab astronomik kuzatishlarda uchratilgan bir qadar tafovutning o'zidir. Bu shunday: qadimgi forslar Quyosh yilining uch yuz oltmish besh va chorak kun hamda soatning oltmishdan biricha ko'proq ekaniga amal qilar va ortiqchani chorak kunga qo'shardilar. Zardusht yuzaga chiqib, majusiylikni olib kelgach, podshohlar Balxdan Fors va Bobilga ko'chdilar va din ishlariga e'tibor berib, yangidan kuzatishlar o'tkazdilar. Shunda Quyosh turishining uchinchi yili boshida kabisadan besh kun oldin kelishini ko'rdilar-da, avvalgi hisoblarini tark etib, kuzatish taqozo qilgan hisobga amal qildilar. Movarounnahr aholisi esa amal qilib kelgan hisoblarida qolib, kuzatilayotgan yilni bekorga chiqardilar. Ana shu sababdan yillarining boshlanishi ixtilofli bo'ldi.

Ba'zilar gumonicha, fors va sug'd yillarining boshi – to Zardusht yuzaga chiqqunicha – bir [xil] bo'lgan. Forslar [Zardushtdan] keyin qo'shimcha besh kunni – biz yuqorida aytgandek – kabisali oylardan har bir oy oxiriga ko'chirdilar, [ammo] sug'dlar ularni ko'chirmay, o'z joyida qoldirdilar. Natijada, u kunlar sug'dlarda yil oylarining oxirida; forslarda esa kabisa bekor qilingandan keyin – obon mohning oxirida qoldi. Xudo eng bilimdondir.

Sug'dlarning oylarida – forslarniki singari – ko'p hayitlar va ma'lum ulug' kunlar bor. Ulardan bizgacha yetib kelganlari mana bular.

Navsard – bu oyning birinchi kuni [sug'dlarning] navro'zi bo'lib, bu katta navro'zdir.

Navsardning yigirma sakkizinchi kuni Buxoro majusiylarining Romush og'om nomli hayitlaridir. Ular shu kuni Romush[1] qishlog'idagi otashxonaga to'planadilar. Og'om hayitlari ular uchun eng aziz hayitlardan bo'lib, u har bir qishloqda [o'tkaziladi], ular har qaysi [qishloq] raisi huzuriga yig'iladilar va yeb-ichadilar. Bu navbati bilan [hamma qishloqda] bo'ladi.

J-rj-n – bu oy xususida bizga biror ma'lumot yetib kelmadi.

Niysanj – bu oyning o'n ikkinchi kuni birinchi mohirjdir.

Basokanj – bu oyning yettinchi kuni nikh og'omdir. Bu ularning Paykanddagi[2] hayitlari bo'lib, [shu kuni] u yerga yig'iladilar. Uning o'n ikkinchi kuni ikkinchi mohirjdir. O'n beshinchi kuni amsxvora [hayiti]. Bunda ovqat, ichimlik va olov tekkan narsalarni tark etib, xamirli [ovqat va] meva, sabzavotlar yeydilar.

[1] *Romush* – Buxoro yaqinidagi qishloq.

[2] *Paykand* – xarobalari Buxorodan g'arbroqda.

@tarixni_kutubxonasiga

Ashn-x-nda – bu oyning o'n sakkizinchi kuni bobaxvoradir. Bomixvora ham deyiladi. Bu uzumdan siqib olingan toza xolis shirani ichishdir. Yigirma oltinchi kuni garm xvoradir.

Majndo – bu oyning uchinchi kuni kashmin hayitidir. Shu kuni Kumujkat[1] (qishlog'ida bozor bo'ladi. O'n beshinchi kuni Tavovisda[2] bozor bo'ladi, atrofdan savdogarlar shu yerga yig'ilishib, yetti kun turadilar.

F-g'-kon – bu oyning birinchi kuni nimsarda deb ataladi. Buning ma'nosi «yil yarmi» demakdir. Ikkinchi kuni hayit bo'lib, buni «min iydixvora» deb ataydilar. Bu kuni otashxonalarga yig'ilib, qo'noqning uni, yog' va shakardan tayyorlangan ovqat yeydilar. Ba'zi kishilar eronliklar fikriga muvofiq bo'lsin deb, «nimsarda»ni shu [hayitdan] besh kun oldinga qo'yadilar. Bu mehrmohning avvalidir. Holbuki, [forslarda] yil yarim yil boshida olti oy va ikki yarim kun o'tganda bo'lishi kerak edi.

To'qqizinchi kuni t-s-i-s og'om, yigirma beshinchi kuni «garm xvora»ning boshi.

Obonj – bu oyning to'qqizinchi kuni «garm xvora»ning oxiridir.

Fug' – bu [oy] haqida bizgacha hech narsa yetib kelmagan.

M-s-fug' – bu oyning beshinchisidan to o'n beshinchisigacha hayitdir. So'ngra yetti kun Ash-Sharg'da[3] musulmonlar bozori bo'ladi.

J-m-d-nj – bu oyning yigirma to'rtinchi kuni «bod amkom» hayitidir.

X-sh-v-m – bu oyning oxirida sug'd ahllari qadimgi o'lganlariga [aza tutib] yig'lab, yuzlarini yuladilar va ularga [atab], forslar Parvardigonda qilgani kabi, ovqatlar va sharoblar qoldiradilar. [Buning oy oxirida qilinishiga] sabab, sug'dliklarning «o'g'irlangan» deyilgan besh kunlari, yuqorida zikr qilinganidek, shu oy oxiridadir.

Sug'dlarning nomlari barcha shaharlarda bir xil bo'lgan kunlarda qishloqlarda bozorlar bo'ladi. Bularga Buxoro va Sug'd qishloqlarida amal qilinadi.

## Xorazmliklar oylaridagi shunday [kunlar] haqida so'z

Xorazm ahli yil va oylar boshlari Sug'd ahlinikiga muvofiq bo'lib, forslarnikiga muxolifdir. Bunga sabab xuddi sug'dlarning [forslarga] ixtilofida tavsif qilinganining o'zidir. Xorazmliklarning rasm-rusumlari sug'dlarnikiga o'xshaydi; ularda ham yoz boshi novsorjining avvalidir.

Xorazmliklarning hayitlari bo'lib, islomdan oldin shu [hayitlarni] ulug'lar va: «Ulug' va aziz Tangri xorazmliklarga ularni ulug'lashni buyurgan», – der edilar. Ular o'zlaridan oldingi kishilaridan qolgan boshqa kunlarni ham

[1] *Kumujkat ( yoki Kumjikat)* – Buxoro yaqinidagi qishloq.

[2] *Tavovis* – Buxoro va Samarqand oralig'idagi qadimgi shahar.

[3] *Ash-Sharg' (yoki Charg')* – Buxoro yaqinidagi katta qishloq.

@tarixni_kutibxonasiga

hayit qiladilar. Hozir ularning majusiylari qolmagan, faqat dinida qattiq turmagan, dinlarining yuzaki narsalarini tanib, haqiqat va ma'nosini tekshirmaydigan bir guruh qolgan, xolos. Hatto bu guruh hayitlarni oylarga nisbatan berilgan joylariga qarab emas, ular orasidagi uzoqliklarga qarab bayram qiladilar. Ularning dinlarga aloqasi bo'lmagan kunlari va hayitlariga kelsak, quyidagilar:

Navsarji – bu oyning birinchi kuni – yil boshi bayrami, ya'ni 236 [yuqorida] zikr qilganimizdek, yangi kundir.

A-r-d-v-sh-t – bu oy haqida hech narsa demaganlar.

H-r-v-dot – bu oyning birinchi kuni arijosuvon deb ataladi. Bu kun islomiyatdan oldin havo qattiq qizigan vaqtda kelar edi. Shuning uchun bu aslda «arijxos chuzon». Uning tarjimasi: «Endi kiyimdan chiqiladi», ya'ni «yalang'och bo'lish va ochilish vaqti» demakdir. Ammo bizning zamonimizda kunjut va u bilan birga sepiladigan [urug'larni] sepish vaqtiga to'g'ri keldi va shu vaqtda kelishi qat'iy belgilangan.

Chiri – bu oyning o'n beshinchi kuni ajg'or bo'lib, izohi «o'tin» va «alanga» demakdir. Bu ilgari zamonda kuzda havo o'zgarishi sababli olovga isinish kerak bo'ladigan vaqtda kelardi. Bizning vaqtimizda esa yoz o'rtasiga to'g'ri kelyapti. Shu [bayramdan] yetmish kun sanab, keyin kuzgi bug'doyni ekishga boshlanadi.

H-m-d-d – bu oy haqida hech narsa aytmaganlar.

A-x-sh-r-v-i-r-i – bu oyning birinchi kuni f-a-g'-r-u-ba bo'lib, «shohning chiqish vaqti» demakdir, chunki shunday vaqtda issiq ketib, sovuq kelishi sababli Xorazm podshohlari shahar chetiga chiqar va shu joyda qishlab, o'z chegaralaridan o'g'uz turklarini quvar va mamlakatlari atrofini ulardan himoya qilar edilar.

Umri – bu oyning birinchi kuni azdokandxvor bo'lib, ma'nosi «yog'liq non yeyish kuni»dir. Xorazmliklar shu kuni sovuqdan uylariga kirib, olov yoqilgan o'choqlar atrofiga yig'iladilar va yog'liq non yeydilar.

[Bu oyning] o'n uchinchi kuni chiri ruj hayitidir. Ular bu hayitni forslar mehrgonni [ulug'lagandek] ulug'laydilar. Shuningdek, [umrining] yigirma birinchi kuni romruj deb ataladigan hayitdir.

Yonox-v-n – bu oy haqida hech narsa aytmaganlar.

Adu – bu oy haqida ham hech narsa demaganlar.

Rim-j-d – bu oyning o'n beshinchisi nam-x-b [deb] ataladi. Aytishlaricha, bu «Minach exib» bo'lib, ko'p ishlatilishi sababli [tillarda] talaffuzini yengillatish uchun [rim-j-d deb] o'zgartirilgan. Buning tarjimasi «Mina kechasi» demakdir. [Xorazmliklardan] ba'zi birlarining aytishicha, Mina ularning podshohlari va ulug'laridan [chiqqan] ayol bo'lib, u [kechasi] mast holida ipak kiyimda qasrdan [tashqariga] chiqqan. Bu bahor fasli edi. Qasr tashqarisida yiqilib qolgan. Uning uyqusi g'alaba qilib, uxlab qolganida o'sha

@tarixchi_kutubxonasiga

kecha sovuq urib, o'lgan. Odamlar bahor faslining shunday kechasida insonni sovuq halok etganiga ajablanib, bu [hodisa]ni bevaqt yuz beruvchi odatdan tashqari ajoyib narsa tarixiga aylantirganlar. Bizning zamonda u kun [bahor vaqtidan] oldin keladigan bo'lib, avom xalq bu hayitni qish yarmida o'tkazadi.

Xorazmliklar u kunda va uning yon-veridagi [kunlarda] bug'lanadigan va tutatiladigan dorilar ishlatadilar, jinlar va yomon arvohlar zararlarini daf etish uchun is chiqarib, ovqatlar pishiradilar. Bu tadbir hushyorlik va ehtiyotkorlik yo'lidan [qilingan] bo'lib, bunga nafsoniy sabablar, ya'ni qaytariq, afsun va duolardan biron narsa qo'shilsa, kerakli ishdir. Ozchilikni tashkil etsalar ham, Jolinus va shunga o'xshash hikmatshunoslarning eng afzallari [qaytariq, afsun va duolarning] ta'sirlarini ko'rgach, ularga iqror bo'lib, ruxsat berganlar. Shuningdek, bu narsalarda yoritqichlar holatidan, masalan, «baxtli vaqtlar»dan va shunday vaqtlar uchun eslatilgan «tanlangan shakllari»dan yordam olinsa [yana ham kerakli ish bo'lardi]. Ehtiyotkorlik u narsalarni behudaga va yolg'onga chiqarish uchun masxara qilish va labini qiyshaytirib kulishdan boshqa dalil keltirolmaydigan kishilarga iltifot qilmasligimizni talab etadi. Faylasuf va olimlarning ulug'lari jin va shaytonlar [haqidagi gaplar]ga iqror bo'lganlar. Chunonchi, Aristotel ularni havo va olovga nisbat bergan va «insonlar» deb atagan. Shuningdek, Yahyo an-Nahviy[1] ham bunga iqror bo'lgan. Undan boshqalar ham jin va shaytonlarni tanalaridan ajralgandan keyin haqiqatni bilmasliklari va hayronliklari sababli kelib chiqqan asllariga borishdan man qilinib [qayoqqa borishlarini bilmay] taraddudda qolgan yomon ruhlar deb tavsif qilgan. Moniyni o'z kitoblarida – garchi uning ishoratlari kuchsiz talaffuz va ibodatlar bilan ado etilgan bo'lsa ham – shu narsalardan boshqaga ishorat etgan deb gumon qilmayman.

A-x-m-n – bu oy haqida hech narsa aytmaganlar.

Ispandarmaji – bu oyning to'rtinchi kuni xej deb ataladi, buning tarjimasi «turmoq»dir. [Bu oyning] o'ninchi kuni vaxshangom deb ataluvchi hayitdir. Vaxsh suviga, ayniqsa, Jayhun suviga vakil qilingan farishta ismi. Yigirmanchi kuni incha deb ataladi. Buning izohi «bir-biriga yaqin uylar» demakdir.

Bulardan keyin xorazmliklarning diniy odatlarda ehtiyoj tug'iladigan hayitlari ham bor. Bunday hayitlar oltita.

Birinchisi b-n-x-jo-chi-rid. Bu novsorjining o'n birinchi kunidir. Avom xalq buni navsarji oyiga nisbatan berib, navsarjigonik deb atadi, chunki bu [hayit] shu [oyda] keladi.

[1] *Yahyo an-Nahviy* – VII asrda yashagan faylasuf va tilshunos, u ko'plab yunoncha asarlarni suryoniy tiliga tarjima qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ikkinchisi esa m-i-s-s-x-n-rid deb ataladi. Bu chiri [oyining] birinchi kuni bo'lib, xovardminik, ya'ni «qovoq [bayram]» ham deyiladi. Yana ajg'orga nisbat berib, ajg'orminik deyiladi, chunki bu [hayit] ajg'ordan o'n besh kun oldindir.

Uchinchisi m-z-i-an-rid deyiladi. Bu hamdod [oyining] o'n beshinchi kunidir. Bu a-n-j-m-r-z-konik ham deyiladi.

To'rtinchisi mis-z-r-m-i-rid deb ataladi. Bu umriy oyining o'n beshinchi kunidir. Buni xir-r-v-ch-konik ham deyiladi.

Beshinchi [hayit] rimjd [oyining] birinchi kuni bo'lib, k-j-z-r-i- konik [nomi] bilan mashhurdir.

Oltinchisi esa a-r-s-min-rid atalib, a-r-s-m-i-n-d-gonik [nomi] bilan mashhurdir. Bu a-x-m-n [oyining] birinchi kunidir.

Xorazmliklar ispandarmaji oyining oxirgi besh kunida va bular keyinida keladigan qo'shimcha besh kunda forslar farvardigan kunlarida qiladigan [rasmni] ado etib, arvohlarga [atab] mozorlarga ovqatlar olib boradilar.

[Xorazmliklar] oy manzillarini ishlatardilar va ulardan [astrologiyaga oid] hukmlar chiqarardilar. Ularning tillarida manzillarning nomlari bo'lib, bularni yodda saqlardilar. U [manzil]larni ishlatuvchi va ularni kuzatish kayfiyatini yaxshi bilib, shunga asosan dalil keltiruvchi kishilar qolmadi. Bunga aniq hujjatning biri shuki, munajjim xorazm tilida «axtar venik» deyiladi. Buning izohi «oy manzillariga qarovchi» demakdir. Chunki axtar oy manzillaridan biridir. Xorazmliklar shu manzillarni o'n ikki burjga taqsim qilib, burjlarni o'z tillarida alohida nomlar bilan ataydilar.

Xorazmliklar burjlarni arablardan yaxshiroq bilganlar. Ularning burjlarga bergan nomlari ularni tasvirlashga mutasaddi bo'lgan [astronomlarning] qo'ygan nomlariga muvofiqligi va arab [tiliga] mos kelmasligi va ularni mutasaddilar bergan suratlardan boshqa suratlar bilan tasvir etishlari gapimizning to'g'riligini senga ko'rsatadi. Hatto arablar Javzoni egizak o'g'il bola [surati] o'rnida burjlar qatoriga qo'yganlar. Holbuki, Javzo Jabborning suratidir. Xorazmliklar esa [egizak] burjni A-z-v-p-ch-k-r-i-k nomi bilan ataydilar. Buning izohi «ikki sanam egasi» bo'lib, egizak ma'nosining taqozosidir.

Shuningdek, arablar Asad burjini bir necha suratlarda tasvir etganlar. Natijada u uzunlikda uchta burjdan ortiqroq [o'rinni], kenglikda esa [egallagan] narsasidan boshqani olgan. Shundayki, arablar egizaklarning ikki boshi – Asadning yozilgan qulochi; Saraton ko'kragidagi dog'ni – uning burni, ya'ni «Nasra»[1]. Azro ko'kragini, ya'ni Avvoni[2] – uning ikki dumbasi; Azro qo'lini, ya'ni Simok al-a'zalni – uning ikki oyog'idan

[1] *Nasra* – Oyning sakkizinchi manzili, Saraton yulduz turkumining γ,δ,ε yulduzlari.
[2] *Avvo* – Oyning uchinchi manzili, Sunbula yulduz turkumining β,γ,ε,η yulduzlari.

@tarixchi_kutubxonasiga

biri; Romihni[1] uning yana bir oyog'i qilib tasavvur etganlar. Asad surati, arablar fikriga ko'ra, Saraton, Asad, Azro burjlariga va Mizon burjining bir qismiga hamda shimoliy va janubiy suratlarning bir qanchasiga yoyilgan. Haqiqat esa ular o'ylagandan boshqachadir.

Agar arablarning turg'un yoritqichlarga bergan nomlariga diqqat bilan qarasang, garchi Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim ibn Qutayba al-Jabaliy[2] o'zining hamma kitoblarida, ayniqsa, arablarning ajamliklardan afzalligi haqidagi kitobida uzundan uzoq gapirib: «Arablar yoritqichlar [ahvoli]ni, ularning chiqish va botish joylarini hamma millatlardan yaxshiroq biladilar», – deb da'vo qilgan bo'lsa ham, albatta, arablarning burjlar va ularning suratlarini bilishdan uzoq ekanlarini aniqlaysan. Bilmadim, dehqonlar va chorvadorlarning mos vaqtlarni bilishlarini [Abu Muhammad] bilmaydimi yoki o'zini bilmaslikka soladimi? Tepasida osmon turgan va osmondan boshqa narsa [tepasini] qoplamagan, yoritqichlarning doimo bir tartibda chiqish va botishlarini ko'rib turgan kishi o'z ishlarining boshlanishi va vaqtlarni bilishni, albatta, yoritqichlarga bog'laydi. Balki arablarda boshqalarda bo'lmagan narsa bor edi, u esa: bilgan yoki taxmin qilgan narsalarini, xoh nohaq, xoh yomon bo'lsin, she'rlar, urjuza va qofiyali so'zlar bilan abadiylashtirishdir. Bunday she'rlarni birbirlaridan meros olardilar, natijada [bu she'rlar] ularda yoki ulardan keyin ham [saqlanib] qolardi. Agar bularni anvo kitoblaridan,[3] ayniqsa, [Ibn Qutaybaning] «Yulduzlarni ko'rish ilmi» deb atagan kitobidan va bu kitobimiz oxirida ba'zisini biz keltirganlardan ko'rsang, albatta, arablarning bu narsalarga har yerning dehqonlaridan ham ko'ra ko'proq ixtisosli bo'lmaganlarini bilasan.

Lekin u kishi [Ibn Qutayba] kirishgan narsasidan chegaradan chiquvchi, o'z fikrida turib oluvchi bo'lib, tog'liklar axloqidan[4] xoli emas. Uning [yuqorida] aytib o'tilgan kitobidagi gapi u bilan forslar orasida dushmanlik va ginalar borligidan dalolat beradi. Chunki u «arablar forslardan afzal» deyish bilan qanoatlanmay, hatto, ularni eng g'o'r, eng past, eng tushkun millat, kofir va islom dushmani deb, xudo «Tavba» surasida[5] sahroyi arablarni yomon tavsif etganidan ham battarroq yomonlagan va ularga turli qabihliklarni nisbat bergan. Agar u forslardan afzal qilib ko'rsatgan millati

[1] *Romih (ya'ni Ar-Romih)* – «Nayza otuvchi Simok» – Arktur, Avvo yulduz turkumining α yulduzi.

[2] Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim ibn Qutayba al-Jabaliy – IX asrda yashagan arab tarixchisi va adibi; u bir muddat G'arbiy Erondagi tog'li o'lka – Jabalda qozilik qilgan. Shuning uchun u «Jabaliy» nisbasini olgan.

[3] *Anvo kitobi* – meteorologiya haqida kitob.

[4] Muallif Ibn Qutaybaning «Jabaliy» laqabiga shama qilayapti.

[5] Qur'oni karimning «Tavba» surasining 98–99-oyatlarida badaviy arablari ularda kufrning kuchliligida ayblanadilar.

@tarixchi_kutub_xonasiga

(xalqi)ning avvalgi [tarixini] ozgina fikrlab eslaganda edi, bu ikki xalq haqida chegaradan o'tib gapirganlarining aksarida, albatta, o'zini o'zi yolg'onchi qilgan bo'lardi.

Sug'dlar va xorazmliklar tilida oy manzillarining nomlari mana bular. Keyinchalik u [burjlarning] chiqish va botishlarini gapirgan paytda ko'rinadigan suratlarini ham tushuntiramiz. [Nomlar] jadvalining shakli quyidagicha[1]:

| Arablar nomlari | Sug'diycha nomlari | Xorazmcha nomlari |
|---|---|---|
| Surayyo | P-r-v-i | P-r-v-i |
| Dabaron | Ba-b-r-v | Ba-b-r-v |
| Haq'a | M-ra-z-na | A-x-mo-x |
| Han'a | R-sh-n-v-n-d | X-v-yo |
| Ziro' | G'-s-f | G'-v-s-f |
| Nasra | G'-n-b | Jiri |
| Tarf | X-m-sh-r-i-sh | X-m-sh-i-sh |
| Jabha | M-g' | Achir |
| Zubra | V-z-a | A-m-g' |
| Sarfa | V-i-z-v | V-i-z-i-v |
| Avvo | F-s-t-sh-t | A-f-s-s-t |
| Simok | Sh-g'or | A-x-sh-f-r-n |
| G'afr | S-r-v | Sh-v-sh-k |
| Zuboniyon | F-s-r-v | S-ro-f-s-r-i-v |
| Iqlil | G'-n-v-n-d | A-g'-n-v-n-d |
| Qalb | V-g'-n-v-n-d | B-g'-n-v-n-d |
| Shavla | M-g'-n-s-d-v-i-s | Z-o-r-i-n-d |
| Naoyim | B-s-s-m | S-r-z-i-v |
| Balda | V-j-z-i-k | M-r-x-sh-i-k |
| Sa'd az-zobih | V-n-n-d | X-ch-m-n |
| Sa'd bula' | Yu-g' | Yu-g' |
| Sa'd as-suud | Sh-d-m-sh-i-r | S-d-m-s-i-j |
| Sa'd al-ahbiya | Sh-v-sh-t | M-sh-t-v-n-d |
| Farg'al-muqaddam | F-r-sh-t-bo-s | F-r-x-sh-b-i-s |
| Farg' al-muaxxar | B-r-f-r-sh-t | V-b-i-r |
| Batn al-hut | R-i-v-n-d | J-doz |
| Sharaton | B-sh-i-sh | R-i-v-n-d |
| Butayn | B-r-v | F-r-n-x-n-d |

[1] Beruniy «Qonuni Mas'udiy»da Oy manzillarini boshqa tartibda keltirgan (*Беруни. «Канон Масъуда»*. С. 333–334).

@tarixchi_kutubxonasiga

## Xorazmliklarning hayitlari xususida xorazmshohning tutgan yo'li haqida so'z

Abu Said Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq[1] xorazmliklar oylarini kabisali qilishda xalifa Al-Mu'tazid billoh yo'lidan bordi. Shundayki, u Buxoroda zanjirdan ozod etilib, banddan qutulgach, o'z poytaxtiga qaytdi va huzuridagi hisobdonlardan «ajg'or» kunini so'radi. Hisobdonlar uni ko'rsatgan edilar, u kunning tammuz oyining nechanchisi ekanini so'radi. Ular buni [ham] ko'rsatdilar.

Xorazmshoh buni yodlab oldi-da, yetti yildan keyin yana o'shanday savolni eslatdi va u hisobni inkor etdi. Xorazmshoh kabisalar va ular ahvolidan voqif emas edi. Al-Xarojiy, Al-Hamdakiyni va o'sha asrdagi u ikkovidan boshqa munajjimlarni o'z huzuriga chaqirtirib, ulardan bu xususdagi haqiqiy ahvolni so'radi. Ular haqiqatni mufassal izohlab, eronliklar va xorazmliklarning yillarni qanday ishlatishlarini gapirib berdilar. Shunda xorazmshoh: «Bu buzilgan va unutilgan narsa ekan. Oddiy xalq shunday [hayit] kunlariga asoslanadi va ularni to'rt faslning markazlarida ko'rib, «barqaror va o'zgarmas [kunlar]», ajg'or – yoz o'rtasi, nimxab – qish o'rtasi deb, gumon qiladi. Ekin ekish va yerni ishlash vaqtlari uchun belgilangan muddatlarni o'sha kunlardan hisoblaydi. Ko'p yillar davomida tajriba olib bormay turib, bunday narsani aniqlab bo'lmaydi. Mana shu hol ham xorazmliklarning haligi muddatlarni o'sha kunlardan hisoblashdagi ixtiloflarining sabablaridandir. Hatto ba'zilari «ajg'ordan oltmish kun o'tganda bug'doy sochish vaqti bo'ladi», deb gumon qilsa, boshqalari «undan ko'proq», qay birlari «kamroq» deydi. Yaxshisi, o'sha kunlarni birgina holatda va yilning o'zgarmaydigan vaqtlarida qaror topishi uchun bir hiyla tuzamiz, shunda ularning vaqtlari o'zgarmaydi», – dedi.

[Munajjimlar] unga [xalifa] Al-Mu'tazid qilganidek, xorazmcha oylarning boshlarini rumliklar va suryoniylar oylarining aniqlangan kunlariga qo'yishdan afzalroq hiyla yo'q. [Shunda xorazmcha oylar] ularniki singari kabisali bo'ladi, dedilar. Bu qarorni Iskandar erasining ming ikki yuz yetmishinchi yilida qabul etdilar[2] va navsarjining birinchi [kuni] suryoncha naysonning uchinchi kuni deb keldilar. Nihoyat, ajg'or hamisha tammuz oyining yarmida keladigan bo'ldi. Yer ishlari vaqtlarini, masalan, mayiz solish uchun uzum uzish vaqtini o'sha [muddatga] belgiladilar, chunki buning vaqti ajg'ordan qirq kundan to ellik kun o'tadigan [muddat] edi. Uzumni osib olish uchun uzish va noklarni terib olish vaqtini ham shunday belgiladilar, chunki bularning vaqti ajg'ordan ellik besh kundan to oltmish besh

[1] *Abu Said Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq* – Xorazmning Afrig'iylar sulolasidan eng oxirgidan oldingi xorazmshoh, 960-yili o'lgan.

[2] Iskandar erasining 270-yili milodiy 1270–311= 959-yilga to'g'ri keladi.

@tarixchi_kutubxonasiga

kun o'tadigan [muddat] edi. Shuningdek, ekin ekish, [daraxtlar] gullarini changlatish, ko'chat o'tqazish, payvand qilish va boshqa hamma narsalarning vaqtlarini aniqladilar. Shunda rumliklar yili kabisali bo'lganda, tispandormaji oyidan keyin qo'shiladigan kunlar olti kun bo'ldi. Agar Xorazmshohning bu qarori tarix boshi qilib olinganda edi, albatta, uni yuqorida bayon etilgan boshqa eralarga qo'shgan bo'lardik.

## ABU RAYHON BERUNIY. «GEODEZIYA»

Beruniyning bu asari arabchada «Tahdid nihoyot al-amokin li-tashih masovot al-masokin», ya'ni «Turarjoylar [orasidagi] masofalarni aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash» deb atalgan. Odatda, bu asarni undagi mavzu ma'nosiga qarab, «Geodeziya» ham deyiladi. «Geodeziya»ning nodir Istanbul qo'lyozmasi asosida arabcha matnini P.G. Bulgakov 1962-yili Qohirada nashr etgan. Uning o'zi asarning to'la ilmiy izohli ruscha tarjimasini 1966-yili Toshkentda nashr etdi[1]. Asar mazkur arabcha nashr va ruscha tarjimadan foydalangan holda, o'zbek tiliga o'girilib 1982-yili nashr etildi[2].

Quyida shu tarjimadan O'zbekistonning qadimgi tarixiga oid parchani keltiramiz[3].

**A.Ahmedov**

## ABU RAYHON BERUNIY. «GEODEZIYA»DAN

«Biz ham Jurjon bilan Xorazm orasidagi qum sahrosida oralarida «baliq quloqlari» bo'lgan toshlarni topishimiz mumkin. Aftidan, o'tmishda u yer ko'l bo'lgan, chunki Jayhunning, ya'ni Balx daryosining yo'li Balxon[4] nomi bilan ma'lum [bo'lgan] shahardan u yer orqali Xazar dengiziga o'tgan. Batlimus (Ptolemey)[5] ham «Geografiya» kitobida [Jayhunning] Irqoniya, ya'ni Jurjon dengiziga tushish joyi haqida [shunday gapni] aytadi: «Hozir Batlimus bilan bizning oramizda qariyb sakkiz yuz yil o'tgan. Haqiqatdan ham, Jayhun o'sha vaqtlarda hozir sahro bo'lib turgan joylardan kesib o'tar edi; u Zamm[6] va Amuya[7] orasidagi joydan o'tib, to Balxongacha bo'lgan uning

[1] Бируни. Определение границ.

[2] Beruniy. Masofalarni aniqlash.

[3] Beruniy. Masofalarni aniqlash. 72–73-b.

[4] *Balxon* – ya'ni «ikki Balx», ilk o'rta asrlarda Amuning Kaspiy dengiziga quyilishidagi yirik shahar. «Ikki Balx» deyilishiga ko'ra, u Balxdan ham katta bo'lgan. Uning nomi hozirgi Balxon tog'i nomida saqlangan.

[5] *Batlimus* (Ptolemey) (m. II a.) – «Almajistiy» va «Geografiya» asarlarining muallifi.

[6] *Zamm* – o'rta asrlarda Amu bo'yida hozirgi Karki o'rnidagi shahar.

[7] *Amuya* – o'rta asrlarda hozirgi Chorjo'y o'rnidagi yirik shahar. Marv va Buxoro orasidagi yo'l shu shahar orqali o'tgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

bo'yidagi shahar va qishloqlarni [suvi bilan] obod qilardi va Jurjon bilan Xazar[1] orasidagi dengizga tushardi.

Ittifoqo, [Jayhunning yo'lida] to'siq paydo bo'lib, uning suvlarini g'uzzlar yeri[2] atroflariga burdi, lekin [yana] uning yo'lini hozir Fammul-asad[3] va Xorazm aholisida – Sikr ash-Shayton[4] deb ma'lum bo'lgan tog' to'sdi. Suv to'planib, qirg'oqlaridan chiqqach, hatto uning to'lqinlari zarbasining izlari [o'sha tog'ning] yuqorilarida qolgan. [Suv] og'irligi va bosimning haddi oshganidan keyin, u o'sha tebranib turgan tosh [qoyalarni] yorgan va ularni qariyb bir o'tish [masofasicha][5] joyda kesib o'tgan. Keyin [Jayhun] o'ngga, Forob[6] tarafiga, hozir Al-Fahmiy[7] deb ma'lum bo'lgan o'zan bo'yicha yo'nalgan. Odamlar uning ikkala qirg'oqlarida uch yuzdan ortiq shahar va qishloqlar yaratgan, ularning vayronalari hozirgacha saqlangan.

Qisqa muddatdan keyin bu oqimga ham avvalgi oqimga bo'lgan to'siqdek to'siq duch kelgan. U to'silib qolib, suvini chapga, bajanoklar yeriga[8], Vodiy Mazdubast[9] deb ma'lum bo'lgan o'zan bo'yicha burgan. Bu [o'zan] Xorazm bilan Jurjon orasidagi sahroda[10]. Bundan [keyin] uzoq muddat davomida ko'p joylar obod bo'lgan va yana xarob bo'lgan. Bu joylarning aholisi esa Xazar dengizi sohiliga ko'chgan, ular – allonlar va oslar[11] urug'idan bo'lib, hozir tillari xorazmiy va bajanokiy [tillaridan] tarkib topgan.

---

[1] *Xazar* – o'rta asrlarda Kaspiy dengizining shimoli va shimoli-g'arbidagi turkiy davlat. Xazarlar davlati Sharqiy Yevropadagi eng birinchi feodal davlat bo'lib, VII asr ikkinchi yarmidan X asr o'rtalarigacha hukm surgan.

[2] *G'uzzlar yeri* – Beruniy davrida Kaspiy va Orol dengizlarining oralig'i hamda Orolning shimoli va sharqidagi yerlarni o'z ichiga olgan. G'uzzlar (yoki g'uzlar) – ko'chmanchi turk qabilalari koalisiyasi.

[3] *Fammul-asad* – ya'ni «Sher og'zi», hozirgi nomi Dahani sher, Amudaryoning quyilishidagi tor joyi.

[4] *Sikr ash-Shayton* – «shayton to'sig'i» demakdir.

[5] *Bir o'tish [masofasi]* – karvon bir kunda o'tishi mumkin bo'lgan masofa, taxm. 30–40 km.

[6] *Forob* – o'rta asrlarda Aris suvining Sirdaryoga quyilishi joyidagi shahar. Uning xarobalari hozirgi Aris shahri yaqinida. Forob nomi «suv bo'yida» ma'nosini beruvchi Barob nomining arabiylashgani. Turkiy xalqlar uni O'tirar deb ham atashgan. Forob – Abu Nasr Forobiyning vatani.

[7] *Al-Fahmiy* – Amudaryoning qadimgi o'zanlaridan biri, Forobdan sharqroqda Qizilqum sahrosi orqali o'tgan.

[8] *Bajanoklar yeri* – Beruniy davrida bajanoklarning bir qismi Sirdaryoning quyi oqimi va Orol bo'ylarida yashagan.

[9] *Vodiy Mazdubast* – Amudaryoning Sariqamish ko'liga tushadigan qadimgi irmog'i.

[10] Ya'ni Qoraqum sahrosida.

[11] *Allonlar va oslar* — eroniy tilga mansub bir-biriga yaqin elatlarning nomlari. Ular qadimda O'rta Osiyoda Orol dengizi atroflarida, uning janubi-g'arbida ko'chmanchilik qilib yurgan. Beruniy guvohlik berishiga qaraganda, ularning bir qismi O'rta Osiyoda qolib, VIII asrda Sariqamish ko'li atrofida, ko'chmanchi turkiy qabilalar (bajanoklar) bilan yonma-yon yashagan. Keyinroq bular turkmanlar tarkibiga kirgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

So'ng suvining hammasi Xorazm tarafiga oqa boshlagan, vaholanki, oldin bu tarafga uning to'silgan joyi yaqinida qoyalardan sizib o'tgan qoldig'igina yetib kelardi, hozir u joy Xorazm tekisligining boshlanishida. Suv uni yorib o'tib, u yerlarni g'arq qilgan va o'sha joydan boshlab ko'lga aylantirgan. [Jayhun] suvining ko'pligi va oqimining shiddati tufayli olib kelgan balchig'idan loyqalangan. [Daryo] kengayish [joyida] undagi loyqaliklar cho'ka borgan; bora-bora uning quyilish joyida cho'kindilar qalinlashishidan yer ko'rinib, quruqlikka aylangan. Ko'l esa uzoqlasha borib, uning oldida to'siq bo'lgan toqqacha yetgan. Uni sura olish mumkin bo'lmaganidan u shimolga, hozir turkmanlar yashaydigan yer tarafiga og'gan. Bu ko'l bilan Vodiy Mazdubast yaqinida bo'lgan [ko'l] orasidagi masofa uzoq emas. U [ko'l] loyqa va o'tib bo'lmas sho'rxok [suvga] aylanganidan turkiychasiga «Xiz tenqizi», ya'ni «Qiz dengizi» deb ataladi[1].

## ABU RAYHON BERUNIY. «QONUNI MAS'UDIY»

Bu asar Beruniy G'aznadaligida 1031-yili yozib tugatilgan. Asar 11 kitobdan iborat, asosan, astronomiyaga va qisman matematikaga (3-kitob) va matematik geografiyaga (5-kitob) bag'ishlangan. 5-kitobda geografik punktlar, ya'ni shaharlarning nomlari, ular tegishli bo'lgan mamlakatlarning nomlari, geografik koordinatalari bilan jadval shaklida berilgan va ular iqlimlar bo'yicha taqsimlangan. Quyida shu asardan O'zbekiston va unga yondosh hududlarga oid parchalar keltiramiz (arabchadan A.Rasulov tarjimasi)[2].

**A.Ahmedov**

[1] Turkiy «Xiz tenqizi» va arabcha «Bahrul azro» – Beruniy «Qiz dengizi» deb Sariqamish ko'lini nazarda tutyapti. Xorazm vohasining paydo bo'lishi haqidagi Beruniyning farazi hozirgi zamon fani xulosalari bilan tasdiqlanadi.

[2] *Beruniy.* «Qonuni Mas'udiy».

@tarixchi_kutubxonasiga

## ABU RAYHON BERUNIY. «QONUNI MAS'UDIY»DAN

| Iqlimdagi shaharlar nomlari | Uzunlama | | Kenglama | | Viloyatlar va mamlakatlar |
|---|---|---|---|---|---|
| | Zamon-lar | Daqiqa-lar | Darajalar | Daqi-qalar | |
| **Uchinchi iqlimdagi joylar** | | | | | |
| Taqin – bu turklarning yuqori zaminida Xotunsin, ya'ni ozod ayol qabri | 120<br>129 | 15<br>40 | 32<br>31 | 50<br>55 | Turkiston |
| **To'rtinchi iqlimdagi joylar** | | | | | |
| Saymara – Mihrijon Quzaq | 71 | 55 | 34 | 40 | |
| Shirvon – Mosabazon shahri | 72 | 0 | 34 | 30 | |
| Firimsin – Kermonshoh | 74 | 0 | 34 | 10 | |
| Qasru-l-Lusus | 74 | 30 | 34 | 30 | |
| Hamadon | 75 | 20 | 34 | 40 | |
| Zanjon | 73 | 0 | 38 | 0 | |
| Abhar | 74 | 0 | 38 | 0 | |
| At-Tarm | 74 | 0 | 37 | 0 | |
| Qazvin – Daylam chegarasi | 75 | 0 | 37 | 0 | |
| Dinovar – Mohi Kufa | 76 | 0 | 35 | 0 | |
| Al – Lur | 76 | 30 | 34 | 20 | Jabal |
| Nihovand – Mohi Basra | 76 | 20 | 35 | 0 | |
| Shopurxost | 76 | 30 | 35 | 10 | |
| Karaju Abu Dulaf | 76 | 50 | 35 | 0 | |
| Susanqin | 76 | 50 | 35 | 0 | |
| Sova | 76 | 0 | 35 | 0 | |
| Qumm | 77 | 0 | 34 | 5[0] | |
| Qoshon – bu Koshondir | 77 | 20 | 34 | 0 | |
| Ray | 78 | 0 | 35 | 35 | |
| Al-Xuvar – bu Rayga izofa qilinmay kam aytiladi. Izofa qilinib Xuvori Ray deyiladi | 71 | 40 | 35 | 40 | |
| Simnon | 79 | 0 | 36 | 0 | Qumis |
| Domg'on – Qumisning markazi | 79 | 30 | 36 | 20 | |
| Bistom | 79 | 55 | 36 | 40 | |

@tarixchi_kutubxonasiga

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Kavtam | 76 | 0 | 36 | 0 | |
| Husm – Jabal zaminida | 76 | 50 | 35 | 50 | |
| Sholus | 76 | 15 | 36 | 55 | |
| Ruyon | 76 | 0 | 36 | 10 | Daylam |
| Notil | 77 | 55 | 35 | 15 | |
| Kalor | 77 | 0 | 36 | 0 | |
| Qilo' ud-Daylam – daylamliklar tog'larida | 77 | 0 | 35 | 50 | |
| Omul – Tabariston markazi | 77 | 10 | 36 | 35 | |
| Ahlum – Xazar dengizi sohilida | 77 | 10 | 37 | 0 | Tabariston |
| Turunja | 77 | 30 | 37 | 15 | |
| Momatir | 77 | 50 | 36 | 50 | |
| Dunbovand tog'i | 77 | 30 | 36 | 20 | |
| Shalamba | 77 | 20 | 35 | 15 | Dunbovand |
| Valma | 77 | 35 | 36 | 25 | |
| Firim | 77 | 40 | 36 | 30 | |
| Soriya – Tabaristonning Omuldan keyingi shahri | 78 | 0 | 36 | 15 | |
| Nomisha | 75 | 20 | 37 | 0 | Tabariston |
| Tamis – bu Tamishadir. Tabariston bilan Jurjon o'rtasidagi devor darvozasi shunda edi | 75 | 50 | 37 | 0 | |
| Obisukun – dengizda, bu Jurjon kemalari to'xtaydigan joy | 79 | 15 | 37 | 10 | |
| Astrobod | 79 | 20 | 37 | 5 | |
| Jurjon | 80 | 10 | 38 | 10 | Jurjon |
| Dehiston | 81 | 10 | 38 | 20 | |
| Bahmanobod | 82 | 20 | 36 | 0 | |
| Isfaroin – bu Mihrijon deb ataladi | 82 | 25 | 36 | 20 | |
| Asadobod | 83 | 20 | 37 | 6 | |
| Xusravkarid | 83 | 0 | 36 | 0 | |
| Sabzavor | 82 | 0 | 36 | 5 | |
| Ozodvor | 82 | 15 | 36 | 20 | |
| Eronshahr – Nishopur poytaxti | 84 | 0 | 36 | 10 | |
| Turusis – bu Turushizdir | 84 | 30 | 37 | 20 | |

@tarixchi_kutubxonasiga

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Tun – «Tuniy» deyiladigan paloslar shu yerdan chiqadi | 85 | 15 | 33 | 55 | |
| Zavzon – Xuroson deyiladigan kesagi shu yerdan keltiriladi | 85 | 10 | 35 | 20 | |
| Bo'zjon | 85 | 10 | 35 | 20 | Xuroson |
| At-Tobaron – poytaxti Tus | 84 | 30 | 36 | 20 | |
| Aqibatu – Duronga [Turon ham deyiladi] o'tishning tog' mashaqqati yo'li, ya'ni turklar chegarasi | 85 | 0 | 36 | 35 | |
| Naso – cho'lning chekkasida | 83 | 30 | 37 | 40 | |
| Abivard | 84 | 0 | 37 | 25 | |
| Saraxs | 85 | 0 | 36 | 40 | |
| Dandonaqon | 85 | 20 | 37 | 0 | |
| Marvishohijon | 86 | 30 | 37 | 40 | |
| Kushmayxon | 86 | 40 | 38 | 0 | |
| Marvirud | 87 | 40 | 37 | 30 | |
| Zamm – Jayhun qirg'og'ida | 88 | 0 | 37 | 30 | |
| Kolif – bu ham o'sha qirg'oqda | 90 | 15 | 37 | 30 | |
| Bozag'is – Badg'is | 89 | 10 | 36 | 55 | |
| Nun [Navand] – Bag'shuming markazi | 89 | 0 | 36 | 30 | |
| Kef | 89 | 0 | 35 | 0 | |
| Bushanj – Hirot yaqinida | 87 | 35 | 35 | 40 | |
| Hirot shahri | 88 | 40 | 34 | 50 | Xuroson |
| Isfazor | 89 | 20 | 35 | 40 | |
| Istilaj – Ayhadda | 88 | 40 | 36 | 30 | |
| Taliqon | 88 | 25 | 37 | 15 | |
| Foryob | 89 | 20 | 36 | 45 | |
| Maymana – bu Jahudondir | 89 | 50 | 36 | 0 | |
| Shapurkon | 90 | 0 | 36 | 45 | Juzjon |
| Anbir – Juzjon markazi | 90 | 15 | 36 | 5 | |
| Sinkin | 92 | 40 | 35 | 45 | |

@tarixchi_kutubxonasiga

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Pashin – bu G'archistondan | 109 | 0 | 36 | 40 | |
| Surman – bu G'archistondan | 109 | 10 | 35 | 50 | |
| Balx – buning qadimiy ismi Bomidir | 91 | 0 | 36 | 41 | |
| Xulm – tog' yonida cho'l chekkasida joylashgan shahar | 91 | 35 | 36 | 15 | |
| Samangon | 92 | 10 | 36 | 0 | Balx |
| Bag'lon | 92 | 15 | 35 | 40 | |
| Madar | 91 | 50 | 35 | 20 | |
| Xiyshora – bir qancha irmoqlar yig'ilgan joy bo'lib, majmui Jayhundir | 92 | 0 | 36 | 50 | |
| Saklakand | 92 | 50 | 35 | 50 | Tohariston |
| Valvolij –Tohariston – qadimda Xayotila mamlakatining markazi | 92 | 20 | 36 | 15 | |
| Rovan | 92 | 40 | 37 | 0 | |
| Taliqon | 93 | 0 | 37 | 0 | |
| Sakimisht | 93 | 10 | 36 | 50 | Tohariston |
| Andarob | 94 | 40 | 36 | 50 | |
| Termiz | 91 | 15 | 36 | 35 | |
| Masala – Jayhunning g'arbiy tomonida | 91 | 50 | 36 | 45 | |
| Qabodiyon | 92 | 20 | 37 | 10 | |
| Bobul Hadid | 92 | 30 | 38 | 30 | Sag'oniyon |
| Sag'oniyon | 92 | 40 | 37 | 50 | |
| Shumon | 92 | 50 | 38 | 20 | |
| Abu Yasjird | 93 | 0 | 38 | 50 | |
| Vaxsh shahri – Vaxshob daryosi ustida | 92 | 20 | 37 | 40 | |
| Tamaliyot | 93 | 40 | 38 | 40 | |
| Munk | 95 | 50 | 38 | 0 | |
| Halovard | 94 | 0 | 38 | 30 | |
| Xorbon | 94 | 10 | 35 | 35 | Xuttal |
| Hulbuk | 94 | 30 | 37 | 10 | |
| Rohishahr | 94 | 50 | 37 | 10 | |
| Porg'ar [Parg'ar] | 94 | 35 | 37 | 55 | |
| Andarchorig' | 94 | 40 | 37 | 15 | |
| Badaxshon | 95 | 10 | 35 | 0 | |

@tarixchi_kutubxonasiga

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Kron viloyati | 95 | 20 | 37 | 0 | |
| Vahon – la'l konlari chegarasida – Badaxshon xazinasi | 96 | 0 | 37 | 0 | U (Xuttal) ning chegarasida |
| Ishkoshim – Shug'non-ning markazi | 96 | 20 | 37 | 0 | |
| Ichki Tibat | 92 | 0 | 37 | 0 | |
| Bomiyon shahri – buning tog'ida qizil va qoramtir sanam bor, har biri yetmish gaz | 92 | 50 | 34 | 35 | Bomiyon |
| Parvon – Kobulning birinchi shahri | 94 | 10 | 34 | 40 | |
| Bahrob | 94 | 15 | 34 | 0 | |
| Shi'b-panjher (Pan-jahiyr) – tog'larida kumush olinadi | 94 | 20 | 35 | 45 | Kobul |
| Kobul qal'asi, kobulliklar pod-shohlarining qarorgohlaridir. Ular turklar edi, keyin braxmanlar bo'lgan | 95 | 20 | 33 | 40 | |
| Sakovand qal'asi – Laxukor rustoqida | 97 | 30 | 33 | | |
| **Beshinchi iqlimdagi joylar** | | | | | |
| As-Sarir egasining shahri | 72 | 0 | 43 | 0 | Xazarlar |
| Manxishloq tog'i – g'uzlarning kemalari to'xtaydigan joy | 72 | 0 | 40 | 0 | G'uzlar |
| Balxon – bu Jayhun-ning o'z yo'lidan ketishi sababli xarob bo'lgan | 73 | 0 | 40 | 0 | |
| Raboti Farova – G'uzlar chegaralarida | 82 | 45 | 35 | 25 | |
| Miyongoh – cho'l o'r-tasida – Naso bilan Xorazm oralig'ida | 83 | 15 | 40 | 5 | Xorazm |
| Jurjoniya – Xorazmning Jayhundan g'arbiy tomondagi ikki shaharning biri | 84 | 1 | 42 | 17 | |

@tarixchi_kutubxonasiga

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Kot – Xorazmning boshqa shahri, Jayhunning sharqidagi qadimiy shahar | 85 | 0 | 41 | 36 | |
| Sutkand – Shosh vodiysi deb mashhur (bo'lgan) Yaksart daryosida | 84 | 20 | 43 | 10 | Turkmaniston |
| Darg'on – Xorazmning Marv va Buxoroga tomon chegaralarining oxiri | 86 | 24 | 40 | 30 | Xorazm |
| Amuya[51] – Movarounnahr mamlakatlariga o'tish joyi | 87 | 5 | 39 | 10 | Xuroson |
| Barban[52] – Movarounnahr mamlakatlaridan Xurosonga o'tiladigan joy | 86 | 35 | 38 | 40 | |
| Paykand – u Azruyin deb taniladi | 86 | 50 | 39 | 0 | Buxoro |
| Buxoro | 87 | 30 | 39 | 20 | |
| Tavovis – shu yerda bo'ladigan har yilgi bozori bilan mashhurdir | 87 | 50 | 39 | 30 | |
| Sharg' – bu ham o'z bozori bilan mashhurdir | 87 | 15 | 39 | 35 | |
| Karmana (Karminiya) | 87 | 15 | 39 | 40 | |
| Dabusiya | 48 | 0 | 39 | 50 | Sug'd |
| Kushoniya | 48 | 10 | 39 | 15 | |
| Isbanjan va Arbinjan | 48 | 15 | 39 | 40 | |
| Nasaf shahri yoki Naxshob | 48 | 0 | 39 | 40 | U (Sug'd) chegarasida |
| Kish shahri, forschada tushunarli emas | 48 | 10 | 39 | 50 | |
| Samarqand, turk tilida Samarqand, ya'ni Quyosh shahri | 48 | 20 | 40 | 0 | Samarqand |
| Zomin | 89 | 0 | 40 | 25 | |

@tarixchi_kutubxonasiga

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Xo'jand | 90 | 0 | 40 | 50 | Tam |
| Usrushona | 89 | 30 | 39 | 30 | |
| Pomir | 92 | 35 | 41 | 10 | Xuttal |
| Sarosht qal'asi | 93 | 25 | 40 | 20 | |
| Binkat – Shoshning markazi, turkchada Toshkand, yunonchada Toshqal'a | 89 | 10 | 42 | 30 | Shosh |
| Banokat | 89 | 50 | 41 | 10 | |
| Tunkat – Iloqning markazi | 89 | 10 | 42 | 0 | |
| Salhi | 89 | 15 | 43 | 10 | |
| Isfijob | 89 | 20 | 43 | 29 | |
| Axsikat – Farg'onaning markazi | 92 | 0 | 42 | 20 | Far |
| Chatqal – viloyat | 92 | 10 | 42 | 30 | |
| Qubo – Quva | 92 | 15 | 43 | 0 | |
| Xikat | 98 | 50 | 42 | 30 | |
| Navkat | 91 | 25 | 44 | 15 | Turklar |
| Karuyo | 94 | 10 | 44 | 0 | |
| Yusmat – Sirtki Tibatda | 110 | 0 | 39 | 10 | |
| Xyobxakas – bu Quchu Bug'roxonning qarorgohi | 11 | 20 | 42 | 0 | |
| Sulman | 113 | 0 | 43 | 0 | |
| **Oltinchi iqlimdagi shaharlar** | | | | | |
| Samandar | 72 | 30 | 44 | 40 | Xazarlar |
| Balxar | 73 | 0 | 44 | 50 | |
| Xazar shahri – bu xaroba, Itil daryosi qirg'og'ida | 75 | 20 | 46 | 34 | |
| Al-Qariyat ul-Hadisa – Yangi qishloq, buning yonida Xasartning Orol ko'li (Buhayratu Xorazmga) quyiladigan joy bor | 78 | 30 | 44 | 0 | G'uzlar |

@tarixchi_kutubxonasiga

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Safvon – turkmanlarniki | 84 | 0 | 43 | 30 | turklar |
| Forob | 88 | 30 | 41 | 35 | |
| Taroz | 89 | 50 | 43 | 35 | |
| O'sh | 92 | 30 | 43 | 25 | |
| O'zgand | 92 | 50 | 44 | 0 | |
| Bolasog'un | 91 | 30 | 47 | 40 | |
| Qo'chqorboshi | 92 | 0 | 46 | 20 | |
| Barsxon – Issiqko'l, ya'ni Al-Buhayratu-l-Xarra yaqinida | 93 | 0 | 46 | 30 | |
| Otboshi (Norin) | 93 | 0 | 46 | 30 | |
| Ardakend – bu Koshg'ardir | 95 | 25 | 44 | 0 | |
| Yorkand | 95 | 35 | 43 | 40 | |
| Uj | 99 | 20 | 45 | 0 | |
| Axma – Xo'tanning markazi | 100 | 40 | 43 | 30 | |
| Yormon | 101 | 40 | 44 | 55 | |
| Kucha | 102 | 20 | 44 | 50 | |

@tarixchi_kutubxonasiga

## FORS TILIDAGI MANBALAR

### ABU BAKR MUHAMMAD IBN JA'FAR AN-NARSHAXIY VA UNING «BUXORO TARIXI» ASARI

O'rta Osiyoda islom dinining joriy etilishi (VIII asr) va undan bevosita oldingi davrlar hamda IX–XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar-qishloqlar xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan «Buxoro tarixi» qimmatli bosh manba sifatida tarix fanida zo'r shuhrat topgan.

«Buxoro tarixi»ni dastavval Buxoroning Narshax qishlog'idan bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy 943–944-yillarda arab tilida yozgan. Hozirda Narshaxiyning nomi O'rta Osiyoning VIII–XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlarida tilga olinadi, ammo uning hayotiga oid biror to'liq ma'lumot keltirilmaydi. Bunga sabab uning o'z asarida ham va unga yaqin davrlarda yashagan boshqa mualliflar asarlarida ham shunday ma'lumotlarning keltirilmaganligidir. Faqat Sam'oniyning «Kitob al-ansob» asarida uning to'la nomi Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik ekanligi va u Buxoro ahlidan bo'lib, 286/899-yili tug'ilgan va 348/959–960-yili vafot etganligi eslatiladi. «Buxoro tarixi»ning arab tilidagi asl nusxasi bizgacha yetib kelgan emas, to'g'rirog'i, hali shu vaqtgacha uning mavjudligi haqida biror ma'lumot yo'q.

Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida ham «Tarixi Narshaxiy» («Narshaxiy tarixi»), «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi»), «Tahqiq ul-viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar») kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelgan. Bu nomlardan keyingi uchtasi asar mazmuni bo'yicha to'g'ri bo'lib, ulardan eng anig'i – «Tarixi Buxoro» hozirgi tarixiy adabiyotda qat'iy o'rnashib qoldi.

Ma'lumki, «Buxoro tarixi»ni dastlab yozgan Muhammad ibn Ja'far ham, so'ng asarni qisqartirib va qo'shimchalar qo'shib arabchadan fors tiliga tarjima qilgan Ahmad ibn Muhammad va bu tarjimani qisqartirib bayon qilgan Muhammad ibn Zufarlar ham X–XII asrlar sharoitida, o'z davrlarida mavjud bo'lgan iqtisodiy, ma'naviy hayot ta'sirida ish olib borganlar. Biroq shunga qaramay, asarda katta tarixiy qimmatga ega bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan va ularni ilmiy obyektiv ravishda tahlil qilish tarix fani uchun foydadan xoli

@tarixchi_kutubxonasiga

emas. Bu hol «Buxoro tarixi» ma'lumotlari O'rta Osiyoning VII–XII asrlar tarixidan bahs etuvchi ilmiy-tarixiy asarlarning aksarida ko'p vaqtlardan beri foydalanib kelinayotganligi bilan shak-shubhasiz isbotlangan. Bir necha qo'lyozma va nashrlar matni solishtirilib, tafovutlar qayd etilgan ilmiy izohli o'zbek tilidagi tarjimasi 1966-yili A.Rasulov va A.O'rinboyevlar tomonidan (tarixiy shaxslarga izohlar D.Yusupovaniki) «Fan» nashriyotida nashr etildi[1].

Quyidagi lavhalar (xrestomatiya uchun ma'lumotlar) mazkur o'zbekcha nashrdan olindi va sahifalari qavs ichida ko'rsatildi.

**A.O'rinboyev**

## ABU BAKR MUHAMMAD IBN JA'FAR AN-NARSHAXIY. «BUXORO TARIXI»DAN

### Buxoroda dirham va kumush (tanga) zarb qilinishi

Buxoroda siym – kumush [tanga]ni dastlab ishlatgan kishi Kono Buxorxudot nomli podshoh edi. U Buxoroda o'ttiz yil podshoh bo'ldi. Buxoroda savdo bo'z va bug'doy vositasi bilan bo'lar edi. Boshqa viloyatlarda kumush [tanga] zarb qilganliklari haqida podshohga xabar bergan edilar, u ham Buxoroda sof kumushdan tanga zarb qilib, unga o'zining toj kiyib turgandagi suratini ishlashga buyurdi. Bu voqea amiralmo'minin Abubakr Siddiqning, – undan xudo rozi bo'lsin, – xalifalik davrida[2] bo'lib [bu kumush tanga] Xorun ar-Rashid davrigacha[3] davom etdi. Uning davrida esa bir yuz sakson beshinchi yil Ramazon oyida (801-y., 13-sentabr – 12-oktabr), G'itrif ibn Ato Xurosonga amir bo'ldi. G'itrif Horun ar-Rashidning onasi Xayzuron ismli [xotinning] birodari, Xayzuron esa Atoning qizi bo'lib, Yamanning Jurash degan shahridan edi. U asir tushib (37) qolib Tabaristonga va u yerdan Mahdiyning huzuriga keltirilgan. Mahdiy bu xotindan ikki o'g'il ko'rdi; birinchisi – Muso al-Hodiy[4], ikkinchisi – Horun ar-Rashiddir. Xayzuronning obro'si ortgach, G'itrif [Yamandan] uning oldiga kelib, shu yerda qoldi. Horun ar-Rashid Xurosonni G'itrifga berdi.

U vaqtda Buxoro aholisi qo'lida Xorazm kumush [tangasi] muomalada bo'lib, odamlar bu kumush [tanga]ni yoqtirmay olar edilar. Buxoroning [o'zida quyilgan] kumush [tanga] esa odamlar qo'lidan chiqib ketgandi. G'itrif ibn Ato Xurosonga kelganida, Buxoroning kattalari va ko'zga ko'ringan kishilari uning oldiga bordilar va undan: «Shahrimizda kumush [tanga] qolmadi, Xuroson amiri buyursalar, toki bizga kumush [tanga] zarb

[1] Narshaxiy. «Buxoro tarixi» (1966).
[2] Abubakr Siddiqning xalifalik davri: 632–634-y.y.
[3] *Horun ar-Rashid* – Abbosiylardan; xalifalik-yillari: 786–809-y.y.
[4] *Muso al-Hodiy* – Abbosiylardan; 785–786-yillarda xalifalik qilgan.

@tarixchi_kutubxonasiga

qilib bersinlar va uni o'sha qadimgi Buxoro kumush [tangasi] zarb qilingan qolipda quysinlar va u kumush [tanga] shunday bo'lsinki, hech kim uni bizning qo'limizdan chiqarib ololmasin, shahrimizdan tashqariga olib ketolmasin va bir o'z o'rtamizda o'sha kumush [tanga] bilan muomala qilaylik». – deb talab qildilar. U vaqtda kumush kam edi; shahar aholisini yig'ib bu haqda ulardan maslahat so'radilar va olti xil narsa – tilla, kumush, xeri qalay, temir va mislardan kumush [tanga] zarb qilishga qaror qildilar. Shu [qaroni] amalga oshirdilar va o'sha ilgarigi qolipni G'itrif nomi bilan «Sivmi g'itrifiy» – «G'itrif kumush [tangasi]» deb atadilar; avom xalq uni «bidrifiy» deb talaffuz qilardi. Qadimgi kumush [tanga] sof kumushdan edi. Bu aralash qilib quyilgan kumush [tanga] qora rangli bo'lib chiqdi va Buxoro aholisi uni olmay qo'ydi. Sulton ularga g'azab qilgach, majburan oladigan bo'ldilar. Olti g'itrifiy bir dirham sof kumushga barobar deb baho qo'ydilar. Sulton [ham] uni shu qiymatga oldi va nihoyat, u kumush [tanga] rivoj topib ketdi va shu sababdan [xalq uchun] Buxoro xirojini [to'lash] og'ir bo'ldi. Chunki Buxoro xiroji ilgari ikki yuz ming kumush dirhamdan biroz kamroq edi, g'itrifiy tangasi quyilib, oltitasi bir dirham sof kumush bahosida yurgach, sulton (buxoroliklarni) shu g'itrifiy bilan xiroj to'lashga buyurdi, shunda g'itrifiy kamayib ketib, bir g'itrifiyning bir dirhami bir dirham [sof] kumush bahosida yura boshladi. Sulton esa [xirojni] kumush bilan olishni istamay, g'itrifiy talab qildi. [Natijada] ikki yuz ming dirham kumushdan kamroq bo'lgan Buxoro xiroji birdaniga 1.068.567 dirham g'itrifiyga borib yetdi.

Muhammad ibn Ja'farning aytishicha, bir yili ikki yuz yigirma dirham toza kumush sakson besh dirham g'itrifiyga [barobar] bo'lgan. Ahmad ibn Nasr: «Biz bu kitobni tarjima qilayotganimiz, ya'ni besh yuz yigirma ikkinchi (1128-y.) yili, yuz dirham sof kumush yetmish dirham g'itrifiy bahosida, bir misqol qizil oltin esa yetti yarim dirham g'itrifiyga teng bo'lgan», – deydi. (38) Muhammad ibn Ja'farning aytishicha, bu g'itrifiyni Buxoro shahrida Ko'shki Mohak [degan joy]da zarb qilganlar. G'itrifiy kumush [tangasida] boshqa tarkiblardan ko'ra kumush ko'proq. Aytishlaricha, bir g'itrifiyning har bir dirhamida bir habba tilla bo'lib, har bir o'n dirhamida yarim dirhamdan tortib to'rt yarim donakgacha[2] tilla bo'lgan. Somoniylar sulolasidan [podshoh bo'lgan] har bir kishi va Somoniylar sulolasidan keyingi boshqa podshohlar Buxoroda ko'p mayda pullar zarb qilganlar. Buning biror ajablanarli joyi bo'lmaganligi uchun u haqda gapirilmaydi.

[1] Bu so'zni anglatuvchi «mashk»ning lug'aviy ma'nosi: qo'y terisidan tayyorlangan dam, meshkobdir. Ammo metallardan eritib quyiladigan tanga pul tarkibiga teri kiritilishi shubhali bo'lganligiga binoan «mashk»ni «jast» o'qish to'g'ri ko'rinadi: «jast» esa ruxning hindcha atalishidir.

[2] Bu bobda uchragan og'irlik o'lchovlarining o'sha davrlarda arablarda ishlatilgan miqdori taxminan shunday: misqol – 4,250 gr, dirham – 3,186 gr, donak – 0,531 gr, habba – 0,071gr.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Buxoro fath etilishining boshlanishi

Muhammad ibn Ja'farning bayon qilishicha, Ubaydulloh ibn Ziyod Muoviya[1] tomonidan Xurosonga yuborilib, u Jayhun daryosidan o'tib Buxoroga kelgan vaqtida Buxoro podshohi, o'g'li Tag'shoda kichik yoshli bo'lgani tufayli, bir xotin kishi edi. Ubaydulloh ibn Ziyod Baykand va Romtinni olib ko'p kishilarni asir qildi. To'rt ming buxorolik asirni shaxsan o'ziga oldi. Bu voqea ellik uchinchi yilning oxiri va ellik to'rtinchi yilning boshida (673-y., noyabr-dekabr) bo'lgan edi. U Buxoro shahriga yetgach, askarlarini saf qilib, palaxmonlarni shaharga to'g'rilab qo'ydi. Xotin turklarga odam yuborib ulardan yordam so'radi hamda Ubaydulloh ibn Ziyodga ham odam yuborib yetti kun muhlat talab qildi va: «Men sening itoatingdaman», – deb, ko'p hadyalar yubordi. Shu yetti kunda turklardan yordam kelmagach, Ubaydulloh ibn Ziyodga qaytadan odam yuborib, yana yetti kun muhlat so'radi. [Nihoyat] turk lashkari yetib keldi va boshqalar ham yig'ilishgach, lashkar ko'paydi; ko'p urushlar qildilar va oxiri kofirlar yengilib qochdilar, musulmonlar ularning orqalaridan borib ko'plarini o'ldirdilar. Xotin qal'aga kirdi, u [yig'lab kelgach], lashkarlar o'z viloyatlariga qaytdilar. Musulmonlar qurol, kiyim-kechak, tilla va kumushdan ishlangan narsalar va asirlardan iborat ko'p o'lja qo'lga kiritdilar. Ular xotinning bir poy etigini va paypog'i bilan topib oldilar. Etik va paypoq tilla [ishlatilib tikilgan va] qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan edi, baho qilganlarida ikki yuz ming dirham turdi.

Ubaydulloh ibn Ziyodning farmoni bilan daraxtlarni kesdilar, qishloqlarni vayron qildilar; shahar ham xatarda edi; Xotin odam yuborib omonlik tiladi, bir million dirham barobariga sulh tuzildi. [Xotin] mol yubordi, Ubaydulloh ibn Ziyod molni olib qaytdi va mazkur to'rt ming buxorolik asirlarni ham o'zi bilan olib ketdi. U ellik oltinchi yili (25-noyabr 675-y. 13-noyabr 676-y.) Xuroson amirligidan tushirilganidan keyin Said ibn Usmon Xuroson amiri bo'ldi va Jayhun daryosidan o'tib Buxoroga keldi. Xotin unga odam (39) yuborib: «Ubaydulloh ibn Ziyod bilan tuzgan sulhimda barqarorman», – dedi va moldan biroz yubordi. Nogoh shu asnoda Sug'd, Kesh va Naxshab lashkarlari etib keldilar. Ularning soni bir yuz yigirma ming edi. Xotin sulh tuzganligi va mol yuborganligiga pushaymonlik bildirdi. Said: «Men ham shunday fikrdaman», – dedi-da, molni qaytarib yuborib: «Bizning oramizda sulh yo'q», – dedi. Shundan keyin lashkarlar yig'ilishib bir-birlariga qarama-qarshi turib saf tortdilar. Xudoyi taolo kofirlar diliga vahima solib, ularning hamma lashkarlari urushsiz orqaga qaytdilar. Xotin yolg'iz qolib yana odam yubordi va [Saiddan] sulh so'radi, mol [miqdorini] ko'paytirib hammasini yubordi. Said: «Men endi Sug'd va Samarqandga boraman, sen mening yo'limdasan,

[1] *Muoviya I* – Umaviy xalifalardan, xalifalik yillari: 661–680-y.y.

@tarixiy_kutubxonasiga

[qaytishimda] mening yo'limni to'smasliging va meni ranjitmasliging uchun sen tomondan biror garov bo'lishi lozim», – dedi.

Xotin malikzodalar va Buxoro dehqonlaridan sakson kishini garov qilib Saidga berdi. Said Buxoro darvozasidan qaytib ketdi...

Hikoyatda keltirishicha, xotin o'z erining xizmatkorlaridan biriga oshiq edi; odamlar uning o'g'li Tag'shoda o'sha kishidan bo'lgan va xotin bu bolani o'z eridan bo'lgan deb ko'rsatadi, ammo bu bola Buxorxudotdan emas, deb gapirar edilar. Uning lashkarlaridan bir guruhi esa: «Biz uning mamlakatini beshak podshohzoda bo'lgan boshqa bir xudotzodaga beramiz», – der edilar; Xotin ularning bu qasdlaridan ogoh bo'lib, ularni o'zidan daf qilish uchun tadbir qidirar edi. Said bilan sulh tuzilib, Said undan garov talab qilgach, xotin hiyla qildi va haligi maqsadni mo'ljallagan o'sha guruhni garovga berib, ulardan xalos bo'ldi va Saiddan ham qutuldi.

Yana Said haqida hikoyat qiladilarki, u xotin bilan sulh tuzganida: «Menga salom berish uchun huzurimga chiqishing kerak», – degan; xotin uning aytganidek salomga chiqqan, u yana: «Mening sarkardalarim oldiga [ham] salomga chiqishing kerak», – degan. Xotin uning sarkardalaridan har biri uchun ham salomga chiqqan. Saidning lashkarboshilaridan biri Abdulloh Hozim edi, u o'zining chodiri ichida katta gulxan yoqishga buyurdi va o'zi [olov yonida] turdi. [Chodir ichi] juda issiq edi, Abdulloh rangi qizil kishi bo'lib, olovning issig'idan ko'zlari ham qizarib ketgan edi va kallasi kattaligidan uni Bayg'oriya[1] deb masalda keltirar edilar; vahshatli bir kishi edi. U qurollangan holda qilich yalang'ochlab turdi va uning oldiga kirgan xotin qo'rqib tez qochib chiqdi va aytdi:

Ey g'ulom, seni xudo ajab go'zal qilib bezantiribdi,
Yomon ko'z (sendan) uzoq bo'lsin, senga yaqinlashmasin!

**Hikoyat:** Sulaymon Laysiy aytadiki, Said xotin bilan sulh tuzilgandan keyin Buxoroda kasal bo'lib qoldi; xotin uni ko'rgani (40) kirdi; uning tillaga to'la bir hamyoni bor edi, u qo'lini hamyonga solib, undan ikkita narsa chiqardi-da: «Buning bittasini o'zim uchun saqlayman, mabodo kasal bo'lib qolsam yeyman, mana bu ikkinchisini senga beraman, uni yesang sog'ayasan», – dedi. Said: «Bu nima narsa ekanki, bu xotin shunchalik aziz va ulug' tutib menga berdi», – deb ajablandi va xotin chiqib ketgach qarasa, u narsa eskirib ketgan bir dona xurmo ekan. Shunda u odamlariga buyurdi: ular beshta tuyaga yangi xurmodan ortib xotinning oldiga eltdilar. Xotin qoplarni ochib ko'p xurmoni ko'rdi; hamyonini ochib o'zining xurmosini chiqardi-da, u xurmolar bilan solishtirdi; qarasa, ular o'zi saqlab yurgan xurmodek ekan; shunda u uzrga kelib: «Bizda bunday narsa ko'p bo'lmaydi, bu ikki dona xurmoni kasallik paytda iste'mol qilish uchun ko'p yillardan beri saqlab

[1] *Bayg'oriya (matnda yozilishi)* – lug'atlarda bunday so'z uchramaydi.

@tarixchi_kutubxonasiga

yurardim», – dedi. Rivoyat qilishlaricha, bu xotin yoqimli va go'zal ayol ekan, Said unga oshiq bo'lib qolgan ekan. Buxoroliklarning bu haqda buxoro tilida qo'shiqlari bor.

Bir rivoyatda keltirishlaricha, Said Buxoroga kelgan vaqtida rahmatli Qusam ibn Abbos ham Buxoroga kelgan ekan, Said uni hurmat qilib: «Bu o'ljalardan har kishiga bir hissa, senga esa ming hissa beraman», – desa, Qusam, – xudo undan rozi bo'lsin: «Shariat buyurgan bir hissadan boshqa [hech narsa] olmayman», – degan. Shundan keyin rahmatli Qusam Marvga borgan va u yerda vafot etgan[1]. Ba'zilarning aytishlaricha, u Samarqandda vafot etgan.

[Shunday qilib] Said Buxoro ishlaridan forig' bo'lgach, Samarqand va Sug'dga borib ko'p janglar qildi va zafar uning tomonida bo'ldi. U vaqtda Samarqandda biror podshoh yo'q edi. Said Samarqanddan o'ttiz ming kishini asir qilib, ko'p mol qo'lga tushirib [qaytdi]. U Buxoroga yetib kelganida xotin odam yuborib: «Sog'-salomat qaytib kelding, endi garovni bizga qoldirib ket», – dedi. Said esa: «Hali sendan xotirjam bo'lganim yo'q, toki Jayhundan o'tgunimgacha garovlar men bilan bo'ladi», – dedi. Jayhundan o'tganida xotin yana odam yuborsa: «Marvga yetgunimcha qo'yatur», – dedi. Marvga yetganida esa: «Nishopurga yetgunimcha qo'yatur», – [dedi,] Nishopurga yetganida: «Kufaga yetib olay», – dedi va undan Madinagacha olib ketdi.

Madinaga yetganidan keyin Said g'ulomlariga buyurib [u garovga berilgan odamlarning] qilich va kamarlarini yechtirdi va ularda bor bo'lgan kimxob kiyimlar, tilla va kumushlarning hammasini oldirdi. Kiyimlar evaziga ularga sholcha [kiyim]lar berib ekin ekish ishlariga band qilib qo'ydilar. Ular bundan juda xafa bo'lib: «Bu kishi bizga bermagan yana qanday xorlik qoldi? U bizni qul qilib olib og'ir ishlarni buyurmoqda, biz xorlik bilan o'lgandan ko'ra bir yo'la foydali ish qilib o'laylik», – dedilar va Saidning saroyiga (41) kirib eshiklarni mahkam berkitdilar, Saidni o'ldirdilar va o'zlarini ham o'limga topshirdilar. Bu [voqea] Yazid ibn Muoviya[2] xalifalik qilib turgan vaqtda bo'lgan edi.

So'ngra Muslim ibn Ziyod ibn Abiyh Xuroson amiri qilib tayinlandi va Xurosonga keldi. Bu yerda lashkar tuzib, Buxoroga bordi. Xotin bu lashkar va tayyorgarchiliklarni ko'rib, Buxoro lashkari ularga qarshi turolmasligini bildi-da, Sug'd podshohi Tarxunga odam yuborib: «Men senga xotin bo'lay, Buxoro sening shahring, sen kelib bu mamlakatdan

[1] Qusam ibn Abbosning o'z ajali bilan vafot etgan yoki o'ldirilganligi va bu voqea Samarqandda yoki Marvda sodir bo'lganligi borasida manbalarda ixtiloflar bor. Lekin shunisi aniqki, hozirda ham Samarqandda mavjud bo'lgan Shohi Zinda maqbarasi uning bu yerga ko'milgan yo yo'qligidan qat'i nazar, shu shaxs nomi bilan bog'langan. Bu haqda Abu Tohir Xojaning «Samariya» asarida to'liq keltirilgan (Samariya).

[2] *Yazid (I) ibn Muoviya* – Umaviy xalifalardan, xalifalik davri: 680–683-y.y.

@tarixiykutubxonasiga

arablar qo'lini uzoqlashtirishing lozim», – dedi. Tarxun bir yuz yigirma ming kishi bilan keldi. Bidun ham Turkistondan ko'p lashkar bilan keldi. To bu lashkar yetib kelgunicha xotin Muslim bilan sulh tuzib, unga darvozalarni va tashqarida bo'lgan ko'shk eshiklarini ham ochgan edi. Bidun [Buxoroga] yetib keldi va Xarqonrudning u tomoniga tushdi. Muslimga: «Bidun yetib keldi va xotin unga bo'ysundi hamda shahar darvozalarini berkitdilar», – degan xabarni yetkazdilar. Muslim ibn Ziyod Muhallabning oldiga odam yuborib: «Muhallabga ayt, borib Bidun lashkarining qanday andozada ekanligini ko'rsin va ayg'oqchilik sharti nima bo'lsa uni joyiga keltirsin!» – dedi. Muhallab javob berib: «Hech kim bunday ishga mendek odamni yubormaydi; men hammaga taniqli kishiman; shunday bir kishini yuborginki, agar u salomat qaytib kelsa, senga to'g'ri xabar keltirsin va agar halok bo'lsa, lashkaringga nuqson yetmasin» – dedi. Muslim esa: «Har nima bo'lsa ham, sen borishing kerak!» – dedi. Muhallab: «Agar men borishim shart bo'lsa, lashkarning har bir to'dasidan bittadan kishini men bilan birga yubor va mening ketganimni hech kimga bildirma!» – dedi. Muslim u aytganidek qildi va o'z amakisining o'g'lini [ham] u bilan birga yubordi; hammalari kechasi Muhallab bilan yo'lga chiqdilar va dushman lashkariga bildirmay kerakli ma'lumotlarni bilib oldilar. Tong otgach, Muslim ibn Ziyod ertalabki namozni o'qib bo'ldida, odamlarga qarab: «Men kecha Muhallabni ayg'oqchilik qilish uchun yubordim», – dedi. Bu xabar lashkar orasida tarqaldi va buni eshitgan arablar: «Amir bizdan oldinroq o'lja olsin uchun Muhallabni yuboribdi, agar jang bo'lganida edi, u bilan birga bizni ham yuborar edi», – dedilar. Ulardan bir to'dasi tezda otlariga minib Muhallabning orqasidan to daryo[1] labigacha bordilar. Muhallab ularni ko'rgach: «Sizlar kelib xato qilibsizlar; men yashirin turgan edim, sizlar esa oshkora kelyapsizlar, endi kofirlar hammamizni tutib oladilar», – dedi. Muhallab sanab qarasa, musulmonlar to'qqiz yuz kishi ekan, u: «Azbaroyi xudo! Qilgan ishingizdan o'kinasiz», – dedi. Shu vaqt ular saf tortdilar va Bidun lashkarining ayg'oqchilari ularni ko'rdilar. Musulmonlar tezlik bilan karnay (42) chalib hammalari birdan otlariga mindilar va saflarga tizildilar.

Turk podshohi ularga hujum qildi va arablarning tinkalari quridi. Muhallab: «Men shunday bo'lishini bilgan edim», – dedi. Ular: «Endi qanday tadbir qo'llash kerak?» – deb so'radilar. U: «Ilgariroq yuringlar!» – dedi. Ular esa orqaga chekindilar va Bidun ketlaridan yetib kelib musulmonlardan to'rt yuz kishini o'ldirdi, qolganlari lashkargohga qochib bordilar.

[1] *Daryo* – Xarqon kanali.

@tarixchi_kitobxonlarga

Ertasi kuni tong otgach, Bidun suvdan o'tib, Xo'tan[1] aminining oldiga keldi, [chunki] ularning oralig'i yarim farsang kelar edi. [So'ng arablar bilan] jang boshlanib ketdi. Muhallab birinchi bo'lib urushga kirdi, qattiq urush bo'lib kofirlar yopirilib uni o'rtaga oldilar. Muhallab: «Menga yordam bering», – deb qichqirdi. Muslim parishon hol bo'lib: «Bu Muhallabning tovushi-ku!» – dedi. Shu vaqtda Abdulloh [ibn] Xulon Muslimning oldida so'z qotmay jim turgan edi, Muslim undan: «Senga nima bo'ldi, biror so'z gapirmaysan?» – deb so'radi. U: «Azbaroyi xudo! Agar halokat xavfi bo'lmasa, Muhallab qichqirmaydi, endi otga minaman-da, o'z zimmamdagi vazifani ado etaman, agar meni halokat qarshi olsa unga ham tayyorman», – dedi. [Arablar] har gal qochishga uringanlarida Muhallab qichqirar edi. Muslim: «Biroz sabr qiling!» – dedi. Shu orada Muslim dasturxon yozdirib, non yeya boshlagan edi, Abdulloh ibn Xudon: «Hozir non yeyish vaqti emas, seni xudo to'yg'izsin! Halok bo'lay deyapsan-ku, xabaring yo'q, sen jang kishisi emasmisan?» – dedi. Muslim: «Endi nima chora ko'ramiz?» – deb so'ragan edi u: «Otliqlarga ayt, piyoda bo'lib jang maydoniga yursinlar», – dedi. Shunday qildilar. Abdulloh [ibn] Xudon Muhallab tomonga yugurib ketdi, Muhallab qattiq qurshovda qolgan edi, [Abdulloh:] «Orqangizga qaranglar!» – deb qichqirdi, [musulmonlar] orqaga qarab yordamga kelayotgan kishilarni ko'rdilar, dillari quvvatlanib g'ayratga kirdilar va jang(shijoati)ni kuchaytirib yubordilar. Shu orada Bidun o'ldirildi; musulmonlar takbir aytib yuborgan edilar, kofirlar birdan qocha boshladilar, musulmonlar ularning ketlaridan quvib borib yakson qildilar va nihoyat, ularni butunlay yengib, ko'p o'ljalar oldilar. O'ljalarni o'sha kuni taqsim qilgan edilar – har bir otliqqa ikki ming to'rt yuz dirhamdan tegdi. Xotin odam yuborib sulh talab qildi; Muslim u bilan sulh tuzib, juda ko'p mol oldi. Xotin Muslimga: «Sendan iltimos qilamanki, menga Abdulloh Hozimni ko'rsatsang, uning suratini bir marta ko'rib behush bo'lib edim, menimcha, u odam jinsidan bo'lmasa kerak», – dedi. Muslim Abdulloh Hozimni o'zi turgan mehmonxonaga chaqirib, xotinga ko'rsatdi. Abdulloh ko'k rangli ipak kiyim kiygan va qizil salla o'ragan edi. Xotin uni ko'rganida, unga sajda qildi (43) va ajablanganidan hadyalar yubordi. Muslim g'alaba qozonib va ko'p o'ljalar olib Xurosonga qaytib ketdi.

[1] *Xo'tan* – Sharqiy Turkistondagi shahar.

@tarixchi_kutubxonasiga

## Qutayba ibn Muslimning hukmronligi Buxoroning fath qilinishi Movarounnahrning arab va ajam[1] o'rtasida taqsimlanishi

Qutayba ibn Muslim Hajjoj[2] tomonidan Xuroson amiri qilib tayinlangach, Xurosonga kelib, butun Xurosonni o'ziga bo'ysundirdi va To'xoristonning[3] fath etilishi [ham] uning qo'lida tamomlandi. U sakson sakkizinchi (706–707)-yili Jayhun daryosidan o'tdi. Baykand aholisi bundan xabardor bo'lib, Baykandni juda mustahkam hisor bilan o'radilar. Qadimgi vaqtlarda Baykandni Shoriston deganlar va mustahkamligidan, uni «Jez shahar» deb ham ataganlar. Qutayba juda qattiq janglar qildi; musulmonlar ellik kungacha [Hisorni olish uchun] chora topolmay zahmat chekdilar va [oxiri] hiyla ishlatdilar. Bir guruh [askarlar] devor tagidan minora va Hisorning ichkarisi tomon lahm qazib, otxonadan chiqdilar, [so'ng] devorni kovlab rahna ochdilar; musulmonlar hanuz ham Hisorga kela olmayotgan edilar, [endi] rahna orqali ichkari kirdilar. Qutayba: «Har kim shu rahnadan ichkari kirsa, unga xuni bahosida [mukofot] beraman, agar u o'ldirilsa, [mukofotni] uning farzandlariga beraman», – deb qichqirdi. [Shundan keyin] har kim ichkari kirishga qiziqdi va [nihoyat] Hisorni oldilar. Baykand aholisi omonlik so'radi, Qutayba sulh tuzib mol oldi va Varqo ibn Nasr Bohiliyni ularga amir qildida, o'zi Buxoroga qarab yurdi.

Qutayba Xunbunga[4] yetib kelganida unga: «Hisorning kishilari qo'zg'olon qilib amirni o'ldirdi», – degan xabarni yetkazdilar. Qutayba lashkariga: «Boringlar, Baykandni talon-toroj qilinglar, ularning qonlarini [to'kishni] va mollarini [olishni] halol qildim», – deb buyruq berdi. [Qo'zg'olon] sababi shu edi; baykandlik bir kishining sohibjamol ikki qizi bor edi; Varqo ibn Nasr ikkalasini ham o'ziga oldi, shunda u kishi: «Baykand katta shahar, nima uchun sen butun shahardan faqat mening ikkita qizimni olasan?» – dedi. Varqo javob bermadi, u kishi sakrab turib Varqoning kindigiga pichoq urdi, lekin bundan bir ish chiqmadi – Varqo o'lmay qoldi. Bu xabar Qutaybaga yetgach, u qaytib Baykandga keldi va u yerda kimki urushga yaroqli bo'lsa hammasini qatl etdi, qolganlarini asir qilib oldi, shunday qilib, Baykandda hech kim qolmadi va Baykand xarob bo'ldi. Baykand aholisi savdogarlar bo'lib, ko'plari Chin mamlakati viloyatlariga va boshqa joylarga savdo qilish

[1] *Ajam* – arablar o'zlaridan boshqa xalqlarni «ajam» deb ataganlar, shuningdek, arablar yashaydigan yerlardan boshqa mamlakatlar, xususan, Eron va Turon ham «mulki ajam» nomi bilan yuritilgan.

[2] *Hajjoj* – arab xalifaligining sharqiy qismlarining 694–714-yillardagi noibi Xajjoj ibn Yusuf; Qutayba ibn Muslimning Xuroson amiri bo'lgan yili – 705-y.

[3] *To'xoriston* – Amudaryoning o'rta va yuqori oqimidagi ikki sohilini ishg'ol etgan yerlarning o'rta asrlardagi atalishi.

[4] *Xunbun* – Buxoro bilan Paykand oralig'ida joylashgan qishloq.

@tarixchi_kutubxonasiga

uchun ketgan edilar, ular qaytib kelganlaridan keyin bolalari, xotinlari va o'z yaqin kishilarini talab qilib, arablardan sotib oldilar hamda Baykandni (44) yana obod qildilar. Aytishlaricha, Baykanddan boshqa butkul vayron bo'lib bo'shab qolgan, so'ng yana o'z aholisi qo'li bilan tezda obod bo'lgan hech bir shahar yo'q.

**Hikoyat.** Rivoyat qilishlaricha, Qutayba Baykandni fath qilganida bir butxonada og'irligi to'rt yuz dirham keladigan bitta kumush but topgan. U yana bir qancha kumush jomlar topib olgan va ularning hammasini jamlab tarozida tortganida, bir yuz ellik ming misqol chiqqan. U har biri kabutar tuxumidek keladigan ikkita marvarid ham topib olgan. Qutayba: «Bu qadar katta marvaridlarni qayerdan keltirdingiz?» – deb so'raganida: «Ikkita qush og'zida olib kelib mana shu butxonaga tashlagan», – deb javob berganlar.

Keyin Qutayba bu qimmatbaho narsalarni yig'ib haligi ikkita marvarid bilan birgalikda Hajjojga yubordi va unga Baykandning fath etilganligi haqida xat yozib, u ikki dona marvarid qissasini ham qayd qilib o'tdi. Hajjoj unga shunday javob yozdi: «Xatda aytganlaring menga ma'lum bo'ldi; u ikki dona katta marvarid donalaridan va ularni qushlar olib kelganligidan men juda ajablandim, ammo shunday qimmatli narsani qo'lga kirgizib, uni bizga yuborib ko'rsatgan saxovating undan ham ajoyibroq tuyildi, – xudo senga barakat bersin!»

Shundan keyin Baykand, ko'p yillar xarob bo'lib qoldi. Qutayba Baykand ishidan forig' bo'lgach, Xunbunga qarab jo'nadi va ko'p janglar qilib Xunbunni, Torobni hamda ko'pgina mayda qishloqlarni oldi va Vardonaga ketdi. U yerda Vardonxudot nomli bir podshoh bor edi, u bilan ko'p urushdi va oxiri Vardonxudot o'lib, Qutayba ko'p qishloqlarni oldi.

Buxoro qishloqlaridan Torob[1], Xunbun va Romitan oralig'ida ko'p lashkar to'planib Qutaybani o'rab oldilar. Sug'd podshohi Tarxun ko'p lashkari bilan, Xukukxudot, Vardonxudotlar o'z askarlari bilan keldilar; Xitoy podshohining jiyani malik Ko'rmag'onunni yollagan edilar, u ham Qutaybaga qarshi jangda [Sug'd podshohiga] yordam berish uchun qirq ming lashkar bilan keldi. Lashkarlar jam bo'ldilar. Qutaybaning ishi og'irlashdi. Qutayba va uning yoronlari qurolsiz edilar. Qutayba: «Bundan buyon [askarlar] qurollarini o'zlaridan uzoqlashtirmasinlar, askarlarni [lashkargohdan] tarqatmasinlar!» – deb buyruq berdi. Shu sababli qurol-yarog' qimmatlashib ketdi; masalan, bitta nayza ellik dirham, bitta qalqon ellik yoki oltmish dirham, bitta sovut yetti yuz dirham bo'ldi.

Hayyonan-Nabatiy[2] Qutaybaga qarab: «Agar Xudoyi taolo mening sababchiligim bilan bu baloni sendan qaytarsa nima deysan?» – deb so'radi,

[1] *Torob* – bu ham Xunbun yaqinida o'rnashgan Buxoro qishloqlaridan.
[2] *Hayyoni Nabatiy* – Qutaybaning yaqin kishilaridan.

@tarixchi_kutubxonasiga

Qutayba javob berib: «Men o'zim ham shunday yo'l axtarmoqdaman», – dedi. Hayyonan-Nabatiy Qutaybaga: «Menga ertagacha muhlat ber», – dedi. Ertasi tong otganida, Hayyonan-Nabatiy Sug'd (45) maligining oldiga odam yuborib: «Mening senga aytadigan bir nasihatim bor, biz ikkalamiz bir joyda uchrashishimiz kerak», – dedi. Tarxun: «Durust, qay vaqtda uchrashamiz?» – deb so'radi. Hayyon: «Lashkar urushga mashg'ul bo'lib, jang qizigan vaqtda», – dedi. Shunday qildilar. Urush qizigan paytda Hayyoni Nabatiy Tarxun bilan uchrashib: «Mulk qo'lingdan ketibdi-yu, sening xabaring yo'q», – dedi. Tarxun: «Qanday qilib?» – deb so'radi. Hayyon unga: «Biz (arablar) havo issiq vaqtdagina bu yerda tura olamiz, endi havo sovib qoldi va bizning ketish vaqtimiz yetdi. Toki biz bu yerda ekanmiz, bu turklar biz bilan urush qiladilar, bu yerdan ketganimizdan keyin esa sen bilan urush qiladilar, chunki Sug'd viloyati yaxshi joy, yaxshilikda unga o'xshash joy yo'q. Qayoqda, ular Sug'dni senga qoldirib Turkistonga ketadilar? Ular mamlakatingni oladilar, sen esa qiyinchilikda qolasan», – dedi. Tarxun: «Men qanday chora qo'llayman?» – deb so'radi. Hayyon: «Chorang shuki, Qutayba bilan sulh tuzib biror narsa berasan, turklarga esa ahvolni shunday ko'rsatasanki, go'yo Hajjojdan biz (arablar)ga Kesh va Naxshab yo'li bilan ko'p lashkar yordamga kelayotgan bo'ladi. O'zing esa: «Men o'z viloyatimga qaytib ketaman», – deysan; shunda turklar ham qaytadilar. Sen biz bilan sulh qilib, shartnoma tuzganingdan keyin biz senga yomonlik istamaymiz va seni ranjitmaymiz, sen u qiyinchilikdan qutulasan», – dedi. Tarxun: «Menga yaxshi maslahat berding, men shunday qilaman, shu kechayoq qaytaman», – dedi. Kech tushgach, Tarxun Qutayba oldiga odam yubordi, u bilan sulh tuzib mol va ikki ming dirham yubordi. Uning lashkari karnay chalib, qaytishni boshladi. Dehqonlar va amirlar: «Nima bo'ldi?» – deb so'radilar, Tarxun: «Zinhor hushyor bo'ling! Hajjoj Kesh va Naxshab tomonidan ko'p lashkar yuboribdi, ular orqamizdan kelib, bizni o'rtaga oladilar, men o'z viloyatimga qaytaman», – deb javob berdi. Ko'rmag'onun turk odam yuborib bu holdan xabar so'ragan edi, vaziyatdan uni ham boxabar qildilar. U karnay chaldirib qaytishga tushdi va [askarlari] yo'l-yo'lakay viloyatni talab keta berdilar. Xudoyi taolo u baloni musulmonlar boshidan daf qildi. Qutayba to'rt oydan beri u yoqda qolib ketib, shu muddat ichida Qutayba va uning yoronlari haqida Hajjojga biror xabar yetmagan va Hajjojning dili bu tomon bilan mashg'ul edi; masjidlarda Qur'on o'qib, xatmlar qilardilar. Qutayba va uning yoronlari yana Buxoroga bordilar; bu uning Buxoroga to'rtinchi marta kelishi edi. U jang qilar, mol olar, ayrim viloyatlarni talar, ba'zi kishilarni o'ldirar, ba'zilarni asir hamda qul qilib olib, shu tarzda, to Marvgacha borar va yana Buxoro viloyatiga qaytib kelar edi. Xudoyi taolo Buxoroni hamma ofat va balolardan saqlasin! (46)

@tarixchi_kutubxonasiga

## Buxoroning fath etilishi va u yerda islom dinining tarqalishi

Muhammad ibn Ja'farning aytishicha, Tag'shodaning onasi bo'lmish xotinning eri Buxorxudot o'lganida, uning o'g'li podshohzoda [Tag'shoda] kichik yoshli bo'lib, shu xotin podshohlik qilib turdi. Uning zikri Ubaydulloh ibn Ziyod va Said ibn Usmon ibn Affon, – Alloh ularning ikkalasidan rozi bo'lsin, – haqlarida so'zlanganda bayon qilindi. Islom lashkari har safar Buxoroga kelganida, yozda g'azot qilar, qishda esa qaytib ketar edi. U xotin [Buxoroga arablardan] har kim kelsa u bilan ozgina urush qilar, so'ngra sulh tuzar edi. Uning o'g'li kichik bo'lganidan qarindoshlarining har biri bu mamlakatni egallash tamasida edi. [Ilgari] Buxorxudot Buxoroni jang qilib olgan edi.

Buxoro aholisi har safar [islom lashkari kelganida] musulmon bo'lar, arablar qaytib ketganida esa ular yana dindan qaytar edilar. Qutayba ibn Muslim ularni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana dindan qaytib kofir bo'lgan edilar. To'rtinchi marta [kelganida] Qutayba jang qilib Buxoro shahrini oldi, ko'p qiyinchiliklardan keyin [bu yerda] islom dinini yuzaga chiqardi va har turli yo'llar bilan ularga qiyinchiliklar tug'dirib, dillariga musulmonchilikni o'rnashtirdi. Ular esa islom dinini yuzakigina qabul etib, haqiqatda butparastlik qilar edilar. Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga turib, ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisiga o'z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqarishni ma'qul topdi va shu yo'l bilan u musulmonchilikni o'rnatdi hamda shariat hukmlarini bajarishga ularni majbur etdi. Qutayba masjidlar bino qildi, kofirlik va otashparastlik asarlarini yo'qotdi. U ko'p jiddu-jahd qilib, har kimdanki shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo'lsa, uni jazolar edi. U masjidi jome bino qildi va odamlarga juma namozini o'qishga buyruq berdi, toki Xudoyi taolo bu yaxshi ish savobini Buxoro aholisi uchun oxirat zaxirasi qilsin! (47)

## Somoniylar va ularning nasabi haqida

Asad ibn Abdulloh al-Qushayriy Xuroson amiri qilib tayinlangach, Xurosonga keldi va bir yuz oltmish oltinchi (782–783)-yilda[1] vafot etguniga qadar o'sha yerda bo'ldi. Aytishlaricha, u yaxshi ishlarni qiluvchi va bahodir kishi bo'lib, ko'ngli yerli xalqlarning qadim ulug' oilalariga g'amxo'rlik qilishga, aslzodalarni do'st tutishga moyil edi. Somoniylarning bobosi bo'lmish

[1] Asad ibn Abdulloh al-Qushayriy 166 (782–783)-yilda emas, 120 (737–783)-yili vafot etgani manbalar asosida aniqlangan. Binobarin, 166-yilni 120 deb tushunmoq lozim; shuningdek, uning nisbasi «Al-Qushayriy» emas, «Al-Qasriy»dir.

@tarixchi_kutubxonasiga

Somonxudot Balxdan qochib Marvga, uning oldiga kelganida, u Somonxudotni izzatladi va himoya qildi, uning dushmanlariga qahr qilib Balxni unga qaytarib berdi[1]. Somonxudot uning qo'lida [islom dinini] qabul qildi. Uning Somonxudot deyilishiga sabab shuki, u bir qishloq barpo qilib, unga Somon deb nom berdi va Buxoro amirini Buxorxudot deb ataganlaridek, uni ham shu qishloq nomi bilan [Somonxudot deb] atadilar. Somonxudotdan bir o'g'il tug'ilganida, u Asad Qushayriyni do'st tutganidan, o'g'liga Asad ismini berdi. Shu Asad Amiri moziy, [ya'ni] marhum amir Ismoil Somoniyning bobosidir. Ismoil Asadning o'g'li, Asad Somonxudotning o'g'li, Somonxudot esa Bahrom Cho'bin malikning avlodlaridandir. O'sha vaqtdan boshlab Somoniylar davlati kundan kunga rivoj topdi.

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far o'z kitobida Muhammad ibn Solih al-Laysiy va Abulhasan Maydoniydan[2] keltirib mana shunday rivoyat qilgan: Asad ibn Abdulloh al-Qushayriy zamonida bir kishi chiqib, Buxoro aholisini [islom diniga] da'vat qilgan. Buxoroliklar bundan oldinroq zimmiy bo'lib, jizya to'lab turar edilar[3]. [Haligi kishining da'vatiga] bir jamoa odamlar ijobat etib musulmon bo'ldilar. Buxoro podshohi Tag'shoda edi. U o'zi yashirin ravishda kofir bo'lganligi uchun bundan g'azablandi va Xuroson amiri Asad ibn Abdullohga [quyidagicha] xat yozdi: «Buxoroda bir kishi paydo bo'lib, viloyatni betinch qilyapti va bir guruhni bizga qarshi ko'tardi; u guruh biz musulmon bo'ldik, deb yolg'on aytadilar, ular tillaridagina musulmon bo'lganlar, dillarida esa o'zlarining o'sha ilgarigi e'tiqodlari bilan mashg'ullar. Shu bahona bilan ular viloyat va mamlakatning osuda hayotini buzmoqdalar va xiroj to'lamayaptilar». Shu sababli Asad ibn Abdulloh o'zining soliq yig'uvchisi Sharik ibn Harisga xat yozib, unga: «O'sha odamlarni qo'lga olib, Buxoro podshohiga topshir, toki u nimani xohlasa shuni qilsin», – deb buyurdi. Aytishlaricha, u guruh masjidda bo'lib hammalari baland ovoz bilan: «Ashhadu an la ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh», – deyishar va «vo Muhammado», «vo Ahmado» deb faryod qilishar ekan. Tag'shoda Buxorxudot ularning kallasini olar va ularga shafqat qilishni so'rashga hech kim (56) botina olmas edi. Nihoyat, u to'rt yuz kishining boshini oldirdi va dorga ostirdi, qolganlarini esa Asad ibn Abdulloh nomidan asir qilib, uning oldiga, Xurosonga yubordi. Bu jamoadan hech biri islom dinidan qaytmadi; kimki

[1] Ba'zi manbalarga ko'ra, Somon qishlog'i Samarqand atrofida deyilgan, biroq «Buxoro tarixi»dagi bu so'zlar uning Balxga yaqin yerda ekanligidan darak beradi.

[2] *Abulhasan Maydoniy* – akademik V.V. Bartoldning aniqlashicha, «Maydoniy» emas «Madoiniy» yozilishi kerak (Bartold. Turkestan. S.60.).

[3] *Zimmiylar* – islom dini hukmron bo'lgan mamlakatda yashab turuvchi boshqa dinlarga mansub kishilar, islom davlati o'z himoyasida saqlab turganligi evaziga zimmiylar ma'lum soliq – jizya to'lab turganlar.

@tarixchilarkutubxonasiga

[tirik] qolgan bo'lsa, u islom dinida qoldi. Asad ibn Abdulloh bu jamoani islom dinidan qaytarmadi va Tag'shoda Buxorxudot vafot etganidan keyin u jamoa Buxoroga qaytib keldi.

### Nasr [ibn] Sayyor[1] zikri va Tag'shodaning o'ldirilishi

Mana shu bir yuz oltmish oltinchi (782–783) yili[2] Asad ibn Abdulloh vafot etdi va Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvon[3] Xurosonga amir qilib Nasr ibn Sayyorni tayinladi va unga Xurosonni idora qilish uchun farmon yubordi. U Movarounnahrga kelib turklar bilan g'azot qildi va Farg'onani fath etib ularni tarqatib yubordi, o'zi esa Samarqandga qaytdi. U Samarqandga yetib kelganida, Tag'shoda Buxorxudot uning oldiga bordi. Nasr [ibn Sayyor] uning qizini o'ziga so'ratganligi boisidan uni izzat-hurmat qilar edi. Tag'shoda Yuqori Xunbundagi «Koraki alaviyon» – «Ali avlodining ekinzori» deb atalgan yerlarni unga bergan edi.

Tag'shoda Nasr ibn Sayyorning oldiga kelganida, u o'z saroyining darvozasida o'tirgan edi. Shu vaqt Ramazon oyi bo'lib, kun botish payti edi. Nasr ibn Sayyor Buxorxudot bilan so'zlashib turgan edi, Buxorodan ikkita dehqon keldi. Ular ikkovi ham Buxorxudotning qarindoshlaridan va buzrukzodalardan bo'lib, Nasr ibn Sayyor qo'lida islom dinini qabul etgan edilar. Ular Nasr ibn Sayyor huzurida Buxorxudot zulmidan shikoyat qilib: «Buxorxudot bizning qishloqlarimizni tortib oldi», – dedilar. Buxoro amiri Vosil ibn Amr ham shu yerda edi, uning zulmidan ham shikoyat qilib: «Bular ikkovi bir-birini qo'llab, odamlarning mulklarini tortib olmoqdalar», – dedilar. [Shu vaqt] Tag'shoda Nasr [ibn] Sayyorga sekin-sekin [bir narsani] so'zlar edi, ular bundan: «Tag'shoda Nasr ibn Sayyordan bizni o'ldirishni iltimos qilayapti», – deb gumon qildilar va ikkalasi [bir] qarorga kelib, bir-birlariga: «Buxorxudot bizni o'ldirmoqchi ekan, biz [undan oldinroq] o'z ko'nglimizni bir quvontiraylik», – dedilar. Tag'shoda Nasr [ibn] Sayyorga: «Ey amir! Bular ikkalasi sening qo'lingda islom dinini qabul qilgan edilar-ku, nima uchun ular bellariga xanjar bog'laganlar?» – degan edi, Nasr ibn Sayyor ulardan: «Nima uchun belingizga xanjar bog'lab oldingiz?» – deb so'radi, ular: «Buxorxudot bilan bizning oramizda adovat bor, shuning uchun o'zimizni xotirjam deb hisoblamaymiz», – deb javob berishdi. Nasr [ibn] Sayyor Horun ibn Siyovushga buyurib, ularning bellaridan xanjarlarini yechtirdi va g'azab bilan qaradi. Ikki dehqon nariroq

[1] *Nasr ibn Sayyor* – Xurosondagi amirlik yillari: 738–748-y.y.

[2] Bu bobda bayon qilingan voqealar 750–751-yillarda sodir bo'lgan.

[3] *Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvon* – Umaviy xalifalardan, xalifalik yillari: 724–743-y.y.

@tarixiy_kutubxonasiga

turib ularni (57) yo'q qilish chorasini ko'rdilar. Nasr ibn Sayyor namoz o'qimoqqa turib takbir tushirdi va imomlikka o'tib namoz o'qishga kirishdi. Buxorxudot esa namoz o'qimay kursida o'tirar, chunki u haligacha yashirin ravishda kofir edi.

Nasr ibn Sayyor namozdan forig' bo'lgach, saropardaga kirdi va Tag'shodani chaqirdi. Tag'shoda saroy darvozasiga kelganida, oyog'i toyilib yiqildi, [shu payt] ikki dehqondan biri yugurib keldi-da, Buxorxudotning qorniga pichoq urib, qornini yordi. Ikkinchi dehqon esa hanuz namoz o'qishni davom ettirayotgan Vosilning oldiga borib, uning qorniga xanjar urdi; Vosil uni ko'rgan zahotiyoq, tezda qilich urib, dehqonning kallasini uzib tashladi va ularning har ikkalasi ham bir vaqtda o'ldilar. Buxorxudotga xanjar urgan dehqonni Nasr [ibn] Sayyorning farmoni bilan qatl qildilar. Buxorxudotni esa darhol saropardaga oldilar. Nasr [ibn] Sayyor uni o'zining o'rniga suyantirib o'tirg'izdi va tajribali tabib chaqirib uni davolashga buyurdi. [Shunda] Buxorxudot vasiyat qilar edi; bir soat vaqt o'tgach, jon berdi, uning xizmatkorlari kirdilar va go'shtini ajratib [tashlab] suyagini Buxoroga olib keldilar. U o'ttiz ikki yil podshoh bo'lib turdi. Nasr [ibn] Sayyor Vosil ibn Amrga janoza o'qib, o'z saropardasiga ko'mdirdi, Bishr ibn Tag'shodani Buxorxudotlikka o'tirg'izdi va Xolid ibn Junaydni Buxoro amirligiga tayinladi.

## Muqannaning xuruji va uning tobelari – oqkiyimlilar

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far bu faslni o'z kitobida keltirgan-u, lekin to'la (60) bayon etgan emas. «Axbori Muqanna» [nomli kitob]ning muallifi Ibrohim va Muhammad ibn Jarir at-Tabariylarning aytishlaricha,[1] Muqanna Marv atrofi aholisidan, Koza deb atalgan qishloqdan bo'lib, nomi Hoshim ibn Hakim edi. U ilgari kudunggarlik qilar edi, keyin esa ilm o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi va har xil ilmlarni: ko'zbo'yamachilik, sehr va tilsim ilmlarini o'rgandi. Ko'zbo'yamachilikni yaxshi bilib olib, payg'ambarlik da'vosini ham qildi va uni Mahdiy ibn Mansur[2] hijratning bir yuz oltmish yettinchi (783–784) yilida o'ldirdi. Muqanna ko'zbo'yamachilikni o'rgangan va g'oyatda ziyrak bo'lib, qadimgi [olimlar] ilmlariga oid ko'p kitoblarni o'qigan va jodugarlikda ustoz bo'lgan

[1] «Axbori Muqanna» (nomli kitob)ning muallifi Ibrohim va Muhammad ibn Jarir at-Tabariylarning aytishicha...» – Ibrohim bu Abu Ishoq Ibrohim ibn al-Abbos as-Suliy ekanligi haqida Bartold (Бартольд. Туркестан. С.60) gumon bildirgan. Mashhur tarixnavis Tabariyning yashagan yillari: 839–923-y.y.

[2] *Mahdiy ibn Mansur* – Abbosiy xalifalardan, xalifalik yillari: 775–785-y.y.

@tarixchi_kutubxonasiga

edi. Uning otasining nomi Hakim bo'lib, u Abu Ja'far Davonaqiy davridagi[1] Xuroson amiri lashkarboshlaridan biri edi. U Balxdan edi.

Hoshim ibn Hakimni Muqanna deyishlariga sabab shu ediki, u juda xunuk, boshi kal va bir ko'zi ko'r bo'lganidan hamisha boshi va yuziga ko'k parda tutib yurar edi. Shu Muqanna Abbosiylar da'vatchisi Abu Muslim[2] zamonida Xuroson lashkarboshilaridan biri bo'lib, Abduljabbor Azdiyga vazir bo'ldi va payg'ambarlik da'vosini qildi va bir qancha vaqt shu da'voda turdi. Abu Ja'far Davonaqiy odam yuborib, uni Marvdan Bag'dodga keltirdi va bir necha yil davomida zindonda tutdi. Shundan keyin u zindondan qutulib yana Marvga qaytib keldi va odamlarni yig'ib: «Mening kim ekanimni bilasizmi?» – deb so'radi. Odamlar: «Sen Hoshim ibn Hakimsan», – dedilar. U: «Yanglishdingiz, men sizning va butun olamning xudosiman», – og'ziga tuproq, – va yana: «O'zimni qanday nom bilan atashni istasam atayveraman», – dedi hamda: «Men xalqqa o'zimni Odam [Ato] suratida, keyin Nuh suratida, keyin Ibrohim suratida, keyin Muso suratida, so'ng Iso suratida, keyin Muhammad Mustafo, – xudo unga rahmat va salomini yuborsin, – suratida, keyin Abu Muslim suratida ko'rsatgan zotman, endi esa mana o'zingiz ko'rib turgan suratdaman», – dedi. Odamlar: «Boshqalar payg'ambarlik da'vosini qilgan edilar, sen esa xudolik da'vosini qilayapsan», – dedilar. Muqanna: «Ular nafsoniy edilar, men esa ruhoniyman va ularning [badanlari] ichida edim, menda shunday qudrat borki, o'zimni qanday suratda ko'rsatishni istasam, shunday suratda ko'rsataveraman», – dedi.

Muqanna har bir viloyatga noma yozib, o'zining doiy [tashviqotchi] lariga berdi. Nomaga mana shularni yozdi: «Rahmli va mehribon Tangri nomi bilan, sayyidlar sayidi Hoshim ibn Hakimdan falonchi o'g'li falonchiga, hamd xudoga bo'lsin, undan boshqa xudo yo'q, u Odamning ham, Nuh, Ibrohim, Iso, Muso, Muhammad va Abu Muslimlarning ham xudosidir. So'ngra [so'z shuki], qudrat, egalik, izzat va hujjat Muqannanikidir; menga imon keltiring va bilingki, podshohlik menga xos, – (61) unga la'natlar bo'lsin, – azizlik va xudolik meniki, mendan boshqa xudo yo'q, – og'ziga tuproq, – kimki menga imon keltirsa jannat o'shaniki, kimki menga imon keltirmasa do'zax uniki».

U hali Marvda turgan vaqtidayoq har yerga doiylarini yubordi va ko'p (79) xalqni yo'ldan ozdirdi. Marvda arablardan Abdulloh ibn Amr nomli bir kishi bor edi, u Muqannaga imon keltirdi va qizini unga xotinlikka berdi.

[1] Abu Ja'far Davonaqiy davri, ya'ni Abbosiy xalifalardan bo'lgan Mansurning (754–775- y.y.) davri.

[2] Abbosiylar da'vatchisi Abu Muslim zamonida – Abu Muslim Umaviylar xonadoni xalifaligining yiqilishi va Abbosiylar xonadoni xalifaligining o'rnatilishida Abbosiylarga katta xizmat ko'rsatgan shaxs.

@tarixchi_kutubxonasiga

Ana shu Abdulloh Jayhundan o'tib Naxshab va Kesh[1] shaharlariga keldi va har yerda xalqni la'nati Muqanna diniga chaqirib, ko'p kishini yo'ldan ozdirdi. [Bundaylar] Kesh shahrida va uning qishloqlarida ko'proq edi. Dastlab Muqanna diniga kirgan va uning dinini yuzaga chiqargan qishloq Keshning Subax nomli qishlog'i bo'lib, bu yerlik aholining ulug' kishisi Umar[2] Subaxiy edi. Ularning amiri arablardan bo'lib, porso bir kishi edi. Ular qo'zg'olon ko'tarib, uni o'ldirdilar. Sug'dning ko'pchilik qishloqlari Muqanna diniga kirdi, Buxoro qishloqlaridan ko'p kishilar kofir bo'lib, kofirlikni oshkora qildilar. Nihoyat bu fitna kuchayib ketdi va musulmonlar uchun baloyi azim bo'ldi: [muqannachilar] karvonlarni urib qishloqlarni talar va ko'p vayrongarchiliklar yuzaga keltirardilar.

Muqannaning Movarounnahrga borish sababi shunday edi: Muqanna voqeasi haqidagi gap-so'zlar Xurosonga yoyilgach, Xuroson amiri bo'lgan Humayd ibn Qahtaba uni tutishga buyurdi. Muqanna esa o'z qishlog'idan qochib, berkinib yurar edi. Oxiri Muqannaga Movarounnahr viloyati aholisining ko'p qismi uning diniga kirgani va shu dinning tarqalgani ma'lum bo'ldi. U Jayhundan o'tishga qasd qildi. Xuroson amiri: «Jayhun daryosi qirg'og'ida uni soqchilar poylab tursinlar», – deb buyurdi; Muqanna Jayhun daryosidan o'tmoqchi bo'lganida, uni tutib olish uchun yuzta otliq askar Jayhun qirg'og'ining yuqori va quyi qismida kutib turdilar. Muqanna o'ttiz olti kishi bilan Jayhun daryosi labiga kelib, sol tayyorlab Jayhundan o'ta oldi va Kesh viloyatiga bordi. U viloyat Muqannaga bo'ysundi va xalq unga rag'bat qildi. [Shu viloyatdagi] Som tog'i tepasida g'oyatda mustahkam bir hisor bo'lib, unda oqar suv, daraxtlar va ekin yerlar bor edi. Bu hisor [ichida] undan ham mustahkamroq yana bir hisor bor edi. Muqanna uni tuzatishga buyurdi va u yerga ko'p mol va behisob oziq-ovqat yig'di. Soqchilar tayinladi. Oqkiyimlilar ko'payishib ketdilar va musulmonlar ularga qarshi tadbir qo'llashdan ojiz qoldilar. Bu ovoza Bag'dodga borib yetdi; o'sha vaqtda Mahdiy xalifa edi, u juda qayg'urib, Muqannaga qarshi kurashish uchun ko'p lashkar yubordi va oxiri bu fitnani daf qilish maqsadida o'zi ham Nishopurga keldi. Mahdiy islom dini xarob bo'lib Muqanna dini butun dunyoga tarqalishi xavfidan qo'rqar edi.

Muqanna turklarni chaqirdi hamda musulmonlarning qoni va molini (62) ular uchun halol qilib [hukm chiqardi]. Turkistondan talonchilik ta'masida ko'p lashkar keldi. Ular dastlab Buxoroda paydo bo'lishib, viloyatlarni talar, musulmonlarning xotin va bolalarini asir qilib, ba'zilarini o'ldirar edilar.

[1] *Naxshab yoki Nasaf* – hozirgi Qarshi yonidagi qadimiy shahar. Kesh – Shahrisabz va Kitob.
[2] Boshqa nusxalarda Amr.

@tarixchi_kitublxonlarasiga

Muqannaning hammaslaklari bo'lgan oqkiyimlilardan bir guruhi Numijkat deb atalgan bir qishloqqa bordilar va kechasi masjidga kirib muazzin bilan birga o'n besh kishini o'ldirdilar; qishloqni yakson qildilar. Bu voqea bir yuz ellik to'qqizinchi (775–776) yilda sodir bo'ldi. [Bu vaqtda] Buxoro amiri Husayn ibn Maoz edi.

Muqanna toifasining kattalaridan buxorolik Hakim [ibn] Ahmad ismli bir kishi bo'lib, u bilan birga yana uchta lashkarboshi bor edi. Ulardan birining ismi Xashviy, ikkinchisiniki Bog'iy bo'lib, bu ikkovi Fuzayl ko'shkidan edilar. Uchinchisiniki Girdak; u G'ijduvon qishlog'idan edi. Bularning har uchalasi ham jangovar kishilar bo'lib, ayyor va bosqinchi o'g'ri edilar. Ularning qishloq aholisini o'ldirganligi haqidagi xabari shaharga yetgach, (81) Buxoro aholisi jam bo'ldilar va amirning oldiga borib: «Bu oqkiyimlilar bilan, albatta, jang qilishimiz kerak», – dedilar. Bir yuz ellik to'qqizinchi yil rajab oyida (776-y., aprel-may) Husayn ibn Maoz o'z lashkari bilan va Buxoro qozisi Omir ibn Umar ibn Imron Buxoro aholisi bilan chiqib, Narshax qishlog'iga bordilar (hozir bu qishloqni Narshax deydilar) va oqkiyimlilar qarshisida lashkargoh tuzdilar.

Shunda Buxoro qozisi: «Biz ularni haq dinga chaqiramiz, ular bilan urushish biz uchun munosib emas», – dedi. Keyin qozi yaxshi tadbirkor odamlar bilan birga ularni haq dinga chaqirish uchun qishloqqa kirdi. Oqkiyimlilar: «Biz bu siz aytayotgan narsalarni bilmaymiz», – deb kundan kunga kofirliklarini kuchaytirdilar va nasihatni qabul qilmadilar. Shundan keyin jang boshlanib ketdi. Birinchi bo'lib oqkiyimlilarga hamla qilgan kishi arablardan Naim ibn Sahl edi. U ko'p urushlar qilib, bir necha kishini qatl etdi va oxiri o'zi ham o'ldirildi. Oqkiyimlilar yengildilar, ulardan yetti yuz kishi yo'q qilindi va qolganlari qochdilar.

Ertasiga tong otgach, oqkiyimlilar elchi yuborib musulmonlardan omonlik so'radilar va: «Biz musulmon bo'ldik», – dedilar. Musulmonlar ular bilan sulh tuzib, sulhnoma yozdilar va ularga bundan buyon yo'lkesarlik qilmaslik, musulmonlarni o'ldirmaslik, o'z qishloqlariga tarqalish, o'z amirlariga bo'ysunish shartlarini qo'ydilar.

Musulmonlar qaytib ketgach, ular ahdlaridan qaytib yana yo'lkesarlik (63) bilan mashg'ul bo'ldilar. Ular musulmonlarni o'ldirar va endigina bosh tortgan ko'k ekin [don]larni Narshax hisoriga olib ketardilar. Musulmonlarning ishi qiyinlashdi. Xalifa Mahdiy o'z vaziri Jabroil ibn Yahyoni Muqannaga qarshi urushga yubordi. U Buxoroga kelib, Muqannaga qarshi jangga yurish uchun Darvozayi Samarqandda lashkargoh qurdi. Husayn ibn Maoz uning oldiga borib: «Sen [avval] oqkiyimlilarga qarshi urushda menga yordam ber, bu ishdan bo'shagach, biz sen bilan birga Muqannaning [o'ziga] qarshi urushga boramiz», – dedi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Jabroil bu taklifni qabul etdi-da, lashkarini oyoqqa turg'izib Narshax qishlog'iga bordi, qishloq atrofiga xandaq qazishga buyurib, xandaq ichini lashkargoh qildi; oqkiyimlilar kechasi chiqib, hujum qilib qolmasinlar deb, lashkariga hushyor bo'lib turishga buyruq berdi. Xuddi u aytgandek bo'lib chiqdi; oqkiyimlilar dastlabki kechadayoq qishloqdan chiqib hujum qilib ko'p vayronlik keltirdilar. Buxoro amiri Husayn ibn Maoz Jabroilga ko'p mehribonlik ko'rsatib, undan to bu ish tamom bo'lgunicha Keshga ketmay Buxoroda bo'lishini so'radi.

Jabroil urushni boshlab yubordi. To'rt oy mobaynida erta-yu kech uzluksiz urishdilar, oqkiyimlilar g'alaba qozonmagan bir kun ham bo'lmadi. Musulmonlar chorasiz qolib, tadbir izlashga tushdilar. Molik ibn Forim: «Men bir tadbir ko'rsataman», – dedi-da, lashkargohdan to hisor devorigacha ariq kovlashga buyurdi va u yerga qurolli kishilarni yuborib, qancha joy kovlasalar uni cho'p, qamish va tuproq bilan mustahkamlab berkitib borishga buyurdi. [Shu tarzda] hisor devori tagigacha qazib yetdilar va [hisor devori tagini] ellik gaz miqdorida kovlab ustunlar qo'yib mahkamladilar. Ellik gaz joy kovlanib bo'lgach, uni o'tin bilan to'lg'izib neft sepdilar-da, u ustunlar yonib qo'rg'on devori yiqilsin deb o't qo'yib yubordilar. Ammo olov yonmadi, chunki olov yonishi uchun unga shamol tegishi kerak. Hisor ichida esa shamol o'tadigan yo'l yo'q edi. Hisorning tagi kovlanmagan minorasiga palaxmonlarni to'g'rilab qo'yib tosh otgan edilar, teshik ochilib shamol chiqishga yo'l topdi, olov olib ustunlar yondi va hisor devorining ellik gazgacha joyi yiqildi.

Musulmonlar qilichbozlikka kirishib, ko'p kishini o'ldirdilar, qolganlar omonlik tilab, ilgarigi ahdnomaga muvofiq musulmonlarni ranjitmaslik, o'z qishloqlariga qaytib ketish, o'z ulug'larini xalifa oldiga yuborilishiga [rozi bo'lish] va o'zlari bilan birga qurol-yarog' olib yurmaslik shartlari bilan sulh tuzdilar va [qishloqdan] tashqari chiqib xandaqdan o'tdilar. [Ammo] ular yashirin sur'atda qurolga ega edilar. Oqkiyimlilarning kattasi bo'lgan Hakimni Jabroil o'z o'g'li Abbosga topshirib: «Buni olib borib saropardaga qo'y va yashirin ravishda o'ldir», – dedi. Uning amriga (64) muvofiq ish qilib, Hakimni saropardaga olib bordilar. Oqkiyimlilar uzoqdan [qarab] turgan edilar. Jabroil saropardaga borgan edi, oqkiyimlilar Hakimning do'sti bo'lgan Hashviyni yuborib, u orqali Jabroilga: «Biz Hakimni olmasdan ketmaymiz», – dedilar. Hashviy yangi etik kiygan edi. U Jabroilga shu so'zlarni aytib turgan ediki, Jabroilning o'g'li Abbos kelib: «Hakimni o'ldirdim», – dedi. Jabroilning buyrug'i bilan darhol Hashviyni otdan tushirib o'ldirdilar. Oqkiyimlilar qichqirishib qurollarini qo'lga oldilar va jang boshlanib ketdi. Jabroil butun lashkarini otga minishga buyurdi. Ilgarigidan kuchliroq urush bo'ldi. Qattiq janglar qildilar va

@tarixchi_kutubxonasiga

oxiri oqkiyimlilar yana yengilib, ulardan ko'p xalq o'ldirildi; tirik qolganlari qochdilar.

Narshax qishlog'ining hukmdori ayol kishi edi, uning erining ismi Sharaf bo'lib, Abu Muslimning lashkarboshisi bo'lgan va marhum Abu Muslim uni o'ldirgan edi. Bu xotinni Jabroilning oldiga olib keldilar, u bilan amakisining bir o'g'li birga keldi, u nihoyatda badkor edi. Jabroil ayolga: «Abu Muslimning gunohidan kech!» – dedi. Ayol: «Abu Muslim deb musulmonlarning otasiga aytiladi, mening erimni o'ldirgandan keyin u musulmonlarning otasi bo'ladimi?!» – dedi. Jabroilning buyrug'i bilan o'sha ondayoq ayolni va amakisining o'g'lini ayanchli o'ldirdilar.

[Hakimning lashkarboshilaridan biri bo'lgan] Girdak Muqannaning oldiga ketdi. Ulardan biri – Bog'iy esa urushda halok bo'ldi. Jabroil Sug'd oqkiyimlilarining dillarida qo'rqinch hissini uyg'otish uchun o'ldirilgan [boshliq]lar kallasini Sug'dga olib bordi. Sug'd aholisiga Muqannaning lashkarboshilaridan Sug'diyon ismli kishi amir bo'lgan edi; Sug'd aholisi u bilan ittifoqdosh bo'ldilar. Jabroil Sug'd aholisi bilan ko'p urushdi va oxiri Buxoro aholisidan bir kishi Sug'diyonni qatl qildi va bu qavm tarqalib ketdi.

Jabroil u yerdan Samarqandga bordi va to Maoz ibn Muslim Xurosonga amir bo'lguniga qadar[1] turklar va oqkiyimlilar bilan ko'p urushlar qildi.

[Maoz ibn Muslim] bir yuz oltmish birinchi (777–778) yilda Marvga keldi va bu yerdan ish boshlab, Omuy biyoboniga kirib ketdi. Buxoroga yetganida Buxoro aholisi [orasidagi] dehqonlar jangchi kishilarni yig'dilar; besh yuz yetmish ming kishi yig'ildi. Maoz ibn Muslimning farmoni bilan urush qurollarini ko'plab tayyorladilar; u hunarmandlarning lashkar ichida ish beradigan har bir jinsidan uch ming ishchi kishini teshalar, bellar, to'qmoq va boltalar bilan ta'minlab, muhayyo qilib qo'ydi; palaxmonlar, narvonlar va devor teshadigan qurollar ishlatdi va eng yaxshi qurollantirilgan lashkar bilan Sug'dga qarab yuzlandi (65).

Sug'dda oqkiyimlilar ko'p edilar, turk lashkari ham ko'p kelgan edi. Hariyning amiri Hariydan o'n ming qo'y olib kelgan edi, o'zi bilan olib yurdi. Maoz ibn Muslim unga: «Dushmanimiz turklar bu yerda bizga yaqin joyda turibdilar, ular qo'yni juda yaxshi ko'radilar, bu qo'ylarni Buxoroda qoldir yoki menga sot, men ularni lashkarga taqsim qilib berayin!» – desa, u rozi bo'lmadi. Turk askarlaridan bir to'dasi chiqib hujum qildilar-da, hamma qo'ylarni Arbinjon bilan Zarmon[2] o'rtasidagi bir manzilga olib ketdilar. Turklar ketidan lashkar borgan edi, ularning ham ba'zilarini o'ldirdilar, ba'zilari esa mag'lubiyatga uchrab qaytib keldilar.

[1] Maoz ibn Muslim Xurosonga amir bo'lgan vaqt – 777-y.

[2] *Arbinjon va Zarmon* – Buxoro bilan Samarqand orasida yo'l ustida o'rnashgan qishloqlar nomi.

@tarixchi_kitoblar_asiga

Maoz ibn Muslim Sug'd va Samarqandga borib, turklar hamda oqkiyimlilar bilan ikki yilgacha ko'p urushlar qildi, goh u va goh dushman g'alaba qozonar edi. Ikki yildan keyin u Xuroson amirligidan iste'fo berdi va Musayyab ibn Zuhayr az-Zabiy Marvda bir yuz oltmish uchinchi yil jumodulavval oyida (780-y., yanvar-fevral) Xurosonga amir bo'ldi va rajab oyida (780-y., mart-aprel) Buxoroga keldi. Shu vaqt Buxoro amiri Junayd ibn Xolid edi, uni Xuroson amiri Xorazmga yubordi.

Buxoroda Muqanna sarkardalaridan bo'lgan Kulortegin nomli bir sarkarda bor edi, u lashkar va mulozimlar tuzib, Musayyab bilan urushlar qildi.

**Hikoyat.** Muhammad ibn Ja'farning rivoyat qilishicha, Muqanna lashkaridan movarounnahrliklar, turklar va boshqalardan iborat ellik mingi uning hisori darvozasiga yig'ilib, sajda va zoriy qilib undan diydor ko'rsatishni so'radilar. Hech bir javob ololmagach, yana so'rashda davom etib: «O'z egamizning diydorini ko'rmas ekanmiz, bu yerdan qaytib ketmaymiz», – dedilar. Muqannaning Hojib nomli bir quli bor edi, Muqanna unga: «Bandalarimga, – og'ziga tuproq, – ayt, Muso mendan diydor ko'rsatishni so'radi, toqat qilolmasligi sababli ko'rsatmadim. Meni ko'rgan har bir kishi toqat qilolmay darhol o'ladi», – dedi. Ular yalinib-yolvorib yana so'rayverdilar va: «Biz diydor istaymiz, agar o'lsak, bu ayni muddao», – dedilar. Muqanna: «Falon kuni keling, sizga diydor ko'rsataman», – deb va'da berdi.

Shundan keyin Muqanna hisorda o'zi bilan turadigan ayollarga buyurdi. Ular Sug'd, Kesh va Naxshab dehqonlarining qizlaridan iborat bo'lib, yuzta xotin edilar. Muqannaning shunday odati bor edi: qayerda xushro'y qiz va ayol bo'lsa, unga xabar berar edilar va Muqanna uni oldirib kelib, o'zi bilan birga saqlar edi. Hisorda u bilan birga shu ayollar va o'sha xos quldan boshqa hech kim bo'lmas edi. Hisordagilarning oziq-ovqat kabi ehtiyojlari bo'lsa, har kuni bir marta hisor darvozasi ochilar, tashqari tomonda esa bir vakil (66) bo'lib, u kerakli narsalarni tayyorlar, haligi qul vakilni chaqirib u narsalarni hisor ichkarisiga olib kirgach, yana hisor darvozasini berkitar va to ikkinchi kungacha Muqannaning xunuk yuzini hech kim ko'rmas edi. Chunki u yuziga ko'k parda tutib yurar edi. Shunday qilib, u o'sha xotinlarning har biriga oyna olib, hisorning tepasiga chiqib, birbirining ro'baro'sida turishga va quyosh nuri yerga tushgan paytda barcha oynalarni qo'lga olib betafovut bir-biriga ro'baro' qilib tutishga buyurdi. Xalq to'plangan edi. Quyosh nuri oynalarga tushgach, uning aksi bilan o'sha joy nurga to'lib ketdi. Shu vaqt Muqanna quliga: «Ana, qarang! Xudo o'z yuzini ko'rsatyapti deb bandalarimga ayt», – dedi. To'plangan xalq qarab, butun jahonning nurga to'lganini ko'rib qo'rqdilar va hammalari birdan sajda qilib: «Ey Xudo! Qudrating va ulug'ligingni shunchalik ko'rganimiz yetadi, bundan ko'proq ko'rsak yuragimiz yoriladi», – dedilar. Ular hanuz sajdada ekanlar, Muqanna yana quliga: «Sajdadan bosh-

@tarixni_kutubxonasiga

laringizni ko'taring! Xudo sizdan rozi va gunohlaringizdan kechdi deb ummatlarimga ayt», – dedi. Jamoa qo'rqib, vahimaga tushgan holda boshlarini sajdadan ko'tardilar. Shu vaqt Muqanna: «Hamma viloyatlarni sizlar uchun halol qildim. Kimki menga imon keltirmasa uning qoni, moli va farzandlari siz uchun halol», – og'ziga tuproq, – dedi. Shundan keyin o'sha jamoa talonchilikka yuz o'girdi.

### Muqannaning halok bo'lish sababi

Hirot amiri bo'lgan Said ko'p lashkar bilan Muqanna hisorining darvozasiga kelib qo'ndi, uylar, hammomlar qurib, yozin-qishin shu yerda bo'ldilar.

Hisorning ichida chashma, daraxtlar va ekinzorlar bor edi. Muqannaning xos kishilari va sipohsolorlar kuchli lashkar bilan hisor ichida edilar. Hisor ichkarisida, tog' tepasida yana boshqa bir hisor bo'lib, u hisorga hech kimga yo'l yo'q edi. Muqanna [shu] hisorda turar edi.

Uning odati shunday ediki, ular bilan har kuni birga ovqatlanar va sharob majlisida birga sharob ichar edi. Shu tartibda u o'n to'rt yil hayot kechirdi. [Oxiri] Hirot amiri uning ishini og'irlashtirib, lashkarlari tarqalib ketdi, hisorda bo'lgan sipohlar esa hisor darvozasini ochdi va bo'ysunib tashqari chiqdi; islom dinini qabul etdi. Musulmonlar hisorni oldilar. Muqanna ichki hisorni saqlab qololmasligini tushundi.

Muhammad ibn Ja'farning Kesh dehqonlaridan bo'lgan Abu Ali Muhammad ibn Horundan rivoyat qilishicha, Abu Ali shunday degan: «Mening buvim Muqannaning o'zi olib kelib hisorda saqlab turgan xotinlari jumlasidan bo'lgan ekan. U shunday (67) hikoya qilar edi: «Bir kuni Muqanna xotinlarni o'z odati bo'yicha ovqat yeyishga va sharob ichishga o'tirg'izib, sharob ichiga zahar soldi-da, har bir xotin uchun bittadan xos qadah tutqizib aytdi: «Men o'z qadahimdagi sharobni ichganimda sizlar ham qadahlaringizni butunlay bo'shatishingiz lozim». Hamma xotinlar ichdilar, men esa ichmasdan sharobni ko'ylagim yoqasiga to'kdim, Muqanna buni payqamadi. Hamma xotinlar [hushsiz] yiqilib o'ldilar; men ham o'zimni ularning orasiga tashlab o'lganga solib yotdim, Muqanna mening holimdan bexabar edi. Keyin Muqanna o'rnidan turib qarab, hamma xotinlarning o'lib yotganini ko'rdi-da, o'z qulining oldiga bordi va qilich bilan uning kallasini kesdi. Muqannaning farmoni bilan, uch kundan beri tandir qizitayotgan edilar. Muqanna o'sha tandir oldiga borib kiyimini yechdi va o'zini tandirga otdi. Tandirdan bir tutun chiqdi. Men u tandir oldiga borib, uning vujudidan hech asar ko'rmadim. Hisorda biror tirik kishi yo'q edi.

@tarixchi_kutubxonasiga

Uning o'zini o'zi kuydirishiga sabab shu ediki, u hamisha: «Qachon bandalarim menga bo'ysunmasalar, men osmonga chiqib u yerdan farishtalarni olib kelaman va ularni bo'ysundiraman», – der edi. Xalq: «Muqanna farishtalarni olib kelib, bizga osmondan yordam berish uchun osmonga chiqib ketdi; uning dini dunyoda [abadiy] qoladi», – desin deb Muqanna o'zini o'zi kuydirdi. Shundan so'ng haligi ayol hisor darvozasini ochdi va Said Harashiy kirib u yerdagi xazinani oldi».

## ABULFAZL MUHAMMAD IBN HUSAYN BAYHAQIY VA UNING «TARIXI MAS'UDIY» ASARI

Abulfazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy 385/995-yilda Xurosonning Nishopur viloyatiga qarashli Bayhaq nohiyasida dunyoga keldi. Taxminan 1021-yili u Sulton Mahmud G'aznaviy (998–1030) saroyiga insho (yoki rasoil) devoniga xizmatga jalb etiladi va qariyb 25 yil davomida ushbu rasmiy hujjatlar maskanida dabir (kotib) sifatida ish yuritadi. Mahmud G'aznaviyning o'g'li Sulton Mas'ud (1031–1041) hukmronligi davrida Abulfazl mazkur devonning boshlig'i Abu Nasr ibn Mishkonning o'ng qo'liga, Sulton Mas'udning ishonchli va yaqin mulozimlaridan biriga aylanadi. Uning o'z asaridan ma'lum bo'lishicha, Bayhaqiy qo'shni mamlakatlar podshohlari bilan olib borilgan yozishmalar, G'aznaviylar davlatining ichki ishlariga doir hujjatlar, jumladan, maxfiy xatlar bilan tanish bo'lgan, ularni bitishda bevosita ishtirok etgan.

Ammo Sulton Mas'ud vafotidan ko'p o'tmay, Abulfazl Bayhaqiy xizmatdan chetlashtiriladi va Mas'udning ukasi Sulton Abdurashid (1049–1053) hokimiyatni qo'lga olgandan keyingina yana xizmatga tiklanib, insho devoniga boshliq etib tayinlanadi. Biroq Abdurashid hukmronligining oxirlariga kelib, u yana quvg'inga uchraydi va chamasi, xizmatga boshqa jalb etilmagan. Abulfazl Bayhaqiy 1077-yilda dunyodan o'tadi.

Bayhaqiy 1056-yilda o'z asarini yozishga kirishadi. Qachon tugatilganligi noma'lum, ammo 1063-yili hali asar ustida ishlayotgan bo'lgan. Boshqa bir bayhaqlik muarrix Abulhasan Bayhaqiyning guvohlik berishicha, «Tarixi Mas'udiy» 30 jilddan iborat edi. Asarni rus tiliga tarjima qilgan sharqshunos A.K. Arends bu ma'lumotni shubha ostiga olib, aslida uning jildlari kamroq bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi. Nima bo'lganda ham, afsuski, asar to'liq holda saqlanib qolmagan: faqat beshinchi jildning oxiri, 6–9-jildlar va 10-jildning boshlanish qismi bizgacha yetib kelgan, xolos.

Muallif asarni qanday nomlagani ham ma'lum emas. Mavjud jildlar asosan mazkur g'aznaviy hukmdor Sulton Mas'ud hukmronligi voqealarini o'z ichiga olishi tufayli, asarni shartli ravishda «Tarixi Mas'udiy», ba'zan esa «Tarixi Bayhaqiy» nomlari bilan yuritishadi.

@tarixchi_kutubxonasiga

«Tarixi Mas'udiy»da G'aznaviylar davlatining 10 yildan ziyod davr tarixining mufassal bayonidan tashqari Safforiylar, Somoniylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar davlatlari, turkman qabilalari va Xorazm tarixiga oid muhim ma'lumotlar bor. Bu ma'lumotlarning ko'pchiligi boshqa manbalarda uchramaydi. Qolaversa, muallif asosan o'zi ko'rgan, ishonchli zamondosh kishilaridan eshitgan voqealarni qalamga olgan. Asarning qimmatini oshiruvchi yana bir g'oyat muhim narsa shuki, unda buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy qalamiga mansub, bizgacha yetib kelmagan «Mashohir Xorazm» («Xorazmning mashhur kishilari») asaridan ayrim parchalar keltirilgan. Bayhaqiyning asari til xususiyatlari va bayon uslublari bilan ham fors tarixnavisligi tarixida alohida o'rin egallaydi.

«Tarixi Mas'udiy»ning matni bir necha marta turli olimlar tomonidan nashr etilgan. Ushbu tarjima eronlik olim Ali Akbar Fayozning nashri[1] asosida, A.K. Arendsning ruscha tarjimasidan[2] foydalangan holda amalga oshirildi.

**N. Toshev**

## ABULFAZL MUHAMMAD IBN HUSAYN BAYHAQIY. «TARIXI MAS'UDIY»DAN

### To'rt yuz yigirma ikkinchi yil (1030–1031) tarixi

### (246) Bu vaqtda Qodirxon[3] huzuriga ikki tomon orasidagi nikoh bitimi va ahdnomani yangilash uchun elchi jo'natilishi zikri

Yuqorida g'oyat mufassal hikoya qilganimdek,[4] amir Mahmud[5] Qodirxon bilan uchrashib, o'zaro do'stlik bitim va ahdnoma bilan mustahkamlangan paytdagi kelishuvga binoan, biz tomondan aslzoda Zaynab[6] Qodirxonning o'g'li Yig'onteginga – u keyinchalik Bo'g'roxon[7] degan nom oldi – unashtirilgan edi. Yig'ontegin o'tgan yili – 449 (1057–1058)-yilgacha tirik edi va chunon hirsga berildiki, (247) Arslonxon[8] uni ag'darib tashlab,

[1] Bayhaqiy. *«Tarixi Bayhaqiy»*.

[2] Bayxaki. *«Istoriya Mas'uda»*.

[3] *Qodirxon* – Qodirxon Yusuf ibn Horun (1026–1032) – Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilgan Qoraxoniy podshoh.

[4] «Tarixi Bayhaqiy»ning bizgacha yetib kelgan qismida bu hikoya yo'q.

[5] Amir Mahmud – ya'ni Mahmud G'aznaviy. Bayhaqiy G'aznaviylar sulolasi vakillarini asosan «amir», ba'zan esa «sulton» unvoni bilan zikr etadi.

[6] *Zaynab* – Mahmud G'aznaviyning qizi.

[7] *Bo'g'roxon Mahmud (yoki Muhammad)* – Shosh va Tarozda hukmdorlik qilgan Qoraxoniy. Shahzodalik paytida Yig'ontegin deb atalgan.

[8] *Arslonxon* – Abu Mansur (yoki Abulmuzaffar) Muhammad ibn Ali, Movarounnahrda hukmronlik qilgan qoraxoniy.

@tarixiy_kutubxonasiga

shunday qudratli jiyanini o'ldirdi... Qodirxonning qizlaridan birini amir Muhammadga[1] unashtirishdi, chunki u vaqtda amir Mahmud tomonlarning barcha masalada Muhammadni qo'llab-quvvatlashlarini ixtiyor etardi. Axir, g'ayb pardasi ortida nima borligini u qaydan bilsin? Keyin amir Muhammad dorga tushib, u qizni olib kelish mumkin bo'lmay qolgach, amir Mas'ud nomiga yangi nikoh bitimi tuzish zarur bo'lib qoldi.

Shu yili rabiulavval oyining uchinchisi (1031-y., 28-fevral) dushanba kuni [amir Mahmud] vazir Xoja Ahmad va ustodim Bu Nasr[2] bilan xilvat qurib, ushbu masala xususida maslahatlashdilar. Oxiri, shartnoma va nikoh bitimini tuzish uchun ikki elchini – bitta nadimlardan va bitta qozilardan – noma bilan jo'natishga kelishildi. (248) Yakdillik bilan Xoja Abulqosim Husayriy – u hozir ham tirik – va Tabboniylar xonadonining ulug'laridan biri bo'lmish Abu Tohir Tabboniyni [tanlashdi].

### To'rt yuz yigirma sakkizinchi yil (1036–1037) tarixi

(660) ...O'n to'qqizinchi muharram (1036-y., 12-noyabr) juma kuni Saljuqiylarning ikki nafar elchisini lashkargohga olib keldilar va yaxshi ziyofat berdilar: biri buxorolik donishmand, so'zamol bir kishi, ikkinchisi, aytishlaricha, u qavmga yaqin bo'lgan bir turkman edi. Keyingi, shanba kuni amir benihoya tantanali hamda takallufli qabul marosimi o'tkazdi. Elchilarni [amir Mas'ud] oldiga olib chiqishdi, ular ta'zim bilan sadoqat izhor etdilar. Ularni vazir devoniga olib borishdi. Rasoil devonining boshlig'i Xoja Bu Nasr Mishkon ham o'sha yerga bordi va ular xoli qoldilar. [Saljuqiylar] vazir Xoja Ahmad ibn Abdusamad nomiga noma yozgan edilar, [bundan tashqari og'zaki] payg'omni bayon etdilar.

Payg'om quyidagicha edi: «Shu paytga qadar biz hech qanday tajovuzkorlikka qo'l urmadik. Ammo sir emaski, Xurosonda boshqa turkmanlar bor, qolaversa, yana boshqalari kelurlar, chunki Jayhun va Balxonkuh[3] yo'llari ochiqdir. Bizga berilgan bu viloyat tor va bizdagi bor odamlarni sig'dirolmaydi. Ulug' xoja o'rtaga tushib, olampanoh sultondan sahro chetida joylashgan Marv, Saraxs va Bovard[4] kabi shaharchalarning bizga berilishini so'rasinlar, toki hukmdorning sohibbaridlari, qozilari va sohibdevonlari[5] [u yerda] bo'lib, soliq yig'ib olsinlar va maosh tarzida bizga bersinlarki,

[1] *Amir Muhammad* – Mahmud G'aznaviyning ikkinchi o'g'li, amir Mas'udning ukasi. Ikki marta (1030 va1041-yillarda) qisqa muddatga G'aznaviylar taxtiga o'tirgan.

[2] *Bu Nasr* – ya'ni Abu Nasr ibn Mishkon. Bayhaqiy ko'pincha «Abu» kunyasini qisqacha «Bu» shaklida keltiradi.

[3] *Balxonkuh* – hozirgi Turkmaniston hududidagi tog'.

[4] *Marv (Mari), Saraxs, Bovard* – hozirgi Turkmaniston hududida joylashgan qadimiy shaharlar.

[5] *Sohibbarid* – pochta xizmatining boshlig'i. Sohibdevon – moliya devonining boshlig'i, vazir.

@tarixchi_kitobxonasiga

biz olampanohning lashkari bo'lib, Xurosonni fitnachilardan tozalaylik. Agar Iroqda yoki boshqa joyda biron xizmat bo'lsa, bajo keltirgaymiz va (661) har qanday mushkul ishga bel bog'lagaymiz. Suboshi hojib[1] va qo'shinlar Nishopur va Hirotda maqom qurishsin. Mabodo ular bizga qasd qilsalar, biz noehor uni daf etishga kirishmog'imiz lozim bo'ladi va oradan hurmat ko'tarilgay. Bizning iltimosimiz shu, ammo ra'yi oliy [hammasidan] yuqoriroq».

Bu Nasr chiqib ketdi va ularning aytganlarini amirga so'zlab berdi. Amir: «Elchilarni chiqarib yuboringlar, siz ikkalangiz esa oldimga kelinglar, bu haqda so'zlashamiz», – deb javob berdi.

Vazir va Bu Nasr Sultonning huzuriga ketdilar. Amir qattiq g'azabda edi. U vazirga dedi: «Bu qavmning sitami, surbetligi-yu xiraligi haddan oshdi. Bir tomondan, ular Xurosonni tit-pit qildilar, ikkinchi tomondan esa, bunday o'yin ko'rsatib, mahbubaning gapini qilmoqdalar. Bu elchilarni qaytarib yubormoq va aniq-oydin qilib: «Siz-u bizning oramizda shamshir, qo'shinlar [sizga qarshi] jang uchun jo'natilgan va biz hozir Bustdan[2] chiqib, Hirotga yurgaymiz», – demoq lozim». Vazir dedi: «Bu qavm shu tariqa gap qilayotgan va xotirjam andisha pardasini ko'tarmayotgan ekan, bu yaxshi. Bandaning fikricha, ularga keskin va [ayni chog'da] yumshoq javob qaytarilsa, toki oradan xushmuomalalik yo'qolmasin. Qachonki hukmdor farmoyish bersalar, banda Hirotga borgay va ulug' hojib hamda tamom lashkar ham u yerga kelgay, ularning ishiga hozirlik ko'rilib, sulh yo jang bilan hal etilgay. Olampanoh ham bizga yaqin joyda bo'lurlar; agar ehtiyoj tug'ilsa, harakatga tushurlar».

«Bu tuzuk, – dedi amir, – elchilarni xuddi shu tariqa qaytarib yubormoq joiz. Nimaiki yozish kerak bo'lsa, Xoja Bu Nasr o'zi yozadi va ularni yaxshilab uyg'otadi, tokim ular tush ko'rishmasin. Va deydiki, endi sen, Ahmad, kelasan va bu ishni bir yoqlama qilasan». Har ikkalasi qaytib ketdi. Ikki-uch kun shu xususda (662) munozara qilishdi, nihoyat, elchilar bilan bir bitimga keldilar. Javob xati hamda payg'om berib, xil'at va sovg'a[3] topshirdilar hamda payshanba kuni, muharram oyidan besh kun qolganda (1036-y., noyabr) ularni Xuroson tomon qaytarib kuzatdilar. Safar oyining birinchisi (1036-y., 24-noyabr) seshanba kuni Hirot, Bodg'is va G'archiston[4] baridlari noiblaridan Dovud turkman[5] 4000 nafar qurollangan

[1] *Suboshi Hojib* – «suboshi» («lashkarboshi») va «hojib» mansablari sohibi bo'lgan bu shaxsning asl ismi keltirilmagan.

[2] *Bust* – hozirgi Afg'onistondagi Qal'ayi Bist.

[3] Matnda «xil'at» (xalat) va «silat». A.K. Arends «sulh berishdi» tarzida tarjima qilgan. Bu tarjimon foydalangan matnning xatosi bo'lsa kerak.

[4] *Bodg'is* – Hirot va Saraxs o'rtasida joylashgan shahar. G'archiston – Afg'oniston hududida, Murg'ob daryosining yuqori oqimidagi tog'li nohiya.

[5] *Dovud* – ya'ni saljuqiy Chag'ribek Dovud.

@tarixchi_kutubxonasiga

suvoriy bilan Raboti Razan, G'ur[1] va Siyohkuh[2] yo'li orqali G'azninga[3] yurdi», degan mazmunda xat keldi...

### (692) Amir Mas'ud bilan Bo'g'roxon o'rtasida paydo bo'lgan ixtilof, amirning Bu Sodiq Tabboniyni Turkistondagi Koshg'ar va Taroz tarafga elchilikka jo'natishi va u ixtilofning Arslonxon vositasida bartaraf bo'lishi zikri

Marhum amir davri haqidagi [hikoyamda] keltirgan edimki, Bo'g'roxon o'z otasi davrida – u paytda uni Yig'ontegin deb atashardi – G'azninga borish uchun Balxga kelgan, chunki u marhum amirning hur qizi Zaynabning qallig'i bo'lib, (693) biz va'da qilgan ko'mak bilan Buxoro, Samarqand va o'sha hududni Alitegindan[4] tortib olishsin uchun, Zaynab unga unashtirilgan edi. U [bizdan] shunday javob oldi: «Orqaga qaytmoq va hamjihatlik ila ish ko'rmoq lozim, zero biz Sumnotga[5] yurish niyatidamiz. Biz buni nihoyasiga yetkazib, siz ham Turkiston xonligini olganingizdan so'ng buning chorasi topilur». Yig'onteginning Balxdan darg'azab bo'lib qaytib ketishi, so'ngra bizning g'azotdan qaytib kelishimiz, ularning xonlikni olishlari va akasi To'g'onxon qulatilgandan so'ng Alitegin bilan jang qilish uchun kelishlari, bu yerdan faqih Bu Bakr Husayriyning Marvga yuborilishi, bo'lib o'tgan janglar va Arslonxon birodari Bo'g'roxonning bizga qo'shni bo'lishini xohlamasligi bois yana sulh tuzilishi, Bo'g'roxonning yanada umidsizlikka tushishi [voqealari] ushbu asardagi alohida bobda naql qilingan edi. Undan keyin aslzoda Zaynabni yuborishning iloji bo'lmadi, chunki amir Mahmud vafot etib, saltanat taxtiga amir Mas'ud o'tirdi, bir yil o'tgach, Qodirxon dunyodan o'tdi. Valiahd bo'lgan Arslonxon Turkiston xoniga aylanib, Taroz[6] va Ispijob[7] viloyatlari hamda o'sha hududlarning barini ukasi Bo'g'roxonga berib, unga shu laqabni qo'ydi. Zohiran ularning oralari yaxshi, ammo ichdan yomon edi.

Yuqorida hikoya qilganimizdek, amir Mas'ud Xoja Abulqosim Husayriy bilan mazkur imom Bu Sodiq Tabboniyning qarindoshi qozi Bu Tohir Tabboniyni (694) nikoh bitimi va shartnomani yangilash uchun Arslonxon va Bo'g'roxon huzuriga elchi etib yo'lladi. Ular borib, uzoq muddat qolib ketishdi, axiyri vazifa uddalanib va maqsadga erishilib, ular Qodirxonning Sulton Mas'udga atalgan qizi hamda Arslonxonning

[1] *G'o'r* – hozirgi Afg'oniston hududida, Hirotdan janubi-sharqda joylashgan tog'li viloyat.
[2] *Siyohkuh* – Afg'onistondagi tog'.
[3] *G'aznin (G'azni, G'azna)* – Afg'onistondagi shahar; G'aznaviylar davlatining poytaxti.
[4] *Alitegin* – Ali ibn Bo'g'roxon al-Hasan Horun, Buxoro va Samarqandda hukmronlik qilgan qoraxoniy.
[5] *Sumnot* – Hindistondagi shahar.
[6] *Taroz* – hozirgi Qozog'istondagi Taroz shahri.
[7] *Ispijob* (Isfijob) – Qozog'iston hududidagi hozirgi Sayram.

@tarixchi kutubxonasiga

amir Mavdudga[1] atalgan qizi bilan orqaga qaytishdi. Amir Mavdudga atalgan xotun yo'lda olamdan o'tdi, qozi Tabboniy ham Parvonda[2] [bu dunyoni tark etishga] farmon oldi. Abulqosim esa xizmatkorlar-u kajava bilan G'azninga yetib keldi va to'y bo'lib o'tdi.

Bo'g'roxon bizning elchilar bilan bir hojibni donishmand kishi hamroh ligida elchi etib jo'natgan va Arslonxon shu xususda gapirdi, deb aslzoda Zaynabni jo'natishni so'ragan edi. [Zaynabni] yo'lga kuzatmoqchi ham bo'ldilar, ammo amirning qulog'iga: «Bo'g'roxon meros borasida, «[amir Mas'ud bilan] aka-singil bo'lgani orqasida Zaynabning [saltanatdan] ulushi bor», degan nojo'ya gaplarni gapirdi», – deb yetkazishdi. Bu gapdan amir qattiq ranjidi va Bo'g'roxonning elchisini talabini qondirmay, boshqa muddatga yaxshi va'da berib qaytarib yubordi, Arslonxonga esa shikoyat qilib noma bitdi va bu xomtamalik haqida so'zladi. Arslonxon o'ylamay bunday bema'ni gapni gapirgani uchun ukasiga ta'na qildi. Bo'g'roxon qattiq xafa bo'ldi va butunlay o'zidan ketib, ham akasiga, ham bizga haqiqiy dushmanga aylandi. Ish shu darajaga yetdiki, Saljuqiylar Xurosonga kelib, Bektug'dini[3] mag'lubiyatga uchratganlarida va bu xabar Turkistonga yetganda, ayg'oqchilar Bo'g'roxonning ichiqoralik bilan xursandchilik qilgani haqida yetkazdilar...

(695) Keyin Omuya kechuvida bir shubhali etikdo'zni ushlab, so'roq qilishdi. U Bo'g'roxonning josusi ekanligini, turkmanlar yoniga borayotganini, ularga nomalar borligini va ularni bir joyga yashirganini bo'yniga oldi. Uni saroyga jo'natishdi. Ustodim Bu Nasr u bilan yolg'iz qolib, ahvolni taftish etdi. Etikdo'z aybiga iqror bo'lib, to'rvasidan etikdo'zlik asbob-anjomlarini chiqardi. Yog'och [dastak]ning ichini o'yib, xatchalarni o'sha teshikka qo'yishgan, so'ng yog'och tarashasi bilan uni bekitishgan va sezilmas darajada dastak rangiga bo'yab qo'yishgandi. «Buni Bo'g'roxon o'zi yasadi», – dedi etikdo'z. [Bu Nasr] u odamni bir joyga yashirib qo'yib, xatchalarni amirning oldiga olib bordi. Hammasida tamg'a nishoni bo'lib, To'g'ril[4], Dovud, Payg'u[5] va yinoliylarga[6] yozilgan edi. [Bo'g'roxon Saljuqiylarni] rosa gijgijlagan va bizning ishimizni ularning ko'z-u ko'ngliga yengil qilib ko'rsatgan: «Bardam bo'lingiz, har qancha odam kerak bo'lsa, so'rang, jo'natamiz», – degan edi.

---

[1] *Amir Mavdud* – amir Mas'udning o'g'li, 1041–1048-yillarda hukmronlik qilgan.

[2] *Parvon* – shunday nomli bir necha joy ma'lum. Bu yerda Panjsher daryosi vodiysidagi shahar nazarda tutilmoqda.

[3] *Bektug'di* – Mas'udning lashkarboshilaridan biri. Bu yerda Bektug'dining 1035-yil yozida saljuqiylardan mag'lub bo'lishiga ishora qilinyapti.

[4] *To'g'ril* – To'g'rilbek Muhammad, Buyuk saljuqiylarning birinchi vakili (1038–1063).

[5] *Payg'u* – To'g'ril va Dovudning amakivachchasi.

[6] Muallif, aftidan, saljuqiy Yusuf Yinolning avlodlarini nazarda tutmoqda. Har holda «yinol» harbiy unvoni sohiblari haqida so'z borayotganligining ehtimoli kamroq.

@tarixchi_kutubxonasiga

Amir bundan qattiq xavotirga tushdi va dedi: «Arslonxon nomiga maktub bitib, chopar yubormoq va bu xatchalarni jo'natib, «[Bo'g'roxonning] ishi yaxshi emas, xon esa bunga rizolik bersa», demoq lozim...».

(696) Amir, vazir va Bu Nasr Mishkon xoli qoldilar va Bu Tohir [Tabboniy]ga qarindosh bo'lgani uchun bu elchilikka imom Bu Sodiq Tabboniyni ixtiyor etdilar...

## To'rt yuz o'ttizinchi (1038–1039) yil tarixi

(749) Amir [Mas'ud] Balxdan shu oyning o'n to'qqizinchisi [1038-y., dekabr] dushanba kuni Termiz tomon ravona bo'ldi. Ko'prikdan o'tib, u Termiz qal'asi oldidagi maydonga tushdi. Ushbu safarda ustodim amir bilan birga edi, men ham u bilan ketdim. Shunday sovuq ediki, biron kishi umri davomida bunaqasi bo'lganini eslay olmadi. Shu oydan sakkiz kun qolganda (23-dekabr), payshanba kuni amir Termizdan chiqib, shu oyning so'nggi kuni (30-dekabr) yakshanbada Chag'oniyonga[1] yetdi. U yerdan amir rabiuloxirning uchinchisi (1039-y., 2-yanvar) chorshanba kuni chiqib, Shumon[2] darasi yo'li bilan ketdi, chunki Bo'riteginning[3] o'sha yerda ekanligini aytishgandi. U yerning ayozi boshqacha bo'lib, muttasil qor yog'ardi. Hech bir safarda qo'shin bu galgidek azob chekmagandi.

Shu oyning to'qqizinchisi (8-yanvar) seshanba kuni to'g'ri yo'l bo'ylab ketma-ket qo'yilgan suvoriylar orqali vazirning maktubi yetib keldi. (750) Vazir yozgan edi: «Xabar yetdiki, Dovud kuchli bir qo'shin bilan Saraxsda Guzgononga[4] yurdi, niyati Andxud[5] yo'lidan Jayhun yoqasiga kelish. Ayonki, u ko'prikni buzib, daryo bo'yini egallash va katta g'alayon ko'tarish niyatidadir. Banda buni yetkazishimdan maqsad, mushkul ahvolning oldini olish uchun tadbir ko'rilsa. Agar, xudo ko'rsatmasin, ko'prikni buzishsa, sharmandalik yuz bergay».

Amir juda bezovta bo'ldi. Bo'ritegin Shumondan chiqib, darani ishg'ol etgan, zero u bu yerni yaxshi bilar va yaxshi yo'lboshlovchilarga ega edi. Biron ish chiqmagach, shu oyning o'n ikkinchisi (11-yanvar) juma kuni amir u yerdan qaytdi va jadal yurib Termizga keldi. Bo'ritegin fursatdan foydalanib, yukning bir qismini o'g'irladi va zaxiradagi bir necha tuya va otlarni haydab ketishdi. Sharmsorlik va dilsiyohlik bo'ldi. Amir rabiuloxir oyining yigirma oltinchisi (25-yanvar) juma kuni Termizga yetib keldi. Kutvol Bek-

[1] *Chag'oniyon* – Surxon daryosi vodiysidagi viloyat va taxminan hozirgi Denov shahri yaqinida joylashgan shahar nomi.

[2] *Shumon* – hozirgi Tojikiston hududidagi shahar.

[3] *Bo'ritegin* – keyinchalik Ibrohim Tamg'ochxon nomi bilan Movarounnahrda hukmronlik (1052–1068) qilgan qoraxoniy.

[4] Guzgonon (Guzgon; arabcha shakllari: Juzjon, Juzjonon) – hozirgi Afg'onistonning shimoli-g'arbidagi viloyat.

[5] *Andxud* – Balx bilan Marv orasida joylashgan shaharcha.

@tarixchi_kutubxonasiga

tegin chavgondor bu safarga amir bilan birga chiqqan va maqbul xizmatlar qilgan edi. Bundan tashqari, uning noiblari va qal'a sarhanglari bu yerda tamom ehtiyotkorlik choralarini ko'rgan edilar. Amir ularni juda maqtab, xil'at in'om etdi. Keyingi kuni amir Termizda bo'lib, so'ng shu oydan ikki kun qolganda (27-yanvar), yakshanba kuni ko'prikdan o'tdi. Jumoduloxir oyining ikkinchisi (1-mart) chorshanba kuni u Balxga keldi.

Shu oyning yettinchisi (6-mart) dushanba kuni Nishopurdan quyidagi mazmunda nomalar yetdi: «Dovud (751) akasini ko'rish uchun Nishopurga keldi va 40 kun mobaynida o'sha yerda hamda Shodyoxda[1], o'sha ko'shkda, maqom qurdi. To'g'ril unga besh yuz ming dirham mukofot berdi. Bu pul va boshqa kerakli mablag'ning hammasini Bo'zgon[2] sardori taqdim etdi. [Dovud] Nishopurdan qaytib, Guzgononga borish uchun Saraxs tomon ketdi».

## (902) Xorazm viloyati tarixi

(905) ...Bu tarixni boshlar ekanman, men faqat o'zim ko'rgan yoxud ishonchli kishilardan eshitgan chin narsalarni yozishni o'zimga majburiyat etib oldim. Bundan ancha muddat burun (906) men ustod Abu Rayhon[3] xati bilan bitilgan bir kitobni ko'rdim. U esa ijod, donishmandlik, handasa va falsafada o'z davrida yakto bo'lib, hech narsani shunchaki yozmasdi. Gapni cho'zishimdan maqsad shuki, mening bu tarixni yozishda qanchalar ehtiyot ekanligim ravshan bo'lsin...

Xorazm haqidagi bu naqlni Ma'muniylardan boshlashni ma'qul ko'rdimki, bu bilan ustod Abu Rayhonni davom ettirdim. Abu Rayhon ular davlatining zavol topishi nima sababdan yuz bergani va qanday qilib Mahmud davlatiga qo'shib olingani, marhum amir u yerga qay vaqtda borgani va uning farmoni ostida u mamlakatning nima bo'lgani, hojib Oltuntoshni[4] u yerga qo'yib, o'zi qaytib ketishi, shuningdek, undan so'ng to Oltuntoshning o'g'li Horunning Xorazmga nisbatan osiy bo'lib, xoinlar yo'liga kirishi hamda Oltuntosh xonadonining qulashigacha qanday voqealar sodir bo'lgani haqida so'zlab bergan.

## (907) Xorazmshoh Abulabbos hikoyati

«Xorazmning mashhur kishilari» [kitobi]da Abu Rayhon shunday yozadi: «Xorazmshoh Abulabbos Ma'mun ibn Ma'mun so'nggi [ma'muniy] hukmdor bo'lib, uning vafotidan keyin bu xonadon barham topdi va Ma'muniylar davlati poyoniga yetdi. U fozil, jasur, serg'ayrat va ishlarda g'oyat sabotli

[1] *Shodyox* – Nishopur yaqinidagi shaharcha.
[2] *Bo'zgon (Bo'jgon)* – Nishopurga qarashli qishloq.
[3] Ya'ni, Abu Rayhon Beruniy.
[4] *Oltuntosh* – Mahmud G'aznaviyning hojibi. 1017-yili xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun (999–1017) o'ldirilib, Xorazm bosib olingandan so'ng Mahmud G'aznaviy uni «xorazmshoh» unvoni bilan taxtga o'tqazadi.

@tarixni_kutubxonasiga

edi. Unda tahsinga loyiq xulqlari bilan bir qatorda, nomaqbullari ham bor edi. Buni menda g'arazli moyillik va g'arazgo'ylik yo'qligi oydin bo'lsin uchun aytayapman... Amir Abulabbosning eng katta xislati shu ediki, uning tili haqorat, so'kinish va bema'ni gap uchun bekik edi. Men, Abu Rayhon, yetti yil unga xizmat qilib, uning og'zidan so'kinish chiqqanini eshitmadim; uning eng yomon dashnomi shu ediki, qattiq g'azablangan mahalida «ey it!» derdi.

U bilan amir Mahmud o'rtasida mustahkam do'stlik joriy bo'ldi. Ular bitim tuzib, amir Sabukteginning[1] qizi, aslzoda Koljini u yer [Xorazm]ga olib keldilar va [Kolji] amir Abulabbosning haramidan joy oldi va o'zaro yozishmalar, iltifot-u hadya ulashishlar odatga aylandi.

Abulabbos hamma narsada amir Mahmudning ko'ngliga qarar va haddan ziyod tavoze saqlardi...

(908) U amir Mahmud manfaatini shu qadar saqlardiki, amiralmo'minin Al-Qodir billoh[2] hojilar sardori Husayn orqali unga xil'at, in'om yorlig'i, bayroq hamda «Ayn ad-davla va zayn al-milla» laqabini yuborganda, xorazmshoh: «Amir Mahmud ranjimasin va ayb qo'yib, nega u mening vositachiligim va shafeligimsiz xalifadan xil'at oladi va bunday tuhfa-yu imtiyoz topadi», – demasin deb andisha qildi. Har holda, iltifot yuzasidan u meni cho'lning o'rtasiga elchiga peshvoz chiqardi. Men u tuhfani yashirincha elchidan qabul etib, Xorazmga keltirdim va unga topshirdim. U bularni yashirishni buyurdi...».

(909) Abu Rayhon yana naql qildi: «Bir kuni Xorazmshoh otda sharob ichib kelardi. Hujramga yaqinlashganda meni chaqirtirdi. Men uning yoniga kechikibroq yetdim, u otini hujramning eshigigacha eldirib keldi va otdan tushmoqchi bo'ldi. Men ta'zim qilib, yalinib-yolvordim, natijada u otdan tushmadi va dedi:

«Ilm mulklarning eng ulug'idir,
Hamma unga intiladi, u esa kelmaydi».

So'ng dedi: «Dunyoviy rusumlar bo'lmaganda edi, seni chaqirtirmasdim, zero, ilm ulug'dir, men emas». Ehtimol, u amiralmo'minin Mo'tazid[3] haqidagi hikoyani mutolaa etgandir; men unda ko'rdimki, kunlardan bir kuni Mo'tazid bir bog'da Sobit ibn Qurraning[4] qo'lidan ushlab borardi. U to'satdan qo'lini tortib oldi. Sobit so'radi: «Ey amiralmo'minin, nega qo'lingni tortib olding?» U javob berdi: «Qo'lim qo'lingdan yuqorida edi. Axir ilm ulug'dir, men emas».

[1] *Amir Sabuktegin* – Mahmud G'aznaviyning otasi, G'aznaviylar sulolasining asoschisi (977–997).

[2] *Al-Qodir* – Abbosiy xalifa (991–1031).

[3] *Mo'tazid* – Abbosiy xalifa (892–902).

[4] *Sobit ibn Qurra* – IX asrda yashagan yirik arab olimi.

@tarixchi_kutubxonasiga

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arman tarixi arxivi. – Tiflis, 1912 (qadimgi arman tilida).
2. Arman qo'lyozmalari. 1-t. – *L.S. Xachikyan* tuzgan. 1-t. (1401–1451). Yerevan, 1955 (qadimgi arman tilida).
3. Arman qo'lyozmalari. 2-t. – *L.S. Xachikyan* tuzgan. 2-t. (1451–1480). Yerevan, 1958 (qadimgi arman tilida).
4. Arman qo'lyozmalari. 3-t. – *L.S. Xachikyan* tuzgan. T.III. (1481–1500). Yerevan, 1967 (qadimgi arman tilida).
5. *Тер-Мкртичян Л.Х.* Армянские источники (VIII–XVIII вв.). – М.: Наука, 1985.
6. *Аальто П.* Имя «Ташкент». – Перевод и комментарии А.К. Акишева // Shygys, 2005, 1.
7. Qadimgi turkiy til. – *Abdurahmonov G'., Rustamov A.* – Toshkent, 1982.
8. *Абегян М.* История. – Ереван, 1975.
9. *Альбаум Л.И.* Живопись. – Ташкент, 1975.
10. *Аркел Д.* Книга историй. – Перевод с армянского, предисловие и комментарий Л.А. Ханларян. – М., 1973.
11. *Aristakes L.* Tarix. – *V.A. Gevorkyan* tarjimasi. – Yerevan, 1971 (arman tilida).
12. Армянская советская энциклопедия. – Т. I. Ереван, 1974 (arman tilida).
13. *Артамонов М.И.* История хазар. – Л., 1962.
14. *Бабахров Г.* Древнетюркские монеты. – Ташкент, 2007.
15. *Баргнич Ф.* Византиски Сингидунум. – Зборник радова Византолошки институт САН, кн. 3. – Белград, 1955.
16. *Бартольд В.В.* Аланы. – Сочинения. – М., 1963. II (1).
17. *Бартольд В.В.* Халиф Омар II. – В: Сочинения. – М., 1966. Т. VI.
18. Ioannesning tarixi. – Quddus, 1843 (qadimgi arman tilida).
19. *Бернштам А.Н.* Тюрки и Средняя Азия. – ВДИ, 1. М., 1952.
20. *Beruniy.* O'tmish xalqlar. – Toshkent, 1968.
21. *Beruniy,* Geodeziya – Tanlangan asarlar, III jild. Geodeziya, Toshkent, 1982.
22. *Beruniy.* Qadimgi xalqlar. – Tarjimon *A.Rasulov.* Izohlarni *I.Abdullaev, A.Rasulov* tuzgan. – Toshkent, 1968.

*Бируни.* Памятники. – Перевод с арабского и примечания *М.А. Салье* // Бируни. Избранные произведения. – Ташкент, 1957. Т. I.

*Бичурин Н.Я.* Собрание сведений. Т. I. – М. – Л., 1950. Т. I.

*Бичурин Н.Я.* Собрание сведений. Т. II. – М. – Л., 1950. Т. II.

*Boboyorov G'.* Baqtriy hujjatlarida. – Baqtriy hujjatlarida Turk xoqonligi tarixiga doir yangi ma'lumotlar // «O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari yosh olimlar ni-

@tarixchi_kutubxonasiga

gohida: asosiy yo'nalishlari va yondashuvlar» Respublika yosh olimlarining an'anaviy ikkinchi ilmiy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent, 2010.

*Boboyorov G'.* G'arbiy Turk xoqonligi. – Toshkent, 2012.

*Boboyorov G'.* Ilk o'rta asrlar tangalari. – *G'. Boboyorov.* Ilk o'rta asrlar tangalarida O'zbekiston hududidagi davlatchilikka doir ma'lumotlar // O'zbekiston tarixi manbashunosligi masalalari. – Toshkent, 2010.

*Boboyorov G'.* Tohariston yabg'ulari. – O'zbekiston tarixi, №3. – Toshkent, 2003.

*Boboyorov G'.* Tun yabg'u-xoqon. – Abu Matbuot Konsalt. – Toshkent, 2011.

*Boboyorov G'.* Turk xoqonligi. – *Moziydan sado.* №4, 2010.

*Boboyorov G'.* Choch tarixidan. – Toshkent, «Yangi nashr», 2010.

*Boboyorov G'.* Choch tarixidan. – Toshkent, 2008.

23. *Boboyorov G'.* Choch tarixidan. – Toshkent, 2011.

24. Buyuk Vardan – *Mkrtich Emin* nashri. – M., 1851 (qadimgi arman tilida).

25. Vardapet Tovma. Arsruni xonadoni. – Spb., 1887 (qadimgi arman tilida).

26. Vardapet Tovma. Arsruni xonadoni. – Tiflis, 1917 (qadimgi arman tilida).

27. Vardapet Arakel Davrijesi – Tarixlar kitobi. – Amsterdam, 1669 (qadimgi arman tilida).

28. Vardapet Aristakes Lastivertsi – Armaniston tarixi. Yangi arman tiliga Minas Ter-Petrosyan tarjimasi. – Aleksandropol, 1893.

29. Vardapet Arakel Davrijesi – Tarix. Echmiadzin, 1884 (qadimgi arman tilida).

30. Vardapet Aristakes Lastivertsi – Tarix. – Venesiya, 1844. (qadimgi arman tilida).

31. Видные деятели. – Ереван, 1982. С. II.

32. Византиски извори – Византиски извори за историју народа Југославије, Т. I, Белград, 1955.

33. Всеобщая история Вардана. – Перевод *Н. Эмина.* – М., 1861.

34. Всеобщая история Степаноса – Перевод с армянского и объяснения *Н. Эмина.* – М., 1864.

35. *Гандзакеци К.* История Армении. – Перевод с древнеармянского, предисловие и комментарий *Л.А. Ханларян.* – М., 1976.

36. *Гардизи.* Зайн ал-ахбар. – Перевод с персидского *А.К. Арендса.* Введение, комментарии и указатели *Л.М. Епифановой.* – Ташкент, 1991.

37. *Гафуров Б.Г.* Таджики. – М., 1972.

38. *Гевонд.* История. – Перевод, предисловие и комментарии Арама Тер-Гевондяна. – Ереван, 1982 (arman tilida).

39. *Getun Patmich.* Mo'g'ullar. – Lotincha matndan qadimgi arman tiliga *Mkrtich Avgaryan* tarjimasi. – Venetsiya, 1842.

40. *Грицина А.А.* Усрушанские. – Ташкент, 2000.

41. *Гумилев Л.Н.* Древние тюрки – М.: Наука, 1967.

42. *Гумилев Л.Н.* Хунну. – М., 1960.

43. *Drasxanakertsi.* Armaniston tarixi. – Mkrtich Emin nashri. – M., 1853 (qadimgi arman tilida).

44. *Drasxanakertsi.* Istoriya Armenii. – Tiflis, 1912 (qadimgi arman tilida).

45. *Ziyo A.* O'zbek davlatchiligi. – Toshkent, 2001.

*Зуев Ю.А.* Ранние тюрки. – Алматы, 2002.

46. История Агван Маисея. – Перевод с армянского *К. Патканяна.* – Санкт-Петербург, 1861.

@tarixchi_kutubxonasiga

47. История Армении. – Сочиненная вардапетом Киракосом Гандзакеци. Издана Восканом Тер-Григоряном. – М., 1858 (qadimgi arman tilida).

48. История архиепископа. – Издал Воскан Тер-Геворкян. – М., 1858 (qadimgi arman tilida).

49. История ат-Табари. – Перевод с арабского В.И. Беляева. Дополн. к перев. *О.Г. Большакова и А.Б. Халидова*. – Ташкент: Фан, 1987.

50. История Гевонда. – С предисловием и примечаниями *К. Эгяна*. – Санкт Петербург, 1887 (qadimgi arman tilida).

51. История епископа Себеоса. – Пер. *С.Малхасянц*. – Ереван, 1939.

52. История епископа. – Ереван, 1939.

53. История князей. – Извлечения из сочинений Стефана Сюнийского, армянского писателя XIII в. / Перевел с армянского *Х. Иоаннесов*. – Москва, 1883.

54. История монголов. Вып. I. – Перевод и объяснения *К. Патканова*. – Санкт Петербург, 1873.

55. История монголов. Вып. II. – Перевод и пояснения *К.П. Патканова*. Спб.,1874.

56. История халифов. – Санкт-Петербург, 1862.

57. История, сочиненная Смбатом – Издал Воскан Геворкян. – М., 1856 (qadimgi arman tilida).

58. Ishxan. Tarix. – Kalkutta, 1846 (qadimgi arman tilida).

59. *Камалиддинов Ш.Ш., Мухамедов У.З.* Новые данные. – ОНУ. – Т., 1997. № 34.

60. *Kirakos G.* Armaniston tarixi. – So'z boshi muallifi va ilmiy-tanqidiy matnni nashrga tayyorlovchi: *K.A. Melik Oganjanyan*. Erevan, 1961 (qadimgi arman tilida).

*Кляшторный С.Г.* Древнетюркские рунические памятники. – М., 1964.

*Кузнецов В.А.* Аланские племена. – МИА, (1962). 106

*Кулаковский Ю.* Алани. – Чтения в Историческом обществе Нестора Летописца. – Киев, 1899. Кн.13, отдел II.

*Кулаковский Ю.* История Византии. – Киев, 1915. Т.III.

*Лившиц В.А. Старые письма.* – Согдийские «Старые письма» (I, III) // Письменные памятники Востока. – М., 2008 (2). № 1 (8).

*Лившиц В.А.* Правители Панча. – 1979. № 4.

*Лившиц В.А.* Согдийская эпиграфика. – Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. Спб.: Филологический факультет СпбГУ, 2008.

61. *Лившиц В.А.* Среднеперсидские и согдийские надписи. – ВДИ. № 3. – М., 1964.

62. *Луконин В. Г.* Культура. – М., 1969.

*Малявкин А.Г.* Танские хроники. – Новосибирск, 1989.

*Манандян Я.А.* Маршруты персидских походов. – ВВ, III (1950).

63. *Matteos U.* Armaniston tarixi. – Quddus, 1869 (qadimgi arman tilida).

64. *Matteos U.* Xronografiya. – Vagarshapat, 1898, (qadimgi arman tilida).

65. *Matteos U.* Xronografiya. – Yerevan, 1973 (qadimgi arman tilida).

66. Мелкие хроники. – Составил *В.А. Акопян*. – Ереван, 1951. Т. I, (qadimgi arman tilida).

67. Мелкие хроники. – Составил *В.А. Акопян*. – Ереван, 1956. Т. II (qadimgi arman tilida).

68. *Мирный.* Историко-географический источник. – Советское востоковедение, 1956. №5.

@tarixchi_kutubxonasiga

69. *Михаил Пселл.* Хронография. – Перевод, статья и примечания *Я.Н. Любарского.* – М., 1978.

70. *Movses Kagankatvasi.* Ag'vank mamlakati. – Mkrtich Emin nashri. – M., 1860 (qadimgi arman tilida).

71. *Movses Kagankatvasi.* Ag'vank tarixi. – Arakelyan nashri. Yerevan, 1969 (qadimgi arman tilida).

72. *Movсес Каланкатуаци.* История страны. – Перевод с древнеармянского, предисловие и комментарий *Ш.В. Смбатяна.* – Ереван, 1984.

73. *Моисей Хоренский.* История Армении. – Изд-во: Тип. В.А. Гатцук. – М., 1893.

74. *Мухаммад ал-Хорезми.* Книга истории. – К 1200-летию со дня рождения. – М.: Наука, 1983.

75. *Негматов Н.* Усрушана. – Сталинабад, 1957.

76. *Немет Ю.* Произходъть на имената «Кебрать» – ИИД. (1931–1932) XI-XII.

77. Nomsiz vaqtnoma. – VII asr. – Venetsiya, 1904 (qadimgi arman tilida).

78. Обращение Грузии. – Пер. *Е.С. Такайшвили* // СМОМПК. Вып. XXVIII 1900. – С. 1748.

79. Основы иранского языкознания. – М., 1981.

80. Памятные записи. – Ереван, 1955. Т. I.

81. *Петросян Ю.А., Юсупов А.Р.* Город на двух континентах. – М., 1981.

82. *Пигулевская Н.В.* Сирийские источники. – М. – Л., 1941.

83. *Пигулевская Н.В.* Византия и Иран. – М. – Л., 1946.

84. *Пигулевская Н.В.* Византия на путях. – М. – Л., 1951.

85. Повествование вардапета. – Повествование вардапета Аристакеса Ластивертци. – М., 1968.

86. Походы арабов в Армению. – Сочиненные армянским вардапетом Гевондом, изданные совместно с примечаниями *Карапетом Шахназаряном.* – Париж, 1857 (qadimgi arman tilida).

87. Прокопий из Кесарии. Война с готами. – Перв. с греч. *С.П. Кондратьева.* Вступ. статья *З.В. Удальцовой.* – М., 1950.

88. *Рашид ад-дин.* Сборник. Т. I. – М. –Л.: 1946.

89. *Садр ад-Дин Ал-Хусайни.* Сообщения. – Издание текста, перевод, введение и приложения *З.М. Буниятова.* – М., 1980.

90. *Samuel Anesi.* Tarixiy hujjatlar. – Vagarshapat, 1893, (qadimgi arman tilida).

91. *Симс-Вильямс Н.* Бактрийские документы. – ВДИ. – М., 1997. № 3.

92. Sisakan o'lkasi. – *Stepanos Orbelyan,* Syunetsi arxiyepiskopi yozgan. Izohlar bilan *K. Shaxnazaryan* nashr etgan. – Parij, 1859 (qadimgi arman tilida).

93. Sisakan o'lkasining tarixi. – Arxiyepiskop *Syunetsi Stepanos Orbelyan* yozgan. – Tiflis, 1910 (qadimgi arman tilida).

94. *Смбат Спарапет.* Летопись. – Ереван, 1976.

95. *Смбат.* Летопись. – Перевод с древнеармянского, предисловие и примечания *А.Г. Галстяна.* – Ереван, 1974.

96. *Смирнова О. И.* Очерки. – М., 1970.

97. *Смирнова О.И.* Вопросы. – МИА. – М., 1953. №15.

98. *Смирнова О.И.* Монеты. – МИА. – М., 1950. № 15.

*Смирнова О.И.* Сводный каталог. – М.: Наука, 1981.

Согдийские документы. Вып. I. – *А.А. Фрейман.* Описание публикации и исследование. Вып. I. М.: Изд-во восточной лит-ры, 1962 (СДГМ, I).

@tarixchi_kutubxonasiga

Согдийские документы. Вып. II. – Юридические документы и письма. / *В.А. Лившица*. – М.: Изд-во восточной лит-ры, 1962 (СДГМ, II).

Согдийские документы. Вып. III. – Хозяйственные документы. *М.Н. Боголюбова* и *О.И. Смирновой*. – М.: Изд-во восточной лит-ры, 1963 (СДГМ, III).

*Степанос Орбелян*. История области Сисакан. – Тифлис, 1910 (qadimgi arman tilida).

99. *Stepanos*. Umumiy tarix. – Parij, 1859 (qadimgi arman tilida).

100. *Сумбат*. История. – Перевод, введение и примечания *М.Д. Лордкипанидзе*. – Тбилиси, 1979.

101. Yangi Tangnoma. – Urumchi, 2010 (uyg'ur tilida).

102. *Тер-Мкртичян Л.Х.* Армянские источники (V–VII вв). – М., 1979.

103. *Тер-Мкртичян Л.Х.* Армянские источники (VIII–XVIII вв). – М.: Наука, 1985.

104. *Tovma Arsruni*. Arsruni xonadoni. – Istanbul, 1852 (qadimgi arman tilida).

105. *Товма Арцруни*. История дома – Спб., 1887 (qadimgi arman tilida).

106. *Товма Арцруни*. История дома. – Введение, перевод на совр. арм. яз. и комм. Врежа Варданяна. – Ереван, 1978. (arman tilida).

107. *Товма Мецопеци*. История Тимур-ланка. – Париж, 1860 (qadimgi arman tilida).

108. *Толстов С.П.* Бируни. – Ташкент, 1958.

109. *Толстов С.П.* По следам. – М. – Л., 1948.

110. *Turg'un Olmos*. Uyg'urlar.

111. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent. O'zME, 2004.

112. *Феофилакт Симокатта*. История. – Вступ. статья *Н.В. Пигулевской*, перевод *С.П. Кондратьева*. Примеч. *К.А. Осиповой*. – М., 1957.

113. *Фома Мецопский*. История Тимур-ланка. – Баку, 1957.

114. *Фрейман А.А.* Два согдийских рукописей. – ВДИ, 1952. №1.

115. *Фрейман А.А.* Три согдийских документа. – 1959. №1.

116. *Xachatur Jugayetsi*. Eron tarixi. – Vagarshapat, 1905, 46-bet (qadimgi arman tilida).

117. *Ходжаев А.* Наиболее ранние сведения китайских источников. – O'zbekiston tarixi (История Узбекистана), 2005. № 1.

118. *Sixay*. – («So'zlar dengizi»). – Shanxay, 1979 (xitoy tilida).

119. Chjuongguo liday guanchji sidyan. – (Xitoyning o'tmishdagi ma'muriy lug'ati). Xefey, 1991(xitoy tilida).

120. *Чичуров И.С.* Византийские исторические сочинения. – М.: Наука, 1980.

121. *Чичуров И.С.* Экскурс Феофана. – М., 1976.

122. *Shan Yue*. Chjungo lishi gan'yao. – (Xitoy tarixidan qisqacha bayon). Pekin, 1954 (xitoy tilida).

123. Shinjyan lishi sidyan – (Shinjyan tarixi lug'ati). – Urumchi, 1994 (Xitoy tilida).

124. Shiyuy diming kaolu. – (G'arbiy mamlakatlar toponimikasiga oid tadqiqotlardan lavhalar). – Pekin, 2008 (xitoy tilida).

125. *Shoniyozov K.* Qang' davlati. – Toshkent, 1990.

126. *Шовен П.* О Византийских посольствах. – Т., 1995. № 1, 2, 3.

127. *Яхубович И.С.* Проблемы согдийской этимологии. – М.: Российский государственный гуманитарный университет, 2009.

128. *Babayarov G.* Two additional Turkic title. – G. Babayarov. Two additional Turkic title in Sogdian documents of Mugh Mountain // http://www.groups.yahoo.com/group/Sogdian-L (October, 2011)).

@tarixchi_kutubxonasiga

129. Bactrian Documents. – Bactrian Documents from Northern Afghanistan. Oxford, 2000.

130. *Beckwith I.C.* The Tibetan Empire. – *I. C. Beckwith.* The Tibetan Empire in Central Asia: A History of the Struggle for Great Power among Tibetans, Turks, Arabs, and Chinese during the Early Middle Ages. New Jersey, 1993.

131. *Boodberg J.A.* Theophylactus Simocatta. – *J.A. Boodberg.* Theophylactus Simocatta on China. Harward Jorn. Of Asiat. Stud. 1938. 3.

132. *Brosset M.* Additations et eclaircissements. – *M. Brosset.* Additations et eclaircissements á l'histoire de Gèorgie. Spb, 1851.

133. *Brosset M.* Historie d' Armènie. – *M. Brosset.* Historie d' Armènie, par le vartabied Kirakos de Gandzac. – Deux historiens armènence, 1870.

134. *Brosset M.* Livre d'histoire. – *M. Brosset.* Livre d'histoire composè la vartabed Arakel de Tauriz. Collection d'historieus armèniens. Spb, 1874. T.I.

135. *Brosset M.* Rapports. – *M. Brosset.* Rapports sur un voyaqe archioloqiue dans la Giorgie et dans larminie Spb, 1849.

*Chavannes E.* Çin yıllıklarına göre. – *E. Chavannes.* Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. – İstanbul, 2007.

*Chavannes E.* Documents. – *E. Chavannes.* Documents sur les Tou-kue (Tures) occidentaux. St. Petersbourg, 1903.

Divanü Lügat-it Türk. – Divanü Lûgat-it Türk Tercümesi. Cilt I-IV. Çev. B. Atalay. Ankara, 1985.

*Doerfer G.* Turkische und mongolische. – *G. Doerfer.* Turkische und mongolische Elemente im Neuepersischen // Wiesbaden. 1965–1967. Bd. II–III. Sea. Bd. III.

*Dunlop D.M.* History – *D.M. Dunlop.* The History of the Jewish Khazars. Prinseton, 1954.

*Ekrem E.* Hsüan-Tsang Seyahetnamesi. – *E. Ekrem.* Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2003.

*Gharib B.* Sogdian Dictionary. – *B. Gharib.* Sogdian Dictionary. Sogdian – Persian – English. – Tehran: Farhangan Publications, 1995.

*Grenet F.* Les «Huns» dans les documents Sogdiens. – *F. Grenet.* Les «Huns» dans les documents Sogdiens du mont Mugh (aves un Appendice par N. Sims-Williams) // Stlr, 7. Études Irano-Aryennes offertes á Gilbert Lazard. – Paris, 1989.

*Grenet F.* Vaissiere E. The last days. – *F. Grenet.* de la Vaissiere E. The last days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology, 8. – Kamakura, 2002.

*Gregoire H.* L'Habitat Primitif. – *H. Gregoire.* L'Habitat Primitif des Hongrois Lebedia-Lebedin // «Byzantion». XIII. Fasc. 1938. 1.

136. *Harmatta J.* and *Litvinsky B.A.* Toharistan and Gandhara. – *J. Harmatta* and *B.A. Litvinsky.* Toharistan and Gandhara under Western Turk rule // History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. Paris, 1996.

137. *Jorga N.* Medaillons. – *N. Jorga.* Medaillons d'histoire Byzantine // Byzantion. 1925. T.II,

138. *Liu Mau-Tsai.* Die chinesischen. – *Liu Mau-Tsai.* Die chinesischen Nachrichten zur Geschichte der Ost-Turken (T'u-Kue). Wiesbaden, 1958. Bd.II.

139. *Lurje P.B.* The element -kath/kand. – *P.B. Lurje.* The element -kath/kand in the place names of Transoxiana // ST, 32, fascicule 2. 2003.

140. *Mone A.C.* Christians. – *A.C. Mone.* Christians in Chine before the year 1550. 1930.

@tarixchi_kutubxonasiga

141. Nicephori archiepiskopi. – Nicephori archiepiskopi Constantinopolitani opuscula historica / Ed.C. de Boor. Lipsiae, 1880.

142. *Schilbach E.* Metrology – *E. Schilbach.* Byzantinische Metrology. – München, 1970.

*Sims-Williams N.* Bactrian Documents. *N. Sims-Williams.* Bactrian Documents from Northern Afghanistan, I: Legal and Economic Documents. – Oxford University Press, 2000.

*Sims-Williams N.* From the Kushan-shahs. – N. Sims-Williams. From the Kushan-shahs to the Arabs. New Bactrian documents dated in the era of the Tochi inscriptions // Coins, Art and Chronology Essays on the pre-islamic History of the Indo-Iranian Borderlands. – Wien 1999.

*Skaff K.J.* Western Turk Rule of Turkestan's. – *K.J. Skaff.* Western Turk Rule of Turkestan's Oases in the Sixth through Eighth Centuries // TURKS. Vol. 2. – Ankara, 2002.

143. *Stark S.* Die Alttürkenzeit in Mittelasien. – *S. Stark.* Die Alttürkenzeit in Mittelasien- und Zentralasien. Arhäologische und historische Studien. – Wiesbaden, 2008.

144. *Stein E.* Histoire. – *E. Stein.* Histoire du Bas-Empire. – Paris, 1941. T. II.

145. *Taşağıl A.* Gök-Türkler. – *A. Taşağıl.* Gök-Türkler. – Ankara, 1995.

146. Theophanes. – Theophanes Byzantius. Fragmenta. – HGM, Lipsiae, 1870.

147. *Yoshida Y.* Bulletin. – *Y. Yoshida.* Bulletin of the Asia Institute. 2000 [2003]. XIV.

148. *Yoshida Y.* On the Origin. – *Y. Yoshida.* On the Origin of the Sogdian Surname Zhaowu and Related Problems // JA. – Paris, 2003.

149. *Yoshida Y.* On the Origin. – *Y. Yoshida.* On the Origin of the Sogdian Surname Zhaowu and Related Problems // JA. – Paris, 2003. No. 1-2 (291).

150. *Ahrweiler H.* Byzance. – *H. Ahrweiler.* Byzance et la mer. – Paris, 1966.

151. *Bury I.B.* The Imperial Administrative System. – *I.B. Bury.* The Imperial Administrative System in the Ninth Century with a Revized Text of the Kletorologion of Philotheos. – London, 1911.

152. Menander Protektor. Exerpta de Legationibus. – Menander Protektor. Exerpta de Legationibus Romanorum ad gentes. Ed. C. De Boor, Pars» I. Berolini, 1903.

153. *Moravcsik Gy.* Byzantinoturcica. – *Gy. Moravcsik.* Byzantinoturcica. Berlin, 1958. Bd. I-III.

154. *Haussig H.W.* Theophylakts Exkurs. – *H.W. Haussig.* Theophylakts Exkurs uber die Skytischen Volker. Byz. (1953). XXIII.

155. *Hauptmann L.* Les rapports des Byzantins. – *L. Hauptmann.* Les rapports des Byzantins avec les Slaves et les Aurares pendant la sekonde moitie du VI-e siecle Byzantion. 1927–1928. IV.

156. *Heyd.* Histoire. – *Heyd.* Histoire du commerce de Leuant, 1885.

157. Procopius Caesariensis. – Procopius Caesariensis Opera omni, rec. F. Henry. Lips., 1905–1906. De Bello vandalico, V. I-II. Русск. пер. *С. Дестуниса.* Спб., 1891.

158. *Theophylactus* – *Theophylactus Simocatta.* VIII. 11. Ed.C.de Boor, 1887.

@tarixchi_kutubxonasiga

## KO'RSATKICHLAR

### Shaxs ismlari ko'rsatkichi


Aalto P., 44
Abbos ibn Abdulmutallib, 360
Abbos ibn Valid, 283
Abbos, *Jabroil ibn Yahyo o'g'li*, 415
Abbos, *nasroniy arab amiri*, 17
Abd Kulol ibn Yasub, *Yaman podshohi*, 362
Abd Manof, *qurayshiy*, 370
Abdulaziz ibn al-Volid, 267
Abdulvohid al-Marokashiy, *tarixchi*, 301
Abduljabbor ibn Abdurrahmon al-Azdiy, 343, 412
Abdullayev R.M., 2
Abdulloh al-Ma'mun ibn ar-Rashid – q. *al-Ma'mun*, 349
Abdulloh bin Ma'mar al-Yashkuriy, *arab lashkarboshisi*, 74
Abdulloh ibn Abbos, 326, 333
Abdulloh ibn Abu Abdulloh al-Kermoniy, 335, 339
Abdulloh ibn al-Axtam at-Tamimiy, 336
Abdulloh ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbos, 284, 340, 342
Abdulloh ibn al-Muktafi, 361
Abdulloh ibn al-Xarmossiya, 338
Abdulloh ibn Amir, *arab lashkarboshisi*, 331, 332
Abdulloh ibn Amr, *Basra hokimi*, 262, 412, 413
Abdulloh ibn Barmakiy, 301
Abdulloh ibn Ziyod, *Xuroson hokimi*, 332, 333
Abdulloh ibn Muammao al-Yashkuriy, 328
Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbos – q. *Abul Abbos as-Saffoh*, 340, 342, 360
Abdulloh ibn Tohir, 288, 312, 321, 330, 351, 352, 354
Abdulloh ibn Uqayl as-Saqafiy, 332
Abdulloh ibn Xudon, 404
Abdulloh ibn Hozim as-Salamiy, *Xuroson noibi*, 263, 325, 332, 333, 404
Abdulmalik ibn Marvon al-Umayya, *Umaviy xalifa*, 263, 282, 334, 360
Abdulmalik ibn Solih, 348
Abdulhamid Po'lodiy, 102
Abdurahmon ibn Muljam, 282
Abdurahmon ibn Muslim, *Qutaybaning ukasi*, 327, 335
Abdurahmon ibn Somira, 282, 332
Abduhalimov B.A., 2
Abegyan M., 241
Aboxon – q. *To'ramen*, 13
Abraha al-Ashram, *Yaman podshohi*, 363
Abraha ibn Sabboh, *Yaman podshohi*, 362
Abraha, *Habashiston podshohi*, 279
*Abraha, Yaman podshohi*, 361
Abruy – q. *To'ramen*, 13
Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy, 355
Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy al-Majusiy al-Qatrabbuliy – q. *al-Xorazmiy, Muhammad ibn Muso*, 277
Abu Abdulloh Muhammad, *afrig'iy*, 376
Abu Abdulloh Muhammad, *xorazmshoh*, 373
Abu Avn, *arab tashviqotchisi*, 284
Abu Ali ibn Sino, 355, 374
Abu Ali Ma'mun I, *Gurganch amiri*, 376
Abu Ali Muhammad ibn Horun, *dehqon*, 418
Abu Bakr as-Siddiq, *xalifa*, 280, 282, 398
Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Ishoq al-Hamadoniy – q. *Ibn al-Faqih*, 351
Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy – q. *Narshaxiy*, 397
Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik, 397
Abu Dovud Xolid ibn Ibrohim, *lashkarboshisi*, 275, 276

@tarixchi_kutubxonasiga

Abu Dovud, *al-Karmaniy o'g'li*, 284
Abu Ja'far al-Mansur, *Abbosiy xalifa*, 275, 276, 281, 284, 285, 330, 341, 342, 343
Abu Ja'far Davonaqiy, 412
Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy – q. *at-Tabariy*, 261
Abu ibn Xalaf, 367
Abu Ishoq Ibrohim ibn al-Abbos as-Suliy, 411
Abu Karib ibn Ifriqos, *Yaman podshohi*, 362
Abu Lulua, 281
Abu Malik, 267
Abu Malik ibn Shamir, *Yaman podshohi*, 362
Abu Mahmud Homid ibn al-Xidr al-Xo'jandiy, *astronom*, 374
Abu Muslim, *Abbosiylar harakatining boshlig'i*, 274, 275, 276, 284, 336, 338, 339, 340, 341, 342, 412, 416
Abu Muso al-Ash'ariy, *arab lashkarboshisi*, 281
Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim ibn Qutayba al-Jabaliy, *arab tarixchisi va adibi*, 383
Abu Nasr ibn Iroq, 374
Abu Nasr ibn Mishkon, 419, 421
Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq, *astronom va matematik*, 373
Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy – q. *Beruniy*, 373
Abu Said Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq, *afrig'iy*, 385
Abu Salma al-Hallol, 341
Abu Salma Hafs ibn Sulaymon al-Hallol, 338
Abu Sahl Masihiy, 374
Abu Solih Mansur ibn Nuh, *somoniy*, 261
Abu Tohir Tabboniy, 421
Abu Tohir Xoja, 402
Abu Ubayda Ma'mar ibn al-Musonna, 267, 324, 327
Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit, *hanafiya mazhabining asoschisi*, 285
Abu Hasan ibn Usmon az-Ziyodiy, *tarixchi*, 288
Abu Ya'qub Ishoq ibn Sulaymon al-Hoshimiy, *tarixchi*, 288
Abu Ya'fur ibn Alqama, *Yaman podshohi*, 363
Abubakr Abdulloh ibn Abu Quhofa, 360
Abul Abbos Abdulloh ibn Tohir, *Xuroson amiri*, 288, 312, 315
Abul Abbos as-Saffoh, *Abbosiy xalifa*, 284, 340, 342
Abul Abbos Ahmad ibn Abu Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vozih al-Kotib al-Abbosiy al-Ya'qubiy – q. *al-Ya'qubiy*, 330
Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy, – q. *al-Farg'oniy*, 295, 298, 355
Abul Bukturiy, 287
Abul Faraj Bar Ebrey, 295
Abul Hasan al-Utbiy, *vazir*, 355
Abulabbos Ma'mun ibn Ma'mun Xorazmshoh, 5, 427
Abuladham Ziyod ibn Amr az-Zimmoniy, *arab lashkarboshisi*, 263, 264
Abulqosim Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Xurdodbeh – q. *Ibn Xurdodbeh*, 300
Abul-saraya, 350
Abulfazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy – q. *Bayhaqiy*, 419
Abulxayr Xammor, 374
Abulhasan Maydoniy (Madoiniy), 409
Abu-Salis, *saljuqiy*, 257
Abu-s-sayda Solih ibn Tarif, 271
Avarxuman (Varxuman), *Samarqand hukmdori*, 38
Avat farmondor, 81, 82, 91, 92, 93, 94, 95, 96, 97, 98, 105
Avgust Qaysar (Sezar), 365
Avliyo Feodor, 19
Avs ibn Kallom, *Yaman podshohi*, 363
Avs ibn Nu'mon al-Baxmmiy, 332
Aganyan G., 249
Agafangel, 243
Agafiy, 15
Ag'ina tutung, 231
Adiy ibn Arta, 337
Azak, 83
Azatg'riv, 69, 100
Az-Zahhok ibn al-Muzohim al-Balxiy al-Xurosoniy, mudarris, 328
Azman, 127
Azrua, *tangri*, 199
Aysilig' to'quvchi, 233
Akkiy, *arab tashviqotchisi*, 284, 340
Akop arxiepiskop, 249
Al-Abbos ibn Muhammad ibn Muso al-Ja'fariy, 285, 337, 349
Al-abd zu-l-az'or, *Yaman podshohi*, 362
Al-Amin, – q. *Muhammad ibn Horun ar-Rashid*, 259, 287, 347

@ariana_kutubxonasiga

Al-Asmoiy, 366
Al-Asfar (Abusaraya), 349
Al-Balazuriy, 2, 4, 5, 74, 324
Al-Bara' Bahodir, 270
Al-Vosiq billoh, *Abbosiy xalifa*, 301, 317, 320, 321, 361, 377
Al-G'arnatiy, 317
Aleksandr ibn Filfus, 364
Al-Javhariy, 277
Al-Jayhoniy, *arab geografi*, 351, 352
Al-Juvayriya ibn Ismoil, 340
Ali Akbar Fayoz, 420
Ali ibn Abu Tolib, *xalifa*, 280, 282, 286, 360
Ali ibn Iso ibn Moxon, *lashkarboshi*, 287, 345, 346, 348
Ali ibn Ma'mun, *Gurganch amiri*, 373, 374
Ali ibn Mujohid, 267, 327
Ali ibn Muhammad ibn Iso ibn Nahsho, 262, 263, 349
Ali ibn Hasan al-Shayzariy, *arab geografi*, 351
Ali ibn Hasham, 350
Al-Idrisiy, 317
Alitegin (Ali ibn Bo'g'roxon al-Hasan Horun), *qoraxoniy*, 423
Al-Karmaniy, Judayyya, 284
Al-Qodir billah, *Abbosiy xalifa*, 256, 427
Al-Qonta, *Abbosiy xalifa*, 259
Al-Qosim al-Ma'mun, *Horun ar-Rashid o'g'li*, 345
Al-Masarbal, 269
Al-Mahdiy ibn Mansur, *Abbosiy xalifa*, 276, 285, 286, 343, 344, 346, 398, 411, 413, 414
Al-Ma'mun, *Abbosiy xalifa*, 259, 276, 277, 287, 288, 292, 295, 329, 330, 344, 345, 346, 347, 348, 349, 350, 351, 361
Al-Mug'ira ibn al-Muhallab, 264, 334
Al-Mujashshir Umayra ibn Sa'd, 272
Al-Muntasir, *Abbosiy xalifa*, 327
Al-Musoyyab ibn Bishro ar-Riyahiy, 269
Al-Musoyyab ibn Zuhayr, 315
Al-Musollab ibn Bishr, 270
Al-Mutavakkil, *xalifa*, 295
Al-Mufazzal ibn al-Muhallab ibn Abu Sufro, 264, 326, 334
Al-Mufazzal ibn Muhammad, 263
Al-Muhallab ibn Abu Sufro al-Azdi, *arab lashkarboshisi*, 263, 264, 270, 325, 326, 333, 334, 337
Al-Mu'tadid billoh, *Abbosiy xalifa*, 301
Al-Mu'tazid billoh, *Abbosiy xalifa*, 385
Al-Mu'tasim billoh, *Abbosiy xalifa*, 330, 377
Alouddin Takash Xorazmshoh, 260
Alp Arslon, *saljuqiy sulton*, 239, 257, 258
Alp Bilga, *uyg'ur xoqoni*, 148
Alp Turmish, 234
Alp Urungu, *Kurt eli xoni*, 155
Alp xoqon tutug'i, 70
Alp Shalchi, 127
Alp Eletmish, *Yabg'u o'g'li*, 136, 137
Alpish, 223
Altu, 157
Al-Umari, 330
Al-Farg'oniy, 2, 4, 277, 295, 296, 297, 298, 385
Al-Xorazmiy, Abu Abdulloh, 2, 4, 5, 354, 355, 356
Al-Xorazmiy, Muhammad ibn Muso, 2, 4, 277, 278, 279, 280, 286, 287, 288, 292, 293, 298
Al-Hamdakiy, 385
Al-Horis ibn Amr ibn Hujr al-Kindiyni ma'addo, *Yaman podshohi*, 362
Alchi (Alichi), 25
Al-Ya'qubiy, 2, 4, 278, 279, 330, 331
Amir ibn Zubara al-Marriy, 339, 340
Amir ibn Musovir, 312
Amir Mavdud, *amir Mas'ud o'g'li*, 424
Amir Maysara, 281
Amir Mas'ud, *G'aznaviy*, 5
Amir Muhammad, *Mahmud G'aznaviy o'g'li*, 421
Amir Temur, 235, 247, 248, 306
Amir Faxruddavla, 373
Amr ibn Adiyy, *Yaman podshohi*, 363
Amr ibn al-As as-Sahliy, *arab lashkarboshisi*, 281
Amr ibn Zurara al-Kasriy, *Nishopur omili*, 338
Amr ibn Muslim, *Qutaybaning ukasi*, 334
Amr ibn Tubba' (Mavsok), *Yaman podshohi*, 362
Amr ibn Hind, *Yaman podshohi*, 363, 364
Amr, *nasroniy arab amiri*, 17
Anastasiy kutubxonachi, 16
Andardyan, 98
Anutch, 83
Anshiyatich, 97
Apanak, 94, 95
Apaxa, *turk amiri*, 257
Apvaxyon, *Arutafarch o'g'li*, 77
Arakelyan V., 238
Ardashir I Popakon, *sosoniy*, 253, 256, 303, 358
Arends A.K., 419, 420, 422

@tarixchi_kutubxonasiga

Aristakes Lastivertsi Vardapet, 4, 235, 238, 239
Aristotel, 381
Arkadiy, *Rim imperatori*, 6
Ar-Roziy, Abu Bakr, 354, 355
Arsamux ibn Bulg'or ibn Xomgari ibn Shovush ibn Saxr ibn Azkajavar ibn Askajamuk ibn Saxxasak ibn Bag'ra ibn Afrig', *afrig'iy*, 376
Arsila – q. *Arslon Tapuxon*, 16
Arslon Tapuxon, *Sharqiy Turk xoqoni*, 13, 16
Arslon-Tarxon, *Farg'ona hukmdori*, 30
Arslonxon, *qoraxoniy*, 421, 423, 424, 425
Arspan, 65, 83
Artashir, fors, 8
Asad ibn Abd al-Uzza, *qurayshiy*, 370
Asad ibn Abdulloh al-Qasriy, *Xuroson voliysi*, 270, 271, 272, 273, 274, 310, 338, 408, 409, 410
Asbara Tamg'an-cho'r, 137, 138
Asvad, *Yaman podshohi*, 363
Asilan (Arslon) Dafodan Fali Buxorxudot, 40
Askajamuk ibn Azkajavar ibn Sabri ibn Saxr ibn Arsamux, *afrig'iy*, 376
Aslama ibn Zur'un, *Xuroson noibi*, 262
Aslzoda Kolji, *Sabuktegin ning qizi*, 427
Aslom ibn Zur'a, 333
Aspanak Devg'un, 65, 95, 96, 97
As-Sabla, *Xuttal podshosi*, 264
As-Sam'oniy, 306
As-Saolibiy, 374
As'ad Abu Karib, *Yaman podsholri*, 362
At-Tabariy, 2, 4, 40, 42, 45, 68, 69, 71, 261, 278, 286, 376
At-Tag'libiy, 270
Afridun Kobi, 366
Afridun, *Eronning afsonaviy podshosi*, 302, 357, 366
Afrosiyob at-turki, 357
Aftarch, 99
Afshin Haydar ibn Kovus al-Usrushoniy, 329, 330, 351
Afshun, *Rust hokimi*, 79
Afshun, *Xaxsar hokimi*, 85, 86, 88, 89, 90, 91
Axurpat, *Kesh hukmdori*, 48, 99
Axufarn, *arspan (oqsaqol)*, 98
Axushyarch, 105
Axushmarik, 82
Axsham, *G'az mavzesining tuduni*, 60
Ahmad al-Kotib – q. *al-Ya'qubiy*, 330
Ahmad al-Marvaziy, 277
Ahmad ibn Abu Tohir Tayfur al-Xurosoniy, *muarrix*, 288
Ahmad ibn Abu Homid al-Ahvoli, 329, 351
Ahmad ibn Abu Ya'qub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vozih al-Kotib al-Abbosiy al-Ya'qubiy – q. *al-Ya'qubiy*, 279, 330
Ahmad ibn Asad ibn Somon, *somoniy*, 343
Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr, *somoniy*, 399, 409, 411
Ahmad ibn Tayfur, 278
Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir ibn Dovud al-Balazuriy – q. *al-Balazuriy*, 324
Ahmedov A., 2, 5, 7, 9, 16, 20, 250, 278, 279, 298, 302, 331, 352, 374, 386, 388
Ahnaf ibn Qays, *arab lashkarboshisi*, 282, 310, 332
Ashina Dele Pulo, 50
Ashina Sin, *G'arbiy turk xoqoni*, 69
Ashina Uchebo, 49, 50
Ashina Xyan, *G'arbiy turk xoqoni*, 69
Ashina-Shuni (Achinna), 29, 69
Ashk ibn Ashk, 358
Ashk ibn Doro, 358
Ashot I Bagratuni, 239, 240
Ashot, *Arsruni ishxani*, 236
Ashot, *Gashk I Bagratuni o'g'li*, 239
Ashras ibn Abdulloh as-Sulamiy, *Xuroson noibi*, 271, 272
Bag'asha To'lis qoon, 29
Bag'-mareg', 57
Badiuzzamon mirzo, 168
Baz, 60
Baybars, *Misr sultoni*, 244
Bayirqu, 127
Bayhaqiy, Abulfazl, 2, 5, 419, 420, 421
Balaza, *Farg'ona podshosi*, 268
Baltur temirchi, 233
Bandun, *Sug'd podshosi*, 326
Bar Shinaya, 286
Barbe de Meynar, 301
Barmaqlug' Jo'sun Billig, 189
Bars chabish, 74
Bartold V.V., 75, 314, 409, 411
Bastam ibn Savr ibn Amir ibn Musovir, 312
Batalmyus, 364, 365
Batalmyus al-Arib ibn Adib, 364
Batalmyus ibn Lag'us, 364
Batlimus (Batalmyus) – q. *Ptoleney*, 364, 386
Bahman ibn Asfandiyor, 358

@tarixni_kutubxonasiga

Bahodirov R., 356
Bahodur tudun, 69
Bahrom Jur, 359
Bahrom ibn Bahrom, 359
Bahrom ibn Sobur, 359
Bahrom Chubin, *sosoniylar lashkarboshisi*, 17, 18, 250, 251, 409
Bashg'u, 127
Bashshar ibn Muslim, *Qutaybaning ukasi*, 327
Beg Kul, 135, 142
Bekvit I., 45
Bektug'di, *Sulton Mas'ud lashkarboshisi*, 424
Belyayev V.I., 40, 69, 261
Bernshtam A.N., 69, 151, 307, 308, 309
Bertels D.E., 261
Beruniy, Abu Rayhon, 2, 4, 5, 45, 69, 106, 278, 302, 303, 310, 373, 374, 386, 388, 420, 426, 427
Bess, 8
Bivarosf (Zahhok), 357
Bidun, 403, 404
Bijan tarxon, 106
Bilga xoqon, 3, 116, 122, 128, 129, 135, 138, 141, 145
Bilqis, *Yaman malikasi*, 362
Bindod Hurmuz, *Tabariston hokimi*, 345
Bintung Atay, 221
Bichurin N.Ya., 23, 24, 28, 30, 31, 32, 33, 34, 36, 38, 44, 45, 56, 69, 87, 95
Bishr ibn Tag'shoda Buxorxudot, 411
Biyan-bid, 56
Bobak ibn Soson, 358
Boboyorov G'., 2, 22, 23, 31, 34, 36, 43, 44, 48, 49, 50, 51, 54, 55, 56, 65, 68
Bog'iy, *Muqannaning lashkarboshisi*, 414, 416
Bogolyubov M.N., 64
Bodishi, *elchi*, 47
Bodom, *Tolliqon hokimi*, 334
Bokolabra, *skif*, 9
Bolshakov O.G., 40, 69, 261
Bosvort K., 355
Boxa, *massaget*, 8
Boyazid, Yildirim, 248
Brosse M.I., 242, 243, 245
Bu Bakr Husayriy, 423
Bu Nasr – q. *Abu Nasr ibn Mishkon*, 421, 422, 424, 425
Bu Sodiq Tabboniy, *imom*, 423, 424, 425
Bu Tohir Tabboniy, *imom*, 424, 425
Bug'a al-Kabir, *turk lashkarboshisi*, 317
Bo'g'roxon Muhammad, *qoraxoniy*, 5, 420, 423, 424, 425
Bo'gu xoqon, 115, 116
Budda, 335
Bo'yla bag'a tarqan, 135
Bo'yla bag'a tarxan, 141
Bo'yla qutlug' yarg'an, 151
Bukayr ibn Mohon, *arab tashviqotchisi*, 284, 338
Bo'kli xoqon, 124, 151
Buqa Sal, 230
Bulgakov P.G., 386
Bulmish, 230, 231
Bumin xoqon, 124
Burzmiran, 56
Bo'riyev O., 2, 324
Bo'ritegin (Ibrohim Tamg'ochxon) *qoraxoniy*, 425, 426
Bo'rluqchi, 231
Buron bint Abarviz, 359
Burxan Quli, 231, 232
Buxorxudot, 40, 408, 409, 410, 411
Valerlan, 8
Valid I ibn Abdulmalik, *Umaviy xalifa*, 253, 267, 334, 360
Valid II ibn Yazid, *Umaviy xalifa*, 338, 371
Valid ibn Sa'd al-Azdiy, 340
Vali'a ibn Marsad, *Yaman podshohi*, 362
Van Sui Tung-tien, 38
Van Floten, 355, 356, 360
Vanakan vardapet, 241, 243
Vanenok kotib, 65
Vanfarn, 97
Vapshi tutung, 234
Varam, – q. *Bahrom Chubin*, 17
Varaxran V, *Fors podshohi*, 250
Vardan Arevelsi (Buyuk Vardan), 4, 235, 242, 243
Vardan Malikonyan, *arman lashkarboshisi*, 250
Vardanyan V., 237
Vardapet Aristakes, 257
Vardonxudot, 406
Varqa ibn Nasr al-Bohiliy, 334, 405
Vasilevs, 18
Vasiliy II, *Vizantiya imperatori*, 239, 240
Vaxram, *Tig'ron o'g'li*, 256
Vahram Mixrevandak (Mehevand) – q. *Bahrom Cho'bin*, 250, 252
Vahriz, 363
Vachagan, *Alvank podshohi*, 251

@tarixchi_kutubxonasiga

Vashruin, *Tohariston hokimi*, 345
Vg'ashmarik, 81
Velizariy, *Vizantiya lashkarboshisi*, 7, 8
Velixanova N., 302
Vessier E. de la, 64, 66, 73
Vizburg-mareg', 58
Vilgelm Rubruk, 245
Vind-Marg', 57
Viraz-finz, 58, 59
Viralan, 56
Vishtam, *Kshtut hokimi*, 102, 103
Voqi' ibn Abu Sud at-Tamimiy, 336
Vosil ibn Amr, *Buxoro amiri*, 410, 411
Vosil ibn Taysal al-Anbariy, 266
Vey Shou, 3, 22, 23
Gagik I, *arman podshohi*, 240, 258
Gagik, *Arsruni islxani*, 237
Gay Yuliy Sezar, *Rim imperatori*, 21
Gayton, 245
Galotyan A.G., 245
Gan Moxedu (To'n Bahodur), 69
Gan Tutun (Tun tudun), 44
Gao Syan-chji, *Ansi (Kucha) voliysi*, 45
Gaoszun, *Xitoy imperatori*, 27, 29, 38, 41
Garax – q. *Jarroh ibn Abdulloh*, 283
Garib B., 64
Gachik, *arman lashkarboshisi*, 236
Gashk I Bagratuni, *arman podshohi*, 239
Gevond, *arman rohibi*, 253
Gevond, *arman tarixchisi*, 4, 235, 236, 243, 253
Gevorkyan V.A., 239, 245, 247
Georg Garnesi, 240
Georgiy Monomax, 16
Georgiy Pisida, 15
Georgiy Sinkel, 15, 16
Gerardo kremonalik, 296
Gerodod (Herodot), *tarixchi*, 10
Getum I, *Kilikiya podshohi*, 243, 244, 245
Getum Patmich, 245, 246
Girdak, *Muqanna lashkarboshisi*, 414, 416
Gitsu Samtso', 201
Grene F., 64, 73, 87, 89, 105
Grigor Megistros, 239
Grigor ruhoniy, 240
Grigor, *Arsruni islxani*, 237
Grigor-Derenik, 236
Grigoriy IV katolikos, 241
Grigoriy Ma'rifatparvar, 239, 241
Gritsina A., 42
Go'gnag, 60
Gudulu Tun Dadu – q. *Qutlug' Tun-Tardu*, 50
Gukas Karpetsi katolikos, 248
Gumilyev L.N, 10, 106
Go'rd, 60
Guyukxon, 244
Gelo-pulo – q. *Qora-bo'g'ra*, 42, 50
*Gyuymuchji*, 37
David, *gurji podshohi*, 258
Dalobyan – q. *To'ramen*, 13
Dante Aligeri, 296
Daunixt, 292
Dahhok (Zahhok), 366
De Gue, *arabshunos*, 300
Deb, *Yalganning o'g'li*, 58
Deb-raz, 57, 58, 59
Devashtich, *Sug'd podshosi*, 62, 65, 66, 67, 68, 72, 74, 76, 77, 81, 82, 83, 84, 85, 86, 87, 88, 89, 91, 92, 93, 95, 97, 101, 102, 105
Devashtich, *Sug'd hukmdori*, 62, 63, 65, 68, 71, 72, 73, 76, 77, 78, 83, 85, 86, 87, 89, 91, 94, 96, 97, 98, 101, 102, 104, 105, 106
Dengiz, *O'g'uz xoqon o'g'li*, 183, 191
Djabshi (Chebi-shi), 28
Divashtish (Devashtich), 269, 270
Diokletian, 15
Dipag', 83
Dichje, *Suy sulolasi hukmdori*, 47
Dishttach, 67
Dovud ibn Abbos, 323
Dovud ibn Iso ibn Muso, *Makka noibi*, 287
Dovud ibn Yazid ibn Umar, 340
Dovud turkman – q. *Chag'ribek Dovud*, 423, 426
*Doge* (Turg'ar), 38, 39
Doro, *ahamoniy*, 358
Dusoboti (Tug'shoda, Tag'shoda, Tukaspadak) Buxorxudot, 38, 40, 52
Do'xlabek – q. *To'g'rulbek I Saljuqiy*, 256
Dele Tyanchji, 44
Dele Fuchji, 44
Yevdokiya, 20, 21
Yevseviy, *yunon tarixchisi*, 241
Yegishe, 237, 243
Yodaxshetak, 76, 77
Yezdgird, 57
Yoqub ibn Ishoq al-Kindiy, 355
Yoqut ar-Rumiy al-Hamaviy, 278, 279, 305
Yerak, 99

@tarixchi_kutubxonasiga

Yosir Yun'im, *Yaman podshohi*, 362
Yoshida Yu., 55, 64
Jabala, *xos askar*, 264
Jabroil ibn Yahyo, *vazir*, 286, 414, 415, 416
Jazima al-Abrash, *Yaman podshohi*, 363
Jaloliddin Manguberdi Xorazmshoh, 241, 242
Jaloluddavla Malikshoh I, *saljuqiy sulton*, 257
Jamravaz, 70, 74
Jamshid, *Eron podshohi*, 378
Jarir ibn Hamyon, 269
Jarroh ibn Abdulloh al-Hakamiy, *arab lashkarboshisi*, 74, 283, 328, 337
Jahvar ibn Murdar, 285
Jahvar ibn Murraf, 343
Jahm ibn Zahr, 328
Jahonshoh, *Qora Yusuf o'g'li*, 248
Ja'far Barmakiy, 345
Ja'far ibn Xanzala al-Buhroniy, *Xuroson noibi*, 338
Ja'far ibn Yahyo ibn Xolid, *vazir*, 345
Jevanshir, *Ag'vonk hokimi*, 238
Jenbakur, *Xitoy imperatori*, 254
Jil Abu Shukr buxorxudot, 334
Jiluya al-Kurdiy, 348
Jolinus, 381
Junayd ibn Xolid, *Buxoro amiri*, 417
Jun-lad Shaburan, 57, 58
Zaynab, *Mahmud G'aznaviyning qizi*, 420, 423, 424
Zakatch, 79
Zanter, *massaget*, 8
Zardusht, 358, 378
Zemarx, 11
Zenob Glak, 243, 246
Zievil, 21
Ziyod ibn Solih al-Xuzoiy, 275, 341
Ziyoyev Sh., 55
Zob va Karshosb, *eron podsholilari*, 357
Zonara, 16
Zotviyya al-Forsiy, *Yaman podshohi*, 364
Zu Jadan, *Yaman podshohi*, 362
Zu Nuvos, *Yaman podshohi*, 362
Zu Shanotir, *Yaman podshohi*, 362
Zubayda, *Horunning xotini*, 287
Ibn Abu-l-amarrat, 271
Ibn al-Qiftiy, 295
Ibn al-Faqih, 2, 4, 351, 352
Ibn an-Nadim, 295, 300, 352
Ibn as-Sariy, 289
Ibn Badrun, 278
Ibn Vozih – q. *al-Ya'qubiy*, 330
Ibn Durustavayh, 366
Ibn Zubayr, 371
Ibn Iroq, 374
Ibn Omir, 324
Ibn Tabo-tabo, 349
Ibn Xurdodbeh, 2, 4, 300, 301, 302, 304, 306, 310, 353, 377
Ibn Hubayra, 340, 341
Ibn Hubayraning, 340
Ibrohim ibn Muhammad al-Mahdiy, *Abbosiy xalifa*, 288, 338, 339
Ibrohim payg'ambar, 412
Iyos ibn Qubaysa at-Toiy, *Yaman podshohi*, 364
Iyas ibn Abdulloh ibn Amr, 266
Ikichi, 232
Ikkadak, *Nanich o'g'li*, 77
*Imi Kutebo – q. Qutayba ibn Muslim*, 51
Imru al-Qays al-Bad, *Yaman podshohi*, 363
Imru al-Qays al-Badan, *Yaman podshohi*, 363
Imru al-Qays ibn Nu'mon, *Yaman podshohi*, 363
Inay Tutun Gyule, 45
Inal (Inay) Tudun Kulug, *Choch hukmdori*, 45, 71
Inal xoqon, *Sharqiy turk hukmdori*, 69, 115
Inal-tarxon, *Choch hukmdori*, 56
Inanchu bobo, 128
Inye Dagan, *Shuturket hokimi*, 56
Ioann Yepifaney, 15
Ioann seviliyalik, 296
Ioannes Drasxanakertsi, 4, 235, 243, 252
Ioannesov X., 247
Iraj, *Afridun o'g'li*, 303
Irakliy I, *Vizantiya imperatori*, 15, 18, 20, 21, 238
Irkin, 135
Irti, 103
Isig Sangun, 159, 160, 168
Isyi Liki, 128
Iskandar (Aleksandr III), 375, 376, 385
Iskandar Zulqarnayn, 317, 318, 320, 363, 364, 376
Iskandar makedoniyalik, 14
Iskandar Makedoniyalik, 299, 358
Iskandar Rumiy, 362
Iskandar, *Qora Yusuf o'g'li*, 248
Ismat ibn Abu Ismat as-Sabi'iy, 287, 347
Ismoil ibn Abbos ibn Muhammad, *Madina noibi*, 287

@tarixchi_kutubxonasiga

Ismoil ibn Ja'far ibn Sulaymon ibn Ali al-Hoshimiy, 350
Ismoil, *Asad ibn Abdulloh o'g'li*, 409
Iso ibn Ali, *Nasaf hokimi*, 276, 342
Iso ibn Ja'far, 345
Iso ibn Muso, 343
Iso payg'ambar, 412
Israv, 256
Istami (Istemi) xoqon, 11, 106, 124
Ishoq ibn Ismoil, *Tiflis hokimi*, 317
Ishoq ibn Muslim al-Uqayli, 342
Ishoqov M., 65
Itapa, 226
Itachuk, 159, 160, 168
Ifriqas, *Yaman podshohi*, 361
Ixrid, *Kesh podshosi*, 275
Ishbara bilga, 147
Ishbara Chiqan, 146
Ishbara Yamtar, 126
Ishxan Tarsaich, 246, 247
Yanga-eltabar, 95
Yaskul, 57, 58
Yigan-cho'r, 147
Yig'ontegin (Bo'g'roxon), *Qodirxon o'g'li*, 420, 423
Yinchu o'guz, 116, 122, 127, 147
Yo'g'a, 137
Yo'llug'tegin, *Kultegin o'g'li*, 116, 118, 122, 123, 124, 129, 131, 132, 135
Yunanchu (Inanchu), 89
Kaboj-xotun, 262
Kav, 57
Kavifarnch, 105
Kadar, *Shosh podshosi*, 274
Kayardashir, 358
Kaybishtosb (Hirboz), 358
Kaykovus, 358, 375
Kayquboz, 358
Kayluhrosb, 358
Kayxusrav, *Siyovush o'g'li*, 358, 375
Kali Karib, *Yaman podshohi*, 362
Kambiz, *ahamoniy*, 259
Kampani R., 296
Karzanj, *sug'diylar boshlig'i*, 268
Karimov G'., 261
Karimxon Zand, 249
Ka'b ibn Zahayr, *shoir*, 367
Kayumars, *Eron podshohi*, 357
Kedrin, 16
Kibi, *Farg'ona hukmdori*, 69
Kilshoh – *q. Kayumars*, 357
Kirakos Gandzaketsi, 241, 242, 243
Kirakos Ganzaketsi, 235
Kisro ibn Quboz ibn Hurmuz ibn Anusharvon, 359
Kliment V, *Rim papasi*, 245
Klyashtorniy S.G, 43, 68
Kobul Tegin, *To'xariston yabg'usi*, 54
Kovus al-Fazl ibn Sahl, *Usrushana hokimi*, 329
Komentiol, 17
Kondratyeva S.P., 7, 9
Kono Buxorxudot, 398
Konstantin, 8, 19, 365
Konstantin V, *Vizantiya imperatori*, 19
Konstantin Bardzbersi katolikos, 243
Konstantin Yun, *Vizantiya imperatori*, 365
Korun, 345
Kubatin A., 22, 23, 31, 36, 55, 65
Ko'k Buqa, 229, 230
Ko'k, *O'g'uz xoqon o'g'li*, 183, 191
Kul tegin, 45
Kuli-cho'r, 45, 135, 145, 146, 147
Kulortegin, *Muqanna lashkarboshisi*, 417
Kultegin (Ko'ltegin), *Ko'k turk xoqoni*, 116, 124, 126, 129
Kul-Chabish, 45
Kul-erkin, 99
Kun Inda, 3, 22, 24
Kun, *O'g'uz xoqon o'g'li*, 191
Kunaksolan, 13
Ko'ni Quz, 231, 232
Kuntug'di, 208
Kursul at-Turgashiy, *turk lashkarboshisi*, 267, 273, 274
Kurtshish, 99
Kurush, *ahamoniylar podshohi*, 249, 259
Kutvol Bektegin chavgondor, 426
Kutila frakiyalik, 8
Lazar Parpesi, 237
Lahiz ibn Kurayz, 340
Lev V, 15, 19
Levon, 242
Levon II, *Kilikiya podshosi*, 244
Li Shimin, 27
Li Yuan, 27
Li Yanshou, 26
Livshis V.A., 64, 65, 67, 68, 69, 70, 71, 72, 73, 74, 75, 78, 79, 80, 83, 84, 87, 89, 92, 95, 100, 101, 102, 106
Lika, 232
Lisun Tay Sangun, 135
Lure P., 64

@tarixchi_kutubxonasiga

Lyu Xu, 3, 22, 27
Maxabali, *Maxaradi o'g'li*, 205
Maxadivi, *Maxaradi o'g'li*, 205, 206
Maxasatvi, *Maxaradi o'g'li*, 205, 206
Mavrikiy, *Vizantiya imperatori*, 10, 11, 13, 20, 251
Majduddavla Rustam, *Ray hokimi*, 256
Maqarach tamg'achi, 128
Malala, 15
Malik ibn al-Haysam, 338
Malik ibn Fahm, *Yaman podshohi*, 363
Malikshoh – q. *Jaloluddavla Malikshoh I*, 258
Malov S.E., 109, 117, 138, 145, 151, 152, 153, 154, 155, 157, 159, 202, 219
Malyavkin A.G., 44
Mangu qoon, 244, 245
Maniax, *so'g'd*, 106
Mansur ibn Yazid ibn Mansur al-Himariy, 345
Manujehr (Manuchehr), 357
Maoz ibn Muslim, *Xuroson amiri*, 416, 417
Marvon, 72, 73
Marvon II ibn Muhammad, *umaviy xalifa*, 283, 284, 339, 340, 360
Marvon ibn al-Hakim, 360
Marko Polo, 245
Marlan, 229
Marsad ibn Abd Kulol, *Yaman podshohi*, 362
Martin, 8
Masar xoqon, 190
Maslama ibn Abdulmalik, *arab lashkarboshisi*, 262, 283, 329, 337
Masruq ibn Abraha, *Yaman podshohi*, 363
Mas'ud, *Mahmud G'aznaviy o'g'li*, 256
Matteos Urxayetsi, 235, 240, 244
Maxaradi, 205
Mahmud G'aznaviy, 5, 255, 256, 374, 419, 420, 421, 426, 427
Mahmud Koshg'ariy, 45, 71, 168
Mahroj, *Zobij podshohi*, 370
Melik Oganjanyan K.A., 242
Menandr Protektor, 9, 12, 13
Menandr, *Yunon tarixchisi*, 106
Mes A., 301
Mjik G., 278
Miyar, *Farnag'atning o'g'li*, 60
Mirziyoyev Sh., 3
Misir, 226, 227, 228
Mixail II, 19
Mkrtich Emin, 238, 243
Moassamo, *Yaman podshohi*, 363
Movses Kagankatvatsi, 4, 237, 238, 243
Movses Kagan-katvatsi, 235
Movses Xorenatsi, 237, 243, 246
Molik ibn Forim, 415
Moniy, 381
Monomax, *Vizantiya imperatori*, 258
Moxyon, 77
Moxyon Dopotshir, 76, 77, 78
Moxedo Tutun (Bahodur tudun), 44
Mug'anxon, *Sharqiy Turk xoqoni*, 13
Mo'gilan – q. *Bilga xoqon*, 129
Mug'ira ibn Shu'aba, *arab lashkarboshisi*, 281
Mudrik ibn Muhallab, *Balx hokimi*, 337
Muqanna, 276, 411, 412, 413, 414, 415, 416, 417, 418, 419
Mulabbad ibn Xarmala ash-Shayboniy, 285
Mungul Buqa, 233
Munzir ibn Moassamo, *Yaman podshohi*, 364
Munzir ibn Munzir, *Yaman podshohi*, 363, 364
Munzir, *Yaman podshohi*, 363
Muoviya I ibn Abu Sufyon, *Umaviy xalifa*, 4, 262, 282, 324, 325, 332, 360, 367, 400
Muoviya ibn Hishom ibn Abdulmalik, *Umaviy xalifa*, 284
Musa Paygu, 257
Musayyab ibn Zuhayr az-Zabiy, 417
Muslim ibn Ziyod ibn Abiyh, *Xuroson amiri*, 403
Muslim ibn Ziyod Muhallab, 403, 404
Muslim ibn Said, *arab lashkarboshisi*, 270
Muso al-Hodiy, *Abbosiy xalifa*, 286, 347, 361
Muso Zur'a ibn Alqama, 265
Muso ibn Abdulloh ibn Hozim as-Sulamiy, 264, 265, 266
Muso payg'ambar, 412
Muso, *Horun ar-Rashid akasi*, 344
Muhammad al-Amin ibn Horun ar-Rashid, 287, 346, 347, 348
Muhammad al-Bal'amiy, *vazir*, 261
Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Abbi, 338, 339
Muhammad ibn Ali ibn Sulaymon an-Navfaliy, 341
Muhammad ibn al-Qosim ibn Muhammad ibn al-Hakam ibn Abu Uqayl as-Saqafiy, 335
Muhammad ibn al-Mansur – q. *al-Mahdiy*, 276

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhammad ibn al-Muhallab, *Marv hokimi*, 337
Muhammad ibn Amr an-Nusaybiy at-Tag'labiy, 342
Muhammad ibn Ja'far, 361, 397, 399, 400, 408, 409, 411, 417, 418
Muhammad ibn Zufar, 397
Muhammad ibn Ibrohim al-Alaviy, 349
Muhammad ibn Qosim, 283
Muhammad ibn Muhammad ibn Zubayd, 349
Muhammad ibn Solih al-Laysiy, 409
Muhammad ibn Uqba, *arab lashkarboshisi*, 253, 254, 255
Muhammad ibn Xolid, *Madinaning noibi*, 284, 285
Muhammad ibn Horun ar-Rashid, *Abbosiy xalifa*, 287, 288, 344
Muhammad ibn Yazid ibn Hotam, 328, 348
Muhammad payg'ambar (S.A.V.), 279, 280, 282, 333, 360, 367, 373, 376, 412
Muhammad, *Mahmud G'aznaviy o'g'li*, 256, 349
Mo'yun-cho'r, *uyg'ur xoqoni*, 138
Mxitar Aniy, 256
Mxitar Gosh, 241
Na Gyuy Gyuy-bishi – q. *Kul-Chabish*, 45
Nabata ibn Hanzala al-Kilabiy, 339, 340
Navzar, 357
Navoiy, Alisher, 168
Navuxodonosor I, 259
Najoshiy, *Habashiston podshohi*, 367
Naim ibn Sahl, 414
Nang Sangun, 128
Narses, *Vizantiya lashkarboshisi*, 18
Narshaxiy, 5, 324, 397, 398
Nasiriddin Mahmud I, *saljuqiy sulton*, 257, 258
Nasr ibn Sayyor, *arab lashkarboshisi*, 270, 273, 274, 276, 326, 329, 339, 340, 410, 411
Nasr ibn Shabas al-Uqayli, 288, 289
Nasr ibn Shabas an-Nasriy, 288, 289, 349, 350
Nashapak, 97
Negmatov N., 42
Nerses Mshesi, 243
Nersesyan V., 237
Nizak, *Turklarning boshlig'i*, 334
Nik Falkon rohib, 245, 246
Nikifor, *Konstantinopol patriarxi*, 3, 19, 20
Nitkuch, 103
Nishopurlik Sinbad – q. *Sumbat Mug'*, 284
Nuh II, *somoniy*, 355
Nuh ibn Asad, *somoniy*, 314, 327, 354
Nuh payg'ambar, 370, 412
No'shiravoni Odil – q. *Xusrav I Anushirvon*, 253
Nu'mon ibn Asvad, *Yaman podshohi*, 363
*Nu'mon, Yaman podshohi*, 363
Ovannes Yerznkatsi, 243
Ovannes katolikos, 253
Odam Ato, 261, 331, 412
Ozarmiduxt, 359
Oy, *O'g'uz xoqon o'g'li*, 191
Oyto'ldi, 208
Oysha, *Muhammad (S.A.V.) xotini*, 282
Oltun xoqon, 184
Oltuntosh, 427
Omir ibn Umar ibn Imron, *Buxoro qozisi*, 414
Oros L., 20
Osipova K.A., 9
Osmon o'g'li, *Xitoy imperatori laqabi*, 42, 45, 164
Otaxo'jayev A., 2
Ou Yangshyu, 27
Oshin, 245
Paduaxtag, *farishta*, 199
Payg'u, *saljuqiy*, 425
Parpaz, 55
Parshtaz, 103
Patkanyan K.P., 236, 237, 238, 242, 245, 247
Patriarx Nikifor, 6
Pero'z (Firuz), 252, 253
Petros Syunetsi, 237
Pigulevskaya N.V., 9, 11, 14, 17
Pidayev Sh., 2
Piruz Yazkort o'g'li, 253
Prokopiy Kesariyalik, 3, 7, 8, 15
Ptolemey, 259, 278, 293, 294, 295, 298, 304, 323, 337, 374
Po'an, *Farrag'at o'g'li*, 60
Puleyblenk E., 44
Po'tan, 60
Rabih ibn Usmon, *Madina noibi*, 285
Rabi' ibn Ziyod al-Harisiy, 332
Rabi' ibn Imron at-Tamimiy, 271
Radlov V., 148, 149, 150
Ramstedt G., 151
Rasulov A., 388, 398
Raux ibn Xotam al-Muhallabiy, *arab lashkarboshisi*, 285
Rafi' ibn al-Lays, 276, 345, 346
Revak, 86, 90, 91

@tarixiy_kutubxonasiga

Revaxshyon, *Partan hokimi*, 83, 84, 99, 100
Regiomontan (Iogann Myuller), 296
Rijo ibn Abu az-Zaxxok, 350
Rizo Ali ibn Muso ibn Ja'far, 350
Romtish Vg'ashfarn, 65
Rofe' ibn Lays, 4
Rtveladze E.V., 70
Ruknıddin Bo'rkiyoruq, *saljuqiy*, 257
Rustam, *fors lashkarboshisi*, 281
Sabiq basar, 159
Sabkari, *Xuzor podshohi*, 269, 270
Sabuktegin G'aznaviy, 427
Sabuktegin sipohsolor, 256
Savra ibn al-Hurr al-Xanzaliy, 329
Savshafan (Savshafarn), sug'd, 48
Said ibn Abdulaziz, *Xuroson voliysi*, 329
Said ibn Amr al-Xarashiy, *Xuroson voliysi*, 268, 269, 270, 276, 283, 402, 418, 419
Said ibn Vanufar, 335
Said ibn Usmon ibn Affon, 262, 325, 326, 333, 408
Said Xuzayna, 268
Sain – q. *Shahin*, 18
Sayf ibn zi Yazan, *Yaman podshohi*, 363
Saqlab, 187
Salam, *Afridun o'g'li*, 302
Sallom Tarjimon, 317, 320, 321, 377
Salm ibn Ziyod, *Sijiston hokimi*, 263, 326, 333
Saloma barbar, 342
Samsit, *Biyan-bid o'g'li*, 56
Samuel Anetsi, 235, 241, 247
Sam'oniy, 397
Saray ibn Mansur ash-Shayboniy, 349
Sarvaros – q. *Shalirboroz*, 18, 21
Sargis katolikos, 239
Sa'd ibn Abu Vaqqos, *sahoba, lashkarboshi*, 281
Sebeos, 243
Selevk Nikator, 375
Sembat Bagratuni, 251
Senga, 229
Sigin (Yogan), 40
Siyovush, *Eron shahzodasi*, 48
Simeon Logofet, 16
Sims Villiyams N., 53
Sims-Villyams, N., 64
Sinnimor, 363
Sinsidu, 229, 230
Sit, *G'az mavzesining xazinaboni*, 59, 60
Siyamich, *Tishich o'g'li*, 77
Skilisa, 16
Smbat (Sembat) Bagratuni, *lashkarboshi*, 251, 252, 253
Smbat Sparapet, 4, 235, 244, 245, 246
Smbat, *Gaslk I Bagratuni o'g'li*, 239
Smbatyan Sh.V., 238
Smirnova O.I., 39, 40, 42, 64, 66, 72
Sobit, *arab lashkarboshisi*, 272
Sodiqov Q., 108, 117, 129, 148, 169, 208
Sozomen, 15
Soit al-Ishtixoniy, 268
Sokrat, 15
Solih ibn Muslim, *Qutaybaning ukasi*, 266, 326
Solih ibn Horun ar-Rashid, 346
Somonxudot, 327, 409
Spadak, 95, 98
Sparzevgun, 13
Stemvis-xoqon, 11
Stepanos Orbelyan, 4, 246, 247, 259
Stepanos Taronetsi (Asoxik), 4, 239, 240, 252, 255
Stefannosga katolikos, 236
Su-boa ibn Mi'mora al-Azdiy, 340
Suboshi Hojib, 422
Sug'diyon, *Muqannaning lashkarboshisi*, 416
Sulaym, 335
Sulaymon ibn Abdulmalik ibn Marvon, *umaviy xalifa*, 283, 336, 337, 360
Sulaymon ibn Abu-s-sariy, *arab lashkarboshisi*, 269, 272
Sulaymon ibn Ali, 342
Sulaymon ibn Dovud, *payg'ambar*, 362
Sulaymon ibn Kasir al-Xuzoiy, *tashviqotchi*, 283, 337, 338
Sulaymon Laysiy, 401
Sulton Abdurashid, *Mahmud G'aznaviy o'g'li*, 419
Sulton G'iyosiddin Dovud, *saljuqiy*, 258
Sulton G'iyosiddin Mas'ud, 258
Sulton Mas'ud, *Mahmud G'aznaviy o'g'li*, 419, 420, 421, 424, 425
Sulton Mu'iziddin Arslon, 258
Sulton Ruknıddin To'g'ril II, *saljuqiy*, 258
Sulton Ruknıddin To'g'ril III, *saljuqiy*, 258, 260
Sulton Sanjar, *saljuqiy*, 258
Sumbat Mug', 284, 342, 343
Sung Si, 27
Suren, 56
Surp Prkich (Avliyo Xaloskor), 249
Sutyashiri, 229

@tarixchi_kutubxonasiga

Syuan Szan, *Xitoy rohibi*, 39, 49, 105
Syuan-szun, 42
Syuy Jinzung, 3, 22, 24
Tabg'ach xoqon, 114, 115, 123, 124, 128, 132, 134
Tag'ma Tarxon, *so'g'd*, 106
Tadqas cho'r, 126
Tay Bilga tutuq, 142
Tayyim, *qurayshiy*, 370
Tayszun, *imperator*, 27, 37, 40
Tak, *Betning o'g'li*, 56
Talha at-Talhot, 333
Talha ibn Abdulloh ibn Xalaf al-Xuzoiy, 333
Talha ibn Tohir, *Xuroson amiri*, 288, 351
Tansi (Osmon o'g'li), 164
Tapmish, 224
Taran, *Ixridning akasi*, 275
Tarasiy, *Konstantinopol patriarxi*, 19
Tarbish, 228
Tardush Inanch-cho'r, 128
Tardu-shad, *Tun yabg'u-xoqonning o'g'li*, 49, 115
Tarxan Sangun, 159
Tarxon, 58
Tarxun, *Samarqand hukmdori*, 265, 333, 334, 335, 403, 407
Tahmuras, 357
Tayang'u Qora Churin Turk, *G'arbiy turk xoqoni*, 10
Tegin Tyanchji, *Choch hukmdori*, 36
Temur Buqa, *dehqon*, 224, 225, 229
Temur Senga, 224
Temurlang – q. *Amir Temur*, 247
Ter-Gevondyan A.N., 236
Ter-Grigoryan T., 242, 248
Termizshoh, 265
Ter-Mkrtchyan L.X., 235
Ter-Mkrtchyan L.X., 249
Tig'ron, 256
Tiguy tayshi, 221
Tinsi o'g'li, 116
Tirig Eltmish, 232
Tishich, 77
Tobaguy, 23
Tobo-kexan, – q. *Arslon Tapuxon*, 16
Tovma Arsruni, 4, 235, 236, 237, 250, 251
Tovma Arsruni Vardapet, 236
Tovma-Otsiz (Tovma-Anonim), 237
Tog', *O'g'uz xoqon o'g'li*, 183
Tohir ibn Abdulloh, 330
Tohir ibn al-Husayn ibn Mus'ab al-Bushanjiy, *lashkarboshi*, 259, 287, 288, 312, 347, 348, 349, 351
Toshev N., 420
Trdat I, *arman podshohi*, 239
Tubba' al-Aqran, *Yaman podshohi*, 362
Tubba' ibn al-Aqran ibn Shamir Yar'ash, *Yaman podshohi*, 362
Tubba' ibn Hasson, *Yaman podshohi*, 362
To'g'an Tug'dig'an, 223
To'g'rulbek I Muhammad, *saljuqiy*, 256, 257, 258, 259, 260, 425
Tug'shoda (Tag'shoda) Tukaspadak Buxor-xudot, 38, 40, 52, 400, 401, 408, 409, 410, 411
Tudun, *G'arbiy Turk xoqonining noibi*, 45, 59, 69
Tuj-shi-xu, 21
Tuzug xotin, 231
Tuyg'un Eltabar, 128
To'yinchug', 232, 233
Tukaspadak, *Samarqand hukmdori*, 38, 40, 52
To'q Bo'gu, 154
Tuldix, 13
To'lis tardush yabg'u, 125
To'murdu qag'ul, 188
Tun tudun, 44
Tun yabg'u-xoqon, *G'arbiy Turk xoqoni*, 29, 44, 48, 49, 87, 95
To'ngama *dehqon*, 227
To'ngategin, 128
To'ngra Sem, 113
To'nyuquq, *tarixchi*, 44, 109, 113, 115
To'pich, 105
Turak, 99
To'ramen (Turum), *Sharqiy Turk xoqoni*, 13
Turg'ar, *Samarqand hukmdori*, 38, 39
Turgash xoqon, 45, 52, 69, 71, 114, 115
Turg'un Olmas, 29
Turk Buqa, 230
To'rchi, 224
Tutush I, *Alp Arslon o'g'li*, 257
Tushtemur, 223
Ubaydulloh ibn Ziyod, *Xuroson noibi*, 4, 262, 324, 332, 400, 408
Ubaydulloh ibn Muslim, *Qutaybaning ukasi*, 328
Ugyan, 35
U-di, 37, 39, 41
Uyg'ur Eltabar, 134
Ulug' Turuk, 190, 191
Ulega – q. *G'urak*, 38, 39, 51
Umay bek, 156

@tarixchi_kutubxonasiga

Umar ibn Abdulaziz, *Umaviy xalifa*, 283, 328, 337, 360
Umar ibn Abdulloh ibn Muammar at-Taymiy, *Xuroson noibi*, 263, 333
Umar ibn al-Xattob, *xalifa*, 281, 360
Umar ibn Xubayra, 268, 270, 337
Umar Subaxiy, 413
Umm Iso, *al-Ma'mumning xotini*, 347
Umm Muhammad, *Salim ibn Ziyod xotini*, 326
Urum xoqon, 184, 185, 186
Urusbeg, 186
Usayd ibn Abdulloh al-Huzoiy, 343
Usmon ibn Abdulloh al-Musoyyab, 267, 269, 315
Usmon ibn Abdulloh, *Samarqand hokimi*, 267
Usmon ibn Abu Os, 281
Usmon ibn Affon, *xulafoi roshidinning uchinchisi*, 282, 331, 360
Usmon ibn Affon, *Xulafoi roshidinning uchinchisi*, 331
Usmon ibn Mas'ud, 266
Usmon ibn Sa'd, 266
Usmon, *al-Karmaniy o'g'li*, 284
Uchin Kulug Tirigmen, 153
Ushhang (Hushang), 357
Fazl ibn al-Muqtadir, 361
Fazl ibn Kovus, 330
Fazl ibn Rabi', 346, 347
Fazl ibn Salloh, 285
Fazl ibn Sahl, *vazir*, 287, 350
Fazl ibn Yahyo ibn Xolid ibn Barmak, *vazir*, 312
Faysharb al-Forsiy, *Yaman podshohi*, 364
Fanz, 57, 58
Farasman, 8
Farnag'at, 60
Farruxzod ibn Abarviz, 359
Fatufarn, *Sug'd elchisi*, 68, 72, 73, 74, 75, 76, 87
Feodor, *imperator*, 18, 19
Feodorit, 15
Feodosiy I, *Rim imperatori*, 6
Feofan Tavbakor, 3, 6, 15, 16, 18, 19
Feofilakt Simokatta, 3, 6, 9, 10, 12, 13, 15, 20
Firdavsiy, Abulqosim, 106, 303
Firuz (Fero'z), *Yazdijird II o'g'li*, 251, 252
Firuz (Fero'z), *Yazdijird III o'g'li*, 74
Foris Halima, *Yaman podshohi*, 363
Forobiy, Abu Nasr, 354, 355
Fotima, *payg'ambarning qizi*, 280
Foxuman – *q. Avarxueman*, 38
Framandar Utt, 93, 94
Framarizm Shaburan, *Ru'b hukmdori*, 55
Fratanch, 99
Freyman A.A., 64, 81, 93, 95
Xavsara ibn Yazid, 270
Xayzuron, *Horun ar-Rashidning onasi*, 398
Xaysam ibn al-Adiy, 330
Xalas, 57
Xamir, 94
Xani', 272
Xanlaryan L.A., 242
Xara Bug'ra – q. *Qora-bo'g'ra*, 42
Xarsama ibn A'yon, 346
Xautsma M.T., 331
Xachatur Jugayetsi, 4, 248, 249, 253, 259
Xachikyan L.S., 250
Xashviy, *Muqannaning lashkarboshisi*, 414, 415
Xvastu, 57
Xederxon Bexerxore – q. *Qodirxon ibn Bug'raxon*, 257
Xisu Eltabar, 105
Xoja Abulqosim Husayriy, 421, 424
Xoja Ahmad ibn Abdusamad, *saljuqiylar vaziri*, 421
Xoyto-Tamir, 145
Xolid ibn Abdulloh, *Xuroson voliysi*, 270, 271, 272, 338
Xolid ibn Valid, *mashhur arab lashkarboshisi*, 364
Xolid ibn Junayd, *Buxoro amiri*, 411
Xolidov A.B., 261
Xorsoman, *massaget*, 8
Xotun, *Buxoro malikasi*, 53, 324, 325, 332, 333
Xristmani Y., 296
Xro'shtag, farishta, 199
Xubido – *q. Axurpat*, 48
Xudev-mag'at, 60
Xudev-mareg', 58, 59
Xo'jayev A., 22, 23, 24, 25, 26, 28, 44
Xukukxudot, 406
Xulxan, 56
Xurmuzd IV, *sosoniy*, 17, 250, 251, 252
Xurrazod, *Xorazm podshosi*, 327
Xusaru tarxon, 57, 58
Xusrav I Anushirvon, *sosoniy*, 16, 17, 18, 19, 21, 253, 279, 308, 309, 363, 364
Xusrav II Parvez, *sosoniy*, 238, 250, 251, 252
Chavsu, 233
Chag'ribek Dovud, *saljuqiy*, 257, 423
Chakin Cho'r Bilga, 34, 46, 62, 63

@tarixchi_kutubxonasiga

Chaku, 106
Chaqsi Buqsang rohib, 232
Chang Sangun, 128
Changshi, 158
Charaxay, 258
Chacha Sangun, 133
Chjaovu Bisi, 40
Chjaovu Podati, 47
Chjao-vu Sha, 40
Chjaovu Shiagye, 47
Chjaovu, *Kangyuy hukmdori*, 31, 32, 33, 34, 35, 37, 40, 46, 47, 62
Chjun-szye, 31
Chjengguan, 29
Chibi, 29
Chichurov I.S., 16, 18, 20
Chuaymo-Xeduo, 29
Chuy tutung, 234
Chebi-shi, 29
Shavann E., 23, 44, 51
Shavkar ibn Xumayk, 269
Shamir Yar'ash, *Yaman podshohi*, 362
Shaoshefen (Savshafan), 48
Shapux Bagratuni, 235
Sharaf, *Abu Muslimning lashkarboshisi*, 416
Sharik ibn Haris, 409
Sharik ibn Shayx al-Maxriy, 275
Shaxnazaryan K., 240, 247
Shahin, *sosoniylar lashkarboshisi*, 18
Shahrboroz, *sosoniylar lashkarboshisi*, 18
Shashebi (Shishpir), 47
She Axu (Sher Axur), 42
Sheguy xoqon, 36
Shenan Yu., 38
Shener Y., 296
Shila, 223
Shiller F., 296
Shingqu Sheli, 201
Shinguy tutung, 232
Shirays, 105
Shirkavich, 97
Shishpir, *Samarqand hukmdori*, 47
Shoniyozov K., 43
Shohrux mirzo, 248
Shyuanzung, *Xitoy imperatori*, 27, 30
E. De Vesier, 89
Ebuochji, 29
El Arslon Xorazmshoh, 305
El To'g'an tutuq, 152
El-Arslon Yangi Sovuq Tegin, *Turk xoqoni*, 17
Elbilga xotun, 125
Elias Bar Shinaya, 278, 280, 282
Elmurodov I., 374
Eltabar, *Chach hukmdori*, 95, 96, 97, 144, 145
El-tabari tapug'lig', 57, 58
Eltarish xoqon, *Ko'k turk xoqoni*, 113, 116, 125, 137, 138
Elchi, 224
Elchi Buqa, 223
Emin N., 240, 243
Er Buqa, 231
Er To'nga, 232
Eran Ulug', 156
Erkin safdosh, 147
Esxman, *massaget*, 8
Yuzbashyan K.N., 239
Yulduz, *O'g'uz xoqon o'g'li*, 191
Yuliyus (Yulius), 365
Yungchi, 223
Yustin II, *Vizantiya imperatori*, 11, 16
Yustinian I, *Vizantiya imperatori*, 7, 12, 18
Yusupova D., 398
Yusuf al-Barm, 343
Yusuf Yinol, *saljuqiy*, 425
Yusuf Xos Hojib, 208
Yagansil, 126
Yazdigird II, *sosoniy*, 250, 253
Yazdigird III ibn Shahriyor, *sosoniy*, 74, 280, 281, 375
Yazdijard, 272
Yazid I ibn Muoviya, *Umaviy xalifa*, 263, 326, 333, 402
Yazid II ibn Abdulmalik, *Umaviy xalifa*, 329, 337, 360
Yazid ibn al-Muhallab, 264, 266, 326, 334, 337
Yazid ibn Muzad, 344
Yazid ibn Umar ibn Xubayra, *Iroq voliysi*, 339, 340, 341
Yakob Anatoli, 296
Yakob Gool, 296
Yaksum, *Yaman podshohi*, 363
Yaqtin ibn Muso, 342
Yalgan, 58
Yami xoqon, 137
Yan Shigu, 3, 22, 24
Yang Yuni, 27
Yapig' tutung, 234
Yarg'an tarqan, 128
Yahyo an-Nahviy, *faylasuf*, 381
Yahyo ibn Zayd ibn Ali ibn al-Husayn, 338
Yahyo ibn Maoz, 351

@tarixchi_kitobxonasiga

Yahyo ibn Xolid ibn Barmak, 345
O'gdilmish, 208
O'gsuz, 128
O'g'uz Bilga tamg'achi, 128
O'g'uz xoqon, 169, 181, 182, 183, 184, 185, 186, 187, 188, 189, 190, 191, 192
O'g'ul Tarqan, 128
O'gun-Beg, 143
O'zg'urmish, 208
O'zmishtegin, 142
O'rinboyev A., 398
O'rqun H.N., 136, 141, 144, 151, 154
O'tgak, 223
O't-tegin, 62, 92
O'tuz, 232, 233
O'tukan Temir, 233
Qayimtu *boy*, 223, 224, 225, 226, 227, 228, 229
Qaysin tutung, 232
Qalach, 188
Qang'aluq, 189
Qapag'an xoqon, 116, 137
Qara baxshi, 224
Qara O'gul, 230
Qariq, 233
Qahtaba ibn Shabab, 338
Qahtaba ibn Shabib, 339, 340
Qayumova I., 5
Qimir *dehqon*, 226
Qlufatro bint Muhaysa – q. *Kleopatra*, 365
Qobus ibn Vashmgir, *Gurgon amiri*, 374
Qobus ibn Munzir, *Yaman podshohi*, 364
Qodirxon ibn Bug'raxon, *qoraxoniy*, 257
Qodirxon Yusuf ibn Horun, *qoraxoniy*, 420, 423
Qora Churin xoqon, 11
Qora Yusuf, *qoraquyunli*, 248
Qora-bo'g'ra, *Ustrushona hukmdori*, 42
Qoraxon, 157
Qosim ibn Horun ar-Rashid, 287
Qug' Sangun, 134
Qug'damuni Tamuy, 223
Qudama ibn Ja'far, 301
Qo'ludi, 219, 221
Qo'ni Sangun, 113
Qur Ma'anun Tuqsi, 334
Qusam ibn al-Abbos ibn Abdulmutallib, 326, 333, 402
Qustantin ibn al-Yun, *Vizantiya imperatori*, 365
Qustantin ibn Xiloniy, 365
Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy, 51, 91, 266, 267, 282, 317, 325, 326, 327, 328, 330, 334, 335, 336, 337, 376, 383, 405, 406, 407, 408
Qutlug' Arslan, 234
Qutlug' Bag'a tarxon, 151
Qutlug' Tun-Tardu, *To'xariston hukmdori*, 49, 50
Qushu tutuq, 127
G'abaliyan, 57
G'asson ibn Abbod, 351
G'iyosiddin Muhammad I, *saljuqiy*, 258
G'itrif ibn Ato al-Kindiy, *Xuroson amiri*, 315, 398, 399
G'uzak – q. *G'urak*, 328
G'urak (Gurak, Gurek, G'uzak), *Sug'd ixshidi*, 38, 39, 51, 71, 91, 102, 270, 271, 272, 328, 335
G'urob, 371
Habib ibn al-Muhallab, 264
Hajjoj ibn Yusuf, *Xuroson noibi*, 263, 264, 267, 326, 332, 334, 335, 336, 337, 405, 406, 407
Hayyon an-Nabatiy, 334, 336, 406, 407
Hakam ibn Amr al-G'ifariy, 332
Hakim al-Muqanna, 276
Hakim ibn Ahmad, 414
Hakim, *Muqannaning otasi*, 412, 415
Hamza al-Isfahoniy, *tarixchi*, 278, 286
Hamza ash-Shariy, 351
Harb ibn Abdulloh ar-Ravandiy, *arab lashkarboshisi*, 285, 286
Haris ibn Qutba, 334
Harkal (Gerakl), *Rum imperatori*, 365
Harsama ibn A'yon, *lashkarboshi*, 287, 345, 350
Hasan ibn Ali ibn Abu Tolib, 282, 286
Hasan ibn Qahtaba, 340, 341
Hasan ibn Rashid al-Juzjoniy, 263
Hasan ibn Rushayd, 262
Hasan ibn Sahl, 349, 350
Hasan Qara Sayil Shams baxshi, 208
Hasson ibn Amr ibn Tubba', *Yaman podshohi*, 362
Hasson ibn Tubba', *Yaman podshohi*, 362
Haussig H.V., 12
Hafsa, *payg'ambarning xotini*, 281
Himyar ibn Sabo, *Yaman podshohi*, 361
Hinsar, 58
Hishom ibn Abdulmalik ibn Marvon, *Umaviy xalifa*, 271, 284, 337, 338, 410
Hoji Xalifa, *turk biobibliografi*, 301
Hozim ibn Xuzayma at-Tamimiy, *Abu Muslim lashkarboshisi*, 285, 341

@tarixchi_kutubxonasiga

Homid ibn Barmak, 340
Horis ar-Roish, *Yaman podshohi*, 361
Horis ibn Amr Hajar al-Kindiy, *Yaman podshohi*, 363
Horis ibn Asad, 323
Horun ar-Rashid, *Abbosiy xalifa*, 276, 277, 287, 315, 344, 345, 346, 347, 349, 361, 398
Horun ibn Siyovush, 410
Horun, *Oltuntoshning o'g'li*, 427
Hoshim ibn Muhavvir al-Xuttaliy, 329
Hoshim ibn Hakim – q. *Muqanna*, 411, 412
Hudod ibn Shurahbil, *Yaman podshohi*, 362
Huloguxon, 243, 245
Humayd ibn Qahtaba, *Xuroson amiri*, 413
Husayn Boyqaro mirzo, 168
Husayn ibn Ali al-Hasan, 286, 287
Husayn ibn Maoz, *Buxoro amiri*, 414, 415
Husayn ibn Ohon, 349

## GEOGRAFIK VA TOPOGRAFIK NOMLAR KO'RSATKICHI

Abakan daryosi, 155
Abarjaj (Barjaj, Barjah), 307
Abarshahr, 331, 338
Abivard, 313, 315, 353, 391
Abu Yasjird, 392
Abhar, 304, 389
Avliyo Apostollar cherkovi, 19
Agata monastiri, 19
Ag'vank (Albaniya), 237, 238
Ag'ulig', 133, 144
Adan (Adana), 298, 299
Adlonlar yurti, 300
Adorbadigan, 21
Ayo Sofiya, 296
Azganti Qadaz, 133
Azganti Qadan, 128
Azravadk, 96, 98
Azron, 314
Azruyin, 394
Ayniy tumani, 66, 95, 96, 99, 103
Ayhad, 391
Akko, 299
Aqibatu, 391
Aqcha shahri, 311
Alan (Katta Buxoro), 40
Alanmi (Romitan), 39
Allon, 317, 377
Alti chub, 132
Altun yish, 114, 115, 133
Altun Qapar, 157
Aluank, 238, 251
Aludi shahri, 32
Al-Umr monastiri, 344
Al-Faramo, 299
Amasiya, 300
Amoriya, 299
Amsterdam, 296
Amudaryo – q. *Jayhun*, 9, 17, 32, 39, 48, 49, 53, 62, 251, 255, 259, 262, 263, 265, 266, 268, 271, 293, 304, 305, 308, 311, 312, 314, 321, 323, 324, 325, 326, 327, 332, 353, 386, 387, 405
Amul, 264, 266
Amuya, 290, 299, 386, 394
Anato'liya, 257, 260
Anbar, 284, 342, 344
Anbir, 392
Angren, 70
Andalus, 300, 316
Andamin, 314, 354
Andarob, 392
Andarchorig', 393
Andijon, 282
Andijon viloyati, 282
Andoh, 313
Andxud (Andxo'y), 311, 425
Anzob, 63, 104
Anqara, 148
Ansi (Kucha), 45, 50
Ansino, 299
Antarg'u, 133
Antokiya, 283, 299, 373
An (Buxoro), 22, 23, 32, 33, 34, 37, 39, 42
Aoszien shahri, 48
Appartakan (Apartak), 70
Arabiston, 259, 298, 299
Arabiston yarimoroli, 298
Ararat vodiysi, 248
Arasana tog'i, 294
Araskan qishlog'i, 310
Arax, 258
Araxosiya, 312, 353
Arbinjon, 305, 394, 416
Arg'in (Arg'un), 310
Ardabil, 328
Ardakend, 396
Arzinjon, 248
Arzon, 300
Aris suvi, 387

@tarixchi_kutubxonasiga

Aris shahri, 387
Arqar boshi, 143
Armaniston, 235, 236, 238, 239, 240, 241, 242, 245, 246, 247, 248, 249, 250, 251, 252, 259, 283, 286, 312, 331
Arminiya (Armaniya), 300, 317
Arron, 259
Arsuf, 299
Arsn shahri, 238
Asadobod, 304, 310, 390
Asbara, 307
Asvon, 299
Asqalon, 299
Aspiliy tog'i, 294
Asrab qishlog'i, 310
Ass suvi, 307
As-Sarir, 317
Assuriya, 239, 367
Astafir shahri, 289
Astrobod, 290, 390
Asfasiya tog'i, 294
Asfatir shahri, 298
Atlantika okeani, 299
Atrek daryosi, 312
Atrobas shahri, 289
Atroqaro, 290
Afg'oniston, 12, 53, 55, 59, 277, 304, 310, 311, 313, 352, 353, 422, 423, 425
Afna, 314, 354
Afrizin, 304
Afrosiyob devoriy rasmlari, 38
Aftmaut, 63
Afshina, 270
Axarun, 105, 314, 354
Axma, 396
Axsikent (Axsikat, Axsikand), 28, 95, 290, 308, 327, 395
Axsis, 321
Axso, 305
Ahvoz, 281, 299, 316, 348
Ahvoz cho'li, 299
Ahlum, 390
Ahmim, 299
Ahnaf ibn Qays qasri, 310
Ahrin, 304
Achig'-Altir ko'li, 142
Ashpara (Asbara, Ashbara), 137, 138, 307
Ashfatir, 298
Ashxobod, 313
Bag'dod, 258, 259, 261, 277, 281, 283, 284, 286, 288, 289, 295, 296, 303, 304, 316, 324, 329, 330, 331, 341, 343, 345, 346, 348, 349, 350, 351, 366, 373, 412, 413
Bag'dod ko'prigi, 345
Bag'is, 304
Bag'lon, 392
Bag'shur, 391
Badaxshon, 304, 314, 393
Bajanoklar yeri, 387
Bazash, 304
Bain Sokto, 109
Baybaliq, 144
Bayram Ali, 304, 305
Bayt ul-muqaddas, 299, 370
Bayt ul-Harom, 370
Bayt ul-hikma, 277, 295
Bayhaq, 304, 338, 419
Bakaf, 13
Bakbakin, 314
Bakbanul, 312
Baqtriya, 49, 53
Balanjar, 337
Balankanak, 306
Baliqliq, 144
Balx, 17, 47, 106, 250, 251, 252, 256, 263, 266, 268, 273, 274, 275, 290, 293, 294, 299, 303, 304, 305, 311, 312, 313, 316, 320, 321, 322, 323, 326, 332, 333, 334, 337, 346, 353, 358, 366, 378, 386, 392, 409, 412, 423, 425, 426
Balx daryosi, 263, 268, 293, 294, 305, 311, 320, 321, 322, 332, 333, 386
Balxar, 395
Balxash, 309
Balxon (Balxonkuh), 386, 387, 393, 421
Bangligak tog'i, 116
Banjar, 313
Banokat (Binkat), 44, 290, 306, 395
Banunkat, 306
Barakdiz, 310
Baranji (Baranj), 311
Barban, 394
Bardaa, 300
Bardasir, 290
Barkat, 306
Barkuob, 307
Barqa, 281, 299
Barqan, 190
Barmaxon (Buruxon), 313
Barob, 387
Barsxon, 396
Barxon, 353
Basara, 314
Basean gavari, 257

@tarixchi_kutubxonasiga

Basra, 258, 262, 281, 299, 316, 331, 332, 342, 350, 389
Basra dengizi, 299
Bassan, 248
Baxmal, 306
Baxtariyona, 15
Baxtariya, 12
Baxshu daryosi, 323
Bahla, 366
Bahmanobod, 304, 390
Bahor, 312
Bahr ul-azro, 388
Bahrayn, 299
Bahrob, 393
Bektoba, 307
Berlin, 192, 219, 222, 223, 225, 226, 227, 228, 229, 297, 355, 360
Berlin kutubxonasi, 360
Beruniy shahri, 311
Beshbaliq, 133
Bi (Poykent), 34, 39
Bianhor, 327
Binokan mavzeyi, 314
Bir Usmon, 305
Birki (Merki) shahri, 307
Biskand, 304
Bistom, 390
Bichut (Bichjo), 34, 46, 63
Bishkek, 308
Bob al-Abvob, 377
Bob ul-Hadid – q. *Temir darvoza*, 392
Bobil, 254, 259, 378
Bovard, 313, 422
Bodg'is, 106, 303, 313, 315, 326, 327, 331, 343, 353, 391, 423
Bozag'is, 391
Bozantiyo, 365
Boysun tog'i, 47, 49
Bokbin, 354
Boku, 248, 292
Bola (Forob), 42, 43
Bolasog'un, 396
Bolgariya, 300
Bolo Murg'ob shahri, 310
Bomiyon, 55, 313, 315, 353, 393
Bosi (Eron), 41
Boside shahri, 46
Bosoro, 354
Bossi tog'i, 41
Botis daryosi, 254
Boxanna (Farg'ona), 22, 23, 28, 69
Boxarz, 304
Bosisi (Eron), 48
Britaniya, 159, 355
Britaniya kutubxonasi, 355
Britaniya muzeyi, 355
Buduxkat (Buzaxkas), 307
Buzanjird, 304
Buzg'ola guzari, 47
Bo'zjon, 391
Bukaguk, 142
Bulg'or, 376, 377
Buloqboshi, 85
Bulung'ur cho'llari, 306
Bo'luchu (Bo'lchu), 115, 127, 133
Bo'lchu daryosida, 143
Bumijkas, 305
Bunza qishlog'i, 311
Bunchug'lig' mavzesi, 60
Burg'u, 142
Burjon yeri, 300
Burnamaz, 306
Bust, 422
Bustah, 304
Buttam (Buttaman), 63, 67, 68, 314, 315, 326, 328, 354
Buxoro, 5, 23, 34, 39, 40, 52, 62, 64, 256, 258, 262, 263, 264, 265, 266, 270, 272, 274, 275, 282, 290, 299, 305, 314, 315, 320, 324, 325, 327, 333, 334, 341, 343, 346, 354, 355, 378, 379, 385, 386, 394, 397, 398, 399, 400, 401, 402, 403, 405, 406, 407, 408, 409, 410, 411, 413, 414, 415, 416, 417, 423
Buxoro vohasi, 34
Buhayrat ul-Xarra, 396
Bushanj, 303, 313, 315, 331, 347, 391
Buyuk Rum, 300
Vajala, 312
Valari, 312
Valvolij, 392
Valis, 299
Valma, 390
Van ko'li, 247
Vanand, 258
Vanindan, 59
Varag'sar, 274
Vardanze, 305
Vardona, 305, 406
Varz, 63
Varzi Minor, 99
Vaspurakan, 247
Vatikan, 20
Vaxad qishlog'i, 323
Vaxsh daryosi, 48, 251, 323, 381, 392

@tarixchi_kutubxonasiga

Vaxsh shahri, 392
Vaxshob daryosi, 392
Vahon, 314, 353, 393
Vashgird (Vashjird), 311, 314, 323
Vena, 208
Venetsiya, 239
Verkan o'lkasi, 251
Vehrud daryosi, 251
Vizantiya, 6, 7, 9, 10, 11, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 21, 46, 48, 52, 106, 238, 239, 240, 245, 251, 258, 259, 261, 277, 281, 282, 283, 316
Vizdgird (Veshgird, Veshjird), 89
Vodiy as-Sabuh, 270
Vodiy Mazdubast, 387, 388
Volga daryosi, 259, 283, 293, 309, 316, 337
Volgabo'yi, 12, 377
Volga-Don kanali, 316
Voron, 354
Voshjird, 354
Vrkan Marzbonligi, 253
Vurzvad, 99, 100
Vu-xe (Amudaryo), 39
Gadichjen shahri, 42
Gangsi, 232
Gandzak (Ganja), 241
Ganji Rustak, 313
Gansu, 24, 31
Gange (Tunkat), 44
Garax, 283
Garkard, 306
Garriet, 296
Gasbun, 252
Gerakleya, 300
Giashieu, 25
Gibraltar bo'g'ozi, 300
Gladzor monastiri, 239
Gruziya, 17, 18
Guachjou (Gua-chjeu), 25, 34, 35
Guzgon viloyati, 310
Guzgonon (Juzjonon), 425, 426
Guyshan (Guyshuan), 24, 25, 26, 46, 47
Gurganch, 373, 374, 376
Gurgon, 253, 256, 286, 374
Gurgon viloyati, 253
Gurjiston, 241, 247, 259, 300
Guchen, 309
Gyuychjanti (Xo'jand), 41, 43
Dabil daryosi, 337
Davlatobod, 310
Dajla daryosi, 283, 288, 366
Daybul, 299, 335, 336
Daylam, 256, 291, 299, 301, 310, 389, 390
Daylam dengizi, 291
Dayr Bazm, 303
Dayr Murron tepaligi, 295
Day-yuan (Buyuk-Farg'ona), 24, 26
Dakiya, 12
Damashq, 254, 277, 316, 337
Damiyot, 299
Damovand, 299
Dandanakon, 304, 391
Darband, 17, 47, 48, 49
Darvoz, 314
Darg'on, 394
Darzanji, 311
Darisoqiy, 291
Darnava, 304
Daruz, 304
Daryal darasi, 17
Daskara, 303, 316
Dastgird, 311
Datung (Pingcheng), 24
Dahani sher, 387
Dashti Kevir cho'li, 292
Dashti Qipchoq, 309
Delmis, 256
Denov, 66, 425
Dehiston, 312, 390
Divob, 304
Diyor Mudar viloyati, 349
Dinavar, 369
Dnestr daryosi, 16
Dovar (Zamindovar), 313, 315, 353
Dovudobod, 304
Dog'iston, 12
Domg'on, 390
Don daryosi, 10, 16, 259, 316
Dongola shahri, 299
Dor an-nadva, 370
Dor us-salom, 329, 330
Dublin, 296
Duvon, 306
Dumo daryosi, 34, 47
Dunay daryosi, 9, 10, 108
Dunaybo'yi, 11
Dunbovand, 312, 390
Dunqula, 299
Dunxuan, 71, 202
Dunxuang, 26
Duron, 391
Yevroosiyo, 46
Yevropa, 6, 11, 12, 13, 20, 21, 244, 259, 296, 316, 324
Yenisey, 3, 108, 152, 153, 155, 309

@tarixchi_kutubxonasiga

Yer Bayirqu, 122
Yerevan, 240, 242
Yerzni, 248
Yorkand, 396
Yormon, 396
Yeti o'dush, 134
Yettisuv, 42, 43, 48, 70, 72, 89, 307, 309
Jabal zamini, 390
Jabg'ukat, 306
Jazira, 283, 286, 288, 348, 349, 350
Jayhun – q. *Amudaryo*, 255, 293, 311, 321, 322, 323, 365, 376, 381, 386, 387, 388, 391, 392, 393, 394, 400, 402, 405, 413, 421, 425
Jalolquduq tumani, 282
Jalula, 303, 316, 340
Jamravaz, 70, 74
Jand, 259
Jannoba, 299
Jarqo'rg'on tumani, 311
Jarmi shahri, 299
Jahudon, 392
Jibol (Jibal), 274, 301, 312, 348
Jidda, 299
Jizzax, 72, 76
Jiruft, 299
Jovon Rustoqi (Rustoq Jovon), 314, 354
Jorulla, 296
Juvayn, 304
Juvikat, 307
Juvos, 354
Juzjon, 273, 310, 311, 313, 315, 353, 392, 425
Jul Shub, 307, 308
Jumarin, 313
Jumran, 353
Jur, 299
Jurash, 298, 398
Jurjit, 189
Jurjon, 290, 291, 292, 299, 300, 312, 316, 321, 340, 345, 352, 386, 387, 390
Jurjon dengizi, 300, 316, 321, 386
Zavzon, 391
Zamason, 314
Zamm, 265, 266, 311, 313, 353, 386, 391
Zamm viloyati, 353
Zangiota, 306
Zanjon, 304, 389
Zarafshon, 31, 32, 33, 40, 61, 63, 66, 67, 92, 95, 96, 99, 102, 103, 104, 269, 294, 305, 325
Zarafshon vohasi, 31
Zarafshon daryosi, 32, 33, 40, 61, 66, 67, 95, 96, 102, 104, 269, 294, 305, 321
Zarmon, 305, 416
Zarovat (Zarovod), 63, 96
Zafar shahri, 298
Zibatra, 299
Ziyovuddin mavzesi, 305
Zirabuloq, 305
Zobuliston, 313, 353
Zoviya, 296
Zomin, 67, 72, 76, 306, 395
Zomin tog'lari, 67
Igu-Xami, 318
Iyerusalim, 281
Ika shahri, 318
Ikar, 13
Ili, 12, 28, 254
Iloq, 66, 306, 395
Imaum tog'lari, 293
Imomobod qishlog'i, 310
Intra Imaum, 293
Irqoniya, 386
Irlun, 144
Iroq, 258, 259, 260, 267, 269, 272, 275, 281, 283, 284, 299, 303, 318, 322, 329, 332, 336, 337, 339, 340, 342, 348, 349, 350, 351, 358, 363, 366, 367, 371, 373, 374, 376, 385, 422
Irtish, 309
Irtish daryosi, 254, 307
Isbanjan, 394
Iskandariya, 290, 299, 373
Iskatar (Iskodar) qishlog'i, 95, 96, 97, 103
Isqutiya, 317
Ispaniya, 300
Isroil, 239
Issiqko'l, 309, 396
Istanbul, 237, 296, 300, 355, 386
Istaxr, 281, 299
Istilaj, 391
Istr (Dunay) daryosi, 9, 10, 11
Isfazor, 391
Isfara, 268
Isfaroin, 390
Isfaroq, 353
Isfahon, 248, 256, 281, 290, 299, 340, 366
Isfijob (Sayram), 290, 300, 306, 307, 320, 395, 423
Isfizanj, 353
Isfizor, 313
Italiya, 7, 296
Itil daryosi, 395
Ifriqiya, 299, 316, 361
Ixe-Xushotu, 145
Ichki Mongoliya, 24, 292

@tarixchi_kutubxonasiga

Ichki Tibat, 393
Ichuy daryosi, 144
Ishkoshim, 393
Ishtixon, 33, 35, 38, 42, 61, 62, 305, 306, 328, 329
Yanujird, 304
Yecha shahri, 41
Yilunqo'l, 142
Yinchu o'guz, 116, 122, 127, 147
Yo-sha (Sirdaryo), 43
Yun (Nun)tog'i, 291
Yusmat, 395
Kabudon, 35, 37, 41, 42, 50, 61
Kavkaz, 10, 12, 17, 18, 48, 108, 242, 259, 317
Kavkazoldi, 9
Kavkazorti, 245
Kavtam, 390
Kagankatuyk qishlog'i, 237
Kadak (Katek, Kandak), 306
Kayra, 142
Kay-yuan darvozasi, 45
Kalor, 390
Kalkutta, 247
Kam daryosi, 133
Kama daryosi, 152, 283
Kama-Volga Bulg'oriyasi, 377
Kan (Samarqand), 22, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38, 41, 42, 43, 46
Kangit, 322
Kangras, 127
Kangu Tarman, 125
Kangyuy, 31, 34, 35, 38, 39, 43, 44, 46, 47
Kandi Bodom (Konibodom), 72
Kanjaobod, 310
Kankar daryosi, 322
Kanszyuy (Qang'), 48
Karaju Abu Dulaf, 389
Karala yarim oroli, 298
Kardar, 314, 321
Kardar shahri, 321
Karid Om, 312
Karidom, 312
Karin vodiysi, 259
Karki, 386
Karmana (Karminiya), 33, 35, 40, 305, 327, 394
Karra, 300
Karron, 314
Karuyo, 395
Kasib, 304
Kaspiy dengizi, 9, 18, 35, 253, 259, 286, 291, 293, 310, 312, 374, 386, 387
Kaspiybo'yi, 48
Kast, 314
Kastamonu, 297
Kasuy, 142
Kat (Kot), 293, 311, 373, 374, 375
Kattaqo'rg'on, 46, 62, 305
Kashmir, 50
Kashsh (Kiss) – q. *Kesh*, 269, 275, 276, 305, 314, 315
Ka'a, 310
Ka'ba, 302, 331, 344
Kveysan, 24
Keles daryosi, 306
Kem daryosi, 143
Kemkent, 44
Kergu, 142
Kerki shahri, 321
Kermon, 255, 258, 260, 292, 293, 299, 312, 316, 352
Kermon cho'li, 292
Kerxiston, 256
Kesariya, 7
Kesh (Shahrisabz), 22, 33, 34, 36, 37, 41, 47, 48, 49, 61, 62, 99, 263, 264, 265, 269, 274, 275, 276, 305, 325, 326, 327, 334, 335, 354, 400, 407, 413, 417, 418
Kiyev, 10
Kilikiya, 242, 243, 244, 245, 246
Kiputana (Kabudon), 41
Kisxob qishlog'i, 310
Kitob, 413
Kichik An (Xarg'on), 33, 35
Kichik Osiyo, 6, 11, 259, 370
Kish shahri, 395
Kobul, 54, 282, 289, 292, 299, 310, 313, 314, 315, 332, 354, 393
Kolif, 391
Konstantinopol, 6, 10, 18, 19, 300
Koreya, 292
Koson, 308, 326, 327, 343
Kofirnihon daryosi, 311
Koshg'ar, 50, 396, 423
Koshokota, 305
Kosho-Saydam vodiysi, 117
Kron viloyati, 393
Krut qishlog'i, 63, 103
Kubal, 308
Ko'gman yo'li, 114
Ko'gur, 142
Ko'kan, 353
Kukshibag'on, 305

@tarixchi_kutubxonasiga

Ko'kshin o'rxun daryosi, 117
Kul Shub, 307
Kum qishlog'i, 63, 86
Kumjikat (Kumujkat), 379
Ko'murtog', 142
Ko'niya, 244
Kunlin (Pomir) tog'lari, 49
Kurdan ko'li, 321
Kurdiston, 281
Kufa, 281, 282, 284, 285, 316, 340, 342, 343, 349, 350, 389, 402
Kufton, 266
Ko'histon, 353
Kucha shahri, 11, 13, 50, 66, 396
Kushkad, 313
Ko'shki Mohak, 399
Kushmayxon, 304, 391
Kushmayhan, 267, 304
Kushoniya, 32, 46, 47, 61, 62, 305, 306, 394
Kshtut, 63, 67, 102, 103
Kesay shahri, 29
Lazika (Loziqiya), 18, 20, 299
Lariz nohiyasi, 301
Lastivert qishlog'i, 238
Laxukor rustoqi, 393
Lebedin shahri, 10
Leyden, 296
Leningrad – q. *Sankt-Peterburg*, 249
Liviya, 281, 299
London, 20, 192, 297
Lugovoye bekati, 307
Lungshi, 27
Lur, 389
Mavir, 304
Mag'i qo'rg'on, 133
Mag'rib, 299, 300, 331, 351
Madar, 372, 392
Madina, 263, 279, 287, 333, 344, 350, 402
Madinat us-salom, 286, 288, 303, 316, 346, 351
Madyan, 299
Madm, 63
Madoin (Ktesifon), 281, 358, 366
Madrushkat (Martushkat), 63, 81, 82, 102, 103
Mazduron, 304
Maymad, 304
Maymana, 392
Maymurg', 39, 46, 61, 62
Makedoniya, 254, 364
Makka, 279, 284, 287, 333, 342, 344, 370, 371
Malatiya, 299
Manbij, 299
Mandajin, 314
Manisa, 297
Mansaf, 304
Mansura, 299, 302
Manxishloq tog'i, 393
Mara, 298
Marv, 263, 264, 266, 267, 270, 274, 275, 276, 277, 281, 284, 287, 288, 290, 295, 299, 303, 304, 305, 310, 311, 313, 315, 326, 327, 332, 334, 337, 338, 341, 343, 346, 348, 349, 350, 373, 386, 394, 402, 407, 409, 411, 412, 416, 417, 422, 423, 425
Marv ash-Shohijon, 303, 304, 310, 313
Marv vohasi, 310
Marvarrud (Marvirud), 266, 274, 282, 288, 290, 299, 310, 313, 315, 326, 332, 353, 391
Marvishohijon, 391
Marvob daryosi, 310
Marj Irbil, 283
Markaziy Osiyo, 2, 3, 6, 9, 12, 24, 27, 32, 34, 49, 107, 289, 303, 317, 354
Marmara dengizi, 6
Marogan (Marug'an), 57, 58
Marokash, 300, 316
Masala, 392
Masjid ul-Harom, 331
Masisa, 299
Mastcho (Matcho), 68, 95, 96, 102, 103
Matenadaran, 240, 249
Mahdiobod qishlog'i, 310
Mahon, 56
Mahra, 298
Mahrubon, 299
Mashkuya, 304, 316
Mashriq, 4, 302, 303, 309, 315, 316, 366
Mashhad, 297
Mashhadi Misriyon, 312
Ma'juj mamlakati, 292, 293
Ma'juj shahri, 291
Myoziya, 12
Merki shahri, 307
Mesopotamiya, 283
Mehron, 321
Mesop monastiri, 248
Mi (Maymurg'), 32, 33, 34, 35, 37, 39, 46, 47
Midiya, 239
Miyongoh, 394
Mizjon, 353
Miqot, 296
Milliyot, 296
Mingbuloq (Chaqloq) mavzesi, 307
Minor qishlog'i, 311

@tarixchi_kutubxonasiga

Minusink muzeyi, 155
Misr, 244, 281, 289, 298, 299, 316, 331, 348, 351, 364, 370, 371
Mihrijon, 389, 390
Mihrijon Quzaq, 389
Movarounnahr, 4, 5, 17, 64, 266, 271, 273, 274, 276, 282, 284, 303, 308, 312, 314, 315, 316, 324, 326, 328, 329, 330, 340, 345, 346, 347, 351, 352, 354, 365, 378, 394, 405, 410, 413, 421, 425
Mog'iyondaryo, 83, 102
Mozandaron, 258
Momatir, 390
Mongoliya, 108, 109, 135, 151
Mosabazon, 389
Moskva, 64, 78, 240, 242, 247, 249, 296
Mosul, 295
Moh Basra, 350, 369
Mohiaxovand, 366
Muvarrik, 312
Mug', 4, 34, 46, 61, 62, 63, 64, 68, 69, 71, 79, 80, 83, 85, 86, 87, 90, 92, 95, 99, 100, 101, 104, 284
Mug' tog'i, 4, 34, 46, 61, 62, 63, 68, 71, 79, 80, 83, 85, 86, 92, 95
Mo'g'uliston, 293
Muztog', 185, 188
Mo'lton, 322
Mulu okrugi, 40
Munk, 393
Murg'ob daryosi, 423
Musoqqab, 304
Muttajon, 353
Mufazzalobod, 304
Muhammadiya, 293, 294, 299
Navkat (Navokat), 291, 300, 308, 395
Najd yeri, 299
Naysabur, 353
Namangan, 208
Nami (Zarafshon) daryosi, 33, 34, 35, 37, 40
Naressus tog'i, 294
Narshax qishlog'i, 397, 414, 415, 416
Nasaf, 272, 276, 305, 314, 315, 325, 326, 327, 335, 354, 394, 413
Nasirobod, 316
Nasnos, 362
Naso, 313, 315, 353, 391, 394
Naxchivon, 300
Naxshab, 22, 34, 48, 49, 61, 62, 325, 394, 400, 407, 413, 417
Nahrabi'n mavzesi, 349
Nahravon, 303, 349, 350
Nahri Darg'om, 311
Nahuz, 311
Nashavo, 300
Nashebo (Naxshab), 33, 35, 47, 48
Nebit Dog', 292
Neron maydoni, 8
Nikeya (Iznik), 6
Nil daryosi, 295, 298
Ningyuan, 23, 28, 30
Nirun, 299, 336
Nisibin, 280, 283
Nihovand (Nahovand), 340, 369, 389
Nihom, 314
Nishopur, 256, 290, 299, 304, 313, 315, 316, 320, 322, 331, 332, 333, 338, 342, 353, 391, 402, 413, 419, 422, 426
Novorossiyskoye qishlog'i, 308
Nozko'l bulog'i, 323
Nomisha, 390
Nomiya, 312
Noravank monastiri, 247
Nor-Getik monastiri, 241
Norin daryosi, 28
Notil, 390
Nuba, 299
No'zandik, 83
Nuzkat, 307
Nuka, 304
Nuqon qishlog'i, 304, 350
Numijkat, 414
Nun (Navand), 391
Nun tog'i, 292
Nuri Usmon kutubxonasi, 355
Nurota tog'i, 259
Nusaybin, 283
Neumi (Numijkat), 39
Obi Qunduz, 311
Obisukun, 390
Obkina, 304
Obon-qasvon, 311
Og'aliq (Oxalik) tog'lari, 321
Ozarbayjon, 237, 259, 281, 283, 292, 300, 312, 337, 365, 366
Ozodvor, 391
Oksford, 296
Oqbeshim (Akebeyshimu), 28
Oqdaryo, 305
Oqqo'rg'on tumani, 43
Oqsaroy daryochasi, 311
Oqsoy, 307
Oqsuv daryosi, 308
Oqtepa qishlog'i, 306

@tarixiy_kutubxonasiga

Oloy tog'i, 294
Olti chub, 126
Oltinko'l, 155
Oltintog', 13, 323
Oltoy, 108, 152, 309, 323
Oltoy tog'lari, 323
Omuy biyoboni, 416
Omul, 290, 305, 311, 314, 321, 354, 390
Omuya kechuvi, 424
Orbet qal'asi, 247
Orlovka qishlog'i, 308
Orol dengizi, 259, 293, 387, 396
Osetiya, 317
Osiyo, 3, 10, 237
Otboshi, 309, 396
Ohangaron, 70, 306
Ohangaron daryosi, 306
Oharun, 266, 269, 326
Paduya universiteti, 296
Payg'ambarorol, 266
Panjsher (Panjhir), 313, 424
Panjsher daryosi, 424
Pannoniya, 11
Panch (Panjikent), 4, 32, 34, 46, 61, 62, 63, 64, 66, 67, 68, 77, 81, 86, 92, 95, 96, 102, 103, 104, 105, 106, 308
Parvon, 313, 393, 424
Parg'ar, 63, 66, 67, 68, 393
Parij, 169, 240, 247, 248, 296, 297
Parij Milliy kutubxonasi, 169
Parkan, 28
Partava, 239
Partan, 83, 84, 99, 100
Patna kutubxonasi, 297
Paxut, 63
Pashin, 392
Piyozli tog'lar – q. *Pomir*, 31, 48
Pingcheng (Datung), 24
Pitsian darvozasidan, 8
Poykand (Poykent, Baykand), 262, 266, 272, 294, 305, 317, 324, 325, 327, 378, 394, 400, 405, 406
Pokiston, 292, 298, 299
Poli tog'i, 49
Pomir, 25, 37, 293, 294, 314, 395
Pors, 255
Prinston, 296
Rabinjon, 62, 264, 269
Raboti Razan, 423
Raboti Farova, 394
Ravzo (Ro'da) oroli, 295
Ray, 256, 281, 290, 299, 304, 312, 316, 321, 322, 334, 343, 345, 352, 366, 373, 389
Raqqa, 348, 351
Raman, 67
Ramdin, 325
Ramla, 299, 316
Rampur, 297
Rana daryosi, 337
Rast, 312
Rafiqa, 344
Rahshon, 354
Ra's al-Qalb, 304
Rivsharon (Rubiston, Ravon), 313, 315
Rim, 6, 8, 16, 21, 239, 245, 261, 300, 380
Rovan, 392
Romitan, 39, 262, 325, 406
Romush, 67, 378
Rossiya, 193, 202, 242
Rossiya FA Sharqshunoslik instituti, 193, 202
Rohishahr, 393
Ruyon Rustoqi (Rustoq ar-Ruyon), 314, 354, 390
Ruzah, 304
Rum, 5, 10, 17, 21, 255, 300, 302, 303, 316, 357, 364, 365, 370, 372
Rum dengizi, 300, 316
Rumiya, 316
Rusofa, 288
Rust, 79, 87
Ruxxaj, 312, 315, 353
Rushon, 314
Ru'b, 55, 56, 57, 58, 59, 313, 353
Sabao daryosi, 32
Sabat, 308
Sabzavor, 313, 391
Sabo, 298, 361
Savdogarlar shahri – q. *Poykant*, 294, 300
Sagaston (Seiston), 251, 252, 253, 255
Sag'oniyon, 266, 311, 314, 326, 346, 354, 392
Saydo, 299
Saymara, 389
Sayram, 306, 307, 423
Sakimisht, 392
Saklakand, 392
Sakovand qal'asi, 393
Saqish, 142
Saqolib, 300
Salaman daryosi, 293
Salamiya, 299
Salhi, 395
Samangon (Samingon), 55, 57, 58, 313, 392
Samarqand, 4, 23, 32, 35, 38, 39, 40, 41, 46, 47,

@tarixchi_kutubxonasiga

51, 61, 62, 64, 66, 67, 68, 71, 72, 76, 78, 83, 84, 85, 86, 91, 93, 105, 106, 248, 258, 262, 263, 265, 267, 268, 271, 272, 273, 274, 275, 276, 282, 290, 299, 305, 306, 308, 315, 320, 321, 325, 326, 327, 328, 333, 335, 337, 340, 345, 346, 377, 379, 395, 401, 402, 409, 410, 414, 416, 417, 423
Samarqand viloyati, 83
Samg'ar, 308
Samofrakiya oroli, 15
Sanabod, 345
Sankardar, 304
Sankt-Peterburg, 192, 193, 202, 236, 237, 242, 296
Sankt-Peterburg Osiyo muzeyi, 236
San'o, 298
Saraxs, 290, 299, 304, 313, 315, 322, 332, 353, 391, 422, 423, 425, 426
Saraxs daryosi, 322
Sard, 256
Sarig', 308
Sariqamish ko'li, 387, 388
Sarlar anhori, 349
Sarminjon (Sarminkon), 311
Sarosht qal'asi, 395
Safvon, 396
Saffin, 282
Sa'd Hurra, 313
Svaniya (Svanetiya), 17
Sebastiya, 248
Seiston, 251, 253, 303, 310, 353, 359
Selenga (Salanga), 134, 141, 142, 144
Serika (Siriqa), 293
Sibir, 108, 307
Sivas, 248
Sigin (Yogan), 40
Sidixin (Ishtixon), 41
Sidra, 311
Siyohgird, 311
Siyohkuh, 423
Sijiston, 263, 299, 312, 313, 315, 353
Sikr ash-Shayton, 387
Simnon, 304, 389
Sin, 42, 293, 298, 302, 329
Sin tog'lari, 305
Sinvon qal'asi, 310
Sind, 255, 267, 268, 292, 298, 299, 316, 321, 322, 335, 369
Sind daryosi, 292, 298, 321, 335
Sindu, 189
Sinjor sahrosi, 295
Siniston yeri, 293
Sinkin, 392
Sinniz, 299
Sino sahrosi, 255
Sipohsolor, 297
Sirdaryo, 9, 12, 31, 39, 43, 62, 69, 71, 75, 258, 274, 294, 306, 308, 309, 314, 322, 387
Sirjon, 299
Siriqa, 293
Sirof, 299
Sirtki Tibat, 395
Sisjon, 300
Skifiya, 10, 259, 293, 317
Smbat tog'i, 257
Sobur, 299
Sova, 287, 389
Som tog'i, 413
Somon qishlog'i, 409
Soriya, 290, 390
Srman, 255
Strasburg, 278
Subax qishlog'i, 413
Suvor, 377
Sug'd, 3, 5, 32, 37, 42, 46, 47, 49, 61, 62, 63, 65, 68, 69, 72, 75, 76, 77, 78, 83, 84, 85, 86, 87, 88, 89, 91, 92, 93, 99, 105, 106, 264, 265, 267, 268, 269, 270, 272, 273, 275, 302, 314, 315, 321, 325, 326, 327, 328, 329, 330, 333, 334, 335, 343, 344, 346, 354, 369, 375, 379, 394, 400, 401, 402, 403, 406, 407, 413, 416, 417
Sug'd viloyati, 328, 407
Sug'd vohasi, 32
Sug'd tog'i, 321
Sug'diyona, 13, 14, 15
Sudan, 299
Sudulushana (Suyduyshana ) – q. *Ustrushona*, 22, 34
Suyob daryosi, 43
Suji dovoni, 151
Su-ye daryosi, 43
Suyye shahri, 28
Suyug'uti soyi, 307
So'qoq, 144
Sulaymoniya xalq kutubxonasi, 355
Suli, 24, 25, 26
Sulman, 395
Sumaysot, 299
Sumnot, 423
Sur, 299
Suriston (Assuriya), 366, 367
Suriya, 190, 254, 260, 282, 283, 284, 297, 342, 351, 364, 370, 371

@tarixchi_kutubxonasiga

Surman, 392
Surp Prkich (Avliyo Xaloskor) monastiri, 249
Surramanrao, 316, 317, 318, 321
Suruj, 281
Surxon vohasi, 311, 314
Surxon daryosi, 425
Surxondaryo, 32, 66, 314
Sus al-Aqso, 316
Susanqin, 304, 389
Sutkand, 394
Sutrishana (Suduyshana), 25
Suyavat daryosi, 322
Syunik, 246, 248
Syushyun (Erkeshtam) viloyati, 30
Tabanuyon, 320
Tabariston, 256, 261, 285, 291, 292, 299, 301, 312, 345, 390
Tabariya, 299
Tabasayn, 313, 353
Tabola, 298
Tavgast, 11, 14
Tavka-qal'a, 32
Tavovis, 305, 379, 394
Tazra, 304
Talaqimin, 144
Talas, 28, 46, 70, 71, 89, 108
Talas daryosi, 71
Talli Vazjir, 311
Talliqon, 266, 310, 311, 313, 326, 332, 334, 353, 392
Talliqon tog'lari, 311
Tamaliyot, 393
Tamis, 290, 390
Tamisha, 390
Tamtaj (Tamtax), 307
Tanais daryosi, 16, 316
Tangut (Tangg'ut), 132, 189
Tanja, 300, 316
Tanjer shahri, 316
Tanho rustoqi, 353
Tarabi, 256
Tarablus, 299
Tarband, 71
Tarim daryosi, 12, 13
Tarm, 389
Taroz, 290, 300, 396, 423
Taron viloyati, 239
Tars, 244
Tarsus, 299
Tatar yerlari, 300
Tatev monastiri, 246
Tafura tog'i, 295
Temir darvoza (Temir-Qapig', Dari Ohanin), 47, 49, 116, 122, 124, 125, 127, 147, 151, 274, 306, 319
Termiz, 49, 58, 106, 263, 264, 265, 266, 311, 314, 315, 320, 321, 325, 326, 353, 392, 425, 426
Termiz qal'asi, 425
Tehron, 256, 287
Tibet, 50, 190, 299, 302
Tibr daryosi, 8
Til daryosi, 11
Tilstona, 304
Tinnis, 299
Tirmiz, 313
Tiflis, 237, 247, 285, 286, 317
Tihoma yeri, 299
Tobaron, 391
Tovush qal'asi, 241
Tojikiston, 11, 49, 61, 66, 72, 95, 96, 103, 425
Tolf, 299
Top shahri, 308
Torband, 272, 290, 292, 328
Torob, 406
Toroz, 307
Torozob daryosi, 322
Tohariston (Tohar, To'xoriston), 39, 47, 48, 49, 50, 53, 54, 62, 105, 106, 266, 269, 273, 275, 282, 303, 304, 310, 312, 313, 314, 327, 332, 335, 345, 346, 353, 354, 392, 405
Toshkent (Toshkand), 14, 22, 23, 28, 30, 36, 42, 43, 48, 72, 76, 259, 292, 304, 306, 386, 395
Toshkent vohasi, 36, 43
Toshqal'a, 395
Toshqo'rg'on, 311
Tubbat (Tibet), 302, 309, 321
To'g altun dashti, 123
To'g'la daryosi, 133
Tug'ma shahri, 289
To'g'u shahri (To'g'ubaliq), 127, 133
To'qqizg'uzlar yeri, 293, 300
To'qmoq shahri, 28, 89
To'qush daryosi, 143
Tumushkat, 327
Tun, 391
Tungkar tog'i, 134
Tunis, 296, 299, 316
Tunkat, 44, 306, 395
To'palang irmog'i, 314
Tuput, 128, 157
Turarband, 300

@tarixchi_kutubxonasiga

Turgi Yarg'un ko'li, 126
Turk daryosi, 322
Turkiston, 11, 18, 25, 27, 28, 71, 74, 85, 202, 251, 252, 253, 257, 259, 309, 389, 403, 407, 413, 420, 423, 424
Turkiya, 18, 281, 283, 284, 297, 300
Turklar daryosi, 306
Turklar yeri, 259, 300
Turkmaniston, 311, 394, 421, 422
Turkmanistona, 304
Turmukan, 308
Turon, 303, 365, 391, 405
Turunja, 390
Turusis (Turushiz), 391
Turfon, 50, 218, 219, 309
Tus, 290, 299, 304, 313, 331, 345, 346, 350, 391
Tutiskat, 76
Tuxolo (To'xoriston), 22, 35, 41, 47, 48, 49, 50
Uj, 396
Uybat daryosi, 157
Uyg'ur yeri, 151
Ulug'tepa, 310
Ummon, 298
Unaxe, 33
Ural-Volga, 307
Urasht, 326, 327
Urmetan, 96
Urumchi, 28, 234
Urfa, 240, 281
Urshalim, 370
Usmon oroli, 266
Ustrushona (Ustrushana, Usrushona), 4, 23, 41, 42, 50, 62, 64, 66, 67, 72, 75, 290, 293, 299, 306, 308, 315, 320, 329, 330, 344, 346, 354, 368, 395
Utik viloyati, 237
U-xu daryosi, 49
Uch Birku, 142
Ushturmakak, 304
Falastin, 7, 259, 282, 331, 370
Fammul-asad, 387
Farabr, 321
Farax, 353
Farvof (Farvoz, Barfak), 314
Farg'ona, 3, 4, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 41, 43, 44, 62, 69, 70, 72, 73, 85, 87, 106, 108, 208, 268, 270, 272, 274, 275, 277, 282, 299, 306, 308, 309, 314, 315, 326, 327, 330, 336, 343, 344, 346, 368, 395
Farg'ona vodiysi, 28, 72, 73, 282, 308
Faryob, 310, 311, 313
Farsis shahri, 289
Faso, 299
Fatmev (Fatmiv) qishlog'i, 63, 103
Ferrari, 296
Fes, 296
Fil (Fir), 311, 327, 375, 376
Firabr, 305
Firanja, 316
Firim, 390
Firimsin, 389
Firot daryosi, 17, 282, 283, 284, 339
Firug'is, 353
Foz qishlog'i, 310
Folin (Fulin), 41, 52
Fondaryo, 67
Foryob, 310, 332, 353, 392
Forob, 71, 277, 305, 310, 387, 396
Fors, 5, 48, 57, 239, 252, 254, 258, 281, 292, 316, 348, 366, 378
Fotih Milliy kutubxonasi, 355
Frakiya, 12
Fransiya, 278, 316
Fumo shahri, 46
Fustot, 295, 299, 370
Xabra, 314
Xavos, 306
Xajiston, 308
Xazar, 48, 259, 283, 286, 291, 294, 300, 316, 317, 377, 386, 387, 390, 395
Xazar dengizi, 386, 387, 390
Xazar shahri, 294, 316, 395
Xazariya, 277, 283
Xaybar vodiysi, 279
Xalkidon (Xalqidun), 21, 300
Xamlij, 316
Xansu, 202
Xaranjavan, 308
Xarg'on (Xarg'onket), 33, 35, 39, 40
Xarqon (Xarqonrud), 40, 403
Xarmari, 321
Xarran, 308
Xarshana, 300
Xasart (Yaksart) daryosi, 322
Xasasak, 321
Xatlon (Xuttal, Xuttalon), 11, 66, 89, 106, 264, 271, 273, 275, 311, 313, 315, 322, 323, 329, 346, 353, 393, 395
Xaxsar, 85, 86, 88, 89, 90, 91
Xashk, 354
Xyobxakas, 395
Xiva, 355
Xidot, 300
Xiyor, 299

@tarixchi_kutubxonasiga

Xiyshora, 392
Xikat, 395
Xinlos (Talas), 46
Xiro, 363
Xitoy, 3, 9, 11, 14, 15, 22, 24, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 36, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50, 51, 52, 56, 59, 68, 69, 70, 71, 85, 87, 95, 99, 148, 221, 247, 253, 254, 255, 275, 289, 292, 293, 298, 299, 308, 309, 316, 317, 322,329, 335, 336, 366, 368, 369, 406
Xitoy Xalq Respublikasi, 24
Xolisimi (Xorazm), 48
Xom qal'asi, 258
Xonikin, 303
Xorazm, 3, 4, 5, 18, 31, 48, 62, 250, 258, 263, 277, 291, 293, 294, 300, 311, 314, 315, 316, 321, 326, 327, 328, 332, 333, 335, 346, 352, 354, 355, 373, 374, 375, 376, 379, 380, 385, 386, 387, 388, 394, 396, 398, 417, 420, 426, 427
Xorazm viloyati, 5, 426
Xorazm dengizi, 291
Xoranashat monastiri, 241
Xorbon, 393
Xosyun (Xorazm), 22, 37
Xoxan (Xarg'onket), 40
Xrizopol, 19
Xryuzon oros, 323
Xuanxe daryosi, 14, 24
Xubdan (Xumdon), 14
Xuvar, 304, 389
Xuvas, 314
Xuvori Ray, 389
Xo'jayli, 314
Xo'jand, 4, 14, 42, 62, 66, 67, 68, 72, 268, 270, 290, 293, 299, 305, 308, 315, 326, 346, 354, 395
Xuziston, 281, 366
Xuzor qo'rg'oni, 269
Xulm, 273, 311, 312, 313, 353, 392
Xumen shahri, 29
Xunbun, 405, 406
Xundaz, 316
Xuroson, 4, 5, 17, 62, 74, 253, 254, 255, 256, 257, 258, 259, 260, 262, 263, 264, 265, 266, 267, 268, 270, 271, 272, 274, 275, 276, 277, 281, 284, 285, 287, 288, 299, 300, 301, 302, 303, 310, 312, 313, 314, 315, 317, 320, 324, 325, 326, 328, 329, 330, 331, 332, 333, 334, 335, 336, 337, 338, 339, 340, 341, 342, 343, 345, 347, 348, 350, 351, 352, 354, 355, 365, 373, 391, 394, 398, 399, 400, 403, 404, 405, 408, 409, 410, 412, 413, 416, 417, 419, 421, 422, 423, 424
Xusravjird, 304
Xusravkarid, 391
Xo'tan, 396, 404
Xushufakan (Xushufagn), 306
Xushshak, 314
Xshikand, 63
Xshikat qishlog'i, 95, 96, 103, 327
Xe (Kushoniya), 33, 35, 37, 40, 46
Xeshi yo'lagi, 24, 27
Szidoszyuychje, 48
Sungling, 25
Chag'oniyon, 49, 66, 311, 314, 425
Chadrchik, 70, 71, 74, 75, 76
Chambudivip, 205
Chanan, 11, 14
Chang'an, 27, 28
Chan'an, 43
Chatqal, 395
Chjaovu shahri, 31, 37
Chjechje (Chjechji) – q.*Choch*, 23, 43
Chjenchju-xe (Norin daryosi), 28
Chimboy, 314
Chimkent viloyati, 306
Chirchiq daryosi, 70, 306
Chorjo'y, 33, 299, 305, 386
Chu daryosi, 12, 43, 71, 89, 307, 309
Chuvashiya, 377
Cho'la Qozoq, 308
Cho'ponota, 306
Cho'ra jarliklari, 250
Shavkati poyon, 66
Shalamba, 390
Shammosiya mahallasi, 295
Shantung dashti, 122, 125
Shantung shahri, 114
Shapurkon, 311, 392
Sharg' (Charg'), 305, 379, 394
Sharqiy Yevropa, 10, 108, 309, 387
Sharqiy Rim, 6
Sharqiy Turkiston, 28, 50, 66, 87, 308, 404
Sharob (Shavob), 302, 307
Shahrivayron qishlog'i, 305
Shahrinav, 311
Shahrisabz (Kesh), 22, 47, 99, 305, 413
Sha'b-xarra, 353
Sheroz, 299
Shibirg'on, 273, 311
Shignon, 321, 322
Shignon tog'lari, 321
Shijyan shahri, 28
Shimijon, 353

@tarixchi_kutubxonasiga

Shinjon tarix muzeyi, 234
Shirvon, 389
Shirin daryochasi, 310
Shirriz nohiyasi, 301
Shishtepa mavzesii, 307
Shi'b-panjher (Panjahiyr), 393
Shovdor tumani, 83
Shodyox, 426
Sholus, 390
Shom (Suriya), 190, 299, 300, 364, 370, 371
Shopurkon, 310, 311
Shopurxost, 389
Shoriston, 405
Shohi Zinda maqbarasi, 333, 402
Shohruxiya, 306
Shosh (Choch) – q. *Toshkent*, 3, 4, 22, 23, 25, 31, 32, 34, 36, 37, 41, 43, 44, 45, 46, 56, 62, 66, 68, 69, 70, 71, 72, 73, 74, 76, 85, 89, 95, 106, 267, 273, 274, 276, 277, 292, 300, 304, 306, 308, 310, 315, 322, 328, 329, 330, 346, 354, 394, 395, 420
Shosh daryosi, 274, 306
Shug'non (Shuginon), 314, 353, 393
Shumon, 266, 269, 311, 326, 392, 425, 426
Shumon darasi, 426
Shuturkat (Shuturket, Shuturkas, Ushturkat, Ushturkas, Suturkat) qal'asi, 56, 306
Elbrus, 291
Erbil, 283
Eregli, 300
Erkeshtam viloyati, 30
Erqamish, 143
Eron, 5, 16, 17, 18, 19, 21, 38, 46, 48, 52, 63, 74, 75, 248, 249, 250, 251, 253, 254, 256, 258, 259, 260, 261, 279, 280, 281, 282, 284, 287, 292, 299, 301, 302, 303, 309, 342, 351, 352, 353, 356, 357, 358, 365, 366, 383, 405
Eronshahr, 391
Ersagun, 144
Ertis daryosi, 127, 133, 143
Eski Savat mavzesi, 308
Etil daryosi, 185, 186, 187
Etruriya, 8
Yuydi shahri, 41
Yuqori No'shajon, 308, 309
Yula ko'li, 144
Yabash daryosi, 143
Yag'nob vodiysi, 63
Yag'nob daryosi, 104
Yaksart (Yaxshart, Xashart), 43, 394
Yaqin Sharq, 239, 245, 248
Yaman, 5, 298, 356, 361, 363, 364, 371, 372, 376, 398
Yamanda, 298, 363, 372
Yangi Juga (Yangi Julfa), 248
Yangi qishloq, 396
Yangitut temiryo'l bekati, 305
Yar daryosi, 142
Yaris (Yarish) dashti, 115, 144
Yasrib, 299
Yassi dovoni, 309
Yahyoobod karvonsaroyi, 310
Yashil dengiz, 299
Yashil o'guz, 125
Ya'juj va Ma'juj devori, 4, 317
Ya'juj mamlakati, 292, 300
Ya'pari shahri, 291
O'zbekiston, 2, 3, 4, 5, 22, 40, 48, 49, 54, 63, 298, 324, 374, 386, 388
O'zgand, 309, 396
O'zgand (O'zkand), 309
O'zR FA Sharqshunoslik instituti, 5, 22
O'kuz daryosi, 251
O'ngin vodiysi, 135
O'ratepa, 68, 72
O'rqun daryosi, 141
O'rpan, 133
O'rta dengizi, 299
O'rta Osiyo, 4, 5, 10, 15, 20, 38, 63, 74, 75, 108, 235, 237, 238, 243, 248, 249, 261, 277, 278, 309, 331, 387, 397, 398
O'tror, 71, 292, 310
O'tukan yish, 114, 122, 123, 126, 141, 143, 144, 233
O'sh, 309, 346, 396
Qabalbuloq, 307
Qabodiyon, 392
Qabrugash, 313
Qavikat, 307
Qaddur kutubxonasi, 297
Qadirqan yish, 124, 134
Qadisiya, 281, 322
Qazatliq, 307
Qazvin, 256, 299, 304, 389
Qazluq ko'li, 143
Qayindi, 307
Qayruvon shahri, 299
Qaysariya, 299
Qaysuma, 349
Qal'ai Dabus (Dabusiya), 305, 394
Qal'ai Mug' (Mug' qal'asi, Mug' qasri), 61, 62, 86
Qal'ayi Bist, 422
Qang', 31, 43, 44

@tarixchi_kutubxonasiga

Qandahor, 289, 299
Qanqa, 43, 44
Qannuj, 368
Qaramuren, 12
Qarinayn, 310
Qariyat ul-Hadisa, 396
Qarmasin, 316, 345
Qarshi, 22, 413
Qasr al-Baxili, 267
Qasr al-Malx, 304
Qasr an-Najr, 304
Qasri Alqam, 305
Qasri Bas, 307
Qasri Hut, 310
Qasri Shirin, 303
Qasru-l-Lusus, 389
Qatrabbul mahallasi, 277
Qahrabon kutubxonasi, 297
Qashg'ar, 267
Qashqadaryo, 32, 47, 61, 325
Qashqadaryo havzasi, 32
Qashqar, 24, 25, 26
Qiz dengizi, 388
Qizil dengiz, 298
Qizilqum sahrosi, 387
Qizilsuv, 308
Qiyn, 298
Qiqon, 353
Qilo' ud-Daylam, 390
Qinnasrin, 299, 348
Qirg'iziston, 28
Qirqiz, 125, 126, 127, 128, 133
Qitan, 134
Qozog'iston, 28, 71, 108, 306, 307, 423
Qora al-Kanisa, 299
Qora Buluq, 143
Qora dengiz, 12, 18, 48, 300, 316
Qora Yo'taliq, 143
Qora ko'l, 127
Qorabalg'asun, 148, 149, 150
Qoraboyi, 307
Qoradaryo, 12, 15, 305
Qoraqum, 113, 142, 387
Qoraqurum, 244
Qoratog', 185
Qorovulxona qishlog'i, 310
Qohira, 208, 295, 296, 297, 386
Qoshon, 389
Quba (Quva), 309
Qubal, 306, 308
Qubo (Quva), 274, 395
Quvodiyon, 271
Quddus, 240, 243, 281, 370
Quyi No'shajon, 307
Qulzum, 299
Qulzum dengizi, 298, 299
Qulim, 142, 340
Qulon, 307
Qum, 269, 369
Qum qishlog'i, 269
Qumis, 290, 299, 304, 312, 316, 340, 352, 389, 390
Qumm, 290, 389
Qumul, 28
Qunduz, 12, 55
Quni, 289
Qunstantiniya, 373
Qunt shahri, 329
Qus, 299
Qust, 354
Qustana, 304
Qustantiniya (Konstantina), 300, 365
Qo'histon, 313
Qo'chqorboshi, 396
Quchu, 232, 395
Qo'shuyqo'rg'on, 309
G'az mavzesi, 59, 60
G'azza, 299
G'azna (G'aznin), 256, 313, 353, 374, 388, 423, 424
G'allaorol, 306
G'aluk kenti, 308
G'arb dengizi, 299, 300
G'arbiy Yettisuv, 31
G'arbiy Sao (Ishtixon), 36, 41, 42
G'archiston, 313, 315, 353, 392, 423
G'ijduvon, 414
G'uzlar yeri, 387
G'o'r, 311, 313, 423
Habashiston, 279, 299, 367
Havzon, 310
Haddoda, 304
Hazramavt, 298
Halab, 297, 299
Halovard, 393
Hamavaron, 311
Hamadon, 276, 281, 304, 316, 340, 351, 366, 369, 389
Hamo shahri, 279
Hamro, 304
Haramon, 370
Harrakon rustoqi, 304
Harura kenti, 285
Haftkand, 304

@tarixchi_kutubxonasiga

Hicor shahri, 311
Hilmand daryosi, 313
Hind (Hindiston), 11, 46, 49, 190, 255, 256, 277, 283, 292, 297, 298, 299, 307, 310, 314, 316, 331, 354, 363, 364, 368, 369, 374, 423
Hira, 342, 344, 372
Hiraqla, 300
Hirot, 208, 292, 299, 303, 313, 315, 331, 332, 353, 391, 418, 422, 423
Hisn Umm Ja'far, 305
Hisor, 311, 314, 405, 415, 418
Hisor vodiysi, 311
Homiyon, 256
Hoshimiya qasri, 284
Hubara, 354
Hulbuk, 393
Hulvon, 316
Ho'ms, 299
Hurmuz, 345, 358, 359
Hurf, 344
Husaynobod, 304
Husm, 390

## ETNIK ATAMALAR KO'RSATKICHI

Abbosiylar, 274, 277, 283, 284, 285, 337, 339, 343, 345, 349, 360, 412
Abdallar, 10
Avar turklari, 9
Avarlar, 6, 9, 10, 11, 12, 13, 16, 17, 18, 19
Agariy-ismoiliylar, 258
Adlonlar, 300
Ajamlar, 369
Azkishilar, 309
Aykazyan, 259
Alanlar, 16
Arablar, 4, 5, 9, 11, 15, 17, 21, 28, 38, 39, 40, 42, 43, 45, 46, 48, 51, 52, 53, 54, 55, 62, 63, 64, 66, 67, 69, 70, 71, 72, 73, 74, 75, 76, 85, 86, 87, 89, 91, 106, 107, 116, 168, 208, 235, 236, 237, 238, 240, 253, 255, 259, 261, 262, 263, 265, 268, 269, 272, 273, 274, 281, 282, 283, 284, 285, 286, 296, 303, 304, 308, 309, 310, 314, 320, 324, 325, 326, 327, 328, 329, 330, 331, 332, 342, 345, 346, 351, 352, 356, 357, 359, 364, 367, 368, 369, 370, 371, 372, 373, 374, 377, 382, 383, 384, 397, 399, 403, 404, 405, 406, 407, 408, 412, 413, 414, 428
Armanlar, 2, 4, 12, 13, 59, 107, 235, 236, 237, 238, 239, 240, 241, 242, 243, 244, 245, 246, 247, 248, 249, 250, 251, 252, 253, 255, 258, 259
Arxontlar, 20
Arsruni urug'i, 236, 237
Askazyan, 259
Afg'onlar, 310
Afrig'iylar, 4, 373, 385
Axomaniylar, 78, 249, 259
Ashina turklari, 48
Badaviylar, 367
Bajanoglar (pecheneglar), 387
Baqriy, 2
Banu Qusay, 371
Banu Tamim, 368, 371
Banu Shaybon, 371
Barbarlar, 299
Barselt (barsillar), 12
Baxtariylar, 14
Baxshi, 208, 224
Bulg'orlar, 18, 19
Burjon, 300
Varvarlar, 8, 9, 11, 14, 15
Varxaniylar, 12
Vizantiyaliklar, 2, 3, 7, 15, 16, 281
Vey sulolasi, 3, 22, 23, 24, 26, 27
G'aznaviylar, 4, 5, 255, 374, 419, 420, 421, 423, 427
Gepidlar, 10, 18
German qabilasi, 10
Gotlar, 3, 7, 8, 10
Greklar, 281
G'uzlar, 23, 309, 310, 314, 315, 330, 387, 393, 394, 396
Gunnlar, 18
Dashi (arablar), 46
Jamuk, 32, 62
Jujan, 9
Ismoiliylar, 253, 255, 258
Ishxanlar, 246
Kangyuyliklar, 34
Karluqlar, 143
Kidaritlar, 48, 53
Kimoklar, 307, 309
Kinon urug'i, 371
Kotzagir qabilasi, 13
Ko'k turk, 107, 108, 116, 117, 124, 129, 135, 138, 145, 148, 151, 152, 153, 155, 157, 159
Kurt eli, 155

@tarixchi_kutubxonasiga

Kushonlar, 250, 251, 252, 253, 256, 303, 305
Qang'lilar, 43
Qarluqlar, 127, 133, 134, 143, 144, 147, 307, 309, 310
Qarluqlar, 127, 144, 147, 303, 344, 346
Qiptiylar, 370
Qipchoqlar, 141, 309
Qirg'izlar, 143, 151, 309
Qirqiz, 125, 126, 127, 128, 133
Qitan, 113, 124, 125, 126, 128, 134
Qora xalq, 134, 137, 142, 154, 159
Qoraqo'yunlilar, 248
Qoraxoniylar, 4, 50, 255, 257, 420
Qurayshiylar, 369, 370, 371
Quriqan, 124, 125
Qutrig'ur, 7
Mag'riblik, 301
Mamikonlar, 246
Massagetlar, 6, 7, 8
Ma'jujlar, 5, 291, 292, 293, 317, 318, 320
Ma'muniy, 4, 427
Melxedlar, 258
Mochinliklar, 208
Mug', 4, 34, 46, 61, 62, 63, 64, 68, 69, 71, 79, 80, 83, 85, 86, 87, 90, 92, 95, 99, 100, 101, 104, 284
Mug'lar, 277, 350
Mo'g'ullar, 9, 63, 168, 241, 242, 243, 244, 245, 246, 247, 306
Mutayyabinlar, 370
Nabatiylar, 367
Nasroniy turgolar, 18
Osiyo skiflari, 259
Osuriylar, 367
Rumlar, 10, 14, 17, 21, 281, 283, 285
Sabirlar, 12
Saqif qabilasi, 343
Saqoliblar, 300
Saljuq turklari, 6, 235, 239, 247, 257
Saljuqiylar, 4, 239, 255, 257, 258, 259, 260, 420, 421, 423, 424, 425
Serlar, 15
Sir, 29
Skiflar, 6, 10, 15
Slavlar, 18
Slavyanlar, 9, 300, 316
Somoniylar, 4, 5, 256, 261, 308, 327, 343, 351, 352, 355, 399, 400, 408, 409, 420
Sosoniylar, 4, 16, 17, 46, 48, 74, 237, 240, 250, 251, 252, 253, 279, 280, 281, 303, 312, 358
So'g'daq, 127
Sugdiylar, 2, 4, 32, 33, 34, 38, 39, 40, 43, 46, 48, 51, 54, 59, 61, 62, 63, 64, 65, 67, 68, 71, 75, 78, 83, 85, 87, 89, 92, 95, 102, 105, 106, 262, 266, 267, 268, 269, 271, 273, 378
Sug'diylar, 262, 266, 268, 269
Suryoniylar, 366, 367
Syanbilar, 26
Tabg'ach, 11, 113, 114, 115, 123, 124, 126, 128, 132, 133, 134, 137
Tazik, 147
Tang sulolasi, 3, 22, 26, 27, 28, 29, 30, 31
Tardush, 115, 125, 135, 143, 145, 147
Tarniax, 13
Tarxanlar, 122
Tatabi, 124, 125, 126, 128, 134, 147
Tatar, 143, 300
Tetallar, 250, 252, 255
Tojiklar, 38, 74, 75, 80, 99, 255
Totchiklar, 255
Tohiriylar, 287, 312, 351, 352
To'g'uzg'uzlar, 309, 316, 344, 346
Tukyue Xosa (Xazar turklari), 48
To'qqizg'uzlar, 113, 122, 125, 127, 133, 134, 137, 141, 143, 147, 148, 293
To'quz o'g'uz, 113, 127, 133, 141, 143, 147
To'quztatar, 133, 142, 144
To'lo's, 135
Tuput, 128, 157
Turgas, 127, 144
Turk xalqi, 13, 113, 114, 116, 123, 125, 126, 133, 137, 146
Turkashlar, 308, 309
Turkiylar, 6, 7, 9, 11, 13, 18, 113, 114, 116, 123, 124, 125, 126, 133, 134, 137, 144, 146, 387
Turklar, 6, 9, 10, 11, 12, 13, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 25, 26, 27, 32, 33, 37, 40, 42, 59, 60, 69, 71, 74, 101, 102, 107, 160, 168, 256, 257, 259, 262, 266, 267, 268, 270, 271, 272, 273, 275, 276, 283, 284, 285, 286, 293, 300, 302, 303, 304, 306, 307, 308, 309, 310, 311, 312, 314, 315, 317, 322, 325, 329, 330, 334, 335, 337, 346, 354, 365, 368, 389, 391, 393, 395, 396, 400, 407, 410, 413, 416, 417
Turkmanlar, 259, 310, 387, 388, 421, 424
Tchenlar, 253
Uar, 12, 13
O'g'uzlar, 11, 113, 114, 116, 126, 127, 128, 133, 134, 137, 142, 144, 181, 182, 183, 184, 185, 186, 187, 188, 189, 190, 191, 192, 259, 380

@tarixchi_kutubxonasiga

O'g'ur qabilasi, 12
O'zbeklar, 2, 21, 23, 24, 25, 26, 28, 64, 79, 80, 81, 87, 99, 108, 138, 261, 297, 302, 307, 315, 324, 355, 356, 386, 398
Uyg'urlar, 107, 134, 138, 148, 151, 169, 192, 225, 309
Umaviylar, 262, 263, 267, 282, 283, 284, 285, 332, 333, 334, 336, 337, 338, 339, 340, 360, 400, 402, 410, 412
O'no'g'urlar, 12
Utrig'ur, 7
Uch qarluq, 142
Forslar, 6, 7, 8, 9, 10, 13, 17, 18, 19, 20, 38, 39, 43, 58, 59, 63, 64, 70, 73, 74, 75, 80, 89, 238, 249, 250, 251, 252, 253, 259, 261, 265, 271, 279, 280, 281, 287, 301, 302, 309, 324, 345, 357, 359, 363, 365, 366, 367, 368, 377, 378, 379, 380, 382, 383, 384, 397, 420
Frakiyalik, 8
Fransuz, 73, 301
Xazar turklari, 48, 283, 337
Xazarlar, 6, 17, 19, 259, 285, 302, 303, 316, 317, 328, 337, 387, 393
Xalaj, 307, 310
Xalajlar, 309, 310
Xan sulolasi, 15, 31, 33, 41
Xionitlar, 53
Xisraviylar, 363
Xitoylar, 9, 15, 26, 30, 36, 37, 41, 43, 48, 70, 253, 254, 255
Xorazmiylar, 2, 8, 314, 326, 354, 375, 376, 379, 380, 381, 382, 384, 385, 388
Xorazmshohlar, 4
Xu xalqlari, 40, 48
Xusravlar, 312, 352, 376
Hindlar, 14, 368
Hoshimiylar, 337, 338, 340, 342, 346
Huloguiylar, 245
Hunnlar, 6, 7, 8, 9, 10, 12, 13, 16, 17, 18, 19, 26, 31, 37
Chamuk, 32
Chigillar, 309
Chinlar, 87, 208, 253
Eroniylar, 38, 39, 42, 43, 53, 54, 55, 75, 208, 251, 286, 365, 371, 375, 378, 379, 385, 387, 420
Eftalitlar, 4, 11, 53, 54, 250, 251, 253, 308
Yunonlar, 17, 18, 280, 281, 282, 283, 284, 285, 365
Ya'jujlar, 4, 292, 300, 317, 318, 320, 376, 377

@tarixchi_kutubxonasiga

## MUNDARIJA

So'zboshi ... 3
**VIZANTIYA MANBALARI** ... 6
Prokopiy Kesariyalik va uning «Gotlar bilan urush» asari ... 7
Prokopiy Kesariyalik. «Gotlar bilan urush»dan ... 8
Feofilakt Simokatta (VII asr) va uning «tarix» asari ... 9
Feofilakt Simokatta. «Tarix»dan ... 9
Feofan tavbakor va uning «Xronografiya» asari ... 15
Feofan tavbakor va uning «Xronografiya» asaridan ... 16
Patriarx Nikifor va uning «Breviariy» asari ... 19
Patriarx Nikifor va uning «Breviariy» asaridan ... 20
**XITOY MANBALARI** ... 22
Umumiy ma'lumot ... 22
«Veyshu» («Vey sulolasi tarixi») ... 23
«Veyshu» («Vey sulolasi tarixi»)dan ... 24
«Suyshu» («Suy sulolasi tarixi»)dan ... 25
«Beyshi» («Shimoliy sulolalar tarixi») ... 26
«Beyshi» («Shimoliy sulolalar tarixi»)dan ... 26
«Shin tangshu» («Tang sulolasining yangi tarixi»)dagi Farg'onaga oid ma'lumotlar ... 27
«Shin tangshu» («Tang sulolasining yangi tarixi»)dan ... 28
«Bey-shi» («Shimoliy sulolalar tarixi»)dan ... 31
«Tan-shu» («Tan sulolasi tarixi»)dan ... 36
Arab istilochilariga qarshi Xitoydan ko'mak so'rab mahalliy hukmdorliklardan imperatorlarga yuborilgan xatlar ... 51
Samarqand hukmdori G'urakning (710–738) maktubi ... 51
Buxoro hukmdori Tug'shoda (695–720)ning maktubi ... 52
**BAQTRIY TILIDAGI HUJJATLAR** ... 53
Umumiy ma'lumot ... 53
Baqtriy tilidagi hujjatlardan tarjima-lavhalar (ingliz tilidan Sherzod Ziyoyev, G'aybulla Boboyorov, Andrey Kubatin tarjimalari; izohlar muallifi – G'aybulla Boboyorov) ... 55
**SUG'D TILIDAGI MANBALAR** ... 61
Umumiy ma'lumot (so'zboshi, tarjima va izohlar mualliflari: Mirsodiq Ishoqov, G'aybulla Boboyorov, Andrey Kubatin) ... 61
A-9 (Qo'shni hokimliklardagi ahvol to'g'risida Devashtichga uning ayg'oqchisi yozgan maktub) haqida ... 65
A-9 (Qo'shni hokimliklardagi ahvol to'g'risida Devashtichga uning ayg'oqchisi yozgan maktub matni) ... 66
A-14 (Sug'd elchisi Fatufarnning Chochdan jo'natgan maktubi) ... 68

@tarixchi_kutubxonasiga

V-4 (Tegirmon ijarasi haqidagi hujjat) ..... 76
V-9 (Rust hokimi Afshunning xati) ..... 79
**Tilxatlar** ..... 80
V-3 (Farmondor Avatning charm olganligi to'g'risidagi tilxati) ..... 81
A-10 (Hovuz boshlig'i Axushmarikning teri olganligi haqidagi tilxati) ..... 82
A-7 (Dipag'dan Anutchga tilxat) ..... 83
NOV 2. ..... 83
V-10 (Noma'lum shaxsdan Devashtichga maktub) ..... 84
**Xaxsar hokimi Afshunga maktublar** ..... 85
V-17 (Panch hokimi Devashtichning Xaxsar hokimi Afshunga maktubi) ..... 86
V-18 (Devashtichning Afshunga ikkinchi maktubi) ..... 88
V-16 (Revakdan Afshunga maktub) ..... 90
V-14 (Afshunga Revakdan maktub) ..... 90
**Farmondor Avatga jo'natilgan maktublar** ..... 91
A-18. (Devashtichning Farmondor Avatga farmonlari) ..... 91
A-3 ..... 93
A-6 (Farmondor Avatga muallifi noma'lum maktub)
Farmondor Avatga uning quli Xamirdan ..... 94
A-1 (Farmondor Avatning xizmatkori Apanakdan maktub) ..... 94
**Farmondor Avatga xizmatkori Aspadakdan murojaatnomalar** ..... 95
B-13. ..... 95
B-11 ..... 96
B-15. ..... 97
B-19. ..... 97
**Farmondorga arspan (qishloq oqsoqoli) Axufarndan maktub** ..... 98
B-18. ..... 98
Yoqut oldi-berdisi to'g'risidagi hujjat. V-9. ..... 99
V-15 (Partan hukmdori Revoxshyondan Vurzvad hukmdoriga
murojaatnoma) ..... 99
A-15 (Hukmdor «yordamchisiga» murojaatnoma) ..... 100
A-17 (Devashtichga yoki vassallaridan biriga manzili
ko'rsatilmagan maktub) ..... 101
NOV 5. ..... 101
A-19. ..... 102
B-7. (Kshtut hukmdori Vishtamga Martushkat hokimidan xat) ..... 102
B-16 (Krut qishlog'i hokimiga, uning jiyanidan maktub) ..... 103
B-17 (Muallifi va manzili noma'lum maktub) ..... 104
NOV 6. (Moliyaviy hujjat) ..... 104
A-16. ..... 105
A-13. ..... 106
QADIMGI TURKIY BITIKLAR ..... 107
Umumiy ma'lumot (turkiy bitiklar transkripsiyasi va
hozirgi o'zbek tiliga tabdili Qosimjon Sodiqov tomonidan
amalga oshirilgan) ..... 107
**Ko'k turk yozuvidagi bitiklar** ..... 108
To'nyuquq bitigi ..... 109
Kultegin bitigi ..... 116

@tarixchi_kutubxonasiga

Bilga xoqon bitigi ..... 129
O'ngin bitigi ..... 135
Mo'yun-cho'r bitigi ..... 138
Kuli-cho'r bitigi ..... 145
Qorabalg'asun bitiklari ..... 148
Suji bitigi ..... 151
Yenisey bitiklari ..... 152
Ko'k turk yozuvidagi «Irq bitigi» ..... 159
Matn transkripsiyasi ..... 160
**Uyg'ur yozuvida bitilgan asarlar** ..... 168
«O'g'uz xoqon» dostoni ..... 169
Matn transkripsiyasi ..... 169
«Xuastuanivt»ning eski turkcha matni ..... 192
«Oltun tusli yorug'»dan ..... 201
Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan ..... 208
**Uyg'ur yozuvida bitilgan rasmiy hujjatlar** ..... 218
Turfondan topilgan rasmiy hujjatlar ..... 218
**ARMAN MANBALARI** ..... 235
Arman mualliflari va ularning asarlari haqida (A. Ahmedov) ..... 235
Manbalardan lavhalar (ruschadan A. Ahmedov tarjimasi) ..... 250
**Sosoniylar sulolasi hukm surgan davr** ..... 250
Tovma Arsruni. «Arsrunilar xonadoni tarixi»dan ..... 250
Buyuk Vardan. «Umumiy tarix»dan ..... 251
Movses Kagankatvatsi. «Ag'vank tarixi»dan ..... 251
Stepanos Taronetsi Asoxik. «Umumiy tarix»dan ..... 252
Ioannes Drasxanakertsi. «Armaniston tarixi»dan ..... 252
Xachatur Jugayetsi. «Eron tarixi»dan ..... 253
**Arab xalifaligi davri** ..... 253
Gevond. «Xalifalar tarixi»dan ..... 253
Stepanos Taronetsi Asoxik. «Umumiy tarix»dan ..... 255
Buyuk Vardan. «Umumiy tarix»dan ..... 255
**Saljuq turklari saltanati davri** ..... 257
«Vardapet Aristakes Lastiversi hikoyasi»dan ..... 257
Buyuk Vardan «Umumiy tarix»dan ..... 257
Smbat Sparapet. «Solnoma»dan ..... 258
Stepanos Orbelyan. «Sisakan o'lkasi tarixi»dan ..... 246
Xachatur Jugayetsi. «Eron tarixi»dan ..... 259
**ARAB TILIDAGI MANBALAR** ..... 261
Muhammad ibn Jarir at-Tabariy va uning «Tarix ar-rusul va-l-muluk» asari (O. Bo'riyev, G'. Karimov) ..... 261
Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. «Tarix ar-rusul va-l-muluk»dan (ruscha nashrdan o'zbek tiliga saylanma tarjima O. Bo'riyev, G'. Karimovniki) ..... 262

@tarixchi_kutubxonasiga

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy va uning «Kitob at-tarix» hamda «Kitob surat al-arz» asarlari (A. Ahmedov) ..... 277
Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. «Kitob at-tarix»dan (rus tilidan A. Ahmedov tarjimasi) ..... 279
Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. «Kitob surat al-arz»dan (arab tilidan A. Ahmedov tarjimasi) ..... 289
Ahmad al-Farg'oniy va uning asarlari (A. Ahmedov) ..... 295
Ahmad al-Farg'oniy. «Kitob fi usul ilm an-nujum»dan (rus tilidan A. Ahmedov tarjimasi) ..... 298
Ibn Xurdodbeh va «Kitob al-masolik va-l-mamolik» asari (A. Ahmedov) ..... 300
Ibn Xurdodbeh. «Kitob al-masolik va-l-mamolik»dan (ruschadan o'zbek tiliga A. Ahmedov tarjimasi) ..... 302
Al-Balazuriy va uning «Futuh al-buldon» asari (O. Bo'riyev) ..... 324
Al-Balazuriy. «Futuh al-buldon»dan (ruschadan o'zbek tiliga O. Bo'riyev tarjimasi) ..... 324
Al-Ya'qubiy ibn Vozih va uning «Tarix» asari (A. Ahmedov) ..... 330
Al-Ya'qubiy ibn Vozih. «Tarix»dan (arab tilidan A. Ahmedov tarjimasi) ..... 331
Ibn al-Faqih va uning «Axbor al-buldon» asari (A. Ahmedov) ..... 351
Ibn al-Faqih. «Axbor al-buldon»dan (rus tilidan A. Ahmedov tarjimasi) ..... 352
Abu Abdulloh al-Xorazmiy va uning «Mafotih al-ulum» asari (R. Bahodirov) ..... 354
Abu Abdulloh al-Xorazmiy. «Mafotih al-ulum»dan (arab tilidan R. Bahodirov tarjimasi) ..... 356
Abu Rayhon Beruniy va uning asarlari (A. Ahmedov, I. Elmurodov) ..... 373
Abu Rayhon Beruniy. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»dan (arab tilidan A. Rasulov tarjimasi. Tarjima lavhaga A. Ahmedov tomonidan ayrim tahririy o'zgartishlar kiritilgan) ..... 375
Abu Rayhon Beruniy. «Geodeziya» (A. Ahmedov) ..... 386
Abu Rayhon Beruniy. «Geodeziya»dan (arab tilidan A. Ahmedov tarjimasi) ..... 386
Abu Rayhon Beruniy. «Qonuni Mas'udiy» (A. Ahmedov) ..... 388
Abu Rayhon Beruniy. «Qonuni Mas'udiy»dan (arabchadan A. Rasulov tarjimasi) ..... 389

**FORS TILIDAGI MANBALAR** ..... 397

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy va uning «Buxoro tarixi» asari (A. O'rinboyev) ..... 397
Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy. «Buxoro tarixi»dan ) Fors tilidan A. Rasulov, A. O'rinboyev tarjimasi ..... 398
Abulfazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy va uning «Tarixi Mas'udiy» asari (N. Toshev) ..... 419
Abulfazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy. «Tarixi Mas'udiy»dan ..... 420
Foydalanilgan adabiyotlar ..... 428
Ko'rsatkichlar ..... 435

@tarixchi_kutubxonasiga

**O'zbekiston tarixi. [Matn]** III jild. O'zbekiston tarixi va
O'17 manbalari V–XI asrlar / Mas'ul muharrirlar: A. Ahmedov,
O. Bo'riyev. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2023. – 472 b.

ISBN 978-9943-8054-1-5

**UO'K 94(575.1)"V/XI"**
**KBK 63.3(5O')"V/XI"**

*Ilmiy-ommabop nashr*

# O'ZBEKISTON TARIXI

## Xrestomatiya

III jild

V–XI asrlar

(O'zbekiston tarixi va manbalari)

Muharrir *Shahlo Bekmazarova*
Rassom-dizayner *Begzod Zufarov*
Texnik muharrir *Lina Xijova*
Kichik muharrir *Matluba Salimova*
Musahhih *Durdona G'aybullayeva*
Kompyuterda tayyorlovchi *Feruza Xasanova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.
Bosishga 2023-yil 24-avgustda ruxsat etildi.
Ofset qog'ozi. Bichimi 70×100$^{1}/_{16}$.
«Palatino Linotype» garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 38,35+0,65 vkl. Nashr tabog'i 38,23+0,75 vkl.
Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 2668.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-84-20, 244-87-55
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

«Colorpack» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yangishahar ko'chasi, 1-A

@tarixchi_kutubxonasiga

«O‘ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-8054-1-5